X.T. MAMATOV

KRIMINOLOGIYA VA KRIMINALISTIKA

O‘QUV QO‘LLANMA



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 95 yilligiga bag‘ishlanadi

X.T. MAMATOV

KRIMINOLOGIYA VA KRIMINALISTIKA O‘QUV QO‘LLANMA

SAMARQAND – 2026

UO‘K: 343.01:343.98(075)
M 23
KBK: 67.99(2)8ya73

X.T.Mamatov.
Kriminologiya va kriminalistika [Matn]: O‘quv qo‘llanma / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “BUNYODKOR AVLOD MATBUOTI” MChJ. nashriyoti, 2026 – 534 bet.

Mazkur qo‘llanmada «Kriminologiya va kriminalistika» fanining eng muhim mavzulari yoritilgan bo‘lib, unda jinoyatchilik, uning sabablari, jinoyatchining shaxsi, jinoyatchilikning oldini olish yo‘llari, vositalari haqida atroflicha ma’lumotlar berilgan.

Taqrizchilar:
A.A.Allanova – Toshkent davlat yuridik universiteti “Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish” kafedrasi professori v.b., PhD;
M.Z.Muqimova – SamDU yuridik fakulteti «Jinoyat huquqiy fanlar» kafedrasi professori, yuridik fanlar nomzodi.

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2025-yil 29-senabrdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (2-sonli majlis bayoni, Ro‘xatga olish raqami 293-29/09).

ISBN 978-9910-5268-6-2

© Xayrullo Mamatov, SamISI. 2026 y.
©“BUNYODKOR AVLOD MATBUOTI” MChJ nashryoti. 2026 y.

KIRISH

Mazkur o‘quv qo‘llanmaning kirish qismida fanning dolzarbligi asoslab berilgan. «Kriminologiya va kriminalistika» o‘quv qo‘llanmasi jinoyatchilikka qarshi kurashish, uning asosiy sabablarini aniqlash hamda dalillarni ilmiy asosda o‘rganish jarayonida muhim manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu qo‘llanma kriminologiyaning nazariy asoslari va kriminalistikaning amaliy uslublarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, sud-tergov organlari mutaxassislari, shuningdek nafaqat yuridik ta’lim muassasalari balki, noyuridik ta’lim muassasalari talabalari uchun keng foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, ushbu qo‘llanmada jinoyatchilikning kelib chiqish omillari, uning xilma-xil ko‘rinishlari va tahlil metodlari, shuningdek jinoyat sodir etilgan joyni ko‘zdan kechirish, dalillarni to‘plash, ularni saqlash va ilmiy asosda tahlil qilish kabi kriminalistik jarayonlar batafsil bayon etilgan. Bu esa o‘quvchi-talabalarda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi.

Shu bois, «Kriminologiya va kriminalistika» nomli o‘quv qo‘llanmasi huquq sohasidagi ta’lim va amaliy faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydigan, ilmiy asoslangan va zamonaviy talablarga javob beradigan muhim axborot manbai sifatida alohida ahamiyatga ega.

I BOB. KRIMINOLOGIYA TUSHUNCHASI, PREDMETI VA TIZIMI

1.1. Kriminologiya tushunchasi va predmeti.

1.2. Kriminologiya tizimi.

1.3. Kriminologiy1a tizimi va maqsadi.

1.4. Kriminologiyaning huquqiy fanlar bilan aloqadorligi.

1.5. Kriminologik fanlar metodologiyasini nazariy jihatlarini tahlil etish.

1.1. Kriminologiya tushunchasi va predmeti.

Kriminologiya tushunchasi

Kriminologiya – bu jinoyatchilikning kelib chiqish omillari, sharoitlari, jinoyatchi shaxsining xususiyatlari va xatti-harakatlarini hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish yo‘llarini o‘rganuvchi ijtimoiy-huquqiy fan hisoblanadi. Ushbu fan jinoyatchilik sabablarini tahlil qilib, uni kamaytirish hamda jamiyatda uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish choralari ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

Kriminologiya predmeti

Kriminologiya fanining predmeti – bu jinoyatchilik holati, uning kelib chiqish omillari, jinoyatchi shaxsining xatti-harakati hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish yo‘llari va choralarini o‘rganishdan iboratdir.

Kriminologiyaning predmeti quyidagilarni o‘z ichiqa oladi:

1. Jinoyatchilikning o‘zi:

– bunda jinoyatchilikning ko‘lami, tarkibi, dinamikasi va tuzilishi o‘rganiladi.

2. Jinoyatchilikning sabablari va uni yuzaga keltiruvchi sharoitlar:

– jinoyatchilikning paydo bo‘lishi hamda kengayishiga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, psixologik va boshqa omillar chuqur o‘rganiladi.

3. Jinoyatchi shaxsi:

– bunda jinoyatchilarning shaxsiy xususiyatlari, xulq-atvori, motivlari va boshqalar o‘rganiladi.

4. Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish:

– ushbu hodisani bartaraf etish hamda uning qayta yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va boshqa turdagi choralar tahlil etiladi.

Kriminologiya fanining asosiy vazifalaridan biri – jinoyatchilikning kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularga ta’sir ko‘rsatish, jinoyatchi shaxsining xulq-atvorini chuqur o‘rganib, uni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish hamda jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishning eng samarali usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Falsafa fanida bilish predmeti deganda – ma’lum bir sharoitda, aniq maqsad va nuqtayi nazardan o‘rganilayotgan obyektlarning inson tajribasida aks etgan, amaliy faoliyatida ifodalanadigan jihatlari, xususiyatlari hamda o‘zaro bog‘liqliklari tushuniladi.

Har bir fan shakllanish jarayoniga ko‘ra o‘zining alohida predmetiga ega bo‘ladi. Kriminologiya fanining predmeti esa – oddiy yoki umumiy xulq-atvor emas, balki o‘ziga xos, maxsus turdagi xulq-atvordir. Bu xulq-atvor jinoyiy mazmunga ega bo‘lgani uchun u «jinoyiy xulq-atvor» deb ataladi.

Bunday harakat, eng avvalo jinoyat qonunida belgilangan me’yorlarning buzilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Aynan shu jihat kriminologiyani inson xulq-atvorini tahlil qiluvchi boshqa tabiiy va ijtimoiy fanlardan ajratib turadi. Shu sababli jinoyiy xulq-atvor bevosita jinoyat tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq, chunki aynan jinoyat sodir etilgandagina ma’lum bir xulq jinoiy deb baholanadi. Biroq zamonaviy kriminologiya e’tiborini alohida jinoyatlarga emas, balki ularning majmui – jinoyatchilik hodisasiga qaratadi. Kriminologik nuqtayi nazardan esa jinoyat – bu jinoyatchilikning individuallashtirilgan, ya’ni aniq shaklda ifoda topgan ko‘rinishi hisoblanadi.

Shu sababli jinoyatchilik oddiygina bir nechta jinoyatlarning jamlanmasi emas, balki ularning har biridan farq qiluvchi, yaxlit, o‘zaro bog‘liq va murakkab ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi.

Shu tariqa, jinoyatchilik – bu keng tarqalgan ijtimoiy hodisa bo‘lib, u insonlar va jamiyat manfaatlariga jiddiy xavf tug‘diruvchi, shuning uchun ham amaldagi jinoyat qonunchiligiga ko‘ra jinoyat sifatida tan olingan ijtimoiy mazmundagi xatti-harakatlar (harakat yoki harakatsizlik) majmuasidir.

Shuni alohida qayd etish lozimki, jinoyatchilik alohida jinoyatdan nafaqat hajmi va shakli jihatidan, balki bir qator miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari – avvalo, uning holati, dinamikasi va tarkibiy tuzilmasi bilan ham farqlanadi. Jinoyatchilikning ushbu tomonlarini tahlil qilish uning kelib chiqish sabablari hamda shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga muvofiq, kriminologiya fanining ikkinchi mustaqil tarkibiy elementi sifatida jinoyatchilikning sabablari, ya’ni jinoyatlarni yuzaga keltiruvchi yoki ularning sodir bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar e’tirof etiladi. Jinoyatchilik tizimida ham, sababiyat tizimida ham jinoyat sodir etgan shaxs markaziy o‘rin tutadi.

Biroq jinoyat huquqi fanidan farqli ravishda, kriminologiyada shaxsni jinoyat subyekti sifatida o‘rganish uchun faqat qonunda belgilangan mezonlar – ya’ni aqli raso bo‘lishi, jismoniy shaxs sifatida jinoyat-huquqiy yoshga yetganligi haqidagi ma’lumotlar bilan cheklanib bo‘lmaydi. Kriminologik tadqiqotlarda jinoyat subyekti to‘g‘risida qo‘shimcha ma’lumotlar, jumladan uning demografik, ijtimoiy-axloqiy, psixologik, huquqiy va boshqa xususiyatlari ham tahlil qilinadi.

Shu bois, kriminologiya fanining uchinchi asosiy tarkibiy qismi – bu jinoyatchi, ya’ni jinoyat sodir etgan shaxsning o‘zi hisoblanadi.

Biroq kriminologiyaning asosiy maqsadi va yo‘nalishini inobatga olmasdan turib, uning predmetini to‘liq tushunish mumkin emas. Kriminologiya fani jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari hamda jinoyat sodir etuvchi shaxsning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilib,

jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish (profilaktika) bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Shu boisdan, jinoyatchilikning oldini olish masalasi kriminologiya fanining to‘rtinchi asosiy tarkibiy qismi sifatida tan olinadi.

Garchi bu element ketma-ketlikda «oxirgi» o‘rinda tursa-da, amaliy nuqtayi nazardan u kriminologiya predmetining eng muhim va mazmunan markaziy qismi hisoblanadi. Tadqiqot doirasiga ko‘ra, jinoyatchilikning oldini olish masalalari kriminologiya fanida eng keng qamrovli yo‘nalishlardan biri bo‘lishi zarur. Shu sababli, ayrim olimlar bu sohani hattoki mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydilar.

Amaliy nuqtayi nazardan qaralganda, jinoyatchilikning oldini olish jarayonida o‘rganilishi zarur bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, axloqiy va boshqa turdagi jarayon hamda hodisalar miqyosi kriminologiya fanining predmet doirasidan ancha kengroqdir.

1.2. Kriminologiya tizimi

MDH mamlakatlari doirasidagi adabiyotlarda kriminologiya, odatda ikki asosiy bo‘limga – umumiy va maxsus qismlarga ajratilgan holda o‘rganiladi.

Umumiy qism quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: kriminologiya fanining mazmuni, predmeti va tuzilishi; mamlakatda kriminologiya rivojlanishining holati va uning oldida turgan asosiy vazifalar; kriminologik tadqiqot uslublari; jinoyatchilik hodisasi va uning kelib chiqish omillari; jinoyat sodir etuvchi shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari; muayyan jinoyatning shakllanish hamda amalga oshish mexanizmi; jabrlanuvchi shaxsning ahamiyati; jinoyatchilikning oldini olish masalalari, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashish jarayonlarini prognozlash va rejalashtirish.

Kriminologiyaning maxsus qismi quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

– retsidiv (takroriy) jinoyatchilikning kriminologik tavsifi va uni oldini olish choralari;

– voyaga yetmaganlar o‘rtasida uchraydigan jinoyatchilik;

– kasbiy hamda uyushgan jinoyatchilik turlari;

– ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan jinoyatlarning kriminologik tahlili va ularni bartaraf etish yo‘llari;

– ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar;

– zo‘ravonlik ishlatish orqali amalga oshiriladigan jinoyatlar;

– ta’magirlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar;

– ichkilikbozlik va alkogolizm oqibatida sodir etiladigan jinoyatlar;

– giyohvandlik vositalariga aloqador jinoyatlar;

– aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish sohasida sodir etiladigan jinoyatlar;

– mansab vakolatlarini suiiste’mol qilish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar;

– axborot va kompyuter texnologiyalari bilan bog‘liq jinoyatchilik va shu kabi boshqa turlar.

Shuni ta’kidlash joizki, muayyan masalalar dolzarb ahamiyat kasb etganda va ular bo‘yicha yetarli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan taqdirda, kriminologiyaning maxsus qismi yangilanib, yangi yo‘nalishlar bilan boyitilishi lozim. Xususan, u 18 ta mustaqil mavzuni o‘z ichiga olishi zarur. Masalan, ekologik va xalqaro jinoyatchilik, ma’naviyatga qarshi jinoyatlar, jumladan, jinsiy jinoyatchilik, shuningdek iqtisodiy jinoyatlar, mansab vakolatidan suiiste’mol qilish, kompyuter jinoyatchiligi hamda giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar kabi yo‘nalishlarni kriminologik nuqtayi nazardan o‘rganish va ularning oldini olish masalalari muhim ehtiyoj sifatida yuzaga kelgan.

Bundan tashqari, bugungi kunda kriminologiya tizimida uning uchinchi muhim tarkibiy elementi sifatida ayrim jinoyat turlarini – masalan, o‘g‘irlik, qotillik, Vatanga xiyonat, dezertirlik va shunga o‘xshash boshqa jinoyatlarni tahlil qilish hamda ularning oldini olish masalalarini alohida yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqish lozim. Bu holat

umumiy, xususiy va alohida falsafiy kategoriyalar o‘rtasidagi qonuniyatlarning mantiqiy ifodasidir.

1.3. Kriminologiyaning maqsadi

Kriminologiya fanining bosh maqsadi – jinoyatchilikning paydo bo‘lish sabablari hamda unga ta’sir ko‘rsatuvchi omil va sharoitlarni chuqur tahlil qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashishda samarali yo‘llarni ishlab chiqish va ularning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni joriy etishdan iboratdir.

Shu bilan birga, kriminologiya nazariyasining asosiy vazifasi – jinoyatchilik rivojlanishining ichki qonuniyatlarini o‘rganish, olingan ilmiy ma’lumotlar asosida nazariy tushunchalar, ilmiy g‘oyalar hamda konseptual asoslarni shakllantirishdan iboratdir.

Amaliy nuqtayi nazardan esa kriminologiyaning maqsadi – jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi aniq, foydali va amaliy ahamiyatga ega ilmiy tavsiyalar hamda konstruktiv takliflarni ishlab chiqishdir.

Kriminologiya tushunchasi o‘zida uzoq muddatli maqsadlarni ham mujassam etadi. Bunga jinoyatchilikning oldini olish, kriminogen omillarni bartaraf etish va ularni zararsizlantirishga xizmat qiluvchi moslashuvchan, ko‘p qirrali tizimni yaratish kiradi.

Tezkor (yaqin) maqsadlar esa jinoyatchilikka qarshi kurash jarayonida kundalik amaliy faoliyatni yuritish hamda ilmiy tadqiqotlarni muntazam amalga oshirish bilan bog‘liqdir.

Jinoyat huquqi bilan taqqoslaganda, kriminologiya fanining maqsadi ancha keng doirani qamrab oladi. U jinoyatchilikka qarshi kurashda qo‘llanilayotgan barcha usul va vositalarni, shu jumladan jinoyat-huquqiy choralarining samaradorligini ham har tomonlama tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, u jinoyatchilikning oldini olishga yo‘naltirilgan, jumladan jinoyat-huquqiy asosdagi metodlar va chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishni ham o‘zining asosiy vazifasi sifatida belgilaydi.

Kriminologiyaning vazifalari

Kriminologiya fanining vazifalari juda keng ko‘lamli hisoblanadi. U jinoyatchilikning dinamikasi, tarkibi va darajasiga ta’sir etuvchi subyektiv hamda obyektiv omillarni tahlil qilish, jinoyat turlarini ijtimoiy-jinoyat nuqtayi nazaridan o‘rganish va unga qarshi samarali kurash yo‘llarini belgilashni o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari, kriminologiya huquqbuzar shaxsning psixologik, ijtimoiy va axloqiy xususiyatlarini, shuningdek u tomonidan sodir etilgan noqonuniy xatti-harakatlarning shakllanish jarayonini chuqur tahlil qiladi.

Shu bilan birga, kriminologiyaning muhim vazifalaridan biri – jinoyatlarning barcha turlarini hamda ularni sodir etuvchi shaxslarni ilmiy asosda tizimli ravishda tasniflashdan iboratdir. Natijada, jinoyatchilikning o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun asosiy yo‘nalishlar va samarali chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Kriminologiyaning asosiy funksiyalari

Kriminologiya fani o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish jarayonida bir qator muhim funksiyalarni amalga oshiradi. Ular quyidagilardan iborat: nazariy bilish, metodologik, g‘oyaviy-tarbiyaviy, amaliy-tajriba, shuningdek ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va prognozlash funksiyalari.

Kriminologiya o‘zida shunday mantiqiy usullar hamda metodologik tamoyillar tizimini mujassam etadiki, ularning yordamida sodir etilgan jinoyatlar, jinoyat sodir etuvchi shaxsning individual xususiyatlari, jinoyatning kelib chiqish sabablari va sharoitlari, shuningdek ularning oldini olishga oid masalalarni chuqur tahlil qilish hamda yangi qonuniyatlarni aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Bu jarayon, o‘z navbatida, kriminologiyaning nazariy bilish funksiyasini tashkil etib, kelgusida sodir bo‘lishi ehtimol bo‘lgan jinoyatlarni oldindan bashorat qilish imkoniyatini yaratadi.

Kriminologiyada metodologik funksiya ham muhim o‘rin tutadi, chunki jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha konseptual asoslar, shu

jumladan ushbu tizim doirasida amalga oshirilgan islohotlar natijalari va ishlab chiqilgan konsepsiyalar yuridik fanlar uchun ilmiy poydevor vazifasini bajaradi.

Kriminologiya fanining g‘oyaviy-tarbiyaviy vazifasi uning mohiyati, o‘ziga xos tomonlari hamda qonuniyatlarini, shuningdek jinoyatchilikning oldini olishga doir nazariy va huquqiy poydevorlarni ifodalaydi. Ushbu funksiya milliy istiqlol g‘oyasi asosida inson tafakkurini boyitish, fuqarolarda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish, qonunlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Amaliy-tajriba funksiyasi esa nazariya va amaliyotning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlaydi. U kriminologiya fanida ilgari surilgan nazariy g‘oyalarni amaliy faoliyatga tatbiq etish orqali o‘z ahamiyatini namoyon etadi.

Ma’lumotlarni to‘plash funksiyasi – bu jinoyatchilik bilan bog‘liq jarayonlarning kechishi va ularning qanday shakllarda namoyon bo‘layotganligi haqida zarur axborotlarni yig‘ishga qaratilgan faoliyatdir. Bunday ma’lumotlar asosan ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish, statistik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va amaliy tadqiqotlar orqali olinadi.

Tahlil funksiyasi esa to‘plangan empirik ma’lumotlar asosida sodir etilgan jinoyatlarni o‘rganish, ularni turlarga ajratish va umumlashtirish jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu orqali jinoyatchilikning oldini olish bilan bog‘liq muhim holatlar, ularning qanday yuz bergani va sababiy aloqalari ochib beriladi. Shu asosda mavjud hodisalar nazariy jihatdan tartibga solinadi, jinoyatchilikning oldini olishga doir o‘ziga xos tushunchalar hamda nazariy konsepsiyalar ishlab chiqiladi.

Bundan tashqari, prognoz qilish funksiyasi kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklar va jinoyatlar ehtimolini oldindan baholashga xizmat qiladi. Jinoyatchilikka aloqador hodisa va jarayonlarning rivojlanish yo‘nalishi hamda dinamikasi o‘rganilib, ularning kelgusidagi holati tahlil etiladi va oldindan prognoz qilinadi.

Shu nuqtayi nazardan, kriminologiya fanining asosiy vazifalari jinoyatchilikni, uning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi omillar va ularni

yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlarni o‘rganishdan iborat. Shuningdek, jinoyatchi shaxsini tahlil qilish, jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha samarali choralarni ishlab chiqish hamda ayrim turdagi jinoyatlarning kriminologik tavsifini aniqlash ham ushbu fan vazifalari qatoriga kiradi.

1.4. Kriminologiyaning huquqiy fanlar bilan aloqadorligi.

Ma’lumki, kriminologiya fani o‘z tadqiqot doirasida unga yaqin va uzoq bo‘lgan fanlar bilan chambarchas aloqada rivojlanadi. Xususan, u jinoyat huquqi bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki kriminologiyaning asosiy tadqiqot obyekti – jinoyat va jinoyatchi shaxsidir. Bu obyektlar jinoyat huquqi doirasiga kirsa-da, kriminologiya faqat ularning huquqiy belgilarini aniqlash bilangina cheklanmaydi. U jinoyatlarning shakllanish qonuniyatlarini, ularning o‘ziga xos jihatlarini, yuzaga kelish sabablarini, jabrlanuvchilar va jinoyatchi shaxsi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur tahlil qiladi.

Shuningdek, jinoyat huquqi sotsiologiyasida to‘plangan ilmiy ma’lumotlar kriminologiyada muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bu ma’lumotlar jinoyatchilikning oldini olish tizimida jinoyat-huquqiy choralar tutgan o‘rin va ularning samaradorligini aniqlashda asosiy manba sifatida qo‘llaniladi.

Shu nuqtayi nazardan olganda, jinoiy jazo kriminologiya fanida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan ijtimoiy ta’sir choralardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Jinoyat huquqi bilan taqqoslaganda, kriminologiyaning maqsadi yanada kengroq bo‘lib, u jinoyatchilikka qarshi kurashishda qo‘llaniladigan barcha vosita va usullarni, shu jumladan jinoyat-huquqiy choralarni, ularning samaradorligini tahlil qilish hamda jinoyatchilikning oldini olishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, jinoyat-protsessual huquqi fani ham kriminologiya bilan maqsad jihatidan o‘xshash yo‘nalishda faoliyat yuritadi. U jinoyat sud jarayonida ayrim jinoyatlarning sodir bo‘lishiga zamin yaratgan sabab va

omillarni aniqlab, ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy choralarni belgilaydi.

Kriminalistika fanida jinoyatchilikning sabablarini tahlil qilish va uni oldini olish masalalari biroz boshqa darajada amalga oshiriladi. Ushbu fan, asosan aniq jinoyatlarning sodir etilish jarayonini, ularni tayyorlash, amalga oshirish va jinoyat izlarini yashirish mexanizmlarini o‘rganadi. Shu boisdan, jinoyatlarning oldini olish vazifasi kriminalistika fani bilan kriminologiya o‘rtasidagi umumiy, ya’ni mushtarak yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Kriminologiyadan farqli ravishda, kriminalistika fanida jinoyat sodir etish holatlari, ularning oldini olish va bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan eng so‘nggi ma’lumotlar asosida tezkor choralar ko‘riladi. Shu bilan birga, kriminologiya fani jinoyat-ijroiya huquqi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu ikki fan birgalikda takroriy jinoyatchilikning oldini olish, jinoyatni qayta sodir etgan shaxs (retsidivist)larni o‘rganish hamda ularni jamiyat hayotiga qayta moslashtirish masalalarini tahlil qiladi.

Shuningdek, bu fanlar jinoiy jazolarning samaradorligini va ularni ijro etish shart-sharoitlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi. Ayrim davlatlarda esa kriminologiya penitensiar fanlar tizimiga kiritilgan bo‘lib, ba’zan u «turmashunoslik» nomi bilan ham yuritiladi.

Shuningdek, kriminologiyaning jinoyatlar statistikasi bilan uzviy bog‘liqligini ham alohida ta’kidlash kerak. Chunki jinoyatchilikni o‘rganishda uning holatini aks ettiruvchi statistik ko‘rsatkichlar hamda jinoyatchilarning, ayniqsa ularning demografik xususiyatlariga oid ma’lumotlar asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, kriminologiya fanida statistikaning ilmiy usullari xususan, kuzatish, ma’lumotlarni yig‘ish va ularni guruhlash metodlari keng qo‘llaniladi.

Kriminologiya fani uchun boshqa huquq sohalari, ayniqsa konstitutsiyaviy va ma’muriy huquqdan olingan bilimlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu ma’lumotlar jinoyat sodir bo‘lishiga turtki beruvchi omillarni tahlil etishda, jinoyatchi shaxsining individual

xususiyatlarini aniqlashda, shuningdek ijtimoiy profilaktika bilan shug‘ullanadigan davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining vazifalari hamda vakolatlarini belgilab olishda katta ahamiyat kasb etadi. Huquqbuzarliklarning oldini olishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ham bu fanlarning roli beqiyosdir. Shu nuqtayi nazardan, kriminologiyaga mazmun jihatidan eng yaqin fan – bu jinoiy xulq-atvorni tahlil qilish va uni oldini olish bilan shug‘ullanadigan ma’muriy huquq hisoblanadi. Kriminologiya ijtimoiy-huquqiy yo‘nalishdagi fan sifatida boshqa ko‘plab yuridik bo‘lmagan fanlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ular orasida ijtimoiy psixologiya hamda pedagogika alohida ahamiyat kasb etadi.

1.5. Kriminologik fanlar metodologiyasini nazariy jihatlarini tahlil etish.

«Metod» atamasi yunoncha «metodos» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «biror maqsadga erishish yo‘li» yoki «bilish usuli» degan ma’nolarni bildiradi. Har qanday fanning metodi – bu amaliyot va hayotni o‘rganishga xizmat qiluvchi nazariy asosdir. U ilmiy tadqiqotlarning usullari, vositalari va yo‘nalishlarini uzluksiz takomillashtirib borishni, yangi bilimlarni o‘zlashtirishni hamda rivojlanish jarayonining qonuniyatlarini aniqlashni ta’minlaydigan ishonchli tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Ba’zi manbalarda kriminologiya metodlari ushbu fan predmetining mustaqil tarkibiy qismi sifatida qayd etiladi. Biroq, aslida har qanday fan uchun metodlar uning ajralmas, ichki tizimiga xos bo‘lgan umumiy jihatdir. Shu sababli ularni alohida element sifatida ajratish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Umuman olganda, kriminologiyani jinoyatchilik, uning yuzaga kelish omillari va oqibatlari, jinoyat sodir etuvchi shaxs, jabrlanuvchilar hamda jinoyatchilikning oldini olishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni o‘rganadigan fan deb ta’riflash mumkin.

Hozirgi kunda jinoyatchilikning oldini olishga doir voqea va jarayonlarni o‘rganish, ularni tahlil va umumlashtirish, mavjud

muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga oid takliflar ishlab chiqishda Internetdan foydalanish eng samarali usullardan biri sifatida keng qo‘llanmoqda.

Shuningdek, kriminologiya fanida jinoyatchilik bilan bog‘liq voqea va hodisalarni o‘rganish jarayonida turli xildagi xususiy ilmiy usullardan keng foydalaniladi. Bular qatoriga jinoyatchilikka oid statistik ma’lumotlar va tegishli hujjatlarni tahlil etish, so‘rovnoma (anketa) o‘tkazish, suhbat (intervyu) va test sinovlarini tashkil etish, mutaxassislarning fikrini baholash, shuningdek tajriba (eksperiment) hamda kuzatish metodlari kiradi. Ushbu usullar yordamida jinoyatchilikning oldini olishga doir voqea va hodisalarning amaliy holati haqida zarur ma’lumotlar yig‘iladi, tahlil qilinadi va qayta ishlanadi. Olingan natijalar asosida nazariy xulosalar va umumlashmalar ishlab chiqilib, jinoyatchilikning oldini olishni takomillashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilinadi.

Kriminologik amaliyotni o‘rganishda statistik-matematik metod alohida ahamiyat kasb etadi. U jinoyatchilik darajasini baholashda, shuningdek jinoyatga qarshi kurash jarayonida to‘plangan statistik ma’lumotlarni tahlil va umumlashtirish orqali voqea hamda hodisalarning asosiy belgilarini, o‘ziga xos jihatlarini va qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu metod raqamli hisob-kitoblarga asoslanib, ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, baholash va ilmiy asoslangan mantiqiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Jinoyatchilikka doir statistik ma’lumotlar va hujjatlarni o‘rganish usuli – bu dastlabki tergovgacha bo‘lgan davrda yig‘ilgan tekshiruv materiallari, jinoyat ishlari bilan bog‘liq hujjatlar, statistik ma’lumotlar, ommaviy axborot vositalari xabarlari hamda ijtimoiy jarayonlarni ifodalovchi boshqa manbalarni tahlil qilish, ularni umumlashtirish va shu asosda ilmiy natijalar chiqarish metodidir.

Anketa-so‘rov metodi esa maxsus tuzilgan savollar ro‘yxati orqali respondentlardan (javob beruvchilardan) zarur ma’lumotlar olishga qaratilgan. Bu jarayonda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida faoliyat

yuritayotgan amaliyot va nazariya mutaxassislari, jinoyat sodir etgan shaxslar, jabrlanuvchilar yoki jamoatchilik vakillari respondent sifatida ishtirok etishlari mumkin. Ushbu usul, odatda anonim shaklda o‘tkaziladi.

Anketa-so‘rov metodining tarkibiy qismi bo‘lgan sotsiometrik metod ham alohida ahamiyatga ega. Bu usul yordamida so‘rovda qatnashayotgan shaxsning o‘z guruhidagi boshqa a’zolar bilan o‘zaro munosabatlari o‘rganiladi. Jinoyatchilikning oldini olishda intervyu metodi ham muhim o‘rin tutadi. U jinoyatchi shaxsi hamda jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari to‘g‘risida chuqurroq ma’lumot olish imkonini beradi.

Intervyu jinoyatni sodir etgan shaxs, uning qarindoshlari, jabrlanuvchilar, huquqni muhofaza qilish organlari vakillari yoki mazkur ishga aloqador boshqa shaxslar bilan ham tashkil etilishi mumkin.

Ushbu metod – ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan, yuzma-yuz muloqot shaklidagi axborot almashuv usuli hisoblanadi. Intervyu jarayoni suhbat tarzida kechadi, bunda tadqiqotchi o‘zini qiziqtirgan holatlar yuzasidan savollar beradi va olingan javoblarni yozib boradi.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, mahkumlar bilan yakka tartibda o‘tkaziladigan intervyu anketa-so‘rovga nisbatan samaraliroq natijalar beradi. Chunki bunday intervyu davomida shaxsning jinoiy xulq-atvor sabablari, uning motivlari va maqsadlari, tarbiyalangan muhit, ijtimoiy hayot sharoitlari, jabrlanuvchi bilan munosabatlari va boshqa muhim omillar chuqur tahlil qilinadi.

Kriminologik tadqiqotlarda, odatda intervyuning quyidagi shakllaridan foydalaniladi: rasmiy intervyu, ma’lum bir ijtimoiy hodisaga doir intervyu va erkin intervyu.

Test metodi esa ilmiy asosda ishlab chiqilgan bo‘lib, u jinoyat sodir etgan shaxsning individual xususiyatlarini yanada chuqur va keng qamrovli tarzda o‘rganishga xizmat qiladi.

Ushbu metodda tadqiqotchi tomonidan maxsus ishlab chiqilgan savollar, vaziyatlar va topshiriqlar majmuasi jinoyat sodir etgan yoki jinoyatdan jabrlangan shaxslarga taqdim etiladi. Tadqiqot ishtirokchilari

bu savollarga javob berish orqali o‘z psixologik holati va xulq-atvori haqida bilvosita ma’lumot beradi.

Test metodining asosiy maqsadi – jinoyatchining ruhiy holatini, tafakkur darajasini, ijodiy salohiyatini, tavakkalchilikka moyilligini, o‘zini tuta bilish qobiliyatini, jabrlanuvchiga bo‘lgan munosabatini hamda noodatiy holatlarni qabul qilish tezligini aniqlashdan iborat. Mazkur metod ba’zi murakkab jihatlariga qaramay (xususan, ko‘plab savollar mavjudligi sababli), qisqa vaqt ichida keng doiradagi respondentlar o‘rtasida tadqiqot o‘tkazish imkonini beradi.

Shuningdek, mutaxassislar bahosi metodi ham jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usulda tadqiq etilayotgan masala yuzasidan jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarning fikrlari yig‘iladi, tahlil qilinadi va shu asosda ilmiy xulosa hamda baho shakllantiriladi.

Eksperiment metodi – jinoyatchilikning oldini olish bilan bog‘liq bo‘lgan markaz, institut yoki tashkilotlar faoliyati hamda ayrim normalarni amaliyotga joriy etishdan avval ularni sinov tariqasida tajribadan o‘tkazish usulidir. Bu metod, ayniqsa, jinoyat sodir etilishi ehtimoli yuqori bo‘lgan holatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuzatish usuli – bu oldindan belgilangan reja asosida, tafakkur, ong hamda ruhiy va hissiy idrokka tayanib, turli shakl va vositalar yordamida jinoyatchilikning oldini olishga oid voqea va hodisalar haqida ma’lumot yig‘ish jarayonini bildiradi.

Ushbu metod yordamida olingan ma’lumotlar asosida ilmiy tahlil o‘tkazilib, jinoyatchilikka doir hodisalar haqida yangi xulosalar chiqariladi.

Shuningdek, ilmiy kuzatish va ilmiy bilish usullari jinoyatchilikning oldini olishga oid ma’lumotlarni tekshirish, to‘ldirish, yangilash yoki inkor etish maqsadida qo‘llanadi. Tadqiqotchi kuzatuv jarayonida nafaqat o‘zining hayotiy tajribasiga, balki ilmiy nazariyalarga ham tayanadi.

Kuzatish ikki turga – yashirin va ochiq kuzatishga bo‘linadi. Ilmiy bilish metodi – bu jinoyatchilikni aniqlash va uning oldini olish jarayonida

maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli hamda aniq yo‘nalishga ega vositalardan foydalanish imkonini beradigan samarali usul hisoblanadi. Bu yondashuv jinoyatchilikka qarshi kurashda yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Eksperiment va kuzatish metodlari amaliy faoliyatda ko‘pincha birgalikda qo‘llanadi. Qaysi metodlardan va qanday miqdorda foydalanish esa olib borilayotgan tadqiqotning predmeti, obyekti hamda maqsadlariga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Tahlil (analiz) metodi – bu jinoyatchilikning oldini olishga doir voqea va hodisalarni alohida tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganish, ularning har bir tomonini tahlil qilish orqali umumiy xulosa shakllantirishga xizmat qiladigan ilmiy usuldir.

Shu bilan birga, sintez metodi – jinoyatchilikning oldini olish bilan bog‘liq turli voqea va hodisalarning tarkibiy qismlarini yagona yaxlit tizimda birlashtirib o‘rganishga imkon beruvchi usul hisoblanadi. Umumlashtirish metodi esa tahlil qilingan jinoyatchilikning oldini olishga doir voqea va hodisalarning umumiy jihatlarini aniqlab, ularni birlashtirish orqali yanada yuqori ilmiy darajadagi xulosalarga kelishga yo‘naltirilgan metod sanaladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda kriminologiya faniqa oid bilimlarning ahamiyati, rivojlanish tarixi

Har qanday jamiyatda bo‘lgani kabi, O‘zbekiston sharoitida ham ijtimoiy-huquqiy fan sifatida kriminologiyaga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Insoniyat taraqqiyoti jarayonida kriminologik g‘oyalarning shakllanishi va rivojlanishi masalalari kriminologiya faniga oid darsliklar hamda maxsus ilmiy tadqiqotlar asosida chop etilgan manbalarda keng yoritilgan.

O‘zbekistonda kriminologik ta’limotlarning shakllanishi va taraqqiyot tarixi hali to‘liq ilmiy o‘rganilmagan bo‘lsa-da, ajdodlarimiz yaratgan axloq, odob va inson tarbiyasiga doir asarlarda bu yo‘nalishdagi fikrlar chuqur mazmun hamda boy ma’naviy meros sifatida aks etgan.

Mustaqillik yillarida esa ushbu merosning mazmuni va mohiyatini xalqimizga yetkazish borasida muhim ishlar amalga oshirildi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, yangi O‘zbekiston davrida ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik, mehr-oqibat va bunyodkorlik kabi yuksak qadriyatlar hamda insoniy fazilatlarni keng targ‘ib qilish, jamiyatda ijtimoiy va ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, aholining tinch va osoyishta hayotini kafolatlash, shuningdek qonunga hurmat va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Ushbu siyosatni samarali amalga oshirish esa jinoyatchilik, uning sabab va shart-sharoitlari hamda jinoyat sodir etishga moyil shaxslar faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan kompleks profilaktik choralarni ishlab chiqish uchun fanlararo, tizimli va maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida»gi hamda «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, jamoat xavfsizligini mustahkamlash va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi ilmiy izlanishlarni yangi bosqichga olib chiqish, jinoyat omillarini o‘z vaqtida aniqlab, ularning oldini olish tizimini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etildi.

Mazkur institut faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi va uning vazifalarining belgilanishi – jamiyatdagi eng murakkab ijtimoiy hodisalardan biri bo‘lgan jinoyatchilik, uning kelib chiqish sabablari hamda shart-sharoitlarini, shuningdek jinoyatchi shaxsining shakllanish jarayonini erta bosqichda aniqlash va profilaktika choralarini amalga oshirishda milliy qadriyatlarga asoslangan kriminologik qarashlarni zamonaviy ilg‘or yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Jinoyatchilikka qarshi samarali kurash olib borish, ayniqsa uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun, jinoyatchilikning mohiyati, kelib chiqish omillari, tuzilishi, shakllari, rivojlanish qonuniyatlari, tarixi va

istiqbollari haqida puxta ilmiy asoslangan bilimlarga ega bo‘lish zarur. Chunki jinoyatchilik – insoniyat tarixi davomida davlat va huquq tizimi bilan birga shakllangan, o‘zgaruvchan tabiatga ega, jamiyatda ma’lum davrda sodir etilgan barcha jinoyatlar majmuasini o‘z ichiga oladigan, miqdoriy va sifat jihatlari bilan ifodalanadigan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisadir.

O‘zbekistonda chop etilgan kriminologiya faniga oid manbalarda «jinoyatchilik» tushunchasiga o‘zaro yaqin bo‘lgan, ammo ayrim jihatlari bilan farq qiluvchi bir qator ilmiy ta’riflar keltirilgan.

Shuni ham qayd etish kerakki, bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy sohada «jinoyat» va «jinoyatchilik» tushunchalarini bir-biridan farqlamasdan qo‘llash holatlari tez-tez uchrab turadi. To‘g‘ri, har ikkala atama ham ijtimoiy-huquqiy va ijtimoiy xavfli hodisalar toifasiga kiradi, biroq ular o‘rtasida bir qator muhim farqlar mavjud.

Avvalo, birinchidan ta’kidlash joizki, «jinoyat» tushunchasi jinoyat huquqi fanining, «jinoyatchilik» esa kriminologiya fanining asosiy tadqiqot obyekti sifatida e’tirof etiladi.

Ikkinchidan, jinoyat – bu alohida shaxs tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishdir, jinoyatchilik esa jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligiga xavf tug‘diruvchi, doimiy ravishda mavjud bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, jinoyat – bu insonning aniq bir xatti-harakatining natijasi bo‘lsa, jinoyatchilik jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimining mahsuli sifatida ommaviy xarakterga ega.

To‘rtinchidan, har ikkala tushuncha ham o‘ziga xos mohiyat va belgilarga ega bo‘lib, ular orqali ularning farqlovchi jihatlarini aniqlash mumkin.

Jinoyat kodeksining tegishli normalarida «jinoyat» tushunchasining asosiy belgilariga quyidagilar kiritilgan:

a) ijtimoiy xavfli qilmishdan himoya qilinadigan obyektlar;

b) ijtimoiy xavfli qilmishning harakat yoki harakatsizlik orqali namoyon bo‘lish shakllari;

v) jinoyatni sodir etuvchi shaxsga qo‘yiladigan talablar;

g) qilmishning aybli tarzda, ya’ni qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilishi.

Jinoyatchilik esa kriminologiya faniga xos nazariy tushuncha bo‘lib, unga nisbatan normativ-huquqiy hujjatlarda aniq ta’rif berilmagan.

Xorijiy hamda mahalliy kriminologik manbalarni tahlil etish natijasida «jinoyatchilik» tushunchasining mazmun-mohiyatini to‘liq ifodalovchi quyidagi asosiy belgilar e’tirof etiladi: u ijtimoiy hodisa hisoblanadi; tarixiy jihatdan o‘zgaruvchan, ya’ni har bir davrga xos xususiyatlarga ega;

Jinoyatchilik nisbatan ommaviy hodisa bo‘lib, ya’ni u ko‘pchilik tomonidan sodir etilishi bilan tavsiflanadi. U ijtimoiy xavfli hodisa sifatida baholanadi, chunki jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur hodisa ijtimoiy va huquqiy mazmunga ega bo‘lib, obyektiv xarakter kasb etadi, ya’ni jamiyat hayotiga bevosita ta’sir etadi. Jinoyatchilikni miqdoriy va sifat jihatdan o‘lchash mumkin, u shuningdek latentlik xususiyatiga ega – ya’ni ayrim jinoyatlar yashirin holda qoladi. Bundan tashqari, jinoyatchilik muayyan hudud va davrda sodir etilgan barcha jinoyatlar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Jinoyatchilikning ijtimoiy mohiyati uning kelib chiqishi va mazmunida yaqqol aks etadi. Avvalo, u jamiyatdagi ijtimoiy hayot mahsulidir. Shuningdek, uning vujudga kelishiga sabab bo‘luvchi omillar ham ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Eng muhimi, jinoyat sodir etuvchi shaxslar ham jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar natijasidir. Shu sababli jinoyatchilik ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu sababli kriminologiya jinoyatchilikni ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qiladi. Boshqa ijtimoiy jarayonlar kabi, jinoyatchilik ham vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradigan, ya’ni tarixiy jihatdan o‘zgaruvchan hodisa hisoblanadi. Uning bu xususiyati jamiyat taraqqiyot bosqichlari, turli sohalarda yuz berayotgan o‘zgarishlar, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati va amaliyotining mazmun hamda yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liq. Jamiyat rivojlanishining har bir tarixiy davrida

o‘sha bosqichga xos bo‘lgan jinoyatchilik shakllari obyektiv tarzda mavjud bo‘ladi.

Agar O‘zbekiston hududidagi jinoyatchilikni tahlil qiladigan bo‘lsak, shuni ko‘rish mumkinki, mustaqillikning dastlabki yillaridagi jinoyatchilik ko‘rinishlari undan oldingi yoki hozirgi davrdagi jinoyatchilikdan keskin farq qiladi. Har bir tarixiy davr jinoyatchiligi o‘ziga xos belgilar va faqat o‘sha davrga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Jinoyatchilikning nisbatan ommaviyligi esa shunda ko‘rinadiki, u muayyan hududda va belgilangan vaqt oralig‘ida sodir etilgan barcha jinoyatlarning umumiy yig‘indisini o‘z ichiga oladi hamda bu holat keng ko‘lamda namoyon bo‘ladi.

Demak, ma’lum bir davrda keng miqyosda sodir etilgan jinoyatlar majmuini o‘z ichiga olgan hodisa ham nisbatan ommaviylik belgisini namoyon etadi. Jinoyatchilikning muhim jihatlaridan biri – uning ijtimoiy xavflilik darajasidir. Jamiyat hayotining turli sohalarida kechayotgan hodisa va jarayonlar, bir tomondan, jinoyatchilikning obyektiv ijtimoiy hodisa sifatida mavjud bo‘lishini ta’minlaydi va unga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Boshqa tomondan esa, jinoyatchilikning o‘zi ham «bumerang» singari jamiyatga qaytib, unga salbiy ta’sir o‘tkazadi.

Jinoyatchilikning ijtimoiy xavfliligi, eng avvalo, uning jamiyat taraqqiyoti va barqarorligiga putur yetkazishida, aholining tinch va osoyishta hayotini izdan chiqarishida, shuningdek fuqarolarga jismoniy, moddiy, ma’naviy hamda ruhiy zarar yetkazishida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, u odamlar orasida ishonchsizlik va qo‘rquv kayfiyatini uyg‘otadi, irodasi sust shaxslarni jinoyat sodir etishga undaydi, unga qarshi kurash uchun esa katta miqdorda moddiy va tashkiliy resurslar sarflanishini talab etadi. Kriminologlar jinoyatchilikning ijtimoiy xavfliligini quyidagicha izohlaydi: u o‘z sababini o‘zida yaratadi, o‘zini takror ishlab chiqaradi, yangi jinoyatlar sodir etilishiga zamin yaratadi hamda ularning ildizlarini mustahkamlaydi.

Hozirgi davrda jinoyatchilikning ijtimoiy xavfliligi yanada yaqqol ko‘rinish kasb etmoqda. Jamiyatda mavjud bo‘lgan salbiy ijtimoiy jarayonlar jinoyatchilikni yuzaga keltirib, uni kuchaytirayotgan bo‘lsa,

jinoyatchilikning o‘zi ham bu jarayonlarni yanada chuqurlashtirib, ularning ta’sir doirasini kengaytirmoqda. Jinoyatchilik asl mohiyatiga ko‘ra huquqiy, ya’ni jinoiy-huquqiy hodisadir. Bu xususiyat uni boshqa huquqbuzarliklarning umumiy yig‘indisidan ajratib turadi va jinoyatchilikni mustaqil ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida e’tirof etish imkonini beradi.

Avvalo, ushbu belgining mazmuni jinoyatchilikning jinoyat tushunchasi bilan uzviy bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Har qanday jamiyatda muayyan xatti-harakat yoki harakatsizlikning jinoyat deb baholanishi faqat jinoyat qonunlari bilan belgilanadi. Agar jinoyat qonunida taqiqlangan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik sodir etilsa, u shubhasiz jinoiy-huquqiy hodisa sifatida ko‘riladi. Shu bois, jinoyatga xos umumiy va asosiy belgilarni o‘zida mujassam etgan jinoyatchilik ham tabiatan jinoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, dunyodagi barcha davlatlarda – ularning siyosiy tuzumi yoki iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat’i nazar – jinoyatchilik obyektiv tarzda mavjud bo‘lib, har bir jamiyat hayotining ajralmas bir ijtimoiy hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq turli mamlakatlarda jinoyatchilik darajasi ham miqdor, ham sifat jihatidan bir-biridan farqlanadi. Har qanday jamiyatda jinoyatlar, odatda insonning shaxsi, sha’ni, qadr-qimmati, hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki hamda uning yashashi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy sharoitlarga qarshi qaratilgan bo‘ladi. Jinoyatchilik qaysi tuzum yoki ijtimoiy muhitda mavjud bo‘lishidan qat’i nazar, jamiyat rivojlanishining har qanday bosqichida obyektiv tarzda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy hodisadir. Shu sababli, jinoyatchilik insoniyat taraqqiyotining ma’lum bosqichida butunlay yo‘qoladi, degan qarash ilmiy asosga ega emas.

Birinchidan, jinoyat sodir etuvchi shaxs – bu ijtimoiy-biologik mavjudot bo‘lib, u o‘ziga o‘xshash insonlar bilan o‘zaro munosabatda yashaydi va rivojlanadi. Inson jamiyatda kechayotgan turli hodisa, voqea va jarayonlar ta’sirida shaxs sifatida shakllanadi hamda ana shu muhit ta’sirida ma’lum hayotiy tajriba to‘playdi.

Ikkinchidan, inson ijtimoiy-biologik mavjudot sifatida nafaqat yakka, balki yagona, betakror shaxs hisoblanadi.

U har doim o‘z «men»ligini, o‘ziga xosligini saqlaydi va shu orqali boshqalardan farqini anglaydi. Bu farqlanish esa uning shaxsiy tajribasi orqali shakllanadi. Aynan shu nuqtada insonning ijtimoiy tabiati va uning individualligi o‘rtasidagi doimiy ziddiyat yuzaga keladi. Mazkur qarama-qarshilik jamiyatda jinoyatchilikning obyektiv tarzda mavjud bo‘lishiga sabab bo‘ladigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Har qanday jamiyatda jinoyatchilik darajasi bevosita ushbu jamiyatdagi ichki qarama-qarshiliklarning qanchalik keskin yoki yumshoq ekanligiga bog‘liq bo‘ladi. Muayyan davrda jinoyatchilikning qaysi darajada ekanligi uning miqdoriy va sifat jihatlarida, ya’ni jinoyatchilik holati, darajasi (koeffitsiyenti), tuzilishi, dinamikasi hamda geografik taqsimotini aks ettiruvchi aniq statistik ko‘rsatkichlarda o‘z ifodasini topadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar chuqurlashgan sari jinoyatchilik ham ortib boradi, aksincha, bu ziddiyatlarning o‘zaro murosaga kelishi yoki yumshatilishi jinoyatchilikning miqdoriy va sifat jihatdan kamayishiga olib keladi. Bu holat – butun jahon ijtimoiy taraqqiyotining amaliy tajribasi bilan tasdiqlangan obyektiv qonuniyatdir.

Biroq jinoyatchilikning miqdoriy va sifat jihatdagi ko‘rsatkichlarini faqatgina rasmiy statistik ma’lumotlar asosida baholash to‘liq tasavvur bermaydi. Chunki bunday ko‘rsatkichlar jamiyatdagi jinoyatchilikning faqat ko‘rinadigan qismini ifodalaydi, holbuki, jinoyatlarning ma’lum bir qismi yashirin yoki qayd etilmagan holda qolishi ham mumkin.

Kriminologiya fanida latent jinoyatchilik tushunchasi ham muhim o‘rin tutadi. Sababi, jamiyatda sodir etilgan jinoyatlarning ma’lum qismi turli obyektiv yoki subyektiv omillar ta’sirida rasmiy statistik hisobotlarda aks etmay qoladi. Shu bois jinoyatchilik o‘z tabiatiga ko‘ra latentlik, ya’ni yashirinlik xususiyatiga ega bo‘ladi.

Jinoyatchilik darajasini to‘g‘ri baholashda uning faqat ochiq ko‘rinishlarini emas, balki yashirin qismini ham inobatga olish zarur. Aks

holda, jinoyatchilikning haqiqiy ko‘lami va ijtimoiy xavf darajasi to‘liq aniqlanmaydi.

Yuqorida qayd etilgan asosiy belgilarni hisobga olgan holda, jinoyatchilikka quyidagi tarzda ta’rif berish mumkin:

Jinoyatchilik – bu jamiyatdagi ichki ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar natijasida obyektiv tarzda vujudga keladigan, muayyan hudud va davr mobaynida sodir etilgan jinoyatlar majmuasini o‘zida mujassam etuvchi, miqdoriy hamda sifat jihatlari bilan ifodalanadigan, yashirinlik (latentlik) darajasiga ega, nisbatan ommaviy, tarixan o‘zgaruvchan va o‘z-o‘zini kuchaytiruvchi ijtimoiy xavfli ijtimoiy-huquqiy hodisadir».

KAZUS: «Mahalladagi g‘ayrioddiy jinoyatlar seriyasi»

Toshkent shahrining Sergeli tumanidagi «Yangi hayot» mahallasida bir oy ichida uchta o‘xshash jinoyat sodir bo‘ldi: tunda turar joylardan maishiy texnika (televizor, noutbuk, telefon) o‘g‘irlanayotgan edi. Har uch holatda ham jinoyatchilar hech qanday zo‘rlik ishlatmagan, kirish eshiklaridagi qulflarni maxsus asbob yordamida ochishgan.

Ichki ishlar bo‘limi bu holatlar o‘rtasida o‘xshashlik borligini aniqladi: barcha jabrlanuvchilar yakka yashovchi, o‘rta yoshdagi kishilar bo‘lib, jinoyatlar yakshanba kechalarida sodir bo‘lgan. Shuningdek, barcha uylarga kirish yo‘li bitta ko‘chadan o‘tgan.

Kriminologiya nuqtayi nazaridan tahlil o‘tkazish maqsadida Toshkent davlat yuridik universiteti tadqiqotchilari ushbu jinoyatlar seriyasini o‘rganishga kirishdilar. Ular jinoyatlarning **ijtimoiy sabablari**, **jinoyatchilarning shaxsi**, **jinoyat sodir bo‘lishiga ta’sir etuvchi muhit omillari**, hamda **jinoyatlarning oldini olish choralari**ni aniqlashni maqsad qilib qo‘yishdi.

Savollar (muammo tahlili uchun)

1. Ushbu kazusda **kriminologiyaning predmeti** nimada namoyon bo‘lmoqda?

2. **Kriminologiya tizimi**ning qaysi bo‘limlari (jinoyatchilik sabablari, jinoyatchi shaxsi, jinoyatning oldini olish) bu holatni o‘rganishda qo‘llaniladi?

3. Kriminologik tadqiqotda qanday **ma’lumot manbalari**dan foydalanish mumkin?

4. Ushbu mahallada jinoyatlarning oldini olish uchun qanday **profilaktik chora-tadbirlar**ni taklif etish mumkin?

5. Ushbu kazus kriminologiyaning **ilmiy va amaliy ahamiyatini** qanday ko‘rsatadi?

Nazorat uchun savollar

1. Kriminologiya tushunchasi va uning predmeti haqida ma’lumot bering.
2. Turdosh fanlar tizimida kriminologiyaning o‘rni.
3. Kriminologiyaning tizimi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Kriminologiya fanining metodlarini tahlil giling.
5. Kriminologiyaning tarixi haqida ma’lumot bering.
6. Kriminologik fanlar metodologiyasini nazariy jihatlarini tahlil eting.

II BOB. JINOYATCHILK TUSHUNCHASI, UNING ASOSIY TAVSIFLARI VA TURLARI

2.1. Jinoyatchilik ko‘rsatkichlari, tarkibi, tuzilishi.

2.2. Latent jinoyatchilik va uning turlari.

2.3. Jinoyatchilikning sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.

2.4. Jinoyatchilik darajasi va dinamikasini tushuntiring.

Jinoyat tushunchasi insoniyat tarixida davlatning vujudga kelishi bilan bir vaqtda shakllangan. Ibtidoiy jamiyat davrida esa urf-odatlar va an’analarni buzish jinoiy harakat deb hisoblanmagan hamda buning uchun davlat tomonidan majburlov yoki jazo chorasi qo‘llanilmagan. «Jinoyat» atamasining ma’nosiga nazar tashlaganda, u davlat tomonidan belgilangan «qonun»ni buzgan shaxsni ifodalaydi. Jinoyatning yuridik jihatdan aniq ta’rifi esa ilk bor 1789-yilda qabul qilingan Inson va fuqaro huquqlari va erkinliklari deklaratsiyasida berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida bu masala quyidagicha ta’riflanadi: «Ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli tarzda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi ostida jinoyat deb e’tirof etiladi».

Demak, ijtimoiy xavfli qilmish deganda, Jinoyat kodeksi bilan muhofaza qilinadigan obyektlarga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Jinoyatni boshqa huquqbuzarlik turlaridan ajratib turuvchi asosiy belgilar esa quyidagilardan iborat:

Jinoyatning eng asosiy belgilaridan biri – bu ijtimoiy xavflilikdir. Aynan ushbu belgi jinoyatni boshqa huquqbuzarliklardan, xususan ma’muriy xatti-harakatlardan ajratib turadi. Ijtimoiy xavflilik jinoyatning eng muhim va mazmunini belgilovchi jihati bo‘lib, u jamiyat, davlat,

shaxs va ularning manfaatlariga zarar yetkazish yoki bunday xavfni yuzaga keltirish xususiyati bilan ifodalanadi.

Jinoyatning ikkinchi belgisi – bu huquqqa zidlikdir. Ya'ni, biror qilmish jinoyat deb topilishi uchun u jinoyat qonunida aniq tarzda taqiqlangan bo‘lishi kerak. Aks holda, agar Jinoyat kodeksida ushbu harakat yoki harakatsizlikni jinoyat deb e'tirof etuvchi norma bo‘lmasa, u holda bunday qilmish jinoyat sifatida baholanmaydi.

Jinoyatning uchinchi belgisi – bu aybning mavjudligidir. Buning mazmuni shundan iboratki, ijtimoiy xavfli va qonun bilan taqiqlangan xatti-harakat faqatgina uni sodir etgan shaxsning aybi isbotlangandan so‘ng jinoyat deb baholanadi. Pindar bejiz aytmagan: «Adolat – davlatning mustahkam poydevoridir».

Jinoyatning to‘rtinchi belgisi – bu jazoga tortilishidir. Leonardo da Vinchi ta'kidlaganidek: «Kim illatni jazolamasa, u aslida uni himoya qilgan bo‘ladi». Agar shaxs qonun yo‘li bilan jazolansa, bu uning qilgan jinoyati uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olganini anglatadi. Aksincha, jazosizlik – yangi jinoyatlarga yo‘l ochadi. I. Gerderning so‘zlari bilan aytganda: «Jazo emas, jinoyatning o‘zi sharmandalikdir». Arastu esa, «Jinoyatga bahona topish – keyingi jinoyatga yo‘l ochishdir», deya ta'kidlagan, Sitseron esa, «Jazo bermaslik – jinoyatni rag‘batlantirishdir», deb haqli ravishda aytgan.

Bugungi kunda xalqimiz orasida milliy qadriyatlarimizga zid illatlarning tarqalib borishi ko‘plab jinoyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Buning asosiy omili – millatimizning asl belgilari bo‘lgan qadriyatlarni unutish, ularga beparvo munosabatda bo‘lish va to‘g‘ri anglay olmaslikdadir.

«Jinoyatchilik» atamasi kriminologiya fanining eng muhim va ayni paytda eng keng qamrovli tushunchalaridan biridir. Bu hodisaga kamida ikki jihatdan – formal miqdoriy (statistik) hamda sifat (sotsiologik) nuqtayi nazardan yondashish mumkin.

Miqdoriy yoki statistik tomondan qaralganda, jinoyatchilik – bu alohida jinoyatlarning emas, balki ko‘plab jinoyatlarning umumiy majmui,

ya’ni jamiyatda sodir etilgan g‘ayriijtimoiy va xavfli qilmishlar yig‘indisini anglatadi.

Chunki har qanday ijtimoiy hodisaning harakat qonunlari keng ko‘lamda, ko‘plab hodisalar sodir bo‘lgandagina yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois, yakka tartibdagi g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar jinoyatchilikni o‘z holicha vujudga keltira olmaydi.

Shu bilan birga, «jinoyatchilik» tushunchasining sifat va mazmuniy jihatlarini o‘rganish ancha muhim sanaladi, chunki bu masala bevosita kriminologiyaning tadqiqot predmeti bilan chambarchas bog‘liq. Jinoyat huquqi, jinoyat protsessi va kriminalistika fanlari asosan jinoyatning shakllarini, ularning sodir etilish holatlarini o‘rganish bilan cheklanadi. Shu sababli ular ko‘proq jinoyatni davlat tomonidan tartibga solish, uni huquqiy, protsessual va kriminalistik mezonlar asosida baholash masalalarini ishlab chiqadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, jinoyatchilik – bu ma’lum bir hudud yoki mintaqada ma’lum davr mobaynida sodir etilgan barcha jinoyatlar yig‘indisini ifodalovchi, salbiy mazmunga ega bo‘lgan, obyektiv hamda tarixan o‘zgaruvchan ijtimoiy hodisadir.

Jinoyatchilik – bu jinoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi, chunki uning tarkibiga kiruvchi jinoyatlar doirasi amaldagi jinoyat qonunlari bilan aniq belgilab qo‘yilgan bo‘ladi.

2.1. Jinoyatchilik ko‘rsatkichlari, tarkibi, tuzilishi.

Jinoyatchilik uchta asosiy mezon – holati (yoki darajasi), tarkibi hamda dinamikasi orqali baholanadi. Shuningdek, jinoyatchilik natijasida yetkazilgan zarar miqdori va turi kabi qo‘shimcha ko‘rsatkichlar ham mavjud. Ayrim hollarda esa jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun sarflangan umumiy xarajatlar ham uning ko‘rsatkichlari tarkibida ko‘rib chiqiladi. Jinoyatchilikning holati tushunchasiga esa ikki xil yondashuv – tor ma’noda va keng ma’noda yondashish mumkin.

Keng ma’noda jinoyatchilikning holati deganda, nafaqat uning darajasi, balki tarkibi va rivojlanish dinamikasi ham nazarda tutiladi. Tor

ma’nodagi jinoyatchilik holati esa ma’lum bir tarixiy bosqich yoki davrda jinoyatchilik darajasini ifodalaydi. Ba’zi tadqiqotchilar jinoyatchilikning holati va darajasini baholashda ma’lum hududda ma’lum vaqt davomida sodir etilgan jinoyatlar hamda ularni amalga oshirgan shaxslar haqidagi ma’lumotlarni asos qilib oladilar. Bizningcha esa, jinoyatchilik holatini aniqlashda ma’lum bir davr ichida sodir etilgan jinoyatlar emas, balki muayyan sanagacha qayd etilgan jinoyatlar sonini mezon sifatida olish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday yondashuv jinoyatchilikning aynan o‘sha sanagacha bo‘lgan holatini aniqlash imkonini beradi va shu bilan birga uni jinoyatchilikning davriy dinamikasidan farqlashga sharoit yaratadi. Jinoyatchilik holati, asosan, sodir etilgan jinoyatlar soni hamda ularni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslar miqdori orqali belgilanadi. Uni mutlaq raqamda yoki koeffitsiyent ko‘rinishida ifodalash mumkin.

Jinoyatlar sonini aniqlashda quyidagi omillar inobatga olinadi:

a) sud hukmi bilan ko‘rib chiqilishi yakunlangan jinoyatlar;

b) aybdor shaxslar jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etilgan holatlar – bu odatda, amnitsiya qo‘llanilganda, jinoiy jazolar tarbiyaviy ta’sirga ega majburlov choralariga yoki boshqa tarbiyaviy yo‘nalishdagi choralar bilan almashtirilganda, ayrim hollarda esa ma’muriy ta’sir choralariga o‘zgartirilganda yuzaga keladigan jinoyatlar toifasidir;

c) ochilmagan, biroq mavjud ma’lumotlarga ko‘ra sodir etilgani aniqlangan jinoyatlar.

Jinoyatchilar umumiy miqdorini hisoblashda esa quyidagilar e’tiborga olinadi:

a) mahkum etilgan shaxslar haqidagi ma’lumotlar;

b) jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lu-motlar.

Yig‘ma hodisa sifatida jinoyatchilikning holati faqat miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali emas, balki uning sifat jihatlari orqali ham belgilanadi. Masalan, jinoyatchilikning tarkibiy elementlari – sodir etilgan jinoyatlar natijasida kelib chiqqan zarar hajmi, iqtisodiy, uyushgan yoki

takroriy jinoyatlar darajasi kabi mezonlar orqali aniqlanadi; ayni shu ko‘rsatkichlar jinoyatchilik tuzilmasini chuqurroq tahlil qilishda batafsil o‘rganiladi.

Jinoyatchilikning miqdoriy va sifat jihatlarini tahlil etish – jinoyatchilikka qarshi kurash olib boruvchi davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari faoliyatining tashkil etilish darajasini, jinoyatchilikka qarshi kurashish vositalari va usullarining samaradorligini, jinoyatlar sonini kamaytirishga qaratilgan ta’sirli choralarni hamda ushbu sohadagi hamkorlik natijadorligini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Masalan, Ichki ishlar organlari jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etadi. Ular jinoyatchilik profilaktikasiga doir maxsus dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi hamda hayotga tatbiq etadi. Shuningdek, mamlakat, viloyat, tuman va shahar miqyosida kriminogen vaziyatni o‘rganadi, mavjud kuch va vositalardan jinoyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etishda foydalanish samaradorligini tahlil qiladi. Ichki ishlar organlari jinoyatlarning profilaktikasini bevosita amalga oshiradi, ularning sabablari va sodir etilishiga imkon yaratgan shart-sharoitlarni aniqlab, bartaraf etadi.

Bundan tashqari, jinoyatlar, ularni sodir etgan shaxslar hamda jabrlangan fuqarolar bo‘yicha hisob yuritadi va bu ma’lumotlarni tahlil qiladi. Qonunchilikda belgilangan tartibda ayrim shaxslarni profilaktik ro‘yxatga oladi. Faoliyati taqiqlangan tashkilotlar yoki diniy-ekstremistik yo‘nalishdagi guruhlar bilan aloqador shaxslarni aniqlaydi va ularga nisbatan zarur chora-tadbirlarni qo‘llaydi. Shuningdek, pasport-viza rejimi, fuqarolar hamda yuridik shaxslar tomonidan o‘qotar qurollarni saqlash qoidalariga rioya qilinishini nazorat qiladi.

Ichki ishlar organlari jinoyatlarni ochishda, tergov va suddan yashirinayotgan shaxslarni hamda bedarak yo‘qolgan fuqarolarni qidirishda ishtirok etadi. Ular jinoyat sodir etgan yoki undan jabrlangan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya va moslashtirish choralarini amalga oshiradi. Shuningdek, jinoyatlarning profilaktikasini amalga oshiruvchi

boshqa organ va muassasalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni ham bajaradi.

Jinoyatchilik ko‘rsatkichlari ikki xil talqinda – keng va tor ma’noda tushuniladi. Keng ma’noda, bu tushuncha nafaqat jinoyatchilikning umumiy hajmini, balki uning tizimi, tarkibi va rivojlanish dinamikasini ham o‘z ichiga oladi hamda jinoyatchilikning barcha asosiy belgilarini mujassamlashtiradi. Tor ma’noda esa, jinoyatchilik ko‘rsatkichi muayyan davr yoki tarixiy bosqich davomida qayd etilgan jinoyatlarning umumiy miqdorini anglatadi.

Kriminologik yondashuvga ko‘ra, jinoyatchilikning miqdoriy ko‘rsatkichlari to‘rt asosiy yo‘nalish bo‘yicha baholanadi:

1) jinoyatchilikning umumiy holati;

2) jinoyatchilikning tuzilishi;

3) jinoyatchilik dinamikasi;

4) jinoyatchilik darajasi.

Jinoyatchilik darajasi – bu sodir etilgan jinoyatlar sonining aholi miqdoriga nisbatan o‘lchanadigan miqdoriy va sifat ko‘rsatkichidir. Jinoyatchilik darajasini aniqlashda bir nechta koeffitsiyentlardan foydalaniladi. Ular turlicha bo‘lishi mumkin, biroq ular orasida eng muhimlari – jinoyatlar koeffitsiyenti hamda aholining kriminogen zararlanganlik (kriminogenlik) koeffitsiyenti hisoblanadi.

Jinoyatlar koeffitsiyenti – bu ma’lum bir hududda qayd etilgan barcha jinoyatlarning umumiy sonining shu hudud aholisi soniga nisbati bilan aniqlanadi. Bu nisbat muayyan massa yoki miqyos asosida hisoblanadi. Odatda, jahon kriminologik amaliyotida bu miqyos 100 ming nafar aholi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, massa (yoki miqyos) o‘zgaruvchan bo‘lib, u tahlil qilinayotgan hudud – masalan, ma’lum bir mintaqa, respublika, viloyat, tuman yoki shahar aholisi soniga qarab farqlanishi mumkin.

Jinoyatchilik dinamikasi – bu muayyan vaqt oralig‘ida (kun, oy, yil davomida) jinoyatchilik darajasi va tarkibida yuz berayotgan o‘zgarishlarni ifodalovchi ko‘rsatkichdir.

Jinoyatchilik tarkibi esa – ma’lum mamlakat, hudud yoki mintaqada muayyan davr yoki tarixiy bosqich mobaynida sodir etilgan barcha jinoyatlarning turlarga ajratilgan yig‘indisidir.

Jinoyatlar turlari bir nechta guruhlash mezonlari asosida belgilanadi. Eng muhimlari – ijtimoiy-demografik, jinoyat-huquqiy va kriminologik belgilar hisoblanadi. Umuman olganda, jinoyatchilik tarkibi uni sifat jihatidan tavsiflaydi, ya’ni jinoyatchilikning ijtimoiy xavflilik darajasini ko‘rsatadi.

Jinoyatchilik tarkibi, umumiy ma’noda, jinoyatchilikni shakllantiruvchi qilmishlar yoki ularning guruhlarining ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatini ifodalaydi. Kriminologiya fanida jinoyatchilikning to‘liq va noto‘liq tarkibi farqlanadi.

To‘liq tarkib – jinoyatchilik majmuasining (massasining) barcha mumkin bo‘lgan guruhlash mezonlari bo‘yicha taqsimlanishini bildiradi.

Noto‘liq tarkib esa – jinoyatchilikni ayrim muhim guruhlash belgilariga ko‘ra tahlil qilishni nazarda tutadi.

Jinoyatchilik dinamikasi – bu muayyan vaqt oralig‘ida (oy, chorak, yarim yillik, yil, besh yillik, o‘n yillik, yigirma yillik va hokazo) jinoyatchilikning umumiy darajasi hamda uning tarkibiy ko‘rsatkichlarining o‘sishi yoki kamayish yo‘nalishida o‘zgarib borishini ifodalovchi jarayondir.

Jinoyatchilik dinamikasiga ko‘plab omillar ta’sir etadi. Ularning eng asosiylari ikki guruhga bo‘linadi: ijtimoiy omillar va yuridik omillar.

Ijtimoiy omillar qatoriga jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari, uni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlar, aholining demografik tarkibi, migratsiya jarayonlari hamda shu kabi boshqa omillar kiradi.

Yuridik omillar guruhiga esa jinoiy va ma’muriy jazo tizimi kiradi. Bu omillar jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini belgilab beradi va ularning samaradorligi jinoyatchilik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, bu guruhga qonun hujjatlariga kiritiladigan o‘zgartish va qo‘shimchalar, ya’ni jinoiy yoki boshqa jazoga sabab bo‘ladigan

qilmishlar doirasini belgilash, ayrim jinoyatlar tasnifini o‘zgartirish kabi holatlar ham kiradi.

2.2. Latent jinoyatchilik va uning turlari

Latent jinoyatchilik (lotincha latens – yashirin, ko‘rinmas, sezilmas) kriminologiyada jinoyatchilikning shunday turi sifatida tushuniladiki, u rasmiy jinoyat statistikasi ma’lumotlarida o‘z aksini topmaydi va jinoyat ishi yuritish jarayonining predmeti bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, bu shunday jinoyatlardirki, ularning sodir etilgani haqida hech qanday rasmiy axborot mavjud emas. Jinoyatchilikning aniqlanmagan yoki yashirin holatda bo‘lishi bugungi kunda nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyo miqyosida ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Latent jinoyatlar – bu qonun bo‘yicha tergov va sud organlari tomonidan o‘rganilishi lozim bo‘lgan, ammo turli sabablarga ko‘ra ularning e’tiboridan chetda qolgan, rasmiy ro‘yxatga olinmagan, jazoga sabab bo‘lishi kerak bo‘lgan qilmishlardir. Yashirin jinoyatlar – jinoyat haqida tegishli tergov yoki sud organlariga xabar yetib bormagan, natijada aniqlanmay qolgan holatlardir.

Latent jinoyatlar kriminologiya hamda jinoyat huquqida mustaqil huquqiy tushuncha sifatida o‘rganiladi. Kriminologiyada yashirin jinoyatchilikni o‘rganish masalasi 1960-yillarda keng miqyosda rivoj topgan bo‘lsa-da, bunday hodisaning mavjudligi haqida ilk bor XIX asr oxirida yashab o‘tgan mashhur olim, yashirin jinoyatchilik statistik tahlilining asoschilaridan biri – A. Ketle tomonidan so‘z yuritilgan. Umuman olganda, jinoyatchilik holatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarning obyektivligi va ularni real nazorat ostiga olish muammosi jahon miqyosida dolzarb bo‘lib qolmoqda hamda hanuzgacha to‘liq yechimini topgan emas. Jinoyatchilik darajasini aniqlashda uning yana bir muhim jihatini – jinoyatchilikning yashirin (latent) tendensiyasini ham hisobga olish zarur.

Umuman olganda, latentlik yoki yashirinlik jinoyatchilikning ajralmas va o‘ziga xos belgilaridan biridir. Ya’ni, yashirinliksiz

jinoyatchilik mavjud bo‘lishi mumkin emas. Bu fikrni olim V.M. Kogan o‘z tadqiqotlarida asoslab, quyidagicha ta’kidlagan: «Qanday qilib har bir jinoyatchi o‘zi sodir etgan jinoyatni yashirishga intilsa, xuddi shunday tarzda jinoyatchilik hodisasining o‘zi ham yashirinlikka, ya’ni latentlik holatiga moyillik tendensiyasiga ega».

Ko‘pchilik tadqiqotchilar latent jinoyatchilikni ikki turga ajratib o‘rganadilar: tabiiy latent va sun’iy latent jinoyatchilik. Arz qilinmagan, ya’ni tabiiy latent jinoyatchilik deyilganda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ma’lum bo‘lmagan jinoyatlar nazarda tutiladi. Bunday jinoyatlar haqida odatda faqat jinoyatni sodir etgan shaxs yoki jabrlanuvchining o‘zi biladi, biroq ular ma’lum sabablar tufayli bu holat haqida xabar bermaydilar. Tabiiy latent jinoyatchilik hayotda uchraydigan oddiy va keng tarqalgan omillar natijasida yuzaga keladi. Masalan, ba’zi fuqarolar o‘zlariga nisbatan jinoyat sodir etilganini anglamasliklari mumkin, chunki ular mavjud holatni huquqiy jihatdan to‘g‘ri baholash uchun yetarli bilimga ega emaslar.

Bunday holatdan, o‘z navbatida, jinoyatchilar – masalan, firibgarlar mohirlik bilan foydalanadilar. Jabrlangan shaxslar esa, aldanib qolganini fahmlaganlaridan keyin ham, ko‘pincha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishmaydi. Bunga turli sabablar turtki bo‘ladi: fuqarolarning huquqni muhofaza etuvchi organlarga nisbatan ishonchsizliklari; bu organlarning ularni himoya qila olmasligiga yoki jinoyatni ochishga qodir emasligiga ishonmaslik; protsessual jarayonlardan cho‘chish; jinoyatchining keyinchalik qasos olishi ehtimolidan qo‘rqish; uyat hissi sababli jinoyat oshkor bo‘lishidan qo‘rqish (masalan, jinsiy tajovuz holatlarida); yoki jinoyatchi bilan o‘zaro kelishuvga erishish kabi holatlar bunga sabab bo‘lishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarga ko‘ra, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bildirilmagan jinoyatlar amalda sodir etilgan jinoyatlarning deyarli yarmiga teng ekan. Tabiiy latent jinoyatchilikdan tashqari, ro‘yxatga olinmagan, ya’ni sun’iy latent jinoyatchilik ham mavjud. Latent jinoyatchilikning bu turi – amalda sodir etilgan, jamiyat tomonidan jinoyat sifatida qabul qilingan, biroq

davlat tomonidan hali jinoyat deb e’tirof etilmagan ijtimoiy xavfli qilmishlardan iboratdir.

Latent jinoyatchilikning ushbu turi – hisobga olinmagan yoki davlat idoralari, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ro‘yxatga kiritilmagan jinoyatlarni o‘z ichiga oladi. Buning sababi, asosan, jinoyatlar hisobini yuritish va ularni qayd etish jarayonining yetarli darajada samarali tashkil etilmaganidadir. Shu bilan birga, ayrim hollarda jinoyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar turli sabablar, jumladan, muayyan hudud yoki sohada qonunbuzarliklar mavjud emas degan soxta tasavvur yaratish maqsadida, ataylab yashirilishi ham mumkin. Ilgari amal qilgan analogiya instituti, garchi qonuniylik tamoyiliga zid bo‘lsa-da, qonunchilikdagi ayrim bo‘shliqlarni qisman to‘ldirish imkonini bergan. Aslida, jinoyatlarning yashirilganligi (latentlik) hodisasi ko‘plab salbiy oqibatlarga olib keladi. U jinoyatchilikning haqiqiy hajmi, shakllari, tuzilishi hamda jamiyat, davlat va fuqarolarga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zarar miqdori haqida noto‘g‘ri tasavvurlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Latentlik oqibatida jinoyat sodir etilishiga zamin yaratadigan omillarni aniqlash jarayoni murakkablashadi, jazoning muqarrarligi tamoyilini amalda ta’minlash qiyinlashadi. Natijada jinoyatchilar va aholining ayrim qatlamlarida jazosizlik hissi paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, davlat va jamiyat miqyosida, turli hududlar kesimida jinoyatchilik darajasini oldindan prognoz qilish imkoniyati cheklanadi. Bu holat esa jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday turdagi jinoyatlar ayrim sabablarga ko‘ra rasmiy statistik hisobotlarda o‘z ifodasini topmay, hisobdan tashqarida qolgan jinoyatlarni o‘z ichiga oladi.

2.3. Jinoyatchilikning sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.

Ayrim jinoyat turlarining yashirinlik (latentlik) darajasini aniqlash, shuningdek umuman latent jinoyatchilik miqyosini belgilash

kriminologiya fanida muhim o‘rin tutadi. Chunki yashirin jinoyatchilik darajasi o‘rganilmas ekan, jinoyatchilikning haqiqiy holatini to‘liq tahlil qilish imkonsiz bo‘ladi. Bu holda jinoyatchilikni oldindan prognozlash, mavjud kriminogen vaziyatni aniq baholash, unga qarshi kurashishning samarali taktika va strategiyasini ishlab chiqish mushkullashadi. Shu bilan birga, latent jinoyatchilik darajasini aniqlamasdan turib, kriminologiya fanining kelgusi rivojlanish yo‘nalishlarini to‘liq tasavvur etish ham qiyin, chunki har qanday kriminologik tadqiqotlar ishonchli va to‘liq statistik ma’lumotlarga asoslanishi zarur. Shu sababli, kriminologiyada latent jinoyatchilikni o‘rganishda uning darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi usul va metodlar alohida e’tiborda bo‘ladi. Biroq, hozirga qadar bu usul va metodlar to‘liq tizimlashtirilmagan, yagona me’yorga solinmagan va to‘liq tasniflanmagan. Latent jinoyatchilikni tadqiq etishda sotsiologik yondashuvlarning keng imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ular birinchi darajali o‘rganish metodlari sifatida ko‘rib chiqiladi.

Bu usullar o‘z ichiga kuzatuv, ishonchli suhbatlar o‘tkazish, so‘rovnoma tuzish, ekspert baholashlarini amalga oshirish, aholining jabrlanish (viktimizatsiya) darajasini tahlil qilish, ommaviy axborot vositalarida chop etilgan materiallarning mazmuniy (kontent) tahlilini hamda boshqa shunga o‘xshash yondashuvlarni qamrab oladi.

Shartli ravishda «operativ-tergov usullari» deb ataluvchi ikkinchi guruh esa, yashirin jinoyatlarni aniqlashga qaratilgan metodlar majmuini o‘z ichiga oladi. Bu metodlar, asosan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning operativ, tergov va nazorat faoliyatlari jarayonida qo‘llanadi.

Eng keng tarqalgan usullardan biri bu – taqqoslash usulidir. Ya’ni, ma’lum bir turdagi sodir etilgan jinoyatlar haqidagi ma’lumotlar ularning asosida qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari hamda ochilgan ishlar soni bilan solishtiriladi. Shuningdek, jinoiy statistikaning o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, jinoyat hisobotlarini ma’muriy yoki intizomiy huquqbuzarliklar statistikasi bilan taqqoslash kabi yondashuvlar ham bu guruhga kiradi. Tadqiqotchilar bunday usullarni «axborot-taqqoslash metodlari» deb ataydilar.

2.4. Jinoyatchilik darajasi va dinamikasini tushuntiring.

KAZUS: «Tuman markazidagi jinoyatchilikning o‘sishi»

Jizzax viloyatining G‘allaorol tumanida so‘nggi uch oy davomida huquqbuzarliklar soni sezilarli darajada oshdi. Ichki ishlar bo‘limi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning iyul-sentabr oylarida 86 ta jinoyat qayd etilgan, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 35 foizga ko‘pdir.

Jinoyatlarning turlari bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- 45 tasi – **o‘g‘irliklar** (asosan. mototsikl, uy jihozlari, telefonlar);
- 20 tasi – **bezorilik holatlari**;
- 10 tasi – **korrupsiya bilan bog‘liq iqtisodiy jinoyatlar**,
- 6 tasi – **yoshlar o‘rtasidagi janjal va tan jarohati yetkazish**;
- 5 tasi – **yo‘l-transport hodisalari natijasida kelib chiqqan jinoyatlar**.

Tuman aholisining fikricha, jinoyatlar ko‘payishiga ishsizlik, yoshlar bandligining yetarli emasligi, tungi nazoratning sustligi va aholining huquqiy ongi pastligi sabab bo‘lmoqda.

Kriminologik tahlil shuni ko‘rsatdiki, jinoyatchilikning **ijtimoiy ildizlari** chuqur bo‘lib, u **guruhiy jinoyatchilik**, **voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi** va **iqtisodiy jinoyatlar** kabi turli shakllarda namoyon bo‘lmoqda.

Savollar (muammo tahlili uchun):

1. Ushbu kazus asosida **jinoyatchilik tushunchasi**ni qanday ta’riflash mumkin?
2. Keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqib, jinoyatchilikning **asosiy tavsiflari**ni (miqyosi, dinamikasi, tuzilmasi, geografiyasi) aniqlang.
3. Bu tuman misolida **jinoyatchilikning qaysi turlari** kuzatilmoqda?
4. Jinoyatchilikning o‘sishiga olib kelgan **ijtimoiy omillar**ni sanab o‘ting.

5. Ushbu hududda jinoyatchilikni kamaytirish uchun **kriminologik profilaktika** choralarini taklif eting.

6. Jinoyatchilikni o‘rganishda **statistik ma’lumotlar**ning o‘rni qanday?

Nazorat uchun savollar

1. Jinoyatchilik tushunchasi va uning belgilari.
2. Jinoyatchilik ko‘rsatkichlari, tarkibi, tuzilishi.
3. Latent jinoyatchilik va uning turlari haqida ma’lumot bering.
4. Jinoyatchilikka ta’rif bering va uning belgilariga to‘xtaling.
5. Jinoyatchilikni qiyosiy tahlil qiling.
6. Jinoyatchilikning sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini tahlil qiling.
7. Jinoyatchilik ko‘rsatkichlari haqida ma’lumot bering.
8. Jinoyatchilikni bashorat qilish deganda nima tushuniladi?
9. Jinoyatchilik darajasi va dinamikasini tushuntiring.
10. Jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra taqsimlanishi.
11. Latent jinoyatchiligining turlari haqida ma’lumot bering.
12. Kam latentli jinoyatlarning kriminologik tavsifini keltiring.

III BOB. JINOYATCHILIK SABABLARI

3.1. Jinoyatchilik sabablarining tushunchasi va uni vujudga kelishi.

3.2. Determinatsiyaning turlari.

3.3. Jinoyatchilik sabablarini tasniflash

3.1. Jinoyatchilik sabablarining tushunchasi va uni vujudga kelishi.

Jinoyatchilik sabablari tushunchasi va uni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlar. Determinatsiyaning turlari.

Jinoyatchilik sabablari – bu jinoyatlarning sodir etilishiga zamin yaratadigan, ularni rag‘batlantiradigan, rivojlanishiga va ko‘payishiga turtki beradigan hodisalar, voqealar hamda jarayonlar majmuasidir.

Jinoyatchilikni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar esa – jinoyatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sababi bo‘lmagan, biroq uning amalga oshishiga yordam beruvchi, jinoyat sodir etilishi uchun qulay muhit yaratadigan hodisalar, voqealar va jarayonlarning yig‘indisidir.

Jinoyatlarning oldini olish, eng avvalo ularning sabab va sharoitlarini to‘liq aniqlash hamda ularni bartaraf etish yoki zararsizlantirishga qaratilgan aniq va maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Buning uchun jinoyatlarning sabab va sharoitlarini ilmiy asosda tasniflash muhim ahamiyatga ega. Bunday tasnif ularni kelib chiqish manbai, ta’sir ko‘rsatish darajasi, mazmuni, ta’sir yo‘nalishi, vaqt va hududiy tarqalishi kabi turli mezonlarga ko‘ra amalga oshiriladi.

Kelib chiqishiga qarab, jinoyatlarning sabab va sharoitlari asosiy va ikkinchi darajali (asosiy bo‘lmagan) turlarga ajratiladi. Asosiy sabab va sharoitlar – bu jamiyat taraqqiyotining istalgan bosqichida huquqbuzarliklarning obyektiv tarzda mavjud bo‘lishini ta’minlaydigan va ularning paydo bo‘lishini belgilab beruvchi hodisa, voqea hamda jarayonlarning majmuasidir.

Jinoyatlarning oldini olish, eng avvalo ularning sabab va sharoitlarini to‘liq aniqlash hamda ularni bartaraf etish yoki zararsizlantirishga qaratilgan aniq va maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Buning uchun jinoyatlarning sabab va sharoitlarini ilmiy asosda tasniflash muhim ahamiyatga ega. Bunday tasnif ularni kelib chiqish manbai, ta’sir ko‘rsatish darajasi, mazmuni, ta’sir yo‘nalishi, vaqt va hududiy tarqalishi kabi turli mezonlarga ko‘ra amalga oshiriladi.

Kelib chiqishiga qarab, jinoyatlarning sabab va sharoitlari asosiy va ikkinchi darajali (asosiy bo‘lmagan) turlarga ajratiladi. Asosiy sabab va sharoitlar – bu jamiyat taraqqiyotining istalgan bosqichida huquqbuzarliklarning obyektiv tarzda mavjud bo‘lishini ta’minlaydigan va ularning paydo bo‘lishini belgilab beruvchi hodisa, voqea hamda jarayonlarning majmuasidir.

Asosiy bo‘lmagan sabablar sifatida hozirgi davrda kuzatilayotgan ishsizlik, milliy valutaning qadrsizlanishi, shuningdek tashkiliy va boshqaruv sohasida yo‘l qo‘yilayotgan xatolar hamda kamchiliklarni misol keltirish mumkin. Ta’kidlash joizki, jinoyatchilikning asosiy sabab va sharoitlari ko‘pincha asosiy bo‘lmagan sabab va sharoitlarni yuzaga keltiradi, o‘z navbatida, asosiy bo‘lmagan omillar esa mavjud asosiy sabab va sharoitlarning ta’sirini kuchaytirishi mumkin.

Jinoyatlarning sabab va sharoitlarini chuqur tahlil qilish ularni darajalar bo‘yicha o‘rganishni talab etadi. Dialektika fanining umumiylik, maxsuslik va alohidalik kategoriyalariga tayangan holda, ushbu sabab va sharoitlar umumijtimoiy, guruhiy hamda shaxsiy darajadagi sabab va sharoitlarga ajratilib o‘rganiladi.

1. Umumijtimoiy darajadagi sabab va sharoitlar – bu jamiyatda huquqbuzarliklarning ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida obyektiv va qonuniy tarzda mavjud bo‘lishini belgilovchi hamda taqozo etuvchi omillardir. Huquqbuzarliklarning ushbu sabab va sharoitlarini o‘rganish nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular jinoyatchilik muammolarini hal etishning ilmiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, bu

darajadagi tahlil keyingi bosqichlarda jinoyatlarning sabab va sharoitlarini chuqurroq o‘rganish uchun asosiy manba vazifasini bajaradi.

2. Guruh darajasidagi sabab va sharoitlar – bu muayyan turdagi huquqbuzarliklarning (masalan, voyaga yetmaganlar, ayollar, yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar, shuningdek g‘arazgo‘ylik, zo‘ravonlik, ehtiyotsizlik oqibatidagi jinoyatlar, tuhmat, haqorat, bezorilik, qotillik, o‘g‘irlik, talonchilik, firibgarlik, bosqinchilik, ijtimoiy xavfli qilmishlar va boshq.) vujudga kelishiga va sodir etilishiga zamin yaratadigan omillardir. Ushbu sabab va sharoitlar jamiyatda ma’lum turdagi jinoyatlarning mavjudligi va ularning sodir bo‘lishini ta’minlovchi xususiy omillar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Shaxsiy darajadagi sabab va sharoitlar – bu aniq bir shaxsning jinoyat sodir etishiga turtki bo‘lgan, asosan shaxsiy va subyektiv xarakterga ega omillar hamda unga imkon yaratgan muayyan hayotiy yoki tasodifiy shart-sharoitlar majmuasidir. Bunday omillar shaxsning ichki dunyosi, ma’naviy qadriyatlari, axloqiy qarashlari, ruhiy holati va ijtimoiy muhitdagi o‘rni bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, barcha darajadagi sabab va sharoitlar o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, umumijtimoiy hamda guruhiy darajadagi omillar ko‘pincha shaxsiy darajadagi sabab va sharoitlarda o‘z ifodasini topadi. Aksincha, shaxsiy darajadagi tipik sabab va sharoitlar esa umumijtimoiy omillar tizimini shakllantiradi. Umumijtimoiy darajadagi sabab va sharoitlarni tahlil qilish ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular asosida davlat miqyosida yoki alohida hududlarda jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va hayotga tatbiq etiladi. Shu bilan birga, guruhiy darajadagi jinoyat sabab va sharoitlarini o‘rganish esa ma’lum turdagi jinoyatlarning oldini olish, ularning miqdorini kamaytirish va profilaktika tizimini takomillashtirish uchun zarur ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxsiy darajadagi sabab va sharoitlarni aniqlash hamda tahlil qilish amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Bu, avvalo, jinoyat sodir etgan

har bir shaxsga javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta’minlashda individual yondashuvni qo‘llash imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday tahlil jinoyatning kelib chiqish sabablarini hamda unga sharoit yaratgan omillarni bartaraf etish yoki neytrallashtirish uchun zarurdir. Har bir aniq jinoyatning sabab va sharoitlari o‘ziga xos bo‘lib, ular bir-biridan ma’lum jihatlarda farqlanadi. Biroq har qanday hodisada, uning o‘ziga xosligiga qaramay, muayyan umumiylik unsurlari mavjud bo‘ladi.

Shu bois jinoyatlarning sabab va sharoitlarini o‘rganishning ilmiy-amaliy ahamiyati, asosan, muayyan huquqbuzarliklarga oid ishlar bo‘yicha yig‘ilgan materiallar hamda statistik ma’lumotlar tahlili orqali olingan umumlashtirilgan natijalarga asoslanadi. Jinoyatlarning sabab va sharoitlarini mazmuniga ko‘ra tasniflash ham amaliy nuqtayi nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazmun jihatidan ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

– iqtisodiy sabablar va sharoitlar: moliyaviy inqiroz, milliy valutaning qadrsizlanishi,

qora bozor faoliyatining mavjudligi va shu kabilar;

– siyosiy omillar: korrupsiya, mahalliychilik, qarindosh-urug‘chilik, konstitutsion

tuzumni kuch bilan o‘zgartirishga urinish, hokimiyatni noqonuniy yo‘llar bilan egallash;

– g‘oyaviy sabablar: «g‘oyaviy bo‘shliq» holati, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni qo‘zg‘atuvchi, shuningdek ekstremistik, separatistik, fundamentalistik va terroristik g‘oyalarning tarqalishi;

– ijtimoiy-ruhiy omillar: adolatsizlik hissi, shaxsiyatparastlik, manfaatparastlik,

g‘arazgo‘ylik, buzg‘unchilik qarashlarining mavjudligi;

– tashkiliy-boshqaruv sabablar: davlat va jamoat boshqaruvidagi kamchiliklar, mansab

vakolatlarining suiiste’mol qilinishi, xodimlarning xizmat burchlarini bajarmasligi, ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarda yuz beradigan kamchiliklar;

– huquqiy sabablar: qonunchilikdagi «huquqiy bo‘shliqlar» va ziddiyatlar, huquqiy nigilizm, ayrim sohalarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning yo‘qligi.

– bu tasnif jinoyatlarning ildizini chuqur o‘rganish, ularning oldini olish mexanizmlarini

ishlab chiqish va huquqbuzarliklarni kamaytirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni belgilashda katta ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, huquqbuzarliklarning barcha sabab va sharoitlari inson ongiga va psixologiyasiga ta’sir etib, ularda g‘ayriijtimoiy qarashlar hamda xulq-atvorni shakllanishiga yoki ularning kuchayishiga zamin yaratadi. Shu bois jinoyatlarning sabab va sharoitlari doimo ijtimoiy-psixologik mohiyatga ega bo‘ladi. Ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlar ijtimoiy muhitdan kelib chiqadi, biroq ular ma’lum darajada mustaqil xarakterga ham ega.

Jinoyatlarning ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlari – bu ijtimoiy hayotning turli sohalarida mavjud bo‘lgan salbiy hodisalar, jarayonlar va voqealar natijasida vujudga keladigan omillardir. Har qanday jamiyatda, uning rivojlanish bosqichidan qat’i nazar, bunday ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlarni yuzaga keltiruvchi obyektiv hamda subyektiv omillar mavjud bo‘ladi, ammo ularning ta’sir darajasi turlicha bo‘ladi.

Har qanday jinoyatning sodir etilishi zamirida ma’lum ijtimoiy-psixologik omillar – ya’ni g‘ayriijtimoiy qarashlar, odatlar, ko‘nikmalar, niyatlar va xulq-atvor kabi holatlar yotadi. Ana shunday omillar subyektiv sabab va sharoitlar deb ataladi. Bunga qarama-qarshi tarzda, shaxsdan tashqarida mavjud bo‘lgan, uning ongiga va psixologiyasiga ta’sir etib, unda g‘ayriijtimoiy qarashlar, odatlar va xulq-atvorni shakllantiruvchi hamda ularni mustahkamlovchi hodisalar, voqealar va jarayonlar obyektiv sabab va sharoitlar sifatida qaraladi.

Jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichida obyektiv va subyektiv sabab hamda sharoitlar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi va jinoyat sodir etilishiga zamin yaratadigan yagona tizimni tashkil etadi.

Obyektiv sabab va sharoitlarning kuchayishi natijasida yangi subyektiv sabab va sharoitlar paydo bo‘ladi, xuddi shuningdek subyektiv sabab va sharoitlarning ortib borishi obyektiv sabab va sharoitlarning yanada kuchayishiga olib keladi. Aksincha, obyektiv sabab va sharoitlarning kamaytirilishi o‘z navbatida subyektiv sabab va sharoitlarni bartaraf etish uchun zamin yaratadi. Shuningdek, subyektiv sabab va sharoitlarni kamaytirish ham obyektiv sabab va sharoitlarning yo‘qolishiga yoki ularning ta’sir kuchining susayishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, jinoyatchilikning sabab va sharoitlari vaqt omili va tarqalish doirasiga ko‘ra davlat miqyosida, alohida hududlarda, shuningdek qishloq hamda shahar joylarida doimiy yoki vaqtinchalik ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga ajratiladi. Jinoyatlarning sabab va sharoitlarini bunday tarzda tasniflash zarur profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni qaysi hududlarda amalga oshirish lozimligini aniqlash imkonini beradi.

Kriminologiya fanida sababiyat masalasi eng murakkab va murakkab tahlilni talab qiladigan yo‘nalishlardan biridir. Shu bois ushbu masalaga tizimli, chuqur va har tomonlama yondashish lozim bo‘ladi.

3.2. Determinatsiyaning turlari.

Jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini izohlashda dunyoviy o‘zaro bog‘liqliklarning bir ko‘rinishi hisoblangan determinatsiya tushunchasidan foydalaniladi. «Determinatsiya» atamasi lotincha «determinatio» so‘zidan olingan bo‘lib, «aniqlash», «belgilash», «taqozo etish» ma’nolarini anglatadi. U voqealar, hodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi ta’limotni anglatadi.

Jinoyatchilik determinantlari – bu jinoyatchilikning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladigan hamda uning mavjudligini ta’minlab turuvchi aniq omillar, ya’ni sabablar va shart-sharoitlardir.

Agar jinoyatchilik sabablariga jamiyatning ma’lum tarixiy rivojlanish bosqichlari nuqtayi nazaridan yondashilsa, bu jarayonda iqtisodiy omillar

– ishlab chiqarish va taqsimot jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bunga quyidagilar ham ta’sir ko‘rsatadi:

– ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga xos jihatlar;

– jamiyatdagi ijtimoiy ruhiyat va madaniyat darajasi;

– ishlab chiqarish, taqsimot, boshqaruv, madaniyat kabi sohalarda demokratik tamoyillarning buzilishi;

– jamiyatdagi axloqiy va ma’naviy muhitning beqarorligi.

Jinoyatchilik jamiyat qonuniyatlarini belgilovchi obyektiv ijtimoiy jarayonlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy sohada esa u quyidagi omillar bilan bog‘liq:

– ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi nomutanosiblik;

– mehnat turlari, sharoitlari va shakllaridagi tafovutlar hamda qarama-qarshiliklar.

– moddiy ta’minlanganlik darajasidagi farqlar kiradi.

Siyosiy sohada:

– hokimiyat va boshqaruvni tashkil qilishdagi qarama-qarshiliklar;

– demokratiyaning darajasi va uni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan garama-qarshiliklar;

– qonunni amalda qo‘llashda mavjud bo‘lgan kamchiliklar.

Ijtimoiy munosabatlar sohasida:

– oilaviy maishiy muammolar;

– yoshlar ahvoli bilan bog‘liq qarama-qarshiliklar;

– milliy va etnik qarama-qarshiliklar;

– turli joylardagi yashash sharoiti bilan bog‘liq bo‘lgan qarama-qarshiliklar. Mafkuraviy sohada:

– ta’lim va tarbiyaviy sharoitlardagi qarama-qarshiliklar;

– ijtimoiy ong, axloq va ma’naviyatning holatidagi garama-qarshiliklar;

– diniy qarama-qarshiliklardan iboratdir.

Dialektik determinizm – bu tabiat va jamiyatda mavjud bo‘lgan barcha hodisalar, shu jumladan insonning iroda va xulq-atvori ham umumiy obyektiv qonuniyatlarga bo‘ysunishini hamda ular o‘zaro bog‘liq holda bir-birini taqozo etishini tan oluvchi ta’limotdir.

Jinoyatchilikning sabab va sharoitlari esa dialektik determinizmning tarkibiy qismi sanalgan sababiy bog‘liqlik tamoyillariga asoslanib izohlanadi.

Birinchidan, dialektik determinizm tamoyillariga ko‘ra, sabab va oqibat o‘rtasidagi bog‘liqlik – bu obyektiv jarayon bo‘lib, unda bir hodisa (sabab) boshqasining (oqibatning) vujudga kelishiga zamin yaratadi. Bunday sababiy aloqadorlik inson ongida emas, balki real hayotda, obyektiv voqelikda mavjud bo‘ladi.

Ikkinchidan, sababiy bog‘liqlik o‘zaro ta’sirda bo‘lgan hodisalar orasidagi obyektiv va qonuniy aloqani ifodalaydi. Jinoyatlar hamda huquqbuzarliklar insonning ijtimoiy xavfli xatti-harakati yoki harakatsizligi tarzida namoyon bo‘lganligi sababli, ularning sabab va sharoitlari ham ijtimoiy-psixologik mazmunga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, har bir hodisa ma’lum darajada boshqa hodisalar bilan bevosita yoki bilvosita aloqada bo‘ladi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida kechadigan voqea, jarayon va hodisalar ham ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladigan jinoyatlar bilan muayyan darajada, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita bog‘langan bo‘ladi.

To‘rtinchidan, dialektikada hodisalar o‘rtasidagi umumiy bog‘liqlik ularning barchasi teng ahamiyatga ega degan ma’noni anglatmaydi. Dialektik yondashuv bu bog‘liqliklarni ahamiyatli yoki ahamiyatsiz, bevosita yoki bilvosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki teskari ta’sir ko‘rsatuvchi turlarga ajratib o‘rganadi. Shu bois, jinoyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan turli hodisa, voqea va jarayonlarning qaysilari asosiy yoki ikkinchi darajali, tashqi yoki ichki sabab va sharoitlar ekanligini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Beshinchidan, dialektik ta’limotda sababiy bog‘lanish korrelyatsion, vaqtinchalik, hududiy, kuzatuvchi yoki boshqa turdagi oddiy aloqalardan farq qiladi.

Oltinchidan, sababiy bog‘lanishni to‘g‘ri anglash uchun uning murakkab, ko‘p pog‘onali va bosqichma-bosqich rivojlanadigan xususiyatini tushunish zarur. Har bir sababning o‘ziga xos sababi mavjud bo‘ladi, har bir oqibat esa yangi oqibatlarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, bitta sabab bir nechta oqibatlarga olib kelishi, yoki aksincha bitta oqibat bir necha sabab natijasida yuzaga chiqishi ham mumkin.

Yettinchidan, sababiy bog‘lanish tamoyillariga ko‘ra, sabab faqat tegishli sharoit mavjud bo‘lgandagina faol bo‘ladi va oqibatni keltirib chiqaradi. Ya’ni, sabab va sharoit o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgandagina natija yuzaga chiqadi. Agar sabab mavjud bo‘lib, lekin zarur sharoit bo‘lmasa yoki aksincha, sharoit bo‘lib, sabab mavjud bo‘lmasa, bunday holatda oqibat sodir bo‘lmaydi.

Sakkizinchidan, dialektik ta’limot hodisalarning sabab va sharoitlarga ajratilishi nisbiy ekanligini e’tirof etadi. Har qanday sabab ma’lum darajada sharoit sifatida namoyon bo‘lishi mumkin, xuddi shuningdek har qanday sharoit boshqa holatda sabab vazifasini bajarishi ehtimoldan xoli emas.

Ijtimoiy adabiyotlarda jinoyatchilik sabablarini izohlashda, asosan, ikki asosiy yo‘nalish – biologik va sotsiologik yondashuvlar ajratib ko‘rsatiladi. Ulardan biologik nazariyalar jinoyatchilik sabablarini insonning tabiiy, biologik xususiyatlari bilan bog‘laydi va bu borada eng rivojlangan konsepsiyalardan biri hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, jinoyatchilikni biologik omillar bilan izohlash g‘oyasi hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, eng barqaror tendensiyalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda.

Mazkur yo‘nalishning shakllanishida italiyalik shifokor va kriminalist, Turin universiteti anatomiya professori Chezare Lombrozo (1830–1909) alohida o‘rin tutadi. U birinchi bo‘lib jinoyatchilikning biologik omillarini o‘rganish, ularni tasniflash va ularning inson shaxsiyati

bilan bog‘liqligini tahlil qilish bilan maxsus shug‘ullangan olim sifatida tan olingan.

Chezare Lombrozo o‘z ilmiy faoliyatida «antropologik maktab» asoschisi sifatida tanilgan va unga bevosita rahbarlik qilgan. U shunday fikr bildirgan: «Axloq sohasida olib borilayotgan siyosat inson tabiatiga xos va doimiy his-tuyg‘ularga asoslanmas ekan, axloqni yaxshilashga umid qilish befoydadir. Jazo esa jinoyat sodir etish istagini jilovlovchi ichki omilga aylanishi kerak. Buning uchun jazo ochiq, tezkor va sodir etilgan qilmishga mos bo‘lishi lozim. Jinoyat sodir etilgandan keyin jazolashdan ko‘ra, uning oldini olish maqsadga muvofiqdir. Yaxshi qonun chiqaruvchi ana shu tamoyilni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi kerak. Ammo bunga erishish uchun har bir inson davlat va jamiyatda to‘liq fuqarolik huquqlariga ega bo‘lishi zarur».

Lombrozo tomonidan ishlab chiqilgan jinoyatchilik sabablari nazariyasi pozitivizm falsafasi (Ogyust Kont, Gerbert Spenser), psixiatriya va statistik tahlil asoslariga tayanadi. Shuni qayd etish joizki, Lombrozoning jinoyatchilik sabablari haqidagi qarashlari bosqichma-bosqich rivojlanib borgan. Dastlab u ilgari surgan «tug‘ma jinoyatchi» konsepsiyasida jinoyat omillarini alohida tasniflashga ehtiyoj deyarli mavjud emas edi, chunki asosiy e’tibor insonning tug‘ma biologik xususiyatlariga qaratilgan edi.

Izchil ilmiy yondashuv tarafdori bo‘lgan Lombrozo dastlab jinoyatchilik sabablari tizimini emas, balki tug‘ma jinoyatchilarning tashqi belgilarini, ularning jismoniy va ruhiy «stigma»larini aniqlash sxemasini ishlab chiqqan. Bu yondashuvni to‘liq tushunish uchun uning ikki asosiy asari – «Jinoiy odam» (1876) hamda «Jinoyatchilik, uning sabablari va davolash vositalari» (1899) ni qiyosiy tarzda o‘rganish zarur.

Genetik nazariya – bu irsiyat va organizmlarning o‘zgaruvchanligi qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, u biologiyada nisbatan yangi yo‘nalish – genetika fanining shakllanishiga asos yaratgan.

Jinoyatchilik sabablarining sotsiologik nazariyalari esa jinoyatning kelib chiqishiga ijtimoiy omillar ta’sirini tahlil qiladi. Ushbu yondashuvlar XVIII–

XIX asrlar oralig‘ida shakllanib, o‘z diqqat markazida ekzogen (tashqi) omillar va ularning ko‘pligini saqlab qoladi. Bu ta’limot vakillari jinoyatchilikni inson tabiatidan emas, balki ijtimoiy sharoit, tengsizlik va adolatsizlikdan izlaganlar. Masalan, XVI asrda Tomas Mor o‘zining «Utopiya» asarida ingliz jamiyatidagi jinoiy xulq-atvorni ayrim kishilarning qashshoqligi hamda boshqalarining parazitik hayot tarzi bilan izohlaydi. Tommazo Kampanella esa XVII asrda yozgan «Quyosh shahri» asarida jinoyatchilikni aholining keng qatlamlari orasidagi kambag‘allik bilan bog‘laydi hamda jamiyatni tenglik va adolat tamoyillariga asoslangan holda qayta qurish zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, A. Morelli o‘zining «Tabiat kodeksi» nomli asarida inson tabiatan nuqsonsiz, ya’ni tug‘ma kamchiliklardan xoli holda dunyoga kelishini ilgari suradi.

Psixologik nazariyalar esa hozirgi kunda jinoyatchilik sabablari orasida eng keng tarqalgan va nisbatan tizimli yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalish ikki asosiy tarmoqqa – psixopatik va psixoanalitik yondashuvlarga bo‘linadi. Psixopatik yo‘nalish jinoyat sodir etish insonning ruhiy holati va psixik moyilligi bilan bog‘liq, deb hisoblaydi. Nemis psixiatri Kurt Shneyder o‘zining «Psixopatik shaxslar» nomli asarida psixopatiyaga moyil insonlarning o‘nta turini ajratib ko‘rsatgan.

3.3. Jinoyatchilik sabablarini tasniflash

Kriminologiya fanida jinoyatchilik sabablarini tasniflashning mantiqan izchil va tizimli shakli ishlab chiqilgan. Ushbu tasnifda asosiy mezon sifatida sabablarning «amal qilish darajasi» olinadi. Bu yondashuvda sabablar umumiylik, maxsuslik va xususiylik nisbatining dialektik bog‘liqligi asosida ajratiladi. Ya’ni, jinoyatchilik sabablarining umumiylik darajasi tasnif mezoni sifatida xizmat qiladi. Shu asosda barcha sabab omillari majmuan quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

a) jinoyatchilikning umumiy sabablari – barcha jinoyatlar uchun xos bo‘lgan omillar;

b) jinoyatlarning ayrim toifalariga xos maxsus sabablari;

c) alohida jinoyat turlarining o‘ziga xos sabablarini ajratish mumkin.

Jinoyatchilik sabablarini tasniflashning ikkinchi yondashuvi esa ularning namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jarayonlarning mazmuni va mohiyatiga asoslanadi. Bu yondashuvda sabablar jamiyat hayotidagi turli soha va jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab farqlanadi. Shu bois jinoyatchilik sabablarini quyidagi to‘rt asosiy guruhga ajratish mumkin:

1) ijtimoiy-iqtisodiy sabablar;

2) mafkuraviy sabablar (shu jumladan, madaniy-tarbiyaviy omillar);

3) tashkiliy-boshqaruv sabablari;

4) ijtimoiy-psixologik sabablar.

Jinoyatchilik sabablarini tasniflashning uchinchi yondashuvi esa ularni to‘liqlik darajasi hamda o‘ziga xos belgilariga ko‘ra guruhlash zaruratidan kelib chiqadi. Ushbu qarashda «jinoyatning to‘liq sababi» quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

1) barcha ijtimoiy hodisa va omillar majmui;

2) bu omillarning xilma-xil tabiati (ya’ni, ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, tashkiliy-boshqaruv, huquqiy va ijtimoiy-psixologik omillar);

3) ushbu hodisalar va omillarning jinoyatchilikda turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘lishi – ya’ni, asosiy, ikkinchi darajali, bevosita yoki bilvosita tarzda ta’sir ko‘rsatishi.

Jinoyatchilik sabablarining to‘rtinchi tasnifi jinoyatga olib keluvchi ijtimoiy omillarning ta’sir mexanizmiga tayanadi. Ushbu yondashuvda jinoyatning sabablari bilan unga imkoniyat yaratadigan shart-sharoitlar o‘rtasidagi farq aniqlanadi. Sabablar, odatda, jinoyatni sodir etuvchi shaxsning ichki holati va shaxsiy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Jinoyatchilik sabablarining beshinchi tasnifi esa sabablarni ularning tabiatiga ko‘ra obyektiv, obyektiv-subyektiv va subyektiv turlarga ajratishga asoslanadi. Bu yerda shaxsning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan, tashqi ijtimoiy yoki iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqadigan omillar obyektiv sabablar deb hisoblanadi.

Subyektiv sabablar insonlarning, ularning guruhlari yoki birlashmalarining xohish-irodasi, qarashlari va faoliyati bilan belgilanadi. Ular shaxsning ichki dunyosi, psixologik holati hamda axloqiy qadriyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Jinoyatchilik sabablarining oltinchi tasnifi esa ijtimoiy-iqtisodiy tuzum va jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlariga tayangan holda amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda, jinoyatchilik sabablarini turli boshqa mezonlar asosida ham tasniflash zarur bo‘lib, bu ularni yanada chuqurroq o‘rganish va samarali profilaktik choralarni belgilash imkonini beradi.

Birinchidan, jinoyatchilik sabablarini ularning manbalari soniga qarab tasniflaganda, bir omilli va ko‘p omilli turlarga ajratish mumkin. Bu yondashuv jinoyatchilik sabablari bo‘yicha ilgari ishlab chiqilgan nazariyalarda, xususan «omillar nazariyasi» hamda «xromosomalar nazariyasi»da yaqqol ifodasini topgan.

Ikkinchidan, sabablarni jinoiy xulq-atvorning mazmuni va xarakteriga qarab ham guruhlash mumkin. Masalan, mulkka qarshi, zo‘ravonlikka asoslangan, davlat manfaatlariga qarshi, transport vositalariga oid va boshqa turdagi jinoyatlar uchun sabablar bir-biridan farq qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etgan shaxslarning asosiy motivlari ko‘pincha oilaviy muhitdagi muammolar bilan bog‘liq. Ular ko‘pincha oilada o‘z hukmini o‘tkazish, turmush o‘rtog‘i yoki farzandlarini «tuzatish», oiladagi vazifalarni to‘liq bajarmaslik uchun jazolash istagi, shuningdek shaxsiy hayotdagi yoki ish, o‘qishdagi muvaffaqiyatsizliklar, ishsizlik, oilaviy yetishmovchilik, rashk, xiyonat, g‘araz, o‘zaro hurmatsizlik, ma’naviy bo‘shliq, ichkilikbozlik va giyohvandlik kabi illatlar ta’sirida harakat qilishganini ko‘rsatadi.

Ushbu ma’lumotlar zo‘ravonlikning oilaviy muhitda keng tarqalgani va uning jamiyat uchun yuqori darajadagi ijtimoiy xavf tug‘dirishini aniq ko‘rsatib beradi.

Uchinchidan, jinoyatchilik sabablarini jinoyat oqibatlarining og‘irlik darajasi asosida tasniflash mumkin. Bu holatda sabablar o‘ta og‘ir, og‘ir,

uncha og‘ir bo‘lmagan hamda ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar bilan bog‘liq omillar sifatida ajratiladi.

To‘rtinchidan, jinoyatchilik sabablarini ularning sodir etilgan sohasi yoki muhitiga qarab ham guruhlash mumkin. Masalan, savdo, qurilish, jamoat joylari yoki boshqa sohalarda ro‘y beradigan jinoyatlar uchun sabablar o‘ziga xos farqlarga ega bo‘ladi.

Beshinchidan, jinoyatchilik sabablarini jinoyat sodir etgan shaxslarning shaxsiy xususiyatlariga qarab ham tasniflash mumkin. Misol uchun, mahkumlar orasida sodir etilgan jinoyatlar, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, retsidiv (takroriy) jinoyatlar kabi holatlar uchun sabablar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Yuqorida biz asosan umumiy tan olingan tasnif turlariga to‘xtaldik. Shu bilan birga, huquqbuzarliklarning sabablarini yana bir qator qo‘shimcha mezonlar asosida ham guruhlash mumkin. Yakuniy bosqichda, jinoyatlarning sabablarini huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan shaxsning ayb shakliga ko‘ra ham tasniflash mumkin. Masalan, ehtiyotsizlik oqibatida sodir bo‘lgan jinoyatlarning sabablari va sharoitlari qasddan sodir etilgan jinoyatlarnikidan tubdan farq qiladi.

Jinoyat sabab va sharoitlarini bunday yo‘sinda guruhlash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Chunki bu yondashuv muayyan turdagi jinoyatlarning oldini olish hamda jinoyat sodir etish ehtimoli mavjud shaxslar bilan olib boriladigan profilaktik ishlarni tizimli, aniq va samarali tarzda tashkil etish imkonini beradi.

KAZUS: «Ishsizlik va nazoratsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyat»

Vaziyat

Qodir 26 yoshda, viloyatdagi kichik qishloqda yashaydi. U kollejni tamomlagach, bir necha yil davomida doimiy ish topa olmadi. Mahalliy korxona qisqartirish sababli uni vaqtincha ishga olishdan bosh tortgan. Qodirning oilasi og‘ir ahvolda – otasi nogiron, onasi uy bekasi. Doimiy

daromad manbasi bo‘lmagani bois, u qarindoshlaridan qarz olib yashashga majbur bo‘ldi.

Bir kuni Qodirning eski sinfdoshi Diyor unga «tezda pul topish» taklifini beradi – u bilan birgalikda tungi vaqtda qishloq do‘konining orqa eshigini buzib kirib, oziq-ovqat va pulni o‘g‘irlashni rejalashtiradi. Qodir dastlab ikkilansa-da, «baribir hech kimga zarar yetmaydi» degan o‘y bilan rozilik bildiradi.

Ular jinoyat sodir etishadi, ammo atrofdagi kuzatuv kameralari orqali voqea qayd etiladi. Ertasi kuni militsiya ularni qo‘lga oladi. So‘roq vaqtida Qodir o‘z qilgan ishidan pushaymonligini bildirib, bu ishga uni og‘ir moddiy ahvol va ishsizlik majbur qilganini aytadi.

Tahlil uchun savollar

1. Ushbu jinoyatning **asosiy sabablari** nimalardan iborat?
2. Jinoyat sodir bo‘lishiga **imkon bergan shart-sharoitlar** qanday edi?
3. Qodirning ijtimoiy muammolari (ishsizlik, kambag‘allik) jinoyat sodir etishdagi **rag‘batlantiruvchi omil** bo‘la oladimi?
4. Davlat yoki jamiyat darajasida bunday holatlarning oldini olish uchun qanday **profilaktik choralar** ko‘rish mumkin?

Tahlil uchun izoh

1. Sabablar: ishsizlik, iqtisodiy nochorlik, ijtimoiy adolatsizlik hissi, past huquqiy madaniyat.

2. Shart-sharoitlar: nazoratning sustligi, tungi paytda do‘kon atrofida xavfsizlik choralari yo‘qligi, ijtimoiy yordam tizimining yetarli emasligi.

3. Profilaktika: yoshlarni bandlik dasturlariga jalb etish, kasb-hunar o‘qitish, mahalla darajasida nazoratni kuchaytirish, huquqiy targ‘ibotni rivojlantirish.

Nazorat uchun savollar

1. Jinoyatchilik sabablari tushunchasiga to‘xtaling va jinoyatchilikning sabablarini tasniflang.
2. Jinoyatchilikni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar nimalardan iborat?
3. Jinoyatchilikning sabablari to‘g‘risidagi asosiy nazariyalar qaysilar?
4. Determinatsiya tushunchasi va uning turlari.
5. Jinoyatchilikning iqtisodiy sabablari nimalardan iborat?
6. Jinoyatchilikning ma’naviy va moddiy sabablari nimalardan iborat?
7. Jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy sabablar nimalardan iborat?
8. Jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi moddiy sabablar?

IV BOB. JINOYATCHI SHAXSI TUSHUNCHASI, UNING TUZILISHI VA KRIMINOLOGIK TAVSIFI

4.1. Jinoyatchi shaxs tushunchasi va uning belgilari.
4.2. Jinoyat subyekti shaxsini o‘rganish.
4.3. Ijtimoiy-demografik tavsif. Ma’naviy-ruhiy tavsif.

4.1. Jinoyatchi shaxs tushunchasi va uning belgilari.

Jinoyatchi shaxsi – bu, eng avvalo, jinoyat sodir etgan subyektning shaxsiyatini ifodalaydi.

Shaxs – bu alohida inson bo‘lib, u o‘zida ijtimoiy va axloqiy mohiyatni mujassamlashtirgan individ sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tushuncha insonning ijtimoiy-ma’naviy va axloqiy jihatlarini ifodalaydi hamda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda o‘ziga xos mazmunda qo‘llaniladi.

Shaxs haqida turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Umuman olganda, shaxs – bu biologik-fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy va estetik fazilatlarning yagona butunlikda uyg‘unlashgan holati hamda insonning munosabatlar tizimi bilan belgilanuvchi murakkab tuzilishdir.

Shaxsning shakllanish jarayonida quyidagi asosiy omillar muhim rol o‘ynaydi:

1) biologik (nasl);
2) tabiiy muhit;
3) madaniy muhit;
4) ijtimoiy tajriba;
5) odamlar bilan munosabat.

«Shaxs» tushunchasi insonning jamiyatga foydali mehnatga bo‘lgan munosabatini, shuningdek ijtimoiy taraqqiyot uchun zarur bo‘lgan fazilat va sifatlarni shakllantirish maqsadida o‘z ustida olib boradigan faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Shaxs tuzilishining o‘rganilishi muhim metodologik masalalardan biri hisoblanadi. Sotsiologiya fanida shaxs tarkibida kamida uchta asosiy unsur ajratib ko‘rsatiladi:

1. Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy holati, ya’ni uning ishlab chiqarish jarayoniga bo‘lgan munosabati, ishlab chiqarish munosabatlari tizimidagi o‘rni va mansub bo‘lgan ijtimoiy qatlam.

2. Shaxsning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy funksiyalari va u ado etadigan rollari;

3. Shaxs faoliyati va hayotini belgilovchi motivlar, manfaatlar (ijtimoiy hamda shaxsiy) va ehtiyojlar (moddiy hamda ma’naviy) tizimi, ya’ni uning ichki mayllari va qiziqishlarining o‘ziga xosligi.

Jinoyat subyekti shaxsini o‘rganishda yuqorida qayd etilgan umumiy nazariy tamoyillar asos bo‘lib xizmat qilishi kerak. Jinoyatchi shaxsi – bu, eng avvalo jinoyat subyekti sifatida tan olingan shaxsdir. Jinoyat qonunchiligi nuqtayi nazaridan, shaxsni jinoyat subyekti deb hisoblash uchun u muayyan belgilarga ega bo‘lishi lozim. Ushbu belgilar uchta asosiy mezonni o‘z ichiga oladi: birinchidan, jismoniy shaxs bo‘lishi (ayrim xorijiy mamlakatlarda yuridik shaxslarni ham jinoyat subyekti sifatida e’tirof etish mumkinligi nazarda tutilgan, ammo bu fikr keng qabul qilinmagan); ikkinchidan, belgilangan yoshga yetgan bo‘lishi (MDH mamlakatlarida bu yosh odatda 14, 16 yoki 18 yoshni tashkil etadi, ayrim xorijiy davlatlarda esa undan ham kichik yosh belgilanadi); uchinchidan, aqli raso bo‘lishi.

Biroq jinoyatchi shaxsini har tomonlama tavsiflash uchun faqat ushbu jinoyat-huquqiy mezonlar yetarli emas. Muayyan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishi – uning jinoyatchi sifatida mavjudligini tan olish uchun zarur, ammo yetarli asos bo‘lib xizmat qiladi xolos. Jinoyat subyekti shaxsining mohiyatini anglash uchun uning jinoyatga oid bo‘lmagan, ammo jinoiy xulq-atvor bilan bevosita bog‘liq boshqa jihatlarini ham o‘rganish zarur. Chunki jinoiy xulq-atvor, bir tomondan, inson yashayotgan ijtimoiy muhit va sharoitlar ta’sirida shakllansa, ikkinchi

tomondan, shaxsning o‘z ichki moyilliklari, intilishlari, xulq motivlari hamda maqsadlarini ham ifoda etadi.

Shubhasiz, inson qanday salbiy fazilatlarga ega bo‘lmasin, agar u jinoyat sodir etmagan bo‘lsa, uni jinoyatchi deb hisoblash mumkin emas. Jinoyat sodir etish holati shaxsni g‘ayriijtimoiy yo‘nalishga ega inson sifatida tavsiflaydi, biroq bu holat uning asl mohiyati va ichki dunyosini to‘liq ifodalab bera olmaydi. Shu jihatdan, shaxs xulq-atvoridagi og‘ishlar (ya’ni deviant holatlar) uni turli salbiy harakatlarga undovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyat a’zolarining xulq-atvori unda amal qiladigan axloqiy va huquqiy me’yorlarga muvofiq bo‘lishi insonlar farovonligi va ijtimoiy barqarorlikning asosiy omillaridan biridir. Shu sababli har qanday jamiyatda nomaqbul, ya’ni me’yorlardan og‘uvchi xulq-atvorni kamaytirish va bartaraf etish yo‘lida izchil sa’y-harakatlar olib boriladi. Chunki bunday holatlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

«Deviant» atamasi lotincha «deviatio» so‘zidan olingan bo‘lib, «chekinish» yoki «buzilish» degan ma’noni anglatadi. Deviant xulq-atvor – bu jamiyatda o‘rnatilgan axloqiy me’yorlarga zid keluvchi inson faoliyati yoki xatti-harakatini ifodalaydigan ijtimoiy hodisadir. Sotsiologik adabiyotlarda «deviant xulq-atvor» (lotincha deviatio – «og‘ish») tushunchasi quyidagi holatlar orqali izohlanadi:

Insonning jamiyatda rasmiy ravishda belgilangan yoki mustahkam qaror topgan me’yorlarga – ya’ni ruhiy sog‘lomlik, huquqiy, madaniy va axloqiy qoidalarga zid tarzda namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari yoki qilmishlari.

Jamiyatda mavjud bo‘lgan rasmiy yoki barqaror me’yor (standart va andozalar)larga qarshi yo‘nalgan inson xulqining keng tarqalgan, ommaviy shaklda ifodalanishi – bu ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi.

Birinchi holatda deviant xulq-atvor to‘g‘ridan-to‘g‘ri umumiy va yosh psixologiyasi (ruhiyatshunoslik), pedagogika hamda psixiatriya fanlarining tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi holatda

esa ushbu tushuncha sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya doirasida o‘rganiladi. Deviant xulq-atvor o‘z tabiatiga ko‘ra turli salbiy jihatlarni o‘z ichiga olgan murakkab hodisa bo‘lib, diniy nuqtayi nazardan «yovuzlik» sifatida, tibbiyot nuqtayi nazaridan esa «kasallik» alomati tarzida, huquqiy me’yorlarga ko‘ra «noqonuniy» holat sifatida baholanadi. Shu bilan birga, u ko‘pincha «me’yoriy bo‘lmagan» xatti-harakat shakli sifatida ham qaraladi. Jinoyatchi shaxsini to‘liq tahlil qilish va baholash uchun uning ijobiy hamda salbiy xulq-atvorini belgilovchi barcha fazilatlari va xususiyatlarini, shuningdek shaxsdagi ijtimoiy salbiy jihatlarning ulushini ham hisobga olish zarur.

Q. Abdurasulova qayd etganidek, jinoyat subyekti shaxsini o‘rganish uchta darajada amalga oshirilishi kerak: birinchidan, jinoyatchi shaxsining umumiy tushunchasi nuqtayi nazaridan; ikkinchidan, turli toifadagi jinoyatchilarning o‘ziga xos belgilarini aniqlash nuqtayi nazaridan; uchinchidan esa, muayyan jinoyatni sodir etgan shaxs (masalan, o‘g‘rilik, qotillik, nomusga tajovuz, avtomobilni olib qochish va shunga o‘xshash jinoyatlar) darajasida o‘rganish zarur. Ushbu darajalarda shaxsni tadqiq etish chuqurligi va belgilarni aniqlash darajasi bir xil bo‘lmaydi, chunki bu holatda umumlashtirish (abstraksiya) darajasi farqlanadi. Jinoyat subyekti shaxsi eng to‘liq tarzda aynan muayyan jinoyat sodir etgan shaxs darajasida tahlil qilinishi mumkin.

Biroq ma’lum toifaga kiruvchi jinoyatchilarni (masalan, retsidivistlar, voyaga yetmaganlar, mulkka, davlatga yoki shaxsga qarshi jinoyatlarni sodir etganlar) o‘rganish ularning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa jinoyatchi shaxsining xususiyatlarini chuqurroq yoritish hamda shu turdagi jinoyatlarga qarshi samarali kurashish uchun maxsus chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat subyekti shaxsi esa insonning o‘ziga xos ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan va uni, shuningdek uning hayoti hamda faoliyatining turli jihatlarini tavsiflaydigan individual belgi, sifat, xususiyat va boshqa ko‘rsatkichlarning muayyan tizimini o‘z ichiga oladi.

Kriminologiya fanida jinoyat subyekti shaxsining asosiy tarkibiy elementlari ancha mukammal tavsiflangan. Mazkur tarkib umuman olganda jinoyatchining muayyan xislatlari va xossalarini belgilovchi ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-huquqiy belgilarni qamrab oladi. Yuridik adabiyotda jinoyatchi shaxsi deganda jinoyat qonunini aybli ravishda buzayotgan shaxsni tavsiflovchi hamda boshqa shaxsiy sharoitlar va holatlar bilan hamohang tarzda uning jinoiy xulqiga ta’sir etadigan ijtimoiy va ijtimoiy shartlangan xususiyatlar, belgilar, aloqalar, munosabatlar yig‘indisi tushuniladi. Jinoyat subyektining shaxsi – odamning o‘zini ham, uning hayoti va faoliyatining turli tomonlari va ko‘rinishlarini ham tavsiflovchi ijtimoiy ahamiyatga molik va individual belgilari, xossalari, xislatlari va boshqa ko‘rsatkichlarining muayyan majmui (tizimi)dir.

Xulosa qilib aytganda, jinoyatchi shaxsi – bu jinoyat subyekti uchun zarur bo‘lgan belgilar (ya’ni aqli raso bo‘lishi va jinoiy javobgarlikka tortilish yoshiga yetganligi)ga ega, qonun doirasida aybdorligi isbotlangan jismoniy shaxsni ifodalovchi ijtimoiy-huquqiy tushunchadir. Jinoyatchi shaxsi – bu o‘zining g‘ayriijtimoiy qarashlari va jamiyat manfaatlariga nisbatan salbiy munosabati natijasida jinoyat sodir etgan, maqsadiga erishish uchun ijtimoiy xavfli yo‘l yoki usulni tanlagan insondir.

Jinoyatchi shaxsining tuzilishi esa quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. Jinoyat-huquqiy tavsif (xususiyatlar) – shaxsning jinoyatga aloqadorligi va huquqiy mas’uliyatini belgilovchi belgilar.

2. Ijtimoiy-demografik tavsif – shaxsning yoshi, jinsi, kasbi, ma’lumoti, oilaviy holati va boshqa demografik ko‘rsatkichlari.

3. Ma’naviy-ruhiy tavsif – shaxsning ichki dunyosi, e’tiqodi, qadriyatlari, psixologik holati va axloqiy qarashlarini ifodalaydi.

Kriminologiya fanida jinoyatchi shaxsining asosiy tarkibiy qismlari batafsil o‘rganilgan bo‘lib, ular jinoyatchining muayyan xislat va xususiyatlarini belgilovchi ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik hamda ijtimoiy-huquqiy belgilarni o‘z ichiga oladi.

Jinoyatchi shaxsining jinoyat-huquqiy tavsifi (xususiyatlari) esa quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Jinoyat-huquqiy tavsif (xususiyatlari) – shaxsning jinoyat sodir etishdagi aybliligi, javobgarlikka tortilish imkoniyati, jinoyat turi, og‘irlik darajasi va jazo choralari bilan bog‘liq belgilar majmui.

2. Ijtimoiy-demografik tavsif – shaxsning yoshi, jinsi, ma’lumoti, kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi va oilaviy ahvoli kabi demografik ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

3. Ma’naviy-ruhiy tavsif – shaxsning ichki dunyosi, e’tiqodi, psixologik holati, axloqiy qadriyatlari hamda ruhiy barqarorligini ifodalaydi.

Sodir etilgan jinoyatning og‘irligi, muqaddam sudlanganlik holati va jinoyatning darajasi – jinoyatchi shaxsining jinoyat-huquqiy tavsifini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan hisoblanadi.

Jinoyatning og‘irligi – shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini, ya’ni uning jamiyat, davlat yoki alohida fuqarolarga yetkazgan zararini ifodalaydi.

Muqaddam sudlanganlik – jinoyatchining ilgari ham jinoiy javobgarlikka tortilgan-tortilmaganligini, shuningdek bu holatning jinoiy faoliyatdagi takroriylik darajasini bildiradi.

Jinoyat darajasi esa – sodir etilgan jinoyatning huquqiy tasnifi, uning og‘ir yoki yengil turkumga mansubligini, hamda jazo choralarining og‘irlik darajasini aniqlovchi mezondir.

Ma’naviy-ruhiy tavsif – jinoyatchi shaxsining ichki dunyosi, fikrlash darajasi va hissiy holatini ifodalovchi muhim jihatdir. U quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi:

– intellektual (tafakkur) darajasi, ya’ni shaxsning fikrlash, tahlil qilish, xulosa

chiqarish qobiliyati;

– qobiliyatlari va ko‘nikmalari, ya’ni u egallagan bilim va amaliy malakalar

darajasi;

– odatlari va irodaviy sifatlari, masalan, qat’iyat, sabr, o‘zini tuta bilish yoki impulsivlik darajasi;

– hissiy xususiyatlari, ya’ni emotsional barqarorlik, tajovuzkorlik, empatiya kabi holatlar;

– shaxsiy yo‘nalishlari, ya’ni hayotiy maqsadlar, qadriyatlar tizimi va e’tiqodlar;

– huquq va axloq me’yorlariga munosabati, ularni qabul qilish yoki rad etish darajasi;

– ehtiyojlari va ularni qondirish yo‘llari, ya’ni shaxs o‘z manfaatlariga qanday erishishni tanlaydi;

– giyohvandlik vositalari yoki spirtli ichimliklarni iste’mol qilish holati, bu esa shaxsning xulq-atvoriga va jinoyat sodir etish ehtimoliga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

4.2. Jinoyat subyekti shaxsini o‘rganish.

Jinoyatchi shaxsini uning o‘ziga xos belgilariga qarab jinoyat subyektidan ajratib ko‘rsatish zarur. Jinoyat qonunchiligiga muvofiq, jinoyat subyekti deb e’tirof etilishi uchun shaxs ma’lum belgilarga ega bo‘lishi shart. Ushbu belgilar uchta asosiy ko‘rsatkichni o‘z ichiga oladi: birinchidan, u jismoniy shaxs bo‘lishi kerak (garchi ayrim davlatlarda yuridik shaxslarni ham jinoyat subyekti sifatida tan olish amaliyoti mavjud bo‘lsa-da); ikkinchidan, shaxs qonunda belgilangan muayyan yoshga yetgan bo‘lishi lozim; uchinchidan, u aqli raso bo‘lishi, ya’ni o‘z harakatlari va ularning oqibatlarini to‘liq anglash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Biroq jinoyatchi shaxsini tavsiflashda faqatgina jinoyat subyektining jinoyat-huquqiy belgilarini hisobga olish yetarli emas. Chunki muayyan shaxsning jinoyat sodir etgani – u jinoyat sodir etgan inson sifatida mavjudligini tasdiqlovchi asos bo‘lishi mumkin, ammo bu holat uning shaxs sifatidagi barcha jihatlarini to‘liq ochib bermaydi. Jinoyat subyektining shaxsi, asosan, jinoiy xulq-atvor bilan bog‘liq bo‘lgan turli ijtimoiy, ruhiy va axloqiy omillarni ham o‘z ichiga oladi.

Jinoiy xulq-atvor, eng avvalo, shaxs yashayotgan ijtimoiy muhit va hayot sharoitlari bilan belgilanadi. Jinoyat sodir etganlik faktining o‘zi insonni g‘ayriijtimoiy shaxs sifatida ko‘rsatadi, biroq bu holat uning ichki mohiyatini to‘liq ifodalay olmaydi.

Jinoyat subyektining shaxsini o‘rganish uch darajada amalga oshiriladi:

1. Umumiy daraja – jinoyatchi shaxsi tushunchasini nazariy jihatdan tahlil qilish.

2. Toifa darajasi – turli turdagi jinoyatchilarning o‘ziga xos belgilarini aniqlash (masalan, voyaga yetmaganlar, retsidivistlar, zo‘ravonlik jinoyati sodir etgan shaxslar va boshqalar).

3. Individual daraja – aniq bir jinoyat (masalan, o‘g‘rilik, odam o‘ldirish, nomusga tegish, avtomobilni olib qochish va hokazo) sodir etgan shaxsni o‘rganish.

Shuningdek, jinoyatchilarni turli mezonlar asosida – ularning ijtimoiy holati, jinoyat motivi, psixologik xususiyatlari va jinoyat sodir etish usullariga qarab – tasniflash ham mumkin.

Jinoyatchilarni tasniflashning eng keng tarqalgan va sodda usullaridan biri bu ularning sodir etgan jinoyat turlari yoki mazmuniga ko‘ra ajratishdir. Masalan, jinoyatchilarni «o‘g‘rilar», «firibgarlar», «bezorilar», «zo‘ravonlik qiluvchilar», «poraxo‘rlar» kabi toifalarga bo‘lish mumkin.

Bundan tashqari, jinoyat sodir etish motivlari asosida ham jinoyatchilarni turlarga ajratish amaliyotda qo‘llaniladi. Shu mezon asosida ular «g‘arazgo‘y», «zo‘ravon», «nufuz orttiruvchi», «seksual jinoyatlar sodir etuvchi» va boshqa tiplarga bo‘linadi.

Shuningdek, ruhiy holati nuqtayi nazaridan ham jinoyatchilarni farqlash mumkin. Bu jihatdan ular ruhiy jihatdan sog‘lom, ruhiy kasallikka moyilligi bor (chegaradosh holatda), psixopatik xususiyatlarga ega yoki ruhiy kasallik bilan og‘rigan shaxslar sifatida tasniflanadi.

Jinoyatchilarni ijtimoiy-demografik belgilariga asoslanib ham turkumlash mumkin. Bunda ularning yoshi, jinsi, millati, ma’lumoti,

oilaviy holati, yashash joyi, kasbi, ijtimoiy mavqei kabi omillar inobatga olinadi. Masalan:

yoshi bo‘yicha – voyaga yetmaganlar, yoshlar, o‘rta yoshdagilar va keksalar jinoyatchiligi;

jinsi bo‘yicha – erkaklar va ayollar jinoyatchiligi;

ma’lumoti bo‘yicha – savodsiz, o‘rta yoki oliy ma’lumotli jinoyatchilar;

oilaviy holati bo‘yicha – oilali, yolg‘iz, ajrashgan shaxslar;

yashash joyi bo‘yicha – shahar yoki qishloq aholisi orasidagi jinoyatchilar;

kasbi yoki ijtimoiy mavqeiga ko‘ra – ishchilar, talaba, tadbirkor, ishsiz va boshqalar.

Bunday tasnif jinoyatchilikni chuqurroq tahlil qilish, uning ijtimoiy ildizlarini aniqlash va maqsadli profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega.

Jinoyatchilarni g‘ayriijtimoiy moyilliklari, qadriyat yo‘nalishlari va hayotiy mo‘ljallarining o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra tasniflash – ularni guruhlashning eng keng qo‘llaniladigan va samarali usullaridan biridir.

Ushbu mezon asosida jinoyatchilar shaxsi quyidagi uch asosiy guruhga ajratiladi:

1. Barqaror jinoyatchilar – jinoyatni o‘z hayot tarziga aylantirgan, ijtimoiy me’yorlarni mutlaqo rad etuvchi, jinoyatchilikni «kasb» sifatida qabul qiluvchi shaxslar. Ularning g‘ayriijtimoiy qadriyatlari mustahkam shakllangan bo‘ladi.

2. Vaqtinchalik (situatsion) jinoyatchilar – muayyan vaziyat, stress, bosim yoki tasodifiy holatlar ta’sirida jinoyat sodir etgan shaxslar. Ular odatda ijtimoiy qadriyatlarga nisbatan to‘liq begona emas, lekin muayyan sharoitda ularni buzishga moyillik ko‘rsatadi.

3. Tasodifiy jinoyatchilar – jinoyatni ijtimoiy muhit, beparvolik, tasodif yoki tashqi ta’sir natijasida sodir etgan, aslida jinoyatga ichki moyilligi bo‘lmagan shaxslar.

Bu tasnif har bir jinoyatchi shaxsining axloqiy-psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish hamda ularga nisbatan individual profilaktika va tarbiyaviy chora-tadbirlarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4.3. Ijtimoiy-demografik tavsif. Ma’naviy-ruhiy tavsif.

Ayrim olimlar, jumladan Y.M. Antonyan, umume’tirof etilgan ijtimoiy qadriyatlarga beparvo yoki mas’uliyatsiz munosabatda bo‘luvchi jinoyatchilarni ham alohida toifaga ajratadi. Bunday shaxslarga, masalan, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlar kiradi – ular odatda jinoyatni ataylab emas, balki beparvolik, intizomsizlik yoki mas’uliyatsizlik natijasida sodir etadilar.

Shuningdek, jinoyatchilarni kriminogen zararlanish darajasiga ko‘ra ham tasniflash mumkin. Bu yondashuv shaxsning jinoyatchilikka ichki moyillik darajasi va g‘ayriijtimoiy muhit ta’sirida qay darajada buzg‘unlashganini inobatga oladi. Unga ko‘ra jinoyatchilar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Past darajada zararlangan jinoyatchilar – ijtimoiy me’yorlarni asosan hurmat qiluvchi, ammo ayrim holatlarda ularni buzishga yo‘l qo‘ygan shaxslar.

2. O‘rta darajada zararlangan jinoyatchilar – jinoyatni sodir etishga muayyan tayyorgarlik bilan yondashuvchi, lekin hali to‘liq jinoyatchilik muhitiga singib ketmagan shaxslar.

3. Yuqori darajada zararlangan jinoyatchilar – jinoyatni hayot tarzi sifatida qabul qilgan, g‘ayriijtimoiy qadriyatlarni o‘zining dunyoqarashiga aylantirgan shaxslar.

Bunday tasnif jinoyatchilarning shaxsiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularning qayta tarbiyalanish imkoniyatini baholash va profilaktik chora-tadbirlarni to‘g‘ri belgilash uchun muhim ahamiyatga ega.

G‘arb va AQShdagi ko‘plab mamlakatlar kriminologiya fanida jinoyatchilar odatda uch asosiy guruhga bo‘linadi:

1. Tasodifiy jinoyatchilar – bunday shaxslar hayot tarziga ko‘ra jinoyatchilikka moyil bo‘lmaydi. Ular jinoyatni, odatda tasodifiy vaziyat, kuchli hissiy holat, stress, provokatsiya yoki tasodifiy sharoit ta’sirida sodir etadilar. Bunday shaxslar jinoyatni hayot mezoni sifatida qabul qilmaydilar va ko‘pincha jamiyatga qayta moslashishlari oson kechadi.

2. Vaziyatga bog‘liq jinoyatchilar – bu toifadagi shaxslar jinoyatni ma’lum ijtimoiy yoki shaxsiy omillar, ya’ni oilaviy muammolar, iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy adolatsizlik hissi, doimiy stress yoki atrof-muhit ta’siri ostida sodir etadilar. Ularning jinoyatchilikka moyilligi sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni tarbiyaviy va ijtimoiy yordam orqali tuzatish mumkin.

3. Professional yoki odat tusiga kirgan jinoyatchilar – bu guruhga kiruvchi shaxslar jinoyatni hayot tarzi, daromad manbai yoki kasb sifatida qabul qiladilar. Ular ko‘pincha jinoyatchilik muhitida voyaga yetgan, jinoyatni puxta rejalashtiruvchi, ijtimoiy me’yorlarni rad etuvchi shaxslar hisoblanadi.

Ushbu tasnif jinoyatchilarning psixologik holati, ijtimoiy tajribasi va jinoyatga moyillik darajasini aniqlashda, shuningdek jinoyatlarning oldini olish va qayta ijtimoiylashtirish choralarini ishlab chiqishda muhim o‘rin tutadi.

KAZUS: «Ijtimoiy muhit ta’sirida shakllangan jinoyatchi shaxsi»

Vaziyat

Shahzod 24 yoshda. U kichik shaharchada tug‘ilib o‘sgan, o‘rta maktabni tamomlagach o‘qishni davom ettirmagan. Ota-onasi tez-tez janjallashib turadigan, oilaviy muhit notinch bo‘lgan. Yoshligidan u nazoratsiz qolgan, ko‘chadagi «katta yigitlar» bilan yurib, ularning xatti-harakatlarini o‘rnak sifatida qabul qilgan.

So‘nggi yillarda Shahzod do‘stlari bilan spirtli ichimliklar iste’mol qilishni odat qilgan, doimiy ish joyi bo‘lmagan. Ularning davrasida o‘g‘rilik va firibgarlik «odatiy hol» sifatida qabul qilinar edi.

Bir kuni Shahzod bozorga kelgan keksaroq ayolning sumkasini tortib olib, qochib ketadi. U militsiya tomonidan qo‘lga olinadi. Surishtiruv jarayonida aniqlanishicha, u ilgari ham bir necha marta mayda huquqbuzarliklar sodir etgan, ammo rasmiy javobgarlikka tortilmagan.

Tahlil uchun savollar

1. Ushbu holatda **jinoyatchi shaxsi** tushunchasi qanday namoyon bo‘lgan?
2. Shahzod shaxsining **kriminologik tuzilishi** (ijtimoiy, axloqiy, psixologik jihatlar)ni qanday izohlash mumkin?
3. Uning xulq-atvorida **kriminogen omillar** (oilaviy muhit, nazoratsizlik, do‘stlar davrasi, ishsizlik) qanday rol o‘ynagan?
4. Bunday shaxslarning jinoyatga moyilligini kamaytirish uchun qanday **profilaktika choralari** ko‘rish lozim?

Nazorat uchun savollar

1. Jinoyatchi shaxsi tushunchasi va belgilarini aytib bering?
2. Jinoyat subyektining shaxsi va uning tarkibi haqida aytib bering.
3. Jinoyatchilarni tasniflash qanday amalga oshiriladi?
4. Jinoyatchi shaxsining huquqbuzar shaxsdan farqi nimada?
5. Jinoyatchi shaxsida ijtimoiy va biologik xususiyatlarning aloqadorligi bormi?
6. Jinoyatchi shaxsning tipologiyasi nima?
7. Jinoyatchi shaxs to‘g‘risidagi asosiy nazariyalari nimalardan iborat?
8. Nazoratga olingan shaxslarning tavsifi qanday?

V BOB. JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH TUSHUNCHASI VA SUB'EKTLARI

5.1. Jinoyatchilikning umumiy oldini olish.
5.2. Jinoyatchilikning maxsus oldini olish choralari.
5.3. Individual profilaktika faoliyati.

5.1. Jinoyatchilikning umumiy oldini olish.

Jinoyat sodir etilgandan keyin jazo qo‘llashdan ko‘ra, uning oldini olish ancha ma’qul hisoblanadi. Bu esa har qanday zamonaviy qonunchilik tizimining asosiy vazifasi sanaladi. Bugungi kunda huquqbuzarliklar va boshqa g‘ayriijtimoiy salbiy holatlarga nisbatan «jinoyatchilikning oldini olish», «profilaktika qilish», «ogohlantirish», «to‘xtatish» hamda «barham berish» kabi atamalar keng qo‘llanadi. Ushbu tushunchalar nafaqat maxsus ilmiy adabiyotlarda, balki turli normativ-huquqiy hujjatlarda va ommaviy axborot vositalarida ham tez-tez uchrab turadi.

Jinoyatlar profilaktikasi yoki ularning oldini olish – bu davlat organlari (shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar), jamoat tashkilotlari, muassasalar hamda fuqarolarning jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘luvchi yoki bunga imkon yaratadigan shart-sharoit va omillarni bartaraf etish hamda ularni neytrallashtirishga qaratilgan faoliyatidir. Ushbu jarayon o‘z mohiyatiga ko‘ra, turli yo‘nalishdagi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi va ularning ta’siri tashqi obyektiv omillarga hamda aniq shaxslarga qaratilgan bo‘ladi. Profilaktika atamasiga berilgan keng qamrovli ta’rif har bir konkret vaziyatda uni turli jinoyat turlariga – masalan, davlatga, shaxsga, o‘zgalar mulkiga, jamoat xavfsizligiga yoki harbiy sohalarga qarshi jinoyatlarga nisbatan – qo‘llash imkonini beradi. Shu bilan birga, profilaktik faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ta’sir vositalari hamda profilaktika obyektining tabiatidan kelib chiqadigan jihatlar ham e’tiborga olinadi.

Kriminologiya sohasidagi ilmiy adabiyotlarda jinoyatchilikning oldini olish masalasi keng yoritilgan bo‘lsa-da, bu tushunchaning yagona va

umumiy qabul qilingan ta’rifi mavjud emas. Jinoyatlar profilaktikasini o‘rganishga bag‘ishlangan yirik tadqiqotlardan biri G.A. Avanesov tomonidan yozilgan bo‘lib, u o‘z asarining dastlabki nashriga «Kriminologiya va ijtimoiy profilaktika» deb nom bergan. Jinoyatlarning oldini olish masalasiga oid ilk ilmiy izlanishlardan biri esa ukrainalik olimlar L.A. Gelfand va P.P. Mixaylenko tomonidan yaratilgan «Jinoyatlarning oldini olish – jinoyatchilikka qarshi kurashning asosi» nomli monografiyadir.

Mazkur asarda mualliflar jinoyatlarning oldini olish bilan bog‘liq terminlarni tahlil qilib, «oldini olish», «barham berish», «profilaktika qilish», «to‘xtatish» kabi atamalar o‘rtasida mazmun jihatidan keskin farq yo‘qligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, bu atamalar o‘z mohiyatiga ko‘ra bir ma’noni ifodalaydi – ya’ni jamiyatga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlarning sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda bunday holatlarni butunlay bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni anglatadi.

5.2. Jinoyatchilikning maxsus oldini olish choralari.

Kriminologiya doir adabiyotlarda jinoyatlarning oldini olish jarayoni ularning darajasi, maqsadi, mazmuni va boshqa mezonlariga ko‘ra turlicha tasniflanadi. Eng keng tarqalgan yondashuv – bu oldini olishni darajalar bo‘yicha tasniflashdir. Ushbu yondashuvga muvofiq, profilaktika faoliyati uch bosqichdan iborat: jamiyat miqyosidagi (oliy daraja), ijtimoiy guruhlar va jamoalar darajasidagi (o‘rta daraja) hamda individual (quyi daraja) profilaktika.

Jinoyatchilikning oldini olish mazmuniga qarab esa bu faoliyat ikki asosiy turga ajratiladi: umumijtimoiy va maxsus kriminologik profilaktika.

Umumijtimoiy oldini olish – bu jinoyatlarning kelib chiqish sabablari hamda ularni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish yoki kamaytirishga qaratilgan faoliyatdir. U shuningdek boshqa salbiy ijtimoiy xatti-harakatlarga qarshi kurashni, fuqarolarni va mansabdor shaxslarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashni, ijtimoiy axloq

me’yorlarini buzgan shaxslarni esa qayta tarbiyalashni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy, huquqiy va tarbiyaviy tadbirlar majmuasi orqali amalga oshiriladi.

Jinoyatchilikning umumiy oldini olish – bu jamiyatning barqaror va ijobiy rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan faoliyatdir. Ushbu jarayonning maqsadi – jinoyatchilikka sabab bo‘luvchi ziddiyatlar va nomutanosibliklarni bartaraf etish, shuningdek jinoyatlarning yuzaga kelishiga imkon yaratadigan omillarning salbiy ta’sirini kamaytirib borishdan iboratdir.

Kriminologik umumiy profilaktika esa – kam kuch va vaqt sarflab, keng jamoatchilik o‘rtasida samarali ta’sir ko‘rsatish orqali fuqarolarda qonunlarga itoatkorlikni, jinoyat sodir etishdan tiyilish xohishini shakllantirish hamda jinoyat sodir etgan taqdirda jazodan qochib qutulib bo‘lmasligi haqidagi tushunchani mustahkamlashga yo‘naltirilgan faoliyatni anglatadi.

Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda ham, amaliy faoliyatda ham profilaktikaning ikki shakli – umumiy va individual turlari keng qo‘llanilmoqda.

Umumiy profilaktika – bu davlat va jamoat tashkilotlarining jinoyatchilikka olib keluvchi sabablar, jinoyat sodir etilishiga imkon yaratuvchi shart-sharoitlar hamda jinoyatga yo‘l ochuvchi yoki uni osonlashtiruvchi omillarni aniqlash, o‘rganish va ularni bartaraf etishga qaratilgan faoliyatidir.

Umumiy profilaktika chora-tadbirlari tizimi o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: jinoyatchilik hodisasi sifatida uning kelib chiqish sabablarini aniqlash va chuqur o‘rganishga qaratilgan tadbirlar.

– jinoyatchilik muayyan turlarining (masalan, voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi jinoyatchilik, retsidiv jinoyatchilik, ichkilikbozlik bilan bog‘liq jinoyatchilik va hokazolarning) oldini olish chora-tadbirlari;

– jinoyatlarning muayyan guruhlari yoki turlarining sodir etilishi sabablarini va ularga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitni aniqlash va bartaraf etish chora-tadbirlari;

– jinoyatlarning sodir bo‘lishiga sharoit yaratadigan yoki jinoiy natijaga erishishni osonlashtiruvchi obyektiv omillarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar.

Shu tarzda, umumiy profilaktika chora-tadbirlariga ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, mafkuraviy, tashkiliy, huquqiy, texnik hamda boshqa turdagi ta’sir choralarini o‘z ichiga oluvchi kompleks faoliyat kiradi.

Jinoyatchilikning maxsus oldini olish choralari

Ko‘plab olimlarning fikricha, maxsus oldini olish jinoyatlarning kelib chiqishiga imkon yaratadigan sabab va shart-sharoitlarni to‘liq bartaraf etish yoki ularning ta’sirini kamaytirishga bevosita yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Jinoyatchilikning maxsus oldini olish – bu jinoyatlarning sodir etilishini to‘xtatishga, ularning sabablarini, shart-sharoitlarini hamda determinantlarini aniqlashga va ularni bartaraf etishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Maxsus profilaktika deganda, jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha bevosita mas’ul organlar va muassasalar tomonidan ayrim turdagi jinoyatlarning sabablari va ularga imkon beruvchi omillarni bartaraf etish, shuningdek muayyan toifadagi shaxslarni aniqlab, ularga profilaktik ta’sir o‘tkazishga yo‘naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni tushuniladi.

Bunday maxsus profilaktik faoliyat, odatda, kriminogen vaziyat yoki mavsumiy holatlardan kelib chiqib, ushbu sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida, jinoyatlarning oldini olish bilan bevosita shug‘ullanuvchi idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

Jinoyatlarning maxsus profilaktikasi respublika, mintaqa, shahar yoki tuman darajasida, shuningdek alohida kichik hudud yoki obyekt miqyosida amalga oshiriladi. Ushbu faoliyatning asosiy maqsadi – jinoyatlarning oldini olish, ularning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi

omillarni hamda jinoyat sodir etilishiga imkon yaratadigan shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek muayyan toifadagi shaxslarni aniqlab, ularga profilaktik ta’sir choralarini qo‘llashdan iboratdir.

Jinoyatlar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar ushbu jinoyatlarning maxsus oldini olish faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida o‘zlarining asosiy ish yo‘nalishlariga muvofiq maxsus rejalar ishlab chiqadilar, tasdiqlaydilar va amalda qo‘llaydilar. Mazkur rejalar jinoyatlarning sabablarini va ularga imkon yaratgan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish hamda ayrim toifadagi shaxslarni aniqlab, ularga profilaktik ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilgan fikrlarni umumlashtirgan holda ta’kidlash mumkinki, jinoyatlarning oldini olish tizimi bir necha asosiy tarkibiy qismlar yoki elementlardan iboratdir.

1. Jinoyatlarning oldini olish subyekti.
2. Subyektning jinoyatlarning oldini olish faoliyati.
3. Jinoyatlarning oldini olish obyekti.
4. Jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlari.

Jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi murakkab va ko‘p qirrali tuzilishga ega bo‘lib, u bir nechta quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Umumiy chora-tadbirlar.
2. Maxsus chora-tadbirlar.
3. Indvidual profilaktika chora-tadbirlari.

Jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ichida jinoyat-huquqiy ta’sir vositalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat-huquqiy ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

a) jinoyatlarning umumiy oldini olish chora-tadbirlari;

b) muayyan jinoyat sodir etganlik uchun individual, shaxsiy javobgarlik va jazo choralari.

Shu bois, istalgan jinoyatning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini o‘rganish va tavsiflash jarayonida quyidagi sxemaga asoslanish zarur:

1) umumiy profilaktika chora-tadbirlari;

2) maxsus profilaktika chora-tadbirlari;

3) individual profilaktika chora-tadbirlari, shu jumladan jinoiy javobgarlik va jazo choralari.

Individual profilaktika faoliyati o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan bir nechta bosqichlardan iboratdir. U, avvalo xulq-atvori, ruhiy holati va dunyoqarashi jinoyat sodir etish ehtimolini bildiruvchi shaxslarni aniqlashni, ana shu shaxslar hamda ularga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni o‘rganishni, shuningdek ularning jinoyat sodir etish imkoniyatini bartaraf etish maqsadida iloji boricha ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

– salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni yo‘qotish, jinoyat sodir etishga moyilligi bo‘lgan shaxslarga tarbiyaviy yo‘nalishda ta’sir o‘tkazish (zarur holatlarda esa – majburiy choralar asosida amalga oshirish);

– bunday shaxslarning xatti-harakati hamda hayot tarzini muntazam nazorat ostida saqlash, amalga oshirilayotgan profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligini esa muayyan davrlar oralig‘ida tekshirib borish.

Jinoyatlarning individual profilaktikasining asosiy maqsadi – jinoyatlarning aniq sabablarini yo‘qotish, shuningdek insonlarda jinoyat sodir etilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan g‘ayriijtimoiy, boqimandalik kayfiyatlari va qarashlarini bartaraf etishdan iboratdir. Individual profilaktika jarayoni o‘zaro bog‘liq bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

– xulq-atvori, kayfiyati va qarashlari jinoyat sodir etish ehtimolini ko‘rsatuvchi shaxslarni aniqlash;

– ushbu shaxslarni hamda ularga salbiy ta’sir o‘tkazuvchi manbalarni o‘rganish;

– bunday shaxslarning jinoyat sodir etish imkoniyatini kamaytirish uchun ularga ijobiy muhit yaratish;

– salbiy ta’sir manbalarini bartaraf etish;

– jinoyatga moyil shaxslarga tarbiyaviy (zarurat bo‘lsa, majburiy) ta’sir choralarini qo‘llash;

– ularning xulq-atvori va hayot tarzini muntazam nazorat qilish;

– amalga oshirilgan profilaktik ishlarning samaradorligini doimiy ravishda tahlil qilib, baholab borish.

Jinoyatlarning yakka (individual) tarzdagi profilaktikasi quyidagi toifa obyektlariga qaratiladi:

1. g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxslar;

2. jinoyat sodir etishga moyilligi mavjud shaxslar;

3. ilgari jinoyat sodir etgan shaxslar;

4. ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj bolalar.

Shaxsning g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga egaligi esa quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi:

a) shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me’yorlari va qoidalariga zid tarzdagi hayot kechirishi: masalan, qonuniy nikohsiz birga yashash, ko‘p qavatli uylarda baland ovozda musiqa tinglab qo‘shnilarga bezovtalik tug‘dirish yoki shunga o‘xshash tinchlikni buzuvchi mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish, oilada doimiy janjal va nizolar keltirib chiqarish, spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni iste’mol qilish va shu kabi holatlar;

b) shaxsning jamiyat tomonidan belgilangan xulq-atvor me’yorlari va qoidalarini buzuvchi harakatlarda namoyon bo‘lishi: masalan, jamoat joylarida spirtli ichimlik iste’mol qilib yurish, ko‘chalarda yoki ommaviy joylarda pista chaqish, yo‘lak va yo‘llarni nos tuflab ifloslantirish, boshqalar haqida g‘iybat qilish, mish-mish tarqatish yoki odamlar o‘rtasida nizolarni qo‘zg‘atish kabi xatti-harakatlarda;

d) shaxs tomonidan jamiyatda belgilangan odob-axloq qoidalari va xulq-atvor me’yorlariga amal qilmaslik holati: masalan, asosli sabab bo‘lmagan holda jamoat transportida keksalar, nogironlar yoki homilador

ayollarga o‘rin bermaslik, yoxud mahalla miqyosida tashkil etilgan ommaviy hashar tadbirlarida qatnashmaslik kabi harakatsizlik shaklida namoyon bo‘lishi mumkin.

Jinoyat sodir etishga moyilligi bo‘lgan shaxslar sifatida quyidagilar ko‘rilishi mumkin:

a) tajovuzkor ruhiy holatdagi bemorlar;

b) ixtisoslashtirilgan ta’lim-tarbiya muassasalaridan xulqi ijobiy tomonga o‘zgargani tufayli sud belgilagan muddat yakunlanmasdan ozod qilingan, shu sababli bunday muassasada qolish ehtiyoji qolmagan shaxslar bundan mustasno holda, u yerdan qaytganlar;

d) barqaror ish joyiga ega bo‘lmagan, ishlashni istamaydigan, birovning hisobidan yashashga odatlangan fuqarolar;

e) o‘z fikriga ega bo‘lmagan, osonlikcha boshqalarning ta’siriga tushib qoladigan va diniy ekstremistik g‘oyalarga moyil kishilar;

f) olib borilayotgan davlat siyosatiga nisbatan asossiz e’tiroz va norozilik bildiradigan shaxslar;

g) jinoyat sodir etishda gumon qilinib, lekin unga nisbatan qamoqqa olish kabi og‘ir ehtiyot chorasi qo‘llanmagan ayblanuvchilar;

h) faqat jabrlanuvchining shikoyati asosida qo‘zg‘atiladigan jinoyat ishlarida jabrlanuvchi ariza bermaganligi sababli ish yuritilishi to‘xtatilgan shaxslar.

Yuqorida sanab o‘tilgan shaxslar, jinoyat sodir etmagan yoki jinoyat sodir qilgan taqdirda ham unga huquqiy baho berilmagan, yoxud aybliligi isbotlanmagan bo‘lsa-da, ijtimoiy me’yorlarga zid xatti-harakatlari bilan huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo‘lgan xavfli holatda deb baholanadigan jismoniy shaxslar sifatida tan olinadi. Boshqa tomondan, huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir qilgan shaxslar – bu ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi, g‘ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikni amalga oshirganlikda aybdor deb topilgan va bu asosda ish yurituvning ma’lum bosqichida huquqbuzarlik ishi tugatilgan yoki ushbu huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilib, jazoga tortilgan shaxslardir. Jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri faoliyat yurituvchi

organ yoki muassasa doirasida, huquqbuzarliklarning individual profilaktikasini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxslar ichki buyruqlar orqali belgilanadi.

Jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri faoliyat yurituvchi subyektlar, ularning nazoratida bo‘lgan va nisbatan yakka tartibda profilaktik ish olib borilayotgan shaxslarning ijtimoiy-demografik (masalan: yoshi, jinsi, oilaviy holati, kasbi, ma’lumoti, yashash va ta’lim oladigan joyi va boshq.), ma’naviy-ruhiy (shu jumladan: ehtiyojlari, qiziqishlari, jamiyatdagi jarayonlarga munosabati, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga, mehnatga, ta’lim va faoliyatga, atrofdagilarga bo‘lgan munosabati, dunyoqarashi, xarakteri hamda temperament xususiyatlari) va biofiziologik (jismoniy va ruhiy sog‘lig‘i, irsiy xususiyatlari, tana tuzilishi, yoshga xos fiziologik va psixologik belgilari hamda imkoniyatlari) tomonlarini chuqur tahlil qilishi, ushbu o‘rganish natijalariga tayangan holda yakka tartibdagi profilaktika choralarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etishi lozim.

Umuman olganda, jinoyatlarning yakka tartibdagi va umumiy profilaktikasi orasidagi farq, profilaktik ta’sir ko‘rsatilayotgan obyekt – ya’ni bir kishi yoki shaxslar guruhidan iborat bo‘lishi bilan belgilanadi. Boshqacha ifoda etilganda, yakka tartibdagi profilaktik tadbirlarda aniq bir shaxsga qaratilgan choralar amalga oshirilsa, umumiy tartibdagi profilaktikada esa bu ta’sir ko‘lami bir nechta, o‘nlab, yuzlab, minglab yoki millionlab insonlarni qamrab oladi. Aynan shu omil hisobga olingan holda, har ikki turdagi profilaktik tadbirlar o‘ziga xos shaklda ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, e’tiborga molik jihat shuki, ba’zi istisno holatlarda, alohida shaxslar guruhi ham yakka tartibdagi profilaktika obyektiga aylanishi mumkin. Biroq bunday holatlarda bu guruh yagona, yaxlit obyekt sifatida qaralishi kerak. Masalan, nizolar yuzaga kelgan oilalar bunga misol bo‘la oladi. Jinoyatlarning yakka tartibda oldini olish tadbirlari, ichki ishlar organlarining jinoyat va huquqbuzarliklar profilaktikasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshiruvchi sohaga oid xizmatlar tomonidan, ularning vakolat va faoliyat yo‘nalishlari asosida olib boriladi.

Jinoyatlarning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish jarayonida shaxsning individual xususiyatlari, u yashayotgan ijtimoiy muhit, ijtimoiy-maishiy sharoitlari va turmush tarzining o‘ziga xos jihatlari, uning g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlari, huquqbuzarlikka moyilligi, shuningdek sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavfi darajasini aks ettiruvchi omillar va boshqa muhim holatlar e’tiborga olinishi zarur. Bu turdagi profilaktik tadbirlarni amalga oshirishda fuqarolarning huquqiy ongini va madaniy saviyasini oshirish, ularga jinoyat sodir etganlik uchun jazolanish muqarrarligini anglatish orqali huquqbuzarlik sodir etishga bo‘lgan jur’atni kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlikka moyil bo‘lgan yoki allaqachon huquqbuzarlik sodir qilgan shaxslarni axloqan tuzatish, ularni jamiyatga moslashtirish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish eng dolzarb vazifalardan biridir.

Mazkur masalaning muvaffaqiyatli hal etilishi uchun jinoyatlarning yakka tartibdagi profilaktikasiga oid eng samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni tizimli tarzda amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu qonun doirasida bunday chora-tadbirlar qatoriga: profilaktik suhbatlar o‘tkazish, rasmiy ogohlantirish berish, huquqbuzarlik yuzaga kelish sabablarini va bunga imkon berayotgan sharoitlar haqida ma’lumot berish, ijtimoiy moslashtirish hamda reabilitatsiya qilish, profilaktik hisobga olish, majburiy davolanishga yo‘naltirish va ma’muriy nazorat o‘rnatish kiradi.

5.3. Individual profilaktika faoliyati.

Profilaktika suhbatlari shaxsni jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me’yorlari va qoidalariga amal qilishga ishontirish, shuningdek noijtimoiy xulq-atvorning ijtimoiy va huquqiy oqibatlari hamda qonun doirasida belgilangan javobgarlik haqida tushuntirish maqsadida olib boriladi. Ushbu profilaktika suhbati noijtimoiy xulq-atvorga ega bo‘lgan, jinoyatga moyilligi bor yoki jinoyat sodir etgan shaxslar hamda profilaktik hisobga olingan fuqarolarga nisbatan amalga oshiriladi. Maqsad esa

shaxslarni jamiyat qabul qilgan axloq-odob qoidalariga rioya qilishga undashdir.

Profilaktika suhbati O‘zbekiston Respublikasi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonunning 6-moddasida nazarda tutilgan, huquqbuzarliklarning individual profilaktikasini amalga oshirishga javobgar bo‘lgan organ yoki muassasalarning vakili tomonidan o‘tkaziladi. Masalan, ichki ishlar organlari tizimida profilaktika suhbati jamoat tartibini ta’minlash, fuqarolarning xavfsizligini kafolatlash, yo‘l harakati va yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, shuningdek pasport-viza, nazorat-litsenziya, mulk va obyektlarni qo‘riqlash tartiblarini tekshirish bilan shug‘ullanuvchi ichki ishlar organining mas’ul xodimi tomonidan olib boriladi.

Profilaktik hisobga olish ishlarini amalga oshiruvchi profilaktika xizmati hamda jinoyat jazosini va boshqa jinoiy-huquqiy ta’sir choralarining ijrosini ta’minlaydigan xizmatlar xodimlari ham ushbu vazifalarni bajaradilar. Profilaktika suhbatlari, jinoyatlarning oldini olish bilan shug‘ullanuvchi organlar yoki ularning quyi bo‘g‘inlari (masalan, ichki ishlar idoralari tayanch punktlarida)da, shuningdek g‘ayriijtimoiy xulq-atvor ko‘rsatadigan, jinoyat sodir etishga moyil, jinoyat qilgan yoki profilaktik hisobga olingan shaxslarning yashash joylari, o‘qish yoki ish joylarida, yoki bevosita g‘ayriijtimoiy xulq-atvor, huquqbuzarlik yoki jinoyat aniqlangan joylarda o‘tkaziladi.

Profilaktika suhbatini olib borgan xodim bu haqda «Profilaktika suhbatini qayd etish» kitobiga yozuv kiritadi va kelajakda jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga amal qilmaslik davom etsa, qonunchilikda belgilangan ma’muriy javobgarlik yuzaga kelishi mumkinligini tushuntiradi. Suhbat davomida xodim shaxsning o‘ziga xos jihatlarini aniqlashi kerak: jamiyatdagi o‘rni (oiladagi, o‘qish yoki ish jamoasidagi mavqei), xarakteri, bilim va ma’lumot darajasi, mutaxassisligi, dunyoqarashi, qiziqishlari, ehtiyojlari, yashashga bo‘lgan munosabati va boshqalar. Shuningdek, uning turmush tarzi hamda ijtimoiy-maishiy sharoitlari – oilaviy holati, yashash joyi, faoliyat turi, oilasi va moddiy

ta’minlanganlik darajasi hamda g‘ayriijtimoiy xulq-atvor yoki sodir etilgan huquqbuzarlik sabablari va shart-sharoitlarini (moddiy muammolar, ehtiyojning qondirilmasligi, qiziqishlar, oiladagi tarbiyada mavjud bo‘lgan zaifliklar yoki salbiy jismoniy va ruhiy ta’sirlar) aniqlashi va bularni belgilangan shakldagi kitobga yozib qo‘yishi talab etiladi.

Agar shaxs o‘zining g‘ayriijtimoiy xulq-atvori yoki sodir etgan huquqbuzarligining mohiyatini tushunib, pushaymonlik bildirsa, xodim profilaktik suhbat bilan chekklanadi. Boshqa tomondan, agar shaxs o‘z xulq-atvorining yoki huquqbuzarlik sodir etishining asoslarini anglamasa va pushaymon bo‘lmasa, shuningdek xodim aniqlangan g‘ayriijtimoiy xulq-atvorni davom ettirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini belgilasa, unda shaxsga rasmiy ogohlantirish beriladi. Rasmiy ogohlantirish – o‘zining g‘ayriijtimoiy harakatlarini yoki huquqbuzarlikka moyilligini tushunmagan va pushaymon bo‘lmagan, profilaktik hisobda turuvchi va ma’muriy nazorat ostidagi shaxslarga beriladi hamda ulardan ogohlantirish xatlari olinadi. Ushbu ogohlantirish xatlari esa profilaktik hisob ishlari yoki yig‘ma jildga joylashtiriladi.

Agar shaxsda g‘ayriijtimoiy xulq-atvor yoki jinoyatga moyillik holati aniqlansa, xodim qonun hujjatlariga muvofiq ushbu shaxs ilgari rasmiy ogohlantirilgan yoki ogohlantirilmaganligini tekshirish majburiyatiga ega.

Agar shaxs bir yil ichida ilgari rasmiy ogohlantirilganligi aniqlansa, u holda uning oldingi huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgani uchun berilgan rasmiy ogohlantirish og‘irlashtiruvchi omil sifatida hisobga olinadi. Jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi, harakati yoki harakatsizligi, yoki uning g‘ayriijtimoiy xulq-atvorining xavfli ekanligi sababli huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etish ehtimoli mavjud bo‘lgan jismoniy shaxs aniqlangan joyda mas’ul shaxs tomonidan rasmiy ogohlantiriladi. Rasmiy ogohlantirish mas’ul xodim o‘z xizmat vazifalarini bajarayotgan paytda, profilaktik tadbirlar o‘tkazilayotgan vaqtida yoki qonunchilikda ko‘rsatilgan boshqa hollarda beriladi. Rasmiy ogohlantirish blankasi ikki

qismdan tashkil topgan: biri fuqaroga taqdim qilinadigan ogohlantirish, ikkinchisi esa mas’ul shaxsda qoladigan, qirqib olinadigan qismdir.

Rasmiy ogohlantirish blankasi to‘ldirilganda, barcha yozuvlar faqat qora yoki havorang siyoh yordamida aniq va o‘qilishi oson shaklda yozilishi kerak. Mas’ul shaxs rasmiy ogohlantirish blankasini to‘ldirayotgan paytda, agar ogohlantirilayotgan shaxs yonida uning shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo‘lmasa, blankaning tegishli bo‘limlari shaxsning og‘zaki so‘zlariga tayangan holda to‘ldiriladi. Mas’ul shaxs blankani to‘ldirib bo‘lgach, uni imzolaydi. Blankaning ajratib olinadigan qismi esa rasmiy ogohlantirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadi. Agar ogohlantirilayotgan shaxs imzo qo‘yishdan bosh tortsa, bu holat blankaga alohida yozib qo‘yiladi.

Rasmiy ogohlantirish rasmiylashtirilgandan keyin, u ogohlantirilgan shaxsga topshiriladi, blankaning ajratib olinadigan qismi esa mas’ul shaxsda saqlanadi. Rasmiy ogohlantirish blankasi qat’iy hisobga olinadigan hujjat bo‘lib, o‘z seriyasi va raqamiga ega bo‘ladi. Ushbu blankalar huquqbuzarliklarni oldini olish ishlarini bevosita amalga oshiruvchi vazirlik va idoralar tomonidan, quyi bo‘g‘in tizimlar uchun markazlashgan tartibda tayyorlanadi.

Jinoyatlarning oldini olish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar tomonidan berilgan rasmiy ogohlantirishlar yig‘ilib boriladi. Mas’ul shaxs, agar ogohlantirish berilgan shaxs uni qabul qilgan bo‘lsa, shu shaxsning ish joyidagi rahbariyatga yoki yashash joyidagi mahalliy fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga quyidagi vaziyatlarda xabar berishga haqli: agar shaxs o‘zining noto‘g‘ri xatti-harakatlarini tushunmayotgan bo‘lsa va qilgan ishidan pushaymonlik bildirmayotgan bo‘lsa:

– shaxsning ijtimoiy normalarga zid xulq-atvori uning ish yoki o‘qish joyidagi jamoaga hamda yashab turgan hududdagi mahalla ahlining tinchligi va xavfsizligiga xavf tug‘dirishi yoki ularning tarbiyasi va ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holatlarda;

– shaxsda ijtimoiy normalarga zid xulq-atvor yoki huquqbuzarlik, jinoyatga moyillikni yuzaga keltirgan sabablar yoki shaxsning huquqbuzarlik sodir etishiga imkon yaratgan sharoitlar bevosita uning ish yoki o‘qish joyidagi jamoaning, yashash joyidagi aholining munosabati yoki ularning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining beparvoligi (faolsizligi, loqaydligi) bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda.

Huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar o‘z vakolatlari doirasida, ijtimoiy normalarga zid xulq-atvor ko‘rsatgan, huquqbuzarliklarga moyil yoki huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar haqida ularning ish (o‘qish) joyidagi rahbariyatni hamda yashash joyidagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini g‘ayriijtimoiy xulq-atvor va sodir etilgan huquqbuzarlik holatlari, shuningdek bunga sabab bo‘layotgan omillar va shart-sharoitlar haqida xabardor qilishga haqqi bor.

Huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar shaxsning rasmiy ogohlantirilganligi yoki uning g‘ayriijtimoiy xulq-atvor holati, shuningdek bunga sabab bo‘layotgan omillar va shart-sharoitlar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha yuborgan xabarnomasiga javob bermagan, bir oy ichida munosabat bildirmagan korxona, muassasa, tashkilotlar hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari haqida prokuratura organlari huzurida tashkil etiladigan huquqbuzarliklarni oldini olish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengashga murojaat qilishi mumkin.

Ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv choralari jinoyatlar profilaktikasiga mas’ul soha xizmatlari tomonidan jinoyatlardan jabrlanganlar, huquqbuzarliklarga moyil shaxslar va jinoyat sodir etganlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda qo‘llanadi.

Jinoyatchilikning oldini olish subyektlari – bu jinoyatchilik va uning turli ko‘rinishlarini, shuningdek ayrim jinoyatlarning yuzaga kelishi hamda tarqalishiga sabab bo‘ladigan omillar va sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, kamaytirish hamda yo‘q qilish, shuningdek jinoyatga moyil shaxslarni jinoyatga qo‘l urishdan saqlash va ularni jamiyatga moslashtirish vazifalarini bajaruvchi, bu ishlar uchun qonun tomonidan

mas’ul etib belgilangan organlar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslardir.

Jinoyatlarning umumiy profilaktikasi subyektlari tizimini aynan shu tasnif asosida shakllantirish maqsadga muvofiqdir, bunda huquqbuzarliklarning profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi hamda unga faol ishtirok etuvchi subyektlar hisoblanadi. Jinoyatlarning umumiy profilaktikasi o‘zining quyidagi xosliklari va afzalliklariga ega: bir paytda o‘nlab, yuzlab, minglab yoki hattoki millionlab odamlarni profilaktik ta’sirga ega qilishi mumkin; kam resurs va mablag‘ talab etadi; vaqt jihatdan samarali hisoblanadi; jinoyatlar oldini olishga kompleks yondashuvni ta’minlaydi; shuningdek jinoyat sodir bo‘lishining sabablarini va ularni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etishga qodir.

Haqiqatan ham, jinoyatlarning umumiy profilaktikasi bir paytda o‘nlab, yuzlab, minglab, hattoki millionlab odamlar ustida profilaktik ta’sir o‘tkazish imkoniyatiga ega. Shu nuqtayi nazardan, jinoyat profilaktikasi bilan shug‘ullanuvchi subyektlar mahalliy darajada uchrashuvlar, ma’ruzalar, davra suhbatlari, konferensiyalar, seminarlar tashkil etish, gazetalar va jurnallarda maqolalar nashr qilish, profilaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega kitoblarni chop etish, televideniyeda ko‘rsatuvlar hamda filmlar taqdim etish, radioda eshittirishlar efirga uzatish orqali keng aholiga birdek profilaktik ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mohiyatiga ko‘ra, umumiy profilaktikaga oid har bir tadbirning ta’sir doirasi farq qiladi. Masalan, huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan shug‘ullanuvchi subyekt muayyan mehnat jamoasi, ta’lim muassasasi yoki mahallada o‘tkazilgan uchrashuv orqali huquqbuzarlikning ijtimoiy zararli tomonlari, huquqiy oqibatlari, javobgarlikning qat’iyligi kabi masalalarni yuzdan ikki yuzgacha ishtirokchiga yetkazib, ularga profilaktik ta’sir o‘tkazishi mumkin. Shu bilan birga, radioeshittirish yoki teleko‘rsatuv orqali minglab, hatto millionlab insonlarga ham ta’sir ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Shuning uchun, huquqbuzarliklar profilaktikasi subyekti mavzuning dolzarbligi, uning keng ahamiyati hamda mavjud

resurslar va imkoniyatlarga tayangan holda umumiy profilaktika doirasidagi tadbirlardan birini yoki bir nechtasini tanlab olib, ularni amalga oshirishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, jinoyatlarning umumiy profilaktikasining kam kuch, vaqt va mablag‘ talab qilishi katta afzallik hisoblanadi.

Misol uchun, bir soatlik teleko‘rsatuv orqali minglab odamlarni profilaktik ta’sirga ega qilish uchun atigi o‘n kishi mehnati yetarli bo‘lsa, aynan shu bir soat ichida individual profilaktika yo‘li bilan minglab shaxslarga ta’sir o‘tkazish uchun yuzlab profilaktika subyektlarining mehnati talab qilinadi. Agar buni bir kishi bajarsa, bunga oylab, yillab vaqt ketishi mumkin. Shu bilan birga, sarflanadigan mablag‘ ham shunga mos ravishda sezilarli darajada ortadi. Jinoyatlar umumiy va maxsus profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar, muassasalar va tashkilotlar tizimiga quyidagilar kiradi:

1) ichki ishlar organlari;

2) prokuratura;

3) davlat xavfsizlik xizmati;

4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati;

5) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi;

6) O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

7) adliya organlari;

8) davlat bojxona xizmati;

9) davlat soliq xizmati;

10) mehnat organlari;

11) ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalari;

12) davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari;

13) O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi;

14) O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalari.

Jinoyatlar umumiy profilaktikasida ishtirok etuvchi subyektlar tizimini quyidagilar tashkil etadi:

1) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

2) mahalliy davlat hokimiyati organlari;

3) huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlar;

4) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari;

5) nodavlat notijorat tashkilotlari;

6) fuqarolar.

Masalan, giyohvandlik vositalari, psixotrop modda va aql-idrok faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan boshqa moddalarni saqlash, tashish, sotish hamda ulardan foydalanish qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish vazifasi qonun hamda qonunosti hujjatlar asosida huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan shug‘ullanuvchi subyektlar zimmasida bo‘lib, shuningdek narkotik moddalarni nazorat qilish borasida O‘zbekiston Respublikasi davlat komissiyasi faoliyat yuritadi.

KAZUS: «Mahalladagi yoshlar orasida jinoyatning oldini olish choralari»

Vaziyat

Toshkent viloyatidagi «Mustaqillik» mahallasida so‘nggi yillarda yoshlar o‘rtasida mayda o‘g‘rilik, bezorilik va spirtli ichimlik iste’moli holatlari ko‘paygan. Mahalla faollari, profilaktika inspektori va o‘qituvchilar bu muammoni o‘rganish jarayonida aniqlashdiki, ayrim yoshlar o‘qishni tashlab, ko‘cha guruhlariga qo‘shilgan, bo‘sh vaqtini samarasiz o‘tkazmoqda.

Profilaktika inspektori bu holatni bartaraf etish uchun **kompleks jinoyatchilikning oldini olish dasturi** ishlab chiqadi. Unga quyidagilar kiritiladi:

- yoshlar bandligini ta’minlash maqsadida mahalliy korxonalarga vaqtinchalik ish joylari tashkil etish;

- bo‘sh vaqtni to‘g‘ri tashkil qilish uchun sport va madaniyat markazlarini faol ishlatish;
- ota-onalar uchun «Huquqiy madaniyat va nazorat» mavzusida ma’rifiy uchrashuvlar o‘tkazish;
- maktablarda «Huquq buzarlikning oqibatlari» mavzusida profilaktik suhbatlar tashkil etish.

Bir necha oy o‘tib, mahallada yoshlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar soni keskin kamayadi, o‘quvchilar darslarga muntazam qatnay boshlaydi.

Tahlil uchun savollar

1. Ushbu holatda qo‘llangan chora-tadbirlar **jinoyatchilikning oldini olishning qaysi turi**ga kiradi?
2. Mahalla darajasida jinoyatchilikning oldini olishda **ijtimoiy, maxsus va individual profilaktika** qanday rol o‘ynaydi?
3. Yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikka sabab bo‘lgan **kriminogen omillar** nimalar edi?
4. Dastur natijasida erishilgan ijobiy o‘zgarishlar kriminologik nuqtayi nazardan qanday baholanadi?

Nazorat uchun savollar

1. Jinoyatchilikning oldini olish tushunchasi haqida to‘xtaling.
2. Jinoyatlarning umumiy oldini olish choralari nimalardan iborat?
3. Jinoyatlarning maxsus oldini olishning o‘ziga xos jihatlari qanday?
4. Jinoyatlarning yakka tartibdagi profilaktikasi qay tartibda olib boriladi?
5. Jinoyatlar viktimligining profilaktikasi haqida ma’lumot bering.
6. Jinoyatlarni axborotlashtirish deganda nimani tushunasiz?
7. Jinoyatchilikning oldini olishda bashorat qilishning o‘rni qay darajada?
8. Jinoyatchilikning oldini olishga doir ilmiy qarashlar haqida ma’lumot bering.

VI BOB. RETSIDIV JINOYATCHILIKNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA UNING OLDINI OLISH. UYUSHGAN JINOYATCHILIK VA UNING OLDINI OLISH

6.1. Retsidiv jinoyatchilik tushunchasi, turlari va tavsifi
6.2. Qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida yangi jinoyat sodir etish
6.3. Statistik tahlillar, retsidiv jinoyatchilik

6.1. Retsidiv jinoyatchilik tushunchasi, turlari va tavsifi

Jinoyatchilikka qarshi samarali ta’sir ko‘rsatish maqsadida jinoyat-huquqiy choralarni takomillashtirish zarur. Bu, o‘z navbatida, jinoyat sodir etgan, ayniqsa takroran jinoyat qilgan shaxslar uchun jinoiy javobgarlikni yanada qat’iylashtirishni taqozo etadi. Amaldagi jinoyat qonunchiligida takroriy jinoyatchilikning turli shakllari turlicha baholanadi: ayrim hollarda ilgari jinoyat sodir etgan shaxs tomonidan yangi jinoyat sodir etilishi qilmishning og‘irlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatsa, boshqa holatlarda esa bu omil javobgarlikni og‘irlashtiruvchi shart sifatida ko‘riladi (agar sud buni shunday deb tan olmasa). Qonunda ko‘rsatilgan vaziyatlarda jinoyatni takroran sodir etganlik sudga ozodlikdan mahrum qilish muassasasining rejimini tanlashda asos bo‘ladi.

Takroran jinoyat sodir etish nafaqat mahkumning shaxsiy tavsifi uchun muhim ahamiyatga ega, balki uning tarbiyaviy ishlarini tashkil etishda ham hisobga olinadi. Retsidiv va takroriylik tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, ular mustaqil ma’nolarga ega. Aybdorning ilgari sodir etgan jinoyat uchun sudlanganligi takroriylikdan farq qiladi va yangi tushuncha – retsidivni yuzaga keltiradi. Bu holatda gap ko‘p jinoyat sodir etishning boshqa turlariga nisbatan retsidivning ijtimoiy xavfliligi yuqori ekanligi haqida emas.

Asosiy xususiyat shundaki, retsidivda shaxs ilgari sudlanganligi va sud tomonidan unga jazo qo‘yilganligiga bepisandlik ko‘rsatadi, bu esa uning o‘z qilmishiga davlat bahosiga e’tiborsizligini anglatadi.

Retsidiv tushunchasi, uning turlari va ta’riflari masalalari jinoyat huquqi nazariyasi va kriminologiya sohalarida uzoq yillardan beri o‘rganib kelinmoqda. Shunga qaramay, takroran jinoyat sodir etgan shaxsni retsidivist sifatida tan olish va mazkur hodisani retsidiv deb hisoblash uchun belgilangan mezonlar bo‘yicha turli takliflar o‘rtasida katta tafovutlar mavjud. Ushbu tafovutlar qisman obyektiv tabiatga ega, chunki «retsidiv» atamasi jinoyat huquqi, kriminologiya va axloq tuzatish-mehnat (jinoyat-ijroiya) huquqining vakillari tomonidan turlicha qo‘llaniladi. Shu sababli, huquqiy (legal), kriminologik va penitensiar retsidiv tushunchalari mavjud.

Bugungi kunda fan doirasida retsidiv va uning belgilari haqida fikrlarning tafovutlari katta darajada mavjud. Retsidiv tushunchasini tushuntirish uchun turli olimlar tomonidan o‘rganilgan belgilarni batafsil tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Avvalo huquqiy (legal) retsidiv ta’rifidan boshlaymiz. Masalan, P.F. Grishanin retsidiv va retsidivistni belgilovchi huquqiy xususiyatlarga quyidagilarni kiritadi: 1) aybdorning ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etganligi; 2) aybdorning takroriy jinoyat qilishi oldidan ilgari sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganligi; 3) aybdorning sudlanishdan oldin va keyin sodir etgan jinoyatlari qasddan amalga oshirilganligi.

Ba’zi tadqiqotchilar jinoyatchining ilgari sodir etgan jinoyati uchun jazoni (to‘liq yoki qisman) o‘taganligini retsidivning muhim belgisi sifatida ko‘radilar. Ushbu yondashuvga ko‘ra, agar mahkum sud hukmi qonuniy kuchga kirgandan so‘ng takroran jinoyat qilsa, u retsidivist hisoblanmaydi; ammo agar mahkum o‘n kun o‘tib, ozodlikdan mahrum qilish muassasasida jinoyat sodir etsa, u retsidivistga aylanadi. Bu fikrni qabul qilish qiyin. Bizningcha, V.I. Popovning fikri aniqroq: «Muddatli jazoning samarasi sud tomonidan tayinlangan muddat to‘liq o‘tmaguncha baholanmasligi kerak. Takroriy jinoyatni retsidiv deb hisoblash uchun jazoni to‘liq o‘tash sharti qonunga va retsidiv jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyotiga zid hisoblanadi».

Ba’zi olimlar shaxsni faqatgina og‘ir jinoyatlar sodir etgan yoki og‘irlik darajasi bir xil bo‘lgan jinoyatlarni amalga oshirgan, shuningdek turdosh yoki hatto bir xil turdagi jinoyatlar qilgan taqdirda retsidivist deb hisoblashni taklif qiladilar. Shu bilan birga, boshqa yondashuvlar ham mavjud bo‘lib, ularning asosiy mazmuni shundaki, aybdor retsidivist sifatida tan olinishi uchun oldingi va keyingi jinoyatlari uchun albatta ozodlikdan mahrum etilgan bo‘lishi lozim.

Yuqarida ko‘rsatilgan belgilarni qo‘llash zarur, ammo ular faqat retsidivni aniqlash uchun emas, balki uning turli turlarini tasniflashda foydalaniladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘xshash yoki hatto bir xil (maxsus) retsidiv faqat maxsus retsidivistlarga xos emas. Bu shaxslar ko‘pincha turli xil jinoyatlar sodir etadilar. Albatta, maxsus retsidiv shaxsning jamiyatga qarshi moyilligining barqarorligini bildiradi, ammo uch yoki to‘rt marta ozodlikdan mahrum qilish jazolarini o‘tagan va turli jinoyatlar sodir etgan shaxslar ham yuqori ijtimoiy xavf-xatarga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. Ya’ni, jinoyatchining jamiyatga nisbatan bepisandligi va odatlari nafaqat turdosh, balki turli jinoyatlarda ham o‘zini ko‘rsatadi.

Retsidiv tushunchasini faqatgina og‘ir jinoyatlar sodir etilishi yoki aybdorning jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilinishi bilan bog‘lashga harakat qilish to‘g‘ri emas. Kriminologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ashaddiy jinoyatchilar o‘z jinoiy faoliyatini nisbatan kam xavfli jinoyatlardan boshlashadi, aksincha retsidivistlarning asosiy qismi keyingi jinoyatlarining xavflilik darajasini pasaytirishi bilan xarakterlanadi. Shu sababli, ko‘plab kam og‘ir takroriy jinoyatlarni «retsidiv» tushunchasidan chiqarib, faqat og‘ir yoki turdosh jinoyatlarni hisobga olish retsidivga to‘g‘ri baho berish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab qo‘yadi.

Ba’zi mutaxassislar retsidiv tushunchasini faqatgina takroriylik belgisi bilan bog‘laydi. Ya’ni, ular retsidiv va takroriylik tushunchalarini tenglashtiradilar. Ushbu qarash asosida aytiladiki, jazoga hukm qilingan shaxslar orasida ilgari ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etganlar mavjud bo‘lib, ularni retsidivist deb hisoblash kerak.

Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuv retsidiv va takroriylik tushunchalarini bir-biridan ajratib bo‘lmas holga keltirishi va natijada retsidivning umumiy ta’rifiga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli, X. Kingsning fikrlariga qo‘shilamiz. U ta’kidlaganidek, bu qarash noto‘g‘ri, chunki unda faqat ikki jinoyat sodir etgan retsidivistlar taqqoslash mezonining bir tomonida turadi, ko‘p jinoyatlar qilgan jinoyatchilar esa boshqa tomonda. Aslida esa, ikki shaxs faqat teng miqdordagi jinoyatlar sodir qilganida ularni solishtirish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, jinoyatlar retsidivi ikki asosiy belgi – takroriylik va sudlanganlik mavjud bo‘lgan ko‘p sonli jinoyatlar sodir etish shakli sifatida aniqlanishi mumkin.

Ammo jinoyatlar retsidivining umumiy ta'rifi batafsil va chuqur yoritilishi zarur. Aks holda, ma’lum bir shaxsni retsidivist deb atashda yuzaki yondashuv paydo bo‘lishi va turli turdagi retsidivistlarni bir xil darajada baholash holatlari sodir bo‘lishi mumkin. Ilmiy manbalarda retsidivistlar uchun uch xil asosiy tasnif – oddiy retsidivist, xavfli retsidivist va o‘ta xavfli retsidivist – taklif qilinganligi bejiz emas. Ushbu tasnifga kiritilgan belgilarga quyidagilar misol bo‘lishi mumkin:

1 zo‘rlik ishlatib jinoyat sodir etilganligi;

2) sodir etilgan jinoyatlar soni;

3) ayb shakli;

4) qilmishning og‘irlik darajasiga;

5) ro‘yxatga kiritilgan jinoyatlarning takrorlanish xavfi.

Retsidivda jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab retsidivistlarni tasniflash retsidiv jinoyatchilik tuzilishi va xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Uncha jiddiy bo‘lmagan jinoyatlar sodir etgan shaxslar ham retsidivist hisoblanishi mumkin. Ushbu retsidiv turining farqi shundaki, kam jiddiy jinoyatlar uchun ko‘p marotaba sudlanganlik holatlari jinoyat qonunlariga bo‘ysunmaslik belgisi bo‘lib, ilgari sudlangan tajribasi bo‘lmagan shaxs tomonidan sodir etilgan xuddi shunday jinoyatlarga nisbatan boshqacha yondashuvni talab qiladi.

Xavfli va o‘ta xavfli retsidivlar shaxsning yuqori darajada xavfli jinoyatlar sodir etishga moyilligini ko‘rsatadi, bu esa og‘ir huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi kerak. Huquqiy retsidivning turli jihatlarini aniqlash uchun kriminologiyaning vositalaridan foydalanish zarur. U hodisalar ijtimoiy-psixologik tabiati bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘rib chiqilayotgan tushunchaning jinoyat va jinoyat-ijroiya huquqidagi mazmunini boyitishga yordam beradi. Bunda diqqat markazi quyidagi masalalarga qaratilishi muhim.

Retsidiv jinoyatchilikni o‘rganayotgan olimlarning aksariyati uning xavf darajasining yuqoriligini ta’kidlaydi va buni ilgari tarbiyaviy chora ko‘rilgan, ammo qayta jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy-etik jihatdan noto‘g‘ri moyilligiga bog‘laydi.

Bu yerda davlat tomonidan ilgari jazolangan va bu tajribadan saboq olishi lozim bo‘lgan shaxs haqida gap ketmoqda. Sudlangan odamning yangi jinoyat sodir etishi, odatda, uning ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligidan darak beradi va yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishda yangi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Shu sababli, retsidiv mustaqil tushuncha bo‘lib, uni ko‘p marotaba jinoyat sodir etish yoki boshqa turdagi jinoiy faoliyat bilan adashtirmaslik kerak. Bizning fikrimizcha, jinoyat qonuni takroran buzilgan holatlar uchun retsidiv atamasini qo‘llash maqsadga muvofiq emas.

Kriminologiyada esa sudlanganlik faktini retsidivning ajralmas belgisi deb hisoblashdan voz kechish – amalda retsidiv xususiyatlarini baholashda shaxsning sudlanganligi holatini hisobga olmaslikni bildiradi.

Shu tariqa, retsidiv faqatgina jinoiy faoliyatning davomiyligi emas, balki davlat tomonidan aybdorning harakatlariga salbiy baho berilishiga qaramay, u o‘z jinoyatchilik yo‘lidan qaytmaslikdir. Aslida, bir necha jinoyat sodir etgan kishi agar hech qachon jazoga hukm qilinmagan bo‘lsa, unga nisbatan qilingan jinoiy ta’sir qanday natija berishini oldindan aniqlash qiyin. Albatta, agar dastlabki jazodan keyin shaxs yana jinoyat qilmasa, u bir necha jinoyat sodir etganligi uchun unga oldindan ishonchsizlik bilan qarash adolatli bo‘lmaydi.

Shunday qilib, retsidivning asosiy xususiyati shundaki, davlat organi sifatida sud tomonidan qilmishga nisbatan salbiy hukm berilgan bo‘lsa-da, shaxs yana jinoyat sodir etadi. Huquqiy retsidivga oid ta’riflar penitensiar retsidivga ham taalluqlidir. Penitensiar retsidiv jazoni o‘tash jarayonida sodir bo‘lib, uning xavflilik darajasi shundaki, shaxs oldingi jinoyati uchun jazoni to‘liq o‘tamaguncha yangi jinoyatga qo‘l uradi. Bundan tashqari, ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazolari amal qilayotgan paytda shaxs davlatning maxsus nazorat organlari ostida bo‘lsa-da, bu holat uning jinoyat sodir etishini to‘xtatmaydi.

6.2. Qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida yangi jinoyat sodir etish

Shu bilan birga, penitensiar retsidivga boshqacha tushuncha beruvchi qarashlar ham mavjud. Masalan, A.X. Kunashev penitensiar retsidivni «shaxsning ozodlikdan mahrum qilish jazoni takroran o‘tashi» deb talqin qiladi. Ammo bu fikrga to‘liq qo‘shilish qiyin, chunki bu yerda e’tibor jinoyat sodir etishdan jazoni o‘tashga o‘zgartirilgan. Agar muallif maqsadi ilgari ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning yangi jinoyat sodir etishi natijasida unga yana jazoning tayinlanishini nazarda tutgan bo‘lsa, bu atama to‘g‘ri qo‘llanilmagan bo‘lishi mumkin.

Birinchidan, lotincha «roena» so‘zi nafaqat ozodlikdan mahrum qilishni, balki umumiy ma’noda jazoni anglatadi. Bundan tashqari, retsidiv turi shaxsga tayinlangan jazoga bog‘liq bo‘la olmaydi. Shu sababli «penitensiar» atamasi jazo tayinlangan vaqtga emas, balki jinoyat sodir etilgan vaqtda qo‘llanishi lozim. Retsidiv turini aniqlashda qo‘llaniladigan boshqa atama – «postpenitensiar» bo‘lib, uni A.X. Kunashevning qarashlari nuqtayi nazaridan tushuntirish maqsadga muvofiq emas. Bizning fikrimizcha, bu atama jazoni o‘taganidan keyin sodir etilgan retsidiv jinoyatga nisbatan qo‘llanishi kerak.

Adabiyotlarda retsidiv turlarini turli mezonlar asosida ko‘plab tasniflashlar mavjud. Masalan, umumiy va maxsus retsidiv, qasddan yoki beparvolik sababli sodir etilgan retsidiv, shuningdek oddiy va ko‘p marotaba sodir etilgan retsidiv turlari ajratiladi. Umumiy retsidiv – ilgari

jinoyat uchun sudlangan shaxsning har qanday yangi jinoyatga qo‘l urishi hisoblanadi. Maxsus retsidiv esa shaxsning yangi jinoyatining oldingisiga o‘xshash yoki turdosh bo‘lishi bilan ifodalanadi. Shu sababli o‘xshash va turdosh retsidivlar o‘rtasida farq borligi ta’kidlanadi.

Jinoyatlar sonining ko‘pligi shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligidan dalolat berishi mumkin. Bu kontekstdagi oddiy (bir martalik) va murakkab (bir necha marotaba) retsidiv tushunchalari ilgari qo‘llangan ta’sir choralari natijasida yangi jinoyat sodir etish holatlarini anglatadi. Qasddan yoki beparvolik bilan sodir etilgan yangi jinoyatlar esa o‘ziga xos turli yondashuvlarni talab qiladi.

Retsidivning yuqorida tilga olingan turlaridan tashqari, adabiyotlarda boshqa turdagi retsidivlar ham uchrab turadi. Oldingi jinoyatlarning keyingi jinoyatlarga ta’siri jinoyat-huquqiy manbalarda alohida ko‘rib chiqilmagan. Masalan, A.S. Nikiforov fikricha, faqatgina shaxsning barqaror, turdosh salbiy xislatlari namoyon bo‘lgan qilmishlar o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin. Agar aybdorning jinoyatlari ularning salbiy xususiyatlariga ko‘ra turlicha bo‘lsa, bu jinoyatlar majmui emas, balki ularning yig‘indisi hisoblanadi. X. Kings esa bu masalaga o‘z nuqtayi nazarini bildirar ekan, agar shaxs jazoni o‘tash davrida axloqan tuzalmay, o‘zning ijtimoiy xavfli odatlarini qisman o‘zgartirib, boshqa turdagi yangi jinoyat sodir etsa, buni umumiy retsidiv deb baholash mumkin, deb yozadi.

Agar shaxs axloqan tuzalgani bilan, keyinchalik uning ichki ijtimoiy nojo‘ya odatlari qayta yuzaga kelib, yangi jinoyat sodir etsa, bunday holatni tasodifiy retsidiv deb atash mumkin. Yangi jinoyatni umumiy yoki tasodifiy retsidiv sifatida baholashda jinoyat sodir etilgan vaqt asosiy mezon hisoblanadi. Agar jinoyat sudlanganlik holati bekor qilinishi yoki olib tashlanishidan oldin sodir etilgan bo‘lsa, bu umumiy retsidiv hisoblanadi; aks holda, agar jinoyat sudlanganlik holati tugatilganidan yoki olib tashlanganidan keyin amalga oshirilsa, unda bu tasodifiy retsidivga kiradi.

X.Kingsning yondashuvi, albatta e’tiborga loyiq, biroq uning taklif qilgan terminologiyasida ayrim kamchiliklar bor. U «tasodifiy retsidiv» atamasini kriminologik retsidiv tushunchasi sifatida ishlatadi. Aslida, kriminologik retsidiv – bu shaxs sudlanganidan keyin yangi jinoyat sodir etishi bilan bog‘liq barcha holatlarni qamrab oluvchi umumiy tushuncha. Bizning fikrimizcha, kriminologik tadqiqotlarda asosiy e’tibor retsidivdagi jinoyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikka qaratilishi lozim. Bu yondashuv mahkumlarning tarkibi va kriminologik xususiyatlariga asoslangan turdosh toifalarni aniqlashga yordam beradi va takroriy jinoyatlar hamda aybdorlarning ijtimoiy xavfliligini aniqroq baholash imkonini yaratadi.

Ilgari sudlangan shaxslar har uch o‘g‘rilik jinoyatidan bittasida, har uchta bosqinchilik jinoyatidan birida, shuningdek har to‘rt qasddan odam o‘ldirish, o‘limga olib kelgan badanga og‘ir shikast yetkazish, tovlamachilik, kvartira va avtomototransport o‘g‘riligining birida, har besh talonchilik va nomusga tegish holatlarining birida, shuningdek har olti avtotransportni o‘g‘irlash va ichki ishlar organlari xodimlariga qarshilik ko‘rsatishda ishtirok etganliklari aniqlangan. Umumiy va maxsus retsidivlar nisbati sodir etilgan jinoyatlar turiga qarab o‘zgarib turadi. Masalan, firibgarlar va o‘g‘rilarda maxsus retsidiv ulushi zo‘rlik ishlatganlar va odam o‘ldirganlardagi maxsus retsidivga qaraganda yuqoriroq ko‘rsatkichlarga ega.

Shunday qilib, ushbu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, xavfi kamroq bo‘lgan huquqbuzarliklar aslida jiddiyroq jinoyatlarga yo‘l ochadigan tayyorgarlik bosqichi sifatida xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun jinoyatlarni oldini olishda faqat katta jinoyatlarga emas, balki kichik huquqbuzarlik va hatto ahamiyatsiz ko‘ringan noqonuniy harakatlarga ham e’tibor qaratish zarur. Profilaktika choralari shu tarzda kengaytirilishi, shaxslarning jinoyatga qadam qo‘yishining dastlabki sabablari bartaraf etilishi muhimdir.

Retsidiv jinoyatchilik Ijtimoiy tipi sifatidagi retsidivist shaxsining o‘ziga xos xususiyatlari

Ijtimoiy siyosatning muhim tarkibiy bo‘g‘ini bo‘lgan umumijtimoiy chora-tadbirlar bir necha asosiy yo‘nalishlardan iborat: moddiy, tashkiliy, ijtimoiy nazorat hamda tarbiyaviy yo‘nalishlar. Masalan, moddiy chora-tadbirlarga jinoyat qurbonlariga turli shakllarda yordam ko‘rsatish, hayot va sog‘liqni ijtimoiy sug‘urtalash, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik varaqasi asosida to‘lovlarni amalga oshirish, shuningdek nogironlik bo‘yicha pensiya tayinlash kabi amaliy choralarni kiritish mumkin.

Biroq jinoyatlar xilma-xilligini va ularni sodir etgan shaxslarning individualligini tahlil qilish mumkin, chunki individual xususiyatlarning ko‘plari boshqalarida ham takrorlanadi. Demak, shaxsning har bir alohida xususiyati nafaqat bitta insonga, balki ko‘plab kishilarga xos bo‘lishi mumkin. Biz A.S. Mixlinning «xususiyat va xususiyatlar majmuining namoyon bo‘lish darajasi deyarli betakrordir» degan fikriga to‘liq qo‘shilamiz.

Shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat uning gayriijtimoiy moyilligini ko‘rsatadi, bu esa retsidiv yuzaga kelganda yanada mustahkamlanadi. Ko‘plab mutaxassislar shaxsning gayriijtimoiy moyilliklari, odatlari va ko‘nikmalarining barqarorligiga e’tibor qaratadilar. Bunday umumiy xulosalar qanchalik haqqoniy? Shaxsning ko‘plab va xilma-xil xususiyatlari mavjud bo‘lsa-da, biz quyidagi umumlashtirishlarni barqaror ravishda qo‘llaymiz: masalan ta’magirlik jinoyatini sodir etgan yoki zo‘rlik ishlatgan shaxs; retsidivist va birinchi marta sudlangan shaxs kabi guruhlarni farqlaymiz va ular haqida gapiramiz. Shaxsning xususiyatlari qancha ko‘p bo‘lsa, ularning turlari ham shuncha ko‘p bo‘ladi. Shuning uchun, retsidivistlar orasida ham turli toifalar mavjud ekanligi ayon.

Bunday guruhlarni ajratish jinoyatlarning xilma-xilligini hamda jinoyatchilarning individualligini tahlil qilish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, K.E. Igoshevning jinoyatchilarni tiplarga ajratish masalasi jinoyatchi shaxsini o‘rganishdagi eng muhim masalalardan biri ekanligi haqidagi fikriga to‘liq qo‘shilish mumkin. U yozishicha,

«Tiplarga ajratish – bu nafaqat jinoyatchining ijtimoiy mohiyatini anglash usuli, balki jinoyatlarning oldini olish ishlarini samarali tashkil etish uchun muhim nazariy prinsipdir».

Shunday qilib, ayniqsa retsidivist shaxslarning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish ularning muayyan guruhlarini ajratishga, ularning sodir etayotgan jinoyatlari o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tahlil qilishga va ularning xulq-atvorini oldindan bashorat qilishga imkon beradi.

Retsidivist shaxsiga oid tushunchaning umumiy ta’rifi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan u har bir guruhning umumiy tizimdagi o‘rnini belgilashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu boisdan, retsidiv va uning turlari haqidagi ko‘plab qoidalar retsidivist shaxsi va uning tiplari bilan bog‘liq tushunchalarga ham tegishlidir.

Ko‘rinib turibdiki, jinoyat sodir qiluvchi shaxslar yagona toifaga mansub emas. Faqatgina tasodifiy jinoyatchilar ko‘p marotaba jinoyat sodir etgan shaxslardan emas, balki ko‘p karra jinoyat sodir etgan jinoyatchilar o‘zaro ham sezilarli darajada farqlanadi.

Shu nuqtayi nazardan K.E.Igoshev tomonidan ilgari surilgan jinoyatchi shaxsining tasnifi e’tiborga loyiqdir. U jinoyatchilarni ikki asosiy tipologik guruhga ajratadi. Birinchi guruhga jinoyat sodir etgan shaxsning xususiyatlari salbiy yo‘nalishdagi shakllanish jarayonining tabiiy natijasi hisoblanadi. Bunday shaxslar uchun ijtimoiy xavfli xulq-atvorni tanlash, asosan barqaror gayriijtimoiy moyilliklarning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Bu toifaga muallif retsidivistlar, uzoq vaqt davomida turli huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ygan shaxslar, shuningdek turmush tarzi va xulqi jinoiy faoliyat sari olib borgan fuqarolarni kiritadi. Ikkinchi tipologik guruh esa jinoyat sodir etganlik holati ma’lum darajada tasodifiy bo‘lgan shaxslarni o‘z ichiga oladi. Bu guruhga K.E.Igoshev ehtiyotsizlik natijasida yoki kuchli ruhiy holat ta’sirida jinoyat sodir etgan shaxslarni mansub deb hisoblaydi.

Ammo barcha holatlarda jinoyatchi shaxsida jinoyat sodir bo‘lishi bilan bog‘liq sabab-oqibat munosabatlari mavjud bo‘lgan belgilarning mavjudligi haqida fikr yuritiladi. Umumiy mazmunda K.E.Igoshevning

fikrlariga qo‘shilgan holda, uning ikki muhim jihatiga alohida e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Avvalo, taqdim etilgan tasnif juda umumiy xarakterga ega bo‘lib, uni faqat boshlang‘ich, dastlabki tasnif deb baholash mumkin. Shuningdek, retsidiv tushunchasiga tayangan holda, xulq-atvori barqaror bo‘lmagan va muvaqqat beqaror holatda jinoyat sodir etgan retsidivistlarning ayrim toifalarini alohida, oraliq tipologik guruh sifatida ajratib ko‘rsatish zarur.

A.B. Saxarov jinoyatchi shaxsini chuqur tahlil qilib, quyidagi tasnifni ilgari surgan:

1) o‘zining umumiy ijobiy-ijtimoiy yo‘nalishlariga zid ravishda, nisbatan yengil

turdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar («tasodifiy» jinoyatchilar);

2) tashqi omillar ta’sirida birinchi marta yengil jinoyat sodir qilgan va ijobiy xarakteristikaga ega bo‘lgan shaxslar («situativ» jinoyatchilar);

3) ilk bor jinoyat sodir etgan, biroq ilgari turli huquqbuzarliklar va huquqqa zid harakatlarga yo‘l qo‘ygan shaxslar («beqaror» jinoyatchilar);

4) ko‘p bor jinoyat sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan shaxslar («ashaddiy» jinoyatchilar);

5) jinoyatlarni takror va muntazam sodir etganligi bois o‘ta xavfli retsidivistlar toifasiga mansub bo‘lgan shaxslar («o‘ta xavfli» jinoyatchilar).

Keltirilgan tasnif birinchi marotaba jinoyat sodir etgan shaxslarni ham, takror jinoyat sodir etganlarni ham qamrab oladi. A.B. Saxarov tomonidan ayniqsa, takroriy jinoyatchilar orasida ashaddiy va o‘ta xavfli jinoyatchilarni ajratib ko‘rsatish o‘rinli hisoblanadi. Shu bilan birga, u ko‘p marotaba jinoyat sodir etgan, jumladan ilgari sudlangan shaxslarni aynan ashaddiy jinoyatchilar sifatida baholagan. Bunda muallif, asosan, shaxsning barqaror gayriijtimoiy moyilligi va ashaddiylik darajasiga tayanadi. Biroq, agar shaxs birinchi yoki ikkinchi jinoyatni tasodifiy tarzda, noqulay tashqi omillar ta’sirida sodir etgan bo‘lsa yoki, masalan

avval bezorilik qilgan, keyinchalik esa ehtiyotsizlik sabab jinoyat sodir etgan bo‘lsa, uni ashaddiy jinoyatchi sifatida tasniflash qanchalik asosli bo‘ladi – bu savol muhokamani talab qiladi.

Bizning qarashlarimizga ko‘ra, har bir retsidivistni avtomatik ravishda ashaddiy jinoyatchi deb atash noto‘g‘ri bo‘ladi. A.G. Kovalevning jinoyatchining hayotini jinoyatsiz tasavvur eta olmasligini ko‘rsatadigan kriminogen zararlanganlik darajasiga ko‘ra global tipni ajratish fikriga ham to‘liq qo‘shilmaymiz. Bizga ko‘ra, jinoyat sodir etuvchi shaxsning tabiati murakkab va qarama-qarshi jihatlarga boy bo‘lib, uni faqatgina salbiy xislatlar majmui sifatida ko‘rish yetarli emas. Ko‘plab kriminologlar jinoyatchilarni turli mezonlar bo‘yicha tasniflash mumkinligini ta’kidlaydilar. Masalan, P.S. Dagel quyidagi guruhlash mezonlarini taklif qiladi:

1) jinoyatchining jismoniy xususiyatlariga qarab;
2) sodir etilgan jinoyatning tabiati bo‘yicha;
3) oldingi jinoyat faoliyatining mavjudligi va uning xususiyatlari nuqtayi nazaridan;
4) jinoyatchi shaxsining psixologik jihatlari asosida;
5) axloqan tiklanish darajasiga ko‘ra.

Muallifning fikriga ko‘ra, barcha ushbu tasniflar jinoyatchilarni ularning ijtimoiy xavf-xatarlilik darajasi va xususiyatlariga mos ravishda umumiy guruhlarga ajratishga xizmat qilishi lozim.

Shuningdek, bu tipologik xususiyatlar retsidiv kabi ijtimoiy hodisani nafaqat to‘liq tavsiflashga, balki unga taalluqli muhim sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashga ham imkon yaratadi.

Shaxsni tiplarga ajratish uchun asosiy mezon sifatida jinoyatchining jinoiy faolligi yoki uning amalga oshirgan faoliyatini tanlagan mualliflarning nuqtayi nazariga qo‘shilamiz. Ko‘pchilik o‘limlar jinoyatchining shaxsiy «jinoiy» tomonlarini emas, balki ularning xatti-harakatlarini birinchi o‘ringa qo‘yganligi bejiz emas.

Bizning fikrimizcha, qasddan jinoyatlarni qayta-qayta sodir etuvchi retsidivistlarning shaxsini tiplashda ularning ijtimoiy xavflilik darajasi,

oldingi jinoyat faoliyati va so‘nggi jinoyat bilan bog‘liq xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Ijtimoiy xavflilik darajasi, jinoyatlarning ayrim turlari va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning ijtimoiy qiyofasida namoyon bo‘ladigan barqaror xususiyatlar orqali ifodalangan bo‘ladi. Shu sababli, ijtimoiy xavflilik darajasini jinoyatchining shaxsini aniqlovchi muhim ijtimoiy belgilar sifatida qabul qilish mumkin.

Kriminologiyada retsidivistlarning jinoiy faollik darajasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘tkazilgan izlanishlar retsidivistlarni uchta tipologik guruhga ajratishga imkon berdi: faol kriminogen tip, beqaror tip va axloqiy buzuq tip. Har bir ajratilgan tipning o‘ziga xos jinoiy xulq-atvor bilan aloqada bo‘lgan faoliyat turlari mavjud. Retsidivistlarning turli tiplari turmush va ijtimoiy shart-sharoitlarining, shuningdek ularga ta’sir etuvchi salbiy omillarning farqlanishi bilan ajralib turadi. Jinoiy harakatlar o‘rtasida izchil aloqaning mavjudligi, ularning qasddan amalga oshirilishi, shaxsning o‘ziga xos ko‘nikmalari va usullaridan foydalanishi jinoiy faollik darajasining yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Bizning nazarimizda, K.E. Igoshev taklif qilgan tipologik guruhlarning birinchisi jinoyat sodir etuvchi shaxslar orasida uchraydigan jinoyatchi shaxsining uchta turiga ajratish mumkin:

1) izchil-kriminogen tur;

2) situativ-xavfli tur;

3) situativ tur.

Izchil-kriminogen tipga mansub retsidivistlarga izchil jinoiy xulq-atvor xos bo‘lib, bunda faol va ko‘p marotaba sodir etilgan retsidiv holatlari, ayniqsa, izchil maxsus retsidiv (asosan ta’magirlik jinoyatlari) kuzatiladi. Ushbu tipda o‘ta xavfli retsidivistlar hamda professional jinoyatchilar yetakchi o‘rinni egallaydi. Ularning jinoyat sodir etishidagi asosiy belgilaridan biri – shaxsning ijtimoiy me’yorlarga zid bo‘lgan barqaror moyilliklari va aniq maqsadlarining shakllanganligidir.

Situativ-xavfli tipga kiruvchi retsidivistlar odatda stixiyali, tartibsiz tarzda harakat qiladilar. Jinoyat sodir etish qarori ko‘pincha to‘satdan

yuzaga keladi va jinoyatning xususiyati ko‘proq voqea yuz bergan vaziyatga bog‘liq bo‘ladi, biroq bu holatlar ko‘pincha og‘ir oqibatlarga olib keladi. Ushbu guruhda spirtli ichimliklarni haddan ziyod iste’mol qiluvchi shaxslar ustunlik qiladi, ular natijada bezorilik va boshqa turdagi jinoyatlarni ham tez-tez sodir etadilar. Mazkur tipga mansub retsidivistlar o‘zlarining shaxsiy fazilatlari bo‘yicha bir xil emaslar. Situativ tipdagi shaxslarda asosan umumiy, ba’zan esa takroriy retsidiv holatlari uchraydi. Biroq, bu guruh vakillarining xulq-atvori ko‘pincha og‘ir oqibatlarga olib kelmaydi. Ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar o‘rtasida odatda aniq ichki bog‘liqlik mavjud bo‘lmaydi.

Retsidiv jinoyatchilikning oldini olish

Qo‘yilgan muammolarni inobatga olgan holda, retsidiv jinoyatchilik oqibatlarini yumshatishning ikki asosiy yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchi yo‘nalish – retsidiv jinoyatlar tufayli yetkaziladigan zararlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi yo‘nalish esa retsidiv jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarning samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Endi ushbu yo‘nalishlarga batafsil to‘xtalamiz.

1. Retsidiv jinoyatchilik oqibatida yuzaga keladigan zararlarni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasini umumijtimoiy va maxsus choralar shaklida tasniflash mumkin.

Ijtimoiy siyosatning muhim tarkibiy bo‘g‘ini bo‘lgan umumijtimoiy chora-tadbirlar bir necha asosiy yo‘nalishlardan iborat: moddiy, tashkiliy, ijtimoiy nazorat hamda tarbiyaviy yo‘nalishlar. Masalan, moddiy chora-tadbirlarga jinoyat qurbonlariga turli shakllarda yordam ko‘rsatish, hayot va sog‘liqni ijtimoiy sug‘urtalash, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik varaqasi asosida to‘lovlarni amalga oshirish, shuningdek nogironlik bo‘yicha pensiya tayinlash kabi amaliy choralarni kiritish mumkin.

Tashkiliy chora-tadbirlar tarkibiga ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni ish bilan ta’minlash, ularni turarjoy bilan ta’minlash, jamiyatga moslashish bo‘yicha maxsus markazlar tashkil etish, sudlangan shaxslar

hamda jinoyat qurbonlari va ularning yaqin qarindoshlarini zarurat tug‘ilganda qariyalar uylari, mehribonlik uylari va boshqa tarbiyaviy muassasalarga joylashtirish, shuningdek guvohlarni himoya qilish bo‘yicha choralarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy nazorat hamda tarbiyaviy chora-tadbirlar, avvalo ilgari sudlangan shaxslarni jamiyat hayotiga qayta jalb etishga, fuqarolarning huquqiy ong va madaniyat darajasini yuksaltirishga, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashni, ilgari sudlanganlarga – ayniqsa, yoshlar orasida – tajribali murabbiylar yoki ustozlarni, shuningdek jamoatchilik nazoratchilarini biriktirishni o‘z ichiga oladi.

Bizningcha, ijtimoiy yo‘nalishga ega chora-tadbirlar qatoriga, eng avvalo, retsidiv jinoyatchilik oqibatida yetkazilgan zararlarni kamaytirish yoki ularni qoplashga qaratilgan huquqiy vositalardan foydalanishni kiritish lozim. Bu nuqtayi nazardan, ma’muriy nazoratni joriy etish hamda jinoyat orqali yetkazilgan zararni undirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar haqida so‘z bormoqda. Afsuski, so‘nggi yillarda ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning katta qismi mehnat bilan band emas, natijada ular jazoni ijro etish muassasalarida ish haqi olmaydi va shu sababli da’vo arizalari bo‘yicha yetkazilgan zararni qoplash imkoniyatiga ega emaslar.

Shuning uchun ayrim jinoyat-huquqiy choralarni, jumladan jarima va axloqni tuzatish ishlari kabi jazolarni qo‘llash sohasini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Jinoyat-protsessual jarayon doirasida fuqarolik da’vosini qo‘shish esa ushbu maqsadlarni amalga oshirishda muayyan darajada foydali bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, retsidiv jinoyatchilikning voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bilan uzviy aloqadorligini inobatga olib, jinoyat qilgan o‘smirlarni jamiyatga qayta moslashtirish va ularning ijtimoiy muhitini sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan maxsus dasturlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanayotgan holatlarda, bu jazo

turining ayrim jihatlarini qayta ko‘rib chiqish, shuningdek shartli jazo tatbiqini kengaytirish zarurdir. Retsidivistlarning jinoyat faoliyatini aniqlash va tergov sifatini oshirish maqsadida jinoyat muhitini chuqur o‘rganish hamda ilmiy asoslangan profilaktik choralarni ishlab chiqish lozim.

Har bir retsidivist uchun alohida axborot bazasini shakllantirish va zamonaviy axborot-qidiruv tizimini yaratish yuqoridagi maqsadlarning samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, qamoqxona madaniyati ta’siriga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qilish idoralari mutaxassislari bilan madaniyat sohasidagi xodimlarning hamkorligini kuchaytirish hamda jamiyatning bu jarayondagi faol ishtirokini ta’minlash katta ahamiyat kasb etadi. Retsidiv jinoyatchilikning oldini olish faoliyatini samarali tashkil etish uchun bu yo‘nalishdagi xarajatlarni oqilona taqsimlash, jinoyatchilikka qarshi kurash mablag‘larini qayta yo‘naltirish orqali retsidivistlar ustidan nazoratni kengaytirish imkonini beruvchi mexanizmlarni joriy etish zarur. Bizningcha, ushbu sohada mavjud imkoniyatlar jinoyat va jinoyat-ijroiya siyosatini takomillashtirish orqali yanada kengaytirilishi mumkin.

Birinchidan, birinchi bor jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan faqat jarima, shartli hukm yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan cheklanmay, boshqa jinoyat-huquqiy choralarni keng qo‘llash lozim. Jarima, axloqni tuzatish ishlari hamda jamiyatdan ajralmagan holda jazo o‘tash shakllari nafaqat ozodlikdan mahrum etilganlarni saqlash xarajatlarini kamaytiradi, balki jinoyat oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplashga ham imkon yaratadi.

Ikkinchidan, ozodlikdan mahrum etish jazosini ijro etish davomida rag‘batlantirish mexanizmlarini, masalan muddatidan avval shartli ozod qilish yoki saqlanish sharoitlarini yumshatish kabi choralarni kengroq qo‘llash zarur.

Uchinchidan, jinoyatchilikning ijtimoiy ta’sirini kamaytirish uchun ajratilgan mablag‘larni ozodlikdan mahrum qilinganlarni jamiyat hayotiga qaytarishga qaratilgan dasturlarga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Ko‘plab mahbuslarni saqlashga sarf bo‘ladigan mablag‘ni retsidiv jinoyatlarning oldini olishga yo‘naltirish ancha oqilona yechimdir. Shu bilan birga, bunday jinoyatlarning oldini olish katta moliyaviy fondlar orqali emas, balki ma’muriy nazoratni mustahkamlash va fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish orqali ijtimoiy nazorat tizimini takomillashtirish yo‘li bilan amalga oshirilishi kerak.

Jinoyat va jinoyat-ijroiya siyosatining asosiy tamoyillarini amalga oshirish haqida gapirganda, huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi kamchiliklarni bartaraf etish eng muhim vazifa hisoblanadi. Bu yerda jinoyatchilikka qarshi kurashdagi mavjud nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlash va yo‘qotish ko‘zda tutiladi. Jinoyatlarni aniqlash darajasini oshirish, jazoning muqarrarliligini ta’minlash, surishtiruv va tergov hamda sud jarayonlarini tezlashtirish, garov va yashash joyini tark etmaslik haqida tilxat olish kabi choralarni keng joriy etish, shuningdek sansalorlik va asossiz jinoiy javobgarlikka tortish holatlarining oldini olish – bularning barchasi xarajatlarni kamaytirish yo‘lida muhim qadamlar sifatida qaralishi va jinoyatchilikka qarshi kurash xarajatlarini qisqartirishga xizmat qilishi lozim.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda xarajatlarni tejash masalasiga kelganda, ushbu sohada sarflanadigan mablag‘larni asossiz qisqartirish mumkin emas. Zarur xarajatlarni baholashda ularning oxir-oqibat jamiyatning turli boyliklarini – nafaqat moddiy, balki ma’naviy jihatdan ham – himoya qilishga qaratilganligini doimo yodda tutish lozim. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasida «Jazodan ozod qilingan shaxslarning jamiyatga moslashish jarayonida maxsus yordam ko‘rsatish to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

Mazkur qonunda davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning jazodan ozod etilgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash borasidagi vakolatlari hamda ularning faoliyat yo‘nalishlari aniq belgilanishi lozim. Shuningdek, ozodlikdan chiqqan fuqarolarning huquqiy maqomi, ularni ish va yashash joyi bilan ta’minlash tartibi,

shuningdek jamiyatga qayta moslashish jarayonini tashkil etish qoidalari batafsil ko‘rsatib o‘tilishi zarur.

Bunda mahalliy boshqaruv organlariga jazodan ozod etilgan shaxslarni ma’muriy topshiriq asosida muayyan korxonalarga ishga joylashtirish vakolati berilishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, bunday topshiriqlarni bajarmagan mansabdor shaxslarni ma’muriy javobgarlikka tortish tartibi ham qonunda belgilab qo‘yilishi kerak.

Shuningdek, ijtimoiy yordam ko‘rsatilishi zarur bo‘lgan shaxslar toifasini aniq belgilab olish muhimdir. Bizningcha, bunday yordam choralarini turli sabablarga ko‘ra jazodan muddatidan oldin ozod etilgan shaxslar, alkogol va giyovandlikdan majburiy davolanganlar, tarbiyaviy majburlov choralari qo‘llanilgan voyaga yetmaganlar hamda ijtimoiy foydali aloqalarini yo‘qotgan boshqa fuqarolarga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, pensiya yoshidagi fuqarolar va nogironlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish masalasiga qonun darajasida alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Mazkur toifaga kiruvchi jazodan ozod etilgan shaxslarga samarali yordam ko‘rsatish uchun mahalliy hokimiyatlar tomonidan maxsus yotoqxonalar, moddiy yordam jamg‘armalari hamda kichik ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birga, taklif etilayotgan qonun loyihasida jazodan ozod qilingan shaxslarning huquqiy maqomiga oid maxsus bo‘limni kiritish zarur deb hisoblanadi.

Bundan tashqari, ushbu shaxslarning hayoti va mehnat faoliyatidagi xulq-atvorini nazorat qilish uchun turli ijtimoiy nazorat shakllari, jumladan ma’muriy nazorat, patronat va jamoatchilik kuzatuvi belgilanishi zarur. Shuningdek, jazodan ozod qilinganlarning ijobiy yoki salbiy xulq-atvoriga qarab, nazorat shaklini o‘zgartirish imkoniyati ham ko‘zda tutilishi kerak.

Shu kabi qonunlar ayrim xorijiy mamlakatlarda ham mavjud. Masalan, Yaponiyada ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni ish va yashash joyi bilan ta’minlash masalalari «Penitensiar homiylik

to‘g‘risida»gi qonun orqali tartibga solinadi. Mazkur qonunga binoan, reabilitatsiya xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish vazifasi hukumat, xususan, Adliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Jazodan ozod etilgan fuqarolarning ish bilan bandligini ta’minlash, ularni turarjoy bilan ta’minlash, shuningdek ularning ijtimoiy foydali aloqalarini tiklashni samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida mamlakatimizda maxsus davlat muassasalari – ijtimoiy moslashuv markazlarini tashkil etish zarur. Bu markazlarga mahkumlarni jazoni o‘tashning yakuniy bosqichida yoki ozodlikka chiqqanidan so‘ng jalb etish lozim. Ushbu masalalar yuqorida qayd etilgan qonun doirasida huquqiy jihatdan tartibga solinishi kerak.

Bunday turdagi markazlar xorijiy davlatlarda keng qo‘llaniladi. Masalan, Angliyada, ayniqsa mahkumlarni muddatidan oldin shartli ozod qilishga tayyorlash jarayonida, ochiq axloq tuzatish muassasalari faol foydalaniladi. Bunday muassasalarda mahkumlarga jazoni o‘tash davrida penitensiar muassasa hududidan tashqariga chiqish imkoniyati yaratiladi. Shunga o‘xshash «ochiq turdagi» muassasalar Germaniya Federativ Respublikasi, Chexiya va Slovakiya kabi davlatlarda ham faoliyat yuritadi. AQShning Yuta shtatida esa jazoni kamida uchdan bir qismini o‘tagan va muddatidan ilgari shartli ozodlik huquqiga ega bo‘lgan shaxslar, ozodlikka chiqishga tayyorlanish maqsadida jamoatchilikka mo‘ljallangan axloq tuzatish muassasalariga yuboriladi. Ushbu muassasalarda ular to‘liq ozodlikka chiqqunga qadar mustaqil hayot tarziga moslashadi, o‘ziga yoqqan ish faoliyatini tanlaydi hamda yaqinlari va tanishlari bilan muloqot o‘rnatadi.

Shvetsiyada ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar uchun reabilitatsiya markazlari faoliyat yuritadi. Bu markazlarda sobiq mahkumlar ish va turarjoy bilan ta’minlanmaguncha o‘zlari to‘lashi kerak bo‘lgan mablag‘ evaziga yashab, oziqlanishlari mumkin. Shvetsiyadagi kabi reabilitatsiya markazlari hozirda Sankt-Peterburg, Samara, Yaroslavl va boshqa shaharlarida ham tashkil etilgan va faol ishlamoqda. Shuni alohida ta’kidlash joizki, jazodan ozod qilinganlarning jamiyatga moslashuvi faqat

ichki ishlar organlarining harakati bilan hal qilinmasligi kerak; bunda jamiyat va umuman davlatning ham faol ishtiroki talab etiladi.

Jazodan ozod etilgan shaxslarning jamiyatga qayta moslashuv jarayoniga yangicha yondashuv sifatida, ayrim toifadagi fuqarolarga ijtimoiy moslashuv markazlari orqali patronat – ya'ni ijtimoiy nazorat shaklini joriy etish taklif qilinmoqda. Ushbu nazorat turi jamoatchilik kuzatuviga nisbatan qat'iyroq bo‘lsa-da, ma'muriy nazoratga qaraganda ancha yengil hisoblanadi. Bunday tartib, shaxsning xulqini doimiy va keskin nazorat ostida ushlab turish zarurati bo‘lmagan holatlarda qo‘llanilishi mumkin.

Uyushgan jinoyatchilik mazmuni va ta'rifi hamda uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Uyushgan jinoyatchilik tarkibi

Sobiq Ittifoqning boshqa respublikalari singari, mustaqillikka erishgan O‘zbekiston ham izdan chiqqan iqtisodiyot, moddiy va ma'naviy qashshoqlik bilan bir qatorda, ortib borayotgan jinoyatchilik muammosini ham meros qilib oldi. Mustaqillikning ilk davrlarida jinoyatchilik asta-sekin kasbiy va uyushgan tus ola boshladi hamda og‘ir ijtimoiy oqibatlarga sabab bo‘ldi. Bu holat natijasida jinoyatchilikning yangi shakllari – kriminal professionalizm, guruhiy jinoyatlar, retsidiv holatlari va nihoyat ularning eng yuqori bosqichi bo‘lgan uyushgan jinoyatchilik shakllandi. Kriminal professionalizmga xos bo‘lgan asosiy belgilar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

a) «Ixtisoslashganlik» – bu jinoiy faoliyatning doimiy va surunkali xarakterga ega bo‘lishi;

b) «Malakalilik» – zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish;

v) jinoiy faoliyat tirikchilik manbai sifatida xizmat qilishi;

g) shaxs bevosita nomaqbul ijtimoiy muhit bilan aloqada bo‘lishi.

Uyushgan jinoyatchilik faoliyati, uning paydo bo‘lishi va mavjudligi yurisprudensiya, iqtisodiyot, sotsiologiya va psixologiya sohalarida ko‘plab nazariy va amaliy muammolarni keltirib chiqardi. Kriminologik

nuqtayi nazardan juda salbiy hodisa bo‘lgan «uyushgan jinoyatchilik» tushunchasini tahlil qilish va o‘rganish, unga qarshi kurash nazariyasi va amaliyotida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ayrim olimlar bu hodisaning atamasiga rozi bo‘lmay, uni muvaffaqiyatsiz deb hisoblaydilar. Sobiq Ittifoq hududida uyushgan jinoyatchilik qachon yuzaga kelgani borasida ham umumiy fikr mavjud emas. Ba’zilar uni yaqinda paydo bo‘lgan deb hisoblasa, boshqalar doimiy mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydi, yana bir guruh uning borligiga shubha bilan qaraydi.

Yuridik va maxsus adabiyotlarda uyushgan jinoyatchilik uchun bir xil ta’riflar beriladi. Olimlar orasida bu tushunchaning eng to‘liq ta’rifini A.N. Volobuyev keltirgan. Uning fikricha, «Uyushgan jinoyatchilik – bu mintaqa yoki mamlakat doirasida, odatda ma’lum bir jinoyatga bog‘liq bo‘lmagan, kriminal muhit rahbarlari atrofida birlashgan guruh bo‘lib, ular rahbarlik va tashkilotchilik funksiyalarini bajaradi. Jinoiy uyushmaning ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash maqsadida davlat, jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlarini jinoiy faoliyatga jalb qilish, shuningdek imkon qadar ko‘proq moddiy foyda olish uchun noqonuniy faoliyat doirasini kengaytirish bilan tavsiflanadigan ijtimoiy hodisa hisoblanadi», – deb ta’riflaydi u.

«Ijtimoiy faoliyati uyushgan jinoyatchilik bilan turli darajada bog‘liq bo‘lgan barcha shaxslar jinoiy uyushmaning tarkibiga kiradi» – deb ta’kidlaydi A.N. Volobuyev.

Huquqbuzarliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillar va ularni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlar masalasi har qanday kriminologik tadqiqotda turli ko‘rinishlarda ko‘rib chiqiladi, chunki bu kriminologiyaning asosiy muammolaridan biridir. Ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Jinoyat sabablari va uning shart-sharoitlari deganda nimani tushunish kerakligi masalasi esa, afsuski, bizning kriminologik adabiyotlarda hanuzgacha aniq belgilangan emas. Ko‘p hollarda bu tushunchalar aralashib ketadi yoki bir-birining o‘rniga qo‘yiladi. Shunday vaziyatlar aynan voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining sabab va shart-sharoitlari masalasiga ham tegishli. Bu masalaga oid turli yondashuvlar mavjud.

Ba’zi olimlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga sabab bo‘luvchi omillar qatorida quyidagilarni sanaydilar: yashash joyi, o‘qish yoki ish muhitining salbiy ta’siri; o‘qishni tashlagan o‘smirlarning uzoq vaqt davomida ish bilan band bo‘lmasligi; noto‘g‘ri tarbiya sharoitlari; tajribali jinoyatchilarning yoshi katta shaxslar tomonidan ta’sir etilishi; zo‘ravonlik va qonunbuzarlikni targ‘ib qiluvchi kitoblar hamda filmlarning ta’siri. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining yuzaga kelish shart-sharoitlari sifatida esa, quyidagilar ko‘rsatiladi: yetarli nazoratning yo‘qligi; umumta’lim maktablari va kollejlarda ta’lim-tarbiya jarayonlaridagi kamchiliklar; ishga joylashtirish va ishlab chiqarishda tarbiya ishlari tashkilotidagi zaifliklar; madaniy dam olishni tashkil qilishdagi muammolar; voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi oldini olish va unga qarshi kurash olib boruvchi tashkilotlarning faoliyatidagi kamchiliklar.

Ba’zi tadqiqotchilar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga sabab bo‘luvchi omillar qatorida quyidagilarni sanaydilar: o‘smirning kayfiyati va ruhiy holatiga ta’sir qiluvchi hayotdagi muvaffaqiyatsizliklar; ma’naviy-axloqiy mezonlarning beqarorligi; shaxslarning jinoiy guruh a’zolari bilan yaqin munosabatlari yoki ayni sharoitda ularning o‘smirga

salbiy ta’siri; ruhiyatning ayrim xususiyatlari; oila yoki jamiyatdagi noqulay shart-sharoitlar. Huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlari tushunchalari esa materialistik dialektika kategoriyalarining konkret ko‘rinishlari hisoblanadi. Shu bois, «sabab» va «shart-sharot» falsafiy tushunchalarini to‘liq anglamasdan, kriminologiyada ularni ilmiy tarzda talqin qilish va qo‘llash mumkin emas.

Sababiy bog‘lanishlar – determinatsiya munosabatlarining bir turi hisoblanadi. Determinatsiya deganda hodisalar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir hodisaning yuzaga kelishi boshqa hodisalar ta’sirida aniqlanadi, tushuniladi. Determinatsiya munosabati ikki tomonlama: bir tomondan uni belgilovchi omillar (determinantlar), ikkinchi tomondan esa belgilangan natija yoki hosila mavjud. Determinizm umumiy tamoyiliga ko‘ra, hodisalar oldindan belgilangan tarzda sodir bo‘ladi va ularning yuzaga kelishi jarayonida turli belgilovchi omillar to‘plami ishtirok etadi.

Falsafiy adabiyotlarda determinatsiya jarayonining quyidagi asosiy tarkibiy qismlari ajratib ko‘rsatiladi:

1. Determinantlar – hodisaning yuzaga kelishiga ta’sir qiluvchi omillar yoki shart-sharoitlar.

2. Determinantning faoliyati – bu omillarning hodisaga ta’sir qilish jarayoni, ya’ni qanday qilib ular hodisani belgilaydi.

3. Natija (hosila) – determinantlar ta’siri ostida yuzaga kelgan hodisa yoki holat.

Bu qismlar birgalikda determinatsiya jarayonining asosiy mexanizmini tashkil qiladi.

Shart-sharoit deb, hodisaning yuzaga kelishi, mavjud bo‘lishi, o‘zgarishi yoki yo‘qolishi uchun muhim bo‘lgan omillar to‘plami tushuniladi. Ma’lum bir hodisa faqat tegishli shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan vaziyatda yuzaga kelishi yoki davom etishi mumkin. «Shart-sharoit» tushunchasini «muhit» tushunchasidan ajratib ko‘rish zarur. Muhit esa faqat shart-sharoit sifatidagi omillarni emas, balki hodisaga bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan, ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan omillarni ham o‘z ichiga oladi. Bu tamoyil kriminologik tadqiqotlar

uchun, ayniqsa ahamiyatlidir, chunki jamiyatdagi kriminogen sabablar, shuningdek ularning bilvosita omillari va kriminogen sabablarga qarshi chora-tadbirlarni hisobga olish talab etiladi.

Shart-sharoitga aylangan omillar hodisa yuzaga kelishidan oldin tasodifiy holatlar to‘plami sifatida mavjud bo‘ladi. Shu tarzda, alohida mavjud bo‘lgan sabablar determinatsiya jarayonida o‘zlari bilan bog‘liq hodisaga nisbatan shart-sharoitga aylanadi. Shart-sharoit mavjudligi hodisaning yuzaga kelish ehtimolini bildiradi. Imkoniyat qanday qilib haqiqatga aylanadi, qanday ta’sir ostida harakat (oqibat) yuzaga keladi? Determinatsiyaning ushbu qismida faoliyat sababning ta’siri bilan paydo bo‘ladi. Shunday qilib, sabab shart-sharoitni harakatga keltiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Sabab faqat uning oqibati orqali anglanadi, aksincha oqibatning mohiyati faqat uning sababiga asoslanadi, chunki ular bir-biriga bog‘liqdir.

Sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashda to‘rt xil yondashuv mavjud:

1. «Kanditsionalistik» (ya’ni, shartli) yondashuvda sabab sifatida ma’lum oqibat yuzaga kelishi uchun zarur va yetarli shartlar to‘plami tushuniladi;

2. An’anaviy yondashuvda esa sabab deb tashqi ta’sir ko‘riladi, u aynan shu oqibatni yuzaga keltiradi. Kriminologiyada jinoyatlar ularning yuzaga kelgan sharoitlari hamda boshqa shaxslar, jumladan jabrlanuvchilarning xulq-atvori bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq deb qaraladi. Shu bilan birga, kriminologiyada sababiyatning an’anaviy yondashuvi tor ma’noga ega bo‘lib, odatda yakka holda ishlatilmaydi, balki boshqa yondashuvlar bilan birga qo‘llanadi;

3. An’anaviy-dialektik yondashuv eng keng tarqalgan bo‘lib, kriminologik adabiyotlarda yaxshi ishlab chiqilgan. Bu yondashuvga ko‘ra, har qanday omil, agar u oqibatga ta’sir qilsa, sabab hisoblanadi. Tashqi holatlar ta’sirida obyektda o‘zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Ayrim mualliflar salbiy ijtimoiy-ruhiy hodisa va jarayonlarni jinoyatchilik va jinoyatning bevosita sababi deb hisoblaydi. Shundan kelib chiqadiki,

«jinoyatchilik sabablari asosan ijtimoiy-psixologik tabiatga ega» degan xulosa paydo bo‘ladi.

Ijtimoiy-psixologik muammolar kriminologiyada ikki asosiy yo‘nalishda o‘rganilishi kerak: birinchidan, jinoiy xulq-atvor va jinoyatchilikning kelib chiqishini aniqlash nuqtayi nazaridan; ikkinchidan, ko‘rib chiqilayotgan hodisaga qarshi kurashish, jumladan huquqbuzarliklarni oldini olish nuqtayi nazaridan. Shaxsni kriminologik tahlil qilishda uning ijtimoiy muhit bilan bog‘lanishini hisobga olish muhimdir, chunki jinoiy xulq-atvor faqat muhit yoki shaxsning o‘zi tomonidan emas, balki ularning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Shu bois, ijtimoiy shart-sharoit bilan jinoiy xulq-atvor o‘rtasidagi bog‘lanish murakkab tus oladi va bu shart-sharoit doimo jinoyatda shaxs orqali o‘z ifodasini topadi.

Jinoyatchilikning ijtimoiy-ruhiy jihatlarini muhokama qilganda, jinoyatchilik faqatgina alohida jinoyatlarning yig‘indisi emas, balki o‘ziga xos qonun-qoidalar, shuningdek miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlariga ega murakkab jarayon ekanligini ta’kidlash zarur. Jinoyatchilikning asosiy sabablarini aniqlash maqsadida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini, uni shakllantiruvchi aloqalar va munosabatlarni chuqur o‘rganib, ularni jinoyatchilik bilan bog‘liq holda tahlil qilish muhimdir.

Jinoyatchilik mintaqaviy o‘ziga xosliklarga ham bog‘liq bo‘lib, shuning uchun uni alohida o‘rganish zarur. Bu jarayonda mikromuhitni hisobga olish katta ahamiyatga ega, chunki shaxsning xulq-atvori va uning shakllanishi ko‘p jihatdan oila, do‘stlar, tanishlar, qo‘shnilar va boshqa atrof-muhit omillariga bog‘liq bo‘ladi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi sabablarining asosiy jihatlari kattalar jinoyatchiligi bilan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga ta’sir qilish mexanizmi sezilarli darajada farq qiladi. Bu omillar shaxsning shakllanish jarayoniga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayon tarbiyaning tashkiliy va stixiyali jihatlarini, shuningdek tarbiya bilan bog‘liq ijtimoiy amaliyot ta’sirlarini o‘z ichiga oladi.

7.7. Voyaga yetmagan jinoyatchining shaxsi

Shaxsning alohida ijtimoiy turkumini aniqlash uchun unga xos shaxsiy xususiyatlarning mavjudligi masalasi uzoq yillardan beri munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. Ba’zi mutaxassislar fikricha, jinoyatchi shaxs boshqalardan farq qiladi, boshqalar esa bu farqni asosan jinoyat sodir etish vaqtida shaxs va shart-sharoit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirda ko‘radilar.

Umuman, shaxsning ijtimoiy xususiyatlari uning mansub bo‘lgan ijtimoiy guruh bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, aynan shu nuqta tiplarga bo‘linishga oid metodologik yondashuvning asosini tashkil etadi. Voyaga yetmagan jinoyatchining turkumini belgilashda esa ayrim metodologik va metodik tamoyillarni hisobga olish zarur.

Birinchidan, bu yerda tipning ijtimoiy tabiati haqida gap boradi, shuning uchun

insonning «shaxsi, ijtimoiy qiyofasi» uning tug‘ilishidan boshlab o‘rganiladi.

Ikkinchidan, ko‘rilayotgan shaxs tipi faqat u bilan bog‘liq odamlarning barqaror ijtimoiy belgilangan xususiyatlari mavjud bo‘lsa, ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu xususiyatlar jinoyatning o‘zi bilan emas, balki uning sodir etilish imkoniyati bilan belgilanadi. Mazkur imkoniyat faqat atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirda yuzaga chiqadi.

Shunday qilib, bu shaxs tipining jamiyatda tarqalish darajasi jinoyat sodir etuvchi shaxslarning tarqalish darajasi bilan har doim mos kelmasligi mumkin. U qonun oldida jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan barcha odamlarni o‘z ichiga olmaydi. Shu sababli, ko‘pchilik tadqiqotchilar, ayniqsa shart-sharoit ta’sirida jinoyatga qo‘l uradigan «tasodifiy jinoyatchi» tipini alohida ajratib ko‘rsatadilar.

Shunday qilib, kriminogen shaxs tushunchasi boshqa shaxs tiplari bilan solishtirganda, ma’lum shart-sharoitda jinoyat qilish ehtimoli yuqori bo‘lgan ijtimoiy tipni ifodalaydi. Bu ehtimol faqat ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sirda yuzaga keladi va jinoyat sodir bo‘lgachgina, kriminogen

shaxs ijtimoiy tip sifatida jinoyatchiga aylanadi. Shaxsning kriminogen xususiyatga ega ekanligini aniqlash uning ijtimoiy muhitini yaxshilash, zarur ijtimoiy yordam ko‘rsatish va unga qarshi tarbiyaviy-profilaktik choralarni kuchaytirish uchun muhimdir. Belgilangan jazo esa sodir etilgan jinoyatga muvofiq bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, bu yerda aynan tip tushunchasi nazarda tutiladi, shuning uchun jinoyat sodir etuvchi shaxslarda kriminogen shaxs tipining jihatlari turlicha darajada namoyon bo‘lishi mumkin.

To‘rtinchidan, bu holda jinoiy xulq-atvor bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xususiyatlar haqida gapirish zarur. Kriminogen shaxsning jinoyatchi bo‘lmagan shaxsdan farqi aynan jinoiy xulq-atvor bilan belgilanadi.

Beshinchidan, voyaga yetmagan kriminogen shaxs o‘ziga xos kriminologik ahamiyatga ega xususiyatlar majmuini o‘zida jamlagan alohida holatdir. Odamlarning xulq-atvori va faoliyati oxir-oqibat shaxsning barcha o‘ziga xos jihatlari natijasi bo‘ladi. Jinoyatchi shaxsi faqat bitta xususiyatga ega, degan fikr noto‘g‘ri hisoblanadi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, jinoyatchilar turli guruhlari orasida uchraydigan kriminogen shaxs tipi quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar to‘plamiga ega:

– faol g‘ayri-huquqiy va axloqiy muhit ta’sirida shakllangan shaxs, oilada ham g‘ayri-huquqiy xulq va harakatlarning kuzatilishi kabi holatlar;
– jamiyat va davlatning qadriyat hamda me’yor tizimi tomonidan turli ta’sir choralariga qaramay, axloqqa zid va noqonuniy harakatlar tizimining saqlanib qolishi;

– jinoyat sodir etish vaziyatida shaxsning faolligi va ko‘pincha jiddiy sabablar bo‘lmagan holda jinoyat qilish holatlari.

Yuqorida ta’riflangan tavsif umumiy xarakterga ega bo‘lib, kriminogen shaxs tiplari xilma-xilligini to‘liq aks ettirmaydi. Aslida, jinoyatlarning oldini olish, jazolash hamda huquqbuzarlarni axloqan tuzatish kabi ijtimoiy mexanizmlar shaxslarning ma’lum guruhlariga xos bo‘lgan xususiyatlarni hisobga olishi zarur. Ko‘pincha, bunday

xususiyatlar ikki asosiy mezon bo‘yicha baholanadi: shaxsning kriminogen buzilish darajasi va buzilishning o‘ziga xos jihatlari. Voyaga yetmagan shaxsning mikromuhitini, jinoyat sodir etishdan oldingi xulq-atvori haqidagi ma’lumotlarni hamda ongning mazmuni jihatlarini hisobga olgan holda, qasddan jinoyat sodir etuvchi o‘smirlar uch xil tipga ajratilgan: izchil kriminogen, situativ kriminogen va situativ tiplari.

Izchil kriminogen tip – bu turdagi shaxslarning jinoyatga moyilligi ularning kundalik xulq-atvori, qarashlari va maqsadlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Bunday shaxslar jinoyat sodir etish uchun yuzaga kelgan vaziyatdan nafaqat foydalanib qolmay, balki uni yaratishda faol ishtirok etadilar. Ular zarurat tug‘ilganda o‘zlariga qulay muhitni yaratishga qodir bo‘lib, jinoiy harakatlari izchil kriminogenlik bosqichida nisbatan erkin va mustahkam xususiyatga ega bo‘ladi.

Situativ kriminogen tip – bu turdagi shaxslar ko‘pincha murakkab va ziddiyatli mikromuhitda shakllanadi hamda faoliyat yuritadi. Ularning jinoyatga aralashishi asosan ma’naviy va huquqiy nuqtayi nazardan salbiy sharoitlar bilan izohlanadi. Bu holatda shaxs va uning ijtimoiy muhiti o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ayniqsa muhim bo‘lib, jinoyat sodir etishga sabab bo‘luvchi asosiy omil sifatida qabul qilinadi. Shaxsning jinoyatga qo‘shilishi ko‘proq unga yaqin bo‘lgan mikromuhit va avvalgi turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Situativ tip – bu shaxsning ongi va xulq-atvoridagi, shuningdek u yashayotgan mikromuhitdagi axloqqa zid jihatlar unchalik muhim hisoblanmaydi. Jinoyat aynan shu shaxsning bevosita aybi bilan yuzaga kelmaydi; u uchun bu hodisa nisbatan noodatiy bo‘lib, ko‘pincha boshqa shaxslar bilan birgalikda axloq va huquq qoidalarining buzilishiga olib keladigan vaziyatning hal qiluvchi ta’siri tufayli sodir bo‘ladi.

Ijtimoiy shaxs va uning muhitining o‘zaro ta’sir mexanizmidagi nuqsonlar, ayniqsa muammoli va mojaroli vaziyatlarda, juda muhimdir. Jinoyat ko‘pincha boshqa shaxslarning aybi natijasida yuzaga keladigan vaziyat ta’siri ostida sodir bo‘ladi. Bu holatda axloqiy va huquqiy normalar boshqa ishtirokchilar tomonidan buziladi. Shu bilan birga, shaxs

tegishli sharoitda nafaqat o‘zining, balki boshqalarning g‘ayri-huquqiy harakatlarini yoki hatto jinoyatlarini oqlashi, yoki yuzaga kelgan mojarolarni hal etish uchun qonuniy va axloqiy boshqa yo‘llarni bilmasligi mumkin. Ana shu shart-sharoit jinoyat sodir bo‘lishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Zo‘rlik yo‘li bilan jinoyat sodir etuvchi voyaga yetmagan jinoyatchining shaxsi, umuman olganda jinoyatchi shaxslar singari, xudbinlik bilan ajralib turadi. Ammo uning xudbinligi ko‘pincha guruhiy xarakterga ega bo‘ladi. Zo‘rlik ishlatadigan o‘smirlar o‘zlarini namoyon qilish usullari shu bilan bog‘liqki, ular norasmiy guruhga qattiq bog‘langan holda, o‘z faoliyatlari va qobiliyatlarini rasmiy tan olinadigan shakllarda ko‘rsatishga intilmaydilar. Ta’magir jinoyatchilarda esa guruhiy emas, balki individual xudbinlik hukm suradi. Voyaga yetmagan jinoyatchilarning ko‘pchiligi aralash tipga kiradi, ayniqsa agar ular uzoq vaqt kriminogen muhitda yashab, g‘ayri-huquqiy harakatlar bilan shug‘ullanuvchi shaxslar bilan yaqindan aloqada bo‘lgan bo‘lsa.

7.8. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish

Voyaga yetmaganlar orasida sodir bo‘ladigan huquqbuzarliklarni oldini olish bo‘yicha kriminologik muammolarni o‘rganish, avvalo, ularning ijtimoiy kategoriyasi mazmuni, shakllanish jarayoni, rivojlanishi va jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq masalalarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, voyaga yetmaganlarning qadriyatlari, maqsadlari, faol hayotiy pozitsiyasi shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar, yoshga xos xususiyatlar va boshqa tegishli jihatlarni tahlil qilish uchun umumiy metodologik qoidalarni ko‘rib chiqish zarur.

Kriminologiyada jinoyatlarning oldini olish deganda jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarning yuzaga kelishiga sababchi bo‘luvchi omillar hamda shart-sharoitlarni yo‘qotishga yoki kamaytirishga qaratilgan davlat va jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Ko‘plab kriminologlar jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarning umumiy va maxsus profilaktikasini ajratadilar, shuningdek kriminologik profilaktikaning turli vazifalari hamda darajalarini belgilaydilar. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat voyaga yetmagan jinoyatchilarning shaxsiy rivojlanishidagi dastlabki bosqich – bu shaxs tarbiyasidagi muammolar hisoblanadi. Kriminologik nuqtayi nazardan, bu tushuncha gayriijtimoiy shaxsdan axloqiy nuqsonlarga ega shaxsga va qisman huquqbuzar shaxs tiplariga mos keladi.

Tarbiyasi qiyin bo‘lgan o‘smir – bu axloqiy jihatdan tuzatish va qayta tarbiyalashni talab qiluvchi voyaga yetmagan shaxsdir. Bunday shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalash jarayoni jinoyatchiga aylanishining oldini olish, ularni jamiyat bilan sog‘lom munosabatga qaytarish hamda unda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Har bir voyaga yetmagan, tarbiyasi og‘ir bo‘lgan shaxsning xulq-atvori o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u o‘smir shaxsining shakllanishida ta’sir qiluvchi obyektiv va subyektiv omillar bilan belgilanadi. Bu esa tarbiya va profilaktika ishlarida individual yondashuvning ustunlik qilishi zarurligini ko‘rsatadi. Afsuski, amalda tarbiyasi og‘ir o‘smirlarga ko‘proq og‘zaki ta’sir vositalari – tanbeh, hayfsan kabi usullar qo‘llaniladi. Shunday bo‘lsa-da, tarbiyasi qiyin o‘smirlarga nisbatan samimiy, xayrixoh munosabatda bo‘lish, ularning imkoniyatlariga ishonch bildirishi nihoyatda muhimdir. Maktablar esa bolalar va o‘smirlarning hayoti hamda xulq-atvori uchun asosiy pedagogik markazga aylanishi lozim.

Agar jinoyatlarning profilaktikasida ixtisoslashmagan tashkilotlar zararli ta’sir manbalarini bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan tarbiya va profilaktika choralarini o‘z vaqtida amalga oshirmasa, tarbiyasi og‘ir o‘smir pedagogik va ijtimoiy beqarorlikning keyingi bosqichiga o‘tadi. Ushbu bosqichda o‘smirning oiladagi, maktabdagi va ishdagi munosabatlari yanada yomonlashadi, u ijtimoiy jihatdan ijobiy muhitdan uzoqlashib qoladi. Oiladagi nazoratsizlik va o‘quv yoki mehnat

jamoasidan ajralib qolish o‘smirda mas’uliyatsizlik va boshboshdoqlik kabi salbiy his-tuyg‘ularni yuzaga keltiradi hamda ularni mustahkamlaydi.

Dastlabki huquqbuzarliklarning jazolanmasligi qonunlarga bo‘lgan hurmatsizlikni, atrofdagilarning fikrini hisobga olmaslikni odatga aylantiradi. Agar jinoyatlarning paydo bo‘lishining dastlabki bosqichida profilaktika bilan shug‘ullanuvchi ixtisoslashgan tashkilotlar – masalan, voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi komissiyalar, inspeksiyalar, maxsus maktablar va boshqa muassasalar – zarur choralarni ko‘rmasa, bu o‘smirning ijtimoiy normalarga zid xatti-harakatlari yanada chuqurlashib boradi. Voyaga yetmaganlarning jinoyatchilik etnologiyasini o‘rganish bugungi sharoitda ularning jinoyatchiligiga qarshi kurashda profilaktikaning muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish – bu o‘z xulq-atvorida axloq va huquq normalaridan chiqib ketayotgan, ammo hali jinoiy harakatlarga aylanishi mumkin bo‘lmagan voyaga yetmagan shaxslarni axloqan tuzatish va qayta tarbiyalashga qaratilgan maxsus faoliyatdir. Bu jarayonda gayriijtimoiy xulq-atvorning uch asosiy turi – axloqqa zid, g‘ayri-huquqiy va jinoiy xulq-atvordan dastlabki ikki turi profilaktika doirasiga kiradi. Shu tariqa, profilaktika mazmunan barcha voyaga yetmaganlarga mo‘ljallangan umumiy tarbiyaviy choralar bilan, jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan jinoyat-huquqiy choralar orasidagi o‘rta pog‘ona vazifasini bajaradi.

Umumiy profilaktika tadbirlari, asosan beqaror oilalardan kelib chiqadigan salbiy ta’sirlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, muhtoj o‘smirlarga davlat va jamoat tomonidan yordam ko‘rsatishni (vasiy yoki homiy tayinlash, mehribonlik uylari, maktab-internatga joylashtirish, ta’lim yoki ish bilan ta’minlash), voyaga yetmaganlarga ta’lim-tarbiya beruvchi muassasalardagi kamchiliklarni bartaraf etishni, o‘smirlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil qilishni, shuningdek voyaga yetmaganlarning qonunlarga rioya qilishiga doimiy nazorat o‘rnatishni o‘z ichiga oladi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilgan barcha choralar, avvalo ularning shaxs sifatida buzilish jarayonini to‘xtatishga, mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf etishga va kriminogen mikromuhitning salbiy ta’sirini kamaytirishga xizmat qilishi kerak. Bunday profilaktik tadbirlar, tarbiyasida muammo bo‘lgan o‘smirlarning ijtimoiy jihatdan xavfliroq xatti-harakatlarga o‘tib ketishining oldini olib, ularning kelajakda to‘g‘ri yo‘lga qaytishlari va jamiyatda faol hayotiy pozitsiyani egallashlariga yordam berishi lozim.

Bu boradagi asosiy muammo shundaki, voyaga yetmaganlar huquqbuzarlikka qo‘l urgachgina huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va jamoat tashkilotlarining profilaktik ta’sir doirasiga tushadilar. O‘smirlarning ijtimoiy hayotga zid moyilliklarini erta bosqichda oldini olish choralariga yetarlicha e’tibor berilmayotgani ham ta’kidlanishga loyiq. Misol uchun, voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi inspektsiyalar va komissiyalar odatda tarbiyasi og‘ir bo‘lgan o‘smirlarga e’tibor qaratadi. Biroq ularning beqaror oilaviy muhitini vujudga keltirayotgan ota-onalarga nisbatan, eng ko‘pi bilan, faqatgina ma’muriy jazo choralari qo‘llaniladi. Aslida esa, bunday chora-tadbirlar o‘smir atrofidagi mikromuhitni sog‘lomlashtirish uchun yetarli emas. Natijada esa, o‘tkazilgan tarbiyaviy ishlar samarasiz bo‘lib, avval erishilgan natijalar yo‘qqa chiqadi.

Mazkur sohada qonuniylikning ta’minlanishida prokuror nazoratining o‘ziga xos o‘rni bor. Afsuski, ushbu nazoratni tashkil etishga yuzaki yondashuv natijasida ayrim qarorlar amaliyotda umuman ijro etilmayapdi yoki belgilangan muddatda, yetarli darajada bajarilmayapti. O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonunida prokuratura organlariga huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish, xususan jinoyatchilik, shu jumladan voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha vazifalar yuklatilgan. Bu esa, profilaktika bilan shug‘ullanayotgan barcha subyektlarning harakatini yagona yo‘nalishga safarbar etishni taqozo etadi. Biroq shu bilan birga, bu holat prokurorlarning o‘ziga yuklangan

nazorat funksiyalarini bajarish majburiyatidan ozod etmaydi. Prokuraturaning asosiy vazifalaridan biri – jinoyatlarning oldini olish, voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi mutasaddi shaxslarning o‘z vakolatlarini qanday amalga oshirayotganini qat’iy nazorat qilishdir.

Voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi komissiyalarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri – ularni mehnat bilan band qilish masalasidir. Bu masala e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Ushbu bob doirasida biz voyaga yetmaganlar o‘rtasida sodir etilayotgan jinoyatlarning asosiy jihatlariga to‘xtalishga harakat qildik. Biroq yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarning o‘zidanoq anglashiladiki, profilaktik ishlarni yanada takomillashtirish – huquqiy davlat barpo etilayotgan hozirgi davrda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurash samaradorligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

1-KAZUS: «Oilaviy nizolar oqibatida sodir etilgan jinoyat»

Vaziyat

Zuhra va Anvar 10 yildan beri turmush qurishgan, ikki farzandi bor. So‘nggi yillarda ularning oilaviy munosabatlarida sovuqlik paydo bo‘lgan: Anvar ishsiz, tez-tez spirtli ichimlik iste’mol qiladi, oilaviy mas’uliyatni his qilmaydi. Zuhra esa oila xarajatlarini o‘zi qoplab, bolalarni tarbiyalaydi.

Uyda doim janjal, haqorat va baqir-chaqir hukm suradi. Anvar bir necha bor turmush o‘rtog‘ini urgan, bu holat bo‘yicha mahalla profilaktika inspektori ogohlantirish bergan, ammo jiddiy chora ko‘rilmagan.

Bir kuni Anvar yana mast holda uyga kelib, bolalar oldida Zuhrani haqoratlaydi va qo‘li bilan turtadi. Zuhra o‘zini himoya qilish maqsadida oshxona pichog‘ini olib, Anvarni yengil jarohatlaydi. Voqea bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi.

Tergov jarayonida aniqlanadiki, bu holat – oiladagi **zo‘ravonlik muhitining** uzoq davom etishi, ijtimoiy nazoratning sustligi va profilaktika ishlarining samarasizligi natijasida yuzaga kelgan.

Tahlil uchun savollar

1. Ushbu holatda sodir bo‘lgan jinoyat qanday **oilaviy jinoyatlar turiga** kiradi?
2. Jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lgan **ijtimoiy va psixologik omillar** nimalardan iborat?
3. Oilaviy zo‘ravonlikning **kriminologik sabablari va shart-sharoitlari** qanday izohlanadi?
4. Bunday holatlarning oldini olish uchun davlat, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qanday **profilaktik choralar** ko‘rilishi kerak?
5. Zuhraning xatti-harakatini huquqiy va kriminologik nuqtayi nazardan qanday baholash mumkin?

2-KAZUS: «E’tiborsizlik va muhit ta’sirida jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxs»

Vaziyat

15 yoshli Sherzod viloyat markazidagi maktabda 9-sinfda o‘qiydi. Otasi uzoq yillardan beri chet elda ishlaydi, onasi esa savdo bilan band. Uyda Sherzodga ko‘p e’tibor berilmaydi – u ko‘pincha o‘zini yolg‘iz his qiladi. Maktabdagi o‘qituvchilar uning darslarda sust qatnashayotganini va doimo intizomsizlik qilayotganini qayd etishgan.

So‘nggi oylar davomida Sherzod mahalladagi bir guruh katta yoshli yigitlar bilan do‘stlashadi. Ular tungi vaqtlarda bekor yurishadi, ayrim hollarda spirtli ichimlik iste’mol qilishadi. Bir kuni ularning biri Sherzodga: «Do‘kondan telefon o‘g‘irlaymiz, baribir hech kim bilmaydi» – deb taklif qiladi. Sherzod avval ikkilansa-da, do‘stlarining bosimi ostida ularga qo‘shiladi.

Ular kichik do‘kondan ikkita telefon o‘g‘irlaydi, biroq kameralar orqali voqea aniqlanib, ular qo‘lga olinadi. Tergovda Sherzod jinoyatni sodir etganiga pushaymon bo‘lganini, bunga «do‘stlarining ta’siri va nazoratsizlik» sabab bo‘lganini aytadi.

Tahlil uchun savollar

1. Ushbu holatda voyaga yetmagan shaxs jinoyat sodir etishiga qanday **ijtimoiy va psixologik omillar** sabab bo‘lgan?
2. Sherzodning xulq-atvori **kriminogen muhit** ta’siri bilan qanday shakllangan?
3. Ushbu holat **voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi**ning qanday turiga kiradi?
4. Jinoyat sodir etilishining oldini olishda **oila, maktab va mahalla** qanday rol o‘ynashi lozim?
5. Ushbu kazusdan kelib chiqib, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini kamaytirish uchun qanday **profilaktik chora-tadbirlar**ni taklif etish mumkin?

Nazorat savollari

1. Oilada zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar?
2. Oilada shaxsning jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar sodir etilishi?
3. Farzandkushlik – oiladagi ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan jinoyatlarning turlari?
4. Oilaga qarshi jinoyatlar?
5. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining holati?

VIII BOB. AYOLLAR JINOYATCHILIGINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI. ZO‘RLIK ISHLATIB SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI VA ULARNING OLDINI OLISH

8.1. Jinoyatchilikni jinsiy belgiga ko‘ra farqlash.
8.2. Ayollar jinoyatchiligining o‘zgarish xususiyatlari.
8.3. Siyosiy va iqtisodiy hayotdagi tangliklar.

8.1. Jinoyatchilikni jinsiy belgiga ko‘ra farqlash.

Jinoyatchilik umuman olganda turli xususiyatlarga ega bo‘lgan bir qator turlarga bo‘linadi. Ushbu xususiyatlar jinoyatlarning kriminologik tavsifi, ularning sabab va oqibatlari, shuningdek ularni oldini olish va ularga qarshi kurashish usullarida ham o‘z ifodasini topadi. Ayollar jinoyatchiligi – jinoyatchilikning shunday alohida bir turlaridan biridir.

Jinoyatchilikni jinsiy belgi bo‘yicha ajratish to‘g‘ri bo‘lib, bunga sabab ayollar jinoyatchiligining miqdoriy va sifat jihatidan erkaklar jinoyatchiligidan farq qilishi hisoblanadi. Miqdoriy tomondan aytganda, ayollar jinoyatchiligi uzoq yillar davomida erkaklar jinoyatchiligidan ancha past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan.

Sifat nuqtayi nazaridan qaraganda, statistik ma’lumotlar ayollar tomonidan sodir etilayotgan ta’magirlik va zo‘rlik bilan bog‘liq jinoyatlar hamda boshqa jinoyatlar nisbati erkaklar orasidagi ko‘rsatkichlardan sezilarli darajada farq qilishini ko‘rsatadi. Ayollarga xos ijtimoiy-madaniy muhit va sharoitlar ta’sirida ma’lum davr mobaynida shakllangan xulq-atvor turli jinoyat turlarida o‘z ifodasini topadi. Shu bilan birga, ayollar jinoyatchiligidagi o‘zgarish tendentsiyalari ham noyob bo‘lib, erkaklar jinoyatchiligidagi o‘zgarishlar bilan har doim ham mos kelmaydi. Masalan, ayollar tomonidan zo‘rlik ishlatib sodir etilayotgan jinoyatlar odatda sekin va bosqichma-bosqich oshib boradi.

Ayol jinoyatchilarning kriminologik tavsifi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Odatda, ularning o‘rta yoshdagi vakillari erkak

jinoyatchilarning o‘rta yoshidagi shaxslarga nisbatan ko‘proq uchraydi. So‘nggi yillarda jinoyatchilarning yosharish tendensiyasi kuzatilayotgan bo‘lsa-da, yuqorida ta’kidlangan holat hanuzgacha o‘zgarishsiz saqlanib qolmoqda. Ayol jinoyatchilarning ta’lim darajasi erkaklar bilan solishtirganda doim yuqori bo‘lib kelgan, ammo ilgari ayollar orasida oliy ma’lumotli jinoyatchilarning bunday tez sur’atlarda ko‘payishi kuzatilmagan edi.

8.2. Ayollar jinoyatchiligining o‘zgarish xususiyatlari.

Ayollar jinoyatchiligining erkaklar jinoyatchiligidan orqada qolishini tushuntiruvchi bir qancha nazariyalar mavjud. A. Ketle bu holatni nafaqat ayollarning jismonan zaif bo‘lishi, balki ularning jamiyatdan nisbatan chetda qolishi va oilaviy majburiyatlar doirasidan kamroq chiqishi bilan ham izohlagan. Shu bilan birga, ayollarning jamiyat hayoti va professional faoliyatga tobora faolroq qo‘shilayotganiga qaramay, jinoyatchilik darajasi oshgan davrlarda ham umumiy jinoyatchilik tarkibida ayollarning ulushi o‘z o‘rnida qolgan. U erkaklar jinoyatchiligiga nisbatan bir necha baravar kam bo‘lgan. Ushbu hodisani boshqa tomondan antropologik maktab vakillari, xususan Ch. Lombrozo va uning Rossiyadagi izdoshi P. N. Tarnovskaya ham izohlagan.

Ular ayollar jinoyatchiligining past darajada bo‘lishini ayol organizmining o‘ziga xosligi, tabiati va ma’lum darajada «biologik norasosligi» – ya’ni jismonan zaifligi bilan izohlashgan. Biroq ilm-fanning rivojlanishi jinoyatchilikka ta’sir etuvchi omillar orasida ijtimoiy hayotning sharoitlari ustun ekanligini ko‘rsatdi. Aynan shu sharoitlar ayollarning jinoyatga oid va umumiy qonuniy xulq-atvorining shakllanishida katta rol o‘ynaydi. Bizning fikrimizcha, ayollar jinoyatchiligining biologik va ijtimoiy sabablarini alohida ko‘rib chiqish mumkin, ammo ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda mavjud.

Qadim zamonlardan beri ayollarga oilani boshqarish va ro‘zg‘or yuritish kabi mas’uliyatlar yuklatilgan, erkaklar esa ko‘proq ovchilik yoki baliqchilik bilan shug‘ullangan. Ijtimoiy vazifalarning bunday

taqsimlanishining sababi jismoniy farqlarda deb taxmin qilish mumkin, ammo shuni ham bilamizki, erkaklar darajasida jismoniy kuchga ega bo‘lgan amazonkalar ham tarixda mavjud bo‘lgan. Shunday ekan, ehtimol faqat jismoniy kuchdagi tafovut emas, balki jinslarning ma’naviy-ruhiy farqlari ham erkaklar va ayollar o‘rtasidagi vazifa bo‘linishiga ta’sir qilgan. Ayol asosan ona bo‘lish uchun yaratilgan bo‘lib, unda yaratuvchanlik sifati kuchli bo‘ladi, erkak esa ovchi yoki baliqchi sifatida ko‘proq agressivlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu esa ayollar agressiyadan mutlaqo xoli, erkaklar esa bunyodkorlik qobiliyatidan mahrum degani emas. Haqiqatda esa, o‘z chaqaloqlarini rad etmay, hatto ularni yo‘q qilishga ham majbur bo‘ladigan onalar mavjud, shuningdek faqat o‘z farzandlari emas, asrab olingan bolalarni ham tarbiyalab voyaga yetkazadigan otalar ham uchraydi.

8.3. Siyosiy va iqtisodiy hayotdagi tangliklar.

Masala shundaki, aksariyat ayollarda jinoyat sodir etishga to‘sqinlik qiluvchi xususiyatlar ustunlik qiladi, chunki ularning xulq-atvorini shakllantiruvchi asosiy omillar odatda oilaga bog‘liq. Oilani himoya qilish, uning moddiy barqarorligini ta’minlash va qulay psixologik muhit yaratish ko‘pincha erkak zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa-da, oila uchun mas’uliyat aynan ayolga yuklanadi. Shu sababdan ayollar hayoti jinoyatchilik faoliyati bilan kam bog‘lanadi, chunki ular farzandlari, oilaning tinchligi va yaxlitligi uchun o‘z javobgarligini chuqur his qiladi. Agar ayol jinoyatga qo‘l uradigan bo‘lsa, u o‘z oilasini xavfga qo‘ygan bo‘ladi, chunki jinoyat sababli jazoga tortilishi, ozodlikdan mahrum etilishi ehtimoli borligini, jazoni o‘tash jarayonida esa oilaning buzilishi va farzandlarni tarbiyalash mas’uliyati noaniq holga kelishini yaxshi anglaydi.

Shuningdek, oilali shaxs uchun jazodan qochish ancha murakkab kechadi, chunki agar jinoyatchi yashirinib qochish yoki yashash joyini o‘zgartirishni rejalashtirsa, oilaning mavjudligi bu niyatni amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, oilali odam jinoyatni oldindan

rejalashtirish va sodir etish uchun yetarli vaqt ajrata olmaydi, chunki oilaviy vazifalar ko‘p vaqt talab qiladi. Yuqorida aytilganlardan tashqari, ayollarning jinoyatga qo‘l urishiga to‘sqinlik qiluvchi boshqa omillar ham bor. Ayollar tomonidan zo‘rlik bilan sodir etilgan jinoyatlarda ko‘pincha ularning yerlari, yaqin qarindoshlari va farzandlari jabrlanadi, bu esa ayollarning oilaga erkaklarga nisbatan yanada kuchliroq bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Ayollar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi

Ayollar jinoyatchiligi ijtimoiy hodisa sifatida erkaklar jinoyatchiligiga nisbatan kamroq tarqalgan bo‘lsa-da, u alohida tahlilni talab qiladi. Kriminologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar asosan mulkiy, ma’muriy va oilaviy munosabatlarga bog‘liq jinoyatlarni sodir etadi. Shu bilan birga, zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar ayollar orasida kamroq uchraydi.

Xususiyatlari:

- Ko‘pincha jinoyatlar yaqin shaxslar, oila a’zolari va tanishlar bilan bog‘liq.
- Tinchliksevar va ijtimoiy muhitga moslashgan bo‘lishi sababli, jinoiy faoliyat kam darajada namoyon bo‘ladi.
- Ayollar jinoyatchiligi ko‘pincha impulsiv xarakterga ega, ya’ni hissiyotlar va psixologik zo‘riqish ta’siri ostida sodir bo‘ladi.

Ayollar jinoyatchiligining sabablari va shart-sharoitlari

Ayollar jinoyatchiligi ko‘plab omillar bilan bog‘liq:

Ijtimoiy omillar:

- Oilaviy muhitdagi beqarorlik, zo‘ravonlik va e’tiborsizlik.
- Ijtimoiy yetishmovchilik, iqtisodiy qashshoqlik.
- Jamiyatdagi gender stereotiplari va cheklovlar.

Psixologik omillar:

- Emotsional o‘zgaruvchanlik va stress.
- Shaxsning muomala va konfliktlarni hal qilish ko‘nikmalarining pastligi.
- Ruhiy kasalliklar yoki nevrozlar mavjudligi.

Shart-sharoitlar:

- Zo‘ravon oilalar va ijtimoiy muhit.
- Ta’lim va ish bilan ta’minlanish imkoniyatlarining cheklanganligi.
- Yomon odatli do‘stlar va salbiy jamiyat ta’siri.

Jinoyatchi ayollarning shaxsi

Kriminologik tahlilda jinoyatchi ayolning shaxsi quyidagi jihatlarda tavsiflanadi:

- **Shaxsiy xususiyatlar:** sezgirlik, hissiyotga beriluvchanlik, konfliktlarga nisbatan zaiflik.
- **Ijtimoiy mavqei:** ko‘pincha past daromadli, oilada yetarlicha qo‘llab-quvvatlanmagan.
- **Psixologik holat:** ko‘pincha depressiv, qo‘rqoq, impulsiv qarorlar qabul qiluvchi.

Ayollar jinoyatchiligini oldini olish

Ayollar jinoyatchiligi oldini olishda quyidagilar muhim:

- **Ijtimoiy profilaktika:** oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ish bilan ta’minlash, ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish.
- **Psixologik profilaktika:** ruhiy sog‘liq markazlari, stressni boshqarish bo‘yicha treninglar.
- **Hukumat va jamoat choralari:** ayollarni zo‘ravonlikdan himoya qilish, huquqiy ongni oshirish.

Zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar tushunchasi

Zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar – shaxs yoki jamiyatga jismoniy, psixologik yoki moliyaviy zarar yetkazish maqsadida amalga oshiriladigan jinoyatlardir. Bu toifadagi jinoyatlar qatoriga: qotillik, tan jarohati yetkazish, zo‘rlik bilan talon-toroj qilish va majburlash kiradi.

Zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar: holati, tuzilishi va dinamikasi

- **Holati:** Zo‘rlik ishlatiladigan jinoyatlar asosan shaxsiy janjallar, oilaviy nizolar va jinoyatchilik guruhlarining faoliyati bilan bog‘liq.
- **Tuzilishi:** Ko‘pincha impulsiv yoki rejalashtirilgan xarakterga ega bo‘ladi. Jinoiy harakatlarning murakkabligi va zo‘rlik darajasi turlicha.

- **Dinamikasi:** Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu turdagi jinoyatlar ijtimoiy notinchlik davrida yoki iqtisodiy qiyinchilik paytida ko‘payadi.

Zo‘rlik ishlatib jinoyat sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifi

- **Shaxsiy xususiyatlari:** agressivlik, zo‘rlikka nisbatan bag‘rikenglik, sabrsizlik.
- **Ijtimoiy xususiyatlari:** ko‘pincha oilaviy muhitdagi zo‘ravonlik yoki jinoyatchilik tarixiga ega.
- **Psixologik holat:** o‘zini boshqarish qobiliyatining pastligi, impulsiv qarorlar, g‘azabga beriluvchanlik.

Zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning sabablari

- Oilaviy nizolar, shaxsiy munosabatlardagi muammolar.
- Ijtimoiy beqarorlik, qashshoqlik va ta’lim yetishmasligi.
- Shaxsning psixologik zaifligi, ruhiy kasalliklar.
- Salbiy do‘stlar va jinoyatchilik muhitining ta’siri.

Zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olish

Umumijtimoiy profilaktika:

- Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oilani himoya qilish, huquqiy ongni oshirish.
- Ta’lim va ish bilan ta’minlash, ijtimoiy notinchlikni kamaytirish.

Maxsus kriminologik profilaktika:

- Zo‘rlik ishlatishga moyil shaxslarni erta aniqlash va reabilitatsiya qilish.
- Psixologik maslahat markazlari, g‘azabni nazorat qilish va konfliktni hal qilish bo‘yicha treninglar.
- Jinoiy huquqiy chora-tadbirlar orqali javobgarlikni oshirish.

Xulosa qilib aytganda, ayolning tabiati uning jamiyatdagi ijtimoiy rolini aniqlaydi va aynan shu rol ayollar o‘rtasidagi jinoyatchilik darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun jinoyat sodir bo‘lishiga sabab bo‘luvchi vaziyatlarni aniqlashda ayolning jamiyatdagi faoliyatiga xos jihatlarni, ya’ni uning ish va uyda band bo‘lishi natijasida yuzaga keladigan barcha holatlarni e’tiborga olish zarur. Shu yondashuv erkaklar

jinoyatchiligi masalasida ham muhimdir. Tabiatan zabt etuvchi va agressiv fazilatlarga ega erkaklar jamiyatda shunga muvofiq vazifalarni bajaradilar, va aynan shu sababli erkaklar jinoyatchiligining ulushi ayollarnikidan ancha yuqori bo‘ladi.

So‘nggi yillarda jinoyatchilik, jumladan ayollar jinoyatchiligi ham sezilarli darajada tez sur’atlarda o‘sib bormoqda. Bu holatning asosiy sababi sifatida mamlakatimiz siyosiy va iqtisodiy sohalarida yuzaga kelgan o‘zgarishlar, ijtimoiy ziddiyatlar va mojarolar kuchayishi ko‘rsatilmoqda. Ayollarning jamiyatdagi mavqeining o‘zgarishi ham ularning jinoyatchiligiga, ayniqsa miqdori va sifatiga ta’sir qilganligi aniqlandi. Ishsizlik, daromadlarning pasayishi, oilaning ahamiyatining kamayishi, ajrashishlarning ko‘payishi kabi omillar jinoyatchilikning o‘sishida muhim rol o‘ynamoqda. Natijada, ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar orasida ayniqsa oila va ro‘zg‘or munosabatlaridagi zo‘rlik, ta’magirlik va iqtisodiy jinoyatlar sezilarli darajada oshmoqda.

Siyosiy va iqtisodiy qiyinchiliklardan tashqari, ma’naviy buzilish ham kuzatilmoqda odamlar, jumladan ayollar, o‘zgarayotgan sharoitlarda yuzaga kelgan muammolarni yengib o‘tishga qodir emasdek tuyulmoqda. Bu omil ichkilikka moyillikning kuchayishiga sabab bo‘lib, natijada oilada zo‘rlik bilan tugaydigan jinoyatlar ko‘paymoqda. Mastlik oqibatida oilaviy tortishuvlar, ayniqsa er-xotin o‘rtasidagi janjallar ko‘pincha qotillik yoki tanaga og‘ir shikast yetkazish kabi og‘ir oqibatlarga olib keladi.

O‘z qobiliyatlarini to‘la ko‘rsatish imkoniyatining cheklanishi, ishsizlik, turmush darajasining pasayishi va oilaviy qadriyatlarning susayishi natijasida ayollar ba’zida tirikchilik uchun zarur mablag‘larni topish maqsadida jinoyatga qo‘l urishga majbur bo‘lmoqda. Haqiqatan ham, jinoyatga qo‘l urayotgan ayollar ko‘pincha tovlamachilik, firibgarlik, o‘g‘rilik, xaridorlarni aldaganlik kabi jinoyat turlarini tanlaydilar; talonchilik va bosqinchilikda esa kamroq qatnashadilar. Shunga qaramay, yil sayin vaziyat o‘zgarib, ayollar jinoyatchiligi jinoyatchilik tizimida mustahkam o‘rin egallab bormoqda.

So‘nggi yillarda jinoyatchilikdagi umumiy tendensiyalarga ko‘ra, ayollar jinoyatchiligi ulushining ortishi bir qator omillar bilan birga jinslarning huquqiy, ijtimoiy va boshqa sohalardagi tenglashuvi bilan ham bog‘liqdir. Ayol jamiyatda erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo‘la boshlagach, u ham erkaklarga xos agressiv xulq-atvor shakllarini o‘zlashtirishga moyil bo‘ladi. Aynan shu sababdan oilada zo‘rlik bilan bog‘liq jinoyatlar sonining oshishi kuzatiladi, chunki ayollar uy sharoitida ham agressivroq munosabatda bo‘la boshlaydi.

Ayollar ta’magirlik jinoyatlarida ham faollashmoqda, chunki ilgari ularni cheklovchi, oilani mustahkamlashga oid tabiiy xususiyatlar endi ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Hozirda ayol oilaga bo‘lgan javobgarlikni to‘liq o‘z zimmasiga olmay, bu mas’uliyatni erkak bilan teng taqsimlashga intilmoqda. Oila uchun javobgarlik hissasining kamayishi esa jinoyat sodir etilishining oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Xususan, iqtisodiy sohadagi jinslar tengligi ayollar jinoyatchiligi foizining oshishiga sabab bo‘ldi, chunki ayollarga bu turdagi jinoyatlarni sodir etish imkoniyati yaratildi. Ilgari tadbirkorlik bilan shug‘ullangan ayollar soni kam edi va ular rahbarlik lavozimlarida ham kam uchrar edi; ayollar asosan iqtisodiy jinoyat qilishga unchalik mos kelmaydigan ish joylarida faoliyat yuritishardi.

Natijada, erkak va ayolning ijtimoiy rollarining aralashuvi tufayli, ular ish joyida ham, uyda ham band bo‘lishlari munosabati bilan turli vaziyatlarga duch kelishmoqda. Bu esa jinoyat bilan yakunlanishi mumkin bo‘lgan nizolar, iqtisodiy jinoyatlar yoki ta’magirlik kabi jinoyatlar sodir etish imkoniyatlarini erkaklar ham, ayollar ham teng darajada qo‘lga kiritishiga olib keladi.

Tabiiyki, jinsidan qat’i nazar, har bir inson jinoyatga qo‘l uravermaydi. Oldingi davrlarda ayol jinoyat qilish uchun zarur bo‘lgan ma’naviy-ruhiy xususiyatlarga ega bo‘lganida, u imkoniyatlari shu xususiyatlarga ega erkak bilan teng bo‘lardi. Hozir esa, erkaklar va ayollar o‘z jinoiy niyatlarini amalga oshirishda bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lib qolishgan. Jinslarning bunday tenglashuvi umumiy jinoyatchilik tarkibida

ayollarning jinoyatchilik ulushining oshishiga sabab bo‘lgan omillardan biri hisoblanadi.

KAZUS: «Og‘ir ijtimoiy sharoit ta’sirida jinoyat sodir etgan ayol»

Vaziyat

Madina 29 yoshda, ikki nafar kichik farzandning onasi. Eri bir necha yil oldin chet elga ishlash uchun ketgan va so‘nggi oylarda umuman aloqa qilmay qo‘ygan. Madina doimiy ishga ega emas, vaqtincha bozorda mahsulot sotib, oilasini boqadi. So‘nggi paytlarda ijaraning oshishi, bolalarning maktab xarajatlari va oziq-ovqat yetishmovchiligi uni qiyin ahvolga solgan.

Bir kuni Madina ishlaydigan do‘kon egasi unga ishonch bildiradi va vaqtincha kassani unga topshiradi. Kun oxirida u kassadan 1,500,000 so‘mni olib, «ertalab o‘rniga qo‘yaman» degan fikr bilan uyiga olib ketadi. Ammo keyin bu pullarni farzandlarining ehtiyojlariga sarflaydi. Ertasi kuni bu holat aniqlanib, unga nisbatan **o‘zlashtirish yo‘li bilan o‘g‘rilik sodir etganlik** aybi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi.

Tergov jarayonida aniqlanishicha, Madina ilgari sudlanmagan, odobli, ammo og‘ir ijtimoiy-psixologik bosim ostida qolgan shaxs bo‘lgan.

Tahlil uchun savollar

1. Ushbu holatda ayol jinoyat sodir etishiga sabab bo‘lgan **ijtimoiy va psixologik omillar** nimalardan iborat?
2. Madinaning xatti-harakati ayollar jinoyatchiligining qaysi **kriminologik turiga** kiradi?
3. Bunday holatlarning oldini olishda **ijtimoiy himoya va bandlik siyosati** qanday rol o‘ynaydi?
4. Ayollar orasidagi jinoyatchilikni kamaytirish uchun qanday **profilaktika choralari**ni taklif etish mumkin?
5. Kriminologik nuqtayi nazardan Madinaning harakatini qanday izohlash mumkin?

Nazorat savollari

1. Jinoyatchilikni jinsiy belgiga ko‘ra farqlash.

2. Aksariyat ayollarda jimoyat sodir etishga monelik qiluvchi xususiyatlar ustunlik qiladimi?

3. Iqtisodiy jabhada jinslarning tenglashuvi.

4. Jinsidan qat’i nazar, har qanday odam ham jinoyatga qo‘l uraveradimi?.

IX BOB. QASDDAN ODAM O‘LDIRISH JINOYATLARINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI. IQTISODIYOT SOHASIDAGI JINOYATCHILIKNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI VA UNINGH OLDINI OLISH.

9.1. Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o‘ldirish
9.2. Homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolni
9.3. Qasddan o‘ldirish o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini qasddan o‘ldirish

9.1. Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o‘ldirish

Jinoyat kodeksining 97-moddasi ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, uning 1-qis-mida og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlarsiz odam o‘ldirish uchun javobgarlik belgilangan. Albatta, odam o‘ldirishni mazmunan «oddiy» deb atash mumkin emas. Shunga qaramay, jinoyatni JK 97-moddasi 1-qismi bilan huquqiy baholash inkor etish yo‘li orqali amalga oshiriladi. Ya’ni, sodir etilgan qilmishda JK 97-moddasi 2-qis-mida nazarda tutilgan javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud yoki mavjud emasligi, shuningdek JK 98–102-moddalarida belgilangan yengillashtiruvchi holatlar bor-yo‘qligi aniqlanadi. Agar ushbu holatlarning hech biri aniqlanmasa, aybdorning xatti-harakati JK 97-moddasi 1-qismi asosida kvalifikatsiya qilinadi.

Qasos olish niyatida, rashk sababli, tuzalmas dardga chalingan shaxsni azob-uqubatdan xalos etish maqsadida uning iltimosiga binoan, mushtlashuv jarayonida, bezorilik alomatlari bo‘lmagan holda, shuningdek hasad, qo‘rqoqlik va shunga o‘xshash sabablar tufayli sodir etilgan odam o‘ldirish holatlari JK 97-moddasi 1-qismi bilan baholanadi.

Shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini xizmat vazifasini yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan qasddan o‘ldirish holatlaridan tashqari, boshqa barcha vaziyatlarda qasos olish maqsadida odam o‘ldirgan shaxs JK 97-moddasi 1-qismi asosida javobgarlikka tortiladi. Agar odam o‘ldirish aynan xizmat yoki fuqarolik burchini

bajarish bilan bog‘liq holda sodir etilgan bo‘lsa, bunday qilmish JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bunda jinoyat shaxsiy munosabatlar sababli va qasos olish niyatida amalga oshirilganini aniq belgilash zarur bo‘ladi.

Shaxsiy munosabatlar tufayli qasos olish maqsadida sodir etilgan odam o‘ldirishni bezorilik oqibatida yuz bergan odam o‘ldirishdan ajratib ko‘rsatish lozim. Bezorilik natijasida sodir etilgan odam o‘ldirish holatlarida jabrlanuvchining ahamiyatsiz xatti-harakati (masalan, chekish uchun sigareta bermaslik, biror tashkilotning joylashgan manzilini aytib bermaslik va shu kabilar) bahona bo‘ladi yoki jinoyat umuman hech qanday sababsiz amalga oshiriladi.

Qasos olish motivi jabrlanuvchining xulq-atvori va xatti-harakatlari ta’sirida bevosita odam o‘ldirilishidan oldin yoki ancha vaqt ilgari shakllanishi mumkin.

Agar shaxsiy munosabatlar sababli qasos olish niyati odam o‘ldirish sodir etilishidan avval paydo bo‘lgan bo‘lsa, mazkur qilmish kuchli ruhiy hayajon holatida, zaruriy mudofaa chegarasidan oshib ketish natijasida yoki ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlash chog‘ida zarar yetkazish oqibatida amalga oshirilmaganligini ham aniqlash talab etiladi.

Rashk sababli sodir etilgan odam o‘ldirish holatlari ham JK 97-moddasi 1-qismi bilan baholanadi. Rashk odam o‘ldirish motivi sifatida ishonchsizlik, xudbinlik, g‘azab va boshqa salbiy hissiyotlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Amaliyotda rashk tufayli odam o‘ldirish ko‘pincha er yoki xotinning xayoliy xiyonat qilganligi, jabrlanuvchining nikohga kirishga rozilik bermaganligi yoki nikohsiz birga yashash taklifini rad etganligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Agar sodir etilgan qilmishda JK 97-moddasi 2-qismida ko‘rsatilgan og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lmasa, janjal yoki mushtlashuv jarayonida, kimning aybi bilan boshlanganidan qat’i nazar, odam halok bo‘lsa, aybdorning harakati JK 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Mushtlashuv yoki urish paytida odam o‘ldirilgan hollarda qilmish kuchli ruhiy hayajon holatida sodir etilgan bo‘lishi, zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketish oqibatida yuzaga kelishi yoki ehtiyotsizlik sababli ro‘y berishi mumkin. Bunday vaziyatlarda javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lsa, odam o‘ldirish JK 98-, 100- yoki 102-moddalardan biri asosida baholanishi lozim.

Qilmishni urish yoki mushtlashuv vaqtida sodir etilgan odam o‘ldirish sifatida to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun faqat janjal yoki mushtlashuv bo‘lganligini ko‘rsatish yetarli emas. Bunda jinoyatning motivi va real sharoitlarini to‘liq aniqlash zarur. Urish yoki mushtlashuv odam o‘ldirishning faqat tashqi ko‘rinishi bo‘lib, u muayyan sabablar – bezorilik, tamagirlik, rashk, qasos, hasad va boshqa omillar ta’sirida sodir etiladi. Shuning uchun, faqat mushtlashuv yoki urish faktining o‘zi, alohida holatlar e’tiborga olinmagan taqdirda, qilmishni JK 97-moddasi 1-qismi bilan baholash uchun yetarli belgi hisoblanmaydi.

JK 97-moddasining 2-qismida jazoni og‘irlashtiruvchi holatlarda sodir etilgan odam o‘ldirish uchun javobgarlik belgilangan. Mazkur normada odam o‘ldirish uchun javobgarlikni kuchaytiradigan o‘n yettita holat aniq sanab o‘tilgan bo‘lib, ushbu ro‘yxat qat’iy hisoblanadi. Ya’ni, agar qilmishda JK 97-moddasi 2-qismida ko‘rsatilgan og‘irlashtiruvchi holatlardan birortasi mavjud bo‘lmasa, jinoyat ushbu norma asosida kvalifikatsiya qilinmaydi. Biroq mazkur qismda nazarda tutilgan og‘irlashtiruvchi holatlardan bittasining yoki bir vaqtning o‘zida bir nechtasining mavjudligi qilmishni JK 97-moddasi 2-qismi bilan baholash uchun yetarli asos bo‘ladi. Jinoyat ushbu norma bilan kvalifikatsiya qilinganda, aniqlangan har bir og‘irlashtiruvchi holat alohida ko‘rsatilishi va jazoni belgilashda inobatga olinishi shart.

Jinoyat huquqi sohasidagi ilmiy adabiyotlarda qasddan og‘irlashtiruvchi holatlarda sodir etilgan odam o‘ldirishni kvalifikatsiya qilish masalasida turli yondashuvlar mavjud. JK 97-moddasi 2-qismida ko‘rsatilgan holatlar jinoyat tarkibining elementlariga muvofiq

tasniflanadi. Ushbu tasnifga ko‘ra, birinchi guruhga jinoyat obyektiga daxldor bo‘lgan holatlar kiritiladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

a) ikki yoki undan ortiq shaxsni o‘ldirish;

b) aybdorga homiladorligi ma’lum bo‘lgan ayolni o‘ldirish;

v) aybdorga jabrlanuvchining ojiz ahvolda ekani ayon bo‘lgan holda odam o‘ldirish;

g) shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini xizmat vazifasini yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan o‘ldirish.

Ikkinchi guruhga odam o‘ldirishning obyektiv tomoni bilan bog‘liq holatlar kiradi. Ushbu guruh quyidagi holatlarni qamrab oladi:

a) boshqa shaxslar hayoti uchun xavf tug‘diradigan usulda odam o‘ldirish;

b) ommaviy tartibsizliklar jarayonida odam o‘ldirish;

v) o‘ta shafqatsiz usulda sodir etilgan odam o‘ldirish;

g) nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib, g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan bog‘liq holda odam o‘ldirish.

Uchinchi guruhga esa odam o‘ldirishning subyektiv tomoni bilan bog‘liq holatlar kiritiladi. Bular:

a) tamagirlik niyatida odam o‘ldirish;

b) milliy yoki irqiy adovat asosida sodir etilgan odam o‘ldirish;

v) bezorilik oqibatida odam o‘ldirish;

g) diniy mutaassiblik zaminida sodir etilgan odam o‘ldirish;

d) inson a’zolarini kesib olib boshqa shaxsga ko‘chirish (transplantatsiya) yoki murda qismlaridan foydalanish maqsadida odam o‘ldirish;

e) boshqa bir jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida odam o‘ldirish.

IKKI YOKI UNDAN ORTIQ SHAXSNI QASDDAN O‘LDIRISH

(MK 97-moddasi 2-qismi «a» bandi)

To‘rtinchi guruhga jinoyat subyektiga oid holatlar kiradi bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

a) bir guruh shaxslar tomonidan, uyushgan guruh a’zosi sifatida yoki mazkur guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan odam o‘ldirish;

b) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan amalga oshirilgan odam o‘ldirish;

c) o‘ta xavfli retsidivist tomonidan qasddan odam o‘ldirilishi holatlari.

Bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq shaxsni hayotdan mahrum etish yuqori darajadagi ijtimoiy xavflilikka ega. Odam o‘ldirishning ushbu ko‘rinishi o‘ziga xos bo‘lib, bunda aybdorda birdaniga ikki yoki undan ortiq shaxsni o‘ldirish niyati mavjud bo‘ladi. Masalan, Semyonov ismli shaxsning sevgan ayoli bo‘lib, uning boshqa erkak bilan uchrashib yurgani haqidagi mish-mishlar Semyonovning qulog‘iga yetib boradi. Kechki payt u ayolning uyiga kelib, ularni birga yotgan holatda ko‘radi va har ikki shaxsni o‘ldiradi. Mazkur holatda uning qilmishi sud tomonidan JK 97-moddasi 2-qismi «a» bandi asosida to‘g‘ri kvalifikatsiya qilinadi.

JK 97-moddasi 2-qismi «a» bandida nazarda tutilgan odam o‘ldirishni baholashda jinoyatchining harakatlari yagona qasddan kelib chiqqanligi va bir vaqtning o‘zida amalga oshirilganligiga alohida e’tibor qaratish lozim. Ikki yoki undan ortiq shaxsni o‘ldirishga qaratilgan niyat, ularni hayotdan mahrum etish sababining bir xil bo‘lishi jinoiy maqsadning yagonaligini ko‘rsatadi.

Agar odam o‘ldirishlar turli vaqtlarda sodir etilgan bo‘lsa-yu, biroq yagona jinoiy niyat bilan qamrab olingan bo‘lsa, bunday holatni ikki yoki undan ortiq shaxsni o‘ldirish deb baholash uchun to‘g‘ri qasd mavjudligini aniqlash zarur.

Bir paytning o‘zida ikki yoki undan ortiq kishini o‘ldirish faqat to‘g‘ri qasd bilan emas, balki egri qasd shaklida ham sodir etilishi mumkin.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning vafot etishi jinoyat tugallangan deb topilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bir shaxsni o‘ldirish va ikkinchi shaxsning hayotiga qasd qilish holati tugallangan jinoyat, ya’ni ikki yoki undan ortiq shaxsni o‘ldirish sifatida baholanmaydi. Bunday vaziyatda aybdorning ikki yoki undan ortiq kishini hayotdan mahrum etishga qaratilgan niyati o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabablar tufayli oxirigacha amalga oshmagan bo‘ladi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ilgari qayd etilgan qaroriga muvofiq, jinoyat JK 25-moddasi orqali 97-moddasi 2-qismi «a» bandi hamda 97-moddasining tegishli qismi bilan, ya’ni bir kishini o‘ldirish va ikki yoki undan ortiq shaxsni o‘ldirishga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Biroq shuni alohida ta’kidlash kerakki, sud amaliyotida qo‘llanilayotgan mazkur yondashuv JKning 33-moddasi 2-qismiga zid keladi. Agar jinoyatlar majmui yagona qasd bilan qamrab olingan bo‘lsa, javobgarlik eng og‘ir jazo belgilangan modda asosida belgilanadi. Demak, yuqoridagi holatda javobgarlik JK 25-moddasi 2-qismi va 97-mod-dasi 2-qismi «a» bandi bilan baholanishi lozim.

Jinoyat huquqi nazariyasida va sud amaliyotida faktik xato tushunchasi mavjud. Ya’ni, agar aybdor o‘z harakatini og‘ir jinoyat deb hisoblagan bo‘lsa, ammo amalda uning qilmishi aynan shu jinoyatning yengilroq ko‘rinishini tashkil etsa (masalan, seyfni ochish yoki inkassator sumkasini o‘g‘irlash chog‘ida aybdor juda ko‘p miqdorda talon-toroj qilayapman deb o‘ylaydi, aslida esa ko‘p yoki ancha miqdorda talon-toroj sodir etilgan bo‘lsa), qilmish aybdorning niyatiga qarab kvalifikatsiya qilinadi. Keltirilgan misolda bu holat juda ko‘p miqdorda talon-toroj qilish sifatida baholanadi. Ushbu qoida shaxs hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tavsiyalariga ko‘ra, agar ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o‘ldirish holati mavjud bo‘lsa-yu, bu harakatlar bir vaqtning o‘zida sodir etilgan bo‘lsa ham, aybdorning yagona jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan bo‘lsa, bunday qilmish

takroran qasddan odam o‘ldirish sifatida baholanadi va JK 97-moddasi 2-qismining «r» bandi asosida kvalifikatsiya qilinadi.

Agar shaxs bir kishini qasddan o‘ldirishni ko‘zlagan bo‘lsa, biroq ehtiyotsizligi sababli ikkinchi shaxsning ham hayotiga zomin bo‘lsa, bu holat jinoyatlar jami sifatida baholanadi. Ya’ni, qilmish qasddan odam o‘ldirish (JK 97-moddasi 1- yoki 2-qismi) hamda ehtiyotsizlik oqibatida odam o‘ldirish (JK 102-moddasi) bilan birgalikda kvalifikatsiya qilinadi. Agar sodir etilgan qilmishda ikki yoki undan ortiq shaxsni o‘ldirish bilan bir qatorda JK 97-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan boshqa og‘irlashtiruvchi holatlar ham mavjud bo‘lsa, aybdorning harakati ushbu bandlarning barchasi bilan baholanadi va ular jazoni belgilashda hisobga olinadi.

Agar aybdor birinchi jinoyatni sodir etib bo‘lgach, uni yashirish maqsadida boshqa shaxsni o‘ldirishga qaror qilsa, bunday holat ikki yoki undan ortiq odamni o‘ldirish sifatida JK 97-moddasi 2-qismining «a» bandi bilan baholanishi mumkin emas. Bu vaziyatda har bir jinoyat alohida-alohida huquqiy baholanishi lozim.

Birinchi jinoyat o‘ziga xos belgilarini inobatga olgan holda mustaqil kvalifikatsiya qilinadi. Ikkinchi jinoyat esa JK 97-moddasi 2-qismining «o» va «r» bandlari bilan, ya’ni boshqa bir jinoyatni yashirish maqsadida sodir etilgan hamda takroran amalga oshirilgan odam o‘ldirish sifatida baholanadi.

Shuningdek, agar aybdor tomonidan JK 98–101-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar sodir etilgan bo‘lsa, uning qilmishi ikki yoki undan ortiq shaxsni o‘ldirish sifatida JK 97-moddasi 2-qismining «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi.

9.2.Homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolni qasddan o‘ldirish

(Mk 97-moddasi 2-qismi «b» bandi)

Odam o‘ldirishning ushbu turi yuqori darajadagi ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi, chunki bunday holatda aybdor nafaqat homilador ayolning hayotiga, balki hali tug‘ilmagan bolaning hayotiga ham zomin bo‘ladi. Mazkur turdagi odam o‘ldirish subyektiv jihatdan to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Qilmishni JK 97-moddasi 2-qismi «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun ayolning homiladorligi aybdorga oldindan ma’lum bo‘lganligini aniqlash zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yuqorida qayd etilgan qarorida shunday deyiladi: «Qasddan odam o‘ldirish jinoyatini JK 97-moddasi ikkinchi qismining ‘b’ bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdor jabrlanuvchining homilador ekanligini bilganligi aniqlangan bo‘lishi kerak. Bunda tashqi belgilar yoki boshqa faktik ma’lumotlarning mavjudligi inobatga olinadi. Homiladorlik muddati, shuningdek homilador ayol o‘ldirilishi oqibatida homila nobud bo‘lgan yoki bo‘lmaganligi jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyat kasb etmaydi. Agar aybdor xato taxmin asosida, aslida homilador bo‘lmagan ayolni homilador deb hisoblab qasddan o‘ldirgan bo‘lsa va uning harakatlarida JK 97-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan boshqa og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lmasa, qilmish JK 97-moddasi 1-qismi bo‘yicha baholanadi».

Homiladorlikning oxirgi oylarida ayolning tashqi qiyofasi va gavda tuzilishiga qarab uning homiladorligini aniq bilish mumkin bo‘ladi. Homiladorlikning dastlabki bosqichlarida buni aniqlash qiyinroq bo‘lsa-da, aybdor bu haqda jabrlanuvchining o‘zidan, uning ota-onasidan, dugonalaridan yoki boshqa shaxslardan eshitgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Qilmishni JK 97-moddasi 2-qismi «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilishning asosiy sharti aybdor ayolning homilador ekanligini bila turib

uni qasddan o‘ldirgan bo‘lishidir. Ushbu band bilan baholashda homiladorlik muddati huquqiy ahamiyatga ega emas.

Agar odam o‘ldirish tamagirlik niyatida, bezorilik oqibatida yoki boshqa motivlar asosida sodir etilgan bo‘lsa, aybdor faqat JK 97-moddasi 2-qismi «b» bandi bilan emas, balki ushbu moddaning tegishli boshqa bandlari bilan ham javobgarlikka tortilishi lozim.

Aybdorga jabrlanuvchining ojiz holatda ekani ma’lum bo‘lgan shaxsni qasddan o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «v» bandi)

Agar aybdor jabrlanuvchining ojiz ahvolda ekanligini bilgan holda uni qasddan o‘ldirsa (onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi bundan mustasno), uning qilmishi JK 97-moddasi 2-qismi «v» bandi bilan huquqiy baholanadi.

Ojizlik deganda jabrlanuvchining ruhiy yoki jismoniy nochorligi sababli aybdor tomonidan uning hayotiga qaratilgan tajovuzdan o‘zini himoya qila olmasligi tushuniladi.

Aybdorning harakatlarini JK 97-moddasi 2-qismi «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilishda ojiz holat sifatida jabrlanuvchining jismoniy yoki ruhiy jihatdan o‘zini himoya qilishga, aybdorga faol qarshilik ko‘rsatishga qodir emasligi yoki unga nisbatan sodir etilayotgan harakatlarning mohiyati va xususiyatini anglay olmasligi yoxud o‘z xatti-harakatlarini boshqara olmasligi e’tiborga olinadi. Bunday holatlarga jismoniy nuqsonlar, ruhiy kasallik, juda yosh yoki qari bo‘lish, kuchli og‘riq yoki behush holat, uyquda bo‘lish, shuningdek spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ta’sirida og‘ir darajada mast bo‘lish kiradi. Muhimi, aybdor jabrlanuvchining aynan shunday ojiz ahvolda ekanligini anglagan bo‘lishi shart.

Jabrlanuvchining spirtli ichimlik, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda ta’sirida atrofdagi vaziyatni anglay olmaydigan darajada mast bo‘lishi uni ojiz holatda bo‘lgan deb e’tirof etish uchun asos bo‘lishi mumkin. Bunda jabrlanuvchini bunday holatga kim olib kelganligi huquqiy ahamiyat kasb etmaydi.

Ojiz ahvol – bu jabrlanuvchining shunday jismoniy yoki ruhiy holatiki, unda u aybdorning hayotiga qaratilgan tajovuziga qarshilik koʻrsata olmaydi yoki unga nisbatan amalga oshirilayotgan harakatlarning mazmunini tushunishga yoxud oʻz xatti-harakatlarini boshqarishga qodir boʻlmaydi.

Shu sababli, hayotiga qaratilgan tajovuzni bartaraf eta olmasligi ayon boʻlgan yosh bolani, keksa kishini, uxlab yotgan holatda boʻlgan shaxsni, ogʻir darajada mast yoki ruhiy kasal ekanligini bila turib oʻldirish holatlari ham JK 97-moddasi 2-qismi «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Odam oʻldirishning ushbu turi subyektiv jihatdan toʻgʻri qasd bilan sodir etiladi.

Jabrlanuvchining ojiz holatidan foydalanib amalga oshirilgan odam oʻldirishni kvalifikatsiya qilishda jinoyatning motiviga alohida e'tibor qaratish lozim. Agar shaxs jabrlanuvchining ojiz ekanligini bila turib uni tamagirlik, bezorilik, oʻta shafqatsizlik yoki boshqa shunga oʻxshash motivlar asosida oʻldirgan boʻlsa, aybdorning qilmishi nafaqat JK 97-moddasi 2-qismi «v» bandi, balki ushbu motivlar nazarda tutilgan boshqa bandlar bilan ham baholanishi kerak.

Jabrlanuvchining ojiz ahvoli nimaga bogʻliq boʻlishidan qat'i nazar, u sud tomonidan har bir holatda alohida baholanadi. Masalan, jabrlanuvchining yoshi – yosh bola yoki keksalik holati – uning ojizligini belgilovchi omil sifatida avtomatik tarzda qabul qilinmaydi, balki har bir vaziyatda individual tarzda koʻrib chiqiladi. Chunki bir xil yoshdagi shaxslarning sogʻligi, jismoniy kuchi, harakatchanligi va boshqa xususiyatlari turlicha boʻlishi mumkin.

Agar aybdor tomonidan JK 98–101-moddalarida nazarda tutilgan odam oʻldirish jinoyatlari sodir etilgan boʻlsa, uning harakatlari JK 97-moddasi 2-qismi «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi.

O‘Z XIZMAT YOKI FUQAROLIK BURCHINI BAJARISHI MUNOSABATI BILAN SHAXSNI YOKI UNING YAQIN QARINDOSHLARINI QASDDAN O‘LDIRISH

(MK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi)

Odam o‘ldirishning ushbu ko‘rinishida jabrlanuvchining yoki uning yaqin qarindoshlarining hayotdan mahrum etilishi ularning xizmat vazifasini yoki fuqarolik burchini bajarish kabi ijtimoiy foydali faoliyati bilan bevosita bog‘liq holda sodir bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining avval qayd etilgan qarorida shunday tushuntirish berilgan: jabrlanuvchining xizmat yoki fuqarolik burchini amalga oshirish jarayonidagi qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilish maqsadida, shuningdek bunday faoliyatni bajargani uchun qasos olish niyatida sodir etilgan odam o‘ldirish harakatlari JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Shaxsni uning xizmat vazifasini yoki fuqarolik burchini bajargani munosabati bilan undan o‘ch olish maqsadida qasddan o‘ldirish holatlari ham JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi asosida huquqiy baholanadi.

Agar shaxsni xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi bilan bog‘liq holda yoxud uning qonuniy talabiga to‘sqinlik qilish maqsadida o‘ldirishning aniq motivi aniqlanmagan bo‘lsa ham, jinoyat sodir etgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

Yaqin qarindoshlar deganda jabrlanuvchi bilan qarindoshlik aloqalarida bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-ona, aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzandlar, shu jumladan farzandlikka olinganlar, nevaralar, shuningdek er yoki xotinning ota-onasi, aka-uka va opa-singillari tushuniladi. Mazkur turdagi odam o‘ldirishda jabrlanuvchi sifatida mansabdor shaxs, hokimiyat vakili, shuningdek oddiy shaxslar – ishchi, qorovul va boshqa fuqarolar ham bo‘lishi mumkin.

Xizmat vazifasini bajarish deganda har qanday muassasa, korxona yoki tashkilotda shaxsga xizmat doirasida yuklatilgan majburiyatlarni ado etish jarayonidagi faoliyat tushuniladi.

Fuqarolik burchini bajarish esa fuqaroning har qanday qonuniy va ijtimoiy foydali harakatlarini anglatadi. Bunga jamoat ishlarida ishtirok etish, jamiyat yoki alohida fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyat, xususan huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyat haqida xabar berish, guvohlik berish va shunga o‘xshash harakatlar kiradi.

Subyektiv jihatdan ushbu jinoyat faqat to‘g‘ri qasd bilan sodir etilishi mumkin. Bunda aybdor nafaqat boshqa shaxsning o‘limiga sabab bo‘layotganini, balki aynan shu shaxsni uning xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan o‘ldirayotganini ham anglab yetgan bo‘lishi lozim. Agar aybdor buni anglamagan bo‘lsa, JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bo‘yicha javobgarlik yuzaga kelmaydi.

Mazkur turdagi odam o‘ldirish jinoyatining asosiy motivi jabrlanuvchining o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lgan qasos olish hisoblanadi. Biroq ko‘rib chiqilayotgan kvalifikatsiyalovchi belgi faqatgina qasos motivi bilan cheklanmaydi, balki jabrlanuvchining ayblanuvchi uchun nomaqbul bo‘lgan, ammo qonuniy xizmat yoki fuqarolik faoliyatini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilish maqsadida uni o‘ldirish holatlarida ham namoyon bo‘ladi.

Qonuniy faoliyatni amalga oshirayotgan shaxsni o‘ldirish JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan baholanishi lozim. Agar jabrlanuvchi qonunga xilof harakat qilgan bo‘lsa, ya’ni xizmat vakolatini suiiste’mol qilgan yoki aybdorga nisbatan hokimiyat vakolatlari doirasidan chiqib ish tutganligi sababli o‘ldirilgan bo‘lsa, bunday vaziyatda aybdorni JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan javobgarlikka tortish mumkin emas. Odam o‘ldirishni mazkur band bilan kvalifikatsiya qilishda jinoyat jabrlanuvchi xizmat vazifasini bajarayotgan paytda yoki boshqa vaqtda sodir etilganligining ahamiyati yo‘q. Muhimi, qilmish aynan jabrlanuvchining xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi bilan bog‘liq holda sodir etilgan bo‘lishidir.

Shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini o‘ldirish uchun javobgarlik jabrlanuvchi tomonidan xizmat yoki fuqarolik burchiga doir harakatlar qachon amalga oshirilganidan qat’i nazar yuzaga keladi. Bunda odam

o‘ldirish jabrlanuvchining o‘z xizmat burchini bajargani uchun undan qasos olish maqsadida sodir etilganligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar aybdor obyekt bo‘yicha xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, ya’ni jabrlanuvchi shaxsini adashtirib, hayoti va faoliyati xizmat yoki fuqarolik burchini bajarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa shaxsni o‘ldirgan bo‘lsa, uning harakati JK 25-moddasining tegishli qismi orqali JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandida nazarda tutilgan jinoyatni davlat yoki jamoat arbobi, hokimiyat vakilining davlat yoki jamoat faoliyati munosabati bilan uning hayotiga suiqasd qilish (JK 155-moddasi 2-qismi), shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hayotiga tajovuz qilish (JK 158-moddasi 1-qismi) jinoyatlaridan ajratib ko‘rish zarur.

Bunda jabrlanuvchilar doirasi har bir jinoyatda o‘ziga xos farq qiladi. Shuningdek, bu jinoyatlar obyektiv tomoni bilan ham farqlanadi. Bundan tashqari, JK 155-moddasi (terrorizm) aybdor shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi sababli o‘ldirishni ko‘zlagan maqsadlardan keskin farq qiluvchi, maxsus maqsadlarga erishish niyatini o‘z ichiga oladi.

Maxsus va umumiy moddalarning raqobati yuzaga kelganda kvalifikatsiya qilish qoidalariga muvofiq maxsus normalar qo‘llaniladi. Shu sababli JK 155-moddasi 2-qismi (Terrorizm) va JK 158-moddasi 1-qismida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hayotiga tajovuz qilish) nazarda tutilgan normalar maxsus normalar sirasiga kiradi.

9.3. Qasddan o‘ldirish o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini qasddan o‘ldirish

BOSHQA SHAXSLARNING HAYOTI UChUN XAVFLI BO‘LGAN USULDA QASDDAN ODAM O‘LDIRISH

(MK 97-moddasi 2-qismi «d» bandi)

Odam o‘ldirishning ushbu turida qilmishning obyektiv tomoni shundan iboratki, aybdorning qasdi aniq bir shaxsni hayotdan mahrum etishga qaratilgan bo‘ladi, biroq jinoyat sodir etish jarayonida boshqa shaxslarning hayoti uchun ham real xavf yuzaga keladi. Jinoyatni boshqa shaxslar hayoti uchun xavfli usulda qasddan odam o‘ldirish deb baholash uchun aybdor tanlagan usul nafaqat jabrlanuvchini, balki atrofdagi boshqa shaxslarni ham hayotiga xavf tug‘dirishini anglagan bo‘lishi zarur. Aksariyat hollarda bunday jinoyat usuli qo‘llanilgan qurol yoki vositaning xususiyati bilan belgilanadi.

Odam o‘ldirishni JK 97-moddasi 2-qismi «d» bandi bilan kvalifikatsiya qilishda jinoyatni sodir etish usulini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bunday usullarga, jumladan, odamlar gavjum joylarda, turar joylarda yoki transport vositalarida tartibsiz ravishda o‘q uzish, portlatish, odamlar bo‘lgan uyni yoqib yuborish orqali o‘ldirish, quduq yoki suv manbalarini zaharlash va shunga o‘xshash harakatlar kiradi. Shu bilan birga, usulning xavfliligi abstrakt tarzda emas, balki jinoyat sodir etilgan aniq vaziyatdan kelib chiqib baholanishi lozim. Masalan, atrofda hech kim bo‘lmagan joyda portlatish yoki transport vositasi bilan bosib ketish natijasida shaxsni hayotdan mahrum qilish boshqa shaxslar hayoti uchun real xavf tug‘dirmagan bo‘lsa, bu holat JK 97-moddasi 2-qismi «d» bandi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi.

Haqiqatan ham, faqat boshqa shaxslarning hayoti uchun real xavf mavjud bo‘lgan va bunday sharoitda ularning ham hayotiga ziyon yetishi ehtimoli yaqqol ko‘rinib turgan taqdirdagina JK 97-moddasi 2-qismi «d» bandi bo‘yicha jinoiy javobgarlik yuzaga keladi. Qasddan odam

o‘ldirishni ko‘p shaxslar hayoti uchun xavfli usulda sodir etilgan deb topish uchun aybdor o‘zi tanlagan usul nafaqat bitta shaxs, balki boshqalarning hayoti uchun ham xavfli ekanligini anglaganini aniqlash talab etiladi.

Mazkur jinoyat turi bir shaxsning o‘limi yuz bergan paytdan boshlab tugallangan jinoyat hisoblanadi. Uning subyektiv tomoni to‘g‘ri qasd bilan bir qatorda egri qasd shaklida ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Agar boshqa shaxslar hayoti uchun xavfli usulda odam o‘ldirish jarayonida yana boshqa shaxslarga tan jarohati yetkazilgan bo‘lsa, qilmish jinoyatlar jami sifatida, ya’ni tan jarohati yetkazish uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddalar bilan ham qo‘shimcha ravishda kvalifikatsiya qilinadi. Agar jinoyat oqibatida boshqa shaxslar ham vafot etsa, aybdor ehtiyotsizlik oqibatida odam o‘ldirish uchun javobgarlik belgilangan moddalarning jami bo‘yicha javobgar bo‘ladi.

OMMAVIY TARTIBSIZLIKLAR JARAYONIDA ODAM O‘LDIRISH

(MK 97-moddasi 2-qismi «e» bandi)

Odam o‘ldirishning ushbu turi yuqori darajadagi ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi. Chunki bunda aybdor ommaviy tartibsizliklar vaqtida yuzaga kelgan betartiblik va g‘ala-g‘ovurdan foydalanib jinoyatni amalga oshiradi. Ommaviy tartibsizlik sharoitida odam o‘ldirgan shaxs odatda nihoyatda beadab va tajovuzkor harakat qiladi hamda o‘z qilmishlari tartibsizlik qilayotgan olomon tomonidan sodir etilgan, degan noto‘g‘ri tasavvurda bo‘ladi. Mazkur holatda jinoyatning obyektiv tomoni uchun majburiy belgilardan biri – jinoyat sodir etilgan muhit, ya’ni ommaviy tartibsizliklar jarayonining mavjudligidir.

O‘ta shafqatsizlik tushunchasi nimada ifodalanadi? Avvalo, u jinoyatni amalga oshirish usulida namoyon bo‘ladi. O‘ta shafqatsizlik bilan odam o‘ldirish deganda jabrlanuvchini favqulodda azob-uqubatlar yetkazish orqali hayotdan mahrum qilish yoki aybdorning harakatlarida

alohida rahmsizlikni ko‘rsatuvchi boshqa holatlar mavjud bo‘lgan vaziyatlarda sodir etilgan qotillik tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlariga ko‘ra, qasddan odam o‘ldirishni JK 97-moddasi ikkinchi qismining «j» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdorning qasdi aynan o‘ta shafqatsizlik bilan odam o‘ldirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, qonun o‘ta shafqatsizlik tushunchasini faqat qotillik usuli bilan cheklamaydi, balki aybdorning o‘ta rahmsiz munosabatini ko‘rsatuvchi boshqa holatlar bilan ham bog‘laydi.

O‘ta shafqatsizlik bilan sodir etiladigan odam o‘ldirish usullariga, jumladan, jabrlanuvchini hayotdan mahrum etishdan oldin yoki qotillik jarayonida qiynoqqa solish, unga chidab bo‘lmas azob yetkazish bilan bog‘liq holatlar kiradi. Bular qatoriga kuchli og‘riq keltiruvchi zaharlardan foydalanish, tiriklayin yoqib yuborish, uzoq vaqt davomida ovqat va suv bermaslik kabi harakatlar ham kiritilishi mumkin. Jabrlanuvchining tanasiga ko‘plab jarohatlar yetkazish orqali odam o‘ldirish ham, agar bu harakatlar jabrlanuvchiga ataylab kuchli azob yetkazish niyatida amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘ta shafqatsizlik sifatida baholanishi mumkin.

Shuningdek, jabrlanuvchini uning yaqinlari ko‘z o‘ngida o‘ldirish ham, agar aybdor bu orqali ularning ruhiy azob chekayotganini anglab turgan bo‘lsa, o‘ta shafqatsizlik namoyon bo‘lgan holat sifatida e’tirof etilishi lozim.

Jabrlanuvchining yaqinlari doirasiga nafaqat uning yaqin qarindoshlari, balki u bilan alohida shaxsiy va do‘stona munosabatlarda bo‘lgan shaxslar ham kiritilishi mumkin.

Marhumning jasadida bir nechta jarohatlarning mavjudligi o‘z-o‘zidan uni shafqatsizlarcha azoblab o‘ldirilgan, degan xulosaga kelish uchun yetarli asos bo‘la olmaydi. Bunday holatlarda jarohatlar aynan aybdor tomonidan qasddan odam o‘ldirish jarayonida yoki jabrlanuvchini o‘limidan avval qiynash, azoblash maqsadida yetkazilgan-yetkazilmaganini aniqlash zarur bo‘ladi.

Bolalarni ota-onasi yoki yaqin qarindoshlari ko‘z o‘ngida o‘ldirish ham o‘ta shafqatsizlik bilan sodir etilgan qotillik sifatida baholanadi. Biroq uxlab yotgan shaxsni o‘ldirish holatida aybdor JKning mazkur bandi bilan javobgarlikka tortilmaydi, chunki jabrlanuvchi o‘zining o‘ldirilayotganini anglay olmaydi. Shafqatsizlik tushunchasi tibbiy emas, balki ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgani sababli, qilmishning o‘ta shafqatsizlik bilan sodir etilganligi masalasida ekspert xulosasi majburiy hisoblanmaydi.

Agar aybdor jabrlanuvchining noqonuniy zo‘ravonligi, og‘ir haqorati yoki boshqa g‘ayriqonuniy harakatlari oqibatida yuzaga kelgan kuchli ruhiy hayajon holatida yoxud zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketgan holda jabrlanuvchiga ko‘plab tan jarohatlari yetkazgan bo‘lsa, bunday qilmish JK 97-moddasi 2-qismining «j» bandi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi. Bu holatda javobgarlik JKning 98- yoki 100-moddalariga asosan belgilanishi lozim.

Mazkur jinoyat jabrlanuvchining o‘limi sodir bo‘lgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi. Shu sababli o‘lim yuz berganidan keyin aybdor tomonidan amalga oshirilgan har qanday harakatlar o‘ta shafqatsizlik bilan odam o‘ldirish sifatida baholanmaydi. Masalan, murdani bo‘laklarga ajratish yoki jinoyatni yashirish maqsadida uni yo‘q qilib yuborish holatlarida qilmish jinoyatlar majmui tariqasida, ya’ni JK 97-moddasining tegishli qismi va JK 134-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Subyektiv tomondan mazkur jinoyat ko‘pincha to‘g‘ri qasd bilan, kamdan-kam hollarda esa egri qasd bilan sodir etiladi. Odam o‘ldirish o‘ta shafqatsizlik bilan amalga oshirilgan, deb e’tirof etish uchun aybdorda aynan shunday – o‘ta shafqatsizlik bilan hayotdan mahrum qilishga qaratilgan qasd mavjud bo‘lganligini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

O‘ta shafqatsizlik bilan qasddan odam o‘ldirishda, agar ishtirokchilar oldindan til biriktirmagan bo‘lsa, faqatgina qilmishni amalga oshirgan shaxsning harakati JK 97-moddasi 2-qismi «j» bandi bilan kvalifikatsiya

qilinadi. Boshqa ishtirokchilarning harakatlari esa JKning 97-moddasining tegishli qismi bilan baholanadi.

Agar aybdor JKning 98–101-moddalarida ko‘zda tutilgan qasddan odam o‘ldirish jinoyatini sodir etgan bo‘lsa, uning harakati JK 97-moddasi 2-qismi «j» bandi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi.

NOMUSGA TEGISH YOKI JINSIY EHTIYOJNI ZO‘RLIK ISHLATIB G‘AYRITABIIY USULDA QONDIRISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA QASDDAN ODAM O‘LDIRISH

(MK 97-moddasi 2-qismi «z» bandi)

Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib, g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan bog‘liq holda qasddan odam o‘ldirish deganda, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar sodir etilishi jarayonida jabrlanuvchini hayotdan mahrum qilish tushuniladi.

Bunda ikki mustaqil jinoyat sodir etilganligi e’tiborga olinib, qilmish JK 97-moddasi ikkinchi qismining «z» bandi hamda ishning aniq holatlaridan kelib chiqib, Jinoyat kodeksining 118- yoki 119-moddalarining tegishli qismlari bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agar nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rlik bilan g‘ayritabiiy usulda qondirish jinoyati sodir etilgandan so‘ng, ushbu jinoyatni yashirish maqsadida jabrlanuvchi qasddan o‘ldirilsa, qilmish JK 118- yoki 119-moddalari hamda JK 97-mod-dasi 2-qismining «o» bandida nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bo‘yicha baholanadi.

Aybdor qasddan odam o‘ldirish bilan bir vaqtda nomusga tegish (JK 118-mod-dasi) yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish (JK 119-moddasi) jinoyatini sodir etgan hollarda, qilmish JK 97-moddasi 2-qismining «z» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi shart.

Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan bog‘liq holda qasddan odam o‘ldirish, masalan, ushbu jinoyatlar sodir etilishi jarayonida voyaga yetmaganlarning a’zolari va to‘qimalari ezilib yoki uzilib ketishi oqibatida asfiksiya sababli o‘lim yuz berishi, yoxud jinoyatni yashirish maqsadida jabrlanuvchini qiynash, zaharlash va

shunga o‘xshash harakatlar natijasida sodir etilishi mumkin. Shuningdek, ayolning jinsiy erkinligi yoki jinsiy daxlsizligiga tajovuz paytida ko‘rsatilgan qarshilik uchun qasos olish maqsadida o‘ldirish ham ushbu turga kiradi.

Nekrofiliya, ya’ni murdalarga shahvoniy maylni qondirish niyatida shaxsni o‘ta shafqatsiz tarzda o‘ldirish holatlari ham uchrashi mumkin.

Agar odam o‘ldirish nomusga tegish jinoyatidan ancha vaqt o‘tib sodir etilgan bo‘lsa, bunday qilmish JK 97-moddasi 2-qismining «z» bandi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi.

Bir guruh shaxslar tomonidan nomusiga tegilgan jabrlanuvchi jinoyat ishtirokchilaridan biri tomonidan, biroq qolgan ishtirokchilarning roziligi bilan o‘ldirilgan bo‘lsa, nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan bog‘liq holda odam o‘ldirish uchun barcha ishtirokchilar javobgarlikka tortilishi lozim.

TAMAGIRLIK NIYATIDA QASDDAN ODAM O‘LDIRISH
(MK 97-moddasi 2-qismi «i» bandi)

Tamagirlik niyatida qasddan odam o‘ldirish deganda (O‘zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismining «i» bandi) turli xil moddiy manfaatlarni (pul, mol-mulk, mulkiy huquqlar, uy-joy maydoniga bo‘lgan huquq va boshqalar) qo‘lga kiritish maqsadida yoxud moddiy xarajatlardan, qarz yoki aliment to‘lashdan qutulish istagida, shuningdek boshqa tamagirlik niyatlari bilan sodir etilgan o‘ldirish tushuniladi. Masalan, jabrlanuvchining yuqori haq to‘lanadigan lavozimini egallash uchun pul evaziga odam o‘ldirish shular jumlasidandir.

Jabrlanuvchining kim bo‘lishidan qat’i nazar, ya’ni mol-mulk egasi, mol-mulk vaqtincha o‘zida saqlab turgan shaxs yoki mol-mulkni saqlash uchun topshirib qo‘yilgan shaxs bo‘lishidan qat’i nazar, odam o‘ldirish tamagirlik niyatida sodir etilgan deb e’tirof etiladi.

Shuningdek, vafotidan so‘ng uning biror mulkiy tusdagi huquqlarini aybdor o‘z qo‘liga kiritish maqsadida o‘ldirilgan shaxs ham jabrlanuvchi sifatida baholanishi mumkin.

Qilmish aybdorning o‘zi yoki boshqa shaxslar manfaatini ko‘zlab moddiy naf olish yoxud biror moddiy xarajatlardan qutulish maqsadida sodir etilganligidan qat’i nazar, bunday odam o‘ldirish tamagirlik niyatida amalga oshirilgan hisoblanadi.

Agar odam o‘ldirish, birinchidan, hujum qilish bilan, ikkinchidan, mol-mulkni egallash niyatida, uchinchidan esa mol-mulkni egallash o‘ldirishni sodir etish jarayonida yoki bevosita undan keyin amalga oshirilgan bo‘lsa, bu holatda tamagirlik niyatida odam o‘ldirish va bosqinchilik jinoyatlarining majmui yuzaga keladi (O‘zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismining «i» bandi va JK 164-moddasi).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorida ham qayd etilishicha, bosqinchilik yoki tovlamachilik bilan bog‘liq holda qasddan odam o‘ldirish harakatlari JK 97-moddasi 2-qismining «i» bandi hamda Jinoyat kodeksining bosqinchilik va tovlamachilik uchun javobgarlik belgilovchi moddalariga asosan kvalifikatsiya qilinadi.

Agar aybdorda moddiy naf ko‘rish maqsadi qotillik sodir etilganidan keyin paydo bo‘lgan bo‘lsa, qilмиш JK 97-moddasining tegishli qismi bilan hamda Jinoyat kodeksining boshqa shaxsning mulkini talon-toroj qilish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalariga binoan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Masalan, I. Toshmatov Komilov bilan dastlabki janjal natijasida to‘qnashuv sodir etadi. Toshmatov Komilovni urib, u yiqilib, vafot etguncha uradi. Yiqilish paytida Komilovning sumkasida pul bor edi. Toshmatov o‘ldirishni amalga oshirgach, sumkani ko‘rib qoladi va o‘ziga oladi. Dastlab Toshmatovning harakatlari tamagirlik niyatida qotillik va bosqinchilik harakati sifatida noto‘g‘ri kvalifikatsiya qilingan.

Keyinchalik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Toshmatovning harakatlarini mushlashish jarayonida sodir etilgan odam o‘ldirish (JK 97-moddasi 1-qismi) va o‘g‘irlik (JK 169-moddasi) sifatida to‘g‘ri kvalifikatsiya qilgan, chunki Komilovning o‘limiga qadar Toshmatovda mol-mulkni egallash niyati bo‘lmagan, bu niyat faqat jabrla-nuvchining o‘limidan keyin paydo bo‘lgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, tamagirlik niyatida qasddan odam o‘ldirish aybdor moddiy qimmatliklarni olgan yoki olmaganidan qat’i nazar, vafot bo‘lgan paytdan e’tiboran tamom bo‘lgan jinoyat sifatida hisoblanadi.

Agar qasddan odam o‘ldirish mulkiy xarakterdagi janjal natijasida yuzaga kelsa, aybdorning qilishi tamagirlik niyatida qasddan odam o‘ldirish sifatida baholanishi mumkin emas. Bunday holatda jinoyatning motivi o‘zaro kelishmovchilik yoki shaxsiy qasd bo‘lishi mumkin. Shuningdek, qasddan odam o‘ldirish shaxsiy mulkni himoya qilish oqibatida sodir etilgan bo‘lsa, qilmishni JK 97-moddasi 2-qismi «i» bandi bilan kvali-fikatsiya qilib bo‘lmaydi.

Tamagirlik niyatida qasddan odam o‘ldirish to‘g‘ri yoki egri qasddan sodir etilishi mumkin. Masalan, qarzdor pul egasiga qarzdan voz kechishi uchun azob berayotgan vaqtda qilmishining ijtimoiy xavfliligini biladi, shaxsning o‘lishi mumkinligini ko‘radi, lekin bunga qarshi chiqmaydi.

Moddiy rag‘bat evaziga qasddan odam o‘ldirish (buyurtma qotillik) ham tamagirlik niyatida qasddan odam o‘ldirish hisoblanadi. Bunday holatda tamagirlik niyatida qasddan odam o‘ldirish ishtirokchilarning javobgarlik chegaralari o‘ziga xos bo‘ladi. Buyurtmachi yoki tashkilotchi harakatlari u qaysi sabablar bilan amalga oshirilganiga qarab JK 28 va 97-moddasi tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Moddiy bo‘lmagan rag‘bat evaziga (masalan, qotilni yoki uning yaqin qarindoshini ishga yoki o‘qishga joylashtirishga va’da berish, shaxsiy xizmat ko‘rsatish, jinoyat javobgarligidan ozod qilish va hokazo) qasddan odam o‘ldirish JK 97-moddasi 2-qismi «i» bandi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi; boshqa og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lmasa, qilmishni JK 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilish mumkin.

Ko‘p hollarda tamagirlik niyatida qasddan odam o‘ldirish bosqinchilik jinoyati sodir etish vaqtida amalga oshiriladi. Shu bois, agar qotillik:

1. *Birinchidan,* hujum qilish yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa;

2. *Ikkinchidan,* boshqa shaxsning mulkiga egalik qilish maqsadida amalga oshirilgan bo‘lsa;

3. *Uchinchi,* mulkka egalik qilish qotillik paytida yoki bevosita undan keyin amalga oshirilgan bo‘lsa, bu holatda jinoyatlar majmui – qasddan odam o‘ldirish va bosqinchilik jinoyatlari bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak (JK 97-moddasi 2-qismi «i» bandi va 164-moddasi bilan).

Tamagirlik niyatida qasddan odam o‘ldirish tovlamachilik (JK 165-moddasi) bilan jinoyatlar majmui ko‘rinishida ham bo‘lishi mumkin.

QASDDAN ODAM O‘LDIRISH JINOYATLARI BO‘YICHA KAZUSLAR

1-kazus. Oddiy qasddan odam o‘ldirish (JK 97-modda 1-qism)

A. va B. o‘rtasida uzoq vaqtdan beri shaxsiy adovat mavjud edi. Kunlarning birida ular ko‘chada uchrashib qolishdi va og‘zaki tortishuv janjalga aylandi. A. janjal paytida B.ni bir necha marta pichoq bilan urib, voqea joyidan qochib ketdi. Jabrlanuvchi shifoxonaga yetkazilganiga qaramay, olgan jarohatlari oqibatida vafot etdi. A.ning harakatlarida oldindan rejalashtirilgan og‘irlashtiruvchi holatlar aniqlanmadi.

Savol: A.ning qilmishi qaysi modda bilan kvalifikatsiya qilinadi?

2-kazus. O‘ta shafqatsizlik bilan odam o‘ldirish (JK 97-modda 2-qism «j» bandi)

C. D.ga nisbatan adovatda bo‘lib, uni jazolash niyatida harakat qiladi. C. D.ni yopiq joyga olib borib, uzoq vaqt davomida qasddan qiynaydi, tanasining turli qismlariga og‘ir jarohatlar yetkazadi. D. ko‘p azob-uqubatlardan so‘ng vafot etadi. Ekspertiza o‘limdan oldin jabrlanuvchi kuchli jismoniy va ruhiy azob chekkanini tasdiqlaydi.

Savol: Ushbu holatda jinoyat qanday kvalifikatsiya qilinadi?

3-kazus. Tamagirlik niyatida qasddan odam o‘ldirish (JK 97-modda 2-qism «i» bandi)

E. boy tadbirkor F.ning katta miqdordagi mulkiga ega bo‘lishni rejalashtiradi. U F.ni tun vaqtida ataylab chaqirib, oldindan tayyorlangan

qurol yordamida o‘ldiradi. Shundan so‘ng F.ga tegishli hujjatlar va qimmatbaho buyumlarni olib, voqea joyini tark etadi.

Savol: E.ning harakatlari qaysi jinoyatlar majmui sifatida baholanadi?

4-kazus. Tamagirlik niyati keyin paydo bo‘lgan holat

G. va H. o‘rtasida maishiy janjal kelib chiqadi. Janjal vaqtida G. H.ni urib yuboradi, natijada H. yiqilib, boshidan olgan zarba sabab vafot etadi. H.ning o‘limidan keyin G. uning cho‘ntagida pul borligini ko‘rib, pullarni olib qo‘yadi.

Savol: G.ning qilmishini tamagirlik niyatida odam o‘ldirish deb baholash mumkinmi?

5-kazus. Nomusga tegish bilan bog‘liq qasddan odam o‘ldirish (JK 97-modda 2-qism «z» bandi)

I. voyaga yetmagan jabrlanuvchiga nisbatan nomusga tegishga uradi. Jabrlanuvchi faol qarshilik ko‘rsatadi. I. qarshilikni bartaraf etish va jinoyatni yashirish maqsadida jabrlanuvchini bo‘g‘ib o‘ldiradi.

Savol: I.ning harakatlari qaysi moddalar bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi?

6-kazus. Zaruriy mudofaa chegarasidan chiqish

J.ga K. tomonidan pichoq bilan hujum qilinadi. J. o‘zini himoya qilish maqsadida K.ni itarib yuboradi, ammo keyinchalik xavf bartaraf etilgan bo‘lsa-da, K.ga bir necha bor og‘ir zarbalar yetkazadi. K. shifoxonada vafot etadi.

Savol: J.ning qilmishi JK 97-modda 2-qism «j» bandi bilan baholanadimi?

IQTISODIY JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA ULARNING OLDINI OLISH

«Iqtisodiy jinoyatchilik» (yoki iqtisodiyot sohasiga oid jinoyatlar) atamasi «uyushgan jinoyatchilik» va «jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish» tushunchalari bilan birga, kriminologiya va huquqni muhofaza qilish tizimidagi faoliyatda keng qo‘llaniladigan atamalardan hisoblanadi.

Iqtisodiy jinoyatchilikning turli ta’riflari mavjud bo‘lsa-da, u jamoatchilik orasida birinchi bor «oq yoqalilar jinoyatchiligi» nomi bilan tanilgan. Bu atama muallifi – amerikalik kriminolog E. Saderlenddir. 1940-yilda u yuqori lavozimli shaxslarning o‘z kasbiy majburiyatlari doirasida ularga ishonilgan vakolatlarni suiiste’mol qilgan holdagi jinoyatlar majmuasini «oq yoqalilar jinoyatchiligi» deb atagan.

Ikkinchi jahon urushi davrida M. Klaynard ushbu masalani chuqur o‘rganib, jinoyatlar oqibatida iste’molchilar va soliq to‘lovchilarga katta zarar yetganligini aniqladi (1952). Keyinchalik esa, Skott korxona rahbarlarining o‘z ishchilarining ijtimoiy huquqlarini buzgan jinoiy harakatlarini tadqiq qildi (1974). M. Klaynard va P. Yiger 1980 yilda 582 ta yirik korxonada xo‘jalik sohasida yuzaga kelgan jinoyatlarni tahlil qilib, 1975–1976 yillarda korxona egalari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar natijasida ayrim jinoyatchilar tomonidan hayotga qarshi qilgan jinoyatlar qurbonlaridan ko‘proq odam halok bo‘lganini aniqlashdi. Shuningdek, mashhur amerikalik kriminologlar R. Klark va E. Shchur ham o‘z tadqiqotlarida iqtisodiy jinoyatchilik muammolarini ko‘rib chiqdilar. G. Kayzer va G. Matsir-Brepsher esa korxona va korporatsiyalardagi jinoyatchilikni o‘rganib, jinoyatlarning 84 foizi mulkka qarshi jinoyatlardan iborat ekanligini aniqlashdi (1976). Shvetsiyalik taniqli kriminolog B. Svensson iqtisodiy jinoyatlarni xo‘jalik faoliyati doirasida sodir etiladigan, asosan ta’magirlik xususiyatiga ega bo‘lgan jinoyatlar deb ta’riflagan (1986).

So‘nggi yillarda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi natijasida tahlil qilinayotgan jinoyat turlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Yangi mulk shakllarining paydo bo‘lishi, iqtisodiyotning bozor munosabatlari asosida ғaoliyat yuritishi hamda jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi undagi kriminal holatlarning murakkablashishiga olib keldi. Iqtisodiy jinoyatchilik – bu kriminallashgan iqtisodiy munosabatlarning mantiqiy davomidir.

Kriminolog olimlarning ta’kidlashicha, iqtisodiy jinoyatchilik – xo‘jalik ғaoliyatida ishlatilayotgan mulkka zarar yetkazish niyatida sodir etiladigan hujumlar, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish qoidalarini buzish, shuningdek ғuqarolarning iqtisodiy huquqlarini poymol qilish kabi jinoiy harakatlar majmuasidir; bu harakatlar iqtisodiy munosabatlar tizimida ma’lum vaziғalarni bajaradigan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Amaliyotda iqtisodiy jinoyatchilik – Jinoyat kodeksida ko‘rsatilgan bir necha o‘nlab jinoyat turlarining murakkab yig‘indisi siғatida namoyon bo‘ladi. Bular qatoriga boshqalarning mulkini talon-toroj qilish, valuta boyliklari bilan noqonuniy shartnomalar tuzish, qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlar tayyorlash va ularni aylanmasiga kiritish, daromadlarni soliq organlaridan yashirish, noqonuniy tadbirkorlik, kontrabanda va shunga o‘xshash boshqa jinoyatlar kiradi.

Ba’zi mutaxassislar iqtisodiy jinoyatlar doirasiga mansabdor shaxslarning ta’magirlik maqsadidagi jinoyatlarini, xususan poraxo‘rlikni ham kiritadi. Shu bois, iqtisodiy jinoyatchilik ijtimoiy xavғ darajasi yuqori bo‘lib, jamiyat institutlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va davlatning asosiy moddiy poydevori bo‘lgan iqtisodiy ғaoliyatning belgilangan tartibining buzilishida namoyon bo‘ladi.

U quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi:

1. Iqtisodiy jinoyatlarning yashirinligi juda yuqori darajada bo‘ladi. Ko‘pchilik jinoyatlar, odatda ғuqarolar yoki mansabdor shaxslarning arizalari asosida aniqlanmaydi. Bu turdagi jinoyatlar ko‘pincha mol-mulkni boshqarish, saqlash va nazorat qilish vakolatiga ega shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Biroq, ayrim iqtisodiy jinoyatlar,

masalan bank kreditlarini olishda ғiribgarlik kabi, latentlik darajasi nisbatan past bo‘lishi mumkin. Shuningdek, qalbaki pul tayyorlash kabi jiddiy jinoyatlarning yashirinlik darajasi haqida ham shunga o‘xshash gapirish mumkin.

2. Iqtisodiy jinoyatlar jamiyatga sezilarli darajada katta zarar yetkazadi.

3. Iqtisodiy jinoyatchilik ko‘pchilik aholining turmush tarziga aylanib, yarim jinoiy mentalitetning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Masalan, Rossiyada 10 milliondan ortiq odam chetdan mol import qilib, uni sotish bilan shug‘ullanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ular deyarli hammasi belgilangan boj to‘lovlarini amalga oshirmaydi va daromadlarini soliq organlaridan yashiradi.

4. Iqtisodiy jinoyatchilik o‘z mohiyatiga ko‘ra, to‘la uyushgan xarakterga ega. Ko‘pgina xorijiy davlatlarda uyushgan jinoyatchilik asosan qimor o‘yinlari, giyohvand moddalar va qurol-yaroq savdosi, tovlamachilik kabi jinoiy daromad manbalarini nazorat qiladi. Biroq, ba’zi mamlakatlarda (masalan, Rossiyada) u butun iqtisodiyotning boshqaruviga ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiyotning normativ asoslari turli huquqiy normalardan tashkil topgan bo‘lib, ularga konstitutsiyaviy, ғuqarolik-huquqiy, ma’muriy huquq va xo‘jalik huquqi normalari kiradi. Shuning uchun iqtisodiy jinoyatlar masalasini o‘rganish va ularning oldini olish muammosi jinoyat huquqi qoidalarini iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan ijtimoiy jarayonlar va iqtisodiyotning normativ asoslari bilan bog‘lab tahlil qilishni talab qiladi.

Iqtisodiy jinoyatlarning sabablari va ularni yuzaga keltiruvchi omillar

Iqtisodiyot sohasida sodir etiladigan ta’magirlik jinoyatlarining sabablari ham obyektiv, ham subyektiv omillar bilan belgilanadi. Iqtisodiy munosabatlarning ziddiyatli va salbiy tomonlari jinoyatchilikning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Iqtisodiy jinoyatchilikning makrodarajada mavjudligini ta’minlaydigan, shuningdek tashkiliy-xo‘jalik ғaoliyatining

ma’lum bir sohasida jinoyat sodir etilishiga bevosita ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash mazkur jinoyat turini chuqurroq tushunish uchun katta ahamiyatga ega.

Kriminologik tadqiqotlar bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida ishlab chiqarishning yangi shakllari va iqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshiruvchi tashkiliy-xo‘jalik qarorlar o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar yuzaga kelganini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy jinoyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin: tashkiliy-xo‘jalik va ijtimoiy-psixologik omillar. Birinchi guruhga iqtisodiy siyosatdagi kamchiliklar, yetarli nazorat tizimining mavjud emasligi, huquqiy ijodkorlik ғaoliyatining xo‘jalik amaliyotining talablariga javob bermasligi va shunga o‘xshash omillar kiradi.

Quyidagi sabablar esa bevosita ma’lum jinoyatlar bilan bog‘liq: hisob-kitob va hisobot tizimining yetishmasligi, rahbar tomonidan doimiy nazoratning olib borilmasligi, moddiy mas’uliyatga aloqador lavozimlarga malakali shaxslarning tanlanmasligi va hokazo.

Ikkinchi guruhga esa huquqiy tarbiya sohasidagi yetishmovchiliklar, aholi, xususan o‘rta boshqaruv bo‘g‘ini xo‘jalik sohasidagi murakkab vaziғalarni yangi iqtisodiy maғkura asosida hal qilishga tayyor emasligi kiradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan omillar toiғalari iqtisodiy jinoyatchilik darajasi va rivojlanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, narx belgilash mexanizmi va soliq siyosatidagi kamchiliklar muhim rol o‘ynaydi. O‘tish davrida iqtisodiy siyosatdagi nuqsonlar iqtisodiy islohotlarning ayrim yo‘nalishlarida kriminogen zo‘riqish markazlarini yuzaga keltiruvchi asosiy sabablar sirasiga kiradi.

Davlatning iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishdan chetlatilishi hamda huquqiy tartibga solishning keng ruxsat beruvchi usullarining joriy etilishi iqtisodiy vaziyatning beqarorlashishiga olib keldi. Narxlarning erkinlashuvi, pul massasining o‘zgarishi, ғoiz va soliq stavkalarida

manipulyatsiyalar davlat iqtisodiy siyosatini qayta ko‘rib chiqishni zarur qildi.

Noiqtisodiy majburlov va ma’muriy tartibga solish vositalarining bekor qilinishi natijasida xo‘jasizlik iqtisodiy jinoyatchilikning ta’sirini yanada oshirdi. Sotsialistik ishlab chiqarish usuli bilan bog‘liq bo‘lgan xo‘jasizlik bozor mexanizmlari joriy qilinishi evaziga yo‘qolmay, faqat shaklini o‘zgartirdi. Xo‘jasizlikning kriminogen darajasini kamaytirish uchun davlat mulkini xususiylashtirish bilan bog‘liq uzoq davom etadigan jarayonlar, ya’ni iqtisodiyotdagi davlat mulkining amaldagi ta’sirini o‘zgartirish zarurati mavjud. Iqtisodiy jinoyatchilikning tabiati va darajasiga xo‘jalik mexanizmidagi boshqa nuqsonlar, masalan ishlab chiqarish aloqalarining uzilishi yoki «xo‘jalik separatizmi» kabi hodisalar ham bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Davlat nazorati amaldagi tizimdagi kamchiliklar aniqlanmaganligi sababli yashirin iqtisodiy jinoyatlar keng tarqalishiga imkon yaratmoqda. Shu bois, bozor iqtisodiyoti talablariga mos yangi nazorat tizimi asosida nazorat obyektlarini mulk shakliga qarab nodavlat, jamoat, auditorlik (mustaqil, pullik), idoraviy hamda ichki (ichki xo‘jalik) turlarga ajratish nazarda tutilgan.

Iqtisodiy jinoyatlar sodir bo‘lishida korxona ichidagi holat ham muhim omil hisoblanadi. Bunday omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Korxona mulkini yetarlicha muhofaza qilmaslik, obyekt ichidagi tartib-qoidalar buzilishi va moddiy boyliklarni olib chiqib ketishga imkon berilishi.
2. Hisob-kitob yuritmaslik, tafrtish va inventarizatsiya o‘tkazish tartibi hamda muddatlarining buzilishi.
3. Moddiy javobgarlik bilan bog‘liq lavozimlarga ilgari ta’magirlik jinoyatlarida ayblangan yoki noqonuniy harakatlarga moyil bo‘lgan shaxslarning tayinlanishi.
4. Jamoa a’zolarining huquqiy tarbiyasidagi kamchiliklar.
5. Aybdor atrofidagi odamlarning past axloqiy saviyasi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki ishlar organlarining iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash bo‘linmalarida tezkor qidiruv ishlarining samaradorligi kamayib bormoqda.

Iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar sud va tergov amaliyotida jinoyatning ғaktik tomonini baholash hamda yuridik tavsiғlashda xatolarga olib kelmoqda. Ruxsat etilgan va jinoyat harakatlari chegaralari o‘zgarib, xo‘jalik tavakkalchiligi kabi tushunchalarning mazmuni esa hali aniq shakllanmagan. Mulkiy munosabatlardagi o‘zgarishlar esa iqtisodiyotdagi noqonuniy harakatlar yuzasidan nodavlat tashkilotlarga nisbatan jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish uchun yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda.

Muqobil iqtisodiyot paydo bo‘lishi ijtimoiy xavғli xulq-atvorning ilgari noma’lum shakllarining tez sur’atda ko‘payishiga sabab bo‘ldi, bu esa o‘z navbatida iqtisodiyotning beqarorlashuviga olib kelmoqda. Ba’zi qilmishlar iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda uzoq yillardan beri mavjud bo‘lsa, boshqalar ayni o‘tish davriga xosdir. Masalan, soxta bankrotlik holatlari, ro‘yxatga olish hujjatlaridagi ma’lumotlarni ataylab buzib ko‘rsatish, bozordagi monopolistik mavqeni suiiste’mol qilish kabi qilmishlarni kiritish mumkin. Ijtimoiy ong hozirgi iqtisodiy o‘zgarishlarga yetarlicha moslashmagan.

Jamiyatning ma’naviy-psixologik birdamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan yana bir omil – odamlar uchun munosib yashash sharoitini yaratishga qodir bo‘lgan iqtisodiyotni tiklashdagi tadbirkorning roli va ahamiyati haqidagi noto‘g‘ri tushunchalardir.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning oldini olish

Kriminologiya fanining nuqtayi nazaridan, jinoyatlarning oldini olish iqtisodiy ғaoliyat sohasida jinoyatchilikning yuzaga kelishi va rivojlanishiga sabab bo‘luvchi, shuningdek ma’lum iqtisodiy jinoyatlarning sodir bo‘lishiga imkon yaratadigan sharoitlarni bartaraғ etish yoki yo‘q qilish orqali amalga oshiriladi. Bunday proғilaktika tadbirlari turli darajalarda, xususan mahalliy va mintaqaviy miqyosda, shuningdek ayrim korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda qo‘llanilishi

mumkin. Kriminologiyada proғilaktika choralari umumiy (jamiyatga oid) va maxsus turlariga ajratiladi.

Iqtisodiy jinoyatchilikning umumiy jamiyat proғilaktikasi iqtisodiyot va jamiyat hayotining ijtimoiy hamda boshqa jabhalaridagi ziddiyatlarni bartaraғ etishga qaratilgan. Bu esa jamiyat oldida turgan asosiy muammolarni hal qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Hozirgi ijtimoiy rivojlanish bosqichida bunday vaziғalarga sanoat hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining pasayishini to‘xtatish, so‘ngra uni bosqichma-bosqich oshirish, inғlyatsiyani yo‘qotish, bozor iqtisodiyotining inғratuzilmasini yaratish hamda halol, adolatli raqobatni ta’minlash kiradi.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning oldini olishga yo‘naltirilgan maxsus proғilaktika choralarini amalga oshirish subyektlari siғatida birinchi navbatda tadbirkorlar, korxonalarning rahbarlari hamda iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etuvchi boshqa tomonlar – mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari, ichki xo‘jalik va auditorlik xizmatlari, davlat nazorati vakillari, shuningdek huquqni muhoғaza qilish organlari, vakillik va ijro etuvchi hokimiyat hamda mahalliy boshqaruv organlari vakillari ko‘rsatiladi.

Iqtisodiy jinoyatchilikni oldini olishda tadbirkorlik subyektlarining xo‘jalik ғaoliyati sohasida nazorat ғunksiyalarini bajaruvchi davlat va nodavlat tashkilotlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu tashkilotlarning ayrimlari O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda qabul qilingan qonunlarga muvoғiq tashkil etilgan.

Davlat soliq qo‘mitasi muhim vaziғalardan biri siғatida soliq qonunlariga to‘liq rioya qilinishini ta’minlash, soliqlarni aniq va to‘g‘ri hisoblash hamda davlat soliqlari hamda boshqa majburiy to‘lovlarning tegishli budjetlarga o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilishini nazorat qilishni amalga oshiradi. Iqtisodiyot sohasida jinoyatlarning oldini olish ijtimoiy boshqaruvning ajralmas qismi bo‘lib, bu jarayon jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni tuzatish va jinoyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillarga barham berishni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga, bu jarayon

iqtisodiy, tashkiliy va ishlab chiqarish, texnik, huquqiy hamda tarbiyaviy choralarni o‘z ichiga olgan tizimli ishlarni bajarishni talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy choralar jinoyatlar turining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Ular tadbirkorlik ғaoliyatini rivojlantirish, iqtisodiy munosabatlarda shaxslarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratishni, shuningdek davlat va xususiy sektorlarda tadbirkorlikning teng huquqli himoyasini ta’minlash hamda zarur bozor inғratuzilmasini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. O‘zini o‘zi moliyalashtirish va boshqarish asosida iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda demokratik tamoyillarni joriy etish umumiy ravishda ogohlantiruvchi va muhim ahamiyatga ega.

Boshqaruv tizimini yaxshilash, mansabdor shaxslar va xodimlarning vakolatlarini muvozanatlash, shuningdek mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlariga qarshi sud orqali shikoyat qilish huquqini ta’minlash choralari kuchli oldini olish vositasi hisoblanadi.

Sanoatni texnik jihatdan modernizatsiyalash, zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo‘llash orqali ғaol rivojlanish bosqichiga o‘tish, shuningdek eskirgan ma’naviy va jismoniy uskunalarni yangilash tadbirlari xo‘jalik jinoyatlarining oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlarning rahbarlari hamda boshqa mansabdor shaxslar, ularning ishchi jamoalari, xo‘jalik boshqaruv organlari, shuningdek davlat, auditorlik va ichki nazorat vakillari iqtisodiy jinoyatlarga qarshi proғilaktika ishlarini amalga oshiruvchi asosiy subyektlar hisoblanadi. Yangi xo‘jalik sharoitlarida korxonalarni kompleks rivojlantirish va tabiiy resurslarni samarali boshqarish masalalarini hal qiluvchi vakillik organlari hamda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining oldini olish ғaoliyati katta ahamiyatga ega.

Ogohlantirish choralari haqida so‘z yuritilganda quyidagilar alohida ta’kidlanadi:

1. Iqtisodiy choralar bozor iqtisodiyotiga o‘tish konsepsiyasi va iqtisodiy siyosatning muayyan yo‘nalishlariga oid maxsus davlat

dasturlari doirasida amalga oshiriladi. Bunga tadbirkorlik, xususan kichik biznesni rivojlantirish dasturi, davlat korxonalarini xususiylashtirish dasturi, monopoliyaga qarshi kurashish va adolatli raqobatni ta’minlash dasturi, bank tizimini isloh qilish, ishlab chiqarish vositalari va ulgurji savdo uchun (masalan, tovar-xomashyo birjalari), qimmatli qog‘ozlar bozori (ғond birjalari), shuningdek axborot, maslahat va vositachilik xizmatlarini rivojlantirish dasturlari kiradi.

Iqtisodiy choralar doirasida davlat tomonidan kaғolatlangan mehnat jamoalari va mulkdorlarning operativ-xo‘jalik ғaoliyatiga aralashmasligi, shuningdek davlat oldidagi majburiyatlar to‘liq bajarilgandan keyin olingan daromad (ғoyda) ustidan erkin ғoydalanish imkoniyatini yaratish muhim ahamiyatga ega. Qonunchiligimizda birinchi marta mulkdorga davlatning noqonuniy aralashuvi natijasida yetkazilgan zararlarni undirish huquqi berilgan. Shuningdek, xo‘jalik ғaoliyatini ғaol olib borishdan kelib chiqadigan shaxsiy manғaatdorlik xo‘jalikning turli shakllaridagi kriminogen ta’sirlarni kamaytirishga yordam bermoqda.

Tashqi iqtisodiy ғaoliyatni tartibga solish, shartnoma majburiyatlarini bajarish hamda davlat buyurtmalarini amalga oshirish uchun tashqi iqtisodiy operatsiyalarni boshqarish mexanizmini yaratish, shuningdek ayrim ғaoliyat turlarini litsenziyalashda imtiyozli tartibni joriy etish, albatta iqtisodiy jinoyatchilik darajasini kamaytirishga katta hissa qo‘shadi.

2. Iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish uchun tashkiliy choralar tadbirkorlikni tartibga solish tizimini barpo etishga va jamiyatni ushbu sohadagi huquqbuzarliklardan himoya qilishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalishga xo‘jalik moliya nazorati organlari xodimlarini kasbiy tayyorlash, narxlar nazoratini ta’minlash, mahsulot siғati ustidan maxsus monitoring o‘rnatish, iste’molchilar huquqlarini himoya qiluvchi jamoat tashkilotlari ғaoliyati uchun qulay muhit yaratish kabi chora-tadbirlar kiradi.

Davlatga tegishli korxona va tashkilotlarning ayrim ғaoliyat turlaridan qonun bilan taqiq qo‘yilishi maxsus ogohlantirish choralaridan

hisoblanadi. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashda nazorat organlarining ish ғaoliyatini rivojlantirish, shuningdek ularni iqtisodiy rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribasiga tayangan holda tergov organi vakolatlari bilan ta’minlash proғilaktika nuqtayi nazaridan yaxshi natijalar bera oladi.

Nazorat organlarining iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda qonuniylikni ta’minlashga qaratilgan ғaoliyatini muvoғiqlashtirish, iqtisodiy qarorlarning salbiy oqibatlarini bartaraғ etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ilg‘or tajribani keng targ‘ib etish muhim proғilaktika vositalaridan hisoblanadi. Tovar va moddiy boyliklarni hisobga olish hamda nazorat qilishning zamonaviy usullari, shuningdek jahon iqtisodiy aloqalariga integratsiyalashuvga qaratilgan chora-tadbirlar iqtisodiy jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha texnik chora-tadbirlar tovar va xomashyoni tashish uchun yanada mukammal vositalar yaratish, muhim xomashyo va tovar zaxiralarini joylashtirish hamda saqlash joylariga ishonchli uskunalarni o‘rnatish, qalbaki hujjatlarni aniqlash usullarini ishlab chiqish va soxtalashtirilgan mahsulotlarni tezkor aniqlash usullarini joriy etishga qaratilgan. Shuningdek, sanoatni texnik jihatdan qayta jihozlash, ilm-ғan va texnika yutuqlariga tayangan holda chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini tatbiq etish ham iqtisodiy jinoyatlarga qarshi samarali proғilaktika hisoblanadi.

4. Huquqiy choralar iqtisodiyotdagi noqonuniy xatti-harakatlarni oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bugungi sharoitda bu omil alohida e’tiborga loyiq, chunki huquqni ta’minlash mexanizmi iqtisodiy ғaoliyatdan orqada qolmoqda. Iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda aniqlangan kamchiliklarni inobatga olgan holda, qonunchilikni takomillashtirish quyidagi jihatlarni o‘z ichiga olishi zarur:

- bozorda barcha xo‘jalik sub’ektlari uchun majburiy xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqish;
- xo‘jalik qonunchiligini buzgan, iste’molchilar manғaatlariga zarar yetkazgan yuridik va jismoniy shaxslarni moddiy javobgarlikka tortish mexanizmini yaratish;

• insoғsiz raqobatning turli shakllari uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlikni joriy etish.

Iqtisodiy islohotlarning muvaғғaqiyati, asosan ilgari amalda bo‘lgan va islohot maqsadlariga zid bo‘lmagan huquqiy qoidalarni yangi qabul qilingan qoidalar bilan moslashtirishga bog‘liq. Shuningdek, iqtisodiy xatti-harakatlarning sudxo‘rlik, soxta tadbirkorlik, soxta bankrotlik, daromadlarni yashirish kabi xavғli shakllari uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlikni joriy qilish ham kuchli ogohlantiruvchi ta’sirga ega.

Qonun yaratish jarayonini takomillashtirish iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga qarshi proғilaktikani kuchaytirishga xizmat qiladi. Qonunlarning bajarilmasligi ko‘pincha ularning noaniqligi va qabul qilingan qarorlarning salbiy oqibatlarni bartaraғ eta olmasligi bilan bog‘liq. Shuning uchun, qabul qilinayotgan qonun loyihalariga mustaqil ekspertiza o‘tkazish zarurati tug‘iladi. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashda huquqni qo‘llash amaliyotini yaxshilash choralarining ham katta o‘rni bor. Xo‘jalik sudlari va prokuraturaning umumiy nazorati bu borada alohida ahamiyatga ega. Ushbu organlar huquqbuzarlikning dastlabki bosqichlarida qonunga hurmatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun samarali choralar ko‘rishga qodir.

6. Tarbiyaviy choralar mustabidlik davridan qolgan boqimandalik ruhidan qutulishga, shuningdek tashabbuskorlik va tadbirkorlik siғatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadbirkorlik naғaqat alohida ғaoliyat turi, balki ijtimoiy hodisa siғatida ham ma’lum tarixiy va ijtimoiy sharoitlarda qayta tiklanmoqda. Shunday ekan, ijtimoiy ongda jamiyatni birlashtirish va odamlar uchun munosib yashash sharoitlarini yaratishga qodir, samarali iqtisodiy tizimga asoslangan jamiyat qurish g‘oyasini yuksaltirish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

SOLIQ JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI VA UNING KRIMINOLOGIK TAVSIҒI

Soliq jinoyatchiligi tushunchasi va uning kriminologik tavsiғi

«Soliq jinoyatchiligi» atamasi soliq solish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar majmuasini iғodalaydi. Amaldagi qonun hujjatlariga ko‘ra, soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar deganda, soliq to‘lovchilar tomonidan belgilangan tartibda tegishli darajadagi budjet yoki budjetdan tashqari ғondlarga to‘lanadigan majburiy badallar tushuniladi. Soliqning asosiy mohiyati – yalpi ichki mahsulotning ma’lum qismini davlat tomonidan majburiy badal siғatida o‘z ғoydasiga olishdir.

Belgilangan tartib asosida undiriladigan barcha soliqlar yig‘indisi soliq tizimini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi soliq tizimi 15 dan ortiq turli soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z ichiga oladi. Ular ikki asosiy guruhga bo‘linadi: umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlar hamda yig‘imlar. Budjetga tushadigan soliq tushumlarining asosiy qismini qo‘shilgan qiymat solig‘i, yuridik shaxslardan olinadigan daromad (ғoyda) solig‘i, aksiz solig‘i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan boshqa shaxslar soliq to‘lovchi yoki soliq subyektlari siғatida tan olinadi. Ular orasida korxonalar va tashkilotlar, jumladan O‘zbekiston hududida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, tadbirkorlik ғaoliyati bilan shug‘ullanuvchi xalqaro birlashmalar va tashkilotlar, shuningdek alohida balans va hisobvaraqqa ega moliyaviy hamda boshqa o‘xshash korxonalar va ularning bo‘linmalari kiradi.

Soliq to‘lovchilar belgilangan tartib va muddatlarda soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tishi, soliqlar va yig‘imlarning belgilangan miqdorini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lashi, shuningdek buxgalteriya hisobini va hisob hujjatlarini qonun talablariga muvoғiq yuritishi, moliyaviy hisobotlar,

soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblar yoki daromad deklaratsiyalarini qonunda belgilangan tartibda soliq organlariga taqdim etishi majburiydir.

Soliq tizimi shakllanayotgan bir paytda soliq jinoyatlarining soni ortib borayotgani kuzatilmoqda. Mutaxassislarning ғikricha, soliq to‘lovdan qochish sababli har yili davlat budjetiga tushadigan soliq tushumlarining taxminan yarmi yetib kelmayapdi.

Soliq jinoyatlarining o‘sish sur’atlarini tahlil qilish ularning tez sur’atlarda ko‘payayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ro‘yxatga olingan jinoyatlar sonining oshishi qisman soliq xizmatining takomillashishi va ғaoliyatining kuchayishi bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlash lozim.

Soliq jinoyatchiligining dinamikasi

Soliq jinoyatchiligining tarkibini ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, soliq yoki boshqa to‘lovlardan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq jinoyatlar ulushi sezilarli darajada katta ekanini ko‘ramiz. Bu esa, turli sabablarga ko‘ra davlat budjetiga soliq to‘lashdan bosh tortayotgan mulkdorlar sonining oshib borayotganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, mavjud statistika soliq jinoyatchiligi haqidagi haqiqiy holatni to‘liq aks ettirmaydi. Bu jinoyatlar ko‘pincha yashirinlik darajasi yuqori bo‘lishi bilan ajralib turadi. Soliq xizmatining mutaxassislari ғikricha, jinoyatlarning katta qismi aniqlanmay qoladi va ularning soni yanada oshishi mumkin.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, soliq sohasidagi jinoyatlar asosan daromad solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibini buzish bilan bog‘liq bo‘lib, ular jami soliq jinoyatlarining 43 ғoizini tashkil qiladi. Shu bilan birga, qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va to‘lash qoidalarini buzish 28,4 ғoizni, yo‘l ғondiga to‘lanadigan soliqlarni hisoblash va to‘lash tartibini buzish 6,7 ғoizni, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlarni hisoblash va to‘lash tartibini buzish 3,7 ғoizni hamda aksiz solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibini buzish 1,2 ғoiz ulushni tashkil qiladi. Soliq jinoyatlari mulk shakliga qaramay, turli korxonalarda sodir etiladi. Biroq

ta’kidlash kerakki, soliq jinoyatlarining taxminan 80 ғoizi xususiy mulkka asoslangan korxonalarda aniqlanadi.

Soliq sohasida yuzaga kelayotgan huquqbuzarliklar, jumladan jinoiy bo‘lmagan harakatlar ham soliq jinoyatlarining keng tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Xo‘jalik yurituvchi korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakllari bo‘yicha soliq jinoyatlari taqsimoti quyidagicha: aksiyadorlik jamiyatlari va mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 69,8 ғoiz, davlat va mahalliy (munisipal) korxonalar – 12,3 ғoiz, individual xususiy korxonalar esa 3,9 ғoizni tashkil qiladi.

Bu holat shundan dalolat beradi-ki, xususiy mulk shaklidagi korxonalarda boshqaruv va ichki nazorat huquqi odatda cheklangan shaxslar doirasida bo‘ladi. Bunday korxonalarda rahbarlik organlarini asosan amaldagi egalari boshqaradi va yetarlicha nazorat o‘rnatilmaydi. Soliq jinoyatlarining korxonalar ғaoliyat sohalari bo‘yicha taqsimlanishi ham e’tiborga molik: oziq-ovqat mahsulotlari savdosi bilan shug‘ullanuvchi korxonalar – 24 ғoiz, xalq iste’moli tovarlari savdosi bilan shug‘ullanuvchi korxonalar – 16 ғoiz, xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar – 12 ғoiz, moliya va kredit operatsiyalarini amalga oshiruvchi korxonalar – 9 ғoiz, ko‘chmas mulk savdosi bilan shug‘ullanuvchi korxonalar – 8 ғoiz, temirni qayta ishlash korxonalari – 8 ғoizni tashkil etadi.

Shunday qilib, soliq sohasidagi jinoyatlar asosan savdo tarmog‘ida sodir bo‘ladi. Soliq to‘lovchilar tomonidan jinoyatlarni amalga oshirishning aniqlangan usullari quyidagicha guruhlanadi:

1. Korxonaning moliya-hisob ғaoliyatiga oid operatsiyalarni buxgalteriya hujjatlarida to‘liq yoki qisman aks ettirmaslik.
2. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarni noto‘g‘ri ko‘rsatib, soliq solinadigan bazani sun’iy ravishda kamaytirish.
3. Soliq solish obyekti haqidagi ma’lumotlarni buzib ko‘rsatish – mahsulot realizatsiyasining qiymati yoki hajmini kamaytirib ko‘rsatish yoki soliq obyekti soxtalashtirish.

4. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar hisobini yuritish tartibini buzish va hisob-kitoblarni yetarli darajada olib bormaslik.

5. Moliya-xo‘jalik faoliyatini soliq nazoratidan chetlashtirish – masalan, soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tmaslik yoki soliq organlariga xabar bermay banklarda qo‘shimcha hisobvaraqlar ochish.

Soliq jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslarning kriminologik tavsifi ham e’tiborga loyiqdir. Ushbu shaxslarning kriminologik profili umumiy jinoyatchilik bilan shug‘ullanuvchilaridan sezilarli darajada farq qiladi. Har yuz jinoyatchidan 74 nafari erkak bo‘lib, bu holat korxonalarning rahbarlik pozitsiyalarida erkaklarning ko‘pchilik qilishiga bog‘liq. Soliq jinoyatlarini sodir etuvchi ayollar, asosan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni taqdim etish bo‘yicha lavozimlarda faoliyat ko‘rsatadi.

Soliq jinoyatlarini sodir etuvchilarning o‘rta yoshi nisbatan past bo‘lib, taxminan 38 yoshni tashkil qiladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, jinoyatlarning 20 foizi 21–30 yoshdagi shaxslar tomonidan, 36 foizi 31–40 yoshdagilar tomonidan, yana 36 foizi 41–50 yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etiladi; qolgan 8 foizi esa 51 yoshdan katta shaxslar zimmasida bo‘ladi.

Soliq sohasidagi jinoyatlar sodir etuvchilar ma’lumot darajasi bilan ajralib turadi. Ularning 58 foizi oliy yoki tugallanmagan oliy ta’limga ega, ba’zilari esa ilmiy darajaga ega; 22 foizi esa o‘rta maxsus ta’lim olgan. Bu holat tabiiydir, chunki buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni tayyorlash uchun tegishli mutaxassislik va malaka talab etiladi. Shuningdek, soliq jinoyatchilari orasida ilgari sudlanganlar ulushi 7 foizni tashkil etadi.

Soliq jinoyatlari ko‘pincha uyushgan shaklga ega bo‘lmaydi. Guruh sifatida sodir etilgan jinoyatlar umumiy soliq jinoyatlarining 10 foizidan kamini tashkil qiladi. Odatda, bunday guruhdagi shaxslar soni ikki nafardan oshmaydi va ular rahbar hamda bosh buxgalterdan iborat bo‘ladi. Ba’zan guruh tarkibiga rahbar o‘rinbosari, kassir, omborchi yoki mahsulot jo‘natish bilan shug‘ullanuvchi shaxslar ham kiritilishi mumkin.

Soliq jinoyatlari sodir etilishidagi asosiy maqsad – to‘lanishi kerak bo‘lgan soliqlarni kamaytirish yoki soliq to‘lashdan to‘liq bo‘yin tovlash, shuningdek yashirin mablag‘larni o‘zlashtirishdir.

Soliq jinoyatchilari ko‘pincha ta’magirlik bilan harakat qiladi, ammo ularning motivatsiyasida amalparastlik, o‘z korxonalarining mehnat jamoasining taqdiri haqida qayg‘urish, burchni noto‘g‘ri tushunish yoki boshqa sabablar ham uchrashi mumkin.

Soliq jinoyatchiligining sabablari va uni shakllantiruvchi shart-sharoitlar

Soliq jinoyatchiligining sabablari va uni shakllantiruvchi shart-sharoitlar umumiy jinoyatchilik jarayonlaridan farq qiladi. Jahon tajribasi ham ko‘rsatadiki, soliq jinoyatchiligi bozordagi munosabatlar, xususiy mulk va tadbirkorlik faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Xususiy mulkka asoslangan korxonalar sonining ko‘payishi bilan davlat va jamiyat manfaatlari hamda shaxsiy manfaatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar yanada kuchayib boradi. Soliqlar budjetga tushadigan asosiy daromad manbai hisoblanadi. Budjet xarajatlarining oshishi va inflyatsiya jarayonlari davlatni soliq yukini ko‘tarishga majbur qiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston islohotlar davrida ko‘pchilik korxonalar eskirgan texnika va uskunalardan foydalanib, aylanma mablag‘larning yetishmasligini boshdan kechirar, o‘z mahsulotlarini ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh qilib sotishda qiyinchiliklarga duch kelardi. Bu holatlar esa o‘zaro to‘lovlarning kechikishi va soliq to‘lash qobiliyatining pasayishiga olib kelardi.

Qonun hujjatlariga doimiy ravishda kiritilayotgan o‘zgartirishlar qo‘shimcha murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Turli mulk shakliga ega yirik korxonalar rahbarlari o‘rtasida o‘tkazilgan maxsus so‘rov natijalari respondentlarning 4 foizdan ortig‘i milliy soliq tizimimiz samarali emas, deb hisoblashini ko‘rsatdi. Shuningdek, rahbarlarning taxminan 80 foizi mavjud soliq tizimi iqtisodiy qiyinchiliklardan chiqishda va bozorning rivojlanishida qulay sharoit yaratmaydi, deb fikr bildirgan. Ko‘pchilik

tadbirkorlarning ғikricha, joriy soliq tizimi investitsiyalar oqimini to‘xtatadi, inғlyatsiyani oshiradi, tarkibiy o‘zgarishlarga to‘sqinlik qiladi va soliqdan qochishga sabab bo‘ladi.

Shu bilan birga, soliq jinoyatchiligidagi axloqiy va psixologik omillar ko‘pincha ғaqat ko‘rsatilgan vaziyat bilan emas, balki aybdorlarning soliq tizimiga nisbatan salbiy munosabati, huquqiy madaniyatining pastligi hamda kuchli ta’magirlik niyatlari bilan aniqlanadi. Bu jinoyatchilar orasida yashirin iqtisodiyotdagi sobiq korxonachilar, mansabdor shaxslar va jinoyatchilar ko‘p uchraydi. Ularning ko‘pchiligi moddiy ehtiyojlari yuqori va boylik orttirishga bo‘lgan intilishlari kuchli bo‘lib, soliq to‘lashdan qochish ularning maqsadlariga erishish uchun qo‘llaydigan usullaridan biri siғatida qaraladi.

Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, soliq jinoyatlarining ayrimlari korporativ va guruh manғaatlariga bog‘liq bo‘ladi. Soliq organlaridan yashirib qolgan mablag‘lardan ғoydalanib, korxonalarning rahbarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, kreditlarni qoplash va xodimlarga maosh to‘lash uchun mablag‘ ajratgan holatlar ham kuzatiladi. Bu yerda o‘z korxonasining moliyaviy ahvolini yaxshilash va natijada daromadliligini oshirish maqsadi ko‘zga tashlanadi. Bunday holatlar ko‘pincha korxonalarda xodimlarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash siyosatida yetishmovchiliklar bo‘lgan, ayniqsa ishsizlik va maoshning o‘z vaqtida to‘lanmasligi xavғi mavjud bo‘lgan vaziyatlarda yuzaga keladi va amalga oshiriladi.

Soliq sohasidagi jinoyatlarning oldini olish

Soliq sohasida jinoyatlarning oldini olish turli darajalarda va ko‘p yo‘nalishlarda amalga oshirilishi zarur. Umumdavlat miqyosida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, ishlab chiqarishni rivojlantirish va xo‘jalik subyektlarining to‘lov qobiliyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Soliq sohasida jinoyatlarning oldini olish tizimida huquqiy asoslarni takomillashtirish ayni paytda katta rol o‘ynaydi.

Soliq tizimining liberallashtirilishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar mahalliy soliqlar sonining kamayishi, tushumdan olinadigan ayrim soliqlarni bekor qilish, daromad solig‘i stavkasining pasayishi va boshqa muhim yangilanishlarni o‘z ichiga oladi. Soliq jinoyatlarini oldini olishda esa soliq inspeksiyalarining roli muhim bo‘lib, ular maslahat xizmatlarini yaxshilash, shuningdek soliq to‘lovchilarga soliqlar miqdori va ularni to‘lash tartibi bo‘yicha yordam ko‘rsatishi lozim.

Ushbu Qonunga muvofiq, soliq xizmatining asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) soliqlar bo‘yicha qonun hujjatlariga rioya qilinishini ta’minlash, soliqlarni aniq hisoblash hamda to‘liq va o‘z vaqtida undirilishini nazorat qilish;

2) soliq qonunchiligiga rioya etilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish hamda soliq to‘lovchilarga ularning majburiyatlarini bajarishda ko‘maklashish;

3) soliq siyosatini amalga oshirishda bevosita ishtirok etish;

4) soliqqa tortiladigan obyektlar va soliq subyektlarini to‘liq va o‘z vaqtida ro‘yxatga olishni ta’minlash;

5) soliqlar bo‘yicha huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish.

Fuqarolar va tadbirkorlar orasida soliqlar bo‘yicha madaniyatni oshirish zaruriyati soliq nazorat organlariga maxsus oldini olish tadbirlarini amalga oshirish majburiyatini yuklaydi. Shu maqsadda maxsus ommaviy axborot vositalari, xususan gazeta va jurnallar, soliq sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishni targ‘ib etishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu nashrlarda soliq tizimini takomillashtirish, soliq qonunlarini buzganlik uchun javobgarlik, hamda soliqlar bo‘yicha madaniyatni oshirish masalalariga doir materiallar muntazam ravishda chop etiladi.

Soliq to‘lovchilarni tarbiyalashda televideniyning roli juda katta ahamiyatga ega. Soliq to‘lovchilarni qonunga hurmat bilan yondashishga o‘rgatish, soliq sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarning oldini olish

hamda jamoatchilikda adolatsiz soliq to‘lovchilarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish uchun soliq organlari va ommaviy axborot vositalari o‘rtasida samarali hamkorlik o‘rnatish muhimdir.

KAZUS: «Mansab va ғoyda orttirish maqsadida sodir etilgan iqtisodiy jinoyat»

Vaziyat

Dilorom 35 yoshda, tuman moliya bo‘limida yetakchi mutaxassis lavozimida ishlaydi. U uzoq yillardan beri yaxshi obro‘-e’tiborga ega, ammo so‘nggi paytlarda uy-joy krediti va oilaviy xarajatlar ortishi sababli moliyaviy bosim ostida qolgan.

Bir kuni u o‘zining xizmat kompyuteridan ғoydalanib, davlat byudjetidan mahalliy tashkilotlarga ajratilgan mablag‘larni rasmiy hisobotlarda biroz o‘zgartirib, 8 million so‘mni o‘zining shaxsiy kartasiga o‘tkazadi. Mablag‘larni qaytarish niyatida bo‘lsa-da, bu holat ichki audit jarayonida aniqlanadi.

Tergov davomida Dilorom o‘z harakatini «og‘ir moddiy ahvolda qolganim, lekin qaytarishni rejalashtirgan edim» deya izohlaydi. U ilgari sudlanmagan, tartibli, ammo moliyaviy muammolar ta’sirida noqonuniy yo‘lga kirgan shaxs siғatida tavsiғlanadi.

KAZUS: «Tadbirkorlik ғaoliyatida soliqdan bo‘yin tovlash holati»

Vaziyat

Otabek 32 yoshda, kichik qurilish ғirmasi egasi. Uning ғirmasi uy-joy ta’miri va ichki bezatish xizmatlari bilan shug‘ullanadi. So‘nggi yillarda buyurtmalar ko‘paygan, lekin rasmiy daromad soliq organlariga to‘liq ko‘rsatilmagan.

Buxgalter tavsiyasi bilan Otabek «naqd tushumning bir qismini yashirish» orqali soliq summasini kamaytirishga qaror qiladi. U har oyda o‘nlab mijozlardan tushgan daromadni hisob-kitob daғtarga to‘liq kiritmaydi va soliq hisobotlarini ataylab kamaytirib topshiradi.

Bir yil o‘tgach, soliq inspeksiyasi tomonidan o‘tkazilgan tekshiruv natijasida ғirmada **soliqdan bo‘yin tovlash (ya’ni daromadni yashirish)** holatlari aniqlanadi. Otabek 200 million so‘mdan ortiq soliqni to‘lamaganligi ma’lum bo‘ladi.

Tergov davomida u bu ishni «raqobatchilarga nisbatan o‘z ғaoliyatini saqlab qolish uchun» qilganini, soliq tizimi murakkabligi va yuqori stavkalar uni bunga majbur qilganini aytadi.

Tahlil va nazorat uchun savollar

1. Ushbu holatda Dilorom sodir etgan jinoyat qaysi **iqtisodiy jinoyat turi**ga kiradi?
2. Jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lgan **kriminogen omillar** nimalardan iborat?
3. Ushbu holatda tashkilot rahbariyati yoki nazorat organlarining qanday **xatolari** jinoyat sodir bo‘lishiga imkon bergan?
4. Iqtisodiy jinoyatlarning **kriminologik sabablari va shart-sharoitlari** qanday izohlanadi?
5. Bunday jinoyatlarning oldini olish uchun qanday **proғilaktika mexanizmlari** samarali bo‘lishi mumkin?
6. Otabek sodir etgan harakat qaysi **soliq sohasidagi jinoyat turi**ga kiradi?
7. Jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lgan **iqtisodiy va huquqiy omillar** nimalardan iborat?
8. Ushbu holatda soliq organlari yoki nazorat tizimida qanday **proғilaktik bo‘shliqlar** mavjud?
9. Soliq intizomini mustahkamlash uchun qanday **kriminologik oldini olish choralari**ni qo‘llash mumkin?
10. Otabekning xatti-harakatini **kriminologik nuqtayi nazardan** qanday baholash mumkin?
11. Soliq jinoyatchiligi tushunchasi va uning kriminologik tavsiғi?
12. Soliq jinoyatchiligining dinamikasimi?

13. Soliq jinoyatchiligi sabablari va uni belgilovchi shart-sharoitlari?
14. Soliq sohasidagi jinoyatlarning oldini olish?
15. Soliq to‘lovchilarni tarbiyalash ishida televideniye roli?

X BOB. KRIMINALISTIKA FANI, UNING VAZIFALARI, TIZIMI, YURIDIK VA BOSHQA FANLAR BILAN ALOQALARI. KRIMINALISTIKA METODLARI

10.1. Kriminalistika fani va uning vazifalari, tizimi, metodlari.

10.2. Kriminalistikaning yuridik va boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

10.3. Kriminalistikada qo‘llaniladigan metodlarning tasnifi.

10.Kriminalistika fani va uning vazifalari, tizimi, metodlari

Kriminalistika fani O‘zbekiston Respublikasida yurisprudensiya va yuridik ta’lim sohalarining rivojlanishida nazariya va amaliyotning uzviy bog‘lanishini ta’minlashga qaratilgan, sud-huquq islohotlarini amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi fan hisoblanadi.

Chunki sudlarda ko‘rilayotgan har qanday ishda haqiqatni aniqlamasdan uni adolatli va to‘g‘ri hal etish, shuningdek inson huquq va erkinliklarini qonun doirasida himoya qilish mumkin emas. Kriminalistika fanini o‘rganish orqali shaxsning gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi sifatidagi qonuniy huquq va erkinliklarini buzilishining oldi olinib, jabrlanuvchining huquqlari to‘liq kafolatlanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ijtimoiy munosabatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida bir qator amaliy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Natijada, mamlakatimizda kriminalistikaning yangi rivojlanish usullari va vositalarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda keng qo‘llash zarurati paydo bo‘lmoqda.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun kriminalistikaning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash muhimdir.

Birinchidan, kriminalistikaning nazariy asoslarini yanada rivojlantirish uchun roman-german, anglo-sakson hamda MDH mamlakatlarining ilmiy maktablarida erishilgan yutuqlardan foydalanish lozim. Bu jarayonda kriminalistikani faqat jinoiy-huquqiy nuqtayi

nazardan emas, balki turli sohalarni qamrab olgan yondashuv bilan rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda kriminalistik texnikani rivojlantirish, yangi paydo bo‘layotgan dalil turlarini qo‘llash usullarini takomillashtirish hamda bu sohada malakali mutaxassislar tayyorlash zarur.

Uchinchidan, kriminalistik taktikani rivojlantirish orqali tergov jarayonlarining samaradorligini oshirish, respublika hududida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularning bo‘linmalari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek sohani xalqaro miqyosda yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, yangi turdagi jinoyatlarni tergov qilish usullarini ishlab chiqish, zamonaviy ekspertiza turlarini amaliyotga joriy etish hamda mavjud ekspertizalarni yanada takomillashtirish zarur.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mazkur darslikda yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlar asosida zamonaviy kriminalistikaning rivojlanish istiqbollari, ayniqsa kriminalistik texnika va taktikani qo‘llash orqali jinoyatlarni tez va to‘liq ochish, ularning oldini olishdagi bugungi imkoniyatlar yoritilgan. Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlari faoliyatida yuzaga kelayotgan ba’zi muammolarni aniqlash va tahlil qilishda, shuningdek ularning yechimini topishda huquqshunoslar uchun muhim yuridik manba sifatida xizmat qiladi.

Kriminalistika fanining predmeti va vazifalari

Kriminalistika fani – bu jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va sud ishlarini samarali olib borish uchun zarur bo‘lgan usul, vosita, metod va qonun-qoidalarni tizimli va ilmiy asosda o‘rganishdir.

Uning predmeti esa jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish jarayonida qo‘llaniladigan maxsus metodlar, tergov tadbirlari hamda dalillarni aniqlash va mustahkamlash bilan bog‘liq.

Kriminalistika – bu jinoyatlarni ochish va oldini olishda dalillarni topish, yig‘ish, mustahkamlash va tadqiq qilish bilan bog‘liq harakatlarni Jinoyat-protsessual kodeksga muvofiq amalga oshiradigan taktika va

metodologik usullar, shuningdek bu jarayonlarda qo‘llaniladigan ilmiy-texnik vositalar va ularning tatbiqi bilan shug‘ullanuvchi fandir. Uning asosiy ijtimoiy vazifasi tergov jarayonida va jinoyatchilikni aniqlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ilmiy asoslangan vositalar, usul va metodlarni taqdim etishdan iborat.

Kriminalistika turli davlatlarda turlicha nomlanadi – masalan, «ilmiy politsiya», «texnik politsiya», «jinoiy texnika» va boshqalar. Hozirgi kunda ham bu atamalar bir xil ma’noda ishlatilmaydi; ayrim mamlakatlarda u «kriminalistik texnika» tushunchasi bilan ifodalanadi.

Kriminalistika – bu jinoyatlarni aniqlash va oldini olish maqsadida dalillarni qidirish, yig‘ish, qayd etish va tadqiq etish bo‘yicha Jinoyat-protsessual kodeksda belgilangan protsessual harakatlarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan texnik vositalar, taktika va metodlarni o‘rganadigan fan.

Kriminalistikaning predmeti – jinoyatchilik mexanizmi, jinoyat va uning ishtirokchilari haqida ma’lumotning hosil bo‘lishi, dalillarni to‘plash, saqlash, baholash va amaliy foydalanish tamoyillari, shuningdek ushbu bilimlarga tayanib jinoyatlarni tergov qilish va oldini olish uchun mo‘ljallangan maxsus vosita va usullar majmuasidir.

Kriminalistika umumiy va maxsus vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Uning umumiy vazifasi jinoyat huquqi va jinoyat protsessi doirasida hal qilinadigan masalalar bilan bog‘liq bo‘lib, jinoyat sud ishlarini yuritish vazifalaridan kelib chiqadi. Bu vazifa jinoyatlarni tez va to‘liq ochishga yordam berish, aybdorlarni aniqlash va qonunlarni to‘g‘ri qo‘llashni ta’minlash, shuningdek shaxs, uning huquq va erkinliklari, mol-mulk hamda jamiyat va davlat manfaatlarini jinoyatchilikdan himoya qilishni o‘z ichiga oladi. Jinoyatlarni tez va to‘la aniqlash deganda sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatning to‘liq holatini aniqlash va ish yuzasidan haqiqatni tiklash tushuniladi.

Sud jarayoniga qadar jinoyatni aniqlashda tezkor qidiruv va tergov organlari faol ishtirok etadi. Har bir organ o‘z protsessual vakolatlari doirasida faoliyat yuritib, o‘ziga xos vosita, usul va metodlardan

foydalangan holda jinoyatni to‘liq ochish vazifasini bajarishda o‘z hissasini qo‘shadi.

Kriminalistikaning maxsus vazifalari

1. Tergov va ekspertiza jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun yangi texnik vositalar, taktika hamda metodik ko‘rsatmalarni ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish.

2. Huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan vositalar va usullarni yaratish hamda ularni rivojlantirish.

3. Kriminalistika sohasida zamonaviy tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlar – matematika, informatika, biologiya, falsafa, mantiq, psixologiya va boshqalarni samarali qo‘llash yo‘llarini izlash.

Kriminalistika o‘ziga xos ilmiy qonuniyatlarga ega bo‘lib, jinoyatlarni tergov qilish tamoyillarini o‘rgatadi. Jinoyatni tergov qilish – bu qonunda belgilangan tartibda surishtiruv va dastlabki tergov organlari faoliyatini tashkil etish demakdir. Ushbu jarayon davomida ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar mavjudligi yoki yo‘qligi, jinoyatni sodir etgan shaxsning aybdorligi yoki aybsizligi hamda ishni adolatli hal etishda ahamiyatli bo‘lgan boshqa holatlar aniqlanadi. Bularni isbotlash maqsadida protsessual qonunda nazarda tutilgan manbalar to‘planadi va kriminalistik vositalar, usullar hamda metodlardan foydalaniladi.

Jinoyatlarni tergov qilishda o‘ziga xos jihatlardan biri shundaki, ko‘pincha aniqlash bilvosita yo‘l bilan amalga oshiriladi: tergovchi jinoyatni o‘zi sodir etmaydi, balki odamlarning xotirasidagi voqealar va qolgan izlarni tahlil qiladi.

Dalillarni topish (aniqlash) tergov organlari uchun hal qiluvchi va murakkab vazifa hisoblanadi, chunki jinoyatchi ko‘pincha harakatlarini yashirishga yoki izlarni yo‘q qilishga harakat qiladi, shuningdek ayrim izlar tabiatan aniq ko‘rinmasligi mumkin. Dalillarni aniqlash joyni ko‘zdan kechirish, tintuv o‘tkazish, namunalar olish, guvohlarni so‘roq qilish va boshqa tergov tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Ularni topishda kriminalistik texnikalarni malakali qo‘llash, shuningdek tergov taktikalari, usullari va metodik tavsiyalarga qat’iy rioya qilish zarur.

Agar guvohlar yong‘in sodir bo‘lgan hududda tutunni payqagan bo‘lishsa, bu holat nimadir yonganidan dalolat beradi. Tutunning ko‘kimtir rangi, odatda soch, teri, rezina yoki shunga o‘xshash materiallar yonayotganini bildiradi. Agar alangasi ko‘kimtir va xira bo‘lsa, bu holat shakar, glitserin, metil spirt yoki tarkibida 25 foizdan ortiq kislorod bo‘lgan boshqa moddalarning yonayotganiga ishora qiladi. Agar shaxsga sanchuvchi, kesuvchi yoki chopuvchi qurol bilan tan jarohati yetkazilgan bo‘lsa, odatda yaralangan joydan kuchli qon oqimi kuzatiladi. Shu sababli, jabrlanuvchi topilgan joyda qon izi bo‘lmasa, u holda jarohat boshqa manzilda yetkazilgan, deb taxmin qilish mumkin. Kriminalist ana shunday belgilar asosida hodisaning asl mohiyatini imkon qadar tezda aniqlab, aniq va asosli xulosaga kelishi mumkin.

Kriminalistika o‘zining amaliy tamoyillariga ega bo‘lishi zarur. Ushbu tamoyillar jinoyatchining jismoniy va ruhiy xususiyatlari bilan uning sodir etgan jinoyat usullari o‘rtasidagi bog‘liqlarda ochiladi. Shaxsning mashg‘uloti yoki kasbiga qarab jinoyatda foydalaniladigan qurol va maxfiy vositalar tanlanadi. Jinoyatni amalga oshirish va uni yashirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida qolgan izlar bir-biri bilan qonuniyat jihatidan bog‘langan bo‘ladi. Shu bilan birga, kriminalistika vositalari, usullari va metodlari yordamida aniqlangan izlar va boshqa ma’lumotlar protsessual tartibda tasdiqlansa – ular dalil maqomini oladi; aks holda bunday ma’lumotlar dalil hisoblanmaydi.

Qo‘lga olingan izlar va boshqa moddiy dalillarni o‘z holicha saqlash zarur. Saqlash davrida predmetlarning ko‘rinishi yoki shakli o‘zgarsa, ularning dalillik qiymati pasayishi mumkin. Masalan, hodisa joyidan olingan buyum noto‘g‘ri o‘ralishi yoki boshqa metall buyumlar bilan aloqa qilishi natijasida uning mikrorelyefi (mayda chizilishlari, g‘adir-budirliklari) yo‘qolib, natijada u otilgan qurol bilan mos kelmasligi mumkin.

Kriminalistika tizimi.

Kriminalistika tizimi to‘rtta guruhga bo‘linadi:

1. Kriminalistikaning ilmiy negizlari va metodologiyasi

Kriminalistikaning ushbu bo‘limida uning ilmiy negizlari, asosiy vazifalari, qo‘llaniladigan usullari, shuningdek kriminalistik identifikatsiya va diagnostika kabi masalalar chuqur o‘rganiladi.

2. Kriminalistik texnika

Kriminalistik texnika – bu shunchaki texnik vositalarning to‘plami emas, balki kriminalistika umumiy nazariyasi hamda tabiiy va texnika fanlari yutuqlari asosida ishlab chiqilgan ilmiy qoidalar, usullar va metodlar tizimidir. Ushbu yo‘nalish daliliy obyektlarni aniqlash, saqlab qolish, hujjatlashtirish, tahlil qilish va jinoyatlarning oldini olishda protsessual qonunchilik talablariga muvofiq tarzda foydalanishni ko‘zda tutadi. Kriminalistik texnika vositalaridan nafaqat tergovchilar, balki ekspertiza muassasalari ham keng foydalangan holda, murakkab va turli xil ekspert tadqiqotlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Mazkur bo‘limga kriminalistik texnikaning asosiy yo‘nalishlari, sud fotografiyasi, izlar haqidagi ta’limot (trasologiya), sud ballistikasi, hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi, yozuv va imzoni tahlil qilish, shuningdek shaxsning tashqi belgilariga qarab tasvirlash hamda kriminalistik ro‘yxatlar kiradi. Garchi kriminalistik texnika turlicha yo‘nalishlarga ega bo‘lsa-da, ularning rivojlanishida tabiiy va texnik fanlarga tayanuvchi yagona asoslar mavjud.

3. Tergov taktikasiga oid tushuncha. Tergov taktikasi – bu kam resurs (kuch, vosita va vaqt) evaziga yuqori natija olishni maqsad qilgan holda jinoyatni tergov qilish, aniqlash va oldini olish jarayonlarida qo‘llaniladigan kriminalistik nazariya qoidalari to‘plami hisoblanadi. U mantiq, psixologiya, sud etikasi va boshqa fanlar bilimlaridan foydalangan holda dastlabki tergov choralari va usullarini rejalashtirishni o‘z ichiga oladi. Tergov taktikasining vazifasi faqat dalillarni aniqlash va tekshirish uchun alohida tergov harakatlarini ishlab chiqishdan iborat emas; balki yuzaga kelgan tergov sharoitlarini inobatga olgan holda, ayni bir ishni

qanday umumiy yo‘nalishda va strategiyada tergov qilishni belgilashga ham yordam beradi.

4. Jinoyatlarning ayrim turlarini tergov qilish metodikasi. Ba’zi jinoyat turlarini tergov qilish metodikasi – bu har bir jinoyatga xos belgi va o‘ziga xosliklarni hisobga olgan holda, uni fosh etish, tergov qilish hamda oldini olish uchun ilmiy asoslangan qoidalar, texnik vositalar, taktika va amaliy tavsiyalar to‘plamidir.

Ushbu metodikada qo‘llaniladigan usul va vositalar ayrim jinoyat turlarini tergov qilishda samarali natijalar berishi mumkin. Misol uchun, qotillik jinoyatida ishlatilgan tergov usuli iqtisodiy jinoyatlarni ochishda unchalik foydali bo‘lmasligi mumkin.

Shu sababli, har bir jinoyat turiga moslashtirilgan metodika – jinoyatni fosh etish, tergov qilish va oldini olish jarayonida eng samarali vosita, usul va metodik yondashuvlarni tanlash imkonini beradi, bu esa maksimal natijalarga erishishni ta’minlaydi.

10.2. Kriminalistika fanining huquqiy va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi

Kriminalistikaning boshqa yuridik fanlar bilan aloqasi

Kriminalistika jinoyatchilikka qarshi kurashishda yagona yuridik fan hisoblanmaydi. Bu yo‘nalishda jinoyat huquqi, kriminologiya va jinoyat-protsessual huquq kabi fanlar ham faoliyat yuritadi. Bu holat kriminalistikaning mazkur fanlar bilan o‘zaro aloqasi muhim ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, kriminalistikaning jinoyat huquqi bilan yaqin bog‘liqligi alohida ahamiyatga ega. Chunki kriminalist jinoyatni o‘rganishda, avvalo jinoyat haqidagi nazariy bilimlarga ega bo‘lishi va shu bilimlarga asoslanib harakat qilishi zarur.

Kriminalistika va kriminologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik

Jinoyatlarning yuzaga kelish sabablari va ularning oldini olish choralari bilan shug‘ullanuvchi kriminologiya bilan kriminalistika o‘rtasidagi aloqadorlik aniq va yaqqol ko‘zga tashlanadi. Kriminalistika kriminologiyaning nazariy asoslari hamda amaliy tajribasidan keng

foydalanadi. Shu bilan birga, kriminologiya ham jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni aniqlashda kriminalistik yondashuv va bilimlarga tayanadi.

Kriminalistika, masalan o‘g‘rilik, hujjatlarni soxtalashtirish va boshqa turdagi jinoyatlarning oldini olishga yo‘naltirilgan maxsus texnik vositalar va uslublarni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.

Kriminalistika va jinoyat protsessi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik

Kriminalistika jinoyat protsessi bilan chambarchas aloqador bo‘lib, uning asosiy vazifalari va talablariga bo‘ysunadi. Kriminalistik texnika, taktik yondashuvlar hamda metodlardan foydalanishda jinoyat protsessining asosiy prinsiplari va me’yorlariga qat’iy amal qilinishi zarur. Aks holda, protsessual tartib buzilgan holda olingan, hujjatlashtirilgan yoki tahlil qilingan faktik ma’lumotlar sudda isbot vositasi sifatida qabul qilinmaydi va yuridik ahamiyatini yo‘qotadi.

Shu sababli, jinoyatlarni tergov qilishda qo‘llaniladigan kriminalistik vosita va usullar jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga mos ravishda ishlab chiqiladi va amaliyotda tatbiq etiladi.

Kriminalistika ma’lum darajada fuqarolik protsessiga ham bog‘liq hisoblanadi. Xususan, fuqarolik ishlarini yuritishda hujjatlarni tekshirishda texnik-kriminalistik va dastxat ekspertizalari, shuningdek boshqa moddiy dalillarni aniqlashda kriminalistik usul va metodlardan foydalaniladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, yangi xo‘jalik faoliyati shakllarining paydo bo‘lishi, bank tizimining rivojlanishi va turli qimmatli qog‘ozlar – aksiyalar, veksellar – muomalaga chiqishi fonida fuqarolik ishlarida kriminalistika qo‘llanilish doirasi sezilarli darajada kengaydi.

Kriminalistika nafaqat yuridik fanlar bilan, balki boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar – mantiq, etika, psixologiya, tezkor-qidiruv faoliyati nazariyasi va boshqalar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Mantiq fani o‘rgatadigan mantiqiy fikrlash tergov jarayonida isbotlash samaradorligini ta’minlashning muhim omilidir.

Ilmiy bilimlar rivojlanib, integratsiyalashuvi natijasida maxsus tarmoqlar – tergov mantigi yoki isbotlash mantig‘i paydo bo‘ldi, ularning qoidalari tergov jarayonida dalillarni tahlil qilishda qo‘llaniladi.

Sud etikasi jinoyat tergovida qonun bilan birga amal qiladigan axloqiy qoidalarni shakllantiradi. Tergovchi turli texnik vositalar, taktika va kriminalistik metodlardan foydalanganda axloq normalarini buzishga haqqi yo‘q. Axloqsiz usullar va vositalardan foydalangan holda tergov olib borish mumkin emas, chunki bunday hol jinoyat hisoblanadi.

Sud psixologiyasi va uning qonun-qoidalari huquqbuzarlar, jabrlanuvchilar, guvohlar hamda jinoyat protsessidagi boshqa ishtirokchilarning xatti-harakatlari va niyatlarini to‘g‘ri tushunish va izohlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ularning xulq-atvori va bunga sabab bo‘lgan omillarni adolatli baholash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Kriminalistika sud tibbiyoti bilan nafaqat bog‘liq, balki doimiy hamkorlikda ishlaydi. Bu o‘zaro aloqaning asosi sud ishlarini yuritishda haqiqatni aniqlash va moddiy dalillarni tadqiq etish usullarining umumiyligiga tayanadi. Masalan, jasad, qotillikda ishlatilgan qurol, kiyim-kechak va boshqa moddiy dalillar ham kriminalistika, ham sud tibbiyoti uchun umumiy obyekt hisoblanadi va ularni o‘rganish ko‘pincha tibbiy kriminalistika ekspertizasining kompleks shaklida amalga oshiriladi.

Shuningdek, kriminalistika sud psixiatriya bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, ruhiy kasalliklar sababli ijtimoiy xavfli harakatlarni amalga oshirgan shaxslarni tergov qilishda e’tiborga olinadi. Gumon qiluvchi,

Bundan tashqari, kriminalistika tibbiyot fanlari (fizika, kimyo, biologiya, fiziologiya va boshqalar), texnika sohasidagi fanlar (radioelektronika, hisoblash texnikasi va boshqalar) hamda matematika qonunlari va qoidalaridan keng foydalanadi.

10.3. Kriminalistikada qo‘llaniladigan metodlarning tasnifi

Kriminalistikada ishlatiladigan usullar turli guruhlarga bo‘linadi, ular tergov jarayonida turli maqsadlarda qo‘llaniladi va jinoyatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Metod – bu belgilangan maqsadga erishish uchun tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqot usulidir. Har qanday ilmiy sohada bo‘lgani kabi, kriminalistika ham tabiat va jamiyatdagi voqelikni anglashda umumiy falsafiy hamda mantiqiy yondashuvlarga tayanadi. Shu bilan birga, har bir fan o‘z tadqiqot sohasi va maqsadlariga mos tarzda maxsus usullarni qo‘llaydi hamda zarurat tug‘ilganda yangi metodlarni ishlab chiqadi. Kriminalistikada turli metodlar qo‘llaniladi va ularni tasniflashda, avvalo kriminalistikaning nazariy va amaliy metodlarini ajratib ko‘rsatish zarur. Ularning qo‘llanishi tergov harakatlarini amalga oshirish maqsadi, shart-sharoitlari va usullari asosida belgilanadi. Masalan, tergov eksperimenti amaliy faoliyat usuli sifatida faqat protsessual qonunlar tomonidan aniq tartibga solingan holda qo‘llanadi va ish uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarni oshirish hamda aniqlash uchun tashkil etiladi. Ilmiy eksperimentlarda esa bunday cheklovlar talab qilinmaydi.

Kriminalistika amaliyotda qo‘llaniladigan usullar protsessual-me’yoriy talablar va kriminalistikaning nazariy tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqiladi va tatbiq etiladi. Shu bilan birga, bu metodlar boshqa fanlarning ilmiy prinsiplari bilan ham uyg‘unlashadi: masalan, shaxsni so‘roq qilishda sud psixologiyasining qoidalari muhim rol o‘ynaydi, mantiq qonunlari esa tergov sxemalarini shakllantirish va ulardan foydalanishda markaziy ahamiyatga ega.

Kriminalistikada qo‘llaniladigan metodlar turli asoslar bo‘yicha tasniflanadi. Bu metodlar quyidagi talablarni bajarishi shart: mustahkam ilmiy asosga ega bo‘lish; qonunlarga amal qilish; axloqiy qoidalarga rioya qilish; xavfsizlikni ta’minlash. Ular mazmun jihatidan umumilmiy va maxsus turlarga ajratiladi.

Umumilmiy kriminalistik metodlar

Umumilmiy metodlar orasida eng muhim o‘rin dialektik metodga tegishlidir. Bu metodga ko‘ra, har bir obyekt boshqa obyektlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, harakatda va ma’lum sharoitlarda paydo bo‘lishi yoki yo‘qolishi mumkin. Jinoyatni aniqlash va tergov jarayonida yuzaga keladigan har qanday muammoni hal qilishda dialektik yondashuv tadqiq qilinayotgan hodisaning obyektiv munosabatlari va aloqalarini, shuningdek uning barcha o‘ziga xos jihatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Dialektika qonunlari har bir narsaning va voqelikning mohiyatini o‘rganish va anglashga asoslanadi, bu esa jinoyatni aniqlash va uni sodir qilgan shaxsni topish imkonini beradi degan bilim nazariyasiga tayangan. Dialektik metod tergov jarayonida muayyan munosabatlar va aloqalarni e’tibordan chetda qoldirmaslikka, bir tomonlama yondashuvdan, faqat bir holatga qiziqishdan voz kechishga yordam beradi.

Umumilmiy metodlar qatoriga kuzatuv, qiyoslash, o‘lchash, tasvirlash, eksperiment o‘tkazish, modellashtirish kabi usullar kiradi.

Kuzatuv – bu predmet va hodisalarni aniq maqsad asosida, oldindan belgilangan reja bo‘yicha bevosita idrok etish jarayonidir. Ushbu usul amaliyotda, ayniqsa tintuv yoki boshqa tergov harakatlarini o‘tkazishda muhim o‘rin tutadi. Kuzatuvning vazifalari o‘rganilayotgan obyekt yoki hodisaning xususiyatlariga qarab belgilanadi: ba’zi hollarda qidirilayotgan narsani topish, boshqa holatlarda uning o‘ziga xos belgilarini aniqlash, ayrim paytlarda esa tintuv yoki boshqa tergov jarayonlarida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining xulq-atvorini tahlil qilish talab etiladi.

Shu sababli, kuzatuv natijasida aniqlangan va protsessual jihatdan rasmiylashtirilgan ayrim faktlar dalil sifatida tan olinishi mumkin, boshqalari esa tergov taxminlarini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, turli texnik vositalar va maxsus asboblardan foydalanish kuzatuv jarayonining imkoniyatlarini kengaytiradi hamda uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Qiyoslash. Bu tashqi olamni anglashning asosiy usullaridan biridir. Qiyoslashsiz tabiatda va jamiyatda yuz berayotgan nafaqat murakkab,

balki eng oddiy hodisalarni ham to‘g‘ri tushunish qiyin bo‘ladi. Bilish jarayonida, xususan jinoyatni tergov qilish va ekspertiza paytida ushbu metoddan keng foydalanish zarurati yuqorida aytilgan sabablar bilan tushuntiriladi. Kriminalistikada qiyoslash ayniqsa identifikatsiya qilish maqsadida olib boriladigan tadqiqotlarda katta ahamiyatga ega.

Qiyoslash usuli mantiqning ikki asosiy qoidasiga muvofiq bo‘lishi zarur:

birinchidan, obyektiv haqiqatdagi bir xil turdagi predmetlar, hodisalar va tushun-chalarni qiyoslashga ruxsat beriladi;

ikkinchidan, qiyoslashda ahamiyatli belgilardan foydalanish lozim. Kriminalistik maqsadlarda amalga oshiriladigan qiyoslash jarayonida ko‘pincha uchraydigan belgilar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, qiyoslash metodi kriminalistika amaliyotida boshqa mantiqiy bilish usullari – masalan, tahlil va hodisalarni umumlashtirish bilan birgalikda qo‘llaniladi.

O‘lchash. Ushbu metod yordamida o‘lchanadigan predmet va o‘lchov birligi, miqyosi yoki standart birliklari (metr, kilogramm, daqiqa, litr, harorat, rang va boshqalar) o‘rtasidagi nisbat orqali aniqlanadi. Aniq va ishonchli o‘lchovlar uchun maxsus asbob-uskunalar qo‘llaniladi. O‘lchash ilmiy va amaliy sohalarda keng qo‘llaniladi. Kriminalistikada esa bu metod hodisa sodir bo‘lgan joy va moddiy dalillarni o‘rganishda, ekspertiza hamda boshqa tergov tadbirlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, harakat vaqtini va ketma-ketligini aniqlash, hodisa joyidagi izlar asosida jinoyatchining qanday harakat qilganini aniqlash mumkin.

Tergovchi dastlab alohida izlarni aniqlab, ularning paydo bo‘lish sabablarini va o‘zaro bog‘liqligini tushuntirish bilan shug‘ullanadi, keyin esa bir xil turdagi izlar guruhini o‘rganishga o‘tadi. Shundan so‘ng, ularning belgilariga asoslanib jinoyat hodisasi haqida taxminiy xulosaga keladi. Ushbu taxminni asoslashda kriminalistik diagnostika jarayonida aniqlangan sabab-vaqtincha aloqalar katta ahamiyat kasb etadi.

Kriminalistik diagnostikaning elementlari boshqa tergov harakatlari amalga oshirilayotganda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tergovchi, tintuv yoki so‘roq qilinayotgan shaxsning xulq-atvori va so‘roq paytidagi reaksiyalarini kuzatishda diagnoz sxemasidan foydalanishi zarur: belgilarni tahlil qilish, taxmin qilish va uni chuqurlashtirish jarayonlari ijobiy natija beradi.

11.5. Kriminalistik texnika tushunchasi va uning vazifalari

Kriminalistik texnika fani jinoyatlarni tergov qilish jarayonida dalillarni topish, mustahkamlash, ko‘chirib olish va tahlil qilishda ishlatiladigan maxsus asbob-uskunalar va texnik vositalar bo‘yicha ilmiy-nazariy bilimlar tizimidir. Shu bilan birga, u dalillarni aniqlash va ularni kuchaytirish jarayonida qo‘llaniladigan amaliy ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Kriminalistik texnika sohasi tabiiy fanlarning (biologiya, fizika, kimyo va boshq.) rivojlanishi hamda yangi texnika va texnologiyalar – masalan, kompyuter texnologiyalari, informatika kabi sohalardagi yutuqlarni jamiyat hayotiga tatbiq etib, ayniqsa jinoyatlarni tergov qilish va ularning oldini olishda keng qo‘llanilmoqda.

Texnik vositalar deganda faqat yoritish, o‘lchash kabi asbob-anjomlar emas, balki maxsus kriminalistik faoliyatda foydalaniladigan texnik qurilmalar – mikroskoplar, nurlar va ranglarni ajratib ko‘rsatadigan spektrograflar, ovoz va tasvir yozish uskunalari kabi vositalar tushuniladi. Kriminalistik texnika bo‘limi tergov jarayonida kerakli informatika ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi: izlarni aniqlash va kuchaytirish, o‘qotar qurollarni identifikatsiya qilish hamda turli manbalardan olingan hujjatlarni tadqiq etish masalalari.

Shuningdek, mazkur soha odamlarning tashqi ko‘rinish belgilariga asoslangan identifikatsiya va kriminalistik ro‘yxatlar ma’lumotlaridan foydalanish uchun maxsus qoidalarni ham o‘z ichiga oladi.

Kriminalistik texnikaning asosiy vazifasi – sodir etilgan jinoyat bilan bog‘liq ma’lumotlarni izlash, topish, tahlil qilish va aniqlashdan iboratdir. Jinoyat o‘zining izlarini tekshirilayotgan voqea holatlarida, ya’ni moddiy belgilarda namoyon etadi. Kriminalistik texnika jinoyatchilikka qarshi kurashda yuqorida qayd etilgan fanlarning ayrim ilmiy yutuqlarini tergov jarayoniga moslashtiradi, ularni ijodiy ravishda boyitadi va belgilangan maqsadlarga erishishda amalda qo‘llaydi. Shu bilan birga, kriminalistika o‘z tarkibida maxsus uslublar, yo‘riqnomalar, tabiiy va texnika fanlariga asoslangan, jinoyatlarni fosh etish hamda ularning oldini olishga xizmat qiluvchi usullar tizimini mujassamlashtiradi.

Kriminalistik texnikaning bosh mohiyati jinoyat hodisasi bilan bog‘liq moddiy izlarni aniqlash, o‘rganish va qayd etishdan iborat bo‘lib, bunda turli texnik vositalar, metodlar va usullardan foydalaniladi. Shuningdek, kriminalistik ahamiyatga ega obyektlarni izlab topish, ularni aniqlash va identifikatsiya qilish usullarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish ushbu sohaning ajralmas yo‘nalishlaridan biridir.

Jinoyatchini aniqlash va keyinchalik o‘rganish jarayonida voqea sodir bo‘lgan joyda, jabrlangan shaxsning tanasi va kiyimida qolgan moddiy izlarning ahamiyati juda katta. Kriminalistik texnika har qanday iz va ashyoviy dalillarni topish, saqlash, qayd qilish, olish hamda tadqiq etishda ishlatiladigan uskunalar, usullar va yo‘l-yo‘riqlarni ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Har bir jinoyat aniq bir vaziyatda, ma’lum makon va vaqt doirasida sodir bo‘ladi. Shu bois, kriminalistik texnikaning asosiy vazifasi aniq obyektlar va hodisalarni aniqlashga imkon beruvchi ilg‘or uslublarni yaratishdan iboratdir.

Tezkor-qidiruv ishlari uchun ishonchli ma’lumot manbai bo‘ladigan texnik vositalar zarur. Ushbu asboblardan olingan ma’lumotlar jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Kriminalistik texnika tizimi:

1) kriminalistik Fotografiya va videotasvirga olish;
2) umumiy texnika asoslari;
3) kriminalistik trasologiya (izshunoslik);
4) hujjatlarni oshirish (hujjatshunoslik);
5) kriminalistik ballistika (o‘q o‘tish qurollarini oshirish);
6) kriminalistik bitosnusxa (odamlarning tashqi tuzilishi, portretshunoslik) belgilarni aniqlash uchun hujjatlarni kriminalistik tadqiq etish, mikrosnusxa, ranglarni farqlash, ultrabinafshanurlarida tahlil o‘tkazish zarur.

Kriminalistik texnika vositalari jinoyatlarning oldini olishga, hodisa sodir bo‘lgan joydagi holatni aniq aks ettirishga, tergov harakatlarini amalga oshirish va ularning natijalarini qayd qilishga, shuningdek ashyoviy dalillarni yig‘ish, ko‘zdan kechirish hamda tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Kriminalistik texnika vositalarini qo‘llash taktikasidan maqsad – tergov jarayonida yuzaga kelgan masalalarni samarali hal qilish uchun ayrim tergov harakatlarini bajarishda ushbu vositalardan oqilona va samarali tarzda foydalanishdir. Bu vositalar va usullar tergov, tezkor-qidiruv, ekspertiza hamda sud amaliyoti ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqiladi.

Kriminalistik texnika tekshiruv vositalari va uslublari

Kriminalistik texnika vositalari turlicha bo‘lib, ularning eng muhimlaridan biri obyektlarni yoritish uchun mo‘ljallangan asboblar hisoblanadi. Kriminalistik texnika vositalari va uslublarini qo‘llash shakllari quyidagilarga bo‘linadi:

1. Protsessual shakllar tezkor-qidiruv tadbirlari, tergov harakatlari hamda kriminalistik ekspertizani o‘tkazish.

2. Noprotsessual shakllar – kriminalistik ro‘yxatga olish, kriminalist mutaxassis tomonidan dastlabki tekshiruv va kuzatuv, mutaxassis maslahatlari olish, shuningdek pasport-viza ishlarini yuritish va boshqalar.

Kriminalistika maqsadlarida ishlatiladigan yoritish apparatlarining uch xil turi mavjud:

1) umumiy yorug‘lik beruvchi vositalar;

2) ma’lum yo‘nalishga qaratilgan tor nurlar bilan yorituvchi qurilmalar;

3) yorug‘likning maxsus manbalaridan tashkil topgan turdagi vositalar. Yorug‘likning maxsus manbalari qatoriga turli turdagi ultrabinafsha yoritgichlar kiradi, jumladan: «U H-l», «ultra-yoritgich», kichik o‘lchamli ultrabinafsha yoritgichlar, luminoskoplar, ko‘k rangli nurlar uchun mo‘ljallangan qurilmalar, elektron-optik o‘zgartirish moslamalari va boshqa asboblar. Ushbu vositalar ko‘zga ko‘rinishi qiyin yoki umuman ko‘rinmaydigan biologik izlarni – qon, sperma, so‘lak, siydik, ter, sut va shunga o‘xshashlarni aniqlashda, shuningdek maxsus kimyoviy moddalar, yonilg‘i va moylash materiallari, yelim qoldiqlari, otilgan o‘q izlari kabi dalillarni topishda yordam beradi.

Eng ko‘p qo‘llaniladigan sun’iy yorug‘lik manbalariga turli xil isitish lampalari misol bo‘la oladi. Bundan tashqari, kundalik hayot va san’at sohasida ishlatiladigan yoritish vositalari, kuchli lampalar, elektr yoritgichlar hamda galogen lampalar ham keng qo‘llaniladi.

Ultrabinafsha va ko‘k nurlarning samaradorligi shundaki, ular ta’sir qilgan obyektlar o‘zidan luminissensiya – ya’ni yorug‘lik chiqarishni boshlaydi. Luminissensiya hodisasini aniqroq ko‘rish uchun mo‘ljal qilingan hududni qorong‘ilash uskunalari yordamida yoritish kamaytirilishi zarur.

Optik asboblar ashyoviy dalillar yoki izlarning hajmi juda kichik bo‘lib, oddiy ko‘z bilan ularni aniqlab bo‘lmaganda ularni kattalashtirib ko‘rish va tahlil qilish uchun zarur bo‘ladi. Lupa – to‘g‘ridan-to‘g‘ri kattalashtirish funksiyasiga ega optik qurilma hisoblanadi. Kattalashtirish darajasi unchalik yuqori bo‘lmagan (2–3 marta) lupalar ikkiyoqlama qabariq musbat linzalardan tashkil topgan bo‘lib, ularning fokus masofasi 10 mm.dan 100 mm.gacha bo‘ladi. Lupaning kattalashtirish kuchi uning necha marta yiriklashtirishiga bog‘liq holda belgilanadi. Ashyoviy dalillarni o‘rganishda, odatda, yettigacha kattalashtirishga ega linzalardan foydalaniladi.

Bugungi kunda kriminalistika amaliyotida izlar va boshqa mayda obyektlarni aniqlash uchun o‘rnatiladigan lupalar, o‘lchov lupalari, binokulyarlar, daktiloskopik lupalar, yorituvchi lupalar hamda zarra lupalari keng qo‘llanilmoqda. Mikroobyektlarni qidirish va topishda o‘rnatiladigan yoritiluvchi lupa ayniqsa qulay hisoblanadi. Bunday lupada gardishga o‘rnatilgan asosiy linza mavjud bo‘lib, u 3–6 marta kattalashtirishga ega va diametri 130 mm.ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, qo‘shimcha linza ham mavjud bo‘lib, u 4 barobar kattalashtirishni ta’minlaydi. Ushbu qo‘shimcha linza olib qo‘yiladigan tayanch yordamida asosiy linzaning gardishiga mustahkamlanadi.

Lupaning asosiy linzasi o‘rnatilgan gardish aylanasi bo‘ylab joylashgan yoritgich lampalar obyektdagi ko‘rish maydonini yoritib turadi. Ular quvvatni o‘zgaruvchan tok tarmog‘idan pasaytiruvchi transformator orqali oladi. Papillyar naqshlarni o‘rganishda daktiloskopik lupa qo‘llaniladi. Uning gardishi suriladigan usulda halqa asosiga mustahkamlangan metall shtativga o‘rnatilgan. Shtativ asosida aylana shaklidagi oynali shisha joylashgan bo‘lib, uning diametri bo‘ylab papillyar naqshning muayyan qismida (masalan, markaz va delta o‘rta oralig‘ida) papillyar chiziqlarni sanashni osonlashtiruvchi ingichka chiziq mavjud.

To‘qimachilik matolarini tekshirishda 4 va 7 barobar kattalashtirish imkonini beruvchi maxsus lupalar ishlatiladi. Bunday lupa o‘rnatgichga ega bo‘lib, uning tagligi 1x1 yoki 2x2 santimetrli teshiklardan tashkil topgan. Bu o‘rnatgich taqqoslanayotgan gazlama namunalarining iplar sonini aniq hisoblashda cheklovchi element vazifasini bajaradi. Taqqoslash jarayonida odatda 1 yoki 2 santimetr uzunlikdagi iplar soni hisoblanadi. Hujjatlar, izlar va boshqa ashyoviy dalillarni tekshirishda ko‘zoynak turidagi binokulyar lupalardan foydalaniladi. Ushbu lupalar ikki linza yoki ikki sinxronlashtirilgan linzalardan tashkil topib, bir vaqtning o‘zida ikkala ko‘z bilan kuzatuv imkonini beradi. Agar lupalar yetarli kattalashtirishni ta’minlamasa, ashyoviy dalillarni chuqurroq o‘rganish uchun mikroskoplar qo‘llaniladi.

Hujjatlar, turli xil ashyoviy dalillar, o‘qotar qurollar, soch tolalari, chang va kukun mikroskop yordamida tekshiriladigan obyektlar hisoblanadi. Mikroskop orqali ashyo belgilarini yuzlab marta kattalashtirib ko‘rish mumkin bo‘ladi. Mikroskopning asosiy qismlari quyidagilardan iborat: tubus, o‘rnatgich, ashyo sto‘lchasi, okulyar, obyektiv, kondensor va oyna. Mikroskop obyektivlarining fokus masofasi qanchalik qisqa bo‘lsa, kattalashtirish darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Obyektiv gardishida uning yorug‘lik kuchi ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Tadqiqot jarayonida mikroskop ostidagi obyekt kuchli yoritilishi talab qilinadi. Buning uchun mikroskopda yoritgich, ya’ni yorug‘lik manbai sifatida ishlatiladi.

Kriminalistika sohasida, ayniqsa tadqiqotlar olib borilayotganda, ko‘pincha qiyoslama mikroskoplardan foydalaniladi. Bu turdagi mikroskoplar ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, bir ko‘rish maydonida bir vaqtning o‘zida ikkita obyektni solishtirish imkonini beradi. Kuzatilayotgan tasvir ikkita obyektiv, ikkita aks ettiruvchi prizma, ajratuvchi prizma hamda okulyardan hosil bo‘ladi. Qiyoslama mikroskop yordamida asosan o‘q va gilzalardagi, shuningdek boshqa trasologik obyektlardagi izlar tekshiriladi.

Ba’zi ekspertiza muassasalarida MIS-6 va MIM-70 kabi boshqa turdagi mikroskoplar qo‘llaniladi. Ushbu mikroskoplar vertikal yo‘nalishda yoritish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, metall va qotishmalardan yasalgan buyumlarning kristall tuzilishini o‘rganishga, qalam va nusxa ko‘chirish qog‘ozlarining shtrixlarini farqlashga, shuningdek kesilgan shtrixlarning qanday tartibda tushganligini aniqlashga imkon beradi. Ekspertiza muassasalarida elektron mikroskoplar ham mavjud bo‘lib, ular shtrixlar, to‘lalar, biologik obyektlar (masalan, soch tolalari) kabi kriminalistik tadqiqot obyektlarini yuqori aniqlikda tahlil qilish imkonini beradi.

Elektron mikroskopning difraksion uslubi moddalarning kristall tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga, shuningdek qalam, siyoh, bo‘yoq va plastmassa materiallarini tekshirishga imkon beradi. Teri

naqshlari va izlarni aniqlashda dastlab optik (ko‘rish) usuli tavsiya etiladi, chunki bu uslub nafaqat izlarga, balki iz qoldiruvchi buyumlarning yuzasiga ham hech qanday zarar yetkazmaydi. Buyumlarni qiya nurlar yordamida yoritish uchun turli xil yoritgich asboblar, masalan, cho‘ntakda olib yuriladigan elektr fonar va boshqa yoritgichlar ishlatiladi.

Iz qoldiruvchi obyektning rangiga qarab turli xil yorug‘lik filtrlari, jumladan ultrabinafsha filtrlardan foydalanish mumkin. Ultrabinafsha nurlar yordamida fayans va sopol buyumlardan qolgan yog‘ va boshqa izlarning xususiyatlarini aniqlashda yaxshi natijalarga erishiladi. Teri naqshlarini ko‘z bilan aniqlash mumkin bo‘lmagan holatlarda, ularni topish uchun mis oksidi, rux oksidi, grafit, qorakuya, vodorod yordamida qayta tiklangan o‘zmir kabi turli kukunlar yoki ularning aralashmalari (masalan, rux oksidi, alyuminiy, rux-qo‘rg‘oshin oksidi) ishlatiladi.

Shuningdek, rux va yod bug‘lari kabi nurlatuvchi kukunlar, fizik usullar (masalan, teri yog‘ moddalari elementlari bilan o‘zaro ta’sirga kiruvchi azot kislotali kumush suv aralashmasi) hamda kimyoviy usullar ham qo‘llaniladi. Kukunlarni surtish jarayonida yupqa daktiloskopik shakllar uchun changlatish uchun sachratqichlar, yod bug‘larini tarqatish uchun subimatorlar va magnit shkallaridan foydalaniladi.

Elektron-optik o‘zgartirgichlar – izlar va boshqa ashyoviy dalillarni infraqizilnurlar yordamida ko‘zdan kechirish hamda tahlil qilish imkonini beruvchi asboblardir. Ularning asosiy qismlari – «VES-4» rusumli kofiz o‘zgartirgich, obyektiv, okulyar, infraqizil filtr hamda ikki galvanik elementdan tashkil topgan quvvat bloki. Ushbu asbobdan foydalanilganda obyektiv fotokatodga (maxsus tarkibli qoplama bilan ishlangan plastinka) ko‘zga ko‘rinmas tasvirni hosil qiladi. Infraqizil nurlar ta’siri ostida fotokatod elektronlar oqimini chiqaradi.

Ushbu elektronlar luminesensiyalovchi ekranda magnit «linza» yordamida fokusga jamlanib, okulyar orqali ko‘zga ko‘rinadigan tasvir hosil qiladi. Infraqizil o‘zgartirgichlar sifatida S-70 rusumli portativ yoki «Relyef-1» kabi statsionar elektron-optik o‘zgartirgichlardan foydalanish mumkin. Kriminalistik ahamiyatga ega yashirin obyektlarni aniqlash

uchun turli qidiruv asboblari va uskunalar qo‘llaniladi. Ular o‘z maqsadlari, tuzilishi va ishlash prinsiplari bo‘yicha farq qiladi. Yer ostiga ko‘milgan murdalarni topishda ichi g‘ovak maxsus elektr qurilmasi – «shup» ishlatiladi. Bu asbob tuproqning elektr qarshiligini o‘lchash tamoyiliga asoslangan.

Oqsil moddalarining parchalanishi joylarida tuproq gazsimon va suyuq moddalarga to‘lib, natijada tuproqning elektr o‘tkazuvchanligi oshadi. Bu o‘zgarish mikro-ampermetrning strelkasi orqali aniqlanadi. Suv ostida ko‘milgan murdalar va ularning turli kiyim-kechak yoki boshqa buyumlarini izlab topish va chiqarib olishda traf asbobi qo‘llaniladi. Metall buyumlarni qidirishda metall detektorlar hamda kriminalistika uchun maxsus ishlab chiqilgan asbob-uskunalar ishlatiladi. Induksion metall qidiruvchilar qora va rangli metall buyumlarni aniqlash imkonini beradi.

Magnitli qidiruvchi ko‘targich esa ferromagnit metallar yoki ularning qismlarini topish va olib chiqarish uchun mo‘ljallangan. Bu asbob magnitning ferromagnit metallarga tortish va ularni o‘zida ushlab turish xususiyatiga asoslanadi.

Sud ekspertizasi rivojlanishi bilan tergov harakatlari davomida olinishi zarur bo‘lgan obyektlar doirasi kengayib bormoqda. Hozirgi vaqtda qattiq, suyuq va sochiluvchi moddalar bilan birga juda oz miqdorda uchraydigan gazsimon moddalardan ham namunalar olinmoqda. Imkon bo‘lsa hid tarqatuvchi buyumning o‘zi (masalan, qo‘lqop, bosh kiyim, ro‘molcha va hokazo) olinib, zich yopiladigan tiqinli idishga joylashtiriladi. Agar bunday imkon bo‘lmasa, insondan tarqalayotgan hid manbai ustiga 20–30 daqiqa davomida hidni yaxshi yutuvchi maxsus gazlama parchasini qo‘yib, keyin uni pinset yordamida olib, zich yopiladigan idishga solish amalga oshiriladi. Ushbu uslub huquqiy amaliyotda keng qo‘llaniladi. Tez bug‘lanuvchi modda qoldiqlarini (masalan, benzin, kerosin, dizel yoqilg‘isi) esa hermetik idishlarda saqlash lozim.

Mikroskopik tadqiqotlar. Ekspertiza amaliyotida mikroskopik usullar muhim o‘rin tutadi va ular turli obyektlar hamda moddalarni o‘rganishda keng qo‘llaniladi. Tadqiqotning turi va obyekt xususiyatiga qarab, mikroskopik tahlil yorug‘likda yoki aks etgan nurlarda amalga oshiriladi. So‘nggi yillarda ekspertiza jarayonlarida tobora ko‘proq qutblangan yorug‘likda mikroskopik tahlil usullari qo‘llanilmoqda. Bu usul kristall moddalar, tabiiy va sintetik tolalar, don, kraxmal, shuningdek ayrim o‘simlik va hayvon to‘qimalarini o‘rganish imkonini beradi. Shu tarzda olib borilgan tadqiqotlar yordamida turli materiallarni aniqlash hamda ularning tuzilishidagi farqlarni belgilash mumkin. Zamonaviy usullardan biri – to‘lqin hosil qiluvchi elektron mikroskopiya bo‘lib, u yuqori vakuumda tuzilishini saqlab qoluvchi va elektron nurlar ta’sirida o‘zgarmaydigan obyektlarning sirt tuzilishini o‘rganishga imkon yaratadi.

To‘lqin hosil qiluvchi elektron mikrosnusxa uslubi soch tolalarini tahlil qilishda ularning ajralish jarayoni, tashqi muhit ta’siri hamda kimyoviy ishlov izlarini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Ushbu usul ekspertiza amaliyotida turli material zarralaridan hosil bo‘lgan mikroizlarni aniqlashda ham keng foydalaniladi. To‘lqin hosil qiluvchi mikrosnusxa orqali olingan to‘qimachilik tolalarining morfologik xususiyatlari mikroskopik tahlil asosida o‘rganilib, ularning asosida mikroizlar aniqlanadi va solishtiriladi.

Material va moddalar tarkibini o‘rganishga mo‘ljallangan usullar hamda qurilmalar kriminalistik ekspertizada uzoq yillardan beri qo‘llanib kelmoqda. Bunday usullarga atom spektrometriyasi, rentgenospektral tahlil hamda neytron tahlil usullari kiradi.

Emissiya-spektral tahlil. Ushbu usul maxsus asbob – spektrofotometr yordamida bajariladi. Mazkur tahlil orqali turli xil bo‘yoqlar, avtomobil lok-bo‘yoqlari, porox, giyohvand moddalar, moylar, zaharli kimyoviy birikmalar va shunga o‘xshash boshqa moddalarning tarkibini aniqlash hamda ularni toifalash mumkin. Element tarkibini o‘rganish usuli transport vositalarining lok-bo‘yoq qoplamalarini, mato va tolalarni identifikatsiyalash, shuningdek tuproq qoldiqlarini tahlil qilishda

qo‘llaniladi. Tabiiy o‘simliklardan olingan giyohvand moddalarning element tarkibi ularning qaysi hududda yetishtirilganini va o‘stirish texnologiyasini aniqlash imkonini beradi. Sun’iy yo‘l bilan tayyorlangan giyohvand moddalarda esa element tarkibini tahlil qilish orqali ularni ishlab chiqarish jarayoni va texnologik usullarini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Hozirgi paytda ushbu usullar yordamida moddalarning qaysi mintaqada ishlab chiqarilganini ham taxmin qilish mumkin. Element tarkibini o‘rganish qimmatbaho toshlarning turlarini farqlashga ham imkon beradi. Atom spektrometriyasi va shunga o‘xshash boshqa usul hamda asboblar buyumning asl yoki soxta ekanligini aniqlashda qo‘llaniladi. Masalan, ular yordamida mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasida qachon va qanday o‘zgarishlar bo‘lganini aniqlash mumkin. Element tarkibini tahlil qilish usullari boshqa analiz vositalari bilan birgalikda etil aralashgan benzinning yoki oziq-ovqat yog‘larining buzilish darajasini, shuningdek oltin va oltin buyumlari bilan birga saqlangan matolarda mavjud bo‘lgan oltin mikrozarralarini aniqlashda qo‘llanadi.

Molekulyar spektrometriya

Molekulyar spektrometriya usullari va qurilmalari spektr tahlili orqali dori vositalari, zaharli moddalari, plastmassa, lok-bo‘yoq mahsulotlari, yoqilg‘i-moylash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, kimyoviy tolalar hamda rezina materiallarini o‘rganishda qo‘llaniladi. Sud ekspertizasi jarayonlarida asosan infraqizil spektroskopiya usuli keng ishlatiladi. Ushbu usul yordamida turli kimyoviy birikmalarni aniqlash va identifikatsiya qilish mumkin.

Ekspertiza amaliyotida infraqizil spektrometriya vositalari neft mahsulotlari, moylar, lok-bo‘yoq qoplamalari, tolalar, polimerlar, plastmassalar, sharikli ruchka pastalari hamda portlovchi moddalarning tahlilida qo‘llaniladi. Bu usulning muhim jihatlaridan biri tasodifiy

ravishda hosil bo‘lgan organik moddalar tarkibi haqida aniq ma’lumot olish imkoniyatidir.

Ashyoviy dalillarni sud ekspertizasi jarayonida tahlil qilishda samarali hisoblangan usul va vositalardan biri – bu spektral lyuminestsensiya tahlilidir. Mazkur usul yoqilg‘i-moylash mahsulotlarini hamda zaharli moddalarni o‘rganishda qo‘llaniladi. Shuningdek, u sanoat chiqindilari tarkibida uglevodorodlar mavjud bo‘lgan joylarni aniqlash va tarkibi turlicha bo‘lgan shisha namunalarini farqlash imkonini beradi. Spektral tahlil yordamida o‘q otish vaqtida qurol stvolining sirti qirilishi natijasida metall yuzasida paydo bo‘lgan juda mayda izlar, porox qoldiqlari hamda boshqa usullar bilan aniqlab bo‘lmaydigan mikroskopik izlarni ham topish mumkin bo‘ladi.

Ba’zi metall qotishmalari, masalan qo‘rg‘oshin asosidagi qotishmalar, spektral tahlil yordamida o‘rganilganda ularning markasini, shuningdek tarkibida maxsus qo‘shimchalar mavjud bo‘lsa, qotishmaning ishlab chiqarilgan joyini ham aniqlash mumkin. Ushbu usul tarkib jihatidan bir-biriga juda o‘xshash bo‘lgan qotishma va aralashmalarni ham farqlash imkonini beradi. Shunday tahlil orqali qiyoslanayotgan obyektlar, masalan murdadan olingan mayda zarrachalarning gumon qilinayotgan shaxsga tegishli patrondagi zarrachalar bilan o‘xshashligi yoki to‘liq mosligini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Obyektlarning tuzilishi va fazoviy tarkibini tadqiq etish uslubi

Materiallar, moddalar va buyumlarning tuzilishi hamda fazoviy tarkibini o‘rganishda ko‘pincha metallografiya usullari va rentgen tahlilidan foydalaniladi. Metallografik tadqiqotlar yordamida, masalan yong‘in, portlash yoki avariya hodisasining sababchi omil bo‘lganini yoki aksincha, ularning natijasi sifatida yuz berganini aniqlash mumkin. Yong‘in markazi va ta’sir doirasini belgilashda metallografiya usullari metall buyumlarning qizish darajasi hamda issiqlikka ta’sir etilgan vaqtni aniqlash imkonini beradi. Metall yoki qotishmalar qizdirilganda ularning

sirtida rang o‘zgarishlari kuzatiladi, bu esa issiqlik ta’sirining darajasini baholashda muhim belgidir.

Ushbu usullar yordamida metall va qotishmalarning issiqlik darajasi hamda ta’sir muddati bo‘yicha oraliqlarini aniqlash mumkin. Kriminalistik ekspertiza amaliyotida material va moddalarni tahlil qilishda rentgen usullari keng qo‘llaniladi. Mazkur usul yordamida ashyoviy dalillarning fazoviy tarkibi hamda ularning ichki tuzilishidagi o‘zgarishlar aniq belgilanadi. Bu uslub kristallsimon tuzilishga ega bo‘lgan deyarli barcha obyektlarni o‘rganish uchun qo‘llanilishi mumkin. Rentgen asosida olib boriladigan fazoviy tahlil tezkor va aniq natijalar beradi, olingan ma’lumotlar esa avtomatlashtirilgan tarzda elektron hisoblash mashinalariga kiritilib qayta ishlanadi. Hozirgi kunda bunday tahlil usuli giyohvand moddalar, qimmatli qog‘ozlar va hujjatlarning materiali, lok-bo‘yoqlar, qurilish materiallari, farmatsevtika vositalari, zaharli kimyoviy moddalar, kimyoviy tolalar hamda metall va qotishmalardan tayyorlangan buyumlarni o‘rganishda muvaffaqiyat bilan qo‘llanilmoqda.

Kriminalistik texnikaning tergov va tezkor-qidiruv ishlarida qo‘llanilishi

Kriminalistik texnikadan tezkor-qidiruv xodimlari, tergovchilar, mutaxassis-kriminalistlar hamda sud organlari o‘z vakolatlari doirasida foydalanadilar. Ushbu texnika vositalariga tergovchilar va kriminalistik ekspertiza bo‘limlari qo‘llaydigan ilmiy-texnik jihozlar majmualari, ko‘chma kriminalistik laboratoriyalar, ovoz yozuvchi qurilmalar kiradi. Shuningdek, jinoyatlarning oldini olish, ularni tezkor aniqlash, jinoyatchilarni topish va qo‘lga olish jarayonida ishlatiladigan signal beruvchi xavfsizlik tizimlari, turli maxsus texnik vositalar hamda hujjatlarni qalbakilashtirishdan himoya qiluvchi kimyoviy asboblar ham kriminalistik texnika tarkibiga kiradi.

Kriminalistik texnika vositalari quyidagi jarayonlarda keng qo‘llaniladi: tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda, hodisa joyini ko‘zdan kechirishda, tintuv, so‘roq, eksperiment o‘tkazishda, shuningdek ashyoviy

dalillarni tahlil qilish, video yoki kinomateriallarni ko‘rish, magnit yozuvlarini eshitish va boshqa tekshiruv ishlari davomida.

Ushbu vositalar tezkor-qidiruv faoliyatida dalillarni izlab topish, jinoyatlarni fosh etish, ularning oldini olish, zarur ma’lumotlarni qayd etish va tahlil qilishda muhim o‘rin tutadi. Tergov jarayonida esa ular jinoyat izlarini aniqlash, dalillarni yig‘ish, saqlash, hujjatlashtirish hamda ekspertizaga tayyorlash uchun qo‘llaniladi.

Tezkor-qidiruv va tergov ishlari davomida mutaxassislar texnik vositalar va uslublardan foydalanib, tergovchi va tezkor xodimlarga amaliy yordam ko‘rsatadilar hamda zarur maslahatlar beradilar.

Sudda ishlatilishi mumkin bo‘lgan kriminalistik texnika va usullarga qo‘yiladigan talablardan biri ular qonuniy huquqlar va manfaatlarni buzmasligi lozimligi. Shuningdek, insonlarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligi ta’minlanishi, axloqiy hamda etik normalarga rioya etilishi kerak. Axborot manbalari izlar va ashyolar saqlanishi kafolatlanishi, hamda ekspertiza, dastlabki tekshiruvlar, suratga olish, video va audio yozuvlar, ko‘rsatmalar, material nusxalar va chizmalar kabi ma’lumotlar buzilmasligi talab etiladi. Vositalar va usullardan to‘g‘ri foydalanish uchun zarur obyektiv shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi ham muhimdir.

Kriminalistik texnikadan foydalanishda eng muhim talab – qo‘llaniladigan texnik vosita va usullarning ilmiy jihatdan asoslangan hamda ishonchliligi ta’minlangan bo‘lishidir. Har qanday texnik qurilma yoki maxsus materiallar, shuningdek ularni qo‘llash usullari tibbiyotda qo‘llaniladigan vositalarga o‘xshash tarzda qat’iy ilmiy dalillarga tayanishi, vakolatli organlar tomonidan sinovdan o‘tgan bo‘lishi va ekspertiza hamda jinoyat-qidiruv amaliyotida foydalanish uchun ruxsat etilgan bo‘lishi zarur.

Aynan shu tartibda amal qilingandagina kriminalistik texnika yordamida olingan ma’lumotlarning to‘g‘riligi, aniqligi va ishonchliligi kafolatlanadi. Faqat shunday yondashuv orqaligina jinoyat ishlarini tergov qilishda obyektiv va ishonchli natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

Kriminalistik texnikani yuqorida tilga olingan barcha shaxslar yuqori malaka bilan qo‘llashi – ikkinchi muhim talab hisoblanadi. Bu talab texnik vositalar va usullarni chuqur egallash hamda ularni to‘g‘ri amaliyotda qo‘llashni taqozo etadi. Shu bilan birga jinoyat protsessual qonunlarining eng muhim tamoyillaridan biri bo‘lgan obyektiv yondashuv har jihatdan to‘liq bajarilishi zarur. Tergov hujjatlarida va kriminalistik ekspertiza xulosalarida dastlabki tekshiruv materiallari, ishlatilgan texnika va uslublarning qo‘llanish shartlari, tartibi hamda natijalari batafsil qayd etilishi muhimdir. Shuningdek, texnik vositalar qo‘llanganligi dalillanishi, ma’lum bir ma’lumotni texnika va usul yordamida aniqlash yoki tergov harakatlarini (ko‘zdan kechirish, eksperiment o‘tkazish, voqea joyida ko‘rsatmani qayta tiklash va hokazolar) amalga oshirish imkoniyati yaratilishi lozim.

Tergov va tezkor-qidiruv tadbirlarini olib borishda texnik jihozlar bilan to‘ldirilgan «tezkor» sumka juda foydali hisoblanadi. Turli izlar va ashyolarni topish, ularni hujjatlashtirish, nusxalash va qayd etish uchun zarur bo‘lgan barcha asbob-uskunalar aynan shu sumkada saqlanadi. «Tezkor» sumkada, odatda quyidagi vositalar bo‘ladi: foto- va video yozib olish uchun apparatlar; izlarni mustahkamlash va nusxalash uchun mo‘ljallangan asboblar; terida qolgan, ko‘zga ko‘rinmaydigan izlarni ko‘rinarli qilib olish uchun foydalaniladigan vositalar; o‘lchov va optik jihozlar (lupalar); shuningdek yozuv va chizma tayyorlash hamda ma’lumotlarni qayd etish uchun zarur materiallar.

KAZUS: «Qo‘l izlari va predmetlar orqali jinoyatchini aniqlash»

Vaziyat

Toshkent shahrining Yakkasaroy tumanida kechqurun bir xonadonda o‘g‘rilik sodir etiladi. Jinoyatchi derazani sindirib kirib, uy egasining qimmatbaho telefonini va 5 million so‘m pulini o‘g‘irlaydi.

Tezkor tergov guruhi hodisa joyini ko‘zdan kechiradi. U yerdan deraza oynasida **qo‘l barmoq izi**, stol ustida esa **yopishqoq lentaning bir**

bo‘lagi topiladi. Shuningdek, jinoyatchi tashlab ketgan **sigaret qutisi** ham dalil sifatida olinadi.

Ekspertiza jarayonida daktiloskopik usul bilan olingan qo‘l izlari bazadagi ma’lumotlar bilan solishtiriladi va ilgari ma’muriy javobgarlikka tortilgan 28 yoshli Rustam ismli shaxsning izlariga **to‘liq mosligi** aniqlanadi.

Sigaret qutisidan olingan **DNK izi** ham Rustamga tegishli ekani keyinchalik biologik ekspertiza orqali tasdiqlanadi. Natijada, kriminalistik identifikatsiya usullari yordamida jinoyatchi to‘liq aniqlanadi va uning aybi dalillar bilan isbotlanadi.

Tahlil uchun savollar

1. Ushbu holatda kriminalistik identifikatsiya qanday maqsadda qo‘llanilgan?
2. Jinoyatchini aniqlashda qaysi identifikatsiya shakllari va prinsiplari ishlatilgan?
3. Dalillar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlilik belgilarini aniqlash qanday ilmiy asosda amalga oshirilgan?
4. Kriminalistik identifikatsiya boshqa qaysi kriminalistika sohalari bilan bog‘liq holda qo‘llanilgan?
5. Ushbu ishda identifikatsiya natijalari qanday yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan?
6. Jinoyatlarni fosh qilishda kriminalistik texnika qanday vazifalarni bajaradi? Hozirgi zamonaviy Axborot-texnologiyalarining rivojlanishi kriminalistik texnikaga qanday ta’sir qilmoqda?
7. Kriminalistik texnika tekshiruvining qanday vosita va uslublarini bilasiz? Muayyan bir jinoyatni misol tariqasida olib, uni fosh etishda qanday kriminalistik texnika vositalaridan foydalanish mumkinligini tushuntirib bering.

Nazorat savollari

1. Kriminalistik identifikatsiya mazmun-mohiyatini tushuntirib bering. U qanday vazifalarni hal qilish maqsadida qo‘llaniladi va qanday shakllari mavjud?
2. Kriminalistik diagnostikaning mazmun mohiyatini tushuntirib bering, u identifikatsiyadan nimasi bilan farq qiladi?
3. Identifikatsiyaviy tadqiqot jarayoni?

XII BOB. SUD FOTOGRAFIYASI VA VIDEO TASVIR YOZUVI

12.1. Kriminalistik fotografiya tushunchasi, uning qo‘llanish shakllari.

12.2. Kriminalistik fotografiya metodlari.

12.3. Sud videotasvir yozuvi.

12.4. Suratga va videotasvirga tushirish natijalarini protsessual rasmiylashtirish.

1. Kriminalistik texnikaning umumiy qoidalari. Kriminalistik texnikaning asoslari.

Kriminalistik texnika tushunchasi va uning vazifalari. Kriminalistik texnika tekshiruv vositalari va uslublari. Kriminalistik texnikaning tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qo‘llanilishi.

12.1. Kriminalistik fotografiya tushunchasi, uning qo‘llanish shakllari

Sud fotografiyasi kriminalistika sohasida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim o‘rin tutadi. Dalillarni qayd etishda bayonnoma tuzish bilan birga ovoz yozish, videotasvirga olish, kino va fototasvirlar, qolip olish, nusxalar tayyorlash, reja va sxemalar chizish hamda axborotni boshqa usullar bilan ifodalash imkoniyatlari mavjud. Shu sababli sud fotografiyasi hodisa joyini ko‘zdan kechirishda, tergov eksperimentlarida, murdani ekshumatsiya qilishda, ashyolarni olib qo‘yish va tintuv jarayonlarida, shuningdek tanib olish va boshqa tergov harakatlarida dalillarni mustahkamlash va vizual tarzda aks ettirish vositasi sifatida keng qo‘llaniladi.

Kriminalistik fotografiya – bu tergov harakatlari, tezkor-qidiruv tadbirlari va ekspert tekshiruvlari jarayonida qo‘llaniladigan, ilmiy asosda ishlab chiqilgan suratga olish usullari tizimidir. Tushirilgan fotosuratlar tergov bayonnomalari yoki ekspertiza xulosalariga ilova qilinadi. Ular rasmiy tarzda tasvirlangan obyektlarni aks ettirib, predmet (iz) belgilarini, tergov jarayoni o‘tgan sharoitni hamda ekspert tekshiruvi natijalarini

ko‘rish imkonini beradi. Bunday suratlar bayonnomaning tasviriy qismini (yoki ekspertiza xulosasining tadqiqot qismini) nafaqat to‘ldiradi, balki og‘zaki izoh bilan ifodalash qiyin bo‘lgan belgilar va sharoitlarni aniq tasavvur qilish imkonini ham yaratadi. Suratga olish dalillarni qayd etishning obyektiv shakli bo‘lib, og‘zaki tasvirlash usuliga nisbatan bir qator ustunliklarga ega: suratlarning rasmiy va ishonchli bo‘lishi, ularning aniq va yaqqol ko‘rinishi, ma’lumotni yuqori aniqlikda uzatishi hamda aks ettirish jarayonining tezligi. Shu sababli zamonaviy fotoapparatlar yordamida olingan tasvirlar dalillarni mustahkamlashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Kriminalistik fotografiya hozirgi amaliyotda dalillarni ishonchli tarzda aks ettirish va ilmiy tekshiruv usullarini qo‘llashning majmuasi sifatida keng foydalanilmoqda. Ushbu qo‘shimcha texnik vositalardan foydalanilganligi tergov harakati yoki sud majlisi bayonnomasida albatta qayd etiladi. Shu bilan birga, tergov yoki sud majlisi bayonnomasiga fotojadval ilova qilinadi. Ko‘zdan kechirish jarayonida esa surishtiruvchi, tergovchi yoki sud vakili bevosita obyektlarni fotosuratga oladi:

1) sud-tergov fotografiyasi;

2) sud-ekspert fotografiyasi;

3) tezkor-qidiruv fotografiyasi.

Kriminalistik fotografiyaning usul va metodlari maqsadiga qarab ikki turga bo‘linadi: dalillarni mustahkamlovchi va dalillarni tekshiruvchi. Mustahkamlovchi metodlarga panorama, o‘lchovli, reproduktiv, stereoskopik, tanib olishga mo‘ljallangan hamda yirik masshtabli suratga olish turlari kiradi. Tekshiruvchi metodlar esa mikrosuratga olish, tasvir kontrastini oshirish yoki ko‘rinmas spektr nurlarida suratga tushirish kabi usullarni o‘z ichiga oladi. Bu metodlar oddiy ko‘z bilan ko‘rish mumkin bo‘lmagan belgi va alomatlarni aniqlab, ularni tahlil qilish imkonini beradi. Aynan tekshiruv metodlari orqali hujjatlardagi qalbakilashtirish izlarini topish, mikrobelgilarni o‘rganish va boshqa shunga o‘xshash ekspert tadqiqotlarini amalga oshirish mumkin.

Sud-tergov va tezkor-qidiruv fotografiyasi amaliyotida, odatda dalillarni ishonchli tarzda hujjatlashtirishga xizmat qiluvchi mustahkamlovchi usullardan foydalaniladi. Sud-ekspert fotografiyasi esa holatga qarab nafaqat mustahkamlovchi, balki tekshiruvchi metodlardan ham foydalangan holda amalga oshiriladi.

Sud-tergov fotografiyasining qo‘llanilish sohalari:

1. Hodisa joyini, murdani, ashyoviy dalillarni hamda hujjatlarni ko‘zdan kechirish vaqtida.
2. Tirik shaxslarni guvohlantirish jarayonida.
3. Tintuv o‘tkazish chog‘ida.
4. Tergov eksperimenti o‘tkazish paytida.
5. Tanib olish uchun shaxsni ko‘rsatishda.
6. Tirik shaxslar va murdalarni ro‘yxatga olishda.

Ekspert fotografiyasi esa kriminalistik ekspertizalarning turli yo‘nalishlarida qo‘llanadi. U sud-tibbiyot, sud-avtotexnika, sud-yong‘in texnikasi kabi boshqa ekspertiza turlarida ham keng foydalaniladigan muhim texnik vosita hisoblanadi.

Ushbu metodlar bilan bir qatorda mo‘ljal, umumiy ko‘rinish, detalli va markaziy suratga tushirish kabi maxsus usullar ham ishlatiladi.

Daliliy ahamiyatga ega bo‘lgan obyekt va faktlarni eng aniq hamda samarali tarzda tasvirlash uchun turli suratga tushirish turlari – mo‘ljalli, obzorli, mazmunli, detalli va tanib olishga mo‘ljallangan usullar tanlab qo‘llaniladi. Panoramali suratga olish esa vertikal yoki gorizontal shaklda bajarilishi mumkin. Vertikal usul fazoviy yoki tik joylashgan obyektlarni suratga olishda, gorizontal usul esa uzoqdan ko‘rinadigan hududlarni tasvirlashda qo‘llanadi. Amaliyotda asosan gorizontal panoramali usul keng qo‘llaniladi. Bu holatda to‘g‘ri chiziqli yoki aylanma panoramali usullardan foydalanish mumkin. To‘g‘ri chiziqli panoramada obyekt qarshisida to‘g‘ri yo‘nalishda bir nechta nuqtalardan suratga olinadi. Aylanma panoramada esa fotoapparat shtativ o‘qi atrofida gorizontal yo‘nalishda aylantiriladi. Ushbu usul obyekt fotoapparatdan ancha uzoqda

joylashganda (masalan, hovlining markazidan butun maydonni olishda) qo‘llanadi, yaqin masofada esa tasvir buzilish xavfi yuzaga keladi.

12.2. Kriminalistik fotografiya metodlari

Panoramali suratga olish – bu qiziqtirayotgan obyektni to‘liq tasvirlash imkonini beruvchi usul bo‘lib, ayniqsa keng burchakli obyektiv yetarli bo‘lmaganda yoki obyektni kerakli masofadan olish imkoni yo‘qligida qo‘llaniladi. Bunday suratga olish maxsus panoramali apparatlar yordamida yoki obyektni qismlarga bo‘lib suratga olish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu jarayonda obyekt bir xil masofadan bir necha marta suratga olinadi, har bir kadr esa avvalgi suratdagi hududning taxminan 10 foiz qismini o‘z ichiga olishi lozim. Barcha suratlar bir xil sharoitlarda – masofa, yorug‘lik va rakurs jihatidan bir xil holatda tushirilishi kerak. Suratga olish davomida kadrning chekkasidagi muayyan obyekt mo‘ljal sifatida tanlanadi; u keyingi suratda ham ko‘rinib turishi zarur. Agar tabiiy mo‘ljal mavjud bo‘lmasa, sun’iy belgilardan – masalan, qoziqcha yoki maxsus belgichalardan foydalanish mumkin. Keyinchalik barcha olingan negativlar bir xil sharoitda fotonashr qilinib, ularning umumiy chiziqlari bo‘yicha kesiladi va bir-biriga ulanib, yagona panorama hosil qilinadi.

Panoramali suratga olishni maxsus fotoapparatlar, jumladan, «FT-2» va «Gorizont» turidagi panorama apparatlari yordamida ham amalga oshirish mumkin. «FT-2» apparati gorizontal yo‘nalishda 120° burchak ostida suratga olish imkonini beradi. Uning negativ kadri 24x100 mm o‘lchamda bo‘lib, bu oddiy kadr uzunligidan qariyb uch baravar katta hisoblanadi. «Gorizont» apparatining negativ kadri esa 24x57,5 mm o‘lchamga ega. Ushbu apparatlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularning suratga olish mexanizmi chiziqlarni egri shaklda hosil qiladi, bu esa keng burchakli obyektlarni tabiiy va to‘liq tasvirlash imkonini beradi.

Zatvor tugmachasi bosilgandan so‘ng, fotoapparat obyektivi egri chiziq bo‘ylab aylanadi, bunda obyektivning fokusi doimiy ravishda bir nuqtada saqlanadi. Panoramali suratga olish odatda hodisa joyi, tintuv

o‘tkaziladigan hudud yoki tergov eksperimenti o‘tkaziladigan joylarni to‘liq tasvirlash uchun qo‘llaniladi.

Stereoskopik suratga olish esa predmetlarni hajmli ko‘rinishda idrok etish imkonini beradi, bu usul ularning shakli va fazodagi o‘zaro joylashuvini aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi. Stereoskopik suratga olishda ikkita nuqtadan – ya’ni bir-biridan ma’lum masofada joylashgan pozitsiyalardan tasvir olinadi. Bu masofa stereoskopik baza deb ataladi.

Har bir nuqtadan olingan suratlar xuddi insonning chap va o‘ng ko‘zlari orqali alohida ko‘rgan tasvirlariga o‘xshash bo‘ladi. Olingan suratlar 42x36 mm o‘lchamda tayyorlanadi va chap hamda o‘ng rasm mos ravishda kartonga yopishtiriladi. Ular orasidagi masofa 65 mm atrofida bo‘lishi kerak. Ushbu juft suratlar stereoskop moslamasi orqali ko‘riladi. Qurilmaning konstruksiyasi stereojuftlikni yaqinlashtirish yoki uzoqlashtirish orqali hajmli effektni yanada kuchaytirish imkonini beradi.

Stereoskopik fototasvir, asosan obyektlarning mayda detallarini aniq aks ettirish uchun qo‘llaniladi. O‘lchamli fototasvir esa obyektlar o‘rtasidagi masofani aniqlash imkonini beradi. Bunday turdagi suratga olish ikki shaklda amalga oshiriladi:

1) masshtabli fototasvir;

2) metrik fototasvir.

Masshtabli fototasvirda obyekt bilan birgalikda maxsus masshtab chizig‘i ishlatiladi. Suratdagi obyekt qanchalik kichraytirilsa, masshtab ham shunga mutanosib ravishda kichrayadi, bu esa keyinchalik obyektning barcha o‘lchamlarini aniqlik bilan o‘lchash imkonini beradi. Bunday bir xil kichrayish natijasiga erishish uchun masshtabli suratga olishda ikki asosiy shartga amal qilish zarur:

1. Masshtab chizig‘i obyektning yoniga qo‘yilibgina qolmasdan, suratga olinayotgan tekislik bilan bir yo‘nalishda joylashtirilishi kerak.

2. Fotoapparat esa shunday o‘rnatiladiki, uning obyektivi optik o‘qi suratga olinayotgan tekislikka nisbatan mutlaqo perpendikulyar holatda bo‘lishi lozim.

Masshtab chizig‘ini obyektning ustiga qo‘yish tavsiya etilmaydi, chunki bu holda ayrim mayda detallar ko‘rinmay qolishi mumkin. Metrik suratga olish esa obyektning o‘lchamlarini emas, balki ular orasidagi masofani ham aniqlash imkonini beradi. Metrli fotografiya usuli, odatda obzorli yoki markazli suratga olishda zarur bo‘lgan paytlarda qo‘llaniladi. Katta masshtabli suratga olish esa mayda izlar, kichik buyumlar va ularning detallarini aniq tasvirlash uchun ishlatiladi. Kamera qopqog‘ini ikki baravar cho‘zish yoki obyektivga maxsus moslama o‘rnatish orqali obyektni tabiiy hajmda suratga olish mumkin.

Kichik formatli fotoapparatlar bilan suratga olish biroz murakkab jarayondir. Ularning yordamida odatda bir metrgacha masofadan (ba’zi hollarda 0,5 metrga qadar) surat olish mumkin. Birinchi holatda fotografik kattalashtirish koeffitsiyenti 19–20 baravarni, ikkinchi holatda esa 11–12 baravarni tashkil etadi. Reproduksiyaviy fototasvir usuli esa obyektning tashqi ko‘rinishini – hujjatlar, chizmalar, fotosuratlar, qo‘lda chizilgan rasmlar va loyihalarni tabiiy hajmda, kattalashtirilgan yoki kichraytirilgan shaklda suratga olish (fotonusxa olish) uchun qo‘llaniladi. Reproduksiyaviy usul ikki turga bo‘linadi:

1) fotoapparat yordamida;

2) kontakt usulda.

Tirik shaxslarni suratga olish, odatda ikki rakursda – to‘g‘ridan va yon (o‘ng hamda chap) tomondan amalga oshiriladi. Agar yuzda o‘ziga xos belgilar mavjud bo‘lsa, shaxs ikkala tomondan ham suratga olinadi. Suratga tushirish jarayonida boshning tik holatda bo‘lishiga alohida e’tibor qaratish kerak. Yon holatda suratga olayotganda esa sochlar quloq yoki uning bir qismini to‘smasligi lozim. Surat uchun fon sifatida och kulrang rang tavsiya etiladi. Agar maxsus fon ekrani bo‘lmasa, suratga olinuvchi och rangli devor oldida turishi mumkin, biroq bosh soyasining devorga tushmasligi uchun ular orasidagi masofa taxminan bir metr bo‘lishi kerak. Yoritish masalasi ham muhim – yorug‘lik tarqoq bo‘lmasligi lozim, chunki bunday holatda yuz xiralashib, konturlar yo‘qoladi. Eng yaxshi natijaga 45 daraja burchak ostida yo‘naltirilgan, bir tekis tarqalgan yorug‘lik sharoitida erishiladi.

Reproduksiyaviy suratga olish hujjatlarning barcha turlarini daliliy ashyo sifatida rasmiylashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Bunday suratlar tezkor jarayonlarda, xususan, ko‘zdan kechirish bayonnomalarini to‘ldirishda hamda hujjatlarni ekspertizaga tayyorlashda qo‘llaniladi. Kontakt reproduksiya usulida suratga olish uchun, odatda refleksli qog‘ozlardan foydalaniladi. Bu qog‘ozlar asosan turli xil hujjatlar, chizmalar va sxemalarning nusxalarini olishda ishlatiladi. Refleksli qog‘ozning emulsiya qatlami nusxasi olinayotgan original hujjatning ustiga qo‘yiladi va ustidan tiniq shisha bilan yopiladi. Olingan negativdan keyinchalik bir nechta nusxalar tayyorlash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Tirik shaxslar va murdalarni tanib olish maqsadida suratga olish quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

1) ro‘yxatga olish. uchun;

2) tanib olish uchun ko‘rsatish maqsadida;

3) ekspert tadqiqoti uchun.

Tanib olish uchun suratga olishda yuz tasvirining tabiiy hajmiga nisbatan taxminan 1/7 qismda bo‘lishi tavsiya etiladi. Biroq bunday darajadagi kichraytirishga faqat 6x9, 13x18 yoki undan katta formatdagi kadrli fotoapparatlar yordamida erishish mumkin. Murdani tanib olish maqsadida suratga olish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: avvalo, sud-tibbiyot eksperti murdaning yuz tuzilishini imkon qadar tiklashga harakat qiladi. Suratga olish to‘g‘ridan, o‘ng va chap profildan amalga oshiriladi. Murdani tik holda suratga olish uchun uni stulga o‘tkaziladi va boshi maxsus tayanch ushlagich yordamida mahkamlanadi. Agar murda yalang‘och holatda topilgan bo‘lsa, suratga olishdan oldin uning tanasi oq mato bilan o‘rab qo‘yiladi.

Murdaga boshqa kiyim kiydirish esa maqsadga muvofiq emas, chunki bu tanib olish jarayonida chalkashlik keltirib chiqarishi mumkin.

Suratga olishning maxsus usullari voqea joyini tasviriy tarzda hujjatlashtirish, bayonnomani mustahkamlash hamda ashyoviy dalillarning fotonusxalarini jinoyat ishiga ilova qilish imkonini beradi.

Voqea joyini o‘z vaqtida, kechiktirmasdan suratga olish nihoyatda muhimdir.

Tergovchi tomonidan olingan suratlarning samaradorligi yuqori bo‘lishi uchun quyidagi shartlarga rioya etilishi lozim:

1. Voqea joyidan manfaatdor yoki begona shaxslarni uzoqlashtirish;

2. Holatni o‘zgarishsiz saqlash, ya’ni daliliy ashyolar va boshqa buyumlarning buzilmasligini ta’minlash.

3. Voqea joyi hamda u yerdagi dalillar – qo‘l, oyoq, kiyim, transport izlari va boshqa belgilarni yomg‘ir, qor yoki boshqa tashqi omillar ta’siridan himoyalash zarur.

Statik tekshiruv jarayonida obyektlar qanday joylashgan bo‘lsa, vaziyatni aynan shu holatda saqlagan holda obzorli va markaziy tarzda suratga olish amalga oshiriladi.

Dinamik ko‘zdan kechirish faol harakatni o‘z ichiga olgan jarayon bo‘lib, voqea joyini batafsil o‘rganishni nazarda tutadi. Unda o‘q otish qurollari, gilzalar, patronlar, izlar hamda boshqa ashyoviy dalillar diqqat bilan tekshiriladi, zarur hollarda qo‘lga olinadi yoki agar olib ketish imkoni bo‘lmasa, ular suratga tushiriladi. Suratga olish obyektlariga jinoyat bilan bog‘liq bo‘lgan joylar – masalan, yo‘l, bino, hovli, o‘rmon, temiryo‘l, tomorqa yoki uy ichidagi sezilarli predmetlar, jinoyatdan qolgan izlar, oyoq yoki qo‘l izlari, shikastlangan to‘siqlar, buzish uchun ishlatilgan qurollar, transport vositalari va ularning izlari kiradi. Bu tasvirlar qo‘shimcha ravishda ko‘rgazmali dalil sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Voqea joyini aks ettiruvchi fotosurat faqatgina u belgilangan maqsadlarga muvofiq tarzda va ko‘zdan kechirishning har bir bosqichi to‘liq hujjatlashtirilgan holda olingan taqdirdagina mukammal bajarilgan hisoblanadi.

Voqea joyini suratga olish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Voqea sodir bo‘lgan joyni uning atrofi bilan birgalikda aks ettirish mo‘ljalli (orientirli) suratga olish deb ataladi. Bunday turdagi suratlar voqea joyidagi obyektlarning umumiy holatini va voqea bilan bog‘liq

joylarni to‘liq tasvirlash imkonini beradi. Agar keng hududni yoki butun vaziyatni bir kadrda ko‘rsatish zarur bo‘lsa, keng burchakli obyektivlardan yoki panoramali suratga olish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayrim hollarda esa, voqea joyi baland bino yoki daraxtlar bilan to‘silib qolgan bo‘lsa, holatni yuqoridan turib suratga olish tavsiya etiladi.

2. Obzorli suratga olish – bu voqea sodir bo‘lgan joyni qanday holatda topilgan bo‘lsa, aynan shu holatda tasvirga tushirish jarayonidir. Ushbu turdagi suratga olishda joyning umumiy ko‘rinishini to‘liq va mazmunli tarzda aks ettirish muhim hisoblanadi. Suratlar voqea sodir bo‘lgan joyning asosiy elementlarini, eng muhim qismlarini va umumiy vaziyatni to‘liq ko‘rsatishi lozim. Bu jarayonda joyning o‘sha paytdagi holati, buyumlarning joylashuvi va mavjud izlar diqqat bilan o‘rganiladi.

Obzorli suratga olish natijasi obyektlarning soni, fotoapparatni joylashtirish burchagi va suratga oluvchining holatiga bog‘liq bo‘ladi. Ba’zan bir tomondan olingan suratda ayrim detallar boshqa buyumlar ortida qolishi mumkin. Shu sababli, voqea joyini to‘rt tarafdan – to‘rt xil nuqtadan suratga olish tavsiya etiladi.

Suratga olinadigan nuqtalar sifatida joyda o‘zgarmas va aniq ko‘rinadigan obyektlar – masalan, alohida bino, inshoot, daraxt yoki ko‘cha belgilanadi. Bunday suratlarni olishda ko‘pincha panoramali usul qo‘llaniladi. Tergovchi voqea joyini batafsil o‘rganib, uning chegaralarini, hajmini va holatni ifodalovchi barcha jihatlarni aniq suratlarda aks ettirishi lozim.

3. Markaziy (uzlovoy) suratga olish. Kriminalistik nuqtayi nazardan voqea joyi yoki uning alohida hududidagi muhim predmetlarni alohida suratlarga olish katta ahamiyatga ega. Ko‘pincha bunday markaziy obyektlar – murda va uning atrofidagi izlar, qon dog‘lari yoki jinoyat qurollari bo‘ladi. O‘g‘irlik holatlarida eshik va derazalarning holati, omborning ochiq qolishi; yo‘l-harakat hodisasida esa avariya joyi va jabr ko‘rgan avtomobil kabi elementlar maxsus tarzda tasvirlanadi. Xususan, murdadagi jarohat belgilarini, buzilgan eshik, deraza yoki devorlardagi

shikastlanishdan qolgan izlarni, shuningdek o‘q o'tgan joylar va qurol izlarini aynan shu usul bilan hujjatlashtirish lozim.

4. **Detalli suratga olish.** Detalli suratga olishning bosh maqsadi – voqea joyidagi mayda detallar va daliliy ashyolarni aniq tasvirlab olishdir. Masalan, turli moslamalar, kalitlar, mixlar, yog‘och yoki boshqa materiallarning mayda bo‘laklari, qo‘l izlari, otilgan o‘q va gilzalar, singan shisha parchalari kabi obyektlar shu usulda suratga olinadi. Ushbu usul markazli suratga olishdan farq qiladi, chunki ayrim detallarni joyidan olib, maxsus sharoitda – masalan, laboratoriyada yoki alohida xonada suratga olish mumkin. Shuningdek, obyektning tabiiy o‘lchamini aniqlash uchun suratga olish jarayonida uning yoniga chizg‘ich yoki santimetr lenta kabi o‘lchov vositalari qo‘yiladi.

Izlarni suratga olish o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, qo‘l izlarini tasvirga olish odatda ikki bosqichda bajariladi:

1) avvalo, qo‘l izi tushgan predmetning o‘zi suratga olinadi – bu izlarning qayerda joylashganini ko‘rsatish uchun zarur;

2) so‘ngra, bevosita barmoqlarning izlari yirik masshtabli suratga olish usulida, uzunlashtiruvchi halqalar (makroobyektiv) yordamida tasvirga olinadi.

Suratga olishdan oldin izlar ustiga maxsus kukun sepiladi, bu ularni aniqroq ko‘rish imkonini beradi. Agar izlar rang jihatidan juda xira yoki fon bilan qo‘shilib ketgan bo‘lsa, bunday holatda predmet izlari bilan birga ekspertiza bo‘limiga yuboriladi.

Oyoq kiyimi va transport vositalari izlarini suratga olishda alohida izlar ham, ularning guruhli shakllari ham tasvirga olinadi. Agar izlar juda uzun yoki ketma-ket joylashgan bo‘lsa, ularni to‘liq aks ettirish uchun chiziqli panorama usuli qo‘llanadi. Suratga olish vaqtida obyekt yoniga masshtabli chizg‘ich qo‘yiladi, bu izlarning o‘lchamini aniqlashga yordam beradi. Ayrim oyoq kiyim izlari esa ularning shakli, o‘lchami, shuningdek o‘ziga xos belgi va xususiyatlarini aniqlash maqsadida suratga olinadi. Transport vositalarining izlarini tasvirga olishda esa izlarning aniq ko‘rinadigan yoki o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lgan qismlarini suratga

olish zarur. Buzuvchi qurollar va ular qoldirgan izlar avval markazli usulda, so‘ngra masshtabli suratga olish yo‘li bilan tasvirlanadi.

Fotoapparatdan to‘g‘ri yo‘nalgan va tarqoq bo‘lmagan yorug‘likda foydalanish izlarning relyefini aniq aks ettirish imkonini beradi. Murdani hodisa sodir bo‘lgan joyda suratga olish belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi, so‘ngra markazli tarzda suratga olinadi. Bunda murdani ikki qarama-qarshi tomondan tasvirga olish eng to‘g‘ri usul hisoblanadi, uchinchi surat esa tepadan olinadi. Agar murda boshi yoki oyoq tomondan suratga olingan bo‘lsa, bu holda tasvirdagi perspektiva biroz buzilishi mumkin, shu sababli bunday usul faqat maxsus holatlarda – masalan, murda tor joyda joylashganida yoki uning holatini alohida ko‘rsatish zarur bo‘lganda – qo‘llaniladi. Murdani dastlabki topilgan holatda suratga olish tugagach, u ehtiyotkorlik bilan ag‘darilib yoki boshqa holatga o‘tkazilib, tananing ilgari ko‘rinmagan qismlari ham suratga olinadi.

Sud fotografiyasi ish uchun muhim dalil bo‘la oladigan moddiy obyektlar va faktlarni tasvir orqali qayd etish hamda ularni oshkor qilish maqsadida qo‘llaniladi. Ushbu usul o‘zining ko‘rgazmali, aniq va tez bajariladigan xususiyatlari bilan qayd etishning boshqa metodlaridan ajralib turadi. Oshirish maqsadidagi suratga olish jarayoni mutaxassis tomonidan laboratoriya sharoitida, maxsus uslublar yordamida amalga oshiriladi. Qo‘llaniladigan fototexnika vositalari va usullarining tanlovi tekshirilayotgan obyektlarning turi hamda oshirishning maqsadiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday jarayonlarda turli xil fotografik usullar qo‘llanilib, kerakli natijaga erishiladi. Mikro va makro fotografiya yordamida oddiy ko‘z bilan aniqlab bo‘lmaydigan mayda yoki o‘rta o‘lchamdagi izlar va detallarni maxsus qisqa fokusli obyektiv, fotokamera yoki fotonasadka bilan birlashtirilgan mikroskop orqali tasvirga olib, qayd etish mumkin.

Birinchi usulda obyekt 20–30 baravar kattalashtiriladi va bu jarayon makrosurat deb ataladi. Mikroskop yordamida esa obyekt yanada yuqori darajada – bir necha ming marta kattalashtirilgan holda tasvirlanishi mumkin. Bunda optik yoki elektron mikroskoplardan foydalaniladi. Shu tarzda olingan mikrosuratlar orqali izlar va mayda detallar

kattalashtirilgan tasvir asosida o‘rganiladi (buning uchun MKS-1, MFN-2, MRKA, «Ularus» kabi uskunalar qo‘llaniladi). Suratga olish jarayonida mikroobyekt tasvirining aniqligi asosan yorug‘lik manbaining to‘g‘ri yo‘naltirilishiga va yoritish darajasining to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq, chunki bunday sharoitda yorug‘lik miqdori ko‘pincha cheklangan bo‘ladi.

Ba’zan obyekt va uning ichki detallarining ko‘zga ko‘rinishdagi farqlari shu darajada sust bo‘ladiki, ularni bir-biridan ajratish mushkul bo‘ladi. Bunday hollarda kontrastni oshirish zarur bo‘ladi. Masalan, qog‘ozdagi yozuvlarni aniqroq ko‘rsatish uchun hujjatni kontrast sezuvchan fotomaterialga joylashtirib, bir martalik kontrastli suratga olish yoki tasvirni fotokimyoviy usullar yordamida kuchaytirish orqali kontrast darajasi oshiriladi.

Turli kriminalistik ekspertizalar jarayonida quyidagi masalalarni hal etishga to‘g‘ri keladi:

1) kichik o‘lchamdagi obyektlarning oddiy ko‘z bilan ko‘rinmaydigan mayda detallarini aniqlash;

2) ko‘z bilan ilg‘ash mushkul bo‘lgan va atrof-muhit fonidan juda oz farqlanadigan belgilarni topish;

3) oddiy yorug‘lik sharoitida ko‘rinmaydigan ayrim detallarni aniqlash.

Ranglarni ajratish usuli orqali rangi o‘zgargan, o‘yilgan, shikastlangan (kuydirilgan), o‘chirilgan, matnlar qo‘shilgan yoki ayrim chizma va harflarga tuzatishlar kiritilgan hujjatlar tekshiriladi. Bunda hujjatdagi rangli kontrastlar svetofiltr yordamida suratga olinib, ularning aniqligi va ko‘rinishi kuchaytiriladi. Shu bilan fon yoki mayda detallarni aniqlash vazifasi ham bajariladi.

Svetofiltr tanlash jarayonida atrof muhitdagi rang spektri hisobga olinadi va unga mos qo‘shimcha ranglardan foydalaniladi. Muayyan detalni aniq ko‘rsatish uchun rang doirasida unga qarama-qarshi tonda tasvir beruvchi svetofiltr qo‘llanadi. Agar yorug‘lik intensivligini pasaytirish zarur bo‘lsa, zamonaviy rangli svetofiltrlar ishlatiladi.

Ko‘rinmas dog‘lar va izlarni turli spektr nurlarida – masalan, ultrabinafsha, infraqizil yoki rentgen nurlarida – suratga olish mumkin. Ultrabinafsha hamda infraqizilnurlar, shuningdek ko‘rinadigan yorug‘lik diapazonidagi ayrim moddalarning luminessensiyasi maxsus sezuvchan fotomateriallar yordamida qayd etiladi. Bunday hollarda fotoapparat obyektiviga 3S-1, JZS-5, JS-17, KS-19 svetofiltrlari yoki kvarsli optik moslamalar (masalan, «Ufar» yoki «Zufar» turidagi obyektivlar) o‘rnatiladi.

Ultrabinafsha nurlar bilan suratga olish jarayonida kattalashtirish usullari va tasvir olish texnikasi fotoqatlamlarga bir xil darajada tushuvchi, ko‘zga ko‘rinmas moddalarning nurlarga ta’siriga asoslanadi. Ko‘pincha bunday usuldan kimyoviy reaktivlar bilan o‘chirilgan hujjat matnlarini tiklashda foydalaniladi.

Filtrlar yordamida obyekt yuzasida qolgan o‘q otish izlari, qon dog‘lari, shuningdek siyohi tarqalgan, o‘chgan yoki xiralashgan yozuvlarni aniqlash mumkin. Bunday hollarda infraqizilnurlar bilan ishlaydigan IKS-1 yoki IKS-2 svetofiltrlari, infraxromatik fotomateriallar yoki elektron-optik texnologiyalar qo‘llaniladi. Rentgen nurlari yordamida oshirish ishlari esa, odatda, maxsus jihozlangan laboratoriya sharoitida amalga oshiriladi.

Rentgen yordamida hajmli obyektlarning ichki tuzilishini ko‘rish va oshirish mumkin. Rentgen nurida ishlashda nur o‘tmaydigan elementlardan foydalaniladi va kuzatuv maxsus apparat orqali yoki rentgen fotoplyonkalarida amalga oshiriladi. Kriminalistik oshirish jarayonida rentgen nurlaridan tashqari radioaktiv nurlanish – gamma va betta nurlari ham qo‘llaniladi.

So‘nggi yillarda jinoiy voqealarni to‘liq va batafsil qayd etishning zamonaviy vositalaridan biri sifatida videotasvir tobora keng qo‘llanilmoqda. Ilgari videoyozuv mavjud bo‘lmagan davrlarda, dalillarni mustahkamlash uchun magnit tasmasiga ovoz yozuvi, kino yoki fototasvir kabi an’anaviy usullar ishlatilgan. Biroq, bu usullarda bir qator cheklovlar mavjud edi.

Grafik va fototasvir usullaridan farqli o‘laroq, videoyozuv barcha hodisalarni dinamik tarzda to‘liq aks ettiradi. Videotasvirning afzalligi shundaki, u tergov jarayonining borishi, voqealarning rivoji va ularning tafsilotlarini hamda ishtirokchilarning harakatlarini aks ettiruvchi to‘liq axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Videotasvir ishonchli daliliy ashyolarni qo‘lga kiritishga yordam beradi. U hodisani tergov ishtirokchilari qanday kuzatgan bo‘lsa, shunday tarzda qayta namoyon etadi. Bundan tashqari, videotasvir kadrlarni sekinlashtirish yoki tezlashtirish, voqealarni to‘xtatish, ularni sinchiklab o‘rganish va izchil tahlil qilish imkonini beradi. Bu imkoniyatlar nafaqat dastlabki tergovda, balki sud jarayonlarida ham katta ahamiyatga ega.

Xususan, sudlanuvchilar dastlabki tergovda bergan ko‘rsatmalarini o‘zgartirishi yoki tergov materiallarining daliliy ahamiyatini yo‘qotishga urinishi ehtimoli mavjud bo‘lganda, videotasvir ayniqsa foydali vosita hisoblanadi.

12.3. Sud videotasvir yozuvi

Videomagnitofon texnikasining asosiy afzalligi shundaki, u izlarni qayd etishda yoki tergov harakatlarini olib borishda yetarli bo‘lmagan jihatlarni to‘ldirish imkonini beradi, masalan, yo‘l sharoiti, ob-havo yoki qorong‘i joylarda. Qonuniy tartibda kinotasvirdan foydalanishda yuqori ta’sirchan surat tasmasi ishlatilishi shart. Videoyozuv esa tungi vaqtlarda yoki ochiq havoda voqea sodir bo‘lgan joylarni kuzatishda, qo‘shimcha va sun’iy yorug‘likni qo‘llashga imkon beradi. Xususan, «Panasonic» videokameralarida noqulay sharoitlarda ham korpus ichidagi galogen chiroqning nuri yetarli bo‘ladi. Shu bilan birga, qo‘shimcha yorug‘lik manbalarini va boshqa yoritish usullarini qo‘llash imkoniyati ham mavjud.

Videoyozuvni kinotasvir yoki videofonogramma bilan bog‘liq holdagi tarjima qilingan filmning bir ko‘rinishi sifatida qarash mumkin. Bunda asosiy farq shundaki, kinotasvirda voqea yorug‘lik plyonkasida qayd etilsa, videoyozuv videomagnitofondagi magnit tasmasida saqlanadi. Shu jihatdan videoyozuv voqealarni qayd etishning eng qulay va ishonchli vositasi

hisoblanadi, shubhaga o‘rin qoldirmaydi. Videoyozuv kinotasvir bilan solishtirilganda tezkor, aniq va iqtisodiy jihatdan samaraliroqdir. Bundan tashqari, rangli videotasmalardan foydalanish imkoniyati borligi sababli u oq-qora kinotasvirlarga nisbatan kengroq axborot maydonini taqdim etadi. Kinotasvirni kimyoviy ishlov berish uning sifatini kafolatlamaydi va to‘liq saqlanishini ta’minlamaydi, shuningdek kinoplyonkani montaj qilish jarayonida xatoliklar yuz berishi mumkin.

Kinokameradan farqli ravishda, videokamera avtomatik tarzda ishlaydi va uni videomagnitofonga ulash hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi. Videoyozuvning afzalligi shundaki, videomagnit tasmasi hech qanday maxsus qayta ishlashni talab qilmaydi, uni ko‘p marotaba ishlatish mumkin va tergov harakati tugagach darhol namoyish etish imkonini beradi. Videoyozuv tergov bayonnomasida yozilgan holatlarni aniq va to‘liq aks ettirish, shuningdek ayrim sabablarga ko‘ra bayonnomada qayd etilmagan predmetlar va hodisalarni ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Shu tariqa, tergovchi yuzaga kelgan kamchiliklarni to‘ldiradi, bayonnomada berilgan detallarni vizual tarzda ko‘rib chiqish va tasavvur qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, videoyozuv ishni hal qilishda muhim obyektiv ma’lumotlarni saqlaydi, qulay va vaqtni tejash bilan ajralib turadi. Shu sababli videoyozuv texnikasini, asosan, tergovda qiziqtirgan hodisalar, manbalar va dinamik harakatdagi obyektlarni qayta tiklash va qayd etish maqsadida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Videoyozuv texnikasi ayniqsa voqea joyini ko‘zdan kechirish murakkab va tez o‘zgaruvchi bo‘lgan hollarda samarali hisoblanadi, masalan: yong‘in, suv toshqini, portlash, transport hodisasi yoki voqea natijalarini qayta tiklash zarur bo‘lgan vaziyatlarda.

Videokamera voqeani umumiy tarzda qayd etadi va masalan, yong‘in belgilarini batafsil tahlil qilishda yordam beradi. Ba’zi hollarda u yong‘inning yuz berish sabablarini aniqlash, olov tarqalish yo‘nalishini belgilashda ham foydali bo‘ladi. Agar yong‘in joyi o‘rmon hududida bo‘lsa, maydonni yuqoridan kuzatish vertolyotdan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Videoyozuv texnikasi o‘zgaruvchan vaziyatlardagi ma’lum obyekt va hodisalarni kuzatishda ayniqsa foydalidir. Shu bilan birga, zarurat tug‘ilganda, ma’lum shaxsning belgilangan vaqt oralig‘ida kasbiy bilim va ko‘nikmalarini qo‘llab, muayyan harakatlarni amalga oshirishini qayd etish orqali tergov eksperimentlarini samarali o‘tkazish imkonini beradi. Videoyozuv yordamida dalillarni qayd etishning ushbu yangi usuli protsessual qoidalarga zid kelmaydi, jinoyat ishini chuqurroq tekshirish va dastlabki tergov materiallarining daliliy ahamiyatini oshirish imkonini beradi.

12.4. Suratga va videotasvirga tushirish natijalarini protsessual rasmiylashtirish

Jinoyatlarni aniqlash va tergov ishlarini olib borishda sud fotografiyasi suratlari yetarlicha yuqori sifatga ega bo‘lishi talab etiladi. Suratlar voqea holati, vaziyat va muayyan obyektlarni to‘liq aks ettirishi lozim. Sud fotografiyasi nafaqat dalillarni tasdiqlash, balki ularni isbotlash jarayonini ham osonlashtiradi. Olingan fotosuratlar bayonnomalarga ilova qilinadi, biroq bu tergovchini bayonnoma tuzish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Oldin olingan fotosuratlar ham batafsil izoh bilan ta’riflanishi lozim. Suratlar faqat tashqi ko‘rinishni aks ettiradi, biroq tergovchining so‘z bilan ifodalashga urinadigan jihatlari materialning qattiqligi yoki yumshoqligi, ahamiyati, tuzilishi kabi xususiyatlarni ko‘rsatolmaydi. Kriminalistik fotosuratlar olingan natijalari tergov harakati bayonnomasida aks etadi. Ko‘zdan kechirish bayonnomasida obyektning nomi, ishlatilgan fotoapparat modeli, obyektiv turi, yorug‘lik manbai (tabiiy yoki sun’iy), negativ fotomaterialning spektral sezgirligi, fotografiya usuli, olingan kadrlar soni, diafragma qiymati va boshqa ma’lumotlar qayd etiladi. Agar surat masshtabli bo‘lmagan bo‘lsa, obyekt masofasini ko‘rsatish uchun shkaladagi metr qiymati ko‘rsatiladi.

Fotoapparat modeli va obyektiv turi voqea sodir bo‘lgan holatni qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega. Yorug‘lik manbai, yorug‘lik filtri va

fotomateriallarning sezgirligi esa predmet yoki detalning yorug‘lik darajasini ko‘z bilan baholash imkonini beradi. Suratdagi predmetlarning rangi va ishlatilgan fotomaterialga qarab ayrim kamchiliklar yuzaga kelishi mumkin; masalan, qizil, havorang, ko‘k yoki jigarrang rangdagi obyektlar o‘z rangidan to‘qroq ko‘rinadi. Fotoapparat yordamida olingan kadrda predmetlar tartib raqami bilan belgilanishi va tayyorlangan fotosurat bilan mos kelishi zarur.

Guvoh yoki ayblanuvchining ko‘rsatmalariga binoan voqea joyi suratga olinganida, bayonnomada olingan obyektlar, qo‘llanilgan fotografiya usullari va kadrlar soni aniq ko‘rsatiladi. Bir obyekt bo‘yicha turli shaxslarning ko‘rsatmalari asosida farq qiluvchi natija olish maqsadida yorug‘lik filtrlari, negativ turi va diafragma sozlamalari o‘zgartirilgan holda suratga olish va ularni belgilash mumkin.

Tushuntirish matnida quyidagi ma’lumotlar kiritilishi lozim

1. Suratga olingan obyektlar tavsifi – qaysi predmetlar, izlar yoki daliliy ashyolar suratga olingani aniq ko‘rsatiladi.

2. Fotografiya usuli – qaysi metod (markazli, obzorli, detalli, masshtabli, panoramali va boshq.) ishlatilgani bayon qilinadi.

3. Kadrlar soni – olingan suratlar soni va ularning tartib raqamlari ko‘rsatiladi.

4. Fotoapparat va obyektiv modeli – ishlatilgan texnika vositalari, shu jumladan obyektiv markasi va turi aniqlanadi.

5. Yorug‘lik sharoiti – tabiiy yoki sun’iy yorug‘lik ishlatilgani, qo‘llangan filtrlar va fotomaterial sezgirligi qayd etiladi.

6. Suratga olish shartlari – masofa, diafragma, fiksatsiya, qo‘llanilgan maxsus usullar yoki aksessuarlar haqida ma’lumot.

7. Masshtab va ko‘rsatkichlar – agar masshtabli chizg‘ich ishlatilgan bo‘lsa, u ham tushuntirishda aks ettiriladi.

8. Qo‘shimcha izohlar – obyektlar bo‘yicha maxsus sharoitlar, ko‘rsatilgan ranglar yoki yorug‘lik sharoitlaridagi o‘zgarishlar haqida ma’lumot.

Tushuntirish matnini quyidagicha ifodalash mumkin:

Muhim alomatlar rasm yoki belgilar yordamida aniqlanadi va raqamlar bilan belgilanishi lozim.

Tanib olish maqsadida olingan fotosuratlarda tasvirlangan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi alohida tushuntirish matnida ko‘rsatiladi. Fotosuratlar tergovchi yoki surishtiruvni olib borgan mas’ul shaxs tomonidan imzo bilan tasdiqlanadi, bayonnomada esa tergovchi hamda xolislar o‘z imzolarini qo‘yadilar.

Ekspert-kriminalistlar tomonidan tayyorlangan fotosuratlar maxsus shakldagi surat jadvali blankasiga joylashtiriladi va ular ekspert xulosasining ilova qismida qayd etiladi. Tushuntirish matnida fotoapparatning modeli, obyektiv markasi, yorug‘lik manbai, ishlatilgan yorug‘lik filtrlari hamda qo‘llanilgan fotomateriallarning yorug‘lik sezuvchanlik darajasi ko‘rsatiladi.

Jadvalda obyektning o‘ziga xos belgilari, shuningdek nazorat (control) surati bilan bog‘liq havola beriladi. Har bir surat tegishli tushuntirish matni bilan to‘ldiriladi va unda obyektga qo‘yilgan belgi yoki raqamning ma’nosi izohlanadi.

Har bir surat jadvali ekspert tomonidan imzo bilan tasdiqlanadi. Kinosuratlarni rasmiylashtirish chog‘ida esa barcha voqealar tegishli bayonnomada qayd etilib, protsessual tartibda hujjatlashtiriladi.

Protsessual qoidalarga muvofiq, suratga olingan obyektning tabiati, epizodlar soni va qisqacha mazmuni, qo‘llangan suratga olish usullari, kinoapparat modeli, obyektiv markasi, kadrlar aylanish tezligi va yorug‘lik turi bayonnomada aniq ko‘rsatiladi.

KAZUS: «Sud fotosurati va videotasvir orqali jinoyatni fosh etish» Vaziyat

Samarqand shahrida tungi vaqtda avtomobil o‘g‘riligi sodir etiladi. Fuqaro Azizbekning yangi avtomobili ko‘p qavatli uyning oldida turar edi. Ertasiga tongda u mashinaning yo‘qolganini bilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar beradi.

Tezkor-tergov guruhi hodisa joyiga chiqib, **kriminalistik texnika vositalari** yordamida dalillarni yig‘adi: erdagi shinalar izi, mashinani ochish uchun ishlatilgan metall vosita qoldiqlari, shuningdek voqea joyidagi **videokuzatuv kamerasi** yozuvi olinadi.

Sud fotosurati yordamida tergovchi hodisa joyining har bir tafsilotini – izlarning joylashuvi, yo‘l belgilarining masofasi, binoning kirish qismi va boshqa elementlarni **aniq o‘lchovlarda** suratga oladi. Videotasvir yozuvini tahlil qilganda, tungi vaqtda niqob kiygan shaxs avtomobilni ochib, uni olib ketgani aks etgani aniqlanadi.

Video tahlil natijasida gumondor shaxsning kiyimi va gavda tuzilishidan kelib chiqib, tezkor guruh uni topadi. Keyinchalik ekspertiza o‘g‘rilikda foydalanilgan metall vosita bilan mashinada qolgan izlar **mutanosib** ekanini isbotlaydi.

Tahlil uchun savollar

1. Ushbu holatda kriminalistik texnikaning **qaysi vosita va usullari** qo‘llanilgan?
2. Sud fotosurati va videotasvir yozuvining **kriminalistik ahamiyati** nimalarda namoyon bo‘lgan?
3. Dalillarni hujjatlashtirishda kriminalistik texnika qoidalari qanday **tartibda amalga oshirilgan**?
4. Fotosurat va videotasvir dalil sifatida sudda **qanday yuridik kuchga** ega?
5. Bu ishda kriminalistik texnikaning **aniqlik, obyektivlik va ilmiylik prinsiplari** qanday namoyon bo‘lgan?

Nazorat savollari

1. Kriminalistik fotografiya qay hollarda va shakllarda qo‘llaniladi? Zamonaviy fotoapparatlarni qo‘llash imkoniyatlari qanday?
2. Kriminalistik fotografiya qanday metodlarga asoslanadi?

XIII BOB. KRIMINALISTIK BALLISTIKA. KRIMINALISTIK TRASOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING ILMIY ASOSLARI.

13.1. Kriminalistik trasologiya.
13.2. Kriminalistik ballistika.

13.1. Kriminalistik trasologiya.

Ballistika tushunchasi va tekshiruv obyektlari

Sud ballistikasi – bu kriminalistik texnikaning maxsus tarmog‘i bo‘lib, jinoyat sodir etilishida qo‘llanilgan o‘qotar qurollar, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar, shuningdek o‘q otish yoki portlash natijasida hosil bo‘lgan izlar, o‘zgarishlar va qoldiqlarni aniqlash hamda ularni rasmiylashtirish bilan shug‘ullanadi. Ballistika atamasi yunoncha «ballo» – «otish» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u asosan o‘q va sochma o‘qlarning qurol ichida va havo muhitida harakatlanish jarayonlarini o‘rganishga qaratilgan fan sifatida shakllangan.

Kriminalistik ballistika harbiy ballistika va unga tegishli texnik yutuqlarning ayrim usullarini o‘z vazifalariga moslashtirib qo‘llaydi. Ushbu soha qurollarning tuzilishi va turlari, o‘q uzish natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlar hamda o‘q-dorilar – patron va gilzalarning qaysi quroldan otilgani aniqlanishi kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Kriminalistik ballistika boshqa forensika yo‘nalishlari, xususan trasologiya bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi: o‘qlar va gilzalarda hosil bo‘lgan izlarning paydo bo‘lish mexanizmi hamda ularni tahlil qilish trasologiyaning umumiy nazariy tamoyillariga tayangan holda o‘rganiladi. Bundan tashqari, o‘q otish natijasida inson tanasida paydo bo‘ladigan turli alomatlar va jarohatlar sud-tibbiyot ekspertizasi uchun obyekt bo‘lib, boshqa to‘siqlardagi o‘zgarishlar ham kriminalistik ballistika doirasiga kiradi.

Kriminalistik ballistika tekshiruvi obyektlariga quyidagilar kiradi: o‘qotar qurollar hamda ularning tashqi ko‘rinishi bir xil bo‘lgan

moslamalar va yasama qurollar, qurollarning alohida qismlari, otilgan va otilmagan o‘qlar yoki snaryadlar, portlovchi moddalar va ularning qoldiq zarrachalari, shuningdek o‘q uzilishi natijasida paydo bo‘ladigan turli to‘siqlardagi izlar va inson tanasidagi jarohatlar. Tergov va ekspertiza amaliyotlarida jinoyat maqsadida ishlatilgan o‘qotar qurollardan ko‘pincha kichik va qisqa stvolga ega, qo‘l bilan tutib otiladigan turlar uchrab turadi.

Otish qurolining stvoli – o‘q yo‘lini tashkil etuvchi silindr shaklidagi tub qism bo‘lib, uning boshlang‘ich qismi (dasta tomonidagi joyi) bilan uch qismi (muhandislik nuqtayi nazaridan chiqish uchi) o‘lcham jihatidan biroz farq qiladi; uchi odatda biroz kengroq bo‘ladi. Ballistikada aynan ushbu joy «patronnik» deb ataladi – ya’ni patron (o‘q va gilza birlikda) joylashadigan bo‘shliq joyi. Otishga tayyorlangan patron stvolning old tomoniga joylashadi va harbiy holatga keltirilganda uning gilzasidagi kapsula (portlovchi poroxni yoqadigan qismi) tegishli pozitsiyada bo‘ladi.

Stvol uzunligiga ko‘ra qurollar quyidagi toifalarga bo‘linadi:

- **Uzun stvolli qurollar** – stvol uzunligi 40 sm dan ortiq bo‘lganlar (masalan, harbiy va ov miltiqlari, karabinlar).
- **O‘rta uzunlikdagi stvollar** – uzunligi 20 sm.dan 40 sm.gacha bo‘lgan qurollar (shu jumladan turli avtomatlar, masalan «Kalashnikov» avtomati).
- **Qisqa stvolli qurollar** – stvol uzunligi 20 sm.dan kam bo‘lganlar (revolverlar, pistoletlar hamda ba’zi qo‘lbola yasalgan yoki stvoli qisqartirilgan qurollar).

Qo‘lga olinadigan barcha otish qurollari stvol ichining tuzilishiga ko‘ra ikki asosiy guruhga ajratiladi: **silliq stvolli** va **o‘yma (riflli) stvolli** qurollar. Silliq stvollilarga, odatda, sochma o‘q otishga mo‘ljallangan ov miltiqlari, eskirgan shompollik pistoletlar va qo‘lbola yasalgan qurollar kiradi.

Stvol ichidagi chuqurchalar va ular orasidagi maydonchalar – o‘q stvoldan chiqayotganda uning yon tomonida tirnalish va sirg‘alish shaklidagi izlar qoldiradi. Ana shu izlar – o‘qning va stvolning o‘ziga xos

mikromarkalari – qurolni individual ravishda aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Chuqurchalarning miqdori turli qurollarda farq qiladi: ko‘plab qo‘l qurollarida – pistolet va to‘pponchalarda – odatda to‘rtta chuqurcha uchraydi; ba’zi modellarda esa oltita yoki yettita bo‘lishi mumkin, kamdan-kam hollarda esa sakkizta chuqurchaga duch kelinadi. Chuqurchalarning aylanma yo‘nalishi odatda o‘ngga burilgan bo‘lsa, ayrim qurollarda chap tomonga yo‘nalgan bo‘ladi. Chuqurchali (riflli) qurollar guruhiga barcha harbiy maqsadli qurollar, ayrim sport – o‘quv miltiqlari hamda qo‘l bilan yig‘ilgan yoki ba’zi detallaridan iborat qurollar kiradi.

«Kalashnikov» avtomatlari sifatida tanilgan 7,62 mm.li AK turlari mavjud; ayrim modifikatsiyalar – AKM, AKS, AKSU va boshqalari esa 5,45 mm li kalibrga ega bo‘ladi. TT (Tokarev), PM (Makarov), APS va PSM qurollari quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

TT – Tula shahrida yasalgan Tokarev pistoleti bo‘lib, 7,62 mm kalibrga ega; uning stvoli to‘rt chuqurchali va o‘ngga burilgan yo‘nalishga ega; magasiziga sakkiz dona patron sig‘adi va jangovar holatga keltirish jarayoni avtomatlashtirilgan.

PM – Makarov pistoleti bo‘lib, zaryadlash (harbiy holat) avtomatik tarzda amalga oshiriladi; u 9 mm kalibrli, to‘rt chuqurchali stvolga ega va magazini sakkiz patronni sig‘dira oladi.

APS – avtomatlashtirilgan Stechkin pistoleti 9 mm kalibrli bo‘lib, to‘rt chuqurchali stvoli mavjud va magasiga 20 ta patron joylashadi.

PSM – Lapasheyev, Simarin va Kulikovlar tomonidan ishlab chiqarilgan ixcham o‘lchamli pistolet bo‘lib, 5,45 mm kalibrga ega, stvoli to‘rt chuqurchali va magasiga sakkiz patron sig‘adi.

Revolver (to‘pponcha) – to‘liq avtomatik emas, stvoli, odatda to‘rt chuqurchali bo‘lgan qurol. Patronlar joylashadigan qismi – aylanma, dumaloq baraban (silindr) shaklida bo‘lib, uning ichida odatda yetti dona patron sig‘adigan alohida uyalar mavjud. Qurol jangovar holatga qo‘l

bilan tayyorlanadi; otish paytida baraban aylanib, har bir uyadagi patron ketma-ket stvol bilan moslashadi va otiladi.

Silliq stvolli miltiqlar ikki asosiy turga bo‘linadi: stvoli dasta bilan bukiladiganlari (break-action) va buklanmaydiganlari. Buklanadiganlari bir, ikki yoki ba’zan uch stvolli (uch otarli) bo‘lishi mumkin. Jinoyatchilar ba’zan bunday miltiqlarning stvollarini kesib, arralab qisqartirib, yashirin olib yurishga moslaydilar – bunday o‘zgartirilgan qurollarga amaliyotda «qirqma» deyishadi. Qirqma stvoldan otilgan o‘qlarning tezligi oddiy ov miltig‘iga nisbatan biroz past bo‘ladi.

Qo‘lbola yasalgan shompollik qurol odatda yakka o‘q otishga mo‘ljallangan bo‘ladi: porox va o‘q shompolga joylashtiriladi, ba’zida ikki yoki uch marotaba otilishga mo‘ljallangan variantlari ham uchraydi. Bunday qurol odatda 5–6 mm kalibrga moslashtirilgan bo‘ladi. Otish qurolining turli ish bosqichlarida qurolning alohida qismlarida o‘ziga xos izlar hosil bo‘ladi: qurolni o‘qqa tayyorlashda, magasindan patron stvolga uzatilganda, kapsulaga zarba berilganda, porox gazining bosimi oqibatida o‘q stvoldan tortilib chiqayotganda hamda gilza orqaga qaytib zarba berganda – bularning barchasi turli izlarni qoldiradi. Otilgan gilzalarda, shuningdek magasindan keluvchi prujina harakati yoki gilzani chiqarish jarayonlari natijasida hosil bo‘lgan izlar aniqlanadi. Otilgan o‘qlarda esa stvol ichidagi chuqurchalar va ular orasidagi maydonchalar ta’siri bilan timalar va boshqa mikromarkalar paydo bo‘ladi.

Hozirgi zamonda foydalanilayotgan barcha harbiy patronlar to‘rt asosiy qismdan iborat: **gilza**, **kapsul**, **porox zaryadi** va **o‘q**. Ov qurollarida qo‘llaniladigan patronlarda porox bilan sochma o‘q bir-biriga aralashib ketmasligi uchun ular orasiga **maxsus ajratuvchi qavat (prokladka)** va o‘q ustiga **namat yoki boshqa materialdan tayyorlangan qoplama** joylanadi.

Gilzalar odatda **metall (masalan, latun yoki o‘zmir)** dan tayyorlanadi, lekin ov miltiqlari uchun ishlab chiqariladigan gilzalar orasida **qog‘oz yoki kartonli**, pastki qismi metall, yuqori qismi esa kartonli variantlari ham mavjud.

Gilzaning **og‘iz qismi** (ya’ni o‘q joylashadigan joyi), **devori** va **pastki qismi** asosida u qaysi turdagi yoki modeldagi qurolga tegishli ekani aniqlanadi. Hodisa joyidan topilgan **o‘q yoki gilza** o‘rganilgach, ularning **qaysi turdagi quroldan otilganligi** haqida fikr yuritish mumkin.

Agar tergov davomida gumon ostidagi qurol aniqlansa, shundan keyin **individual identifikatsiya** o‘tkaziladi – ya’ni, topilgan **o‘q va gilza aynan shu quroldan otilganmi yoki yo‘qmi** degan savolga aniq javob beriladi.

Agar qurol o‘zi topilmasa, o‘q va gilzadan uning qaysi turdagi patronga tegishli ekani aniqlanadi: umumiy tuzilishi, shakli, og‘irligi, qaysi metalldan yasalgani hamda gilzaga qanday usul bilan biriktirilgani o‘rganiladi. Otilgan gilzaning umumiy ko‘rinishi – bosh qismi va asosining qurilishi, o‘lchamlari (diametri va uzunligi), bosh qismining ichki o‘lchovi, og‘irligi, markirovka yoki boshqa belgilari tahlil qilinadi. Ushbu belgilarga asoslanib, u qaysi turdagi quroldan otilgani haqida xulosa chiqariladi; bu esa gumon qilinayotgan qurolni qidirish doirasini sezilarli darajada toraytiradi va qidiruvni yengillashtiradi.

Silliq stvolli qurollar uchun mo‘ljallangan sochma o‘qlarning (masalan, drob yoki kartech) alohida donalari topilgan hollarda, ularning zavod sharoitida yoki qo‘lda yasalganligi, qanday texnologiya asosida tayyorlangani, tashqi ko‘rinishi, og‘irligi hamda kimyoviy tarkibi, spektrografik xususiyatlari aniqlanadi. Bu tekshiruvlar orqali nafaqat o‘qning qaysi guruhga tegishli ekani, balki turli joylardan topilgan o‘q donalari bir manbaga oidmi yo‘qmi – degan savollarga ham javob topish mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, ov qurollariga mo‘ljallangan patronlarning tashqi qoplamasi tahlil qilinib, ularning kalibri, qanday materialdan ishlangani, ishlab chiqarish usuli kabi belgilar aniqlanadi. Agar bunday qoplamalar uy sharoitida tayyorlangan bo‘lsa, ularning tarkibida ishlatilgan materiallar – masalan, qog‘oz, karton, namat, jun singari moddalarning bo‘laklari – boshqa joylarda ham aniqlansa, bu holda trasologik tekshiruvlar o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Otilgan o‘q va gilzalar sosida otish qurolini identifikatsiyalash

Qurollarni identifikatsiya qilishning ilmiy asosini qurolning iz qoldiruvchi qismlari hamda otilgan o‘q va gilzalar yuzasidagi tuzilmalarning o‘ziga xos va yagona (indvidual) xususiyatlarga ega bo‘lishi tashkil etadi.

Qurolning individual tashqi tuzilish belgilari, ayniqsa stvol ichidagi chuqurchalar oralig‘idagi maydonchalar, o‘q stvoldan o‘tayotgan paytda siqilish va sirg‘alish natijasida o‘q yuzasida aniq izlar hosil qiladi. Bu izlar qurolga xos bo‘lgan yagona (individal) belgilardir.

Patronning gilza qismining ustki qismida esa qurolni otishga tayyorlash hamda o‘q uzilishi jarayonida turli mexanik ta’sirlar natijasida izlar hosil bo‘ladi. Gilza va o‘qdagi umumiy belgilarning (masalan, shakli, o‘lchami, kalibri) o‘rganilishi, dastlab qurolning qaysi tur yoki guruhga mansubligini aniqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, qurolga xos bo‘lgan mikrorelyef – ya’ni mayda, takrorlanmas alomatlar – identifikatsiya tadqiqotining asosini tashkil etadi.

Odatda, hodisa joyidan topilgan o‘q va gilzalar dastlab umumiy belgilari bo‘yicha o‘rganiladi. Shundan so‘ng, ularning yuzasidagi izlar qurolning shubha qilingan qismlari bilan solishtiriladi. Bunda shubha ostidagi quroldan eksperimental tarzda o‘q uziladi va namuna sifatida olingan o‘q va gilzalar bilan hodisa joyidan topilganlari taqqoslanadi. Ushbu solishtiruvda izlarning bir xil yoki farqli tomonlari aniqlanadi va shunga asoslanib xulosa beriladi.

Eksperimental tarzda o‘q otish amaliyoti, odatda o‘qni shikastlamaslik va tabiiy izlarni saqlab qolish maqsadida maxsus tayyorlangan paxta, suv yoki shunga o‘xshash to‘siqlarda amalga oshiriladi. Bu to‘siqlar o‘qning harakat tezligini asta-sekin sekinlashtiradi va uning yuzasida hosil bo‘lgan izlarning buzilmasligini ta’minlaydi.

Qurollarni tekshirish va ularni solishtirib oshirishda turli metodlar qo‘llaniladi. Eng samarali va keng qo‘llanadigan usullardan biri bu – **solishtirib oshiruvchi mikroskop** yordamida amalga oshiriladigan

tadqiqotdir. Ushbu mikroskop izlarning uzunligi, kengligi, chuqurligi kabi tafsilotlarni aniq kuzatish imkonini beradi. Bu mikroskoplar ikkita obyektni bir vaqtning o‘zida ko‘rish va ularni bevosita solishtirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tekshiruv jarayonida o‘qlar va gilzalarni fotosuratga olish orqali hujjatlashtirish amalga oshiriladi. Shuningdek, obyektlarning tarkibini aniqlashda **spektrografik tahlil** usuli ham keng qo‘llaniladi. Bu usul yordamida o‘q-dori, porox, gilza va o‘qning tarkibidagi kimyoviy elementlar aniqlanadi va ular hodisa joyidan topilgan boshqa ashyolar bilan qiyoslanadi.

Aynan spektrografik tahlil – hodisa joyidan topilgan obyektlar bilan shubhali qurol yoki moddalarning **guruhga va turga mansubligini** aniqlashda muhim ilmiy asoslardan biri sanaladi. Bu orqali tergov organlari qurol yoki o‘q-dorining manbai haqida aniq xulosaga kelishlari mumkin.

Agar sochma o‘qlarning ayrim donalari hodisa joyida yoki boshqa joylarda topilgan bo‘lsa, ularning **tayyorlanish usuli, ishlatilgan materiali, saqlanish sharoitlari va tashqi alomatlari** asosida tahlil qilinadi. Shu belgilar yig‘indisiga tayangan holda, turli joylarda topilgan o‘q donalari **bir manbaga tegishli ekanligi** aniqlanishi mumkin.

Bu jarayon – **identifikatsiyaning boshlang‘ich bosqichi** hisoblanib, avvalo guruhga mansubligi aniqlanadi va so‘ngra bu xulosalar asosida aniq identifikatsiyaga o‘tiladi.

Ballistik ekspertizaga yuboriladigan o‘qotar qurol esa **topilgan joyida batafsil ko‘zdan kechiriladi**, qurolning umumiy texnik holati, tashqi ko‘rinishi va mavjud alomatlari **rasmiy bayonnomada qayd etiladi**. Qurol bilan ishlashda barcha rasmiylashtirish tartib-qoidalariga qat’iy rioya qilinadi, qurolning holati o‘zgartirilmaydi, ya’ni qanday topilgan bo‘lsa, shundayligicha ekspertizaga yuboriladi.

Bu ehtiyot choralarining barchasi ekspertiza natijalarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Qurol zaryadlangan va jangovar holatga keltirilgan holatda topilgan bo‘lsa, avvalo **undagi patron ehtiyotlik bilan chiqarib olinadi**, shuningdek **magazindagi patronlar soni aniq hisoblab, bayonnomaga kiritiladi**.

Qurolning umumiy holati – **turi, modeli, tashqi ko‘rinishi, mavjud izlar, moddalar va boshqa ko‘zga ko‘rinadigan alomatlari** bayonnomada batafsil qayd etilishi lozim.

Qurolning otishga **yaroqli yoki yaroqsizligini aniqlash maqsadida uni qismlarga ajratish qat’iyan man etiladi**, chunki bu holat uning ustidagi **ekspertiza uchun muhim bo‘lgan izlarning yo‘qolishiga yoki buzilishiga olib kelishi mumkin**.

Agar otish natijasida **turli to‘siqlarda (devor, eshik, kiyim, tanada va boshq.) o‘zgarishlar yoki izlar paydo bo‘lgan bo‘lsa**, bu jarayonlarni o‘rganishda tegishli soha mutaxassisi (masalan, ballistika yoki sud tibbiyoti eksperti)ni jalb qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuningdek, otish vaqtida patrondan ajralib chiqqan:

- **o‘q**;
- **quyma yoki sochma o‘q donalari**;
- **chala kuygan porox zarrachalari va boshqa qoldiqlar,**

alohida tartibda yig‘ilib, **har biri belgilab qo‘yilgan holda, alohida-alohida ekspertizaga yuboriladi**.

Bu amaliyot tergovda haqiqatni aniqlash va qurol bilan bog‘liq faktlarni aniq tasdiqlash uchun muhim hisoblanadi.

Otishdan qoladigan jarohatlarni, otish masofasini, o‘qning yo‘nalish tomonini aniqlash

Otishdan hosil bo‘ladigan jarohatlar va izlar turli to‘siqlarda **masofa, yo‘nalish va to‘siqning xususiyatlariga qarab** turlicha shakl va o‘lchamda namoyon bo‘ladi. Amaliyotda quyidagi holatlar tez-tez uchrab turadi:

- **O‘q to‘siqning qalinligiga qarab uni to‘liq teshib o‘tadi**, ichki qismida **qolib ketadi** yoki **qiyalab o‘tib, faqat sirti bilan tirnab o‘tadi**;

- O‘qning **shikast yetkazish darajasi** bevosita **to‘siq materiali**ga bog‘liq bo‘lib, bu materialning **buzilish, sinish yoki parchalanish xususiyatlariga qarab o‘zgaradi**.

Masalan:

- **Qattiq, mo‘rt materiallar** (masalan, g‘isht, shisha va shunga o‘xshashlar) o‘qqa duch kelganda **parchalanib, sinib ketadi**, buning natijasida hosil bo‘lgan iz yoki jarohat **o‘qning diametridan kattaroq** bo‘lishi mumkin;
- **Matolar** orqali o‘q o‘tganda esa ko‘pincha **teshilgan joyning chetlari kuygan, yirtilgan yoki uzilgan** bo‘ladi, bu esa o‘q o‘tganligini isbotlaydi.

Shu sababli otish natijasida hosil bo‘lgan izlarni tahlil qilish – **o‘q yo‘nalishini, masofani va hattoki qurol turini aniqlashda muhim dalil** hisoblanadi.

O‘q yaqin masofadan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri otilganda matoda kuyish va eritilish belgilari paydo bo‘ladi. Bu holat stvoldan chiqqan porox gazining issiqligi va o‘qning hanuz sovimaganligi tufayli yuz beradi. To‘siqda o‘qdan qolgan izlarni aniqlab o‘rganish orqali yaqin masofadan otilishda hosil bo‘ladigan belgilar, o‘q turi, uning shakli va kalibri, ishlatilgan porox turi, o‘qning yo‘nalishi hamda otgan shaxsning qaysi nuqtadan o‘q uzgani kabi ma’lumotlarni aniqlash mumkin.

Ushbu ma’lumotlar hodisa joyida tergovchi yoki soha mutaxassisi ishtirokida o‘tkaziladigan ko‘zdan kechirish orqali aniqlanadi va ular ballistik ekspertizani o‘tkazish zarur bo‘lgan holatlarni belgilashga xizmat qiladi. To‘siqdagi o‘qdan kelgan jarohatlarni o‘rganishda esa bitta yoki bir nechta o‘qning ta’siri, kirish-chiqish joylari soni, ularning shakli, o‘lchami va boshqa xususiyatlar sinchkovlik bilan qayd etiladi.

O‘qning yo‘nalishini aniqlash uchun to‘siqdagi jarohat joyidan o‘q uzilgan nuqta tomon chiziq tortiladi. Eshik, deraza yoki oynalarning singan joylari va qirqilgan qirralari o‘qning qaysi tomondan otilganligini ko‘rsatadi. O‘qning kirish joyida aylana shaklidagi yoriqlar va shishaning ustki qatlamining ko‘chishi o‘qning yo‘nalishiga qarab yuzaga keladi.

Chiqarilgan joydagi qatlam esa kirish joyidan biroz kattaroq o‘lchamda bo‘ladi. Ikki qavatli ramali oynalarda esa kirish jarohati birinchi qavatda katta radiusda, ikkinchi qavatda esa kichikroq radiusda namoyon bo‘ladi.

Otish joyi atrofida porox tutuni va yonmay qolgan porox zarrachalarini kimyoviy usullar yordamida aniqlash mumkin, bu esa porox turi (tutunli yoki tutunsiz) va ishlab chiqarilgan zavod markasi haqida ma’lumot beradi. Bu holat shundan dalolat beradi-ki, o‘qning tezligi va kuchi birinchi qavat to‘siqni kesib o‘tishda kamaygan, ikkinchi qavatga urilganda esa yanada susaygan.

Yaqin masofadan otilganda, o‘qning issiqligi va porox gazlari ta’sirida to‘siq yuzasida kuygan izlar hamda porox tutuni va yonmagan zarrachalar qoladi. Bunday belgilarning ko‘pchiligi oddiy ko‘z bilan, ayniqsa belgi rangi o‘q qoldig‘iga o‘xshash materiallarda oson ko‘rinadi. Qora yoki qoramtir rangli to‘siqlarda esa ushbu qoldiqlarni aniqlash uchun mikroskop yordamida kuzatish, kattalashtirish va fototasvirga olish talab etiladi. Bundan tashqari, ko‘zga ko‘rinmaydigan izlarni infraqizilnur, kimyoviy reaktivlar yoki elektro-kimyoviy usullar orqali ham aniqlash mumkin.

Otish masofasi «yaqindan otilgan» degan xulosa to‘siqda paydo bo‘lgan kuyish izlari, porox tutuni va uning zarrachalarining to‘siq yuzasiga singib ketishi kabi belgilarga asoslanadi. Agar bunday belgilar bo‘lmasa, otish masofasi, ya’ni stvol oxiridan to‘siqgacha bo‘lgan masofa, taxminan hisoblab chiqiladi.

O‘qning otilgan joyidan to‘siqqa bo‘lgan masofani aniqlash uchun, to‘siqdagi o‘tish izlari eksperimental o‘tish natijasida olingan izlar bilan solishtiriladi. To‘siq yuzasiga singib qolgan moddalar spektografik tahlili yordamida o‘tish masofasini aniqroq aniqlash mumkin. Qaysi nuqtadan o‘q otilgani, ya’ni otishni amalga oshirgan shaxsning joylashuvi esa o‘qning yo‘nalishi va o‘tish masofasi ma’lumotlari asosida tahlil qilinadi.

Agar otish masofasi uncha uzoq bo‘lmasa, to‘siqdagi jarohatning kirish teshigidan o‘tish yo‘nalishini ko‘rsatadigan ip yoki boshqa asbob yordamida o‘q yo‘nalishi aniqlanadi va bu yo‘nalish davom ettiriladi.

Kirish va chiqish teshiklari mavjud bo‘lsa, yo‘nalishni aniqlash uchun qog‘ozdan yasalgan to‘g‘ri naycha ishlatiladi. Agar kirish va chiqish joylari orasidagi masofa uzoqroq bo‘lsa, ularni ip, kanop yoki sim bilan bog‘lab, o‘q yo‘nalishi qarama-qarshi tomonlarga qarab kuzatiladi.

Silliq stvolli qurollarni aniqlash imkoniyati, asosan ulardan otilgan patron va gilzalar orqali amalga oshiriladi. Silliq stvolga o‘q yoki snaryad o‘tganda stvolda individual xususiyatlar qolmaydi, shuning uchun bunday qurollar bo‘yicha odatda faqat guruh yoki tur darajasidagi xulosalar chiqarish mumkin. Ushbu qurollardan kelib chiqqan jarohatlarni aniqlash, otish masofasi, o‘qning yo‘nalishi va o‘tish joyini belgilash kabi vazifalar uchun avvalgi bo‘limlarda bayon etilgan metodlar ya’ni, izlarni solishtirish, spektrografik tahlil, eksperimental o‘tish va boshqalar qo‘llaniladi.

Portlovchi moddalarni oshirish

Portlovchi moddalar va ularning asosida ishlab chiqilgan qurilmalarni tekshirish so‘nggi paytlarda ko‘proq uchray boshladi. Bunday ishlar maxsus bilim, metodika va texnik vositalarni talab etadi.

Ekspertizaning asosiy yo‘nalishlari, odatda uch xil yo‘nalishga bo‘linadi.

Portlovchi moddalar ekspertizasining **birinchi guruh**iga portlovchi moddalar o‘zi, ularning qo‘llanilgan joyi va portlash natijasida qolgan izlarni aniqlash kiradi.

Ikkinchi guruh vazifalari portlatish qurilmasining ichki tuzilishini o‘rganish, ishlatilgan portlovchi moddaning turini va hajmini aniqlash, shuningdek portlatish vositasi va qo‘llash usulini hamda boshqa tavsiflovchi xususiyatlarni aniqlashdan iborat.

Uchinchi guruh vazifalariga quyidagilar kiradi:

- portlatishga tayyorgarlik ko‘rilgan yoki yo‘qligini aniqlash;
- portlatish natijasida yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni belgilash;
- hodisa joyining portlatishdan oldingi holatini tiklash;

- portlatish qurilmasi o‘rnatilgan aniq joyni aniqlash;
- portlovchi moddalar o‘z-o‘zidan yonib ketish (o‘t olish) imkoniyatini aniqlash;
- turli vaqtlarda va turli joylarda sodir etilgan portlatishlar o‘rtasidagi o‘xshashlik yoki bog‘liqlikni aniqlash;
- ekspertizaga yuborilgan obyektlarda portlovchi moddalar qoldiqlari mavjud yoki yo‘qligini aniqlash; agar mavjud bo‘lsa, ularning turi, xossasi va ishlatilgan joyini belgilash;
- portlatish qurilmasining va uning elementlarini tayyorlash hamda ishlatish usulini aniqlash;
- portlatish qurilmasini o‘t oldirish usuli va buning oldingi ketma-ketligini aniqlash;
- portlatilgan trotil hajmiga muvofiq portlash kuchini aniqlash;
- agar portlatish qurilmasi sanoatda ishlab chiqarilgan bo‘lsa – uning turi va markasini (artilleriya snaryadi, mina, granata yoki yasama vosita) aniqlash;
- agar qurilma qo‘l mehnati bilan yasalgan bo‘lsa – uni tayyorlagan shaxsning ushbu sohadagi malaka darajasini baholash.

Shu bilan birga, mazkur guruh portlovchi moddalarga tutunsiz yonuvchi poroxlar (masalan, nitroglitserin va unga o‘xshashlar) hamda tutunli poroxlarni kiritadi.

Ta’kidlash joizki, tutunsiz poroxlarning ba’zi turlari – ularni qoplama ichiga joylashtirish usuli va birlamchi portlovchi moddalarining kuchiga bog‘liq holda – detonatsiya tezligi nuqtayi nazaridan bir necha kilometr/sekundagacha yetishi mumkin. Tutunli poroxlar esa yopiq hajmga joylanganda ularning yonish tezligi maksimal darajada taxminan 400 m/s atrofida bo‘ladi.

Pirotexnik qo‘shimcha moddalar odatda turli mexanik aralashmalar, oksidlovchilar, yonilg‘ilar va ularni bir-biriga bog‘lovchi komponentlardan tashkil topadi. Ular, asosan yorug‘lik, shovqin va tutun ta’sirlarini hosil qilish uchun ishlatiladi. Bunday moddalar yonish tezligi millimetrli segmentdan bir necha santimetr/sekundgacha bo‘ladi, shuning

uchun ularning portlash kuchi odatda past hisoblanadi. Ammo ayrim xlorat va perxlorat birikmalari, pirotexnik komponentlar yoki brizantli portlovchi moddalar bilan aralashmalari ma’lum sharoitda kuchli detonatsiyaga aylanishi mumkin. Bundan tashqari, pirotexnik birikmalar zich va mustahkam qoplama ichiga joylashtirilganda ularning yonish va yong‘inlanish tezligi sezilarli darajada oshishi kuzatilgan.

Portlash qurilmasi – ma’lum sharoitlarda portlash xususiyatiga ega bo‘lishi uchun maxsus yaratilgan turli vositalarni anglatadi. Ular sanoat sharoitida ishlab chiqarilgan yoki qo‘lbola tarzda tayyorlangan bo‘lishi mumkin. Agar moslama elementlarining bir qismi qo‘l bilan yasalgan yoki uning ayrim tarkibiy qismlari sanoat me’yorlarına mos kelmaydigan usulda montaj qilingan bo‘lsa, bunday qurilmalar yasama deb qaraladi.

Pirotexnika ekspertizasining obyektlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: detonator kapsulalari, elektr detonatorlar, yonuvchi (olov o‘tkazuvchi) shnur va simlar, qo‘l granatalari, trotil bloklari, ammonit zaryadlari hamda turli turdagi portlovchi paketlar.

Sovuq qurollarning tekshiruvi

Sovuq qurollarni ishlab chiqarish, saqlash yoki savdosi uchun joriy jinoyat kodeksida alohida javobgarlik belgilangan emas; ammo sovuq qurol ishlatilgan jinoyatlarni tasniflash va o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi va bunday holatlarda ekspertiza tayinlanishi lozim. Sovuq qurolning texnik holatini aniqlash jarayonida quyidagi savollar ko‘tarilishi mumkin: qurol ishga yaroqlimi yoki nosozmi; agar nosoz bo‘lsa, uni tiklash yoki sozlash imkoniyati bormi; qurolning mexanik elementlari va ishlash xususiyatlari qanday holatda; xavfsizlik qurilmalari va boshqa detallarning ishlash funksiyasi saqlanib qolganmi; qurol daliliy sifatida saqlash va ekspertizaga topshirish shartlari qanday bo‘lishi kerak va hokazo.

Mazkur buyum sovuq qurol hisoblanadimi? Tekshiruvchi predmet qaysi turga mansubligini aniqlash lozim.

Sovuq qurollarning ishlab chiqarilish nuqtayi nazaridan uchta asosiy guruhi mavjud: fabrikaviy (zavod) ishlab chiqarilgan, hunarmandona

uslubda yaratilgan va to‘liq qo‘l mehnati bilan yasalgan qurollar. Zavod sharoitida ishlab chiqarilgan qurollar davlat yoki tegishli firma standartlariga mos va texnik talablar bajarilgan holda chiqadi. Hunarmand tomonidan tayyorlangan qurollar rasmiy texnik talablarni to‘liq qondirmasligi mumkin, ammo ularning tashqi ko‘rinishi, bezaklari va ba’zi harbiy yoki ishlatish xususiyatlari hunarmandning ustaligi sababli ko‘pincha zavod mahsulotlaridan kam qolmaydi.

Qo‘lbola sovuq qurollar va ularning qoplamalari ko‘pincha milliy naqshlar, ma’noli yozuvlar yoki usta-hunarmandning ismi kabi bezaklar bilan bezatiladi. Ba’zan hunarmand bo‘lmagan shaxslar mashhur namunalarni taqlid qilib qurollar yasaydilar. Amaliyotda zavod yoki hunarmandlikda tayyorlangan qurollarning keyinchalik o‘zgartirib qayta ishlangan holatlari ham uchrab turadi. Sovuq qurollar ko‘pincha qasddan odam o‘ldirish, tanaga shikast yetkazish, talon-toroj, ommaviy tartibsizlik va bezorilik kabi jinoyatlarda qo‘llaniladi.

Ko‘rsatilgan jinoyatlardan ba‘zilarida (masalan, odam o‘ldirish yoki bosqinchilik) sovuq qurol ishlatilgani yoki uni ishlatish tahdidi mavjudligi jinoyatni og‘irlashtiruvchi holat deb hisoblanadi. Jinoyat sodir etishda sovuq qurollardan tashqari turli buyumlar ham jinoyat quroli vazifasini o‘taydi; bunday vaziyatlarda ishlatilgan predmet sovuq qurollar toifasiga kiruvchi vosita hisoblanmaydi va odatda shunday holatlar ekspertiza tayinlash uchun asos bo‘lmaydi.

Sovuq qurollar odatda maxsus tarzda jinoyat sodir etish maqsadida tayyorlanadi va ular bilan odamga tan jarohati yetkazish yoki o‘zini himoya qilish maqsadida foydalaniladi. Bunday qurollar tuzilishi, o‘lchami va shakli jihatidan kundalik hayotda ishlatiladigan xo‘jalik buyumlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Ular tashqi ko‘rinishi va tuzilishiga ko‘ra sanchuvchi, kesuvchi, chopuvchi, sanchib-kesuvchi, sanchib-chopuvchi, ezuvchi yoki aralash turdagi qurollarga bo‘linadi.

Sovuq qurollar ularning foydalanish maqsadiga qarab jangovar, harbiy va fuqarolik, jumladan ovchilik uchun mo‘ljallangan turlarga bo‘linadi. Harbiy sovuq qurollar odatda odam tanasiga shikast yetkazish

uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, ko‘proq qo‘shinlar o‘rtasidagi yaqin masofali janglarda qo‘llaniladi. Ularga qilichlarning har xil turlari, shtiklar, desant pichoqlari va shunga o‘xshash qurollar kiradi.

Ovchilikda ishlatiladigan sovuq qurollar esa milliy pichoqlar, xanjarlar va shu kabi boshqa vositalardan iborat bo‘lib, ular ov paytida hayvonni ushlash, jarohat yetkazish, terisini shilish va boshqa texnik vazifalarni bajarishda foydalaniladi.

Sport musobaqalarida qo‘llaniladigan shtik, shpaga, rapira, qilich va espandrlar esa egiluvchanligi va uchining o‘tkir emasligi tufayli tanaga shikast yetkazmaydi. Shu sababli bunday vositalar sovuq qurollar sirasiga kiritilmaydi.

Sovuq qurollar ekspertizasi, asosan ularning qaysi turi va guruhiga mansub ekanligini aniqlashga qaratilgan. Ekspertizaning vazifalari ichida tekshirilayotgan qurolning texnik holatini aniqlash, unga o‘xshash qurollar guruhiga tegishliligini aniqlash hamda qurolning aynanligi (individual xususiyati)ni belgilash kiradi. Jinoyat sodir etishda ishlatilgan sovuq qurol topilgan joyda – hodisa joyi yoki tintuv o‘tkazilgan yerda – yoki tergov organining xonasida batafsil ko‘zdan kechiriladi, protsessual me’yorlarga muvofiq rasmiylashtiriladi va jinoyat ishiga moddiy dalil sifatida qo‘shiladi. Zarurat tug‘ilganda, bu tergov-harakatlarni amalga oshirishda protsessual me’yorlar asosida tegishli soha mutaxassisi chaqirilishi mumkin.

Qurolni ko‘zdan kechirishda kriminalistika usullari kuzatish, o‘lchash va batafsil bayon etish – qo‘llaniladi. Avvalo qurolning umumiy konstruksiyasi va o‘lchamlari e’tiborga olinadi; so‘ngra uning barcha qismlari sinchkovlik bilan tekshiriladi: qismlarning bir-biriga mustahkam bog‘langanligi, asosiy tanaga qanday mahkamlangani, ishlatilgan material turi, rangi va o‘lchovlari aniqlanadi. Shuningdek, qurol damining yuzasi silliqligi yoki o‘tkirligi, uchining shakli va o‘tkirlik darajasi hamda yuzadagi yozuvlar, markirovkalar va boshqa tashqi belgilarga e’tibor qaratiladi.

Qurol yuzasidagi izlar va moddiy qoldiqlarni shikastlamaslik yoki aralashtirib yubormaslik uchun tekshiruvni amalga oshiruvchi shaxs oq rezina qo‘lqop kiyishi kerak. Qurolning old va orqa qismlarini hamda boshqa tafsilotlarini tekshirishda uni izlardan yiroq joylari – masalan, dastasi yoki uchining izga tegmagan qismlaridan ushlab turish lozim. Sovuq qurollarning aynanligini aniqlash yoki qaysi guruhga mansub ekanligini belgilash bir qator ekspertizalar, xususan trasologik tekshiruv orqali amalga oshiriladi; bu ish kimyoviy, fizikaviy va texnik usullarni qo‘llashni talab qiladi.

Kriminalistik trasologiya

Trasologiya tushunchasi va izlar turlari «Trasologiya» termini fransuzcha *«la trace»* – «iz» va yunoncha *«logos»* – «ta’limot» so‘zlaridan olingan bo‘lib, «izlar haqidagi ta’limot» degan ma’noni anglatadi. Trasologiya kriminalistik texnikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish hamda ularning izlarini o‘rganish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Izlarning turlari

Trasologiyada izlar turli obyektlarning o‘zaro ta’siri natijasida hosil bo‘ladigan belgilardir. Ular paydo bo‘lish xususiyatiga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

- **Statik izlar** – obyektlar harakatsiz holatda bir-biriga bosilganda hosil bo‘ladi.
- **Dinamik izlar** – harakat, sirpanish yoki siljish jarayonida yuzaga keladi.
- **Hajmli izlar** – sirtning chuqurlashuvi yoki shakl o‘zgarishi natijasida hosil bo‘ladi.
- **Yuzaki izlar** – iz qoldiruvchi obyekt moddasining sirtga o‘tishi yoki, aksincha sirtdan ajralib chiqishi bilan paydo bo‘ladi.

Qo‘l barmoqlari izlari

Qo‘l barmoqlarining izlari inson tanasidagi eng muhim identifikatsion belgilardan biri bo‘lib, ular teri relyefi – papillyar chiziqlar tizimi orqali shakllanadi. Bu izlar har bir shaxs uchun o‘ziga xos bo‘lib, umr davomida o‘zgarmaydi.

Oyoq va poyabzal izlari

Oyoq yoki poyabzal izlari odatda harakat paytida, ya’ni yurishda hosil bo‘ladi. Harakat tufayli dinamik izlar paydo bo‘lishi mumkin, inson turgan holatda esa statik izlar shakllanadi. Bu izlar jinoyatchining harakat yo‘nalishi, bo‘yi, og‘irligi va hatto poyabzal turi haqida ma’lumot beradi.

Buzish qurollaridan qolgan izlar

Turli metall asboblar, masalan, ombur, arralar, bolg‘a, lom va qaychi singari vositalar bilan eshik, qulf yoki derazalar buzilganda sirtlarda turli shakldagi izlar paydo bo‘ladi. Bu izlar orqali ishlatilgan qurol turi va ba’zan uning o‘lchamini aniqlash mumkin.

Transport vositalari izlari

Transport vositalarining harakati natijasida yo‘l, tuproq yoki boshqa sirtlarda g‘ildirak izlari hosil bo‘ladi. Shinalarning tuzilishi, protektor chizig‘i va iz o‘lchamlari transport turini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Izlarni ko‘zdan kechirish va protsessual rasmiylashtirish

Izlarni tekshirish jarayonida tergovchi yoki ekspert ularni topadi, o‘lchaydi, suratga oladi va kerak bo‘lsa, maxsus modda yoki qolip yordamida nusxa oladi. Har bir aniqlangan iz protokolda qayd etiladi, fotosuratlar va iz nusxalari esa dalil sifatida ilova qilinadi.

Trasologik ekspertiza hal qiladigan masalalar

Trasologik ekspertiza quyidagi savollarga javob topishga qaratilgan:

- Iizni qoldirgan obyektning turi va xususiyatlarini aniqlash;
- ma’lum obyekt iz qoldirgan-qoldirmaganligini tekshirish;
- bir nechta izlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash;
- jinoyat sodir bo‘lgan joydagi voqealar ketma-ketligini aniqlash.

Xullas, trasologiya – jinoyat izlarini o‘rganish orqali jinoyatchilikni fosh etish va dalillarni ilmiy asosda isbotlashga xizmat qiluvchi muhim kriminalistik yo‘nalishdir.

Izlar haqidagi ta’limot deyilganda, kengroq tushunchada jinoyat sodir bo‘lganda yuzaga keladigan barcha o‘zgarishlar haqida ma’lumotlar nazarda tutiladi. Bunday izlar jinoyat joyida, jinoyatchining tana va kiyimida hosil bo‘ladi.

Kriminalistik nuqtayi nazardan, izlar quyidagi ikki asosiy guruhga bo‘linadi:

1. Tirik shaxs va hayvonlardan qolgan izlar – masalan, qo‘l barmoq izlari, oyoq izlari, poyabzal izlari va boshqa biologik izlar.

2. Jismoniy vositalar yoki predmetlardan qolgan izlar – masalan, buzish qurollari, transport vositalari yoki boshqa obyektlardan qolgan izlar.

Hodisa yoki uning ayrim jihatlari inson ongida saqlanib, ma’lum vaqt o‘tganidan so‘ng xotira orqali qayta tiklanadi. Bunday izlarga shartli ravishda xotiraviy izlar deyiladi. Ushbu izlar subyektiv tabiatda bo‘lib, insonning sezish, idrok etish, tafakkur va xotirada ma’lumotni uzoq muddat saqlash qobiliyati hamda boshqa jismoniy va ruhiy xususiyatlariga bog‘liq.

Moddiy izlar esa jinoyat natijasida yuzaga keladi; bir obyektning harakati yoki ta’siri boshqa obyektda o‘z aksini qoldiradi – masalan, modda qoldiqlari yoki boshqa o‘zgarish alomatlari shaklida.

Izni hosil qiluvchi obyekt faqat o‘zining tashqi yuzasi bilan bevosita kontakt qilgan qismidan iz qoldiradi. Shu nuqtayi nazardan, iz hosil bo‘lish jarayonida ikki obyekt o‘zaro ta’sir qiladi: birinchisi – iz qoldiruvchi obyekt, ikkinchisi – izni qabul qiluvchi obyekt.

Izlarning hosil bo‘lish mexanizmi deb, bir obyektning ikkinchi obyektda o‘z tasvirini qoldirish jarayonini tushunish lozim. Bu izlar individual xususiyatlar va o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lib, aynan shu belgilar orqali obyektning ikkinchi obyektda qoldirgan izi aniqlanadi.

Trasologiya – bu izlarning paydo bo‘lish mexanizmini o‘rganish, iz qoldiruvchi obyektlarning guruhiy va individual xususiyatlarini aniqlash, izlarning izlarini topish, qayd qilish va kuchaytirish bilan bog‘liq ilmiy-texnika vositalari va usullarini ishlab chiqishni o‘z ichiga olgan ta’limotdir.

Jinoiy hodisa natijasida hosil bo‘lgan barcha izlar – qoldiq moddalar, turli o‘zgarishlar yoki obyektning bo‘laklari kabi belgilarni o‘z ichiga oladi. Iz qoldiruvchi predmet faqat uning tashqi individual tuzilishi aks etgan izlar bo‘lib, trasologik tekshiruv predmeti hisoblanadi. Bu tamoyil trasologiyaning asosiy vazifasiga – obyekt izlari orqali uning aynanligini yoki ma’lum bir guruh (tur)ga mansubligini aniqlashga asoslanadi.

Trasologik izlar hosil qiluvchi obyekt turiga qarab turlicha bo‘ladi. Masalan, odamning qo‘l, barmoq, yalangoyoq izlari, poyabzal izlari, ba’zan esa tish yoki lab izlari uchrashi mumkin. Jinoyat sodir etishda turli to‘siqlarni buzish uchun ishlatilgan asboblar esa buzish qurollaridan qolgan izlar sifatida tasniflanadi. Shuningdek, transport vositalarining g‘ildiraklari va boshqa qismlaridan qolgan izlar ham mavjud.

Izning hosil bo‘lish xususiyatlari – uning alomatlari, shakli, o‘lchamlari, qoldiqlari va boshqa belgilarini aniqlash orqali o‘rganiladi. Bunday tekshiruvning asosi – izni o‘zida aks ettirgan obyektni bevosita o‘rganishdir. Obyektning fotosuratlari yoki nusxalari esa faqat yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, jinoyat ishining materiallari – ko‘zdan kechirish bayonnomasi, fotosuratlar va chizmalar – tekshiruv jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi.

Kelib chiqish turiga ko‘ra izlar quyidagilarga ajratiladi. Botiq izlar – iz qoldiruvchi obyekt qabul qiluvchi yuzaga tegib, to‘qnashgan joyida yuzaga kelgan o‘zgarish natijasida hosil bo‘ladi; bunday izlar chuqurlikda

koʻrinadi. Yuzaki izlar esa iz qoldiruvchi obyektning faqat yuza qismi qabul qiluvchi obyektga ta’sir etishi bilan yuzaga keladi.

Hosil boʻlish mexanizmi boʻyicha izlar quyidagicha tasniflanadi. Statik izlar – izni hosil qiluvchi va qabul qiluvchi obyektlar bir-biri bilan aloqada boʻlib, harakat natijasida yuzaga keladi; masalan, surilma yoki tirnalma shaklidagi izlar.

Dinamik izlar esa harakatsiz holatda paydo boʻladi va iz hosil qiluvchi obyektning tashqi tuzilishi unda aniq aks etadi.

Zarrachalar ta’siriga koʻra izlar shunday ajratiladi: lokal izlar – ikki obyektning faqat aloqa qilgan maydonida yuzaga keladigan oʻzgarish natijasida hosil boʻladi; periferik izlar esa maydon chetida roʻy bergan oʻzgarishlardan paydo boʻladi. Qoʻl va barmoq izlari.

Qoʻl va barmoq izlari boshqa izlarga qaraganda tez-tez uchraydi, chunki inson turli harakatlarni bajarayotganda predmetlarni qoʻl bilan ushlaydi, koʻtaradi yoki boshqa amallarni bajaradi.

Daktilos – barmoq degan ma’noni anglatadi. Tergov jarayonida izlar orqali muayyan shaxsni aniqlashda daktiloskopik tekshiruv muhim rol oʻynaydi.

Qoʻldan qoladigan izlarning ahamiyati shundaki, ularni hosil qiluvchi teri tuzilmasi oʻziga xos va takrorlanmas xususiyatga ega boʻladi.

Anatomiya faniga koʻra, teri ikkita qatlamdan tashkil topgan boʻlib, ular epidermis (tashqi qatlam) va derma (ichki qatlam) deb ataladi. Inson qoʻlidagi barmoq uchlarida joylashgan papillyar chiziqlar oʻziga xos, takrorlanmas tuzilishga ega boʻlib, ularning aynan shu xususiyatlari qoʻl izlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega qiladi. Bu papillyar chiziqlar homiladorlik davrida shakllanadi va butun umr davomida oʻzgarmasdan saqlanadi. Hatto, inson vafot etganidan keyin ham, tana toʻliq chirib ketguncha bu izlar saqlanib qoladi.

Teri yuzasidagi kashtalar – ya’ni papillyar izlar – shunchalik noyobki, ular har bir shaxsda yagona boʻladi va boshqasida aynan shu shaklda uchramaydi. Derma qatlami tekis boʻlmay, papillyar tuzilishga ega, bu esa ustki qatlam boʻlgan epidermisda chiziqlar shaklida namoyon boʻladi.

Papillyar chiziqlar aynan shu ichki tuzilma asosida hosil bo‘lib, tashqi qatlam ham ayni chiziqlarni aks ettiradi.

Qo‘l kafti, barmoqlar yoki tana boshqa qismlari jarohatlanganda – masalan, kuyish yoki kesilish holatida – terining tashqi qatlami (epidermis) vaqt o‘tishi bilan butunlay yangilanib, avvalgi holatiga qayta tiklanadi. Ammo agar ichki qatlam, ya’ni derma chuqurroq zararlansa, papillyar chiziqlar ham shikastlanadi va u joyda chandiq izlari paydo bo‘ladi. Ushbu holatlar nazariy va amaliy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan.

Barmoqdagi papillyar chiziqlar uchta asosiy qismdan tashkil topgan: birinchisi – kashtaning markaziy shaklini hosil qiluvchi asosiy chiziqlar; ikkinchisi – ichki shakl atrofida joylashgan chiziqlar; uchinchisi esa – bu shaklning tashqi chetlari bo‘ylab o‘tuvchi yon chiziqlardir.

Izlar papillyar kashta chiziqlarining nechta oqimdan iboratligi va ushbu oqimlarning yo‘nalish shakliga ko‘ra tasniflanadi. Barmoqdagi papillyar kashtalar murakkablik darajasiga qarab uch asosiy turga bo‘linadi: yoysimon, sirtmoqsimon va aylana shaklidagi chiziqlar.

Yoysimon kashtalarda chiziqlar bir yo‘nalishda ko‘tarilib, yarim aylana shaklida egilib, qarama-qarshi tomonga davom etadi. **Sirtmoqsimon kashtalar**da esa ichki oqimdagi ikki yoki undan ortiq chiziq markaziy qismda sirtmoq shaklini hosil qiladi va yana o‘z yo‘nalishiga qaytadi. Bu sirtmoq shaklini hosil qiluvchi oqimlar, odatda bosh barmoq tomoniga qarab og‘adi.

Sirtmoqsimon kashtalarda sirtmoqning shakli turlicha bo‘lishi mumkin: oddiy, yopiq (berk), yarim ochiq yoki bukilgan holatda namoyon bo‘ladi. Kashtaning ichki qismini tashkil qiluvchi bu chiziqlar uch oqimda birlashib, o‘zaro yaqinlashgan nuqtada **uchburchak shaklidagi delta** hosil qiladi.

Aylana kashtalarda papillyar chiziqlar turli o‘lchamdagi va markazga qarab yoki undan chetga yo‘nalgan doiralar shaklida bo‘lib, ularning har ikki tomonida delta joylashgan bo‘ladi. Ushbu deltalar o‘rtasidagi joylashuvga qarab aylana kashtalar ham bir necha turlarga ajratiladi. Ekspertlar amaliyotida ko‘p hollarda aynan barmoq izlari tekshiriladi,

chunki kaftning ayrim joylarida izlar kamroq uchraydi. Turli moddalar yordamida qo‘l va barmoqlarning kashta tuzilishini aniqlash mumkin; ko‘rinmaydigan izlar esa kriminalistik usullar bilan ko‘chirib olinib, ko‘rinarli holga keltiriladi.

Izlar alohida buyum yoki predmetlarda topilganda, ularni hech qanday vosita qo‘llamasdan, o‘sha predmet bilan birga ekspertizaga yuborish lozim. Solishtirish uchun shubhali shaxslarning o‘nta barmog‘i va ikkala kaftining izlari maxsus daktilo-kartalarda aks ettirilib namunaviy hujjat sifatida yuboriladi.

Jinoyat yoki boshqa turdagi hodisalar sodir bo‘lgan joylarda qo‘l izlarini, asosan silliq sirtli buyum va predmetlar yuzasidan aniqlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, bo‘yalgan pol va devorlar, eshik yoki deraza yog‘ochlari, metall qismlar, maishiy texnika hamda mebelning silliq qoplamalari bunday yuzalar sirasiga kiradi. Aksincha, silliq bo‘lmagan va teri suyuqliklarini o‘ziga singdiruvchi materiallarda iz qolgan bo‘lishi mumkin, biroq ularni ko‘rinarli holga keltirish, ko‘chirib olish va shaxsni aniqlash uchun foydalanishning imkoni bo‘lmaydi. Chunki bunday izlar individual belgilarni aniq aks ettira olmaydi va shu sababli ekspertiza uchun yaroqsiz hisoblanadi.

Topilgan barmoq izi avval fotosuratga olinib hujjatlashtiriladi, so‘ngra u maxsus daktiloplyonka orqali ko‘chirib olinadi va solishtirish uchun namunalarga qo‘shib ekspertizaga yuboriladi. Ko‘rinmaydigan yoki bo‘yoq qatlami ostida qolgan barmoq izlari kichik hajmli predmetlarda yoki jinoyat qurolida aniqlansa, ularni izlar saqlangan holatda, hech qanday o‘zgartirish kiritmasdan, maxsus o‘rama vositalar bilan o‘rab, ekspertga topshirish tavsiya etiladi.

Ekspertiza jarayonida aniqlangan izga qarab, u shubha ostidagi shaxsning aynan qaysi qo‘li yoki qaysi barmog‘iga tegishli ekanligini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Oyoq va poyabzal izlari odatda hajmli yoki sirtga tushgan (yuzaki) holatda bo‘ladi. Ayniqsa, oyoqdan qolgan chuqurroq, hajmli izlar shaxsni aniqlashda ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lib, ular identifikatsiya uchun

yaroqlidir. Bunday izlar, asosan bo‘sh tuproqda, nam qum yuzasida yoki qor ustida qoladi.

Bu kabi izlarni tahlil qilish orqali nafaqat oyoqning yoki poyabzalning o‘lchami va shaklini aniqlash mumkin, balki u yerdagi ayrim o‘ziga xos belgilar orqali shaxsning o‘zini aniqlash imkoniyati ham tug‘iladi. Oyoq izlari odatda odam yurish, sakrash yoki yugurish paytida hosil bo‘ladi, shu sababli ularning shakllanish mexanizmi oddiy, harakatlanmagan holda qolgan (statik) izlarga qaraganda farq qiladi.

Hodisa sodir bo‘lgan joylarda ayrim hollarda **dinamik izlar**ni aniqlash mumkin bo‘ladi, va ular oshirishga yaroqli bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Buning sababi shundaki, poyabzalning tag qismi – tagcharm – qattiq yoki yumshoq materialdan tayyorlangan bo‘ladi. Sirg‘alish oqibatida qolgan izlarda poyabzalga xos identifikatsiya belgilarining aniq ifodalanmasligi mumkin. Biroq, agar tagcharmda yoki poshnaning sirtida poyabzalga o‘rnatilgan mix, taqa yoki boshqa metall qismlar bo‘lsa, ularning sirg‘alishi natijasida izlarda o‘ziga xos belgilar qoladi va bu esa poyabzalni aniqlash imkonini beradi.

Oyoq izlari odatda ancha yaqqol ko‘rinadigan bo‘lganligi sababli ularni aniqlashda ko‘plab maxsus usullardan foydalanishga hojat bo‘lmaydi. **Yalangoyoq izlar**ni qidirishda esa, qo‘l izlarini topishdagi usullar tatbiq etiladi. Masalan, turli burchaklardan yonma-yon yorug‘lik berish yoki har xil rakursda kuzatish orqali izlar aniqlanishi mumkin. Bundan tashqari, **yod bug‘i yordamida changlatish usuli** ham izlarni aniqlashda samarali natija berishi mumkin.

Poyabzalning o‘lchamini aniqlash uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

a) izning uzunligini o‘lchash;

b) topilgan sonni 10-–15 mm kamaytish;

d) qolgan sonni 6,67ga taqsimlash. Masalan, izning uzunligi 280 mm. 280-10=270; 270:6,67=40. Shunday qilib, iz qoldirgan poyabzal taxminan 40 o‘lchamli deyish mumkin.

Bundan tashqari quyidagi talablar bajarilishi lozim:

1. **Izning to‘liqligi va aniqligi ta’minlanishi kerak.** Iz iloji boricha to‘liq saqlangan, buzilmagan bo‘lishi lozim. Yaxshi ko‘rinadigan, deformatsiyaga uchramagan izlargina poyabzal o‘lchamini aniq belgilashga imkon beradi.

2. **Iz o‘lchamlari aniqlik bilan o‘lchanishi zarur.** Poyabzalning uzunligi, eni va poshnaning balandligi kabi parametrlar millimetrgacha aniqlikda o‘lchanadi. O‘lchov ishlari izlarni suratga olishdan oldin yoki keyin maxsus o‘lchov vositalari yordamida bajariladi.

3. **O‘lchov jarayonida izni buzmaslik kerak.** O‘lchash ishlari nozik asboblar orqali, izga zarar yetkazmasdan amalga oshiriladi. Agar izlar nozik yoki vaqtinchalik bo‘lsa (masalan, qor yoki ho‘l tuproqdagi izlar), ular avval fotosuratga olinadi yoki gipssimon material bilan qattiqlashtiriladi.

4. **Me’yorga solingan poyabzal o‘lchov tizimiga tayaniladi.** Izdan olingan o‘lchamlar standart poyabzal o‘lchov jadvali (masalan, Yevropa, AQSH yoki Rossiya tizimi) bilan solishtiriladi va poyabzal o‘lchami shu asosda aniqlanadi.

5. **Poyabzal shakli va tagcharm tuzilmasi hisobga olinadi.** Har bir poyabzal turi o‘ziga xos shakl va tuzilishga ega bo‘lgani sababli, o‘lchamni baholashda faqat izning uzunligi emas, balki poshna izi, burma chiziqlari va tagcharmdagi boshqa elementlar ham inobatga olinadi.

Poyabzal izlari asosida kishining bo‘yini taxmin qilish ham mumkin. Odatda, inson bo‘yi poyabzal izining uzunligidan taxminan 6–7 baravar katta bo‘ladi. Shu asosda, iz o‘lchami bo‘yicha shaxsning taxminiy bo‘y balandligini aniqlashga urinish mumkin.

Poyabzal qoldirgan izlarga qarab, uning **tagcharm qismi** haqida muayyan xulosalar chiqarish mumkin. Masalan, **poshnaning shakli**, **tagcharm yuzasining tuzilishi** (silliq yoki kashtali), **tagcharmda mavjud bo‘lgan alohida shakl va belgilar**, shuningdek **tagcharmning poyabzalga qanday usulda tikilgani** – bularning barchasi identifikatsion jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu belgilar majmuasi esa poyabzal o‘lchamini aniqlashga imkon beradi.

Yalangoyoqdan qolgan izlar orqali ham shaxsga oid ma’lumotlar olinishi mumkin. Agar izda barmoqlarning shakli aniq aks etgan bo‘lsa, u holda nafaqat oyoqning umumiy shakli va o‘lchami, balki barmoqlarning tuzilishi va kattaligi haqida ham xulosa qilish mumkin.

Ammo shuni yodda tutish kerakki, odam harakatda bo‘lganida – yurish, sakrash yoki yugurish paytida – **barmoqlar ozgina yoyilib**, ularning izdagi ifodasi odatdagi, ya’ni harakatsiz holatda qolgan izdan **biroz uzunroq va kengroq** bo‘ladi. Bu omil analiz jarayonida hisobga olinishi kerak.

Yalangoyoq izlarning uzunligi izning asosiy o‘qi bo‘ylab, ya’ni tovondan boshlab katta barmoq uchigacha bo‘lgan masofa sifatida o‘lchanadi. Oyoqning tovoni va kaftining eni esa ularning eng keng joylaridan, shuningdek oyoq yuzasining eng tor joyidan ham aniq o‘lchov olinadi.

Poyabzal izlarining uzunligini aniqlash uchun esa poyabzal tagcharmining eng chekkasidan uning uchigacha bo‘lgan masofa o‘lchanadi. Tagcharmning uzunligi iz o‘qi bo‘ylab belgilanadi, tagcharmning eni esa uning eng keng joyidan o‘lchanadi. Shuningdek, tagcharmning o‘rta qismidagi eng tor joy va poshna qismidagi eng keng va uzun joylari ham alohida o‘lchanib qayd etiladi.

Hodisa joyida bir nechta oyoq izlari topilganida, ularning faqat bittasini emas, balki barcha izlarni aniq o‘lchash zarur hisoblanadi. Bu holatda izlar «yo‘lka» shaklida joylashadi va ular avval suratga olinadi, so‘ngra masshtabli reja yoki xaritaga ko‘chirilib qayd etiladi. Yo‘lkalarning o‘ziga xos xususiyatlari orasida yurish yo‘nalishi, qadam uzunligi va eni hamda tovonning burilish burchagi mavjud bo‘ladi.

Hajmli oyoq izlaridan nusxa olish maqsadida gipsdan foydalaniladi. Gips bo‘yoqchasining quruq, mayda va yaxshi birikuvchi bo‘lishi talab etiladi. Gips aralashmasi tayyorlangach, u oyoq izlariga ikki bosqichda quyiladi. Dastlab, izning taxminan yarim qismi gips bilan to‘ldirilib, ustiga nusxani mustahkam qilish uchun cho‘p yoki sim qo‘yiladi. So‘ng, ikkinchi marta gips quyilib, iz to‘liq to‘ldiriladi.

Gipsni izga quyishda izning chekka qismlari biroz buzilib tushib ketish ehtimoli mavjud. Shu sababli, gips aralashmasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri izga quymasdan, uning yonidagi tuproq yuzasiga quysa, gips asta-sekin izga oqib kiradi va natijada izning barcha qismlaridan to‘liq va sifatli nusxa olinadi.

Agar izlar yumshoq yuzalarda qolgan bo‘lsa va gipsdan nusxa olishda u buzilishi yoki yaroqsiz holga kelishi xavfi mavjud bo‘lsa, bunday hollarda gips quyilishdan oldin iz yuzasiga maxsus qotirish ishlari amalga oshiriladi. Buning uchun 6 foizlik spirtda suyultirilgan shellak (lok, surg‘ich, plastmassa), yoki atsetonda (2,5 foiz) eritilgan sellyuloza eritmasi purkagich yordamida izning yuzasiga sepiladi va qotiriladi. Shundan so‘ng gips bilan nusxa olinadi, natijada mustahkam va sifatli nusxa olinadi.

Tergov va ekspertiza jarayonlarida yalangoyoq qadam izlariga nisbatan poyabzal izlari ancha ko‘p uchraydi. Odatda poyabzal izi yurish yoki harakatlanish vaqtida hosil bo‘ladi. Shu paytda harakat ta’sirida dinamik izlar paydo bo‘ladi, inson harakatsiz, ya’ni turgan holatda esa statik izlar shakllanadi.

Yurish, qadam tashlash jarayonida poyabzal izlari qisman statik, qisman esa oyoqning harakatiga bog‘liq dinamik xususiyatga ega bo‘ladi. Agar oyoqlardan biri sudralish xarakteriga ega bo‘lsa, bu harakat sirg‘anish bilan davom etadi va natijada poyabzal izlari sof dinamik xususiyatda bo‘ladi.

Identifikatsiya qilishda ko‘pincha statik izlarning botiq shakllari katta ahamiyatga ega. Bu izlarni diqqat bilan kuzatish, o‘lchash va tahlil qilish orqali poyabzal (yoki uni kiygan inson oyoq) o‘lchami, shakli va qaysi turkumga mansub ekanligi aniqlanadi. Shu bilan birga, iz qoldirgan aniq poyabzal ham aniqlanishi mumkin.

Poyabzalning yuzaki izlaridan faqat umumiy xususiyatlar kuzatilishi mumkin. Ba’zan esa izlar silliq yuzalarda, masalan parket, pol, linoleum, marmar yoki silliq plitkalar kabi joylarda qolgan taqdirda, poyabzalning

individual xususiyatlari aniq ko‘rinadi. Ana shunday vaziyatlarda identifikatsiya qilish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Dinamik izlar bo‘yicha esa, ularning qanday hosil bo‘lgani va obyektning qaysi qismidan paydo bo‘lgani aniqlanadi. Yalangoyoq izlar kam uchragan bo‘lsa-da, ularning identifikatsiya nuqtayi nazaridan o‘rni katta. Inson oyoq tovonidagi mikrorelyef – papillyar chiziqlar ham o‘ziga xos individuallikka ega.

Shu sababli yalangoyoq izlar asosida uni qoldirgan aniq shaxsni aniqlash mumkin. Tovondagi terining papillyar chiziqlari va mikrorelyefi individual xususiyatga ega bo‘lib, umr davomida o‘zgarmaydi. Ushbu holat bir necha ilmiy tadqiqot va kuzatuvlar orqali tasdiqlangan.

Yalangoyoq izlar yumshoq va yarim yumshoq yuzalarda botiq holatda yuzaki ko‘rinishda qolishi mumkin. Ularni o‘lchash va nusxa olish uchun qo‘l izlariga oid umumiy metodlar qo‘llaniladi. Yalangoyoq izlarni o‘lchashda katta barmoqdan boshlab, tavonning sirtqi chegarasigacha bo‘lgan uzunlik, kaftning markazi, oraliq chiziq chegarasi ham uzunligi va kengligi bilan birga tavon qismining uzunligi va eni aniqlanadi. Bu o‘lchovlar izning umumiy guruhga mansub ekanligini ko‘rsatadi.

Buzish qurollaridan qolgan izlar

Jinoyatchilar binolarga kirish maqsadida turli to‘siqlarni buzish va qulflarni turli usullar bilan ochish yoki shikastlash yo‘lini tanlaydilar. To‘siqlar o‘ziga xos xususiyat, tuzilish va vazifalariga ko‘ra farqlanadi. Jinoyatchilar o‘z maqsadlariga erishishda turli predmet va asboblardan foydalanadilar, jumladan yog‘och, o‘ymakorlik buyumlari va shishalarni qurol sifatida qo‘llaydilar. Masalan, duradgorlik va slesarlik asboblari, uy-ro‘zg‘or va xo‘jalikda ishlatiladigan vositalar, shuningdek qulflarni buzish uchun mo‘ljallangan maxsus kalitlar va boshqa turli moslamalar.

To‘siq vazifasini bajaruvchi obyektlar asosan ikki toifaga bo‘linadi:

1) turli shakl va tuzilishdagi qulflar;

2) qurilish to‘siqlari va turli moslamalar, masalan seyf qutilar, buyum, pul va boshqa saqlash qurilmalari.

13.2. Kriminalistik ballistika.

Jinoyatchilar ko‘pincha qulflarni buzishga urinadilar, ba’zan esa kalitga o‘xshash moslamalar yordamida ochishga harakat qiladilar. Qulflarni buzish jarayonida, ba’zida, qulflar yopiq va ilingan holatda to‘siq bilan birga ko‘chirib olinadi. Moslama kalitlar yoki boshqa kalitga o‘xshash asboblar yordamida qulfni ochish paytida uning ichki qismida tirnalishlar va sirg‘alish izlari paydo bo‘ladi. Qulf va to‘siq buzilganda, qattiq metall asbob yordamida qulf bog‘langan eshik yoki deraza qismi ajratiladi. Bunday vaziyatlarda to‘siqning o‘ng yoki chap qismida botiq izlari qoladi. Qulflar esa avvalgi holatida, ya’ni yopiq va ilingan shaklda saqlanadi.

Osma qulflarni ochishda turli xil slesarlik asboblaridan foydalaniladi. Masalan, ombur yoki metallni kesuvchi nojovka yordamida qulfning halqa qismi kesib tashlanadi, yoki lom bilan bosim o‘tkazib buzilganda sirtlarda botiq hamda chizilma izlari hosil bo‘ladi. Qulfning ichki mexanizmlaridan ba’zilari, jumladan rigel va prujina tishlari shikastlanib, qulf to‘liq emas, yarim ochilgan holatda qolishi mumkin. Shuningdek, eshik, deraza yoki devor singari to‘siqlarni sindirishda buning uchun maxsus moslashtirilgan asbob va predmetlardan foydalaniladi. Metall qurilmalar, masalan seyf yoki shkaflarni buzishda esa avtogen asbobi ham foydalaniladi.

Kesish vositalari yordamida buzish amalga oshirilganda, obyektlarda ikki tomonlama izlar paydo bo‘ladi. Qurol eshik orasiga kiritilganda, izlar eshik yuzasida va to‘sin qismida ham qolishi mumkin. Ayniqsa, buzish qurolining uchidan qolgan izlar asosida qurol uchi turi, shakli, o‘lchami va hatto uning aniq guruhga mansubligi ham aniqlanishi mumkin. Buzish obyektlari ikki toifaga bo‘linadi: qulflar va bino to‘siqlari.

Qulfni buzish yoki sindirish jarayoni uning to‘liq yoki qisman ishlash qobiliyatini yo‘qotishini anglatadi.

Qulflar, asosan ikki guruhga ajratiladi: ichki va osma qulflar. Ichki qulflarni buzish holatlari kam uchraydi, chunki bunday paytda, avvalo qulf o‘rnatilgan joy – masalan, eshik yoki ramka – shikastlanishi kerak

bo‘ladi. Osma qulflarni buzish esa amaliyotda tez-tez kuzatiladi. Bunday qulflar, odatda obyektga biriktirilgan joyidan uzib olinadi, kesiladi yoki halqasi arra bilan kesish yoki egish yo‘li bilan shikastlanadi. Qulfni obyektga mahkamlagan joydan ajratish yoki sug‘urib olish vaqtida, foydalanilgan asbobning uchi bilan obyekt sirtida chuqurcha yoki hajmli izlar paydo bo‘ladi. Ba’zida bunday izlar qulfning tashqi sirtida ham ko‘rinadi.

Ko‘pincha osma qulflar halqasini kuchli va o‘tkir qaychi yordamida qirqish orqali buziladi. Kesish jarayonida qaychining tishlari qoldirgan izlar halqa yuzasida saqlanadi, arra bilan kesilganda esa ishlatilgan arra turi va shakliga xos belgilar izlarda namoyon bo‘ladi.

Arralash izlari orqali faqatgina qo‘llanilgan qurol turi, arralash harakatining yo‘nalishi, arra tishining qalinligi va boshqa xususiyatlarni aniqlash mumkin. Arralash jarayonida hodisa joyida arralash qoldiqlari va sindirilgan qulf halqasining kichik bo‘lakchalari qoladi. Shu sababli obyektlarni tekshirishda bu kabi detallarga alohida e’tibor berish zarur. Ba’zan gumon qilinayotgan shaxslarning oyoq kiyimi yoki tirnoq ostidan metall qipiqlari topiladi. Agar ular hodisa joyidan olingan qipiqlar bilan mos kelsa, jinoyatni aniqlashda katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, qulflarni tekshirishda quyidagi jihatlar o‘rganiladi: qulfning joylashuvi, turi, o‘lchamlari (eni va uzunligi), tashqi ko‘rinishi, undagi izlar, shuningdek buzish uchun ishlatilgan qurollardan qolgan izlarning shakli va o‘lchamlari.

Bularning barchasi obyektlarni buzishda jinoyatchilar qo‘llagan usullarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Buzish qurollaridan qolgan izlarga asoslangan identifikatsiya ishlarini o‘tkazish uchun hodisa joyidagi obyektlarni ko‘chirib olish ishlarini kriminalistik texnika belgilagan qoidalarga mos bajarish lozim. Xususan, buzilgan qulf topilgan joyda uning holatini o‘zgartirmasdan avval suratga olish, hodisa bayonnomasiga kiritish, diqqat bilan statik usulda ko‘zdan kechirib, qulfning qismlarini bir-biridan ajratmasdan turgan holatda maxsus idishlarga joylab ekspertizaga yuborish talab etiladi.

O‘rganish natijasida obyektlarga ta’sir ko‘rsatgan qurolning turi va sifati hamda izlarning paydo bo‘lish mexanizmi aniqlanadi; shundan so‘ng tergov doirasida zarur tezkor choralar ko‘rilib, shaxsni alohida aniqlash ishlari amalga oshiriladi. Solishtirish maqsadida tekshirilayotgan obyekt va gumon qilingan qurol izlaridan ko‘chirmalar olinadi. Identifikatsiya ishlari qabul qilingan umumiy metodlar asosida o‘tkaziladi. Ekspertizaga buzish qurollari va ulardan qolgan izlar bilan birgalikda hodisa joyi va obyektlarni ko‘zdan kechirish bayonnomasi, fotosuratlar, hodisa joyining sxemasi hamda boshqa yordamchi hujjatlarni ham ilova qilish maqsadga muvofiqdir.

Transport vositalarining izlari

Transport izlari deganda, asosan uning g‘ildiraklari qoldirgan izlar tushuniladi. G‘ildiraklardan qoladigan izlarning turi esa yo‘l yoki ko‘chaning ustki qatlami va relyefiga bog‘liq bo‘ladi. Yumshoq yoki yarim yumshoq qatlamlarda (masalan, loy, qor, nam tuproqda) botiq izlar hosil bo‘ladi, qattiq qatlamlarda esa (asfalt, tosh, beton plitalar) faqat yuzaki izlar qoladi. Transport vositalari tormozlaganda yoki sirg‘anganda dinamik izlar yuzaga keladi. Avtotransport vositalarining iz hosil qilish mexanizmi o‘ziga xosdir: to‘g‘ri yo‘nalishda harakatlanganda to‘rtta g‘ildirakdan to‘rtta iz qolmaydi, chunki orqa g‘ildirak izlari oldingi izlarni qisman yopadi. Faqat burilish (yoki qayrilish) joylarida barcha g‘ildiraklarning izlari aniq qoladi.

Yuk tashuvchi motorollerlarning barcha g‘ildiraklari (hatto, ular to‘g‘ri yo‘ldan yurganda ham) iz qoldiradi, chunki ularning g‘ildiraklari ketma-ket joylashmagan. Uch g‘ildirakli transport vositalari burilish joyida oldingi va orqa g‘ildiraklardan iz qoldiradi, chunki orqa g‘ildiraklar o‘rta g‘ildiraklarning ayni ustidan o‘tib, yagona iz hosil qiladi. Transport vositalarining qaysi tur, marka va rusumga mansub ekanligini pnevmatik shinalarining izlari orqali aniqlash mumkin.

So‘nggi paytlarda avtotransport vositalari konstruksiyalari sonining ko‘payishi natijasida, ularning qoldirgan izlari orqali qaysi guruhga mansub ekanligini aniqlash ancha murakkablashmoqda. Shu bois, hodisa

joyini sinchkovlik bilan tekshirishda kerakli belgilarni to‘liq va aniq qayd etish uchun avtomobil texnikasi bo‘yicha chuqur bilimga ega mutaxassislarni jalb qilish muhim hisoblanadi. G‘ildirakli ot-arava transportlarining izlari esa g‘ildiraklar soni, ularning orasidagi masofa va boshqa xususiyatlarga qarab aniqlanadi. Bu turdagi transport vositalarida ishlatiladigan shinalar, shuningdek metall g‘ildiraklarning tuzilishi ham o‘rganilishi kerak. Ot-aravalarda pnevmatik shinalar yoki rezinadan tayyorlangan g‘ildiraklar qo‘llanilishi mumkin.

Transport vositalari qoldiradigan izlar, odatda statik izlarga yaqin bo‘ladi. Agar g‘ildirakning tashqi mayda detallarini izlarda aniq ko‘rish mumkin bo‘lsa, bunday izlar orqali transport turini aniqlash imkoni paydo bo‘ladi. Ammo shinalar sirg‘an paytda hosil bo‘lgan dinamik izlar elastik xususiyatga ega bo‘lgani sababli, iz qoldirgan sirtning mayda relyef qismlarini to‘liq aks ettira olmaydi. Shu bois, bu kabi izlar identifikatsiya jarayonida yaroqsiz hisoblanadi, biroq transport vositasi guruhini aniqlashda foydali bo‘lishi mumkin. Transport izlaridan nusxa olish esa trasologiya obyektlarini tekshirish va qayd etishning umumiy qoidalariga asosan bajariladi. Izlarga gips quyishdan oldin ularni bir nechta bo‘lakka ajratish va keyin gips suyuqligini quyish natijada samaraliroq bo‘ladi, ayniqsa nusxalar juda katta bo‘lib ketmasligi uchun.

Izlarni aniqlash va ularni protsessual tarzda rasmiylashtirish jarayoni hodisa joyida topilgan izlarni sinchkovlik bilan o‘rganish hamda bayonnomada aniq qayd etishni talab etadi. Ko‘zdan kechirish bayonnomasi odatda uch qismdan iborat bo‘ladi. Birinchi qismda izlarni kim, qayerda, qachon va qaysi voqea munosabati bilan izlagani, shuningdek tekshiruv qanday sharoitda, qanday yoritishda, qaysi optik vositalar yordamida amalga oshirilgani, ishning boshlanish va tugash vaqti hamda ishtirok etgan shaxslar to‘g‘risida batafsil ma’lumot beriladi.

Ikkinchi qismda topilgan izga oid tafsilotlar yoziladi: iz aniqlangan predmetning nomi, izning qaysi joyda va qanday texnik vositalar yordamida topilgani, ularning turi, miqdori, o‘lchamlari, o‘ziga xos

belgilari, qayd etish usuli va bayonnomaga qanday shaklda ilova qilingani koʻrsatiladi. Shuningdek, izlarning sxematik tasviri ham kiritiladi.

Uchinchi, ya’ni yakuniy qismda, koʻzdan kechirishda qatnashgan shaxslarning fikrlari, takliflari va izohlari qayd etiladi. Bu boʻlimda, shuningdek qaysi izlardan nusxa olingani va hodisa joyidan dalil sifatida nimalar olib ketilgani yozib qoʻyiladi. Bayonnoma yakunida barcha ishtirokchilar imzo qoʻyadi.

Izlar odatda maxsus fotografik oʻlchov usullari yordamida aniq va toʻliq suratga olinadi. Fotosuratga olish izlarni rasmiylashtirishning muhim va ishonchli yoʻli boʻlib, u izlarning holatini hech qanday oʻzgarishsiz qayd etadi. Shu sababli, har bir holatda avvalo izlarni suratga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Suratga olish jarayonida stereoskopik, panorama, masshtabli va yirik masshtabli usullar qoʻllanadi. Iz turiga qarab yorugʻlik toʻgʻri yoki soyalantiruvchi tarzda beriladi. Mexanik qayd etish usulida esa botiq izlardan gips yordamida quyma nusxalar olinadi, yuzaki izlar esa maxsus materiallar orqali koʻchiriladi. Agar iz joylashgan obyektni oʻz holida saqlab boʻlmasa, aynan shu usullar yordamida uning nusxasi olinadi. Iz nusxasi olinayotganda, uning barcha katta va kichik elementlari iloji boricha tiniq va aniq aks ettirilishi shart.

Trasologiyada asosan iz qabul qilgan obyektning oʻzini olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agar bu imkonsiz boʻlsa, oldin ta’riflangan usullardan foydalaniladi. Iz tushgan obyektdan nusxa olayotganda unga hech qanday moddiy zarar yetkazmaslikka alohida e’tibor berish zarur. Ob’ektni joylashtirishda unga tashqi ta’sirlar va oʻzgarishlar yuz bermasligini ta’minlash lozim. Bundan tashqari, izga aralashgan begona narsalar (masalan, barg, choʻp va boshq.) nusxa olishdan oldin ehtiyotkorlik bilan olib tashlanishi kerak.

Agar botiq izlar suv bilan toʻlib qolsa, suv rezina yoki qogʻoz soʻrgʻichi yordamida olib tashlanadi. Agar botiq izlar unchalik chuqur boʻlmagan sayoz boʻlsa, uning qolipi kerakli qalinlikda boʻlishi uchun atrofida devorcha hosil qilinadi. Ba’zan izlar mayda va bir-biriga yaxshi

yopishmagan zarrachali yuzalarda (masalan, qum, un, sement, quruq tuproq va shunga o‘xshash joylarda) paydo bo‘ladi, bunday hollarda izlarni olish yoki nusxasini ko‘chirib olish qiyin kechadi, chunki zarrachalar tarqalib, izning shaklini buzadi. Shu sababli, avval izni vaqtincha qotirish orqali undan nusxa olish yo‘lga qo‘yiladi. Lekin iz tushgan obyektni o‘z holicha olib ketish va jinoyat dalili sifatida saqlash ko‘pincha qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun hozirda izni perxlorvinil eritmasi bilan mustahkamlash usuli qo‘llanilmoqda. Bu usulda suyuqlik asta-sekin zarrachalarni o‘ziga shimib, ularni bir-biriga mahkam bog‘lab, qattiq va butun obyektga aylantiradi. So‘ngra iz tushgan obyektni olib ketish va jinoyat ishiga qo‘shish mumkin bo‘ladi. Bunday izlarni mustahkamlash uchun atsetonda 6–8 foizli perxlorvinil eritmasi tayyorlanib, uni pulverizator orqali izga purkashadi. Taxminan 20–50 daqiqadan so‘ng izdan nusxa olish imkoniyati yuzaga keladi.

Hajmli izlarni nusxalash. Agar iz tushgan obyektni butunlay olib ketish imkoni bo‘lmasa, unda izning shakli, hajmi va relyefdagi nozik tafsilotlarini maksimal darajada aniq aks ettiradigan ko‘chirma nusxasini olish talab etiladi. Hajmli izlardan nusxa olish uchun gipsdan foydalanish mumkin. Gips qattiq hamda yumshoq yuzalardagi hajmli izlarni olishda qo‘llaniladi. Gips suv bilan qorilib, suyultirilgan holda iz ustiga surtiladi va ob-havo sharoitiga qarab taxminan 10–20 daqiqadan keyin ko‘chirma olinib, turli loy va boshqa iflosliklardan tozalanadi. Ikkinchi usul esa qatlamlash deb ataladi. Bu usulda avval quruq gips iz ustiga sepiladi, biroz qotgach, ustiga ikkinchi qatlam qo‘yiladi va shu tarzda kerakli qalinlikdagi ko‘chirma hosil qilinadi.

So‘nggi paytlarda mikrorelyefli izlardan aniq nusxalar olish uchun yangi kimyoviy moddalardan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Ulardan biri – polimer bo‘lib, u silikon pastasi sifatida «K» nomi bilan tanilgan. «K» pastasi tez quruvchi, kulrang rangga ega va har qanday yuzada yaxshi o‘zlashadi. Pastaning tezroq qotishini ta’minlash uchun unga yuzaga qo‘yilishdan oldin 7–10 qism katalizator aralashtiriladi. Shuningdek, ba’zi hajmli izlardan nusxa olishda plastilin ham ishlatiladi, ammo plastilin

yopishqoq xususiyatga ega bo‘lgani uchun, uni avval glitserin yoki vazelin bilan yumshatib, keyin izdan nusxa olinadi.

Trasologik ekspertizaning hal etadigan masalalari. Sud trasologik ekspertizasi – kriminalistik ekspertizaning bir yo‘nalishi bo‘lib, u orqali turli masalalar yechiladi. Eng muhim vazifalardan biri – izi va uni qoldirgan obyekt asosida individual identifikatsiyani amalga oshirishdir. Sud trasologik ekspertizasining obyektlari orasida qo‘l va oyoq izlari, buzish qurollari, transport vositalaridan qolgan izlar hamda boshqa turdagi izlar kiradi.

Sud trasologik ekspertizasi quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. **Qo‘l va oyoq izlarini tekshirish** – odamning qo‘l va oyoq izlarining individual xususiyatlarini aniqlash, ularni solishtirish orqali shaxsni aniqlash.
2. **Buzish qurollari izlarini o‘rganish** – turli qurollar (kalitlar, arra, bolg‘a va boshq.) orqali qoldirilgan izlarning shakli, o‘lchami va boshqa xususiyatlarini aniqlash.
3. **Transport vositalari izlarini tahlil qilish** – g‘ildirak izlari va ularning xususiyatlari asosida transport vositasining turi va modeli haqida xulosa chiqarish.
4. **Boshqa trasologik izlarni o‘rganish** – boshqa turdagi obyektlar tomonidan qoldirilgan izlarni tekshirish va identifikatsiya qilish.

Daktiloskopik ekspertizaning obyektlariga quyidagilar kiradi:

1. Hodisa joyida qoldirilgan barmoq izlari – turli yuzalardan topilgan barmoq izlari.
2. Shaxsga tegishli barmoq izlari – gumonlanuvchi yoki jabrlanuvchi shaxslarning barmoq izlari.
3. Barmoqlarning qisman yoki to‘liq izlari – to‘liq barmoq yoki faqat barmoq uchidan qolgan izlar.
4. Qon, yog‘, ifloslik va boshqa moddalardan hosil bo‘lgan barmoq izlari.
5. Vaqt va sharoitga bog‘liq o‘zgarishlarni aniqlash uchun izlarning holati va xususiyatlari.

Buzish qurollaridan qolgan izlar bo‘yicha o‘tkaziladigan ekspertiza jarayonida quyidagilar amalga oshiriladi:

- Hodisa joyida qoldirilgan izlar, buzish qurollari va uskunalar aniqlanadi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganiladi.
- Sud trasologiyasi sohasidagi maxsus bilimlar asosida izlarning hosil bo‘lish mexanizmi tahlil qilinadi.
- Qanday qurol yoki uskunalar ta’siridan aynan qanday izlar paydo bo‘lgani aniqlanadi.
- Izlarning shakli, o‘lchami, o‘ziga xos xususiyatlari orqali uskunaning turi, materiali va texnik holati haqida xulosa chiqariladi.
- Izlardan ko‘chirmalar olinib, ularni mavjud qurollar bilan solishtirish orqali individual identifikatsiya amalga oshiriladi.

Transport vositalaridan qolgan izlar bo‘yicha o‘tkaziladigan ekspertiza, asosan yo‘l-transport hodisasida ishtirok etgan transport vositasini aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Bu jarayonda hodisaning sodir bo‘lish sharoitlari, transport vositasining harakat mexanizmi hamda sud trasologiyasi va sud avtotexnikasi sohalaridagi maxsus bilimlar asosida tahlil qilinadi. Ekspertizaning asosiy obyektlariga quyidagilar kiradi:

- Transport vositalarining g‘ildirak izlari va ularning xarakteristikasi.
- Pnevmatik shinalar izlari.
- Transport vositasining harakat yo‘li va tormozlanish izlari.
- G‘ildiraklar soni, ularning o‘lchamlari va joylashuvi haqida ma’lumotlar.
- Hodisa joyidan olingan boshqa izlar va dalillar.
- Transport vositasining texnik holati va uning izlariga ta’sir qiluvchi boshqa omillar.

Tish izlari bo‘yicha olib boriladigan ekspertiza hodisa joyidan olingan turli predmetlarda (jabrlanuvchining tanasidagi izlar, oziq-ovqat mahsulotlari, sigaret qoldiqlari va boshqalar) qoldirilgan tish izlari orqali shaxsni aniqlashga yordam beradi. Sud trasologik ekspertizasini boshlash uchun barcha zarur materiallar yig‘ib bo‘lingach, tergovchi qaror chiqaradi va ekspert oldiga qo‘yiladigan aniq savollar hamda ekspertizaga

yuboriladigan materiallar belgilab qo‘yiladi. Ekspertiza uchun topshirilgan barcha materiallar tekshiruv o‘tkazishga to‘liq va yaroqli bo‘lishi kerak.

Ekspertiza jarayoni quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Ekspertizaga yuborilgan materiallarning qabul qilinishi va ro‘yxatga olinishi.
2. Ekspertizaning tayyorlanishi va o‘rganilishi.
3. Ekspertiza metodlari va usullarining tanlanishi.
4. Izlarning batafsil o‘rganilishi va tahlili.
5. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosa chiqarish.
6. Ekspertiza xulosasini yozish va taqdim etish.

Birinchi bosqich – ekspertizaga kelgan obyektlar hamda ekspertga berilgan savollar bilan tanishish jarayonidir. Ushbu bosqichda ekspertizaga taqdim etilgan materiallarning to‘liq ekanligi tekshiriladi va unga qo‘yilgan savollar bilan yaqindan tanishiladi. Agar savollar ekspertning maxsus bilim doirasidan tashqarida bo‘lsa, ekspertiza o‘tkazilmaydi.

Ikkinchi bosqich – obyektlarni alohida ko‘rib chiqish jarayoni hisoblanadi. Bu bosqichda ekspert ekspertizaga yuborilgan predmetlarning tashqi ko‘rinish belgilari va ularning ekspertiza uchun mosligini aniqlaydi.

Uchinchi bosqich – solishtirib o‘rganish jarayoni hisoblanadi. Bu bosqich ekspert tekshiruvining eng asosiy va muhim qismi bo‘lib, unda tekshirilayotgan izlarning o‘xshash va farqli tomonlari aniqlanib, baholanadi.

To‘rtinchi bosqich esa – xulosa chiqarish va uni baholash jarayonidir.

Hozirgi kunda ekspertlar sud trasologik ekspertizasini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan barcha ilmiy-texnik vosita va usullarga ega. Bunday ekspertiza jarayonida bevosita vizual kuzatish, mikroskopik, fotografik va profilografik usullar keng qo‘llaniladi. Bundan tashqari, trasologik obyektlarni chuqur o‘rganishda zamonaviy elektron mikroskoplar hamda kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish tobora kengayib bormoqda.

KAZUS: «Poyabzal izi va o‘q izlari orqali jinoyatchini aniqlash»

Vaziyat

Namangan shahrida 2024-yilning noyabr oyi oxirlarida tungi vaqtda qurolli talonchilik sodir etiladi. Ikki niqobli shaxs kichik do‘konga kirib, sotuvchini qurol bilan qo‘rqitib, kassa apparatidagi 12 million so‘mni olib qochadi.

Voqea joyiga tezkor-tergov guruhi yetib kelgach, **kriminalistik trasologiya** va **ballistika** vositalaridan keng foydalaniladi:

- Do‘kon eshigi oldidagi nam gilamda **poyabzal izlari** aniqlanadi.
- Stol tagida **bir dona gilza (o‘q qobig‘i)** topiladi.
- Devorga kirgan **o‘q yadro** esa ehtiyotkorlik bilan chiqarib olinadi.

Trasologik ekspertiza jarayonida poyabzal izi maxsus massaga tushirilgan qolip orqali o‘lchov bilan qayd etiladi. Iz shakli, taglikdagi naqsh va o‘lcham asosida u «Nike AirMax» rusumli sport poyabzaliga tegishli ekani aniqlanadi.

Ballistik ekspertiza natijalariga ko‘ra, topilgan o‘q va gilza **bir xil to‘pponchadan – «Makarov» rusumli quroldan** otilgan bo‘lib, qurolning ichki yiv izlari bilan to‘liq mosligi aniqlanadi.

Keyinchalik tezkor choralar natijasida gumondor shaxs – 26 yoshli Sobirbek qo‘lga olinadi. Uning uyidan «Makarov» to‘pponchasi topiladi, ekspertiza bu qurolni **jinoyat joyida topilgan o‘q bilan mos** deb tasdiqlaydi. Shuningdek, u kiygan poyabzalning tagi ham do‘kondagi iz bilan **bir xil trasologik belgilar**ga ega bo‘ladi.

Tahlil uchun savollar

1. Ushbu holatda **kriminalistik trasologiya** va **ballistika** qanday rol o‘ynagan?
2. Poyabzal izi va o‘q izlari qanday **kriminalistik identifikatsiya** obyektlari hisoblanadi?
3. Trasologik tadqiqotda qaysi **belgilar** asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan?

4. Ballistik ekspertiza jarayonida qanday **ilmiy prinsiplarga** amal qilingan?

5. Qanday qilib texnik dalillar yordamida jinoyatchining **aybi isbotlangan**?

Nazorat savollari

1. Kriminalistikada trasologiyaning o‘rni va ahamiyati nimalardan iborat? Biror bir jinoyat misolida uni fosh etishda trasologiyaning o‘rnini yoritib bering.

2. Izlarning qanday turlari bor? Qo‘l barmoq izlarining o‘ziga xos jihatlarini izohlab bering.

3. Ballistik anima maqsadlarda qo‘llaniladi?

4. Aniq jinoyat misolida ballistikaningahamiyatini tushuntirib bering.

5. Ballistikada tekshiruv obyektlari nimalar bo‘lishi mumkin?

6. Otilgan oq vagilzalar asosida o‘tish qurolini identifikatsiyalash qay tartibda amalga oshiriladi?

XIV BOB. HUJJATLAMI TEXNIKAVIY JIHATDAN TEKSHIRISH TUSHUNCHASI, VAZIFALARİ VA TEKSHIRISH TURLARI.

14.1. Hujjatlarning qo‘lyozma matnlarini kriminalistik usulda tekshirish.

14.2. Kriminalistik xatshunoslik tushunchasi.

14.3. Xatshunoslik tekshiruvining uslubiy yondashuvi hamda kriminalistik mualliflik tekshiruvi.

14.4. Dastxatning identifikatsiyaviy belgilari va muallifshunoslik tekshiruvini o‘tkazish uchun material tayyorlash.

14.1. Hujjatlarning qo‘lyozma matnlarini kriminalistik usulda tekshirish.

Hujjatlar – ashyoviy dalil sifatida kriminalistik tekshiruv obyekti

Jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida dalil sifatida tan olinadigan hujjatlar bilan ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, boshqalarning mol-mulkini o‘zlashtirish, mansab vakolatini suiiste’mol qilish, firibgarlik kabi jinoyatlar bilan bog‘liq holatlarda, shuningdek xo‘jalik faoliyatidagi moliyaviy hujjatlar bilan bir qatorda turli yozma hujjatlar ham kriminalistik tekshiruv obyekti sifatida ko‘rib chiqiladi.

Umuman olganda, **hujjat** deganda biror voqea yoki hodisani yozma shaklda qayd etuvchi moddiy obyekt tushuniladi. Sud-tergov amaliyotida hujjatlar o‘z mazmuni va tayyorlanish usuliga ko‘ra quyidagi turlarga ajratiladi:

- turli yozuv vositalari yordamida qo‘lda yozilgan hujjatlar – imzolar, arizalar, tilxatlar, tarjimai hollari va boshqa qo‘lyozma matnlar;
- moliyaviy hujjatlardagi yozma yoki bosma matnlar;
- tipografik usulda yoki bosma asboblar yordamida tayyorlangan hujjatlar, shuningdek turli grafik chizmalar, rejalar, hujjatlarning kseroks yoki reproduksiya nusxalari;

- fotokinohujjatlar – ya’ni obyektlar, shaxslar yoki ashyoviy dalillarning kino, video va fotosurat shaklidagi tasvirlari;
- magnit tasmasiga yoki boshqa elektron vositalarga yozilgan turli ma’lumotlar.

Shunday qilib, hujjatlar kriminalistik amaliyotda nafaqat axborot manbai, balki ashyoviy dalil sifatida ham muhim o‘rin tutadi.

Kriminalistik nuqtayi nazardan hujjatlar jinoyat ishi doirasida muayyan voqealar haqida ma’lumot beruvchi vositalardir. Ba’zan jinoiy maqsadlarda hujjatlar noqonuniy tarzda ishlatilib, qurol vazifasini o‘tashi mumkin. Masalan, firibgarlik jinoyati doirasida qalbaki hujjat yordamida mablag‘ undirish, soxta hisob raqamlari va veksellar orqali bankdan pul olish kabi hujjatlar ish bo‘yicha ashyoviy dalil hisoblanadi. Ijtimoiy xavfli qilmishning sodir etilgan yoki qilinmaganligi, uni amalga oshirgan shaxsning aybli yoki aybsizligi hamda ishni to‘g‘ri hal etishda muhim bo‘lgan boshqa holatlar aniqlanadigan har qanday ma’lumotlar jinoyat ishida dalil sifatida qabul qilinadi. Bu ma’lumotlar guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchilarning ko‘rsatmalari, ekspertlarning xulosalari, ashyoviy dalillar, ovoz yozuvlari, video va fotosuratlar hamda boshqa tegishli hujjatlar orqali tasdiqlanadi. Ashyoviy dalillar kriminalistik nuqtayi nazardan jinoyat ishini hal etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular jinoyat izlarini o‘zida aks ettirishi yoki jinoyat quroli sifatida ishlatilishi mumkin. Hujjatlarga ham ushbu xususiyatlar taalluqli bo‘lganda, ular daliliy ashyolar qatoriga kiradi.

Ashyoviy dalil sifatida hujjatlarni tekshirish orqali ikki turdagi ma’lumot olinadi: birinchisi – qo‘lyozma matn, imzo, raqam va boshqa yozuvlarni kim bajargani; ikkinchisi – hujjat asl nusxa yoki qalbakimi, qaysi joylari qaysi usul bilan o‘zgartirilgan, o‘chirilgan yoki unga qo‘shimcha yozuvlar kiritilganligi va shunga o‘xshash holatlar.

Ishdagi ashyoviy dalil bo‘lgan hujjatlarning egasiga qanchalik tegishli ekanligini aniqlash maqsadida tergovchi ularni sinchkovlik bilan ko‘zdan kechiradi, umumiy va individual xususiyatlarini belgilaydi hamda natijalarni talab qilingan tartibda hujjatlashtiradi.

Ashyoviy dalil xususiyatiga ega hujjatlar kriminalistik faoliyat doirasida ikki tur tekshiruvga murojaat etiladi:

– xatshunoslik tekshiruvi – qo‘lyozma matn (imzo, raqamlar, turli belgi va chizmalar va hokazo)ni kim yozgani yoki bajarganini aniqlash;

– hujjatni kriminalistik-texnik usullar bilan tekshirish – uning qalbaki yoki haqiqiy ekanligini aniqlash.

14.2. Kriminalistik xatshunoslik tushunchasi.

Ashyoviy dalil hisoblangan hujjatlarni tekshirishning eng muhim bosqichi – qo‘lyozma matnlar va imzolarni kim yozganini aniqlashdir. Xatshunoslik ekspertizasining predmetiga hujjatdagi yozuvlar kiradi: harflar, raqamlar, shifrlangan yoki belgilangan belgilar hamda imzo shaklidagi yozuvlar.

Qo‘lyozma xatni (dastxatni) aniqlash va uni kim yozganini belgilash esa insonning o‘ziga xos yozish uslubi – ya’ni yozuvni bajarayotgandagi malaka va odat xususiyatlariga tayanadi.

Yozish malakasi insonning ma’lum bir vaqt davomida shakllanadigan fikr va tasavvuridir. Umumiy yozish qoidalari esa xat yozishni o‘rganuvchilarga boshlang‘ich bosqichda, xusnixat qoidalari asosida taqdim etiladi. Har bir harf yoki raqamni yozish uslubi, ayrim elementlarning chiziqda joylashuvi yozish jarayonida qulaylik va moslikka qarab o‘zgaradi, natijada umumiy yozish qoidalaridan chiqib, o‘ziga xos uslub hosil qilinadi va qo‘llanadi. Masalan, yozish qurolini parallel ushlab yozish paytida harflarning o‘ngga yoki chapga qiyaligi, yozish yo‘nalishi, harflarning o‘zaro bog‘lanishi va joylashuvi kabi xususiyatlar yuzaga keladi.

Yozish malakasi o‘rta maktabda shakllana boshlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yozish qoidalariga muvofiq harf va raqamlarni qalam yoki ruchka yordamida o‘ngdan chapga yoki aksincha yo‘nalishda yozadilar. Yozishni o‘rganish jarayonida harflarning shakli asta-sekin o‘zgarib, umumiy yozish qoidalaridan chetlasha boshlaydi. Bu jarayonga insonning fiziologik xususiyatlari ta’sir ko‘rsatadi. Fiziologiya yozuvning

murakkab, o‘zini o‘zi boshqaruvchi funksional qobiliyat ekanligini ta’riflaydi.

Shuning uchun dastxat turli o‘zgaruvchan sharoitlarda o‘z barqarorligini yo‘qotib, ma’lum chegaralarda rang-barang tuslarga kirib, turli ta’sir kuchlari ostida o‘zgarishi tabiiy hisoblanadi.

Dastxat bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

– **dinamik barqarorlik** (ya’ni nisbiy doimiylik);

– **turli tashqi ta’sirlarga nisbatan o‘zgaruvchanlik**.

Xatshunoslik ekspertizasida qo‘lyozma yoki imzoning aynan kim tomonidan yozilganligini aniqlash insonning yozish malakasi ya’ni dastxati orqali amalga oshiriladi. Yozish jarayoni hamda uning natijasi so‘z, raqam yoki imzo kriminalistik tahlil uchun hujjatning tekshiriladigan obyekti hisoblanadi.

Kriminalistika fanida yozuv qaysi shaklda bo‘lishidan qat’i nazar, u **dastxat** deb yuritiladi. **Imzo** esa qo‘lyozmaning o‘ziga xos shakli bo‘lib, o‘ziga xos belgilarga ega. Shu sababli imzoni o‘rganish usullari dastxatni tekshirish usullaridan ma’lum darajada farqlanadi.

Dastxat insonda o‘qish jarayonida, ya’ni maktab davrida shakllanib, odatda o‘rta ta’limni yakunlash arafasida barqarorlashadi. Aynan shu davrdan boshlab, yozuv orqali shaxsni aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Dastxatning shakllanish va mustahkamlanish jarayoniga bir nechta omillar ta’sir ko‘rsatadi, jumladan insonning **anatomik**, **fiziologik** va **psixologik** xususiyatlari, shuningdek uning yozish tajribasi va amaliy faoliyati.

Shuningdek, insonning takrorlangan yozish harakati o‘ziga xos, odatga aylanib, vaqt o‘tishi bilan individuallik va aynanlik xususiyatlarini hosil qiladi. Bu ilmiy nazariya ko‘p yillik eksperimental tadqiqotlar hamda ekspertiza amaliyotlari orqali tasdiqlangan. Dastxatning tekshiruv obyekti sifatida barqarorligi nisbiy bo‘lib, chunki yozuv insonning ongli faoliyatining bir qismi sifatida turli obyektiv va subyektiv omillar ta’sirida shakllanadi. Obyektiv omillarga yozish sharoiti, atrof-muhit ta’siri, yozish vositasi va yozuv bajarilayotgan buyum kiradi.

Subyektiv omillar orasida yozayotgan shaxsning psixologik kasalliklari, mastlik, emotsional holat va boshqa unga xos shaxsiy vaziyatlar kiradi. Bundan tashqari, yozish jarayonida shaxs qasddan yozuvini yoki imzosini o‘zgartirib yozishga urinishlari mumkin. Ana shunday omillar xatning nisbiy barqarorligi va individualligini belgilaydi. Ushbu omillar dastxatning ayrim umumiy xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatib, asosiy individuallik va barqarorlik darajasi orqali xat yoki imzoni yozgan shaxsning aynanligini aniqlash imkonini yaratadi.

Ekspertiza tekshiruvi orqali yozgan shaxsni aniqlash bilan birga, xatning yozilish sharoiti hamda yozuvchining salomatlik holati haqida ma’lumot olish mumkin. Bunday holatlar xatdagi «nutq»ning umumiy va maxsus belgilar asosida aniqlanadi. Masalan, yozayotgan shaxsning ruhiy hayajoni yoki boshqa holatlari odatiy yozish uslubiga ta’sir qilib, yozuvning tekisligiga ta’sir ko‘rsatadi, yozish tezligi tezlashishi yoki sekinlashishi mumkin. Natijada, xatning aniqligi va ravonligi o‘zgarib, harflar tuzilishi soddalashadi. Qo‘lyozmada turli buzilishlar paydo bo‘ladi. Yozish sharoitining o‘zgarishi ham o‘ziga xos holatlar keltirib chiqaradi. Masalan, tik turgan yoki yotgan holda yozish, qo‘l jarohati sababli chap qo‘l yoki boshqa moslama bilan yozish kabi holatlar bunga misoldir.

Dastxatning identifikatsiyaviy belgilari. Dastxatning identifikatsiya qilish uchun xususiyatlari mavjud. Xat, imzo va boshqa qo‘lda yozilgan matnlarni kim yozganini aniqlashda qo‘llaniladigan usul dastxatshunoslik deb ataladi. Identifikatsiyaviy belgilar esa tekshiruv, tadqiqot va izlanish jarayonida foydalaniladigan, xatga xos belgi va alomatlardir.

1. Dastxatshunoslik ekspertizasi davomida ekspert dastxatda mavjud bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni o‘rganib, tahlil qiladi va tekshiruvni amalga oshiradi: dastxatning mazmun bilan bog‘liq sifati.
2. Topografik belgilar – ya’ni xat, imzo, raqam va yozuvlarning hujjatdagi joylashish tartibi va xususiyatlari.
3. Dastxatni yozish uslubiga oid umumiy sifatlar va belgilari.
4. Xatning alohida, ya’ni maxsus belgilar.

Dastxatning birinchi toifasidagi sifat belgilari «nutq belgilar»i deb ham nomlanadi. Ushbu belgilar yozgan shaxsning umumiy bilim va madaniyat darajasini aks ettiradi. Bular orasida nutqning o‘ziga xosligi, so‘z boyligi, so‘zlarning joyida qo‘llanilishi, jumla tuzilishi, shevalar yoki xorijiy so‘zlarning yozuvda aks etishi, grammatik xatolarning odatiy holga aylanishi kabi jihatlar mavjud. Ushbu sifat belgilar ma’lum hajmdagi yozma matnda o‘z ifodasini topadi. Imzo yoki qisqa jumla hamda raqam yozuvlarida esa nutq belgilar to‘liq aks etmasligi mumkin. Xatshunoslik ekspertizasida nutq belgilar qo‘shimcha, yordamchi sifatida xizmat qilsa, muallifshunoslik ekspertizasida ular asosiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Dastxatning umumiy belgilarini uch toifaga ajratish mumkin:

1. Dastxatning shakllanish darajasini ko‘rsatadigan belgilar – bu dastxatning ishlash darajasi, harakatning aniqligi, bog‘lanishi, yozish tezligi va bosimi.

2. Harakatlar tuzilishini ifodalovchi belgilar – dastxatning tuzilishi, ustun harakat turi, harflarning kattaligi, ularning orasidagi masofa, yozuvning qiyaligi hamda harflarning balandligi va eni.

3. Topografik belgilar – qo‘lyozma bajarilgandan so‘ng harakatlarning joylashishini ko‘rsatadigan belgilar: yozuv chizig‘ining shakli va yo‘nalishi, tipografik blankadagi joylashuvi, hoshiya o‘lchami va shakli, so‘zlar va satrlar orasidagi bo‘shliq va boshqa xususiyatlar.

Har bir umumiy belgining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, dastxatning ishlanish darajasiga qarab, yozuv yuqori, o‘rta yoki past darajada bajarilgan deb baholanadi. Yuqori darajada ishlangan yozuvda yozish tezligi ham mos ravishda yuqori bo‘ladi, harflarning umumiy shakli esa ko‘pincha soddalashtirilgan va noaniq bo‘ladi. So‘zlar va harflar bir-biriga bog‘langan holda, bir yo‘nalishda yoziladi; qo‘lning avtomatik harakati tufayli qalam yoki ruchka qog‘ozdan uzilmay yoziladi. Ushbu belgilar umumiy xususiyatlar bo‘lib, yozgan odamning qaysi guruhga mansub ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, «yuqori darajada dastxati shakllangan shaxslar», yoki «katta yoki kichik harflar bilan yozadigan shaxslar» degan fikrni hosil qiladi. Bu esa hujjatni yakkayozgan shaxsni

aniqlash jarayonida izlanish doirasini sezilarli darajada toraytiradi va identifikatsiya, ya’ni aynanlikni aniqlashda birinchi qadam sifatida xizmat qiladi.

Umumiy belgilar ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ayrim hollarda yozuvni tasniflash hamda yozish darajasini aniqlash imkonini beradi. Masalan, agar tekshirilayotgan hujjat yuqori saviyadagi dastxat bilan yozilgan bo‘lsa, biroq gumon qilinayotgan shaxsning yozuv darajasi bundan past bo‘lsa, bu holat hujjatni u yozmaganini ko‘rsatadi. Har bir umumiy belgilar guruhi o‘z tarkibida bir nechta xususiy belgilarni mujassam etadi va ularni turli guruhlarga ajratish mumkin. Xususiy belgilar, asosan, yozuvdagi ayrim harflar hamda ularning tarkibiy qismlari orqali namoyon bo‘ladi.

Mantiqiy qonuniyatlarga ko‘ra, umumiy tushunchalar xususiy belgilar orqali ifodalanadi, xususiy belgilar yig‘indisi esa umumiy sifat haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Shu ilmiy tamoyil xatshunoslik tekshiruvlarida to‘liq tatbiq etiladi.

Xususiy belgilar o‘z ifodasiga qarab ikki turga bo‘linadi: bir nechta harflarda takrorlanadigan **alohida belgilar** va faqat bitta harfda uchraydigan **yagona belgilar**. Masalan, «z», «d», «u» kabi bir necha harflarda bir xil shaklda yozilgan satr osti halqa elementi alohida belgilar guruhiga kiradi. Agar halqa shakli faqat bitta harfda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lsa, u holda bu yagona xususiy belgi hisoblanadi.

Harflarning harakat tuzilishidagi murakkablik darajasi, yozuv elementlarining shakli, yo‘nalishi, vertikal (balandlik) va gorizontal (kenglik) o‘lchamlari, ularni birlashtirish usullari, elementlar soni va ketma-ketligi, bosimdagi o‘zgarishlar, yozish harakatining boshlanishi va yakunlanishi, ulanish hamda kesilish nuqtalarining joylashuvi kabi omillar xususiy belgilar tizimini tashkil etadi.

Kriminalistika sohasidagi so‘nggi tadqiqotlarda dastxatning qo‘shimcha belgilariga ham e’tibor qaratilgan. Ushbu belgilar umumiy va xususiy belgilar orasida joylashib, dastxatdagi asosiy harakatlarni ifodalaydi. Masalan, bir nechta harflar va ularning elementlari yozilishida

chapga aylanuvchi halqasimon harakat kuzatilishi mumkin. Dastxatning umumiy va xususiy belgilarining mustahkamligi ma’lum vaqtga bog‘liq bo‘lib, umumiy individuallik va barqarorlik xususiyati esa nisbiydir. Bu tushunchani shunday tushuntirish mumkin: xat yoki imzoni yozayotgan shaxs o‘z xohishi bilan yoki tashqi ta’sirlar sababli ba’zan yozuvni bexosdan o‘zgartirishi mumkin. Bunday vaziyatda umumiy belgilar to‘liq yoki qisman o‘zgaradi, xususiy belgilar esa qisman o‘zgarishlarga uchraydi, ammo umumiy aynanlik xususiyati yozuvda barqaror qoladi.

Jinoyat maqsadida hujjat qurol sifatida ishlatilgan vaziyatlarda, hujjatdagi qo‘lyozma elementlarni (harflar, raqamlar, imzo va boshqalar) yozayotgan shaxs tergov bosqichida ularning tekshirilishi yoki kim yozgani aniqlanishi mumkinligini oldindan anglab yetadi. Shuning uchun qalbaki yoki noqonuniy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish jarayonida, yozilayotgan raqamlar, so‘zlar yoki buyruq ko‘rsatmalarni tasdiqlovchi imzolarni yozayotganda muallif yozuvni o‘zgartirishga harakat qiladi. Hujjatni qalbakilashtirish ko‘pincha jinoyatchining o‘z imzosini o‘zgartirib yozishi yoki boshqa mansabdor shaxs imzosiga o‘xshash qilib taqlid qilishi bilan kechadi. Biroq, qasddan o‘zgartirish kiritilgan holatlarda ham yozuvning asosiy elementlari ko‘plab hollarda o‘zgarmagan holda qoladi. Ko‘p yillar davomida hosil bo‘lgan va individuallik xususiyatiga ega bo‘lgan dastxatni to‘liq o‘zgartirish deyarli imkonsizdir. Ushbu fikrlar kriminalistik ekspertizaning uzoq muddatli nazariy va amaliy tadqiqotlari bilan tasdiqlangan.

Dastxat ataylab o‘zgartirilgan holatlarda, yozuvda odatdagi umumiy belgilar sifatlaridan sezilarli farqlar paydo bo‘ladi. Bunday yozuv jarayonida tezlik kamayadi, natijada harflar va ularning birikmalari alohida-alohida ajralib yoziladi, qo‘lning titrashi esa yozuvda aniq seziladi. Mikroskop yoki lupa ostida yozuv diqqat bilan tekshirilganda, harakatning ayrim nuqtalarida to‘xtash joylari ham ko‘zga tashlanadi. Oval shakldagi harf qismlarida esa oval-aylanma joylarida burchaklar paydo bo‘lib, yozuv yo‘nalishining o‘zgarishi natijasida harflarning hajmi

va qog‘ozdagi joylashuvi tuzilishi o‘zgarganligi, shuningdek yozish harakatining umumiy susayishi kabi belgilarga guvoh bo‘lish mumkin.

Hujjatlardagi ma’lumotlarni tasdiqlovchi imzolar ham xatshunoslik tekshiruvi uchun muhim obyektdir. Shuning uchun umumiy va xususiy belgilar tizimi imzolarni o‘rganishda ham to‘liq qo‘llaniladi. Bunga qo‘shimcha ravishda, imzolarning o‘ziga xos ba’zi xususiyatlari ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: imzoning umumiy tuzilishi va transkripsiyasi; shuningdek, harfli, harfsiz, aralash harf va harfsiz chiziqlardan tashkil topgan imzolar. Harfli imzo deganda faqat harflardan tashkil topgan imzo tushuniladi. Harflar bilan birga o‘qilishi qiyin bo‘lgan aylanma chiziqlardan iborat imzolarga aralash imzolar deyiladi. Harfsiz imzo esa, faqat harf shakliga o‘xshagan, o‘qib bo‘lmaydigan chiziqlardan tashkil topgan, ya’ni chiziqli imzo deb ataladi.

Ba’zi odamlar imzolarining boshlanishida o‘z ismining birinchi harfi bilan otasining ismining bosh harfini birlashtirib, «monogramma» ko‘rinishida yozadilar. Keyin esa imzoni boshqa harf yoki chiziqlar bilan yakunlaydilar, shuningdek chiziq osti yoki ustiga turli bezaklar qo‘shadilar. Imzoni tugatishda ishlatiladigan turli shakldagi chiziqlarga esa «jimjima» deyiladi.

Imzo qaysi shaklda bo‘lmasin, xatshunoslik tekshiruvi obyekti hisoblanadi va dastxat belgilarining ta’rifi unga to‘liq tatbiq etiladi. Biroq imzoning o‘ziga xos ekspertiza jihatlari ham mavjud. Imzo ma’lum bir shaxsning guvohlik belgisi sifatida hisoblangani uchun uning tekshirilishi va asl yoki qalbaki ekanligini aniqlash maxsus uslubiyatni talab etadi. Faqat imzo qalbakiligi qat’iyan aniqlanganda uni gumon qilingan shaxslardan qaysi biri bajarilgani haqida xulosa chiqarish mumkin. Masalan, «A» nomidan qo‘yilgan imzo «A» tomonidan yozilgani isbotlanmasdan, bu imzo «B» yoki «V» tomonidan yozilgandir, deb qarash noto‘g‘ri bo‘ladi. Shuningdek, mavjud bo‘lmagan yoki tergov tomonidan aniqlanmagan shaxslar nomidan qo‘yilgan imzolarni oshirish ushbu qoidaning istisnosidir.

Raqamlar va boshqa belgilar bilan ifodalangan yozuvlar ham ekspertiza obyekti sifatida tekshiriladi, ularning tavsifi esa matn hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday yozuvlarda ham insonning yozish malakasiga xos individuallik xususiyatlari aks etadi. Insonning kasbi, hunari yoki mutaxassisligiga ko‘ra, uning xizmat faoliyatida bir nechta turdagi yozuvlar (imzolar) mavjud bo‘lishi mumkin. Har qanday yozuv turida mavjud bo‘lgan umumiy sifat belgilari shaxsning o‘ziga xos yozish uslubini ifodalaydi va uni doimiy tarzda aks ettiradi. Bunday xususiyatlar dastxat yoki imzoning turli ko‘rinishlari, ya’ni variantlari sifatida qaraladi. Qo‘lyozma matnining aynan kim tomonidan va qanday sharoitda yozilganini aniqlashda faqatgina umumiy yoki xususiy belgilar guruhidan foydalanish yetarli bo‘lmaydi – to‘liq va ishonchli xulosa chiqarish uchun barcha belgi guruhlarining yig‘indisi chuqur tahlil qilinadi. Namuna sifatida olingan hujjatlardagi yozuv va belgi tizimi bilan solishtirib ko‘rilgandan so‘ng aniq natijaga kelish mumkin bo‘ladi.

14.3. Xatshunoslik tekshiruvining uslubiy yondashuvi hamda kriminalistik mualliflik tekshiruvi.

Xatshunoslik tekshiruvining uslubiyoti

Xatshunoslik ekspertizasini o‘tkazishda qo‘llaniladigan tekshiruv usullari kriminalistik diagnostika va identifikatsiya nazariyalarining umumiy metodologik tamoyillariga tayanadi. Biroq, ekspertiza mazmuni hamda tekshirilayotgan obyektlarning o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda, ekspert zarurat tug‘ilganda boshqa qo‘shimcha usullardan ham foydalanishi mumkin.

Tekshiruvning dastlabki bosqichida ekspert taqdim etilgan ekspertiza materiallari bilan tanishib chiqadi, ekspertiza tayinlashga sabab bo‘lgan ehtiyojni baholaydi, hal etilishi lozim bo‘lgan savollar aniq ifodalanganligini tekshiradi, shuningdek tekshirish uchun yuborilgan hujjatlar va tegishli ma’lumotlarning to‘liqligini aniqlaydi.

Ekspert tekshiruvining keyingi vazifasi sifatida, ashyoviy dalil bo‘lgan hujjatdagi qo‘lyozma matnlar (harflar, raqamlar) va imzolarning

mansubligi, shuningdek xususiy belgilar tahlil qilinadi. Shu jumladan, bir xil harflarda takrorlanadigan va o‘zgarishsiz, mustahkam shakllangan belgilar alohida e’tiborga olinadi.

Taqqoslash maqsadida yuborilgan qo‘l yozuvi (imzo) namunalariga ham xuddi shunday tarzda alohida va puxta e’tibor qaratilib, ularning har biri sinchkovlik bilan o‘rganiladi. Gumon ostidagi shaxslar soniga qarab, ularning ayrimlari guruhlarga bo‘linadi va har bir dastxatda uchraydigan umumiy hamda o‘ziga xos belgilarni ko‘rsatib beruvchi jadval yoki diagrammalar tuziladi.

Dastxat va imzodagi belgilar harflarning alfavit tartibiga muvofiq joylashtirilgan holda tahlil qilinadi va ularning xususiyatlari tegishli tartibda jadvalga kiritilsa, taqqoslash va oshirish jarayonida sezilarli qulaylik yuzaga keladi. Avvalambor umumiy xususiyatlar tahlil qilinadi – ular yozuvchining yozish malakasi va dastxatning shakllanish darajasini aks ettiradi hamda gumon ostidagi shaxslar orasidan ba’zi yozuvlarni ajratib olishga yordam beradi. Keyingi bosqichda esa ekspert tomonidan taqdim etilgan namunalar bir shaxsga mansub erkin, eksperimental va boshqa turdagi qo‘l yozuv hamda imzo namunalarining nechta kishiga tegishli ekanligi aniqlanadi. So‘ngra ushbu namunalar tergov obyekti sifatida ko‘rilayotgan hujjatning qo‘l yozuvi bilan taqqoslanadi. Barcha ishlar xat yozilish sharoiti va yozuvga ta’sir ko‘rsatgan omillarni hisobga olgan holda olib boriladi.

Asosiy dalil bo‘lgan hujjatlardagi imzolar ko‘pincha ularni qilgan shaxslar tomonidan ataylab o‘zgartiriladi; bu holatda imzoning ayrim belgilari qisman yoki to‘liq o‘zgargan bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, imzo shakli o‘zgargan taqdirda ham, yozuvchining o‘ziga xos yondashuvi odatda imzoning oxirgi qismida saqlanib qoladi.

Ana shu holatda gumon qilinuvchining dastxat namunalaridan foydalanib, ular ichidan solishtirish uchun mos harflarni aniqlab, taqqoslash o‘z samarasini beradi.

Ba’zi shaxslar rahbar yoki mansabdor kishilar nomidan qo‘yilgan imzolarni taqlid qilib, qalbakilashtirishga urinadilar. Qalbakilashtirilgan

imzoda uzunligi, tuzilishi va boshqa umumiy belgilar to‘liq yoki qisman o‘zgarishi mumkin. Bunday holatlar imzoning qalbaki ekanligini ko‘rsatadi va ko‘pincha belgilar soni va sifatiga qarab, uni kim tomonidan bajarilgani ham aniqlanishi mumkin.

Ekspertiza jarayonining ikkinchi bosqichida dastxat va imzolarga xos belgilar aniqlanib, ular o‘zaro taqqoslanadi. Gumon qilinayotgan shaxslar soniga qarab, har birining yozuv namunasi tekshirilayotgan hujjatdagi yozuv bilan ketma-ket solishtirib chiqiladi. Guruhga mansublik belgilariga ko‘ra o‘xshash yozuv namunalarini umumiy to‘plamdan ajratish amalga oshiriladi. So‘ngra tekshirilayotgan hujjatdagi dastxat yoki imzo bilan ajratilgan namunalar orasidagi barcha umumiy hamda o‘ziga xos belgilar solishtiriladi. Ushbu belgilar to‘liq mos kelganda, mualliflikning aynanligi haqida xulosa chiqariladi. Agar umumiy va xususiy belgilarning ko‘pchiligi farq qilsa, demak aynanlik inkor qilinadi va qo‘lyozma (imzo)ni boshqa shaxs yozgani aniqlanadi. Ayrim belgilar tekshirilayotgan va namuna xatlardagi umumiyligi esa ularning o‘xshashlik xususiyatlariga dalolat qiladi.

Albatta, ikki yoki undan ortiq shaxslarning yozuvlari o‘xshash bo‘lishi mumkin. Ammo yozuvchining aynanligini, ya’ni tekshirilayotgan qo‘lyozma (imzo) aynan **shu shaxs tomonidan bajarilgan** deb xulosa qilish uchun barcha identifikatsiyaviy belgilar, ayniqsa xususiy va alohida dastxat belgilari to‘liq mos kelishi zarur. Faqat shunda yozuvchining shaxsiyligi aniq tasdiqlanadi.

Kriminalistik muallifshunoslik tekshiruvi

Kriminalistik muallifshunoslik tekshiruvi doirasida hujjat matnining muallifini aniqlash muhim masala hisoblanadi. Xatshunoslik ekspertizasi o‘tkazilganda, mazmuniy sifatlar va og‘zaki nutq xususiyatlari o‘rganiladi.

Dastxatni aynan kim yozgani aniqlangan taqdirda ham, nutq mazmuni ko‘pincha boshqa shaxsga taalluqli bo‘ladi biri gapiradi, ikkinchisi esa yozadi. Sud va tergov jarayonlarida shaxsining nomi ma’lum bo‘lmagan anonim xatlar yoki muallifi noma’lum adabiy hamda ilmiy asarlarning

(qo‘lyozma matnlar bilan birga bosma hujjatlar ham shu jumladan) muallifini aniqlash talab etiladi.

Ba’zan jinoyatchi o‘z maqsadini amalga oshirish uchun jabrlanuvchini zo‘rlik yoki tahdid ostida majburlab, kerakli mazmundagi xatni diktovka asosida yozdiradi.

Bunday vaziyatda xatni yozayotgan shaxsning qo‘lyozmasidagi umumiy va xususiy belgilar uning dastxatini ifodalaydi, ammo matn mazmunidagi og‘zaki nutq belgilarining boshqa bir shaxsga tegishli ekanini ko‘rsatadi. Hujjat matnining mazmunini aniqlash va tahlil qilish jarayonida nafaqat kriminalistik xatshunoslik mutaxassislari, balki tilshunoslar, filologlar va mazkur matn sohasiga oid boshqa mutaxassislar ham jalb qilinadi va ular hamkorlikda ish olib boradilar. Muallifshunoslik ekspertizasi inson nutqining shakllanishi, uning bilim tizimi asosida rivojlanishi, takomillashishi hamda individual nutq xususiyatlarining yozuvda aks etish qonunlariga tayangan holda amalga oshiriladi.

Kriminalistik muallifshunoslik matnni identifikatsiya qilish nazariyasini, shuningdek lingvistika, psixologiya, sotsiallingvistika va psixolingvistika sohalaridagi ba’zi nazariy konseptlar bilan bog‘lab, muallifni aniqlash vazifasini bajaradi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– xatning aniq muallifini belgilash (identifikatsiya masalasi);

– matn muallifining umumiy bilim darajasi, kasbiy soha, mutaxassisligi va boshqa xususiyatlari asosida uning ma’lum guruhga mansub ekanligini aniqlash (guruhga mansublik – diagnostika masalasi).

Kriminalistik muallifshunoslik ekspertizasi obyektlari sifatida turli hujjatlardagi qo‘lyozma matnlar, shuningdek nusxa ko‘chirish texnologiyalari yordamida tayyorlangan matnlar va ko‘paytirilgan poligrafik mahsulotlar hisoblanadi. Matn jumlalari va so‘z birikmalaridan tashkil topgan bo‘lib, ular aniq ma’no va mazmunni ifoda etishi zarur.

Ekspertlarning amaliy tajribasiga ko‘ra, matnni identifikatsiyaviy tadqiqot obyekti sifatida qabul qilish uchun uning hajmi taxminan 500

so‘zdan kam bo‘lmasligi kerak, aks holda matndagi nutq belgilarining asosida aniq va ishonchli xulosa chiqarish qiyinlashadi.

Muallifshunoslik ekspertizasini amalga oshirishda xatshunoslik tekshiruviga o‘xshab, taqqoslash uchun xat namunalariga ehtiyoj bo‘ladi. Bu xat namunalariga jinoyat ishida ishtiroki mumkin bo‘lgan, hujjatlarni yozishda gumon qilinayotgan shaxslarning qo‘lyozmalari, shuningdek pechatlash yoki poligrafiya mahsulotlari orqali ko‘paytirilgan matnlar kiradi.

Xatshunoslik tekshiruviga taqdim etiladigan namunalar erkin, eksperimental yoki ma’lum bir oraliq vaqtga oid bo‘lishi mumkin. Hozirgi vaqtda ekspertiza amaliyotida tasniflash, guruhga mansublikni aniqlash hamda diagnostik masalalarni hal etish uchun mustahkam nazariy va metodologik asoslar yaratilgan. Hujjat matnining mazmuniy tahlili yordamida muallifning ma’lum bir guruhga mansubligi aniqlanadi. Masalan, matn qaysi millat tilida yozilganiga qarab, muallif uchun bu til ona tili yoki chet tili ekanligini belgilash mumkin.

Muallifshunoslik ekspertizasi bir necha bosqichlardan iborat bo‘ladi. Dastlabki bosqichda ekspert tekshirish uchun taqdim etilgan material bilan tanishadi, ajrimda keltirilgan vazifalarni, shuningdek obyektlar soni va sifatining yetarliligini baholaydi. Keyingi bosqichda esa har bir namuna alohida tahlil qilinib, ularning nutqiy belgilariga e’tibor qaratiladi – leksik birliklar, sintaktik tuzilma, gap qurilishi va yozma nutq ifoda uslubi o‘rganiladi.

Agar tekshirilayotgan mualliflar soni bir nechta bo‘lsa, ularning yozuv namunalarini alohida guruhlarga ajratib, mustaqil tarzda solishtirish va tahlil qilish amalga oshiriladi.

Solishtirish va tahlil qilish jarayonida muayyan belgi va xususiyatlarning o‘xshashligi yoki farqli jihatlari asosida xulosalar shakllantiriladi. Tekshirilayotgan muallifning shaxsi yoki u tegishli bo‘lgan guruh (masalan, ta’lim darajasi, bilim saviyasi, mutaxassisligi yoki boshqa omillar) asosida baho berilib, tegishli xulosa chiqariladi. Hozirgi davrda dastxatshunoslik va muallifshunoslik tadqiqotlarida

«matematik tahlil» usulidan keng foydalanilmoqda. Tekshirilayotgan obyektlarning turli sifat belgilarini matematik asosda tasvirlash orqali, ular o‘zaro bog‘liq ikki muhim jihatga tayangan holda tahlil qilinadi:

a) obyektga xos belgilarining mustahkamligi va individualligi;

b) bir xil belgi-alomatlarning miqdor jihatidan namoyon bo‘lishi.

Bir kishining yozuvidagi umumiy va o‘ziga xos belgilar boshqa bir shaxsning yozuvida aynan takrorlanmasligi – bu sifat omili hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim aniq shakllangan belgilar bir nechta obyektlarda takror namoyon bo‘lishi esa – miqdoriy xususiyatni ifodalaydi.

Obyektga xos sifat belgilarining uzoq muddat davomida barqaror va o‘zgarmas bo‘lib qolishi matematik a hamda ehtimollar nazariyasining qo‘llanilishi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, yozuvdagi o‘zgaruvchanlik, ya’ni turli omillar sababli yuzaga keladigan farqlar, belgilarning nisbatan barqarorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, diagnostik ma’lumotlarni bildiruvchi alomatlar xatning yozilishidagi aniq holatlar, tashqi ta’sirlar natijasida paydo bo‘lgan, odat tusini olgan yozuv uslubining o‘zgarishi orqali aniqlanadi.

Dastxatshunoslik va muallifshunoslik ekspertizasining natijalari, boshqa ekspertiza turlari kabi, jinoyat ishlarida dalil sifatida qaraladi hamda umumiy protsessual qoidalarga asosan baholanadi.

14.4. Dastxatning identifikatsiyaviy belgilari va muallifshunoslik tekshiruvini o‘tkazish uchun material tayyorlash.

Dastxatshunoslik va muallifshunoslik tekshiruvini o‘tkazish uchun material tayyorlash

Ekspertiza tayinlash umumiy protsessual tartib-qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda surishtiruv organi, tergovchi yoki sud ekspertiza o‘tkazilishi haqida qaror yoki ajrim qabul qiladi. Mazkur qaror (yoki ajrim)da ekspertiza tayinlanishiga sabab bo‘lgan holatlar, jinoyat ishini to‘g‘ri hal etish uchun aniqlanishi lozim bo‘lgan masalalar, ularni yechishda zarur bo‘ladigan maxsus bilim sohasi hamda ushbu bilimga ega mutaxassisni jalb etish zarurati aniq bayon etiladi. Bundan tashqari,

ekspertizani o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar, yozuv yoki imzo namunalarini aniqlashga xizmat qiluvchi materiallar, shuningdek boshqa tekshirish obyektlari ham birgalikda yuboriladi.

Xatshunoslik ekspertizasi xulosalari to‘liq va ishonchli bo‘lishi uchun, qaror (yoki ajrim)da tekshirilayotgan hujjatning qachon hamda qanday sharoitda tuzilganligi, uning qayerdan olinganligi, matnning yozilishi va rasmiylashtirilishida gumon qilinayotgan shaxslar kimlar ekani, ularning bergan tushuntirishlari haqida ma’lumotlar keltirilishi shart.

Agar zarurat tug‘ilsa, ekspert jinoyat ishi materiallari tarkibidagi ekspertizaga aloqador ayrim holatlar bilan ham tanishish huquqiga ega bo‘ladi.

Bunday ma’lumotlar ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qarorning bayon qismida keltiriladi yoki ish materialining mos qismi bevosita ekspert ixtiyoriga topshiriladi. Qaror yoki ajrimda, ekspert tomonidan hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar aniq, tushunarli va savol shaklida bayon qilinadi. Ekspert tekshiruvi samarali bo‘lishi, ya’ni uning to‘liq, asosli va xolis natijaga olib kelishi – solishtirish uchun taqdim etiladigan dastxat (yoki imzo) namunalarining miqdori va sifatiga chambarchas bog‘liqdir. Gumon qilinayotgan har bir shaxsdan qo‘lyozma namunalarini yetarli miqdorda olish zarur bo‘ladi.

Erkin dastxat namunalari shaxsning o‘qish joyi, ish joyi yoki yashash manzillaridan olingan hujjatlardan iborat bo‘ladi. Tergovchi bu namunalarni ekspertizaga yuborishdan oldin, ularning aynan kim tomonidan yozilganligini aniqlaydi va gumon qilinuvchining tasdiqlovchi yozuvi hamda imzosi bilan ularni rasmiylashtiradi. Erkin namunalar imkon qadar ko‘proq bo‘lishi, shu bilan birga, tekshiruvdagi hujjat bilan tuzilish vaqti orasidagi tafovut katta bo‘lmasligi lozim.

Eksperimental dastxat namunalari esa bevosita ekspertiza tayinlayotgan shaxs tomonidan olinib, gumon qilinuvchining o‘zi tomonidan yozilishi talab etiladi.

Tekshirilayotgan hujjatdagi yozuvda uchraydigan so‘z birikmalari, gap tuzilmalari va raqamlar yozilishidagi xususiyatlarga o‘xshash bo‘lgan matnlar taklif etiladi yoki gumon qilinuvchi shaxs ularni og‘zaki aytib, boshqasiga yozdiradi.

Dastxat hamda imzo bo‘yicha olingan erkin namunalar jinoyat ishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan holatda yozilgan bo‘lgani sababli, ulardagi individual belgilar deyarli o‘zgarmaydi, balki yanada barqaror holatda bo‘ladi. Shu sababli, ekspertiza tayinlash jarayonida aynan erkin namunalarga alohida e’tibor qaratish muhim sanaladi. Imzo namunalarini olishda esa, gumon qilinuvchining qo‘l qo‘yish uslublarining nechta turli shakli mavjud bo‘lsa, shuncha variantda imzo namunasi talab qilinadi.

Imzo namunalarini yozishda gumon qilinuvchi har bir imzoni alohida varaqda bajarishi zarur bo‘ladi, bunda u oldin yozilgan imzoni ko‘rmasligi kerak. Bu tartib gumon qilinuvchining o‘z imzosini ataylab o‘zgartirib yozish ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi. Ekspertiza tayinlashga oid qaror (yoki ajrim)da tekshirilayotgan hujjatlar bilan bir qatorda, ushbu hujjatlarning rekvizitlari hamda eksperimental namunalarning nechta varaqda olingani alohida ko‘rsatib o‘tiladi.

Kriminalistik texnika tekshiruvi tushunchasi, vazifasi va turlari

Hujjatlarni texnik yo‘l bilan soxtalash masalasi kriminalistikaning ikkinchi bo‘limida alohida mavzu sifatida ko‘riladi. Kriminalistik texnika tabiiy va texnik fanlarning muayyan yo‘nalishlarini vazifasiga moslashtirib, ular yordamida turli soxta hujjatlarni tayyorlashga mo‘ljallangan maxsus usullarni ishlab chiqadi. Tergov va sud amaliyotida hujjatlarni kriminalistik-texnik usullar bilan soxtalash keng tarqalgan muammo hisoblanadi; buning asosiy sababi hujjatlar jamiyatning barcha sohalarida muhim o‘rin tutishi va ular turli xil hamda keng tarqalgan materiallardan tayyorlanishidadir.

Kriminalistik-texnik tekshiruvlarning obyektlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- turli hujjatlardagi tekshiriladigan rekvizitlar – matn, imzo, pul-to‘lov hujjatlari, qimmatbaho mol-mulklarning sotib olinishi va sotilishiga oid hujjatlar, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, ma’lumotnomalar va hokazolar;
- pul operatsiyalarini aks ettiruvchi hujjatlar – chek daftarlar, kirim-chiqim orderlari, kassa daftarlar, to‘lov hujjatlari, turli kvitansiyalar va depozit kartochkalari;
- moddiy qiymatlarning harakatiga oid hujjatlar, masalan yuk hujjatlari va boshqa kirim-chiqim xarakteridagi yozuvlar;
- shaxsni tasdiqlovchi va mehnat faoliyatiga oid hujjatlar – pasport, shaxsiy guvohnoma, ruxsatnoma, harbiy bilet, kasaba uyushmasi bileti, haydovchilik guvohnomasi, diplom va boshqa tegishli hujjatlar;
- mehnat faoliyatiga doir hujjatlar: mehnat daftarchalari, ish faoliyati haqida ma’lumotnomalar, kasallik varaqalari, qabul qilish va ishdan bo‘shatish buyruqlari, shartnomalar, taklifnomalar, shaxsiy varaqalar, kasallik tarixi va boshqa hujjatlar.

Hujjatlardan tashqari tekshiruv obyektlariga yozuv vositalari va materiallari ham kiradi: hujjat rekvizitlarini bajarishda ishlatiladigan turli bo‘yoq moddalar, qog‘oz turlari, yozuv uchun mo‘ljallangan asboblar, yelim hamda yozuvni ajratish yoki nusxalashda qo‘llaniladigan boshqa moddalar.

Hujjatlarni texnik usullar yordamida tekshirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Hujjat qanday uslubda tayyorlanganini aniqlash.
2. Hujjat mazmunidagi o‘zgarishlar usulini aniqlash.
3. Ko‘zga ko‘rinadigan va oddiy nazar bilan sezilmaydigan yozuvlarni aniqlash.
4. Asl hujjatlarning dastlabki ko‘rinishini tiklash.
5. Hujjatlar tayyorlashda qo‘llangan uskunalar, vositalar, asboblar va materiallarni aniqlash.
6. Hujjatlarning qalbakilashtirilishidan himoya choralarini ishlab chiqish.

Hujjat materiallarini oshirish jarayonida yechilishi kerak bo‘lgan vazifalar esa, ularning tarkibi, turi, markasi, ishlab chiqarilgan zavodi, aniq hajmi hamda guruhga mansubligini aniqlashga qaratilgan.

Hujjatlarni qalbakilashtirishning ikki asosiy shakli mavjud:

1. Soxtalashtirish – bu holatda hujjatning tashqi ko‘rinishi to‘g‘ri bo‘lishiga qaramay, undagi ma’lumotlar to‘liq yoki qisman noto‘g‘ri bo‘ladi (masalan, moddiy mablag‘larni sarflash haqidagi hujjatda soxta ma’lumot kiritish).

2. O‘zgartirish kiritish – hujjatdagi dastlabki ma’lumotlar noqonuniy tarzda o‘zgartiriladi, masalan, qo‘shimchalar qo‘shish, ma’lumotlarni o‘chirish yoki buzish.

Soxta hujjat usullari: boshqalarning mulkini turli usullar bilan talon-toroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘pincha soxta hujjatlar orqali amalga oshiriladi. Tashqi jihatdan to‘g‘ri va qonuniy rasmiylashtirilgandek ko‘ringan hujjatlardagi ma’lumotlar aslida haqiqatga mos kelmaydi; jinoyatchilar o‘z maqsadlariga xizmat qiluvchi soxta hujjatlarni rasmiy blankalar asosida tayyorlaydilar. Bunday hujjatlarni haqiqiydek ko‘rsatish maqsadida ular odatda imzo va muhrlar bilan tasdiqlanib, qonuniy ko‘rinish beriladi.

Bunday jinoyatlarni tergov qilishda, hujjatning soxta yoki haqiqiy ekanligini aniqlash uchun shubha tug‘dirayotgan hujjatdagi ma’lumotlarni tekshirish zarur: u boshqa nusxalardagi ma’lumotlar bilan mos keladimi, keyingi operatsiyalarni aks ettiruvchi hujjatlar bilan uyg‘unlashadimi – shu asosda xulosa chiqariladi. Ba’zan esa, moddiy javobgarlik yoki shaxslarning javobini ko‘rsatadigan yozuvlarni sinchkovlik bilan ko‘rib chiqish orqali ham bunday ma’lumotni aniqlash mumkin bo‘ladi.

Sud-texnika ekspertizasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– hujjat matnida dastlabki yozuvni o‘zgartirishni aniqlash – o‘chirilgan joylar, qo‘shimcha yozuvlar, chizilgan belgilar va yuvish holatlarini aniqlash;

– hujjatga bosilgan muhr va shtamp izlarini tekshirish;

– matnning mashinada yozilgan nusxalarini aniqlash, shu jumladan boshqa qog‘ozga ko‘chirilgan yoki kompyuter va ko‘paytiruvchi qurilmalarda tayyorlangan nusxalarni o‘rganish;

– hujjatning davlat belgilarini va tipografik blankalarni aniqlash;

– maxsus himoya vositalari bilan ta’minlangan hujjatlarni qalbakilashtirilishidan himoya qilish va ularni tekshirish;

– qayta joylashtirilgan yoki montaj qilingan fotosuratlarni aniqlash;

– obyektlarning ayrim elementlarini tiklash (yo‘qolgan yoki shikastlangan qismlarni qayta ko‘rsatish);

– imzolar texnik yo‘l bilan soxtalashtirilganligini aniqlash;

– kuygan hujjatlarning matnini tiklash va qayta tiklash usullarini qo‘llash.

– ustiga bosib yozilgan qismi bo‘yicha rangsiz chiziqlar yordamida matn mazmunini aniqlash;

– ustidan chizilgan, o‘chirilgan, qisman chaplashtirilgan yoki moddalar bilan qoplanilgan yozuvlarni tiklash;

– rangi o‘chib ketgan yozuvlarni qayta tiklash;

– kesib o‘tgan chiziqlar bo‘yicha yozuv ketma-ketligini aniqlash;

– yozuv materiallari, yopishtiruvchi vositalar va qog‘ozni aniqlash.

Hujjatlarga moddiy o‘zgartirishlar kiritilgan yoki qalbakilashtirilgan holatlarni aniqlashda quyidagi belgilarga e’tibor qaratish zarur.

1. Hujjat matnidagi ayrim yozuvlarni harflar, raqamlar yoki imzolarni o‘chirish va ularning o‘rniga boshqalarini kiritish holatlari mavjud.

O‘chirish jarayonida qog‘ozning ustki silliq qatlami zararlanadi. Qog‘oz tolalarining buzilishi va rangining biroz o‘zgarishi kuzatiladi, shuningdek o‘chirilgan yozuvlarning ayrim chiziqlari va bo‘yoq qoldiqlari qolib ketadi. Agar matn maxsus blankada yozilgan bo‘lsa, qo‘shimcha tarzda qog‘oz yuzasidagi kashta va tipografik chiziqlar ham zarar ko‘radi. Yozuvni yo‘qotish uchun o'tkir asbob yordamida qog‘ozning ustki qatlami kesilib, qirqib o‘chiriladi. Bunday vaziyatlarda

qog‘oz orqasidan yorug‘lik tushirib qaralganda, o‘chirilgan yozuvning avvalgi botiq izlari asosida matn mazmuni tiklanishi mumkin.

O‘chirilgan yozuvlar o‘rniga yangi, ko‘pincha jinoyat maqsadida kerakli matn, harf yoki raqamlar yozilganda, qog‘ozning ustki qatlami zarar ko‘rishi sababli, yozuv vositasi qalam, pasta yoki siyohning zarralari yoyilib, qog‘ozning ichki qatlamiga singib ketadi. Shuningdek, birlamchi yozuv bo‘yoqlari bilan keyingi yozuvdagi bo‘yoq ranglari o‘rtasida sezilarli farq paydo bo‘lishi mumkin. Hujjat matniga qo‘shimcha yozuvlar, raqamlar yoki boshqa o‘zgartirishlar kiritilishi ham uchraydi. Ushbu qalbakilashtirish turida, hujjatning avvalgi matniga qo‘shimcha yozuvlar qo‘shilar ekan, raqam belgilarining ayrim qismlari ko‘paytirish yoki kamaytirish maqsadida o‘zgartiriladi.

Qo‘shimcha kiritilgan yozuvlar birlamchi matnning umumiy buzilish darajasi, joylashuvi va boshqa xususiyatlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Xat belgilaridan tashqari, yozuv vositasi hisoblangan bo‘yoq tarkibida ham (oddiy ko‘z bilan sezilmaydigan darajada rang farqi bo‘ladi) o‘zgarishlar kuzatiladi. Muhrlash vositasida qo‘shimcha so‘zlar, raqamlar yoki boshqa yozuvlar kiritilganda ham yuqorida ta’riflangan belgilar namoyon bo‘ladi. Yozuv mashinasida yozilgan matnlarga qo‘shimcha yozuvlar qo‘shilganda harflarning joylashuvi, chiziqlar oralig‘i (intervali), tipografik bo‘yoq tarkibidagi farqlar va muhrlash vositasidagi boshqa xos belgilar aniqlanadi.

2. Hujjatdagi yozuvlarni rangsizlantirish va yuvish holatlari ham mavjud.

Hujjatning ayrim qismlaridagi yozuvlar yoki butun matn turli kimyoviy moddalar yordamida rangsizlantiriladi va o‘rniga kerakli yozuvlar kiritiladi. Reaktiv moddalar ta’siri ostida qog‘ozning tuzilishi biroz o‘zgaradi, uning to‘lalari uzilib ketishi mumkin. Rangsizlangan yoki yo‘qotilgan yozuv o‘rniga yangi matn yozishda foydalanilgan qalam, pasta yoki siyohning bo‘yoqlari yoyilib, qog‘ozning ichki qatlamiga singadi. Ultrabinafsha nurlarda hujjatni ko‘zdan kechirish orqali undagi o‘zgarishlar, oldingi yozuvdan qolgan bo‘yoq izlari va kimyoviy

moddaning ta’sir qilgan joylarini aniqlash mumkin. Shuningdek, matnni moddiy suv bilan yuvib, rangsizlantirish holatlari ham uchrab turadi. Bu holatda esa, qog‘ozga singib qolgan avvalgi yozuv izlarini turli nurlar yordamida ko‘paytirib, suratga olish orqali tiklash amalga oshiriladi.

3. Hujjatlardagi fotosuratlar va markalarni almashtirish holatlari mavjud bo‘lib, buning o‘rniga asl fotosurat yoki markaning o‘rniga boshqa nusxalari yopishtiriladi.

Shaxsiy hujjatlarda fotosuratlar odatda pastki o‘ng yoki chap burchak qismida joylashgan bo‘ladi. Shu tarzda yopishtirilgan markaning ustidan ham shtamp yoki imzoning bir qismi o‘tishi mumkin. Agar fotosurat yoki marka ko‘chirilib, uning o‘rniga boshqasi yopishtirilsa, muhr yoki shtampning qismi noto‘g‘ri joylashib, chizilish yoki boshqa muhr bilan tasdiqlanishi kuzatiladi.

Natijada, hujjatning umumiy tuzilishi, doira shaklidagi yozuvlar va ularning xususiy belgilari o‘zgargan bo‘ladi. Fotosurat va markalarning orqa tomonlarini ko‘zdan kechirish va oshirish orqali yelimning turli qatlamlari va ularning ketma-ketligi aniqlanishi mumkin.

4. Imzolarni texnik yo‘l bilan qalbakilashtirish. Soxta hujjatlarga asl hujjatdagi imzoni nusxa ko‘chiruvchi qog‘oz orqali yoki hujjatni yoritish orqali soyasini tushirib, so‘ng ustidan yozuv vositasi bilan yozish orqali o‘tkaziladi. Bunday hollarda qalbakilashtirilgan imzodagi harakatlar biroz sekinlashgan, chiziqlar qalinlashgan va tekisligi buzilgan bo‘ladi. Hujjatni turli burchaklardan va nurlarda ko‘zdan kechirganda soxta imzodagi chiziqlarda ruchka yoki qalam harakatini to‘xtatish belgilari hamda nusxa ko‘chiruvchi qog‘oz bo‘yoq zarralarini aniqlash mumkin.

5. Muhr va shtamp aksini qalbakilashtirish. Soxta muhr va shtamplar ko‘pincha qo‘l bilan tayyorlanadi yoki ularning aksi qo‘l yozuvi bilan chiziladi.

Bunday yasama muhrlarning shakli – doira, to‘rtburchak yoki uchburchak bo‘lishi mumkin, biroq o‘lchamlari va proporsiyalari asliga mos kelmasligi kuzatiladi. Harflarning shakli, buzilishi, o‘lchami va bir-biriga nisbatan joylashuvi kabi xususiyatlar o‘ziga xos nuqsonlar hosil

qiladi. Masalan, sirkul bilan qoldirilgan teshik yoki qalam/ruchka bilan chizilganda harakatning bir-ikki nuqtasida to‘xtash belgilari seziladi. Ba’zan haqiqiy muhrning aksini biroz namlab, soxta hujjatga bosib tushirish usullari ham qo‘llanadi; bunda muhrdagi bo‘yoq yoki mastika chiziqlari yoyilib, rangi zaiflashadi, yozuvlar va markaziy rasm belgilari noaniq chiqadi. Muhr va shtamp akslarini soxtalashtirishda turli texnikalar birgalikda qo‘llanishi ham uchraydi. Soxta muhr-shtampni tekshirayotganda uning qaysi tashkilot, vazirlik yoki korxonaga tegishli ekanligini aniqlash, asl namuna bilan solishtirish va uning umumiy buzilishi hamda harflarning joylashuvi standartiga mosligini sinchkovlik bilan baholash zarur.

6. Bo’sh blankalarni soxtalashtirish. Ushbu usul ko‘pincha shaxsiy hujjatlarni – masalan, oliy yoki o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi diplomlar, avtomobil pasportlari va haydovchilik guvohnomalari – tayyorlashda hamda pul va boshqa qimmatli qog‘ozlarni (obligatsiyalar, lotereya kuponlari, cheklar, veksellar va boshq.) soxtalashtirishda qo‘llaniladi. Jinoyatchilar blankalarni ishlab chiqarishda rassomchilik va poligrafiya ko‘nikmalaridan foydalanish bilan birga turli ishlab chiqarish uskuna va texnik jihozlardan ham foydalanadilar. Soxta blankalardagi tipografik yozuvlar umumiy standartlardan, bo‘yoq tarkibi va rangidan hamda harflarning tuzilishidan farq qiladi. Shuningdek, blankani yasashda ishlatilgan materiallar, bo‘yoqlar va yelimlar tarkibi ham asl nusxalarning guruhiga mansubligidan farqlanadi.

Soxta pul va qimmatli qog‘ozlarni tayyorlash jarayonida quyidagi xususiyatlar paydo bo‘ladi: maxsus himoya vositalarini ta’minlovchi qog‘ozning ichki va yuzaki qatlamlarida mikroskopik kashta yoki matnning yo‘qligi; qog‘oz tarkibida ishlatilgan kimyoviy vositalarning boshqa turga mansub bo‘lishi va shunga o‘xshash belgilar.

Jinoyatchilar ko‘pincha bir nechta hujjat qismlarini montaj qilish usulidan va zamonaviy texnik vositalardan foydalanib soxtalashtirishadi.

Yuqoridagi alomatlarni aniqlash va kuzatish uchun kriminalistik texnika tomonidan ishlab chiqilgan usullar va metodlarni o‘zlashtirish hamda zamonaviy texnik jihozlardan foydalanish zarur.

Qalbakilashtirilgan hujjatlarni kriminalistika texnikaviy usulda oshirish

Hujjatlarni texnik usullar bilan tekshirish ko‘plab optik asbob-uskunalar – oddiy lupalar, mikroskoplar, maxsus moslamalar va turli yorug‘lik manbalaridan foydalanishni talab qiladi. Fotosuratlarni ekspertiza qilishda yorug‘likni turlicha qo‘llash (to‘g‘ri yoritish, qiya yoritish, orqadan yoritish) bilan birga maxsus tekshiruv usullari ham ishlatiladi: namlik bilan nusxa ko‘chirish, diffuziya nusxa ko‘chirish, ko‘zga ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan ultrabinafshanurlar ostida luminessensiya hosil qilish, infraqizil yoritish, ultrabinafsha va infraqizilnurlarda spektroskopik nusxa olish, xromatografiya va boshqa tegishli usullar.

Yozuvlari o‘chirilgan yoki zararlangan hujjatlarni yorug‘lik manbai tomoniga to‘g‘ri qo‘yib tekshirganda, yorug‘likning qog‘oz qatlamidan o‘tib ketish darajasi turlicha bo‘ladi. Shunday vaziyatlarda soxta pul va boshqa qimmatbaho qog‘ozlarni o‘tuvchan nurlar ostida ko‘zdan kechirish orqali ularning ichki qatlamlari aniqroq namoyon bo‘ladi. Ushbu holatni mustahkamlash uchun o‘tuvchan yorug‘likda fotosuratga olish ishlatiladi. Yozuvlari o‘chirilgan, rangsizlantirilgan yoki qisman kuyib yo‘qolgan hujjatlarning matnini tiklashda yorug‘likni obyektda to‘g‘ri, odatda perpendikulyar yo‘nalishda berish talab etiladi. Hujjatdagi ranglarni ajratib ko‘rsatish va ularning farqlarini belgilash maqsadida svetofiltrlar yoki ranglarni ajratuvchi maxsus filtrlar qo‘llaniladi.

Spektrning infraqizil qismi orqali lyuminessensiya usulida o‘tkaziladigan tekshiruv qalbakilashtirilgan hujjatlarda sodir etilgan turli o‘zgarishlarni aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ba’zi yozuvlarni tiklash jarayonida oddiy yorug‘lik nurlari yetarli samara bermaydi. Infraqizil nurlar ta’sirida obyektdan o‘ziga xos tarzda qaytuvchi nur chiqadi, bu jarayon lyuminessensiya deb ataladi. Hujjatda bir vaqtning

o‘zida yozilgan matnlar hamda keyinchalik kiritilgan qo‘shimchalar infraqizilnurlar ta’sirida turlicha yorug‘lik spektrini hosil qilib, oddiy ko‘zga ko‘rinmaydigan mayda zarrachalarni aniqlash imkonini beradi. Namli nusxa olish usuli esa ruchka pastasi bilan yozilgan yozuvlardagi o‘zgarishlarni aniqlashda, shuningdek bo‘yoq tarkibi va rangini tekshirishda qo‘llaniladi. Bu usulda fotoqog‘ozning emulsiya (jelatin) qatlami namlanib, yozuvlar unga ko‘chiriladi.

Qalbakilashtirilgan hujjatlarni aniqlashda absorbsi va lyuminessent usullar ham keng foydalaniladi.

Ushbu usullar yordamida yozuvlarning kesishgan joylari – masalan, imzo va boshqa yozuvning ustma-ust kelgan joylari – qaysi biri birinchi yozilgani aniqlandi. Ultrabinafsha nurlar ostida ko‘riladigan spektrosnusxa usuli yozuv vositalarining turini, rangsiz moddalarning sifatini, yopishtiruvchi moddalar xususiyatlarini aniqlashda qo‘llaniladi. Tekshirilayotgan moddaning asosiy o‘ziga xosligi spektral tahlil natijasida olinadigan chizmalar bo‘lib, har bir moddaning nurni o‘ziga singdirish xususiyati farq qilgani sababli, spektr grafigi ham har xil bo‘ladi. Infraqizil spektrosnusxa usuli yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni bajarish va taqqoslashda qo‘llanadi. Yozuv vositalari, qog‘oz, yelim va boshqa moddalarning xususiyatlarini aniqlash uchun esa kimyoviy tomchilar reaksiyasidan foydalaniladi.

Turli modda va hujjat materiallarini aniqlashda yupqa qatlamli xromatografiya usuli keng qo‘llaniladi. Ta’kidlash lozimki, mustaqillik yillarida Adliya vazirligi huzuridagi Kriminalistik tadqiqotlar markazining hujjatlarni oshirish bo‘limi xodimlari ilmiy izlanishlarda yangi texnika va tekshiruv usullarini joriy etish hamda takomillashtirishga muhim hissa qo‘shdilar. So‘nggi yillarda mazkur bo‘lim jihozlari yangilanib, hozirgi paytda tekshiruvlar aynan ushbu ilg‘or texnologiyalar asosida amalga oshirilmoqda.

Kriminalistik texnika tekshiruvida qo‘llanadigan zamonaviy asboblar

Qalbakilashtirilgan hujjatlardagi asl yozuvlarni turli yo‘llar bilan o‘chirish, o‘zgartirish yoki rangsizlantirish holatlarini, shuningdek spektrning bir xil zonasiga mansub nurlarning rang farqlarini aniqlash va vizual ravishda ko‘rsatish uchun video kamera qurilmasidan foydalaniladi. Ushbu qurilma hujjatlarni ultrabinafsha nurlarining keng yorug‘lik diapazonida hamda infraqizilnurlar to‘lqinlarining yaqin va ko‘rinadigan qismlarida tekshirish imkonini beradi.

Mazkur asbob ixcham bo‘lib, oq-qora monoxrom tasvir beruvchi tizim bilan jihozlangan, uni turli shart-sharoitlarda ishlatish mumkin. Qurilma tashqi kuchlanishlar ta’sirida barqaror ishlashni ta’minlaydigan monitor va generator bilan ta’minlangan. Shunga qaramasdan, bu qurilmaning ba’zi imkoniyatlari cheklangan: masalan, u tekshiruvdagi obyektning o‘lchamini o‘zgartirib, tasvirni monitor ekraniga uzata olmaydi, aniqlangan natijalarni ko‘rgazmali tarzda hujjatlashtirish yoki o‘tuvchan nurlarda chuqur tahlil qilish imkoniyati cheklangan.

Asbob hujjatlarni – ashyoviy dalil sifatida – zarar yetkazmasdan tekshiradi. Bu esa hujjatdagi butun yoki qisman o‘zgarishlarni, ya’ni yozuv qo‘shish, yuvish, rangsizlantirish kabi harakatlarni aniqlash imkonini beradi. Yozuv materiallarini aniqlashda fotometrik va optik metodlar bilan bir qatorda obyektni kattalashtirib ko‘rish imkoniyati mavjud. Tahlillar infraqizilnurlar to‘lqinlarining turli uzunliklarida olib borilishi mumkin. Shuningdek, ultrabinafsha nurlar yordamida lyuminessensiya belgilarini aniqlash, ya’ni tekshiruv obyektining bu nurlarni qanday yutishi yoki aks ettirishi holatlari ham o‘rganiladi.

Kriminalistik ekspertizaning ushbu yo‘nalishi keng qamrovli masalalarni o‘z ichiga oladi, ularning orasida eng tez-tez duch kelinadiganlari quyidagilardir:

– tekshirilayotgan hujjat qaysi usul yordamida yaratilgani;

– mazkur hujjat matniga keyinchalik o‘zgartirishlar kiritilgan-kiritilmaganligi;

– hujjatning dastlabki asl matni qanday bo‘lganligi;

– undagi muhr yoki shtamp izi haqiqiymi yoki sun’iy yo‘l bilan tayyorlanganmi;

– hujjat yozilgan va rasmiylashtirilgan vaqt;

– turli yozuv qismlarining (asosiy matn, rezolyutsiya, tasdiqlovchi imzo va boshq.) ketma-ketligi, ya’ni qaysi biri avval, qaysinisi keyin yozilgani;

– tashqi omillar ta’sirida yozuvlar rangining o‘chib yoki oqib ketishi natijasida o‘qilmay qolgan matnlarni tiklash;

– hujjat matni taqdim etilgan yozuv mashinkasi namunalarida yozilgan-yozilmaganini aniqlash;

– hujjat materiali sifati va u tegishli bo‘lgan guruhni aniqlash, shuningdek shu kabi boshqa masalalarni o‘rganish.

Ekspert materiallarini tayyorlash va ekspertizadan to‘g‘ri foydalanishni ta’minlash maqsadida tergovchi kerakli mutaxassisni chaqirib, uning maslahatiga tayangan holda ekspert tekshiruviga qo‘yiladigan savollarni shakllantirishi va solishtirish uchun zarur namunalarni tayyorlashda yordam olishi mumkin. Ashyoviy dalil sifatidagi hujjatlarni ekspertizaga yuborishdan avval ulardan namunalarni olish, joylashtirish va rasmiylashtirish kriminalistik texnikaning taktika va uslubiyatlariga muvofiq bajarilishi lozim. Xususan, hujjatga qo‘shimcha yozuvlar kiritish, uni buklash yoki boshqa qog‘ozga yopishtirish taqiqlanadi. Ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror (yoki ajrim)da har bir ashyoviy dalil sifatidagi hujjatning o‘ziga xos xususiyatlari alohida qayd etilishi shart. Agar hujjatda qo‘shimcha yozuvlar bor, avvalgi matnlar o‘zgartirilgan yoki o‘chirib tashlangan bo‘lsa, ularni kriminalistik ekspertizaga yuborishda xatshunoslik ekspertizasini ham bir vaqtda belgilab, hujjatdagi yozuvlarni soxtalashda gumon qilingan shaxslarning xat namunalarini taqdim etish maqsadga muvofidir.

Hujjat materialini tekshirish va uning alohida bo‘laklari bir hujjatni tashkil etishini aniqlash maqsadida yuborilayotgan har bir bo‘lakning o‘ziga xos xususiyatlari alohida ko‘rsatilgan holda taqdim etilishi zarur.

Texnik usul bilan qalbakilashtirilgan imzoni aniqlashda haqiqiy imzo namunalarini ham birga yuborish ekspertiza ishini sezilarli darajada yengillashtiradi va xulosaning ishonchliligini oshiradi. Ekspertizaga topshiriladigan namunalar shubha tug‘dirmaydigan, tergovchi tomonidan sinchkovlik bilan tekshirilib va tasdiqlangan bo‘lishi shart.

KAZUS: «Yashirilgan imzo va o‘zgartirilgan matnni aniqlash»

Vaziyat

Farg‘ona shahrida joylashgan «Xizmat Servis» MChJda moliyaviy hujjatlar tekshiruvi paytida **shubhali to‘lov dalolatnomasi** aniqlanadi. Hujjatda korxona buxgalteri Go‘zal ismli xodim tomonidan 30 million so‘mlik to‘lov amalga oshirilgani ko‘rsatilgan, ammo Go‘zal bu hujjatdagi imzo unga tegishli emasligini bildiradi.

Tergovchi ushbu holatni aniqlash uchun hujjatni **kriminalistik-texnik ekspertiza**ga yuboradi. Ekspertlar hujjatni o‘rganishda quyidagi usullardan foydalanadilar:

- **ultrabinafsha nurlanish (UV-lampa)** yordamida qog‘oz yuzasida o‘chirilgan yozuv izlari va boshqa siyoh turlari aniqlanadi;
- **infraqizil nurlanish (IR-lampa)** orqali avval yozilgan, keyinchalik o‘chirilib ustidan boshqa matn yozilgan joylar ko‘rinadi;
- **mikroskopik tahlil** yordamida imzoning chiziqlari, bosim kuchi va siyohning tarkibi tekshiriladi;
- qo‘shimcha ravishda **elektron skanerli oshirish** (raqamli tasvirni kuchaytirish) usuli bilan matnning yashirin fragmentlari tiklanadi.

Natijada aniqlanishicha, hujjatning pastki qismidagi asl imzo o‘chirilib, uning ustidan boshqa shaxs tomonidan Go‘zalning nomidan soxta imzo qo‘yilgan. Infraqizil tahlil jarayonida asl imzoning qoldiqlari aniq ko‘rinib, u Go‘zalning oldingi ish hujjatlaridagi imzo namunalariga **to‘liq mos** chiqadi.

Shuningdek, matnning bir qismi – «30 million so‘m» degan ibora ham aslida «10 million so‘m» bo‘lgani, raqam ustidan qora siyoh bilan yozilganligi aniqlanadi.

Ekspert xulosasiga ko‘ra, hujjat **soxtalashtirilgan**, va bu orqali boshqa xodim korxona mablag‘ini o‘zlashtirishga uringan.

Tahlil uchun savollar

1. Ushbu holatda hujjatning qo‘lyozma matni **qanday kriminalistik usullar yordamida oshirilgan**?
2. Ekspertiza jarayonida **qaysi texnik vositalar** ishlatilgan?
3. Qo‘lyozma va imzo tahlilida **individual belgilar** nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. Hujjatni soxtalashtirishni aniqlashda **ultrabinafsha va infraqizil tahlil**ning afzalligi nimada?
5. Ekspert xulosasi sudda **dalil sifatida** qanday huquqiy ahamiyat kasb etadi?

Nazorat savollari

1. Ashyoviy dalil sifatida hujjatlarni kriminalistik jihatdan tekshirishning ahamiyati nimalarda namoyon bo‘ladi? Ushbu protsessual tadbir asosan qaysi turdagi jinoyatlar doirasida qo‘llaniladi?
2. Kriminalistik xatshunoslik deganda nima tushuniladi va dastxatning identifikatsion belgilarini aniqlash qanday usullar orqali amalga oshiriladi?
3. Kriminalistik texnik tekshiruvning mazmuni, uning asosiy ahamiyati, bajariladigan vazifalari hamda turlari nimalardan iborat?
4. Hujjatlarni soxtalashtirish qanday usullar yordamida amalga oshiriladi va bunday qalbakilashtirilgan hujjatlarni kriminalistik-texnik usulda aniqlash jarayoni qanday tartibda olib boriladi?

XV BOB. KRIMINALISTIK TAKTIKANING UMUMIY QOIDALARI. KRIMINALISTIK TAKTIKA TUSHUNCHASI VA VAZIFASI

15.1. Kriminalistik taktikaning umumiy qoidalari, tushunchasi va uning vazifasi.

15.2. Kriminalistik taktika tizimi.

15.3. Kriminalistik taktikaning umumiy tamoyillari.

15.1. Kriminalistik taktikaning umumiy qoidalari, tushunchasi va uning vazifasi

Kriminalistik taktika tushunchasi va uning vazifalari. Kriminalistik taktika – jinoyatlarni aniqlash, tergov va surishtiruv ishlarini olib borish jarayonida qo‘llaniladigan amaliy usullar va prinsiplar majmuasidir. Uning asosiy maqsadi tergov jarayonini samarali tashkil etish, dalillarni tez va to‘g‘ri aniqlash hamda gumondorlarni qidirish va ushlash ishlarini maqsadli yo‘lga qo‘yishdir.

Kriminalistik taktika tizimi. Bu – taktikaning nazariy va amaliy elementlari (qoidalar, usullar, uslubiyatlar va tajriba yo‘riqnomalari) birlashgan tizimi bo‘lib, tergov yoki surishtiruv jarayonida qanday chora-tadbirlar qo‘llanishi tartibini belgilaydi.

Taktik usullar va taktik qarorlar. Taktik usullar – tergov jarayonida amalda qo‘llaniladigan aniq texnik va metodologik yondashuvlardir; masalan, operativ tadbirlar, guvohlarni so‘roq qilish strategiyalari hamda dalillarni to‘plash va tekshirish usullari. Taktik qarorlar esa mavjud vaziyatga mos keluvchi eng maqbul harakat rejasini tanlashni anglatadi – ya’ni qanday usulni qachon va kimlar bilan qo‘llashni belgilovchi qarorlar.

Tergov vaziyatlari. Tergov vaziyati – bu jinoyatni aniqlash yoki tergov olib borish jarayonida yuzaga keladigan maxsus holatlar majmuasi (masalan, ma’lumot yetishmasligi, dalillar buzilgan yoki yashirilgan

bo‘lishi, gumondorlarning joylashuvi va boshq.). Har bir vaziyat taktik yondashuvni va qarorlarni aniqlashni talab qiladi.

Kriminalistik taktikaning boshqa qoidalari. Bu qoidalar – tergov va surishtiruvda amal qilinadigan eng yaxshi amaliyotlar, etik va huquqiy talablarga rioya etish, dalillarni to‘g‘ri saqlash va himoya qilish, shuningdek ishtirokchilarning huquqlarini buzmasdan tadbirlar tashkil etish kabi qoidalardir.

«**Taktika**» atamasi (yunoncha «*taktika*» – bu «qo‘shinlarni safga to‘g‘ri joylashtirish san’ati» degan ma’noni anglatadi) jinoyatlar bo‘yicha tergov olib borayotgan shaxslarning amaliy faoliyatiga birinchi marta **XIX asr oxirida** nemis olimi **A. Veyngardt** tomonidan qo‘llanilgan.

Kriminalistik taktika – bu tergovni rejalashtirish va tashkil etish, shuningdek uni amalga oshirayotgan shaxslarning xatti-harakatlarini optimallashtirishga qaratilgan nazariy qoidalar hamda amaliy tavsiyalar majmuasidir. U jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini JPK talablari asosida belgilab, samarali bajarilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Kriminalistik taktikaning asosiy maqsadi – tergov va tashkiliy tadbirlarni o‘tkazishda jinoyat ishini yuritishdagi barcha ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlarni oqilona tashkil etish orqali kriminalistik faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Boshlanishida kriminalistik taktika jinoyatlarni fosh etish va tergov bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun ularning ishlarini rejalashtirishga oid nazariy asoslangan tavsiyalar to‘plami sifatida shakllangan. Keyinchalik esa, alohida jinoyat turlarini tergov qilishda o‘ziga xos tashkilotchi jihatlar ham o‘rganila boshlandi.

Kriminalistik taktika asosiy tamoyillari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: tergov harakatlarini jinoyatlarni tergov qilish jarayonida samarali va oqilona usullarda tashkil etish; taktika doirasidagi harakatlar va operatsiyalarni boshqarish; tergovni rejalashtirish hamda tezkor-qidiruv xodimlari bilan tergovchi o‘rtasidagi yaqin hamkorlikni ta’minlash; tergov jarayonida jamoatchilik va ommaviy axborot vositalaridan maqsadli foydalanish; gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar va boshqa protsess

ishtirokchilarining shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish; maxsus bilim va metodlardan foydalanish hamda tergovchilarning jinoyatlarni oldini olishdagi faoliyati.

Kriminalistik taktikaning qoidalari, tavsiyalari va xulosalari kriminalistika fanining boshqa bo‘limlari bilan chambarchas bog‘langan. Ular taktika nazariyalari va ta’limotlariga, kriminalistikaning metodologik asoslariga, identifikatsiya va diagnostika usullariga, jinoyatlarni sodir etish usullari haqidagi bilimlarga hamda tergov jarayonida kriminalistik modellar yaratish qoidalariga tayangan holda shakllanadi.

Kriminalistik taktika bo‘yicha tavsiyalarda kriminalistik texnika alohida o‘rin egallaydi. U kechirish, tintuv, eksperiment o‘tkazish, ekspertiza tayinlash va boshqa tergov harakatlarini tashkil etish hamda bajarishda taktika qoidalari doirasida qo‘llaniladi. Kriminalistik texnika taraqqiy etgani sari uning yutuqlari sud uchun dalillarni aniqlash, oshirish va baholash imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu esa mavjud taktika usullarini, operatsiyalar va ularning kombinatsiyalarini takomillashtirishni hamda zarur hollarda butunlay yangi usullarni yaratishni talab etadi. O‘z navbatida, kriminalistik taktikaning mazmuni jinoyatlarni tergov qilish metodikasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tergovni rejalashtirish, tergovchi va tezkor xodimlarning hamkorligi hamda ayrim tergov harakatlarining taktikasiga oid nazariyalar va qoidalar xususiy uslubiyatlar asosida ishlab chiqilib, jinoyatlarni fosh etish hamda tergov jarayonini mukammallashtirishga yo‘naltiriladi.

15.2. Kriminalistik taktika tizimi

1.Kriminalistik taktikaning umumiy qismi

Umumiy qism kriminalistika fanining ushbu sohasi mohiyatini, tergov faoliyatini samarali tashkil etishga doir ilmiy bilimlar majmuasini o‘zida aks ettiradi. Kriminalistik taktikaning umumiy qoidalari ikki asosiy tarkibiy bo‘lakdan tashkil topadi:

a) **kriminalistik taktikaning shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi holatiga oid ilmiy yo‘nalish** – bu bo‘limda kriminalistik taktikaning kelib

chiqish tarixi, predmeti, tuzilmasi, vazifalari, manbalari, asosiy tamoyillari hamda fanning umumiy tizimidagi o‘rni kabi masalalar tahlil qilinadi;

b) t**ergov faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish tamoyillari** – ushbu yo‘nalish tergov ishlarini tashkil etishning kriminalistik nazariy asoslarini, jinoyatlarni tergov qilishni rejalashtirish, tergovchi bilan tezkor xodimlarning o‘zaro hamkorligi, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan foydalanish, jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi, taktik usullar, tavsiyalar, operatsiyalar, tergov vaziyatlari hamda tergovchilar faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish masalalarini qamrab oladi.

2. Kriminalistik taktikaning maxsus qismi

Kriminalistik taktikaning maxsus qismi – jinoyatlarni ochish va sud jarayonlarida sud idoralari hamda tergovchilar tomonidan amalga oshiriladigan amaliy ishlarni tizimli ravishda rejalashtirish va bajarishga qaratilgan ilmiy-ma’rifiy bilimlar to‘plamidir.

Ushbu bilimlarning mazmuniy xususiyatlari maxsus bo‘limni yana ikki mustaqil tarkibiy qismlarga ajratishni taqozo etadi. Jinoyatlarni tergov qilish jarayonida ayrim tergov harakatlarining taktikasiga quyidagilar kiradi: tergovni ko‘zdan kechirish va guvohlik olish taktikalari; so‘roq va yuzlashtirish taktikalari; tintuv o‘tkazish taktikalari; qo‘lga olish va hibsga olish taktikalari; shaxsni tanib olish uchun ko‘rsatish taktikalari; tergov eksperimentini o‘tkazish taktikalari; voqea joyida ko‘rsatmalarni aniqlash va to‘ldirish taktikalari; sud ekspertizalarini tayinlash va o‘tkazish taktikalari; shuningdek qidiruv tadbirlariga oid taktikalardir.

A) sud jarayonida qo‘llaniladigan ayrim taktikalarga quyidagilar kiradi: sud tergovi taktikalari, sud ko‘zdan kechirish taktikalari hamda voqea joyida ko‘rsatmalarni tekshirish taktikalari.

Kriminalistik taktika jinoyatlarni oldini olish, ularni fosh etish va tergov jarayonida ya’ni jinoyatchilikka qarshi kurashishda, xususan tergovchilarga huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amaliy yordam ko‘rsatishda samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Taktik usullar, taktika bo‘yicha qarorlar, tergov vaziyatlari hamda kriminalistik taktikaning boshqa qoidalari jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish jarayonida tergovchining harakatlarini oqilona tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

Taktik usul – bu tergov jarayonini olib borayotgan shaxsning harakatlari bo‘lib, jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish vazifalarini samarali bajarishga yordam beruvchi eng maqbul yondashuvdir. Taktik usulning kriminalistik faoliyat tizimidagi o‘rnini va uning vazifalarini inobatga olgan holda uni tahlil qilish mumkin. Mazmun va maqsad nuqtayi nazaridan quyidagi taktik vazifalar va ular bilan bog‘liq usullarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. **Bilishga yo‘naltirilgan taktik vazifalar va usullar** – tergov ostidagi jinoyat voqeasining haqiqiy holatini aniqlashga qaratilgan tadbirlar. Bunda ayniqsa dalil sifatida ahamiyat kasb etishi mumkin bo‘lgan kriminalistik ma’lumotlarni aniqlash va ulardan oqilona foydalanish asosiy o‘rin tutadi.

2. **Boshqaruvga yo‘naltirilgan taktik vazifalar va usullar** – ishda ishtirok etayotgan shaxslarni tergovga jalb etish, ular bilan samarali psixologik aloqa o‘rnatish hamda ularning xulq-atvorini boshqarishning eng maqbul shakllarini qo‘llashga qaratilgan choralar.

B) jinoyatlarni tergov qilish faoliyatining eng maqbul tashqi sharoitlari hamda zarur bo‘lgan tashkiliy va texnik vositalarni ta’minlashga doir tashkiliy-texnika taktik vazifalar va usullar.

3. Taktik usullar – psixologik taktika usullari – bu tergovchi tomonidan qo‘llaniladigan va umumiy hamda huquqiy psixologiya yutuqlariga asoslangan yondashuvlardir. Ularga tergovchi va so‘roq qilinuvchi o‘rtasida samarali psixologik aloqa o‘rnatish, tintuv qilinuvchining ruhiy holatini kuzatish, ushlangan shaxsga uning gumon qilinayotgan jinoyatga aloqadorligini aniqlash maqsadida psixologik ta’sir o‘tkazish kabi chora-tadbirlar kiradi.

Mantiqiy taktika usullari – bu mantiq qoidalari va sud mantiqining tamoyillariga tayangan yondashuvlardir. Ular so‘roq natijasidagi ziddiyatli

koʻrsatmalarni aniqlash va ulardan foydalanish, tergov versiyalarini ishlab chiqish hamda dalillar va tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini mantiqan izchil bogʻlash orqali tadbirlarni rejalashtirish kabi ishlarni oʻz ichiga oladi.

Tashkiliy taktika usullari – jinoyatlarni tergov qilishni rejalashtirish va tashkil etishning amaliy qoidalaridir. Bu uslublar tergov jarayonidagi harakatlarni va ishtirokchilarning vazifalarini taqsimlash, tergovchi bilan tezkor-qidiruv xodimlari hamkorligini yoʻlga qoʻyish hamda umumiy tashkiliy va texnik ta’minotni tashkil etishni oʻz ichiga oladi.

Kompleks taktika usullari – jinoyatlarni fosh etish va tergov jarayonida turli ma’nodagi tergov harakatlarini oldindan tayyorlash va ularni uygʻun holda bajarishni ta’minlovchi yondashuvlardir. Masalan, aybini inkor etayotgan ayblanuvchini soʻroq qilishda savollar tartibini belgilashda soʻroq qilinuvchining psixologik holati, mavjud dalillarning mazmuni va ahamiyati hamda himoyachi, mutaxassis, prokuror va boshqa ishtirokchilarning ishtirokini hisobga olish lozim.

Tergov qilinayotgan ishga oid isbotlovchi predmet bilan aniqlangan taktik vazifalar toʻplami, daliliy axborot manbalari bilan ishlash va protsessual qarorlar qabul qilish jarayonida tergovchining taktik faoliyatini boshqaruvchi poydevor vazifasini bajaradi. Tergovchi muayyan taktika usulini tanlash va qaror qabul qilishni tergov obyekti boʻyicha yuzaga keladigan, oʻzgaruvchan va harakatchan axborot tizimini hisobga olib amalga oshiradi.

Tergov harakatlarini olib borish taktikasiga aniqlik kiritish va tuzatish soʻroq qilish, yuzlashtirish, voqea joyida koʻrsatmalarni aniqlash kabi jarayonlarda qoʻllangan taktik usullar yordamida olingan natijalarni kutilgan natijalar bilan taqqoslash orqali amalga oshirilishi zarur.

Taktik usullarning asosida qaysi fanlardan olingan bilimlar yotishiga qarab, ular psixologik, mantiqiy, boshqaruv fanlari usullari va boshqa turlarga ajratiladi. Taktik usullarni ularning yordamida bajariladigan kriminalistik vazifalar turiga koʻra guruhlash amaliy jihatdan muhimdir.

Shunga ko‘ra, ularni tashkiliy-texnik, bilishga oid va boshqaruv taktik usullari deb tasniflash mumkin.

Tergovchining taktika va qarorlari tergov vaziyatining chuqur tahliliga, jinoyatni sodir etish usullari hamda ularning mexanizmlarini yaxshi anglashi, kriminalistika fanining ilmiy tavsiyalariga chuqur tayanganligi, shuningdek amaliy tajriba, kasbiy mahorat va ishga bo‘lgan ishonchiga asoslanadi hamda harakatlarning eng maqbul variantini tanlashga xizmat qiladi.

15.3. Kriminalistik taktikaning umumiy tamoyillari.

Tergovchi jinoyat voqeasi haqidagi holatlarni aniqlashga oid vazifalarni bajarishda ko‘pincha quyidagi taktika vazifalarini hal qiladi:

1. Tergovdagi boshqa ishtirokchilar bilan psixologik aloqani yo‘lga qo‘yish, shuningdek tergovchi va ishdagi boshqa shaxslar o‘rtasida yuzaga kelgan manfaatlar to‘qnashuvi, nizoli va muammoli holatlarni, ayniqsa dolzarb qarama-qarshiliklarni bartaraf etish;

2. Jabrlanuvchi, guvoh yoki boshqa shaxslarga ma’lumot olish vazifalarida yordam berish, masalan: tanib olish jarayonida ko‘rsatiladigan odamlar yoki buyumlar guruhini tanlashda idrokning to‘liq va tartibli bo‘lishini ta’minlash; so‘roq qilinuvchining xotirasidagi assotsiativ aloqalarni faollashtirish orqali unutib qolgan fakt va tafsilotlarni eslatish va boshqa shu kabi usullar;

3. Tergovdagi vazifalarni bajarish jarayonida samarali shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va zarur psixologik tayyorgarlikdan o‘tish muhim ahamiyatga ega. Masalan, tintuv chog‘ida shaxsning xatti-harakatlarini diqqat bilan kuzatish, ayblanuvchini o‘z ko‘rsatmalarini berishdan bosh tortishi jinoyat holatini aniqlashni murakkablashtirishi mumkinligiga ishontirish kabi usullar bunga misol bo‘la oladi.

Muayyan taktik usullarni tanlashda tergovchi inson ruhiyati va psixologik jarayonlarning tabiiy qonuniyatlarini, tergov ostidagi shaxsning, jabrlanuvchi hamda boshqa ishtirokchilarning individual

xususiyatlarini, ularning maqsad va niyatlarini, rag‘batlantiruvchi omillarini, shuningdek boshqa obyektiv va subyektiv jihatlarni – masalan, tergovga qarshilik ko‘rsatish holatlarini – e’tiborga oladi.

Tashkiliy-texnik vazifalarni bajarishda tergovchi ishni rejalashtirishda tashkiliy va texnik vositalardan, transport hamda aloqa tizimlaridan, kriminalistik texnika, hisob va ro‘yxatga olish tizimlari, bildirgich ma’lumotlari hamda zarur axborotni izlash va qayta ishlashda kompyuter texnologiyalaridan foydalanadi.

Ushbu barcha vositalar tergovchining ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Taktik usullarga qo‘yiladigan asosiy talablar esa quyidagilardan iborat: qonuniylik (ya’ni, amaldagi qonun normalariga to‘liq muvofiq bo‘lish), maqsadga yo‘naltirilganlik, xilma-xillik, xavfsizlik, samaradorlik va iqtisodiy tejamkorlik, usullarni erkin tanlash imkoniyati hamda tergov harakatlari bilan tezkor-qidiruv tadbirlarini eng maqbul tarzda uyg‘unlashtirish.

Taktik usullarning taktikasiga oid umumiy qoidalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: qonunlarga rioya qilish, axloq va odob me’yorlariga amal qilish; rahbarlikning yagona bo‘lishi; tergovchining faol va intiluvchan bo‘lishi; surishtiruv xodimlari bilan yaqin hamkorlik; vaziyatga moslashuvchanlik; ishlarni bosqichma-bosqich olib borish; oldindan rejalashtirish; izchil va ketma-ketlikda bajarish; xolislikni saqlash; ishlarni to‘liq bajarish; o‘z vaqtida amalga oshirish; kriminalistik-texnik vositalardan samarali foydalanish; mutaxassislarning yordamiga murojaat qilish.

Tergovchi jinoyat ishlarini yuritish jarayonida quyidagi turdagi faoliyatlarni amalga oshiradi:

1. Tergov harakatlari – bu jinoyatlarni tergov qilish jarayonida jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan, asosiy maqsadi jinoyat ishi bo‘yicha dalillarni to‘plash, aniqlashtirish va baholashdan iborat bo‘lgan harakatlardir. Bunday harakatlar qatoriga so‘roq o‘tkazish, yuzlashtirish, voqea joyini ko‘zdan kechirish, guvohlantirish, tintuv, ushlab turish, tanib olish uchun ko‘rsatish, tergov eksperimenti, voqea joyida ko‘rsatmalarni

tekshirish va aniqlashtirish hamda sud ekspertizalarini tayinlash va o‘tkazish kiradi.

2. Qidiruv tadbirlari – bu tergovchi va surishtiruv organlari xodimlarining jinoyat ishiga taalluqli bo‘lgan ayblanuvchilar, gumon qilinuvchilar, jabrlanuvchilar, guvohlar, murdalar, hayvonlar, qimmatbaho narsalar, hujjatlar va boshqa obyektlarning joyini aniqlashga qaratilgan, jinoyat-protsessual qonun doirasida ruxsat etilgan harakatlardir.

Kriminalistik taktik usullar turli sharoitlarga mos ravishda ishlab chiqiladi va quyidagi vaziyatlarda qo‘llaniladi: odatiy tergov holatlari; nizoli tergov vaziyatlari; ekstremal sharoitdagi tergovlar; tergov va surishtiruvga qarshi uyushgan faoliyatlar; ilgari ochilmagan, «eski» jinoyat ishlari bilan shug‘ullanish va boshqa holatlar.

Tergov vaziyatlari jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida ishni olib borishning har bir bosqichidagi holatlarni ifodalaydi. Shu sababli, tergov vaziyatlarini to‘g‘ri tahlil qilish tergov faoliyatini tashkil etishda eng muhim jihatlardan biridir.

Jinoyat ishlari bo‘yicha tergov vaziyatlari – bu ma’lum bir jinoyatni ayni paytda tergov qilishning o‘ziga xos xususiyatlari majmuasi bo‘lib, ularni tergov vaziyatlarining elementlari deb ham atash mumkin. Ushbu elementlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Tergov vaziyatining jinoyat xususiyatlari va unga oid axborot bilan bog‘liq elementlari – jinoyatning tarkibi (vaqti, joyi, usuli va boshqa tafsilotlar); jinoyat oqibatlari; jinoyatga aloqador shaxslar soni va ular haqidagi ma’lumotlar; gumon qilingan shaxslar ushlangan yoki ushlanmaganligi; o‘g‘irlangan narsalar topilgan yoki topilmaganligi va shu kabi holatlar; jinoyat sodir bo‘lgan paytdan to jinoyat to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushguncha o‘tgan vaqt; dastlabki axborotning mazmuni va manbai; dastlabki ma’lumotlarning to‘liqligi, ishonchliligi va o‘zgaruvchanligi.

2. Tergov vaziyatining tergov natijalari bilan bog‘liq elementlari – tergovning boshlang‘ich bosqichida amalga oshirilgan ishlar va ularning

natijalari; keyingi tergov bosqichlaridagi faoliyat va natijalar; tergovning yakuniy bosqichidagi holatlar.

3. Tergov vaziyati davomida tergovchining shaxsiyati va ish sharoitlariga oid elementlar – tergovchining malaka va ixtisosligi; tergov sohasidagi tajribasi; shaxsiy tayyorgarligi (jismoniy va ruhiy holati); kasbiy bilimlari, ko‘nikma va mahorat darajasi; tergov bo‘linmasida boshqaruv va ishlarni ilmiy asosda tashkil etish darajasi; kriminalistik va maxsus texnika vositalari, transport, devonxona hamda boshqa zarur materiallar mavjudligi; tergovchining boshqa jinoyat ishlari bilan shug‘ullanish darajasi; turli xizmat vazifalari (navbatchilik, maxsus topshiriqlar va boshqalar) bilan bandligi.

Tergov vaziyatlari quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) takrorlanish darajasiga qarab, tipik va maxsus tergov vaziyatlari;

2) tergov vazifalarini bajarish imkoniyatiga ko‘ra – qulay va murakkab (noqulay) tergov vaziyatlari;

3) jinoyat ishlarini tergov qilish bosqichlariga muvofiq – boshlang‘ich, o‘rta va yakunlovchi tergov vaziyatlari;

4) jinoyat protsessidagi ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanib – nizoli va nizosiz tergov vaziyatlari;

5) tergov sharoitlariga qarab – shoshilinch (kechiktirib bo‘lmaydigan) va oddiy tergov vaziyatlari.

Bu elementlarning o‘ziga xosliklari va o‘zaro uyg‘unligi natijasida tergov vaziyatlarining turli shakllari paydo bo‘ladi. Ba’zilari jinoyat ishlarini tergov qilishda tez-tez uchrasa, boshqalari kamroq hollarda sodir bo‘ladi.

Kazus: Jinoyat joyida tergov va kriminalistik taktikani qo‘llash

Shahar markazidagi kafeda bir fuqaro o‘ldirilgan holda topildi. Jinoyat joyi tartibsiz bo‘lib, stolda qoni qotgan odamning shaxsiy buyumlari, ichimlik stakanlari va bir nechta barmoq izlari bor edi. Kafe xodimlari va guvohlar mavjud, lekin ularning so‘zlari bir-biriga zid.

Siz jinoyat joyiga tergovchi sifatida chaqirilasiz. Vazifa: **kriminalistik taktikani qo‘llab, jinoyat joyini tekshirish, dalillarni yig‘ish va dalillarning ahamiyatini aniqlash**.

Kazus bo‘yicha vazifa:

1. **Kriminalistik taktika tushunchasi va vazifasini aniqlang.**
2. **Jinoyat joyini tekshirishda qanday umumiy qoidalarga rioya qilasiz?**
3. **Dalillarni yig‘ish va hujjatlashtirishda qaysi usullarni qo‘llaysiz?**
4. **Guvohlar va shaxslarni so‘roq qilishni qanday taktika asosida tashkil qilasiz?**

Nazorat savollari

1. Kriminalistik taktika nima tushuniladi va uning asosiy vazifalari qanday?
2. Kriminalistik taktikaning tizimi bilan bog‘liqligi qanday tahlil qilinadi?
3. Taktik usullar, taktik qarorlar va tergov vaziyatlari tushunchalari qanday mazmunga ega va ular o‘zaro qanday bog‘langan? Ularning umumiy va xususiy jihatlari qanday ifodalanadi?

XVI BOB. TERGOVNI REJALASHTIRISH VA TASHKIL ETISH. TERGOVNI REJALASHTIRISH TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI

16.1. Tergovni oldindan rejalashtirish

16.2. Tergovni rejalashtirish va tashkil etish – ta’riflari hamda asosiy vazifalari

16.3. Rejalashtirish prinsiplari va uning turlari; rejalashtirish hujjatlari

16.1. Tergovni oldindan rejalashtirish

Tergovni rejalashtirish. Tergovni tashkil etish

Tergovchining tergov vazifalarini samarali hal qilish uchun eng maqbul usul va vositalarni aniqlashga yo‘naltirilgan murakkab fikrlash jarayoni – rejalashtirish, tergovni tartibga solishning zarur va asosiy usulidir.

Jinoyat ishi bo‘yicha tergov qilish rejasi – ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga yo‘naltirilgan amaliy harakatlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan topshiriqdir.

Jinoyatni tergov qilishni rejalashtirish esa – jinoyat-protsessual qonunchilik talablarini va hodisaning o‘ziga xos shart-sharoitlarini hisobga olgan holda tergov vazifalarini, ularni bajarish usullari va yo‘llarini aniqlashdir.

Ish bo‘yicha tergov jarayonining tasavvuriy modeli yozma rejani tuzish orqali aniq ko‘rinishga keltirilishi lozim. Rejasiz ish olib borish usuli samaradorlikni pasaytiradi va hattoki tajribali tergovchilarni ham chalg‘itishi mumkin, ayniqsa murakkab, ko‘p voqeali va ko‘p subyektli jinoyatlarni tergov qilishda. Shuningdek, bir vaqtning o‘zida bir nechta jinoyat ishlari bo‘yicha tergov olib borishda, tergovni to‘g‘ri tashkil etish va rejalashtirish ayni muddao hisoblanadi.

Tergovni rejalashtirish – o‘tkazilayotgan surishtiruvning tasavvur qilingan modelini boshidan oxirigacha yaratish va unga aniqlik kiritishdir;

uning asosiy vazifasi tuzilgan rejani eng samarali tarzda amalga oshirishni ta’minlash, ya’ni reja ta’minlovchi xususiyatga ega bo‘lishidir. Har qanday kriminalistik faoliyatni rejalashtirish kamida boshlang‘ich axborotga ega bo‘lishni talab etadi, yuzaga kelgan holatni va unga javoban bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni to‘g‘ri baholash, alohida rejalar o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlash hamda qat’iy vaqt chegaralarini inobatga olish zarur. Rejalar orqali kriminalistik ishlarni tashkil qilish dalillarni tizimli yig‘ishga yordam beradi.

Belgilanadigan rejaga amal qilgan holda tergovchi yuzaga kelayotgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishi, ishning rivojini tezlashtirishi, vaqtni oqilona boshqarishi, har bir jinoyat ishini tartibli olib borishi, zarurat tug‘ilganda rejaga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritishi va olingan natijalarni aniq baholashi mumkin bo‘ladi. Rejalashtirish jarayonida tergov harakatlari, tezkor-qidiruv tadbirlari va kriminalistik operatsiyalar asosiy faoliyat modeli doirasida muntazam aniqlanib, takomillashtiriladi. Tergov rejasi dalillarni ketma-ket qidirish, ularni har tomonlama o‘rganish, ularning o‘rtasidagi bog‘liqlik va ziddiyatlarni aniqlash hamda ushbu muammolarni bartaraf etishga imkon yaratadi. Rejalashtirish tergovchiga aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni ta’minlab, nima qilish kerakligini, qachon, qayerda va qanday harakat qilinishi lozimligini belgilab beradi.

Jinoyat ishini tergov qilish davomida tergovchi voqeaning ayrim faktlari hamda holatlari o‘rtasidagi mavjud bog‘liqliklarni aniqlashga harakat qiladi va hozirgi vaziyatni tushungan holda harakat qiladi. Bu jarayonda tergov taxminlari tergovchiga yo‘nalishni belgilovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu taxminlar tergov rejasining markaziy qismini tashkil etadi, ular amalga oshirilishi lozim bo‘lgan harakatlarning asosiy yo‘nalishini, aniqlanishi kerak bo‘lgan savollar doirasini belgilab beradi va tergov jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Taxminlar rejalashtirish jarayonining moslashuvchanligini va dinamik xususiyatini ta’minlaydi, chunki yangi taxminlar vujudga kelishi bilan mavjud tergov rejasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritishga ehtiyoj tug‘iladi. Shu bilan birga, muhim jihat shuki, taxmin – bu faqat farazdir, u dalil

emas; u voqeaning aynan nima bo‘lganini emas, balki nima bo‘lishi mumkinligi haqidagi ehtimolni bildiradi. Jinoyat-protsessual qonunchilik esa, o‘z navbatida, jinoyat ishi doirasida aynan qaysi holatlar isbotlanishi zarurligiga oid aniq ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

Ishni ayblov xulosasi bilan sudga yuborish va ayblov hukmi chiqarish uchun quyidagilar isbotlanishi kerak:

Quyida sudda ayblov hukmi (guilty verdict) chiqarilishi va ishni ayblov xulosasi bilan sudga yuborish uchun odatda talab qilinadigan asosiy faktlar va shartlar keltirilgan. Har bir bandga qisqacha izoh ham berilgan.

1. **Jinoyatning sodir bo‘lganligi (actus reus / corpus delicti** – jinoyat amaliyoti yoki natijasi (masalan, talonchilik bo‘lsa mulkning yo‘qolishi, qotillik bo‘lsa o‘lim) haqiqatan sodir bo‘lganligi isbotlanishi kerak.

2. **Gumondorning ishtiroki yoki amal qilgani (actus reus – shaxsiy harakat** – gumondorning aynan shu jinoyatni sodir etganligi (amalni bajarganligi yoki natijaga sabab bo‘lganligi) aniqlanishi zarur (identifikatsiya, joy-vaqt, alibi tekshiruvi).

3. **Niyya yoki ayb hissi (mens rea** – jinoyat uchun zarur bo‘lgan niyatchilik darajasi (goshtan xabardorlik, ehtiyotsizlik, jinoyatchilik niyati va hokazolar) isbotlanishi kerak.

4. **Sabab–oqibat bog‘lanishi (causation**– gumondorning harakati bilan sodir bo‘lgan zarar yoki natija orasida bevosita bog‘lanish mavjudligi.

5. **Dalillar yetarliligi va qonuniylig** – hujjatlar, ko‘rsatmalar, ekspert xulosalari, buyum-dalillar, yozuv-telefon ma’lumotlari va boshqalar – sudga qabul qilinadigan tarzda va qonunga muvofiq yig‘ilgan bo‘lishi kerak (tahdidlar, majburlashsiz, qonuniy ruxsat bilan olingan).

6. **Guvohlar va ekspertlar ko‘rsatmalar** – ishonchli, izchil guvoh ko‘rsatmalari va zarur hollarda ekspert xulosalari mavjudligi.

7. **Maqbul alternativa izohlarning istisnosi (exculpatory evidence yo‘qligi** – Gumondorni oqlashi mumkin bo‘lgan ishonarli izohlar yoki dalillar yetarli darajada rad etilgan bo‘lishi.

8. **Huquqiy shart-sharoit va protsessual talablar bajarilganlig** – hibsga olish, tintuv o‘tkazish, dalilni musodara qilish, tergov harakatlarini amalga oshirish va ayblovni tayyorlash jarayonida protsessual qoidalar buzilmagan bo‘lishi zarur (masalan, advokatning huquqlari, ma’lumot berish majburiyati, protsessual muddatlarga rioya qilish).

9. **Sudning yurisdiksiyasi va muddat jihatidan to‘g‘riligini ta’minlash** – ishni ko‘rishga huquqli sud, jinoyat uchun belgilangan statute of limitations (muddat) ichida bo‘lishi.

10. **Jinoyat tarkibiy belgilarining to‘liq isbot** – qonunda belgilangan har bir tarkibiy unsur (masalan, firibgarlikda – yolg‘on, mulkni aldov yo‘li bilan olish, zarar) alohida-alohida isbotlanishi.

11. **Burden of proof va ishonch darajasi** – ayblov tomoni (odatiy ravishda prokuratura) aybni sudda «shubhasiz darajada» yoki mamlakat qonunchiligiga muvofiq belgilangan standartga (masalan, «boshqa barcha shubhalardan yuqori darajada») isbotlashi kerak.

12. **Davlat manfaatlari va umumiy xavfsizlik nuqtayi nazar** – ba’zi hollarda ishni sudga yuborish yoki og‘irroq ayblov qo‘yish jamoat manfaatlari, jabrlanuvchi himoyasi va jinoyatning og‘irligi kabi omillarni hisobga oladi.

Tergovchi o‘z faoliyatini imkon qadar aniq rejalashtirishi, har bir tergov harakatini puxta ishlab chiqib, keyingi natijalarni oldindan tasavvur qila olishi lozim. Buni amalga oshirishning eng samarali yo‘li – tergov faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirishdir. Reja tergov ishining shakli va mazmunini ifoda etib, tergovchi uchun muhim yo‘naltiruvchi vosita vazifasini bajaradi.

Tergov qilishni rejalashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. **Jinoyat**

2. **hodisasini dastlabki tahlil qilish** – mavjud ma’lumotlar, dalillar, arizalar yoki xabarlar asosida jinoyat holatini baholash.

3. **Tergovning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash** – jinoyat tarkibini tashkil etuvchi belgilarni, ehtimoliy gumondorlarni, sabab va sharoitlarni belgilash.

4. **Tergov versiyalarini ishlab chiqish** – voqea haqida ehtimoliy taxminlar (versiyalar) tuzish va ularni tekshirish rejasini belgilash.

5. **Tergov harakatlarini rejalashtirish** – so‘roq, tintuv, ko‘rsatma olish, ekspertiza tayinlash, ko‘rsatmalarni tekshirish va boshqa protsessual harakatlarni ketma-ketlik bilan belgilash.

6. **Dalillarni to‘plash va mustahkamlash chora-tadbirlarini belgilash** – dalillarni yo‘qolib ketmasligi yoki buzilmasligini ta’minlash.

7. **Tergov ishtirokchilari va ularning rollarini aniqlash** – tergovchi, ekspert, mutaxassis, guvoh, jabrlanuvchi, gumondor va boshqalar o‘rtasidagi vazifalarni belgilash.

8. **Vaqt va resurslarni taqsimlash** – tergov muddatlarini, zarur texnik vositalarni, ekspertlarni va boshqa resurslarni hisobga olish.

9. **Xavfsizlik choralari** – tergovchi, guvohlar yoki jabrlanuvchilarning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha choralarni ko‘rish.

10. **Natijalarni nazorat qilish va tahlil qilish** – tergov jarayonida reja bajarilishini kuzatish, zarur hollarda uni tuzatish.

Ta’kidlash joizki, tergov ishlari ko‘pincha bitta tergovchi tomonidan olib boriladi. Biroq, gumondorlar ko‘p bo‘lgan, murakkab, bir nechta epizodlardan iborat va ko‘p

mehnat talab qiluvchi jinoyatlar yuzasidan tergov, odatda guruh shaklida amalga oshiriladi. Bunday yondashuv turli tergov harakatlarini – tintuv o‘tkazish, guvohlarni so‘roq qilish va boshqa shu kabi tadbirlarni bir vaqtning o‘zida bajarish imkonini beradi.

Tergovni rejalashtirish jarayonida tergovchi quyidagi vazifalarni bajaradi: jinoyatga oid ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va baholash; ish doirasida isbotlanishi zarur bo‘lgan holatlarni aniqlash; mavjud

gumonlarni shakllantirish; tergov taxminlarini tekshirish tartibini belgilash.

Tashkiliy-texnik masalalar qatoriga tergovchining samarali faoliyatini ta’minlash uchun zarur sharoitlarni yaratish kiradi. Bunga xizmat xonalarini to‘liq jihozlash, aloqa va transport vositalari bilan ta’minlash, texnik xizmat ko‘rsatish, ish tartibini ilmiy asosda tashkil etish, hisob-kitob va hisobot tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, shuningdek zarur kriminalistik vositalar, yozuv-idoraviy jihozlar va boshqa yordamchi materiallar bilan ta’minlash kiradi.

Tergovni rejalashtirish jarayonida boshlang‘ich ma’lumotlarni tahlil qilish, tergov versiyalarini shakllantirish, asosiy vazifalarni aniqlash va ularni hal qilish usullarini belgilash, rejaning eng optimal variantini tanlash, rejalashtirilgan harakatlar va tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish, shuningdek yangi ma’lumotlar kelib tushganda zarur bo‘lganda reja tarkibiga o‘zgartirish kiritish amalga oshiriladi. Ish bo‘yicha tuziladigan tergov rejasi yozma yoki grafik ko‘rinishda rasmiylashtirilishi shart.

Rejada quyidagi ma’lumotlarni ko‘rsatish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1) jinoyat ishining nomi;

2) ish qo‘zg‘atilgan sana;

3) tergovni yakunlash muddati;

4) qamoqda saqlanayotgan shaxs(lar) va ularning qachondan beri qamoqda ekanligi;

5) ayblov e’lon qilingan sana.

Yakunda, tergov rejasida yakuniy tergov taxminlari, aniqlanishi zarur bo‘lgan masalalar va holatlar, shuningdek ularni tekshirish uchun mo‘ljallangan tergov harakatlari hamda boshqa zarur tadbirlar aniq ko‘rsatilishi kerak. Har bir harakatning bajarilish muddati, ketma-ketligi va ijrochilari reja doirasida belgilab qo‘yilishi lozim. Shuningdek, har bir tergov taxmini bo‘yicha alohida tarzda bajarilish holati, natijalari hamda aniqlangan ma’lumotlar to‘g‘risida tegishli belgi qo‘yilishi zarur.

Tergovchining ish yurituvida bir vaqtning o‘zida bir nechta jinoyat ishi mavjud bo‘lishi mumkinligi sababli, har bir ish uchun tuzilgan alohida rejalarga asoslanib, tergovchi uchun eng maqbul davr – o‘n kunlik yoki oylik umumiy ish rejasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Rejaga qo‘shimcha ravishda turli ko‘makchi materiallar – sxemalar, grafik tasvirlar, jamg‘arma qaydnomalari, ayblanuvchilar o‘rtasidagi jinoiy aloqalar va munosabatlarni aks ettiruvchi chizmalar, shuningdek jinoyat voqeasida har bir shaxsning ishtiroki va aybdorlik darajasini ko‘rsatuvchi boshqa vizual vositalar ilova qilinishi mumkin.

Tergov rejasini amalga oshirish jarayonida ayrim, ayniqsa og‘ir va murakkab tergov harakatlarini oldindan rejalashtirish talab etiladi. Ushbu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

a) dastlabki ma’lumotlarni tahlil qilish;

b) hal qilinishi zarur bo‘lgan vazifani aniqlash;

c) uni samarali bajarishni ta’minlaydigan taktika va usullarni tanlash;

d) zaruriy kriminalistik vositalarni belgilash;

e) tezkor vositalar yordamida olingan ma’lumotlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligini aniqlash;

f) tergov harakatida ishtirok etadigan shaxslar va ularning vazifalarini belgilash;

g) belgilangan harakatni o‘tkazish vaqti va joyini aniqlash.

Tabiiy ravishda, tergov harakatlarini amalga oshirish jarayonida protsessual yo‘l bilan tasdiqlanishi zarur bo‘lgan yangi ma’lumotlar paydo bo‘lishi mumkin va bunday hollarda tergov rejasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi lozim. Bunday yangiliklar yangi tergov vazifalarining yuzaga kelishiga, qo‘shimcha taktik usullardan foydalanish zaruratiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ayrim hollarda tergov harakati yakunlangan zahoti, uning natijalaridan kelib chiqib, darhol navbatdagi tergov harakatini o‘tkazish haqida qaror qabul qilish ehtiyoji tug‘iladi.

16.2. Tergovni rejalashtirish va tashkil etish – ta’riflari hamda asosiy vazifalari

Rejalashtirish prinsiplari va turlari

Tergov qilishni rejalashtirish amaliyoti uning quyidagi tamoyillarini ajratib ko‘rsatish imkoniyatini beradi:

1. Individuallik prinsipi

Tergovchi jinoyat ishini rejalashtirayotganda, tergov qilinayotgan jinoyatning nafaqat umumiy, balki o‘ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olishi zarur. Hech bir jinoyat o‘z turidagi boshqa jinoyatni to‘liq takrorlamaydi; har bir ishda qilmishning obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomonida o‘ziga xos jihatlar mavjud bo‘ladi. Shu sababli, bu jihatlar hisobga olingan holda tuzilgan tergov rejasi soddalashtirilgan emas, balki individual xususiyatga ega bo‘ladi. Ma’lum turdagi jinoyatlarni tergov qilishda qo‘llaniladigan namunaviy yo‘nalishlar, usullar va vositalarga oid kriminalistik tavsiyalar esa faqat ular konkret tergov sharoitiga va huquqbuzarlikning o‘ziga xos belgilariga moslashtirilgan taqdirda samarali bo‘ladi.

2. Harakatchanlik (o‘zgaruvchanlik) prinsipi

Tergovchining asosiy ish vositasi bo‘lgan tergov rejasi jinoyat ishi bo‘yicha tergov vaziyatining o‘zgarishlarini hisobga olgan holda tuzilishi zarur. Shu bois, reja doimiy emas, balki harakatchan bo‘lishi lozim. Tergov jarayonining boshida tuzilgan yagona reja bilan ishni oxirigacha olib borish mumkin emas, chunki bunday yondashuv yangi to‘plangan daliliy ma’lumotlarni va tergov jarayonidagi o‘zgarishlarni inobatga olmaydi.

Tergovning har bir bosqichida yangi faktlar, dalillar va axborot manbalari paydo bo‘lib, ular vaziyatga muayyanlik kiritadi. Shu sababli tergovchi ishning rivojlanishiga qarab rejani doimiy ravishda yangilab, mavjud holatlarga moslashtirib borishi lozim.

3.Reallik prinsipi

Tergov rejasida belgilangan barcha harakatlar va tadbirlar mavjud vaqt, kuch hamda vositalar doirasida amalga oshirilishi mumkin bo‘lishi kerak. Ya’ni, reja amalda bajarilishi mumkin bo‘lgan, real sharoitlarga mos bo‘lishi zarur. Shu bilan birga, u jinoyat ishi bo‘yicha ilgari surilgan barcha tergov taxminlarini tekshirish, paydo bo‘layotgan yangi vazifalarni hal etish va mavjud kriminalistik resurslardan samarali foydalanish imkonini beradigan darajada puxta tuzilishi lozim.

4. Aniqlik prinsipi

Mazkur prinsip tergovchi zimmasiga yuklatilgan yoki tergov jarayonida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan vazifalarni aniq belgilash zaruratini ifodalaydi. Har bir tergov harakati yoki kriminalistik operatsiyani o‘tkazishda bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar, ularning muddatlari, ijrochilari, shuningdek foydalaniladigan texnik va kriminalistik vositalar hamda usullar aniq ko‘rsatilishi kerak. Bundan tashqari, tergovchi tezkor xodimlar, ekspert-kriminalistlar va jamoatchilik vakillari bilan o‘zaro hamkorlik shakllarini ham oldindan belgilab olishi zarur. Shu tarzda tuzilgan aniq va puxta reja tergov jarayonining izchil hamda samarali kechishini ta’minlaydi.

5. Maqbullik prinsipi

Ushbu tamoyil tergov rejasining eng maqbul va barqaror shaklda tuzilishini ta’minlaydigan asosiy shart sifatida xizmat qiladi. Rejaning maqbulligi shunda namoyon bo‘ladiki, unda mavjud barcha faktik ma’lumotlar inobatga olinadi, jinoyatni xatosiz tergov qilish uchun zarur bo‘lgan masalalar to‘liq kiritiladi va ularni hal etishga qaratilgan harakatlar amalda bajarilishi mumkin bo‘lgan tarzda rejalashtiriladi. Faqat shundagina tergovchi o‘z faoliyatini izchil, samarali va real imkoniyatlarga mos holda tashkil eta oladi.

6. Muayyanlik prinsipi

Mazkur tamoyil tergov rejasining tergovchi uchun amaliy qo‘llanma sifatidagi ahamiyatini ta’minlaydi. Tergovchi reja tuzish jarayonida jinoyatni fosh etish bo‘yicha o‘z faoliyatining aniq dasturini ishlab chiqadi, unda bajarilishi lozim bo‘lgan harakatlarning ketma-ketligini,

muddatlarini va ijro tartibini belgilab oladi. Agar rejaning mazmuni va uni amalga oshirish muddati aniq ko‘rsatilmasa, u o‘zining tashkilotchilik va yo‘naltiruvchi funksiyasini yo‘qotadi. Shu bois reja muayyan, tartibli va aniq ko‘rsatkichlarga asoslangan bo‘lishi zarur.

Rejalashtirishning ko‘rsatib otilgan barcha tamoyillari o‘zaro bog‘liq va aloqadordir. Ulardan bittasining buzilishi muqarrar ravishda boshqa tamoyillarni ham buzilishiga olib keladi.

Tergov qilish rejasini tuzishda ikki asosiy element mavjud:

1. **Tergovning mazmuniy (mazmun) tomoni** – bu jinoyat voqeasini to‘liq, har tomonlama va xolis o‘rganish uchun zarur bo‘lgan masalalar, holatlar hamda ularni aniqlash yo‘llarini belgilaydi.

2. **Tashkiliy (amaliy) tomoni** – bu tergov jarayonida bajariladigan ishlarning ketma-ketligi, usullari, muddatlari va harakatlarni amalga oshiruvchi shaxslarni aniqlab beruvchi amaliy chora-tadbirlar majmuasidir.

Tergovchi jinoyat ishini, to‘plangan ma’lumotlarni, shu jumladan ashyoviy dalillarni jinoyatni ochish istiqboli jihatidan o‘rganishda quyidagilarga ahamiyat berishi zarur:

1. **Jinoyat voqeasining holatlari** – jinoyat qachon, qayerda, qanday sharoitda sodir etilgani, qanday usullar qo‘llangani va natijalari.

2. **Jinoyat izlari va ashyoviy dalillar** – ularning manbasi, olingan joyi, jinoyatga aloqadorligini tasdiqlovchi belgilari va ekspertiza o‘tkazish zarurati.

3. **Gumon qilinayotgan shaxslar haqida ma’lumotlar** – ularning shaxsiyati, harakatlari, jinoyat sodir etilishidagi roli hamda alibilarining mavjudligi yoki yo‘qligi.

4. **Guvohlarning ko‘rsatmalari** – ular tomonidan aytilgan ma’lumotlarning ishonchliligi, o‘zaro mosligi yoki zidligi.

5. **Jinoyat sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlari** – jinoyatga turtki bo‘lgan omillar va ularni bartaraf etish choralarini aniqlash.

6. **Jinoyatni ochish istiqbollari** – mavjud dalillar asosida tergovning keyingi yo‘nalishlarini belgilash, yangi dalillarni izlab topish yo‘llarini aniqlash.

16.3. Rejalashtirish prinsiplari va uning turlari; rejalashtirish hujjatlari

Har bir jinoyat ishi bo‘yicha yagona tergov rejasi hamda ayrim tergov harakatlarini o‘tkazish bo‘yicha alohida rejalar tuzish odat tusiga kirgan. Ishlar toifasi bo‘yicha esa, odatda kalendar rejalar tuziladi. Rejalar og‘zaki (fikriy) yoki yozma shaklda bo‘lishi mumkin. Biroq yozma reja, shubhasiz, afzal hisoblanadi, chunki hatto tajribali tergovchi ham puxta o‘ylangan fikriy rejaning barcha tafsilotlarini xotirada saqlab qololmaydi.

Albatta, yozma reja tuzish qo‘shimcha vaqt talab qiladi, ammo aynan shu shakldagi rejalashtirish tergov jarayonining izchilligi va tartibliligini ta’minlagani sababli o‘zini doimo oqlaydi. Jinoyat ishi bo‘yicha tergov rejasi dastlabki tergov harakatlaridan so‘ng tuziladi, chunki hodisa joyini ko‘zdan kechirishning o‘ziyoq dastlabki taxminlar va reja tuzish uchun zarur ma’lumotlarni beradi.

Ba’zi hollarda, masalan mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha ishlarni tergov qilishda, reja ishni qo‘zg‘atishga asos bo‘lgan hujjatlarda keltirilgan ma’lumotlar asosida tuzilishi mumkin. Shu bilan birga, dastlabki reja qat’iy hujjat hisoblanmaydi – tergov davomida u kengayib, takomillashtirib boriladi.

Yozma rejaning mazmuni tergov qilinayotgan ishning tabiati va xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Ba’zi hollarda reja keng qamrovli masalalarni o‘z ichiga oladi, boshqa hollarda esa faqat bajarilishi lozim bo‘lgan tergov harakatlari va ularning muddatlarini ko‘rsatish bilan cheklanadi.

Amaliyotda reja, odatda quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘ladi:

1) tekshirilishi lozim bo‘lgan gumonlar;

2) isbotlanishi kerak bo‘lgan holatlar;

3) tergov va tezkor-qidiruv tadbirlari;

4) bajarish muddati;

5) ijrochi;

6) qo‘shimcha izohlar.

Oydinlashtirilishi zarur bo‘lgan masalalar va holatlar tasodifiy tanlanmaydi, balki tergovchi reja tuzayotganda yoki unga o‘zgartirish kiritayotganda mavjud ma’lumotlar va taxminlarga asoslanadi.

Rejaga ortiqcha, ahamiyatsiz jihatlarni kiritmaslik kerak, biroq muhim va zarur holatlarni ham e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Tergov hamda tezkor-qidiruv harakatlari aynan shu aniqlanishi lozim bo‘lgan masalalar asosida, amalga oshirilayotgan harakatlardan kutilayotgan eng ehtimoliy va maqbul natijani inobatga olgan holda rejalashtiriladi.

Tergovni rejalashtirish jarayonida quyidagi asosiy elementlarni inobatga olish zarur:

1. **Aniqlanishi lozim bo‘lgan masalalar doirasi** – jinoyat voqeasining holatlari, sabab va shart-sharoitlari, jinoyatni sodir etgan shaxslar hamda ularning harakatlariga oid savollar.

2. **Tergov harakatlari majmuasi** – aniqlangan masalalarni yoritish uchun bajarilishi zarur bo‘lgan tergov harakatlari, ularning ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi.

3. **Tezkor-qidiruv choralari** – tergov ma’lumotlarini to‘ldiruvchi va jinoyatni ochishga yordam beruvchi tezkor tadbirlarning rejalashtirilishi.

4. **Harakatlarni amalga oshirish muddati** – har bir tergov va tezkor-qidiruv harakatining bajarilish vaqti, ularning o‘zaro muvofiqlashtirilishi.

5. **Mas’ul ijrochilar** – tergovchi, tezkor xodimlar yoki boshqa mutaxassislarning vazifalari aniq belgilanadi.

6. **Kutilayotgan natijalar** – rejalashtirilgan harakatlardan olinishi kutilayotgan ma’lumotlar, dalillar yoki aniqlik kiritiladigan jihatlar.

Murakkab, guruhli yoki ko‘p epizodli jinoyat ishlari bo‘yicha tergov olib borilayotganda yordamchi yozma hujjatlardan samarali foydalanish mumkin. Bunday hujjatlarda tergov rejasining ayrim jihatlari batafsil yoritiladi. Ularga, masalan **«shaxsiy hisobvaraqlar»**, **ayblanuvchilarning o‘zaro jinoiy aloqalarini aks ettiruvchi sxemalar**, **korxona va tashkilotlarning tuzilma diagrammalari**, **hujjatlar aylanish jarayonini ko‘rsatuvchi chizmalar** va shunga o‘xshash materiallar kiradi.

Turli jadval va sxemalardan foydalanish tergovchining ish jarayonini izchil va samarali tashkil etishiga, shuningdek tergov muddatlarini qisqartirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bunday hujjatlarni tayyorlash ma’lum darajada maxsus tayyorgarlikni talab qiladi va ayrim hollarda mutaxassislar ishtirokini ham zarur etadi.

KAZUS: «Kriminalistik taktika: tergovni rejalashtirish va tashkil etish»

Vaziyat

Viloyat markazida tungi soat 02:00 atrofida shahardagi katta savdo markazida kuchli o‘tilish sodir bo‘ladi – binoning yukxonasidagi ombor yonib, katta moddiy zarar yetadi. Yong‘in natijasida ba’zi inventar yo‘qoladi va bir nechta muhim hujjatlar yo‘qotilgan. Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, yong‘in tasodifiy emas, balki oldindan rejalashtirilgan bo‘lishi mumkin (yorug‘lik yoqilmagan, o‘t manbai bir necha joydan boshlangani qayd etilgan).

Viloyat IIB tezkor-tergov guruhi hodisa joyiga chiqadi. Ko‘p sonli guvohlar, xavfsizlik kameralari yozuvlari, omborda saqlangan tovarlarning ro‘yxati mavjud. Hodisa murakkabligi va jamoat muhitiga ta’siri sababli bosh prokuratura vakillari ham ishga jalb qilinadi.

Tergovchi jamoa ishni **kriminalistik taktika** asosida rejalashtirish va tashkil etish zarurligini aniqlaydi – yong‘inning kelib chiqishini aniqlash, jinoyat belgilarini aniqlash, dalillarni saqlash va yo‘qotilgan predmetlarni topish, gumondorlarni aniqlash hamda tergovni samarali olib borish.

Tergovni rejalashtirish va tashkil etish bosqichlari (kazus doirasida)

1. **Hodisa joyini darhol ta’minlash va chegaralash**

Yong‘in o‘chirilgach darhol joyni rasmiy ravishda o‘rnatish (perimetrlash), faqat ruxsat etilgan xodimlar kiritish.

Favqulodda xizmatlar bilan hamkorlikda xavfni bartaraf etish, insonlar va dalillarni xavfsiz joyga ko‘chirish.

2. **Dastlabki tezkor tekshiruv (operativ taktika)**

Qo‘shni hududlardagi videoyozuvlarni, guvoh bayonotlarini tezkor yig‘ish.

Yong‘in boshlangani taxmin qilingan joylarda izlarni belgilash, fotosurat va videotasvir olish.

Potensial hujjat yoki predmet joylashgan maydonlarni belgilash va maxsus ekspert guruhi chaqirish.

3. **Dalillarni fiksa (fiksatsiya) va zanjirni saqlash**

Fotosuratlar (umumiy, qisman, detal), videotasvir, 3D skanerlash zarur bo‘lsa – barchasi protsessual tartibda hujjatlashtiriladi.

Olingan buyumlar (qoldiqlar, yonish manbalari, suvsizlangan qum namunasi va boshqalar) belgilab olinib, muhrlangan paketlarda saqlanadi.

4. **Ekspertlarni jalb qilish va tahlil rejasini tuzish**

Kriminalistik, yong‘in ekspertizasi, kimyoviy tahlil (yonish mahsulotlari), elektr-texnik ekspertiza va videoekspertlarni ishga jalb etish.

Ekspertizalarning prioriteti va navbati – amalga oshirilish muddatlari bilan aniqlanadi.

5. **Operativ-izlov faoliyati**

Guvohlar aniqlangach, tezkor so‘rovlar, manzillar bo‘ylab tekshiruvlar, gumondorlarni tezkor aniqlashga yo‘naltirilgan choralar.

Moliyaviy-xisobot tekshiruvlari (ombor hisoboti, sug‘urta shartlari, xodimlar moliyaviy holati) o‘tkaziladi.

6. **Tergovni rejalashtirish**

Har bir ish bosqichi uchun vazifalar, muddatlar va mas’ul xodimlar belgilab olinadi.

Kadrlar, texnik jihozlar va ekspert xizmatlari oldindan ta’minlanadi.

7. **Holatlarni qayta baholash va taktika o‘zgartirish**

Ekspertiza natijalari kelishi bilan taktika qayta ko‘rib chiqiladi – yangi gumondorlar, qo‘shimcha izlar aniqlansa, ish rejasi yangilanadi.

Tahlil uchun savollar (imtiyozli nazorat va muhokama uchun)

1. Ushbu ishda criminalistik taktikaning **qaysi umumiy qoidalari** (tezlik, aniqlik, zanjir saqlash, ilmiylik) qanday amalga oshirilgan?
2. Hodisa joyini himoyalashda qanday **taktik xatolar** qilinishi mumkin va ular dalillarga qanday zarar yetkazadi?
3. Yong‘in sababini aniqlash uchun **qaysi ekspertizalar** talab etiladi va ularning tartibdagi o‘rni qanday?
4. Operativ-izlov bosqichida hamkor tashkilotlar (o‘t o‘chirish xizmati, sug‘urta kompaniyasi, bino egasi) bilan **qanday taktika** asosida ishlash lozim?
5. Tergov jarayonini rejalashtirishda **mas’uliyat va axborotni boshqarish** qanday tashkil etilishi kerak (kim, qachon, nima haqida xabar beradi)?
6. Agar yong‘in **oldindan rejalashtirilgan** ekani isbotlansa, tergov taktikasi qanday o‘zgaradi (qo‘shimcha jamoalar, operativ profilaktika, tergov-chegara choralar)?
7. Hodisa joyidagi video materiallar va guvohlarning qarama-qarshi bayonotlari bo‘lsa, bu holatlarda **kriminalistik taktika** qanday yo‘nalishda qaror qabul qiladi?

XVII BOB. TERGOV EKSPERIMENTINI O‘TKAZISH TAKTIKASI. EKSPERIMENT TUSHUNCHASI VA UNING VAZIFALARI. TERGOV EKSPERIMENTI O‘TKAZISHNING PROSESSUAL TARTIBI. KO'RSATUVLARNI HODISA JOYIDA TEKSHIRISH TAKTIKASI. KO‘RSATUVLARNI HODISA JOYIDA TEKSHIRISH TUSHUNCHASI VA VAZIFALARI.

17.1. Tergov eksperimentini o‘tkazish taktikasi.

17.2. Tergov eksperimenti vazifalari.

17.3. Tergov eksperimenti o‘tkazishning protsessual tartibi.

17.1. Tergov eksperimentini o‘tkazish taktikasi

Tergov eksperimentining tushunchasi

Tergov eksperimenti – jinoyat sodir bo‘lgan holatni, jinoyat usulini va hodisa jarayonini **dalillarga asoslanib qayta yaratish** orqali aniqlash va tekshirish usulidir. Eksperiment orqali tergovchi jinoyatning mexanizmi, shuningdek guvoh va gumondorlarning ko‘rsatmalari haqiqiy yoki yolg‘on ekanligini aniqlashi mumkin.

Tergov eksperimenti vazifalari

1. Jinoyat sodir bo‘lgan sharoitni aniqlash;
2. Jinoyat usullarini va hodisa ketma-ketligini qayta tiklash;
3. Dalillarni tekshirish va mustahkamlash;
4. Guvohlar va gumondorlarning ko‘rsatmalarining ishonchliligini baholash;
5. Tergov va sud jarayonida ilmiy asosli dalillarni taqdim etish.

Tergov eksperimenti o‘tkazishning protsessual tartibi

1. **Eksperiment rejasini tuzish**

Hodisa joyi, vaqt, ishtirokchilar va eksperiment maqsadi aniqlanadi.

2. **Dalillar va ishtirokchilarni tayyorlash**

Hodisa joyi tekshiriladi, kerakli vositalar va materiallar tayyorlanadi.

3. **Eksperimentni amalga oshirish**

Hodisa shart-sharoitlari qayta tiklanadi, gumondor yoki guvoh ishtirok etadi.

4. **Natijalarni qayd etish**

Fotosuratlar, video, chizmalar va yozuvlar orqali eksperiment hujjatlashtiriladi.

5. **Natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish**

Eksperiment natijalari tergovga va sud ishlariga asos bo‘ladi.

2. Ko‘rsatmalarni hodisa joyida tekshirish taktikasi

Ko‘rsatmalarni hodisa joyida tekshirish tushunchasi

Ko‘rsatmalarni hodisa joyida tekshirish – guvoh yoki gumondorning **oldingi bergan ma’lumotlarini jinoyat joyida amalda sinovdan o‘tkazish** jarayonidir. Bu usul orqali tergovchi ko‘rsatmalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlaydi.

Ko‘rsatmalarni hodisa joyida tekshirish vazifalari

1. Ko‘rsatmalarning haqiqatga muvofiqligini aniqlash;
2. Hodisa jarayonini va jinoyat joyini aniqroq tushunish;
3. Dalillarni yanada mustahkamlash;
4. Gumondor va guvohlarning ishga aloqadorligini baholash;
5. Sud jarayonida ishonchli dalillarni taqdim etish.

Ko‘rsatmalarni hodisa joyida tekshirish taktikasi

Joyni tayyorlash: hodisa joyi avval tekshiriladi va barcha sharoitlar qayta tiklanadi.

Ko‘rsatmalarni tekshirish ketma-ketligi: guvoh yoki gumondor ko‘rsatmalari bo‘yicha hodisani qayta tiklash.

Dalillarni birlashtirish: ko‘rsatmalar bilan topilgan dalillarni solishtirish.

Xavfsizlik va protsedura: tergovchi nazorati ostida, dalillarni o‘zgartirmasdan, protsessual qoidalarga rioya qilish.

Hujjatlashtirish: fotosurat, video, chizmalar va yozuvlar orqali barcha harakatlarni qayd etish.

17.2. Tergov eksperimenti vazifalari.

Tergov eksperimenti – bu ilgari sodir bo‘lgan voqea yoki jinoyat bilan bog‘liq holatlarni aynan o‘sha sharoitlarda qayta tiklash orqali ularning haqiqiyligini aniqlashga qaratilgan tergov harakatidir. Ushbu tajriba ma’lum bir voqeani amalga oshirish mumkinligini aniqlash, muayyan harakatlarni qayta bajarish, voqea qanday kechganini hamda izlar qanday hosil bo‘lganini tekshirish, shuningdek hodisaning sodir bo‘lish ehtimolini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Tergovchi bunday eksperiment yordamida ayrim harakat yoki voqeaning mavjud sharoitlarda ro‘y berishi yoki ro‘y bera olmasligini amaliy tajriba asosida belgilab oladi. Agar tekshirilgan harakat real sharoitda qayta takrorlanmayotganligi isbotlansa, bunday ma’lumotlar jinoyat faktlari qatoridan chiqariladi; aks holda esa eksperiment natijalari ishdagi muayyan holatlarni isbotlashda yordam beradi.

Tergov eksperimentining boshqa protsessual tadbirlardan asosiy farqi shundaki, tergovchi faqat kuzatib yoki eshitib qolmay, balki voqea holatlarini qayta tiklaydi va ularning sodir bo‘lishini yaratish yoki kuchaytirish maqsadida tajribalar o‘tkazadi. Eksperimentni o‘tkazish zaruriyati – tekshirilayotgan holatning ahamiyati va uni amaliy tajriba yo‘li bilan aniqlash imkoniyati hisobga olingan holda belgilanadi.

Eksperiment jinoyatning obyektiv va subyektiv jihatlarini qayta tiklash uchun qo‘llanilishi lozim bo‘lgan bir usuldir, chunki u voqeaning takrorlanishiga asos bo‘lib, ijtimoiy xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli tergovchi sha’n- sharafga putur yetkazuvchi, inson salomatligiga xavf soluvchi yoki moddiy zarar keltiruvchi eksperimentlarni o‘tkazishga haqqi yo‘q – bunday hollarda boshqa tergov choralaridan foydalanish zarur.

Tergov eksperimenti odatda quyidagi imkoniyatlarni aniqlash maqsadida o‘tkaziladi:

1) muayyan sharoitlarda biron-bir obyekt, harakat yoki hodisani idrok etish (ko‘rish, eshitish, hid sezish, paypaslab ko‘rish);

2) berilgan sharoitlarda biron-bir harakatlarni bajarish;

3) tergov qilinayotgan jinoyat voqeasi mexanizmining ayrim elementlari mavjudligi.

Amalda, ayniqsa keng qo‘llaniladigan birinchi turdagi tergov tajribalari ish uchun muhim bo‘lgan narsani ma’lum ob-havo, yorug‘lik va shovqin sharoitida, ochiq hudud yoki binoda ko‘rish yoki eshitish imkonini oshirishga qaratilgan. Ikkinchi guruh tajribalari esa ma’lum to‘siqlardan o‘tish, og‘ir yuklarni belgilangan masofaga tashish yoki marshrutni belgilangan muddat ichida piyoda bosib o‘tish kabi vazifalarni bajarish qobiliyatini aniqlashga yo‘naltiriladi. Shuningdek, rasm chizish, avtomobil boshqarish va boshqa maxsus ko‘nikmalarni amalda tekshirish ham shu guruhka kiradi.

Uchinchi turdagi eksperimentlar esa quyidagi savollarga javob topishga xizmat qiladi: mazkur omborga ma’lum miqdordagi tovar sig‘dimi; u yerda saqlangan mahsulotlarning tabiiy yo‘qolishi mumkinmi; yoki osma qulflarni, eshiklarni shikastlamasdan ochib olish mumkinmi va hokazo.

Asosiy maqsad tekshirilayotgan holat, guvoh, jabrlanuvchi yoki gumonlanuvchining ko‘rsatmalarida tilga olingan voqeani ko‘rish, eshitish yoki ayrim harakatlarni bajarish imkoniyati mavjud-yo‘qligini aniqlashdir. Agar guvoh ma’lum dalillarni ko‘rgan yoki eshitganligini iddao qilsa, bu da’voning o‘sha paytdagi sharoitlarda (yorug‘lik, masofa, shovqin va hokazo) haqiqatdan ham kuzatuv yoki tinglov imkoniyati bor-yo‘qligini aniqlash lozim bo‘ladi. Xuddi shunday, gumonlanuvchi yoki ayblanuvchining jinoyat amallarini masalan, buzib kirib buyum olib chiqish yoki katta miqdordagi tovarni bitta yuk mashinasiga yuklash kabi amalga oshirish imkoniyati ham sun’iy sharoitlarda qayta tiklab, tajriba orqali tekshiriladi.

Tergov eksperimenti – jinoyat ishi bo‘yicha mavjud dalillar va taxminlarni sinovdan o‘tkazish, ularning voqelikda ma’lum sharoitlarda rostdan ham sodir bo‘lganligini aniqlashga qaratilgan tergov harakatidir. Agar eksperiment natijalari ijobiy bo‘lib chiqsa, demak, tekshirilayotgan dalil yoki taxmin to‘g‘ri ekanligi tasdiqlanadi. Aksincha, manfiy natija

olinganda, bu ma’lumotlar asossiz yoki yolg‘on ekanini, ko‘rsatuvda keltirilgan holatlar haqiqatga to‘g‘ri kelmasligini anglatadi.

Mazmuniga ko‘ra, tergov eksperimenti boshqa tergov harakatlari bilan o‘xshash bo‘lib, ularning ayrim jihatlari bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ayniqsa, u «ko‘rsatuvlarni hodisa joyida oshirish» jarayoniga yaqin turadi. Har ikkala holatda ham so‘roq davomida olingan ma’lumotlar tekshiriladi, ammo ularning farqi shundaki: **eksperimentda** ko‘rsatuvdagi ayrim dalillar tajriba yo‘li bilan, voqeani sun’iy ravishda tiklab, shart-sharoitlar yaratilib sinovdan o‘tkaziladi. **Ko‘rsatuvlarni hodisa joyida oshirish** esa ilgari so‘roq paytida olingan ma’lumotlarning haqiqiy joydagi holatlarga qanchalik mos kelishini aniqlash va ayrim jihatlarni to‘ldirishga qaratilgan bo‘ladi.

Shuningdek, tergov eksperimenti **hodisa joyini ko‘zdan kechirish** harakati bilan ham ma’lum darajada o‘xshash. Har ikkisi ham dalilni topish va uni tekshirishga xizmat qiladi. Ammo farqi shundaki, hodisa joyini ko‘zdan kechirishda voqea joyining tabiiy holati o‘zgartirilmaydi, barcha izlar o‘z holicha saqlanadi va faqat kuzatish orqali o‘rganiladi.

Sud ekspertizasi jarayonida ham eksperimental usullar keng qo‘llaniladi. Masalan, o‘qotar qurollarni identifikatsiya qilishda shubha ostidagi quroldan sinov o‘qlari otib, o‘q va gilza namunalarini solishtirish uchun tayyorlanadi. Xuddi shuningdek hujjatlar va boshqa obyektlarni o‘rganishda ham tajriba usullari turlicha qo‘llaniladi. Ammo bu holatlar tergov eksperimenti hisoblanmaydi, balki sud ekspertizasining o‘ziga xos **tadqiqot uslubi** sifatida uning tarkibiy qismidir.

Tergov amaliyotida jinoyat ishi bo‘yicha turli holat va vaziyatlarni aniqlash maqsadida eksperiment o‘tkazish zarurati tez-tez yuzaga keladi. Shu sababli tergov eksperimentlari bir nechta turga bo‘linadi va ular quyidagi maqsadlar uchun o‘tkaziladi:

– ma’lum bir voqea, holat yoki shaxsni belgilangan sharoitlarda kuzatish imkoniyati mavjudligini aniqlash uchun;

– voqea bilan bog‘liq tovushlar (masalan, turli ovozlar, portlash, motor shovqini va hokazo) qanchalik eshitilishi mumkinligini aniqlash maqsadida;

– jinoyat ishi doirasidagi ba’zi harakatlarni sinab ko‘rish uchun – masalan, belgilangan masofani piyoda bosib o‘tish, yugurish yoki transport vositasi yordamida ma’lum vaqt ichida yetib borish imkoniyatini tekshirish;

– ayrim amaliy ishlarni bajarish qobiliyatini sinovdan o‘tkazish uchun – masalan, to‘siqlardan o‘tish, og‘ir yukni olib chiqish yoki joylashtirish, hamda katta hajmdagi tovarni bitta transport vositasida tashish imkoniyatini aniqlash;

– turli modda va mahsulotlarning sifatini (hidi, tarkibi va hokazolarni) farqlash yoki ularni idrok etish qobiliyatini aniqlash uchun.

Shuningdek, jinoyat vaziyatining ayrim jihatlarini qayta tiklab, ularning sodir bo‘lish yoki oldini olish imkoniyatini o‘rganishda tergov eksperimenti bilan bir qatorda boshqa tergov choralari ham qo‘llanadi. Ayniqsa, **avtotransport hodisalarini tekshirishda**, jabrlanuvchilar va ayblanuvchilarning ko‘rsatmalarida keltirilgan vaj va tushunchalar **eksperiment, hodisa joyida ko‘rsatuvlarni oshirish** hamda **ekspertiza tekshiruvlari** yordamida aniqlanadi.

17.3. Tergov eksperimenti o‘tkazishning protsessual tartibi.

Tergov eksperimenti samarali va muvaffaqiyatli kechishi uchun unga oldindan mukammal tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi. Bu tergov harakatini boshlashdan oldin tergovchi jinoyat ishining barcha materiallarini chuqur o‘rganadi va mavjud dalillar orasidan aynan qaysilari tajriba yo‘li bilan tekshirilishi zarurligini aniqlaydi. Shundan keyin esa, eksperimentni amalga oshirishga doir aniq reja ishlab chiqiladi. Mazkur reja, odatda, quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:

– tekshirilishi kerak bo‘lgan dalillar hamda holatlarning aniq ro‘yxati;

– tajriba o‘tkaziladigan joy, vaqt va zarur sharoitlar;

– eksperimentda qatnashadigan shaxslar, ularning vazifalari va roli;

– foydalaniladigan texnik vositalar hamda o‘lchash va qayd etish usullari.

– xavfsizlik choralarini ta’minlash bo‘yicha ko‘riladigan tadbirlar;

– natijalarni rasmiylashtirish tartibi, ya’ni bayonnoma va ilovalarni tayyorlash shakli.

Bunday reja tergovchi uchun eksperimentni tizimli va tartibli ravishda o‘tkazish imkonini beradi, natijada tergov harakatining obyektivligi va ishonchliligi oshadi.

Agar tergov eksperimenti ishtirokchilarning hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘dirsa, shuningdek jamoat tartibi yoki axloq qoidalariga zid holatlar yuzaga keltirishi ehtimoli bo‘lsa, uni o‘tkazishga ruxsat berilmaydi. Bunday vaziyatlarda eksperiment o‘rniga boshqa tergov harakatlari – masalan, qayta so‘roq, yuzlashtirish yoki ekspertiza kabi protsessual usullar qo‘llaniladi.

Eksperimentni samarali tashkil etish va o‘tkazish uchun uning barcha ishtirokchilari oldindan aniqlab olinadi. Kamida ikki nafar xolisning ishtiroki shart bo‘lib, bundan tashqari, tekshirilayotgan hodisa yoki dalilning xususiyatiga qarab mutaxassis jalb etilishi ham maqsadga muvofiqdir. Mutaxassisning ishtiroki tajribaning to‘g‘ri va samarali o‘tishiga yordam beradi.

Tergov eksperimentida so‘roqdan o‘tgan shaxslarning ishtiroki taktik jihatdan katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, ko‘rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs – guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tajribada qatnashgan taqdirda, olingan natijalar yanada aniq va ishonchli bo‘ladi. Masalan, voqeani bevosita ko‘rgan yoki eshitgan guvohlar hodisa vaqtida mavjud bo‘lgan sharoitlarni yodga olib, ularni qayta tiklashda yordam beradi hamda tergov uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlarni taqdim etadi.

Agar tergov eksperimenti guvohlarning ko‘rsatuvlarini tekshirish uchun o‘tkazilsa, ular o‘zlari tasvirlagan harakatlarni amalda namoyish qilib berishlari kerak bo‘ladi. Bu esa hodisaning haqiqatda yuz berish imkoniyatini aniqlashga yordam beradi. Xuddi shuningdek agar

eksperiment ayblanuvchining ko‘rsatuvini tekshirishga qaratilgan bo‘lsa, uni tajribada ishtirok ettirish maqsadga muvofiqdir. Ayblanuvchi jinoyat sodir etilgan paytdagi harakatlarini qayta bajarib, voqea tafsilotlarini aniqlashtirish imkonini beradi.

Eksperiment o‘tkaziladigan joy va vaqt oldindan belgilanadi. Har doim ham tajribani jinoyat sodir bo‘lgan joyda o‘tkazish imkoni bo‘lmaydi, shu bois agar natijaning ishonchliligiga ta’sir ko‘rsatmasa, o‘xshash joy yoki shunga yaqin vaqt (masalan, kunning vaqti, ob-havo holati – qor, yomg‘ir, qorong‘ilik va hokazolar) tanlanadi.

Agar eksperiment tezkor ma’lumotlarga asoslangan holda o‘tkazilsa, bu jarayonda tezkor xodimning ishtiroki ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tajriba davomida sinov mazmuniga o‘zgartirishlar kiritish orqali ayrim tezkor ma’lumotlarni aniqlashtirish yoki tasdiqlash imkoniyati ham yuzaga keladi.

Eksperimentni o‘tkazishda mutaxassisning ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Eksperiment sharoitlarini qayta yaratish, ishtirokchilarni maqbul tarzda joylashtirish va jarayonning texnik jihatdan to‘liq va to‘g‘ri o‘tkazilishini ta’minlashda u tergovchiga muhim yordam ko‘rsatadi. Shuningdek, mutaxassis tajriba yakunida olingan natijalarni baholashda tergovchiga zarur tavsiyalar va tushuntirishlar beradi.

Tergov eksperimenti barcha tashkiliy masalalar hal etilib, zarur tayyorgarlik ishlari to‘liq yakunlangachgina o‘tkazilishi lozim. Shu tarzda harakatning aniqligi, ishonchliligi va qonuniyligi ta’minlanadi.

Tergov eksperimentini o‘tkazish tartibi va taktikasi

Tergov eksperimentini tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

a) eksperimentning maqsadini hamda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni aniqlash;

b) uni o‘tkazish uchun zarur vaqt, joy va sharoitlarni belgilash;

d) tajribalarning tuzilishi hamda ketma-ketligini ifodalovchi taxminiy modelni ishlab chiqish;

e) tergov harakatida ishtirok etuvchi shaxslarni tanlash va ularning vazifalarini belgilab olish;

f) tajriba o‘tkazishda zarur bo‘lgan buyumlar va texnik vositalarni tayyorlash, shuningdek natijalarni qayd etish usullarini aniqlash.

Murakkab holatlarda tergov eksperimenti uchun batafsil yozma reja tuzish talab etiladi. Mazkur reja tajribalarni tashkiliy, texnik hamda kriminalistik jihatdan ta’minlash, ularning tuzilishi va o‘tkazilish variantlarini, shuningdek olingan natijalarni qayd etish usullarini o‘z ichiga olishi zarur. Keyingi tergov eksperimentining maqsadi va vazifalarini belgilash esa jinoyat doirasida tajriba orqali tekshirilishi kerak bo‘lgan holatlarni aniqlashtirishni anglatadi.

Eksperiment o‘tkaziladigan vaqt, joy va sharoitni to‘g‘ri tanlash uchun tergovchi ayrim hollarda jinoyat ishi materiallariga murojaat etadi. Tajribalar ketma-ketligini, ularning tuzilishini belgilash hamda xayoliy modelini ishlab chiqish tergovchiga bo‘lajak tergov harakatida kimlar ishtirok etishi va ularning sonini aniq belgilash imkonini beradi. Masalan, ayrim vaziyatlarda tergovchi nafaqat yordamchi yoki mutaxassisni, balki to‘rtta xolisni ham jalb etishi zarur bo‘lishi mumkin.

Tajribaviy harakatlarni, odatda, ko‘rsatuvlari tekshirilayotgan shaxslar – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi yoki guvohlar bajaradi. Ammo, agar tekshiruv subyektning shaxsiy xususiyatlariga emas, balki muayyan hodisaning mavjud bo‘lish imkoniyatiga qaratilgan bo‘lsa, tergovchi bu harakatlarni bajarish uchun ish natijasidan manfaatdor bo‘lmagan shaxsni ham jalb qilishi mumkin.

Agar tergov eksperimenti natijasida tekshirilayotgan shaxsning ko‘rsatuvlari rad etilgan bo‘lsa, uning tajribada bevosita ishtiroki, ayniqsa psixologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ilgari bergan soxta ko‘rsatmalarining haqiqatga zidligi tajribada aniqlangach, gumon qilinuvchi yoki guvoh ko‘pincha to‘g‘ri ma’lumotlarni bayon etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tergov eksperimentida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining ishtiroki faqat ixtiyoriy bo‘lishi kerak. Guvoh yoki jabrlanuvchini ham ularning roziligisiz ushbu tergov

harakatida qatnashishga majburlash to‘g‘ri emas, ayniqsa tekshiruv ularning shaxsiy yoki subyektiv xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa. Aks holda, majburiy ishtirok natijasida olingan ma’lumotlarga aniq va ishonchli baho berish qiyinlashadi.

Tergov eksperimenti boshlanishidan oldin tergovchi barcha ishtirokchilarga zarur yo‘l-yo‘riqlarni berishi, rejalashtirilgan tajribalarning maqsadini tushuntirishi hamda har bir ishtirokchining vazifasi va roli haqida batafsil ma’lumot berishi lozim. Shu bilan birga, guvohlar va jabrlanuvchilar atayin yolg‘on ko‘rsatma berish yoki ko‘rsatma berishdan bosh tortish uchun qonuniy javobgarlik borligi haqida ogohlantiriladi.

Eksperiment o‘tkaziladigan sharoit imkon qadar tekshirilayotgan hodisa yoki harakat yuz bergan asl muhitga yaqinlashtirilishi kerak. Tajribalar bir martadan ortiq, zarurat tug‘ilganda esa turli sharoitlarda qayta o‘tkazilishi mumkin. Tajriba boshlanishidan avval tekshirilayotgan holat tergov materiali va ko‘rsatmalarga to‘liq mos tarzda tiklanadi. Buning uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi yoki guvohlardan har biri o‘zi guvoh bo‘lgan yoki ishtirok etgan hodisaning vaziyatini qayta tiklab ko‘rsatishi so‘raladi. Ushbu qoidaga amal qilish eksperiment natijalarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlab, katta amaliy ahamiyatga ega.

Eksperiment davomida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, mutaxassis va ekspertga savollar berilishi mumkin. Sudning ruxsati bilan taraflar ham tajriba jarayonida ishtirokchilarga savol yo‘llash huquqiga ega. Taraflar va boshqa ishtirokchilar tergovchi, surishtiruvchi yoki sud e’tiborini ish holatini aniqlashga yordam beruvchi jihatlarga qaratish, tajriba sharoitini aniqlashtirish yoki uni qayta o‘tkazishni so‘rash huquqiga ega. Shuningdek, ko‘rsatuvi tekshirilayotgan shaxs eksperiment munosabati bilan o‘zining qo‘shimcha so‘roqqa tortilishini ham talab qilishi mumkin.

Tergov eksperimentini amalga oshirishda bir qator taktik usullardan foydalaniladi:

1. Muayyan tartib maromda tajribalar o‘tkazishi.

2. Zarur holalarda tajribalarni qayta-qayta o‘tkazish.

3. O‘zgargan va qayta tiklab bo‘lmaybigani sharoitlarni hisobga olish.

4. Zarur hollarda tajribalarni bosqichma-bosqich o‘tkazish.

5. Sharoit va vaziyatlarni o‘zgartirib ko‘rish (tezlikni, marom, masofa va hokazolarni o‘zgartirish).

6. Tajribalarni hodisa, fakt, voqea ro‘y bergan joydagi sharoitlarga juda o‘xshash bo‘lgan sharoitlarda o‘tkazish.

Tajribalarni bir xil yoki maxsus o‘zgartirilgan sharoitlarda qayta o‘tkazish alohida ahamiyatga ega. Birinchi holatda natijaga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tasodifiy omillar e’tiborga olinadi. Ikkinchi holatda esa, agar sharoit og‘irlashtirilgan bo‘lsa ham, natijaning o‘zgarmasligi uning ishonchliligini yanada oshiradi. Chunki tergov eksperimenti faqat bir necha marotaba takroriy tajribalar orqali olingan barqaror natijalar asosida ishonchli deb topiladi. Eksperiment o‘tkaziladigan joy, vaqt, ob-havo, yorug‘lik darajasi va boshqa sharoitlar oldindan hisobga olinadi. Vaziyatni qayta tiklashda ba’zi shaxslarning yashash joyi, ma’lum harakatlarni muayyan vaqtda bajarganligi inobatga olinadi, kerakli buyumlar o‘z joyiga qo‘yiladi, yo‘qolgan yoki shikastlangan narsalarning modellari tayyorlanadi. Eksperiment joyining xavfsizligini ta’minlash, tashqi aralashuvlarni oldini olish kabi chora-tadbirlar tezkor xodimlarga yuklatiladi.

Tajribalar davomida ayrim harakat yoki vaziyatlarni tiklash vazifasi ko‘rsatuvi tekshirilayotgan shaxsga topshiriladi. Agar bu shaxs turli sabablarga ko‘ra buni bajara olmasa, o‘rniga unga tashqi jihatdan o‘xshash boshqa shaxs jalb etiladi. Eksperimentni o‘tkazishda barcha taktik usullar amaldagi qonun talablariga to‘la rioya qilingan holda bajarilishi zarur. Jinoiy voqea holatlarini tajriba tariqasida tiklashda yaratilgan sun’iy vaziyat asl hodisadagi shart-sharoitga maksimal darajada o‘xshash bo‘lishi kerak.

Agar topshiriq olgan shaxs tajribaning ayrim jismoniy harakatlarini (masalan, balandlikdan sakrash yoki to‘siqdan o‘tish) bajara olmasa, bu

ishni bo‘yi, yoshi va gavdasi jihatidan o‘xshash boshqa kishi bajaradi. Tekshirilayotgan hodisalar bir necha marta turli ko‘rinishlarda sinab ko‘riladi – faqat shunda natijalar haqqoniy va xolisona bo‘ladi. Masalan, agar ko‘rish imkoniyati 200 metr masofada deb taxmin qilinsa, tajribalar 150, 200 va 250 metrda o‘tkazilib, natijalardan eng barqarori to‘g‘ri deb topiladi.

Eksperiment sharoitlari tekshirilayotgan voqea sodir bo‘lgan holatlarga imkon qadar yaqin bo‘lishi kerak. Tajribalar bir necha marta takroran o‘tkaziladi, ularning ayrim sharoitlari esa o‘zgartirilishi mumkin. Shu tamoyilga ko‘ra, tergovchi tajriba jarayonida ishtirokchilarning joyini o‘zgartirishi, harakatlarni turlicha variantlarda bajarishni so‘rashi va ular orasidan eng ko‘p takrorlangan, barqaror natijani asosiy deb tanlashi lozim.

Tekshirilayotgan holatlar, taxminlar va ko‘rsatuvlardagi ayrim dalillarni har tomonlama aniqlash maqsadida, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh va jabrlanuvchilarning har biriga o‘zi ishtirok etgan yoki guvoh bo‘lgan voqea holatini qayta tiklash topshiriladi. Tergovchi esa ushbu jarayonni nazorat qilib, tajriba harakatlarini amalga oshiradi. Agar tajribalar murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lsa, tergovchi ularni bir necha qismlarga ajratib, ma’lum ketma-ketlikda o‘tkazadi. Eksperimentning ayrim bosqichlari yoki qismlarini mustahkamlash maqsadida foto, video yoki kinotasvirga olish zarur bo‘ladi. Shu bilan birga, tajriba o‘tkazilgan joyning chizmasi, ishlatilgan qolip va nusxalar ham ushbu yozuvlarga ilova qilinadi.

Eksperiment jarayonida ko‘rsatuvlari tekshirilayotgan shaxslar yoki ayrim harakatlarni bajarayotgan qatnashuvchilarga savollar berilishi mumkin. Bu savollar tergovchi, mutaxassis yoki xolislar tomonidan berilib, tajriba o‘tkazishning shart-sharoitlariga, natijalariga yoki foydalanilayotgan texnik vositalarga taalluqli bo‘ladi. Eksperimentda ishtirok etayotgan shaxslar tergovchining ruxsati bilan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchilarga savollar berish, shuningdek tergovchining e’tiborini ish holatini aniqlashga yordam beradigan jihatlarga qaratish

hamda tajriba sharoitiga oydinlik kiritish huquqiga egadirlar. Shu bilan birga, ular tajribani yoki ayrim harakatlarni takrorlashni so‘rashlari ham mumkin. Bunday taklif va fikrlar, albatta eksperiment bayonnomasida qayd etilishi kerak.

Agar tajriba natijalari tekshirilayotgan ko‘rsatmalarga zid chiqsa, ya’ni harakat natijasi avvalgi ma’lumotlarni tasdiqlamasa, bu holda natija salbiy hisoblanadi va ko‘rsatuv noto‘g‘ri deb topiladi. Aksincha, tajribalar davomida olingan natijalar voqelikdagi holatlarni tasdiqlasa, demak, bu hodisalar real sharoitda sodir bo‘lgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Tergov eksperimenti jinoyat-protsessual qonun talablariga asoslangan holda o‘tkaziladi, shu bilan birga qo‘llaniladigan barcha taktik usullar ham qonun doirasidan chiqmasligi zarur. Eksperiment natijalari rasmiy tarzda hujjatlashtiriladi: bayonnomada o‘tkazilgan tajribaning sababi, kim tomonidan va qachon o‘tkazilgani, tekshiruv zarurati, joyi, vaqti hamda barcha ishtirokchilarning to‘liq ma’lumotlari kiritiladi. Bundan tashqari, guvoh va jabrlanuvchilarning ko‘rsatmalarini tekshirishdan oldin ular qasddan yolg‘on ma’lumot berish yoki ko‘rsatma berishdan bosh tortish oqibatlari haqida ogohlantirilgani va bu haqda imzo qo‘yganliklari bayonnomada aks ettiriladi.

Bayonnomaning bayonot (yoki tavsiflovchi) qismida quyidagi ma’lumotlar qayd etiladi:

- Eksperimentning o‘tkazilish tartibi, ya’ni tajribalar qanday sharoitda va qanday ketma-ketlikda amalga oshirilgani.
- Har bir tajriba davomida kimlar ishtirok etgani va ularning bajarilgan harakatlardagi roli.
- Tajribalarni o‘tkazish uchun foydalanilgan asbob-uskunalar, predmetlar, ularning joylashuvi va holati.
- Eksperiment o‘tkazilgan joy va sharoitlarning (ob-havo, yorug‘lik, masofa va hokazo) tavsifi.
- Tergovchi, mutaxassis, xolislar va boshqa ishtirokchilarning kuzatishlari, ularning bergan izohlari hamda zarur qo‘shimcha tushuntirishlari.

- Tajribalar natijasida olingan faktlar, aniqlangan o‘zgarishlar yoki mosliklar.
- Eksperiment jarayonida tushirilgan foto, video, chizma va boshqa ilova materiallarga havolalar.

Mazkur ma’lumotlar bayonnomaning asosiy qismi bo‘lib, tergov eksperimenti jarayonini to‘liq aks ettiradi va uning natijalarini ishonchli tarzda hujjatlashtirish imkonini beradi.

Tekshiruv jarayonida foydalanilgan kriminalistik texnika vositalari – ovoz yozuv qurilmalari, videotasvirga olish, kino va fotosuratga tushirish kabi usullar bayonnomaning ushbu qismida batafsil qayd etiladi. Shuningdek, eksperiment tajribalarini tashkil etish jarayonida tayyorlangan qoliplar (namunalar), mulajlar va modellar qanday maqsadda va qaysi usulda qo‘llanilgani ham alohida bayon qilinadi. Eksperiment natijasida tekshirilgan holat va vaziyatlar hamda ilgari surilgan taxmin yoki gumonlarning tasdiqlangani yoki rad etilgani ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, tekshiruv necha xil yo‘nalishda o‘tkazilgani, tajribalar qanday ketma-ketlikda amalga oshirilgani haqida ma’lumotlar ham bayonnomada to‘liq aks ettirilishi lozim. Shu tarzda bayonnoma tergov eksperimenti natijalarini aniq, ishonchli va huquqiy jihatdan to‘liq hujjatlashtiradi.

Bayonnomaning yakuniy qismida quyidagi ma’lumotlar, albatta aks ettirilishi zarur: tergov eksperimenti davomida olingan natijalar, tajribalar orqali tekshirilgan holatlarning tasdiqlangani yoki rad etilgani, shuningdek tergovchi tomonidan olingan xulosalar aniq bayon etiladi.

Unda eksperiment o‘tkazish jarayonida ishtirok etgan shaxslarning xolislar, mutaxassislar, guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar yoki ayblanuvchilarning fikr-mulohazalari, kuzatuvlar natijasida bildirilgan izohlar ham kiritilishi lozim. Yakunlovchi qismda, shuningdek bayonnoma o‘qib eshittirilgani, uning mazmuni barcha ishtirokchilar tomonidan tasdiqlangani va ular tomonidan imzo qo‘yilgani qayd etiladi. Agar kimdir imzo qo‘yishdan bosh tortgan bo‘lsa, buning sabablari ham alohida ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, eksperiment jarayonida qo‘llanilgan

texnik vositalar, chizmalar, fotosuratlar, videoyozuvlar, qoliplar hamda boshqa ilovalar ro‘yxati tuziladi va ular bayonnomaga biriktiriladi. Shuningdek, quyidagi ma’lumotlar ham bayonnomada o‘z aksini topishi lozim:

1) eksperimentda ishtirok etgan shaxslar tomonidan bildirilgan ariza, shikoyat, iltimosnoma va e’tirozlar;

2) tekshiruv uchun tayyorlangan buyumlarning individual belgilarini – shakli, rangi, o‘lchami va boshqa moddiy xususiyatlarini – ko‘rsatish;

3) eksperiment o‘tkazilgan joyning chizmasi, shuningdek undagi harakatlar va holatlar sxemalari;

4) bayonnoma bilan barcha ishtirokchilar tanishib chiqqanligi va bu holat ular tomonidan tasdiqlanganligi haqidagi ma’lumotlar.

Har bir navbatdagi tajriba varianti aynan shunday yoki o‘zgartirilgan sharoitlarda o‘tkazilgan bo‘lishi kerak, shuningdek bu o‘zgarishlar nimalardan iborat ekani – ya’ni sharoitlar murakkablashtirilganmi yoki soddalashtirilganmi – aniq tarzda qayd etilishi shart.

Tajriba natijalariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillar ham batafsil yozib borilishi shart. Masalan, avtomobil oldida to‘satdan to‘siq paydo bo‘lganida uni to‘xtatish imkoniyatini aniqlashga qaratilgan tergov eksperimenti jarayonida, haydovchi uchun piyoda maketining kutilmagan paydo bo‘lishi yoki aksincha, u mazkur yo‘l uchastkasida bunday holat yuz berishi ehtimolini oldindan bilganligi va bunga ruhiy tayyor bo‘lganligi qayd etilishi zarur.

Agar tajriba natijalariga bino yoki joyning tuzilishi, ishtirokchilarning o‘zaro joylashuvi, muayyan obyektlar yoki predmetlarning o‘rni sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, bunday holatlarni yanada aniq tasvirlash uchun sxemalar va rejalar tuzish tavsiya etiladi. Tajribalar o‘tkazilgan jarayon, ularning asosiy bosqichlari hamda olingan natijalar foto yoki videotasvirlar orqali qayd etilishi lozim. Shuningdek, o‘lchash ishlari, ovoz yozish, chizmalar chizish, eksperimental qolip va izlarning nusxalarini tayyorlash kabi qo‘shimcha texnik vositalardan ham foydalanish mumkin.

Eksperiment natijalarini ularning ishonchliligi va daliliy ahamiyati nuqtayi nazaridan baholash o‘ziga xos jihatlarga ega. Avvalo, tajribaning tashkil etilishi va o‘tkazilishi to‘g‘ri bajarilganiga ishonch hosil qilinadi. Shundan so‘ng tekshirilayotgan holat amalda yuz berishi mumkinligi yoki yo‘qligi aniqlanadi. Agar holatning yuz berish ehtimoli tasdiqlansa, bunday natija obyektiv ravishda aniqlangan daliliy fakt sifatida baholanadi. Ammo tajribani o‘tkazish davomida tergov eksperimentining taktik qoidalari buzilgan bo‘lsa, erishilgan natijalar daliliy kuchga ega hisoblanmaydi.

O‘tkazilgan eksperimentlar asosida beriladigan xulosalar ularning natijasiga ijobiy yoki salbiyligiga – bog‘liq tarzda shakllanadi. Agar tajriba tekshirilayotgan holatning haqiqatan ham mavjudligini isbotlasa, bunday holat ijobiy natija sifatida baholanadi. Aksincha, agar natija holatni inkor etsa, u holda bu salbiy natija bo‘lib, tekshirilayotgan holatning voqelikda mavjud bo‘lishi mumkin emasligini bildiradi. Tajriba natijasida holatning amalda yuz berishi mumkin emasligi aniqlansa, bu holat real hayotda mavjud bo‘lmaganligi haqida qat’iy xulosa chiqariladi. Masalan, agar ayblanuvchi ko‘rsatgan hajmdagi tovar-moddiy boyliklar ma’lum binoga sig‘masligi aniqlansa, demak yong‘in paytida u yerda ko‘rsatilgan miqdorda tovar-moddiy boyliklar bo‘lmagan, degan xulosa chiqariladi.

Ammo insonning ma’lum bir hodisani idrok etish yoki ma’lum harakatlarni bajarish qobiliyatini aniqlashga yo‘naltirilgan tergov eksperimenti natijalarini baholash ancha murakkab hisoblanadi. Sababi – tekshiruv ostidagi shaxsning individual psixologik xususiyatlari, ruhiy holati va diqqat darajasi kabi omillarni to‘liq nazorat qilish yoki hisobga olish amalda mumkin emas; shu omillar esa natijalarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli yuqori. Shuningdek, shaxs o‘z imkoniyatlarini ataylab to‘liq namoyon etmasligi yoki yolg‘on ko‘rsatma berishi ham ehtimoldan xoli emas. Shu bilan birga, salbiy natija ba’zan shaxsning hayajonlanishi, notanish sharoitda bo‘lishi yoki o‘z harakatlarini boshqara olmasligi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun bunday holatlarda

tajribaning salbiy natijasini mutlaq ishonchli deb baholash mumkin emas. Natijada, tekshirilayotgan voqeaning haqiqiyligi masalasi ochiq qoladi va uni aniqlash uchun qo‘shimcha tergov harakatlarini amalga oshirish zarur bo‘ladi.

Jinoyat hodisasining ayrim holatlarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan tergov eksperimenti natijalari ba’zan aniq, ba’zan esa turlicha talqin etilishi mumkin. Eksperiment jarayonida qo‘llanilgan kriminalistik texnika vositalari – masalan, videoyozuvlar, fotosuratlar, audioyozuvlar yoki chizmalar – bayonnomaga ilova qilinib, bu haqda alohida qayd kiritilishi zarur. Tergov harakatining o‘tishi va natijalarini hujjatlashtiruvchi asosiy rasmiy hujjat – bayonnoma – protsessual jihatdan dalil manbai sifatida e’tirof etiladi. U ayblov xulosasi hamda sud hukmiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli bayonnoma belgilangan talablarga to‘liq rioya qilinmagan holda tuzilgan bo‘lsa, u o‘z huquqiy kuchini yo‘qotadi va eksperimentning jarayoni hamda natijalari daliliy ahamiyatini boy beradi.

Tergov eksperimenti natijalarini baholash jarayoni jinoyat ishidagi boshqa dalillar bilan solishtirish, ularning o‘zaro bog‘liqligi va bir-birini to‘ldirishi asosida amalga oshiriladi. Dalillarni baholashning tartibi va prinsiplari qonun normalariga tayanadi hamda umumiy protsessual qoidalar asosida olib boriladi. Tergov eksperimenti natijalari ular tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi (salbiy) bo‘lishidan qat’i nazar dalil sifatida ahamiyat kasb etadi.

Agar eksperiment natijasi tekshirilayotgan hodisa yoki voqeani tasdiqlasa, bu holatda ko‘rsatuvda bayon etilgan dalillar haqiqatga yaqin deb hisoblanadi. Natijada, tergovchi jinoyatning mohiyatini yanada aniqroq anglab, keyingi tergov harakatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Aksincha, agar eksperiment davomida tekshirilayotgan holat va vaziyatlar tasdiqlanmasa, bu ko‘rsatuvda keltirilgan ma’lumotlar noto‘g‘ri yoritilganini yoki gumonning asossizligini ko‘rsatadi.

Tergov eksperimenti natijalari qanday turda bo‘lishidan qat’i nazar, ular qonunchilik talablariga muvofiq ravishda baholanib, jinoyat ishi materiallariga kiritilishi lozim. Shu bilan birga, sud jarayonida o‘tkazilgan tergov eksperimenti natijalari sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi va ular ham amaldagi protsessual qoidalar asosida baholanishi shart.

Hodisa joyini ko‘zdan kechirish taktikasi

Ko‘zdan kechirish – bu tergovchining jinoyat izlari va ashyoviy dalillarni aniqlash, tekshirilayotgan hodisaning sharoitlarini hamda voqea bilan bog‘liq boshqa jihatlarni o‘rganish maqsadida moddiy muhit obyektlarini bevosita kuzatish va tahlil qilish shaklidagi protsessual harakatidir.

Hodisa joyini ko‘zdan kechirishning asosiy vazifasi – jinoyat voqeasining holatlari, unga aloqador shaxslar va obyektlar, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda harakatlari haqida aniq, ishonchli faktik ma’lumotlarni protsessual tartibda to‘plashdan iboratdir.

Ushbu vazifani samarali bajarish uchun tergovchi quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

1. **Ko‘zdan kechirishga puxta tayyorgarlik ko‘rish** – hodisa joyi, sharoiti va ehtimoliy dalillar haqida dastlabki ma’lumotlarni yig‘ish, zarur texnik vositalar va mutaxassislarni jalb etish.
2. **Ko‘zdan kechirish jarayonini rejalashtirish** – joyni tekshirish ketma-ketligini, harakat yo‘nalishini va ishtirok etuvchi shaxslarning vazifalarini oldindan belgilab olish.
3. **Joydagi holatni o‘zgartirmaslik** – ashyoviy dalillar, izlar yoki predmetlarning tabiiy joylashuvini o‘zgartirmasdan kuzatish va protsessual tartibda qayd etish.
4. **Dalillarni aniqlash, mustahkamlash va hujjatlashtirish** – topilgan izlar, predmetlar, hujjatlar yoki boshqa obyektlarni belgilash, ularni to‘g‘ri tarzda qayd etish va rasmiylashtirish.

5. Foto, video va sxematik qaydlar yuritish – hodisa joyining umumiy manzarasi hamda muhim detallarini texnik vositalar yordamida hujjatlashtirish.

6. Kuzatuv natijalarini tahlil qilish – aniqlangan dalillar asosida voqea qanday kechgani, jinoyat qanday sharoitda sodir etilgani haqida dastlabki taxminlar ishlab chiqish.

7. Ko‘zdan kechirish bayonnomasini tuzish – barcha harakatlar, topilmalar va kuzatuv natijalarini protsessual talablar asosida hujjatlashtirish.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish jarayonida bajariladigan maxsus vazifalar:

a) voqea guvohlarini, ya’ni hodisa vaqtida shu yerda bo‘lgan shaxslarni aniqlash;

b) jinoyatchi foydalangan qurol va transport vositalarida qolgan izlarni aniqlash;

c) hodisa joyidagi obyektlar va jinoyat sodir etilgan paytda shu yerda bo‘lgan

shaxslar o‘rtasidagi aloqani aniqlash maqsadida tuproq, o‘simlik, suv va boshqa shunga o‘xshash namunalarni belgilash.

Ko‘zdan kechirishning umumiy va maxsus vazifalarini bajarish O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81 va 82-moddalarida belgilangan isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarni aniqlashga xizmat qilishi kerak. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **tajovuz sodir etilgan vaqt, joy va usul** – jinoyat qachon, qayerda va qanday tarzda sodir bo‘lganini aniqlash;
- **jinoyatni sodir etgan shaxsning aybdorligini tasdiqlovchi holatlar** – gumon qiluvchi yoki ayblanuvchining harakatlari, motivlari va jinoyatga aloqadorligini isbotlovchi dalillarni topish;
- **yetkazilgan zarar miqdori va turi** – moddiy yoki ma’naviy zarar hajmini aniqlash va buni tasdiqlovchi ashyoviy dalillarni qayd etish;

• **Boshqa muhim holatlar** – jinoyat sodir bo‘lishiga sabab bo‘lgan sharoitlar, qo‘llanilgan vositalar, jinoyatdan keyin amalga oshirilgan harakatlar va ularning izlarini aniqlash.

Ko‘zdan kechirishning turlari:

1. Hobisa sodir etilgan joyni ko‘zdan kechirish.
2. Tevarak-atrof va binolarni ko‘zdan kechirishi.
3. Tirik shaxslarni guvohlantirish.
4. Xatlangan pochta -telegraf xabarlarini ko‘zdan kechirishi.
5. Murdani ko‘zdan kechirish.
6. Narsa va hujjatlarni ko‘zdan kechirish.
7. Hayvonlar va ularning murdalarini ko‘zdan kechirish.
8. So‘zlashuvlarni nazorat qilish va yozib olish jarayonida o‘tkaziladigan aubioyozuv kassetalarini ko‘zdan kechirish.

Dastlabki ko‘zdan kechirish – bu hodisa joyini hamda u bilan bog‘liq shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi talablariga muvofiq tarzda ko‘zdan kechirish jarayonidir.

Takroriy ko‘zdan kechirish esa, agar dastlabki tekshiruv yetarli malaka bilan o‘tkazilmagan yoki kutilgan natijani bermagan hollarda amalga oshiriladi. Bu jarayonda barcha obyektlar va hodisa bilan bog‘liq sharoitlar yana bir bor, yanada sinchkovlik bilan o‘rganiladi.

Qo‘shimcha ko‘zdan kechirish – ilgari umuman tekshirilmagan yoki to‘liq tahlil qilinmagan ayrim obyektlar va sharoit elementlarini qayta ko‘rib chiqishni anglatadi. Bu holatda maxsus texnik va kriminalistik usul hamda vositalardan foydalaniladi.

Hodisa joyini ko‘zdan kechirish – bu shoshilinch tergov harakati bo‘lib, uning asosiy maqsadi hodisa sodir bo‘lgan joydagi sharoitlarni, izlar va predmetlarni, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda o‘ziga xos xususiyatlarini tergovchi tomonidan bevosita kuzatish, tahlil qilish va protsessual tartibda qayd etishdan iborat.

Mazkur turdagi ko‘zdan kechirish tergov harakatlarining eng murakkab, mehnat talab qiluvchi va samarali shakli hisoblanadi.

Ko‘pincha tergov jarayoni aynan hodisa joyini ko‘zdan kechirishdan boshlanadi.

Hodisa joyini tekshirish kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlaridan biri bo‘lib, bu jarayonda tergovchi voqea sodir bo‘lgan sharoitlarni o‘rganadi, keyinchalik dalil bo‘lishi mumkin bo‘lgan iz va predmetlarni topadi hamda ularni dastlabki tahlil qiladi. Bu tergovchiga voqeaning mohiyati haqida dastlabki tasavvur hosil qilish, jinoyatni sodir etgan shaxsni tezroq aniqlash va uni fosh etuvchi dalillarni yig‘ish imkonini beradi.

Shuningdek, tergovchi topilgan barcha predmet va izlarni shunday qayd etishi lozimki, keyinchalik jinoyat protsessida ishtirok etadigan boshqa shaxslar, jumladan sud a’zolari ham ko‘zdan kechirish natijasida olingan faktik ma’lumotlarning to‘liqligi va xolisligiga to‘liq ishonch hosil qilishi mumkin bo‘lsin.

Hodisa joyini ko‘zdan kechirishda amal qilinadigan asosiy **kriminalistik prinsiplarga** quyidagilar kiradi:

1. **O‘z vaqtida o‘tkazish prinsipi.**

2. Tergovchi hamda ko‘zdan kechirishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar hodisa haqida xabar olingach, imkon qadar tezda voqea joyiga chiqishlari va ko‘zdan kechirishni darhol amalga oshirishlari lozim. Har qanday kechikish salbiy oqibatlarga olib kelishi, natijada muhim izlar yoki ashyoviy dalillar tasodifan yoki ataylab yo‘q qilinishi mumkin.

3. **To‘liqlik prinsipi.**

4. Bu prinsip hodisa joyini har tomonlama va sinchkovlik bilan tekshirishni, jinoyatga daxldor bo‘lishi ehtimol tutilgan barcha obyekt va izlarni aniqlashni nazarda tutadi. Tergovchi buni samarali amalga oshirishi uchun o‘zini jinoyatchining o‘rniga qo‘yib, u qanday harakatlar orqali jinoyat natijasiga erishgan bo‘lishi mumkinligini tasavvur qilishi kerak. Aks holda, tergovchi joydagi har bir narsani ortiqcha tafsilotlar bilan tasvirlab, bayonnomani keraksiz ma’lumotlar bilan to‘ldirib yuborish xavfi tug‘iladi

Rejalilik prinsipi hodisa sodir bo‘lgan joyni oldindan ishlab chiqilgan aniq reja asosida, izchil va faol tarzda ko‘zdan kechirishni anglatadi.

Xolisonalik prinsipi esa tergovchidan hodisa joyida topilgan izlar va obyektlarni u ilgari ilgari surgan taxminlarni tasdiqlash yoki rad etishidan qat’i nazar, beg‘araz va bir yoqlamaliksiz tarzda o‘rganish hamda qayd etishni talab qiladi.

Hodisa joyini ko‘zdan kechirishga tayyorgarlik va uni o‘tkazish taktikasi.

Hodisa joyini ko‘zdan kechirishda tergovchi yuqori natijaga erishish uchun puxta tayyorgarlik ko‘rishi shart. Ushbu bosqichdagi tayyorgarlik keyinchalik tergov ishini muvaffaqiyatli yakunlash imkonini yaratadi.

Tayyorgarlik jarayoni odatda ikki bosqichni o‘z ichiga oladi:

1. **Birinchi bosqich** – hodisa joyiga yetib borgunga qadar tergovchining bajaradigan tayyorgarlik harakatlari;
2. **Ikkinchi bosqich** – hodisa joyiga yetib kelgandan so‘ng amalga oshiriladigan tayyorgarlik choralari.

Birinchi bosqichda tergovchi hodisa joyida ishlash jarayonini axborot-taktik va moddiy-texnik jihatdan ta’minlash choralarini ko‘radi. U hodisaning joyi, turi va sharoiti haqida imkon qadar to‘liq ma’lumot yig‘ishga intiladi. Shu bilan birga, voqeaning zararli oqibatlarini bartaraf etish, jabrlanuvchilarga zarur tibbiy yordam ko‘rsatish va jinoyat izlarining saqlanishini ta’minlash maqsadida hodisa joyini nazorat ostida qo‘riqlash choralarini amalga oshiradi.

Shundan so‘ng tergovchi ko‘zdan kechirish jarayonida qaysi mutaxassislarning ishtiroki zarur ekanligini aniqlaydi. U xizmat-qidiruv iti bilan kinolog, shuningdek boshqa tezkor xodimlarning jalb etilishi lozim yoki shart emasligini baholaydi.

Dastlabki ma’lumotlar tahlil qilinishidan so‘ng tergovchi kelgusida amalga oshiriladigan ko‘zdan kechirish rejasini ishlab chiqadi.

Unda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar, bajarilishi zarur vazifalar, ularni amalga oshirish uchun kerakli kuch va vositalar,

shuningdek qo‘llaniladigan texnik usullar hamda vositalar aniqlab olinadi.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bosqichlari

Hodisa joyini ko‘zdan kechirish, odatda uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi:

1. **Tayyorgarlik bosqichi** – hodisa joyiga borishdan avval hamda joyga yetib borgandan so‘ng bajariladigan tayyorgarlik harakatlari.
2. **Amaliy (tadqiqiy) bosqich** – bu jarayon umumiy (statik) ko‘zdan kechirish va keyinchalik dinamik ko‘zdan kechirish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.
3. **Yakuniy bosqich** – bunda bayonnoma tuzish, sxemalar va rejalarning chizilishi, shuningdek izlar hamda ashyoviy dalillarning rasmiy tarzda olinishi amalga oshiriladi.

Tayyorgarlik bosqichida tergovchining harakatlari

Tergovchi birinchi bosqichda quyidagi ishlarni bajaradi:

- **Jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish** choralarini ko‘radi hamda hodisa joyida tartibni o‘rnatish masalasini hal etadi.
- Agar **voqeaga zudlik bilan yetib borish zarur bo‘lsa**, tergovchi ichki ishlar organlariga hodisa joyiga tezda chiqish haqida xabar beradi.
- **Masofa uzoqligi yoki transport vositasi yo‘qligi** tufayli tergovchi hodisa joyiga o‘z vaqtida yetib borolmasa, u mavjud xodimlarga zarur ko‘rsatmalar beradi.
- **Hodisa joyini qo‘riqlashni tashkil etadi**, ya’ni begona shaxslarning joyga kirishiga yo‘l qo‘ymaydi, ashyoviy dalillar va izlarning saqlanishini ta’minlaydi.
- Hodisa joyida topilgan izlarning qayd etilishiga ta’sir ko‘rsatadigan **muhim holatlarni aniqlaydi**, hodisa paytida u yerda bo‘lgan shaxslarni topadi va ular orqali tergovchi yetib kelgunga qadar sodir bo‘lgan voqealarni aniqlaydi.
- Agar tergovchi jinoyat haqida xabar bilan birga **jinoyatni sodir etgan shaxs to‘g‘risida ma’lumot** olgan bo‘lsa, darhol ichki ishlar organlari xodimlariga uni qidirish va ushlash haqida topshiriq beradi.

Tergov chamadonining to‘liq va to‘g‘ri jihozlanganligini tekshiradi – unda zarur barcha asbob-uskunalar mavjudligini nazorat qiladi. Zarurat tug‘ilganda, masalan, metall buyumlarni aniqlash uchun mo‘ljallangan qidiruv-texnik vositalarni tayyorlash choralarini ko‘radi.

Hodisa joyiga chiqishdan oldin murdani o‘likxonaga yetkazish, shuningdek topilgan buyumlar va ashyoviy dalillarni olib chiqish uchun zarur transport vositalarini ta’minlash va bu ishlarni prokuratura hamda ichki ishlar bo‘linmalari bilan muvofiqlashtirish tashkil etiladi.

Tergovchi hodisa joyiga yetib borgunga qadar boshqa zarur tayyorgarlik ishlarini ham amalga oshiradi. Hududga yetib kelgach, ko‘zdan kechirishni boshlashdan oldin yana bir qator tayyorgarlik choralari bajarilishi lozim.

Hodisa joyida ayblanuvchi yoki gumon qiluvchi kutilmaganda paydo bo‘lishi va ular tomonidan hujum xavfi yuzaga kelishini oldini olish choralariga alohida e’tibor qaratiladi.

Tergov chamadoni bir nechta bo‘limdan iborat:

Birinchi bo‘lim izlarni aniqlash va ular bilan ishlashga mo‘ljallangan bo‘lib, barmoq, oyoq, transport vositalari g‘ildiraklari va buzish qurollaridan qolgan izlarni topish, qayd etish va saqlashda ishlatiladigan asbob-uskunalarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu bo‘limda turli xil poroshok (kukun)lar, silikon pastasi, K-18 vositasi, daktiloplyonkalar, gips va daktiloskopik cho‘tka kabi texnik jihozlar mavjud bo‘ladi.

Ikkinchi bo‘lim bayonnoma tuzish hamda hodisa joyining sxemasi yoki rejasini chizish uchun zarur bo‘lgan yozuv va chizmachilik vositalari bilan jihozlanadi.

Uchinchi bo‘lim esa hodisa joyidan topilgan ashyoviy dalillarni o‘lchash va fotosuratga olish uchun ishlatiladigan vositalardan iborat.

To‘rtinchi bo‘limda esa ashyoviy dalillarni izlab topish uchun mo‘ljallangan maxsus asbob-uskunalar joylashgan bo‘lib, ular orasida metall buyumlarni aniqlovchi qurilmalar, yerga ko‘milgan jasadlarni

topish uchun mo‘ljallangan texnik vositalar, tok kuchlanishini o‘lchovchi indikator va shunga o‘xshash jihozlar mavjud.

Tergov chamadonida jamlangan bunday texnik vositalar hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish jarayonida ashyoviy dalillarni aniqlash va olishda keng imkoniyat yaratadi.

Hodisa joyiga yetib kelgan tergovchi, birinchi navbatda, voqea natijasida yuzaga kelgan zararli holatlar bartaraf etilganini va jabrlanuvchiga zarur tibbiy yordam ko‘rsatilganini tekshirishi zarur. Zarurat tug‘ilsa, u hodisa joyini himoya qilish, daliliy izlarni saqlash hamda shubhali shaxslarni aniqlash uchun qo‘shimcha choralarni amalga oshiradi.

Ko‘zdan kechirishni boshlashdan oldin tergovchi ichki ishlar organi xodimlari, guvohlar va hodisani birinchi bo‘lib aniqlagan shaxslardan voqea tafsilotlarini, kimlarning unga aloqador bo‘lishi mumkinligini hamda aybdorni aniqlash, qidirish va qo‘lga olish maqsadida ko‘rilgan choralar haqida ma’lumot oladi.

Shuningdek, jabrlanuvchiga yordam ko‘rsatish yoki hodisaning oqibatlarini bartaraf etish chog‘ida joyda qanday o‘zgarishlar bo‘lgani ham aniqlanadi – bu ma’lumotlar keyinchalik ko‘zdan kechirish davomida inobatga olinadi.

Guvoh-shohidlar va boshqa shaxslar bilan suhbatlar alohida tarzda o‘tkazilib, ularning bergan ma’lumotlari diktofon yordamida qayd etiladi. Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishda ko‘plab ishtirokchilar qatnashishi mumkin, biroq jarayon uchun to‘liq mas’uliyat tergovchining zimmasida bo‘ladi. Ularning hech biri tergovchining ruxsatisiz joyda harakatlanish yoki biror ish bajarish huquqiga ega emas.

Umumiy ko‘zdan kechirish jarayonida tergovchi quyidagi muhim savollarga dastlabki javoblarni aniqlashi mumkin: voqealar rivojini qayerdan kuzatish mumkin bo‘lgan, jabrlanuvchi yoki jinoyatchining ovozi eshitilgan bo‘lishi ehtimoli bormi, jinoyatchi joyga yashirin tarzda kirgan yoki chiqib ketganmi, hodisa joyidan tashqarida unga oid izlar qolgan bo‘lishi mumkinmi va shu kabi masalalar.

Ushbu bosqichda qo‘shni hududlarni tekshirish hamda aybdorni tezkor ta’qib qilish maqsadida xizmat itini ishlatishning maqbul yoki zarur ekanligi aniqlanishi mumkin.

Amaliyotda hodisa sodir bo‘lgan hudud bo‘ylab harakatlanishning uch asosiy usuli qo‘llaniladi:

1. **Ekssentrik** – tergovchi markazdan tashqariga qarab spiral bo‘ylab harakat qiladi.
2. **Konsentrik** – chetdan markazga qarab spiral shaklida harakatlanish.
3. **Frontal** – hodisa joyini bir chetidan ikkinchi chetigacha to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tekshirish.

Mufassal ko‘zdan kechirish jarayonida statik va dinamik bosqichlar ajralib turadi. Statik bosqichda hodisa sodir bo‘lgan joy uning tekshiruv boshlanganda bo‘lgan holatida ko‘zdan kechiriladi. Bu bosqichda o‘rganish, asosan vizual usul orqali amalga oshiriladi va obyektlar o‘z joyidan siljitilmaydi. Agar bu paytda tergovchining ilgari bildirgan taxminlariga o‘zgartirish kiritish zarur bo‘lsa yoki jinoyatchi tomonidan joyning ataylab o‘zgartirilgani (soxtalashtirilgani) aniqlansa, buning sabablari aniqlanadi. Bunday vaziyatlar odatda jinoyatchining tergovni chalg‘itish, tergov yo‘nalishini noto‘g‘ri tomonga burish yoki jinoyatning o‘z vaqtida aniqlanishini oldini olish maqsadida voqea joyini sun’iy ravishda o‘zgartirgani haqida gumon uyg‘otadi.

Soxtalashtirishning eng ko‘p uchraydigan turlari quyidagilar:

1) bir jinoyatni nisbatan yengilroq jinoyat niqobi ostida yashirish;

2) sodir etilgan jinoyatga baxtsiz hodisa tusini berish;

3) sodir etilgan jinoyatning ayrim jihatlarini boshqa shaxs, boshqa joy, boshqa vaqt va boshqa motivlarga bog‘lab yashirish;

4) shaxsning axloqiy buzuqlik faktlarini unga qarshi sodir etilgan jinoyat niqobi ostida yashirish (masalan, pulni yo‘qotish yoki rastrata faktlarini yashirish maqsadida unga nisbatan talonchilik jinoyatini sahnalashtirish).

Amaliyotdan ma’lumki, ayrim ashyoviy dalillarni, xususan hujjatlarni, infraqizil va ultrabinafsha singari ko‘zga ko‘rinmas nurlar yordamida kriminalistik tekshiruvda aniqlash katta daliliy ahamiyatga ega. Qon qoldiqlari, inson organizmidan chiqadigan moddalar hamda murdada qolgan turli izlar jinoyat ishlarida ashyoviy dalil sifatida qo‘llaniladi. Bugungi kunda bunday izlar fizik, kimyoviy, biologik va texnik metodlar bilan o‘rganilib, masalan, qotillik holatlarini o‘z vaqtida aniqlash va tanadagi jarohatlarning darajasini aniqlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Shuni hisobga olish kerakki, ko‘zga ko‘rinmas barmoq izlari vaqt o‘tishi bilan yo‘qolib ketishi mumkin; shunday vaqtlarda oddiy poroshoklar yoki yod bug‘lari bilan ularni qidirish qiyinchilik tug‘diradi. Bunday sharoitlarda barmoq izlarini aniqlash va qayd etishda auditografik (radioaktiv suyuqlik asosidagi) usul samarali hisoblanadi. Ushbu texnikada gumon qilingan predmet radioaktiv eritma bilan ishlanadi: eritma barmoq izi mavjud bo‘lgan joyga kuchliroq yopishadi, ortiqcha suyuqlik yuvib tashlanganidan so‘ng esa qolgan iz rentgen plyonkasiga ko‘chiriladi va shu tariqa tasdiqlanadi.

Hozirgi kunda izlarni aniqlash va nusxa olishda turli poroshoklar, gips, plastilin va boshqa vositalar keng qo‘llaniladi. Biroq ular botiq izlarning mikrorelyefini aniq va to‘liq aks ettirishda yetarlicha samarali emas. Shu sababli bunday hollarda keng tarqalgan vosita – «K-18» silikon pastasi hisoblanadi. «K-18» yordamida har qanday noqulay yuzadan ham izdan sifatli nusxa olish mumkin: pasta iz ustiga quyilib qotgach, uni ehtiyotlik bilan olib olinadi. Agar nusxa eshik yoki devor kabi vertikal yuzadan olinishi kerak bo‘lsa, pastani biroz qalinroq konsistensiyada tayyorlash maqsadga muvofiq – chunki u tik turgan obyektda yaxshi yopishishi talab etiladi.

Hodisa joyida transport vositalaridan qolgan izlarni diqqat bilan tekshirish zarur. Eng mayda ashyoviy dalillar ham e’tibordan chetda qolmasligi shart. Masalan, hodisa joyidan topilgan avtomobildan tushib qolgan bir tomchi moyni emisson spektral tahlil orqali o‘rganish orqali,

mazkur moy qaysi transport qismiga mansub ekanligi hamda taxminan shu moy bilan qaysi masofani bosib o‘tganligi aniqlanishi mumkin.

So‘roq jarayonida tergovchi haqiqatni aniqlashga xizmat qiladigan qulay psixologik muhit yaratishga intilishi lozim. U gumon qilinuvchi va uning himoyachisiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, ularning pozitsiyasi hamda himoya taktikasini tushunishga harakat qilishi zarur. Agar advokat gumon qilinuvchining ko‘rsatma berishdan bosh tortish qarorini qo‘llab-quvvatlayotgan bo‘lsa, tergovchi unga bunday holatning salbiy oqibatlarini tushuntirib berishi kerak. Shuningdek, gumon qilinuvchi o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilishga haqli ekanligi, sukut saqlashdan ko‘ra, ochiq ko‘rsatma berish ko‘proq foyda keltirishi mumkinligi unga izohlanadi.

Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini so‘roq qilishning samaradorligi ko‘p jihatdan tergovchining to‘g‘ri tanlagan taktik yondashuviga va uni amalda to‘g‘ri qo‘llashiga bog‘liqdir. Agar so‘roq jarayoni nisbatan tinch, mojarosiz sharoitda o‘tsa va so‘roq qilinuvchi o‘z aybini tan olsa, tergovchi asosiy e’tiborini jinoyatning barcha tafsilotlarini imkon qadar to‘liq yoritishga qaratishi lozim.

Shu bilan birga, tergovchi doimo gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining o‘z aybini kamaytirib ko‘rsatishga, javobgarlikni sheriklariga yoki jabrlanuvchiga yuklashga, o‘zini esa voqea qurboni sifatida tasvirlashga urinish ehtimolini inobatga olishi kerak.

Ba’zan so‘roq qilinuvchi o‘ziga yaqin shaxsni himoya qilish maqsadida uning aybini o‘z zimmasiga olish holatlari ham uchraydi. Bunday holatlar, tabiiy ravishda, so‘roq jarayonida nizoli vaziyatlarning kelib chiqishiga olib keladi. Shu sababli tergovchi so‘roq qilinuvchining e’tiborini uning ko‘rsatmalaridagi zid yoki shubhali jihatlarga darhol qaratmasligi kerak, chunki bu har doim ham kutilgan natijani bermaydi.

Shuningdek, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining ko‘rsatmalarida uchraydigan yolg‘on tafsilotlar ba’zi hollarda o‘z-o‘ziga tuhmat qilish holati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ham yodda tutish zarur. O‘ziga tuhmat qilishning ildizida ko‘pincha shaxsning ruhiy holati yoki muayyan xarakter xususiyatlari yotadi.

Soxta iqrorda keltirilgan ma’lumotlar odatda tergovchiga ilgari ma’lum bo‘lgan ayrim tafsilotlardan nariga o‘tmaydi. Bunday holatlarda ko‘pincha gumon qilinuvchi o‘z aybini tan olganini, tergovga yordam berishga tayyorligini bildiruvchi ariza shaklida bayonot beradi.

So‘roq qilinuvchi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish jarayonida tergovchi bir qator muhim usullardan foydalanadi.

Avvalo, u berilgan ko‘rsatmalarni jinoyat ishidagi boshqa dalillar – guvohlarning so‘zlari, moddiy ashyolar, hujjatlar va ekspertiza xulosalari bilan solishtiradi. Ma’lumotlarning o‘zaro mos yoki zid jihatlarini tahlil qilish orqali ularning haqiqatga yaqinlik darajasi aniqlanadi.

Shuningdek, so‘roq davomida tergovchi qo‘shimcha savollar berib, ko‘rsatmalardagi tafsilotlarni aniqlashtiradi. Bu savollar orqali so‘roq qilinuvchining hikoyasidagi ichki izchillik, mantiqiylik va voqealar ketma-ketligi baholanadi.

Ba’zan ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish uchun tergovchi hodisa joyini ko‘zdan kechiradi, qayta so‘roq o‘tkazadi yoki boshqa shaxslarning ko‘rsatmalari bilan solishtiradi. Zarurat tug‘ilganda eksperiment yoki rekonstruksiya o‘tkazish ham mumkin.

Shu tarzda, so‘roq qilinuvchi bergan ma’lumotlarning ishonchliligi faqat uning og‘zaki ko‘rsatuvi bilan emas, balki ularni dalillar tizimida tahlil qilish va amalda tekshirish orqali aniqlanadi.

O‘z-o‘ziga tuhmat holatini aniqlash jarayonida so‘roq qilinuvchining ko‘rsatmalarini jinoyat sodir etilgan joyda tekshirib ko‘rish hamda ularni boshqa dalillar bilan puxta taqqoslash muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunday usullar ko‘pincha haqiqatni aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Nizoli holatlarda tergovchi so‘roq qilinuvchiga o‘z fikrlarini erkin bayon etish imkonini berishi bilan birga, u bilan psixologik aloqa o‘rnatishga intilishi lozim. Shu jarayonda so‘roq qilinuvchining shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish, tergov uchun ahamiyatli barcha jihatlar bo‘yicha imkon qadar to‘liq ko‘rsatmalar olish muhimdir.

Bu turdagi vaziyatlar, odatda gumon qilinuvchini ilk marotaba so‘roq qilish paytida yuzaga keladi. Odatda, u jinoyatga aloqadorligini inkor etadi, tergovchining esa bu bosqichda uning aybini aniq isbotlaydigan dalillari yetarli bo‘lmaydi. Shuning uchun birinchi so‘roq ko‘proq razvedka xarakteriga ega bo‘lib, unda tergovchi gumon qilinuvchining shaxsini, fikrlarini, dalillarini va u yetkazmoqchi bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlashga harakat qiladi.

So‘roq qilinuvchining jinoyatga aloqadorligi ba’zan uning ayrim faktlarni yashirishidan yoki bilib-bilmay jinoyat tafsilotlariga oid ma’lumotlarni tilga olishidan bilinadi. Masalan, u jabrlanuvchini tan olmasligini aytsa-da, uning o‘ziga xos belgilarini eslatib o‘tishi, aslida hodisadan xabardor ekanidan dalolat beradi.

Shuningdek, gumon qilinuvchilar so‘roq davomida o‘zlarini oqlashga urinib, so‘zlarida turli zidliklarga yo‘l qo‘yishlari mumkin. Masalan, ular jinoyat sodir etilgan vaqtda boshqa joyda bo‘lganini aytishadi, biroq bu joy haqida aytilgan tafsilotlar haqiqatga to‘g‘ri kelmasligi orqali ularning so‘zlari inkor etiladi. Masalan, so‘roq qilinuvchi o‘sha paytda kinoteatrda bo‘lganini aytadi, ammo tergovda aniqlanishicha, o‘sha vaqtda u yerda boshqa film namoyish etilgan yoki diskotekada u eshitmagan favqulodda voqea sodir bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Shu tariqa, puxta va tahliliy so‘roq jarayoni gumon qilinuvchining ko‘rsatmalaridagi mantiqiy nomuvofiqliklarni aniqlash hamda uning jinoyatga aloqadorligini ishonchli tarzda aniqlash imkonini beradi.

Ayblanuvchini so‘roq qilish tergovchi tomonidan ayblov e’lon qilingach va uning jinoyat sodir etishdagi ishtirokini tasdiqlovchi yetarli dalillar mavjud bo‘lganda amalga oshiriladi. Agar mavjud dalillar tizimida ayrim bo‘shliqlar yoki o‘zaro qarama-qarshiliklar aniqlansa, bu holat tergovchi uchun vaziyatni murakkablashtiradi. Bunday sharoitda so‘roqni dalillarni darhol ochib bermasdan o‘tkazish, ya’ni jinoyat holatlari va tafsilotlarini tergovchi yaxshi bilishini anglatadigan savollar orqali olib borish taktik jihatdan to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi.

Tergovchining bunday xabardorligi, odatda hodisa sodir bo‘lgan joydagi sharoitni tahlil qilish natijalariga, guvohlar, jabrlanuvchilar va shohidlarning ko‘rsatmalariga, shuningdek ayblanuvchining jinoyat sodir etilishidan avvalgi va keyingi xatti-harakatlari haqidagi ma’lumotlarga asoslanadi.

So‘roq jarayonida mavjud dalillarning psixologik ta’sir kuchidan oqilona foydalanish ham muhimdir. Ularni shunday tarzda taqdim etish kerakki, ayblanuvchida tergovchi uning barcha harakatlaridan xabardorligi va aybi baribir isbotlanishi muqarrarligi haqida ichki ishonch paydo bo‘lsin.

Jinoyatchilar ko‘pincha o‘z aybini to‘liq tan olishdan qochib, uni qisman bo‘yniga olish yoki javobgarlikdan butunlay qutulishga urinadilar. Shu bois, tergovchining asosiy vazifasi – har bir ayblanuvchining psixologik xususiyatlarini inobatga olib, eng samarali taktik usullarni qo‘llash orqali to‘liq va ishonchli ko‘rsatma olishdan iboratdir.

Ayblanuvchini so‘roq qilishdan avval tergovchi jinoyat ishini yana bir bor diqqat bilan o‘rganib chiqishi, kerakli joylardan hujjatlarni ajratib olish va zarur yozma izohlarni tayyorlab qo‘yishi lozim, chunki ular so‘roq jarayonida foydali bo‘lishi mumkin. Savollarni tuzishda esa ayblanuvchining mumkin bo‘lgan javoblarini oldindan taxmin qilish, turli javob variantlariga tayyor bo‘lish zarur.

So‘roq faqat ayblanuvchi ayb e’lon qilish to‘g‘risidagi qaror bilan tanishganidan keyin o‘tkaziladi. Jinoyat ishining xarakteriga qarab, ushbu qarorda ayblash uchun umumiy huquqiy asoslarni keltirishning o‘zi kifoya bo‘lishi mumkin. Ba’zan dalil manbalarini ko‘rsatish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi, biroq ayrim faktlar yoki ashyoviy dalillarni darhol oshkor etmaslik kerak, chunki ular so‘roqning keyingi bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

So‘roqning samarali o‘tishi va yaxshi natija berishi uchun tergovchi, avvalo ayblanuvchining shaxsiga oid barcha jihatlarni chuqur o‘rganib chiqishi zarur. Ayblanuvchini tavsiflovchi xususiyatlarga uning kasbiy faoliyati, yashash tarzi, ijtimoiy aloqalari hamda atrofidagi tanish-bilishlari bilan munosabatlari kiradi. Bu ma’lumotlarni tezkor tadbirlar yoki guvohlarni so‘roq qilish orqali aniqlash mumkin. Ushbu ma’lumotlar so‘roq jarayonida ayblanuvchining yolg‘on ko‘rsatmalarini aniqlash va fosh etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar so‘roq takroran o‘tkazilayotgan bo‘lsa, unga ham jiddiy tayyorgarlik zarur. Bunda tergovchi avvalgi so‘roq bayonnomasini tahlil qilib, undagi kamchiliklarni, aniqlanmay qolgan fakt va holatlarni, shuningdek yangi berilishi lozim bo‘lgan savollarni belgilab oladi.

Qonunchilikka muvofiq, ayblanuvchining ko‘rsatma berishi ixtiyoriydir. U ko‘rsatma berishdan bosh tortgani yoki noto‘g‘ri ma’lumot bergani uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Shu bilan birga, ayblanuvchidan ko‘rsatma olishda uni qo‘rqitish, aldash, bosim o‘tkazish yoki yolg‘on va’dalar berish qat’iyan man etiladi, chunki bunday harakatlar qonunga zid hisoblanadi.

Ayblanuvchini so‘roq qilish jarayoni guvohni so‘roq qilish tartibiga o‘xshash bo‘lib, uch bosqichdan iborat. Dastlabki bosqichda ayblanuvchining shaxsi aniqlanadi. Bu nafaqat tergov uchun zarur ehtiyot chorasini tanlash, balki turli kutilmagan holatlarning oldini olishda ham muhimdir.

Agar ayblanuvchi ozodlikda bo‘lsa, u holda tergovchi uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini tekshiradi va undagi ma’lumotlarni so‘roq

davomida olgan javoblar bilan solishtiradi. Qamoqda saqlanayotgan ayblanuvchi bo‘lsa, uning hujjatlari jinoyat ishiga ilova qilinadi va tergovchi ularni oldindan ko‘zdan kechirish imkoniga ega bo‘ladi.

Anketa ma’lumotlari aniqlangach, tergovchi ayblanuvchini ayb e’lon qilish haqidagi qaror bilan tanishtiradi, zarur hollarda esa ayblovning mazmuni va mohiyatini batafsil tushuntiradi. Shu bilan birga, tergovchi protsessual qonunga asosan ayblanuvchining barcha protsessual huquqlarini ham unga tushuntirishi shart.

So‘roqning ikkinchi qismi – bu **ayblanuvchining tushuntirishini eshitish** jarayonidir. Ushbu bosqichda tergovchi quyidagi **taktik qoidalarga** amal qilishi lozim:

1. **Erkin bayon qilish imkoniyatini berish.** Ayblanuvchiga o‘z fikrini bemalol, uzil-kesil savolsiz bayon etish imkonini yaratish zarur.
2. **To‘xtatmaslik va aralashmaslik.** Ayblanuvchining so‘zini bo‘lmaslik, uni erkin fikrlashga undash muhimdir.
3. **Diqqat bilan tinglash.** Tergovchi ayblanuvchining har bir so‘zini e’tibor bilan tinglashi, muhim tafsilotlarni qayd etib borishi kerak.
4. **Aniqlashtiruvchi savollar berish.** Bayon tugagach, zarur hollarda noaniq yoki muhim jihatlarni aniqlashtirish uchun savollar beriladi.
5. **Ziddiyatlarni aniqlash.** Tergovchi ayblanuvchining ko‘rsatmalarini ilgari to‘plangan dalillar bilan solishtirib, mavjud tafovutlarni aniqlaydi.
6. **Tinch muhit yaratish.** So‘roq paytida psixologik bosim o‘tkazish, tahdid qilish yoki ayblanuvchini qo‘rqitish qat’iyan man etiladi.
7. **Bayonning izchilligiga e’tibor.** Ayblanuvchining hikoyasi mantiqan to‘g‘ri, voqealar ketma-ketligida bo‘lishi kerak.
8. **Emotsional holatni baholash.** Tergovchi ayblanuvchining hissiy reaksiyalarini kuzatib, ularning samimiyligini tahlil qilishi lozim.

So‘roqning **uchinchi qismi** – bu **ayblanuvchiga savollar berish va uning javobini olish jarayoni** bo‘lib, u tergov jarayonining eng **murakkab va mas’uliyatli bosqichi** hisoblanadi. Ushbu bosqich

tergovchidan nafaqat **yuqori malaka va tajriba**, balki **mantiqiy fikrlash, psixologik sezgirlik** hamda **kommunikativ mahoratni** talab qiladi.

Ayblanuvchiga beriladigan savollar, odatda **uch turga bo‘linadi**:

1. To‘ldiruvchi savollar – ayblanuvchining ilgari bergan ko‘rsatmalarini kengaytirish, voqea tafsilotlarini to‘ldirish, muhim, ammo e’tibordan chetda qolgan jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

2. Aniqlovchi savollar – bayon etilgan ma’lumotlardagi noaniqliklarni, chalkashliklarni yoki qarama-qarshiliklarni oydinlashtirish uchun beriladi.

3. Tekshiruvchi savollar – ayblanuvchining ko‘rsatmasini oldingi dalillar, guvohlarning so‘zlari yoki ekspert xulosalari bilan solishtirish, uning bayonotining to‘g‘riligini tekshirishga qaratiladi.

Ushbu turdagi savollar quyidagi **masalalarni hal etishga** imkon beradi:

- ayblanuvchining ko‘rsatmasini to‘liq va aniq shakllantirish;
- uning bayonotini dalillar bilan taqqoslash;
- mavjud qarama-qarshiliklarni bartaraf etish;
- ayblanuvchining voqeaga munosabatini, psixologik holatini aniqlash;
- tergov yo‘nalishini to‘g‘ri belgilash va haqiqatni aniqlashga erishish.

So‘roq jarayonida foydalaniladigan dalillar oldindan tekshirilgan, aniq va ishonchli bo‘lishi zarur. Tergovchi o‘zida mavjud barcha dalillarni ayblanuvchiga darhol oshkor qilmasligi mumkin. Biroq u yolg‘on bayonot berayotgan shaxsning so‘zlari haqiqatdan qanchalik uzoq ekanini ko‘rsatuvchi faktlarni o‘z o‘rnida keltirib, ayblanuvchini to‘g‘ri ko‘rsatma berishga undashi kerak.

Ba’zi ayblanuvchilar so‘roqdan avval gapiradigan mavzularini oldindan o‘ylab, tayyorlab keladilar. Shunday hollarda tergovchi savol-javob bosqichida kutilmagan savol berib, aniqlangan biror voqeani qanday tushuntirishini so‘rasa, ayblanuvchi javob topishda qiynaladi va haqiqatni yashirib bo‘lmasligini anglaydi.

Ba’zi hollarda jinoyat ishining turi va sharoitidan kelib chiqib, tergovchi ayblanuvchining ruhiy holatini hisobga olgan holda jinoyatning qanday sodir etilgani, nimalar topilgani va asosiy voqea-holatlarning qanday kechgani haqida qisqacha ma’lumot berishi mumkin. Bunda so‘roq qilinayotgan shaxs tergovchiga barcha voqealar ma’lumligini sezib, rost gapirish zarurligiga ishonch hosil qiladi.

Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga beriladigan savollar mantiqiy ketma-ketlikda tuzilishi, umumiy holatdan boshlab, asta-sekin alohida masalalarga o‘tib borishi lozim. Savollar avvaldan rejalashtirilib, jinoyatning ayrim jihatlarini yoritishga xizmat qilishi hamda so‘roq davomida o‘z vaqtida va o‘z o‘rnida qo‘llanilishi tergov samaradorligini oshiradi.

Yuzlashtirib so‘roq qilish tartibi

Yuzlashtirish jarayoni va uning ahamiyati

Tergov amaliyotida **yuzlashtirish** deb ilgari so‘roq qilingan ikki shaxsni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib, ularni takroran so‘roq qilish jarayoniga aytiladi. Ushbu tergov harakati ikki guvoh, ikki ayblanuvchi, shuningdek jabrlanuvchi bilan guvoh yoki ayblanuvchi o‘rtasida o‘tkazilishi mumkin.

Yuzlashtirishning asosiy maqsadi – **jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchilarning ko‘rsatmalarida mavjud bo‘lgan jiddiy qarama-qarshiliklar** va **kelishmovchiliklarni bartaraf etishdir**. Agar bu ziddiyatlarni yuzlashtirish orqali hal etishning imkoni bo‘lmasa, masala ekspertiza, tanib olish uchun taqdim etish yoki boshqa tergov harakatlari orqali aniqlanadi. Shunday holatlarda yuzlashtirish o‘tkazish zarurati qolmaydi.

Ba’zi ma’lumotlar, masalan voqea vaqti, kuni yoki soati haqidagi axborotlarni tegishli tashkilotlardan yoki mas’ul xodimlardan olish mumkin. Shu sababli yuzlashtirish faqat **zarur holatlarda** amalga oshiriladi. Ushbu jarayonning afzalligi shundaki, yuzlashtirishda ishtirok etayotgan shaxslar o‘zlarining ilgari bergan noto‘g‘ri ko‘rsatmalarini

qayta ko‘rib chiqib, **to‘g‘ri ma’lumot berishga** moyil bo‘ladilar. Ba’zan ular unutgan ayrim faktlarni eslab qolishlari yoki ishga aloqador yangi ma’lumotlarni taqdim etishlari ham mumkin.

Amaliyotda shunday holatlar uchraydiki, yuzlashtirish chog‘ida so‘roq qilinuvchilardan biri avvalgi bayonotidan voz kechadi, yangi voqealar yoki faktlarni o‘ylab topadi va shu tariqa o‘zining **oldingi yolg‘on ko‘rsatma berganini** oshkor etib qo‘yadi. Bunday hollarda ushbu shaxsni yuzlashtirishdan keyin yana bir bor so‘roqdan o‘tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuzlashtirish tartibi quyidagicha tashkil etiladi: agar yuzlashtirilayotgan shaxslar guvoh bo‘lsa, ularga oldindan **yolg‘on ko‘rsatma berish yoki javob berishdan bosh tortish** uchun jinoiy javobgarlik borligi haqida ogohlantirish beriladi va bu ogohlantirish bayonnomada qayd etilib, imzo bilan tasdiqlanadi. Shundan so‘ng ishtirokchilardan bir-birlarini tanish-tanishmasliklari hamda o‘zaro munosabatlari haqida ma’lumot olinadi.

Savol-javob jarayoni har bir shaxs bilan **navbatma-navbat** o‘tkaziladi: avval bittasiga savol berilib, javobi yozib olinadi, so‘ngra xuddi shu savol ikkinchisiga ham beriladi. Bayonnomaning **chap qismida** birinchi shaxsning savol va javoblari, **o‘ng qismida** esa ikkinchi shaxsning javoblari qayd etiladi. Tergovchi savol berishni tugatgach, yuzlashtirilayotgan shaxslar bir-birlariga savol berishlari mumkin, biroq bu jarayon hech qanday **bahs-munozara yoki janjalga** aylanmasligi lozim.

Yuzlashtirish jarayonida savol-javob tartibi

Yuzlashtirilayotgan shaxslarning ko‘rsatmalarida, odatda turli **qarama-qarshiliklar** uchraydi. Masalan, bir shaxs ma’lum bir faktni tasdiqlasa, boshqasi uni inkor etadi. Bunday vaziyatda savol-javob jarayonini **faktni tasdiqlovchi shaxsdan** boshlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Agar ishda ishtirok etayotgan guvoh, jabrlanuvchi yoki ayblanuvchilardan biri o‘z xohishiga ko‘ra boshqa shaxs bilan yuzlashtirish o‘tkazishni so‘rasa, savol berishni aynan **shu talabni bildirgan shaxsdan** boshlash to‘g‘riroq bo‘ladi.

Ba’zi ayblanuvchilar guvohlarning bayonotlaridagi ayrim jihatlarni rad etib, ularni yolg‘on gapirganlikda ayblashadi. Yuzlashtirish jarayonida bunday ayblanuvchilarni **ikkinchi navbatda** so‘roq qilish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, tergovchi har bir yuzlashtirishda **kimning ko‘rsatmasi ishonchliroq** ekanini tahlil qilib, savol-javobni aynan o‘sha shaxsdan boshlashi kerak. Shundan so‘ng ikkinchi ishtirokchiga o‘tiladi.

Muhim jihatlardan biri shundaki, yuzlashtirishdan avval tergovchi **yuzlash-tirilayotgan shaxslarga ularning avvalgi ko‘rsatmalarini o‘zaro aytib berish yoki tanishtirishga yo‘l qo‘ymasligi** lozim. Aks holda, ular ilgari bergan bayonotlarini o‘zaro tasdiqlab, yangi ma’lumot bermasdan, bir-birining so‘zini quvvatlash bilan cheklanib qoladilar. Bu esa yuzlashtirishning samaradorligi va amaliy ahamiyatini kamaytiradi.

Yuzlashtirish bayonnomasida har bir ishtirokchi uchun **alohida bo‘lim ajratiladi**. U yerda berilgan savollar va javoblar yozib boriladi hamda tegishli qismlar yuzlash-tirilayotgan shaxslarning har ikkisi tomonidan **imzo bilan tasdiqlanadi**.

Voyaga yetmagan shaxslarni so‘roq qilish

Voyaga yetmagan shaxslarni guvoh sifatida so‘roq qilish

Amaldagi qonunchilikda voyaga yetmagan shaxslarni nechi yoshdan boshlab guvoh sifatida so‘roq qilish mumkinligi aniq belgilab qo‘yilmagan. Shu bilan birga, tergov amaliyotida, hatto maktabgacha yoshdagi bolalarni ham guvoh sifatida so‘roq qilish holatlari uchrab turadi va ayrim vaziyatlarda bunday so‘roqlar ijobiy natijalarni bergani kuzatilgan.

Voyaga yetmagan shaxsning ko‘rsatma bera olish qobiliyati uning umumiy intellektual rivojlanish darajasi, ruhiy tayyorgarligi va atrof-

muhitni anglab, baholay olish imkoniyatiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, bolaning eslab qolish, voqealarni qayta tiklash va ularni izchil ifoda etish qobiliyati **yosh omiliga qarab o‘zgarib boradi**.

Shu sababli voyaga yetmagan guvohlarni so‘roq qilishda tergovchi ularning **psixologik holatini, hissiy barqarorligini** va **tushunish darajasini** hisobga olishi zarur. Bu yondashuv boladan **to‘g‘ri, tabiiy va ishonchli ko‘rsatma** olish imkonini yaratadi.

Voyaga yetmaganlarni tasniflash

Voyaga yetmagan shaxslarni shartli ravishda **uch asosiy guruhga** ajratish mumkin:

1. **Kichik yoshdagi voyaga yetmaganlar** – odatda maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanayotgan, 3 yoshdan 6–7 yoshgacha bo‘lgan bolalar. Ularning xotirasi, tafakkuri va nutq imkoniyatlari hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi, shu sababli ularni so‘roq qilishda juda ehtiyotkorlik va psixologik yondashuv talab etiladi.
2. **O‘rta yoshdagi voyaga yetmaganlar** – 7 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar. Bu davrda bola voqealarni idrok etish va eslab qolish qobiliyatiga ega bo‘lsa-da, his-tuyg‘ular ta’sirida fikrini to‘liq ifoda eta olmasligi mumkin.
3. **Katta yoshdagi voyaga yetmaganlar** – 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslar. Ular hayotiy tajriba va mantiqiy fikrlash nuqtayi nazaridan nisbatan yetukroq bo‘lib, so‘roq jarayonida o‘z fikrini aniqroq bayon eta oladi. Biroq, bu bosqichda ham ularning ruhiy holati inobatga olinishi shart.

Voyaga yetmagan guvohni so‘roq qilishga tayyorgarlik

Voyaga yetmagan guvohni so‘roq qilishga kirishishdan oldin tergovchi, avvalo u haqda yetarli ma’lumot to‘plashi zarur. Xususan, bolaning **yoshi, umumiy intellektual rivojlanishi, bilimi, qobiliyat darajasi, shaxsiy xususiyatlari** hamda **xulq-atvori** haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish lozim. Bu ma’lumotlar **maktab ma’muriyati,**

o‘qituvchilar yoki **bola bilan yaqin munosabatda bo‘lgan shaxslar** orqali olinadi.

Ba’zan yosh guvohlar jinoyatchilardan qo‘rqib yoki ularning qasd olish ehtimolidan xavotirlanib, bilgan ma’lumotlarini yashirishga urinadilar. Shu sababli tergovchining asosiy vazifalaridan biri – **voyaga yetmagan guvohning xavfsizligini ta’minlash**, uni jinoyat ishida manfaatdor shaxslarning ta’siridan himoya qilish hamda unga **hech qanday zarar yetmasligiga ishonch uyg‘otish**dir.

So‘roq jarayonini bolaga qulay bo‘lgan, unga tanish muhitda o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, **voyaga yetmagan guvohlar so‘roqqa ularning yaqin qarindoshlari, ota-onalari, opa yoki akalari, shuningdek o‘qituvchi yoki pedagog ishtirokida** jalb qilinadi. Shu bilan birga, bu shaxslar **ish natijasidan manfaatdor bo‘lmasliklari** shart.

Ayrim holatlarda kichik yoshdagi guvohlar o‘zlariga yaqin bo‘lgan shaxslar yoki o‘qituvchilar huzurida ochiqchasiga fikr bildirishdan uyalishlari mumkin. Bunday vaziyatda tergovchi boshqa ta’lim muassasasidan pedagog yoki psixologni jalb etishi tavsiya etiladi.

Bolani so‘roq qilishda, avvalo, unga yoqimli, qiziqarli suhbatdan boshlash, shu orqali **ishonchli muhit yaratish** zarur. Faqat shundan keyin jinoyat ishi bo‘yicha savollar berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. So‘roq davomida bolaning **ruhiy va jismoniy holati** inobatga olinib, uni charchatmaslik uchun vaqti-vaqti bilan **tanaffus** berish lozim.

Qonunga muvofiq, **16 yoshdan katta guvohlar yoki jabrlanuvchilar** ko‘rsatma berishdan bosh tortish yoki ataylab yolg‘on ma’lumot taqdim etish uchun **jinoiy javobgarlik** mavjudligi haqida ogohlantiriladi. **16 yoshdan kichik shaxslar** esa jinoyat ishi uchun ularning **to‘g‘ri va halol ko‘rsatmalari** qanchalik muhim ekanligi haqida **tushuntirish yo‘li bilan xabardor qilinadi**.

Voyaga yetmaganlarni so‘roq qilishda bolalar va o‘smirlarning psixologik xususiyatlari o‘ziga xosligini hisobga olish zarur. Shu sababli bu jarayon ularning so‘roq natijalarining obyektivligini ta’minlashga

xizmat qiluvchi maxsus protsessual kafolatlar bilan mustahkamlanadi. So‘roq jarayoni kriminalistika fani ishlab chiqqan maxsus taktik usullardan keng foydalanishni talab etadi. 11 dan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar, odatda jinoyatga aralashgan kattalar bilan muloqotda bo‘lishadi, natijada ularda burch va majburiyat haqida tushuncha shakllana boshlaydi hamda kattalarga taqlid qilish holati kuzatiladi. Biroq ular hali yetarli hayotiy tajribaga ega emasliklari sababli, kattalarning barcha harakatlarini to‘g‘ri anglab yetolmaydilar. Shu bois ba’zi hollarda ular do‘stlik yoki o‘rtoqlikni noto‘g‘ri tushunib, bu yo‘lda jinoyatga qo‘l urish yoki boshqaning aybini o‘z zimmasiga olish kabi xatoliklarga yo‘l qo‘yishlari mumkin.

Voyaga yetmaganlarni so‘roq qilishning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lgani uchun tergovchi tayyorgarlikni ham maxsus tarzda olib borishi lozim. So‘roq o‘tkaziladigan joy, vaqt, ishtirokchilar, tartib va savollar ketma-ketligi oldindan belgilanib chiqilishi, bu esa tergov harakatining samaradorligini oshiradi. Yosh guvohlarni so‘roq qilishda qonun talablariga zid bo‘lmagan holda umumiy protsessual tartibni moslashtirib, o‘ziga xos taktik usullardan foydalanish mumkin. Kichik yoshdagi shaxsning kimligini aniqlagach, bevosita savol-javobga o‘tish, «erkin hikoya qilish» bosqichini esa savollar orqali almashtirish maqsadga muvofiqdir. Savollar lo‘nda, aniq va bolaga tushunarli bo‘lishi kerak.

So‘roq vaqtida tergovchi voyaga yetmagan bilan ruhiy aloqa o‘rnatishi, unga samimiy munosabatda bo‘lishi, maqsadini tushuntirishi va to‘liq, ishonchli ma’lumot olishga intilishi zarur. Agar so‘roq jarayonida sovuq yoki rasmiy munosabat ko‘rsatilsa, bolaning ishonchi yo‘qoladi va to‘g‘ri ko‘rsatma olish qiyinlashadi. Shu bois so‘roq shaxsning yoshi, tafakkur darajasi hamda psixologik holatiga mos ravishda suhbat tarzida olib borilishi mumkin.

Agar voyaga yetmagan jinoyat ishida ishtirok etayotgan bo‘lsa, katta yoshdagi ayblanuvchilar unga ruhiy bosim o‘tkazish xavfi mavjud. Tergovchi bunday vaziyatda bolaga uning xavfsizligi ta’minlanishini ochiq tushuntirishi lozim. Faqat shundagina voyaga yetmagan gumon

qilinuvchi yoki ayblanuvchi so‘roq jarayonida rost va asosli ko‘rsatma berishga tayyor bo‘ladi.

So‘roq natijalarini protsessual rasmiylashtirish

Jinoyat ishini yuritish jarayonida yig‘ilgan barcha ma’lumotlar, ashyoviy dalillar va tergov harakatlari natijalari O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunlariga muvofiq tarzda rasmiylashtirilishi shart. So‘roq bayonnomasi ham umumiy tergov harakatlari bayonnomalari kabi uch qismdan – kirish, asosiy va yakuniy bo‘limlardan iborat bo‘ladi. Bayonnomaning kirish qismida so‘roq o‘tkazilgan joy, vaqt, ishning nomi, so‘roq qilingan shaxsning to‘liq ma’lumotlari hamda boshqa zarur tafsilotlar qayd etiladi.

So‘roq jarayonida olingan ma’lumotlar bayonnomaga so‘roq qilinuvchining o‘z so‘zlari bilan, birinchi shaxs nomidan, imkoni boricha so‘zma-so‘z, aniq va tushunarli tarzda, tuzatishlarsiz yozilishi kerak. Savollar va ularga berilgan javoblar qanday shaklda aytilgan bo‘lsa, aynan shunday shaklda yozib qo‘yilishi lozim. Bayonnoma tili so‘roq qilinuvchining tili va saviyasiga yaqin, sodda va ravon bo‘lishi, unda unga tushunarsiz atama yoki murakkab iboralar ishlatilmasligi zarur.

Agar so‘roq voyaga yetmagan shaxs bilan o‘tkazilayotgan bo‘lsa, bayonnomada uning yoshi, o‘qish joyi, tarbiyaviy holati kabi ma’lumotlar ham keltirib o‘tiladi. Bayonnomaning asosiy qismi suhbat tugagandan so‘ng tuziladi, unda jinoyat ishiga aloqador faktlar mantiqiy ketma-ketlikda yozib chiqiladi. Agar so‘roq vaqtida ko‘rsatuv beruvchiga dalillar yoki ashyoviy dalillar ko‘rsatilgan bo‘lsa, bu holat hamda unga nisbatan bildirilgan fikrlar bayonnomada aniq qayd etiladi.

Qonunga binoan, so‘roq qilinuvchi o‘z ko‘rsatuvlarini shaxsan o‘zi yozib berish huquqiga ega. Buning afzalligi shundaki, u voqea-hodisalarni va tafsilotlarni aniqroq ifoda eta oladi. Shu bilan birga, shaxs o‘z qo‘li bilan yozgan ko‘rsatuvlaridan keyinchalik voz kechish yoki ularni o‘zgartirish imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Agar so‘roq qilinuvchi bu imkoniyatdan foydalanishga rozi bo‘lsa, tergovchi avval uni tinglaydi,

so‘ng savollar orqali aniqlik kiritadi va undan keyingina yozish jarayoniga o‘tadi.

Ko‘rsatuv yozib bo‘lingach, bayonnoma so‘roq qilinuvchi tomonidan to‘liq o‘qib chiqilishi va har bir sahifa alohida imzo bilan tasdiqlanishi kerak. So‘roqda ishtirok etgan protsessual shaxslar – prokuror, mutaxassis, tarjimon va boshqalar – ham kirish qismida qayd etilib, bayonnomani imzolaydilar. Yakunda bayonnoma so‘roq qilinuvchiga o‘qib eshittiriladi yoki u mustaqil ravishda tanishib chiqadi. Agar qo‘shimcha ma’lumot yoki tuzatish zarurati tug‘ilsa, ular bayonnomaning oxiriga kiritilib, barcha ishtirokchilar tomonidan imzo bilan tasdiqlanadi.

So‘roq natijalarini rasmiylashtirish jarayonida fonogrammadan foydalanish so‘roq bayonnomasining muhim qo‘shimcha vositasi sifatida xizmat qiladi. Magnit tasmadagi yozuv dalil manbai sifatida tan olinishi uchun u albatta bayonnoma bilan rasmiylashtirilishi zarur. Bayonnomada yozuvning qayerda, kim tomonidan, qachon, qanday ish yuzasidan va kim so‘roq qilingani aniq ko‘rsatiladi.

So‘roq natijalarini qayd etishda ovoz yoki tasvir yozuv texnikasidan foydalanish so‘roq bayonnomasining mazmunini to‘ldiradi va aniqlikni oshiradi. Ish ishtirokchilari materiallar bilan tanishib chiqqach, fonogramma maxsus tarzda muhrlanib, jinoyat ishi materiallari orasida saqlanadi. Agar ovoz yozuvchi qurilma qo‘llanilgan bo‘lsa, avval fonogramma qayd etilishi, so‘ngra uning mazmuni bayonnomaga kiritilishi lozim. Chunki bir vaqtning o‘zida ham yozuvni plyonkaga, ham bayonnomaga kiritish amaliy jihatdan murakkablik tug‘diradi.

Ko‘rsatuvlar yozib olingach, tergovchi ularni o‘qib chiqib, keyin fonogrammani tinglashi orqali ma’lumotlarni to‘liq eslab qoladi hamda yozuvlar bir-birini to‘ldirishini aniqlaydi. Ovoz yozuv bilan bir qatorda tasvir yozish vositalaridan foydalanish ham so‘roq jarayonining mazmunini kengaytiradi, undagi tafsilotlarni yanada aniqroq aks ettiradi.

Qonun talablariga ko‘ra, ishlatilgan texnik vositalar va ular orqali olingan audio yoki video materiallar protsessual tartibda mustahkamlanadi. Bayonnomada qaysi turdagi magnitofon yoki

videokamera ishlatilgani, yozuv qachon va qayerda o‘tkazilgani, kimning ovozi yoki tasviri qayd etilgani batafsil yozib qo‘yilishi shart. Yakunda bayonnoma tergovchi hamda so‘roq qilingan shaxs tomonidan imzolanib tasdiqlanadi.

Tergovchi so‘roqni boshlashdan avval ovoz yozuvi amalga oshirilishini so‘roq qilinuvchiga bildiradi va bu holatni bayonnomada albatta qayd etadi. Ovoz yozishga so‘roq qilinuvchining roziligi talab etilmaydi, biroq tergovchi unga bu jarayonning maqsadi, ahamiyati va tartibini batafsil tushuntirib berishi shart.

Fonogrammada so‘roqning o‘tkazilgan vaqti va joyi, shuningdek so‘roq boshlangan va tugagan soatlar, unda ishtirok etgan barcha shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi aniq ko‘rsatiladi.

Fonogramma faqatgina so‘roqning ayrim qismlarini emas, balki butun jarayonni to‘liq aks ettirishi lozim.

So‘roq yakunlangach, yozib olingan fonogramma boshidan oxirigacha qayta eshittiriladi. So‘roq qilinuvchi yozuvni tinglab chiqqandan so‘ng, u o‘z ko‘rsatuvlari to‘g‘ri aks ettirilganini tasdiqlab, bayonotiga imzo qo‘yadi.

Agar tergov jarayonida aniq va haqqoniy ko‘rsatmalar olish maqsadida boshqa taktik usullar qo‘llanilgan bo‘lsa, bu haqda tergovchi alohida protsessual hujjatda qayd etadi.

Maxsus bilimlardan foydalanish tushunchasi

Dastlabki tergov yoki sud jarayonida ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni aniqlashda ko‘pincha maxsus bilimlardan foydalanish zarur bo‘ladi.

Maxsus bilimlar deganda fan, texnika, san’at yoki kasb-hunar sohalarida chuqur bilim va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lish tushuniladi. Jinoyat ishini tergov qilishda, dalillarni o‘rganish va ularni to‘g‘ri baholashda ana shunday bilimlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday tadqiqotlar odatda o‘z sohasida tajribali, ilmiy yoki amaliy malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan o‘tkaziladi. Maxsus bilim sohiblari – texnika, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi, qurilish yoki boshqa tarmoqlarda faoliyat yurituvchi ekspert va mutaxassislar – tegishli obyektlarni o‘rganib, xulosa beradilar. Masalan, ular ishlab chiqilgan loyiha zamonaviy ilmiy-texnik talablarga qanchalik mos kelishini, muhandislik hisoblarining to‘g‘riligini, ishlab chiqarishdagi nosozlik sabablarini yoki nogironlik darajasini aniqlash kabi masalalarni hal etishlari mumkin.

Shunday qilib, **maxsus bilim** – bu fan, texnika, san’at va kasb-hunar sohalarida tajriba asosida shakllangan nazariy va amaliy ko‘nikmalar majmui hisoblanadi.

Ekspertlar o‘z faoliyatlarini maxsus ekspertiza muassasalari yoki boshqa tashkilotlarda amalga oshirishlari mumkin. Ular qayerda ishlashidan qat’i nazar, ekspert sifatida tayinlanish protsessual qonunlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ekspert o‘zining huquq va majburiyatlariga ega bo‘lib, tekshiruv jarayonida mustaqil protsessual shaxs sifatida ish materiallari, qo‘shimcha obyektlar yoki axborotlarni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Ekspertiza tayyorlash jarayonida esa tergovchi tekshiruv uchun zarur namunalarni olish, ekspertizani o‘tkazish sharoitlarini belgilash va barcha protsessual talablarni to‘liq bajarishi lozim. Shu tariqa, ekspert xulosasi jinoyat ishini to‘g‘ri va asosli hal qilishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Ekspertga beriladigan savollar uning kasbiy va ilmiy tayyorgarligi – ya’ni maxsus bilimlari doirasida bo‘lishi shart. Agar bu talab buzilib, ekspert oldiga u malaka va vakolatidan tashqaridagi masalalar qo‘yilsa, u holda ekspert xulosa berishdan bosh tortishga haqli bo‘ladi. Shu sababli, ekspert tomonidan beriladigan xulosalar faqat uning bilim sohasi bilan cheklanadi va u o‘z vakolatidan tashqariga chiqmasligi kerak.

Sud ekspertizasini o‘tkazish uchun materiallar tayyorlash, ekspert hal qilishi kerak bo‘lgan savollarni to‘g‘ri aniqlash, solishtirish uchun zarur

namunalarni olish va shunga o‘xshash boshqa masalalarda tergovchi yoki sud kriminalistika texnikasi bo‘yicha mutaxassisdan maslahat olishi mumkin. Ekspertiza tayinlash jarayonida tekshiruv obyektlarini to‘g‘ri mustahkamlash, tekshiruv vazifasini aniq belgilash va savollarni ekspertiza predmetiga muvofiq tarzda tuzish kabi masalalarda kriminalist mutaxassisning amaliy yordami juda katta ahamiyatga ega.

Amaldagi protsessual qonunlarga ko‘ra, sud ekspertizasi jarayoniga shifokor, pedagog, psixolog hamda zarur kasbiy bilim va tajribaga ega boshqa shaxslar mutaxassis sifatida jalb etilishi mumkin. Bu qoida kriminalistika sohasidagi mutaxassislarga ham tatbiq etiladi.

Tergov yoki sud jarayonida ishtirok etuvchi mutaxassislar ekspertiza muassasalarida ishlaydigan ekspertlar, ilmiy xodimlar yoki rahbar lavozimidagi mutaxassislar bo‘lishi mumkin. Agar ular tergov harakatlarida mutaxassis sifatida qatnashgan bo‘lsa, ayrim hollarda keyinchalik shu ish bo‘yicha yana jalb etilishi ham ehtimoldan xoli emas.

Tergovchi tergov harakatlarini tashkil etish va o‘tkazish jarayonida maxsus bilimlarga ega mutaxassisni chaqirib, uning maslahat va yordami asosida muhim protsessual tadbirlarni amalga oshiradi. Bunga voqeani ko‘zdan kechirish, tintuv o‘tkazish, maxsus texnik vositalardan foydalanish, izlarni qidirish, topish, ularni ko‘chirish va qayd etish kabi ishlar kiradi.

Ekspertiza tayinlash va o‘tkazish jarayonida esa maxsus bilim bevosita ekspert xodimlari tomonidan qo‘llanilib, ularning ilmiy asoslangan xulosalari alohida tergov harakati sifatida rasmiylashtiriladi.

Tekshiruv va tadqiqotlarning yakuniy natijalari ekspert xulosasida ifodalanadi hamda jinoyat ishi bo‘yicha muhim dalil manbai sifatida xizmat qiladi. Sud ekspertizasi fani nazariyasi va amaliyotida ekspertiza turlarini aniqlash va tasniflash masalasiga alohida e’tibor beriladi. Hozirgi davrda ekspertiza obyektlarining soni tobora ortib borayotgani sababli, kriminalistika sohasida qo‘llaniladigan maxsus bilimlarning turlari ham kengaymoqda. Bu esa yangi ekspertiza yo‘nalishlarining shakllanishi va

mavjud kriminalistik ekspertiza uslublarining yanada takomillashuviga zamin yaratmoqda.

Sud ekspertizalarini tasniflash bir nechta mezonlarga asoslanadi. Ular orasida eng muhimlaridan biri – ekspertizalarni bilim sohasi bo‘yicha ajratishdir. Shu tamoyilga ko‘ra, ekspertizalar uchta asosiy belgi – ekspertiza obyekti, predmeti va tadqiqotda qo‘llaniladigan uslublar (yoki ilmiy bilim sohasi) asosida farqlanadi. Agar ekspertiza turi ushbu belgilar orasidan faqat bittasiga tayanib belgilanadigan bo‘lsa, bu hol noto‘g‘ri talqinlarga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, voqea joyidan topilgan o‘q bir vaqtning o‘zida ham ballistik ekspertiza (o‘q va snaryadlarning harakat qonuniyatlarini o‘rganadi), ham metall ekspertizasi obyekti sifatida tekshirilishi mumkin. Shuningdek, tilshunoslikka oid bilimlar dastxatshunoslik, muallifshunoslik va sud fonoskopiya ekspertizalarida keng qo‘llaniladi.

Mazkur uch belgiga tayanilgan holda ekspertizalar kriminalistik, sud-tibbiy, sud-biologik, sud-muhandislik, sud-iqtisodiy, sud qishloq xo‘jalik va boshqa turlarga bo‘linadi. Har bir yo‘nalish o‘z ichida alohida turlarga ajraladi. Masalan, kriminalistik ekspertizalar tarkibiga, asosan xatshunoslik, izshunoslik va ballistik ekspertizalar kiradi. Ushbu an’anaviy turlar jinoyatlarni fosh etishda foydalaniladigan maxsus bilimlarning eng qadimgi shakllaridan hisoblanadi.

Sud ekspertizasining protsessual turlari esa ularni o‘tkazish tartibi va metodikasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Qo‘shimcha ekspertiza asosiy tekshiruvni olib borgan mutaxassisga yoki boshqa ekspertga topshirilishi mumkin. Bunda muhim jihat shundaki, qo‘shimcha yoki qayta ekspertiza uchun yuborilgan obyektlar, materiallar va yechiladigan masalalar o‘zgartirilmasdan qoladi. Agar esa yangi obyektlar yoki boshqa savollar qo‘shilsa, bu holat allaqachon yangi ekspertiza o‘tkazish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga, ekspertiza tayinlanganidan keyin, agar ekspert zarur deb hisoblasa, mavjud materiallar qo‘shimcha namunalar bilan to‘ldirilishi

mumkin. Bu esa tekshiruvning to‘liq va aniq natijalarga erishishini ta’minlaydi.

Takroriy ekspertiza odatda boshqa ekspert yoki bir necha mutaxassislardan iborat komissiya tomonidan o‘tkaziladi. Bunda tekshiruvda ikki yoki undan ortiq ekspert ishtirok etishi mumkin. Dastlabki ekspertizani amalga oshirgan mutaxassis esa o‘z xulosasi va o‘tkazgan tadqiqotlari yuzasidan tushuntirishlar berishga haqli, biroq u qayta ekspertiza jarayonida, ya’ni yangi tadqiqotlarni o‘tkazish, natijalarni muhokama qilish va yakuniy xulosani tuzishda qatnashmaydi.

Agar birinchi ekspertiza natijalari bilan qayta ekspertiza xulosalari o‘zaro zid kelsa, bunday holatlar maxsus komissiya ishtirokida tajribali mutaxassislar bilan muhokama qilinadi. Shu jarayonda dastlabki ekspertiza xulosasining nega tasdiqlanmagani, farqlar nimadan kelib chiqqani aniqlanadi va bu sabablar qayta ekspertiza xulosasida alohida bayon etiladi.

Qayta ekspertiza zarurat tug‘ilganda uchinchi, to‘rtinchi va undan ham ko‘p marta tayinlanishi mumkin. Amaliyotda shunday holatlar uchraydiki, ikkinchi va keyingi ekspertiza xulosalari bir-biriga zid bo‘ladi. Har ikkala xulosa o‘zicha asoslangan bo‘lishi, muayyan ilmiy dalillar va metodikalarga tayanishi mumkin. Shunday vaziyatda tergovchi yoki sud har bir xulosani mustaqil tarzda, boshqa dalillar bilan birgalikda baholashi shart.

Agar baholash jarayonida ekspert xulosalari o‘rtasida jiddiy nomuvofiqliklar yoki protsessual qoidabuzarliklar aniqlansa, masalani aniqlashtirish uchun uchinchi takroriy ekspertiza tayinlanadi.

Bunda ekspertiza materiallari avvalgi muassasaga yuborilishi yoki zarurat tug‘ilganda boshqa laboratoriya yoki ilmiy markazga topshirilishi mumkin.

Masalan, agar dastlabki ekspertiza Ichki ishlar vazirligining ekspertiza bo‘limida o‘tkazilgan bo‘lsa, takroriy tekshiruvni O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Ilmiy-tadqiqot kriminalistika markaziga yuborish mumkin. Uchinchi, ya’ni takroriy ekspertiza esa

ushbu markazda yoki boshqa ekspert muassasasida o‘tkazilgan taqdirda, uni albatta boshqa ekspert yoki ekspertlar komissiyasi tarkibida amalga oshirish talab etiladi.

Faqat ana shunday tartibda o‘tkazilgan taqdirda, ekspertiza natijalari obyektiv hisoblanadi va jinoyat ishida ishonchli dalil manbai sifatida foydalanish imkonini beradi.

Ekspertlar komissiyasini tuzish va uning tarkibini tanlash mas’uliyati tergovchi, sud yoki ekspertiza muassasasi rahbariga yuklatiladi. Qayta ekspertizani o‘tkazish jarayonida mutaxassislarning tajribasi, bilim darajasi hamda ish hajmi hisobga olinadi. Shu bilan birga, qayta ekspertizaga oid obyektlar va uning predmeti dastlabkidek o‘zgarmagan holda qoladi.

Demak, qo‘shimcha yoki takroriy ekspertizalar aniq jinoyat ishining holatiga qarab, tergov organi yoki sudning qarori (yoki ajrimi) asosida tayinlanadi. Takroriy va qo‘shimcha ekspertizalardan tashqari, komissiya tarkibida o‘tkaziladigan hamda kompleks ekspertizalar ham mavjud.

Komissiya ekspertizasi – bu bir sohaga oid bir necha mutaxassis tomonidan birgalikda olib boriladigan tekshiruvdir. Agar tekshirilayotgan obyektlar soni ko‘p bo‘lsa yoki tahlil qilish usullari murakkablik tug‘dirsa, ekspertiza materiallari bir nafar emas, balki bir necha ekspertga topshiriladi. Masalan, ko‘p sonli hujjatlar bo‘yicha o‘tkaziladigan dastxatshunoslik ekspertizasi odatda ko‘p vaqt talab qiladi. Shu sababli, bu jarayonni tezlashtirish va xulosaning aniqligini ta’minlash maqsadida ekspertlar komissiyasi jalb etiladi.

Bunday ekspertizalar, ayniqsa, moliyaviy hujjatlar bilan bog‘liq ishlar – turli yozuvlar va imzolarni kim bajarganini aniqlashda keng qo‘llaniladi. Hujjatlar sonining ko‘pligi va shubha ostidagi shaxslar miqdori katta bo‘lgan hollarda, tekshiruvni tezroq va ishonchli yakunlash uchun ekspertizani bir guruh mutaxassislar ishtirokida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Kompleks ekspertiza esa ish uchun muhim bo‘lgan holatni aniqlashda bitta sohaga oid bilimlar yetarli bo‘lmaganda, boshqa

sohalardagi maxsus bilimlarni jalb etishni talab qiladi. Bunday hollarda turli soha vakillari birgalikda ishlaydi. Masalan, velosipedchi va uni urgan avtomobilning harakat yo‘nalishini aniqlash murakkab jarayon bo‘lib, uni faqat alohida tibbiy yoki texnik ekspertiza bilan hal etish mushkul. Shu sababli, bu holatda sud tibbiy, transport va texnik ekspertizalar kompleks tarzda o‘tkazilganda natijalar ancha ishonchli bo‘ladi.

Kompleks ekspertizalarda har bir mutaxassis o‘z bilim sohasi doirasida aniqlagan ma’lumotlarini boshqalar topgan belgilar bilan taqqoslaydi va birgalikda yagona xulosa chiqaradilar. Shu bilan birga, har bir ekspert o‘zining o‘tkazgan tahlil va tekshiruvi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Bir obyekt ustida ketma-ket amalga oshiriladigan mustaqil tadqiqotlarni **kompleks ekspertiza** tarkibiga kiritish to‘g‘ri emas. Chunki bunday hollarda har bir ekspertiza o‘z predmetiga ko‘ra mustaqil tarzda o‘tkaziladi va natijasi ham alohida baholanadi.

Misol uchun, hujjat qaysi usul bilan soxtalashtirilganligini aniqlovchi texnik-kriminalistik ekspertiza hamda hujjatdagi yozuv muallifini aniqlovchi xatshunoslik ekspertizasi alohida o‘tkaziladigan tadqiqotlarga kiradi. Ular bir obyektga taalluqli bo‘lsa-da, turli maqsadlarga yo‘naltirilgani uchun **kompleks ekspertiza** sifatida qaralmasligi kerak.

Ammo ba’zi vaziyatlarda turli sohalarning bilim va usullarini birlashtirish zarur bo‘ladi. Masalan, yirtilgan hujjatni tiklash jarayonida izshunoslik, texnik-kriminalistik hamda xatshunoslik usullarini bir vaqtda qo‘llash talab etiladi. Bunday holatda tadqiqot bir obyekt bo‘yicha birgalikda, o‘zaro uzviy aloqada olib boriladi va yakuniy xulosa ham umumiy tarzda tuziladi. Shu sababli bu kabi holatlar **kompleks ekspertiza** sifatida e’tirof etilishi to‘g‘ri hisoblanadi.

Ekspertiza tadqiqoti uchun tayyorgarlik ko‘rish va namunalar olish

Jinoyat ishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ayrim holatlarni aniqlash zarurati tug‘ilganda, xususan kriminalistik ekspertizaning

ma’lum turlarini tayinlash va u orqali hal etilishi lozim bo‘lgan masalalarni belgilashda kriminalistik texnika sohasidagi maxsus bilimlardan foydalanish talab etiladi.

Agar ekspertiza o‘tkazish zarur deb topilsa, surishtiruvchi yoki tergovchi bu borada **qaror**, sud esa **ajrim** chiqaradi. Kriminalistik ekspertiza uchun asos bo‘ladigan obyektlardan olingan namunalar, daliliy ahamiyatga ega moddiy ashyolar hamda turli hujjatlar solishtirish uchun **ashyoviy dalil** sifatida xizmat qiladi. Shu sababli ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror yoki ajrimda ushbu obyektlarning nomi, belgilari va ularning xususiyatlari aniq ko‘rsatiladi.

Qaror (yoki ajrim)da, shuningdek ekspertiza tayinlashga sabab bo‘lgan **asoslar** hamda ekspert oldiga qo‘yiladigan **savollar** qayd etiladi. Bu savollar aniq, tushunarli bo‘lishi va ekspertning maxsus bilim sohasi doirasidan chiqmasligi kerak.

Kriminalistik ekspertiza o‘tkazilishi uchun tegishli materiallar – qaror, ajrim va tekshiruv obyektlari tergov yoki sud tomonidan **davlat ekspertiza muassasasiga** yuboriladi. Muassasa rahbari esa bu ishni zarur tajribaga ega mutaxassisga topshiradi. Shu bilan birga, protsessual qonunlarga muvofiq, ekspert sifatida nafaqat ekspertiza muassasalarida ishlovchi xodimlar, balki boshqa tashkilotlarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar yoki alohida shaxslar ham jalb etilishi va ekspertiza materiallari ularga bevosita topshirilishi mumkin.

Ekspertizada tekshiriladigan obyektlar – bu ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan **ashyoviy dalillar**, ularning **alohida qismlari**, **moddiy qoldiqlari**, shuningdek **solishtirish uchun zarur bo‘lgan namunalar**dir.

Bunday namunalar ekspert tomonidan tadqiqot jarayonida daliliy obyekt bilan taqqoslash, o‘xshashlik yoki farqlarni aniqlash, ularning kelib chiqish manbaini belgilash hamda ish yuzasidan xulosa chiqarish uchun qo‘llaniladi.

Solishtirish uchun olinadigan namunalar ikki turga bo‘linadi:

1. **Erkin namunalar** – shaxs yoki obyektning tabiiy faoliyati davomida, tergov yoki sud jarayonigacha paydo bo‘lgan, majburlovsiz olingan yozuvlar, izlar, tovushlar va boshqalar.

2. **Eksperimental namunalar** – tergovchi yoki sudning topshirig‘iga ko‘ra, maxsus sharoitda, ekspertiza uchun olinadigan namunalar.

Har ikki turdagi namunalarning aniqligi, haqiqiyligi va tegishli tartibda rasmiy-lashtirilganligi ekspertiza natijalarining ishonchliligini ta’minlaydi.

Namunalarning miqdori va sifati ekspert tekshiruvi natijasining to‘liq hamda xolis bo‘lishini ta’minlaydi. Kriminalistik ekspertiza uchun olinadigan namunalar quyidagi turlarni o‘z ichiga oladi: **qo‘lyozmalar, xatlar, imzolar, raqamli yozuvlar, nusxa ko‘paytiruvchi vositalar yordamida olingan namunalari, turli izlar hosil qiluvchi qoliplar, otish qurollarining qismlaridan olingan namunalar** va boshqa shu kabi obyektlar.

Kriminalistik tekshiruv uchun zarur bo‘lgan namunalar **erkin** va **eksperimental** turlarga bo‘linadi. Shuningdek, **dastxatshunoslik ekspertizasi**da qo‘shimcha ravishda **shartli–erkin namunalar** ham ajratiladi.

Erkin namunalar – bu jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan avval mavjud bo‘lgan obyektlardir. Masalan, gumon qilinuvchining o‘z qo‘li bilan yozgan xatlari yoki imzolari uning uyida yoki ish joyidagi hujjatlarda topilishi mumkin.

Eksperimental namunalar esa ekspertizani tayinlagan mansabdor shaxs topshirig‘iga binoan olinadi. Bu jarayonda tekshirilayotgan hujjatdagi yozuv, imzo yoki raqamlarga o‘xshash matnlar bir necha varaqda qayta yozdiriladi va bu jarayon kuzatuv ostida amalga oshiriladi. Bunday namunalar odatda insonning harakati yoki biologik belgilaridan olinadi – masalan, **qo‘l yoki oyoq izlari, qon, soch, tupurik, teri hujayralari** kabi namunalar.

Har ikkala turdagi namuna – erkin va eksperimental – **Jinoyat-protsessual kodeksi** asosida tergovchi yoki sud qarori (ajrim) bilan olinadi va bu haqda tegishli hujjatda alohida qayd etiladi. Koʻp hollarda eksperimental namunalar ekspertiza jarayonining oʻzida, ekspert tomonidan ham olinadi. Shu sababli, qaysi vaqtda va kim tomonidan eksperimental namuna olinganini aniq farqlash muhimdir.

Zarur holatlarda eksperimental namunalar **majburiy tartibda** ham olinishi mumkin, bu vakolat **tergovchiga** yuklatilgan. Qonun talablariga koʻra, ekspertning oʻzi majburlov yoʻli bilan namuna olish huquqiga ega emas. Biroq tergovchi, ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi yoki guvohlardan tashqari, ayrim obyektlardan ham – agar ular hajman katta yoki boshqa sabablar bilan ekspertga bevosita topshirilishi imkonsiz boʻlsa – eksperimental namunalarni olishi mumkin.

Tergovchi zarur hollarda namunalarni olish jarayoniga **maxsus mutaxassislarni jalb etish huquqiga ega**. Bunday mutaxassislar oʻzlarining **tajribasi, maslahatlari va bevosita ishtiroki** orqali namunalar sifatini ta’minlashda muhim rol oʻynaydilar. Tergovchi tomonidan olinadigan **erkin va eksperimental namunalar soni hamda sifati** ekspert tomonidan toʻliq va ishonchli tahlil oʻtkazish imkonini berishi lozim.

Topilgan namunalar obyektning asl manbasiga tegishli ekanligiga shubha qolmasligi uchun ular protseduraviy jihatdan aniq va toʻgʻri hujjatlashtirilishi shart. Tekshiruv uchun zarur namunalarni olish maqsadida tergovchi qaror qabul qiladi, sud esa ajrim chiqaradi. Namuna olingani haqida bayonnoma tuziladi – unda olingan namunalar soni, ularni olish tartibi va sharoitlari hamda qoʻllangan usullar batafsil koʻrsatiladi. Ushbu bayonnoma tergovchi va xolislar tomonidan imzolanadi.

Ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, guvoh yoki jabrlanuvchidan yozdirib olingan **qoʻlyozma namunalari** tergovchi va yozuvchi shaxs tomonidan **tasdiqlanib imzolanadi**. Olingan barcha namunalar boshqa ashyoviy dalillar singari **belgilangan tartibda oʻraladi, joylashtiriladi va muhrlanadi**.

Ekspertiza jarayonida, ba’zan **ekspertning o‘zi ham eksperimental namunalar tayyorlaydi**. Protsessual qonunlarga ko‘ra, ayrim **kriminalistik tahlillar**ni o‘tkazishda ekspert **tajriba (eksperiment) o‘tkazish yo‘li bilan** ham namuna olish huquqiga ega. Masalan, ballistik ekspertizada ekspert hodisa joyidan topilgan o‘q va gilzalarning qaysi o‘q otish qurolidan chiqqanini aniqlash uchun o‘sha quroldan bir necha bor sinov o‘qlarini o‘qib, eksperimental o‘q va gilza namunalarini oladi. Xuddi shunday, trasologik tekshiruvda ekspert poyabzal, buzish quroli, pichoq, bolta yoki boshqa asboblarning iz hosil qiluvchi qismlaridan eksperimental iz namunalarini tayyorlaydi.

Ekspertiza uchun olingan barcha namunalarning **rasmiy hujjat bilan mustahkamlanishi shart**, ya’ni ular **jinoyat-protsessual qonun** talablariga muvofiq **bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi**. Ekspert o‘zi olgan namunalardan foydalanib o‘tkazgan tajriba va tekshiruv natijalarini **o‘z xulosasining tadqiqot qismida to‘liq, aniq va batafsil tarzda aks ettiradi**.

Natijada, tekshiruv uchun olingan barcha namunalar **ekspertizaning boshqa obyektlari bilan birga to‘g‘ri o‘rab, belgilangan tartibda joylashtiriladi** hamda ularning **turi va miqdori tergovchi yoki sudning qarorida (yoki ajrimida)** alohida ko‘rsatiladi.

Ekspert xulosasi va uning natijalarini baholash

Kriminalistik ekspertizani amalga oshirish jarayonida **ekspert-mutaxassislar kriminalistikaning ilmiy-texnik vositalaridan keng foydalanadilar**. Bular qatoriga **optik asboblar, kompyuter texnologiyalari, turli ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan nurlarni qo‘llaydigan moslamalar, maxsus yoritgichlar** hamda boshqa zamonaviy texnik qurilmalar kiradi. Ushbu vositalar yordamida ekspertiza jarayoni aniqroq, ishonchliroq va ilmiy asoslangan shaklda o‘tkaziladi.

Ekspertiza obyektlarini o‘rganish (oshirish) jarayoni, odatda to‘rtta bosqichda amalga oshiriladi:

1. **Tayyorlov bosqichi** – ekspert tekshiruv obyektlarini qabul qilib oladi, ularning holatini, saqlanish darajasini, hajmini va tadqiqotga yaroqliligini aniqlaydi. Zarurat tug‘ilganda obyektni tozalash, himoyalash yoki o‘rnatish ishlari bajariladi.

2. **Umumiy ko‘rik bosqichi** – obyektning tashqi belgilarini, shaklini, o‘lchamini, rangi, materiali va boshqa umumiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat bo‘ladi. Shu bosqichda dastlabki taxminlar ilgari suriladi.

3. **Maxsus tadqiqot bosqichi** – obyekt maxsus asbob-uskunalar, mikroskoplar, spektrograflar, ultrabinafsha yoki infraqizilnurlar yordamida chuqur tahlil qilinadi. Bu bosqichda ekspert asosiy ilmiy tekshiruvni amalga oshiradi.

4. **Natijalarni tahlil va xulosa chiqarish bosqichi** – olingan ilmiy ma’lumotlar tahlil qilinib, o‘zaro solishtiriladi, natijalar umumlashtiriladi va ekspert tomonidan **yakuniy xulosa** tayyorlanadi.

Aynan shu ketma-ketlikka amal qilgan holda o‘tkazilgan ekspertiza **dalillarning aniqligini, obyektivligini va qonuniy kuchini ta’minlaydi.**

1. **Dastlabki tahlil** – bu identifikatsiyaviy tadqiqotning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, unda ekspert birinchi navbatda **ekspertizaga yuborilgan qaror (yoki ajrim)** bilan tanishadi. Ushbu jarayon ekspertiza oldiga qo‘yilgan vazifani aniq tushunishga yordam beradi. Shundan so‘ng, tekshirilishi kerak bo‘lgan obyektlar hamda taqdim etilgan namunalar **har biri alohida tartibda** ko‘zdan kechiriladi.

Bu bosqichning maqsadi – obyektlarning **ashyo dalili sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatuvchi belgilari**ni aniqlash, ularning **individuallik (o‘ziga xos) xususiyatlari**ni taxmin qilish va ularni keyingi **identifikatsiya jarayonida qo‘llash imkoniyatini** belgilab olishdir. Shu bilan birga, ekspert obyektlarning tadqiqotga **yaroqlilik darajasini**, namunalar soni va sifatining **yetarliligini**, shuningdek qo‘shimcha ma’lumot yoki namuna zarurligini aniqlaydi.

Mazkur bosqichning muhim vazifalaridan biri – **tadqiqot metodikasini tanlash**, o‘tkaziladigan tekshiruv turlarini va ularning

ketma-ketligini belgilash hamda **eksperimentlar rejasini ishlab chiqish**dir.

2. Ba’zi holatlarda, aynan shu bosqichda identifikatsiyaviy tadqiqot **yakunlanishi ham mumkin**. Masalan, agar ekspert oldiga qo‘yilgan vazifa uning vakolatiga kirmasa yoki taqdim etilgan namunalar yetarli bo‘lmasa, u holda ekspert tekshiruvni o‘tkazib bo‘lmasligi haqida **rasmiy hujjat** tuzadi

Shuningdek, obyektlarni alohida ko‘zdan kechirish orqali ularning **daliliy ahamiyatga ega belgilari** hamda **individuallik xususiyatlari** aniqlanadi, bu esa keyingi identifikatsiya ishlarida asos sifatida xizmat qiladi.

3. **Keyingi bosqich** – bu tekshirilayotgan obyektlar va taqqoslash uchun olingan namunalarni **alohida tahlil qilish** bosqichidir. Uning asosiy vazifasi – ekspertizaga yuborilgan har bir obyektni sinchiklab o‘rganish, **ularning o‘ziga xos belgilarini** aniqlash hamda **individuallik darajasini** belgilashdir.

4. Tekshiruv obyektlari moddiy buyumlar, ularning ayrim qismlari, bo‘laklari yoki **moddiy izlari** bo‘lishi mumkin. Masalan, **otish qurollari**, o‘q va gilzalar, portlashdan qolgan izlar, jinoyat quroli sifatida ishlatilgan buyumlar va ularning izlari, **qo‘l va oyoq izlari**, **dastxatlar**, **foto va video tasvirlar**, **marhumning suyak qoldiqlari** va boshqa shunga o‘xshash obyektlar kriminalistik ekspertiza doirasida o‘rganiladigan ashyolardir.
Tadqiqot davomida **taqqoslash uchun tayyorlangan namunalar va nusxalar ham alohida tahlil qilinadi**. Ekspert ularni diqqat bilan kuzatib, **qayerdan, qachon va kim tomonidan olinganligini**, **qaysi guruhga mansubligini**, ularning **individuallik belgilarini** hamda **identifikatsiyaga yaroqliligini** aniqlaydi.

Natijada, bu bosqich identifikatsiyaviy tadqiqotning ilmiy asosini tashkil etib, ekspert uchun ishonchli xulosa chiqarish imkonini beradi.

Ushbu bosqichda tekshiruv jarayonida **namuna va nusxalarning soni hamda sifati**, shuningdek ularning ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi

qaror (yoki ajrim)da ko‘rsatilgan ma’lumotlarga **mosligi**, **identifikatsiya o‘tkazishga yaroqliligi va yetarliligi** aniqlanadi.

Keyingi bosqichda ekspert **ekspertiza obyektlarini va ularning sifat-belgilarini o‘zaro solishtiradi**. Amaliyotda bu jarayon **identifikatsiya nazariyasiga asoslangan umumiy uslub** orqali amalga oshiriladi. Barcha tekshiriladigan obyektlar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

- **Birinchi guruh** – identifikatsiyasi (aynanligi) aniqlanadigan obyektlar, ya’ni **ashyoviy dalillar**;
- **Ikkinchi guruh** – **taqqoslash uchun mo‘ljallangan namunalar va nusxalar**.

Solishtirish bosqichida ekspert tekshirilayotgan obyektlarning **aynan bir shaxs, buyum yoki manbaga tegishliligini** aniqlash maqsadida, ulardagi **sifat alomatlarini** namunalardagi **mos belgilar** bilan taqqoslaydi. Dastlab umumiy belgilar, so‘ngra **xususiy, individual belgilar** solishtiriladi. Agar birinchi obyektning o‘ziga xos belgilari ikkinchi obyektlarda ham takrorlansa, u holda ular **shu belgi bo‘yicha aynan deb e’tirof etiladi**.

Solishtirish jarayonida o‘xshashlik bilan birga **ba’zi tafovutlar ham uchrashi mumkin**. Bu farqlar tekshirilayotgan obyektning **hosil bo‘lish sharoiti**, **begona yoki manfaatdor shaxslarning aralashuvi**, **tasodifiy ta’sirlar** natijasida yuzaga kelgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Ba’zi hollarda ekspert **jinoyat ishining ekspertizaga daxldor ayrim holatlari** bilan tanishishni talab qilishi mumkin. Bunday holat odatda **dastlabki bosqichda** amalga oshiriladi, ammo zarurat tug‘ilganda **keyingi bosqichlarda ham** qo‘llanilishi mumkin.

Tekshiruvning barcha bosqichlari **o‘zaro chambarchas bog‘langan** bo‘lib, ularning orasiga qat’iy chegara qo‘yib bo‘lmaydi tahlil va solishtirish jarayonlari bir-birini to‘ldiradi. Zarur hollarda ekspert **tahliliy bosqichga qaytib**, ayrim obyektlarni **takroran o‘rganishi** ham mumkin. Bunday vaziyatda **boshqa uslublar**dan foydalanish yoki **qo‘shimcha namunalar** olish zarurati tug‘iladi.

Bu jarayon, odatda **ekspert va ekspertizani tayinlagan surishtiruvchi, tergovchi yoki sudya** o‘rtasidagi **muloqot orqali hal etiladi**. Solishtirish davomida ekspert **maxsus metodik yondashuvlar**dan tashqari, **kriminalistik texnik vositalardan** ham keng foydalanadi xususan, **mikro va makro suratga olish**, **tajriba-eksperimentlar o‘tkazish** kabi usullar bu bosqichda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tekshiruv natijalarini tahlil qilish va yakuniy xulosa chiqarish bosqichi – bu **identifikatsiya jarayonining so‘nggi bosqichi** bo‘lib, unda olingan natijalar belgilangan **talab va qoidalarga muvofiq baholanadi** hamda **ekspertning yakuniy xulosasi** shakllantiriladi. Ushbu bosqichda **taqqoslab tekshirilgan obyektlarning bir guruhga mansubligi yoki ularning aynanligi** aniqlanadi. Agar obyektlar o‘zaro mos kelmasa, ekspert ularning **boshqa tur yoki manbaga tegishli ekanligini** qayd etadi.

Obyektning aynanligini tasdiqlash yoki inkor etish faqat **alohida belgilar o‘xshashligi yoki tafovuti** asosida emas, balki **barcha aniqlangan belgilar majmuasiga tayanib** amalga oshiriladi. Faqat shunday yondashuvgina **ilmiy asoslangan va obyektiv xulosa** berish imkonini yaratadi, bu esa **jinoyat ishi uchun ishonchli dalil manbasi** bo‘lib xizmat qiladi.

Ekspertning barcha tadqiqotlari, tekshiruv bosqichlari va ularning natijalari **maxsus protsessual hujjat – ekspert xulosasida** bayon etiladi. Xulosaning **bayonot (tadqiqot) qismi** ekspert faoliyatining eng muhim bo‘lagi bo‘lib, unda tekshiruv jarayoni to‘liq aks ettiriladi. Ushbu bo‘limda ekspert quyidagilarni batafsil bayon etadi:

- obyektlarni yakka tartibda kuzatish natijalari;
- sifat belgilarining individulligi va barqarorlik darajasi;
- o‘tkazilgan taqqoslash ishlari hamda ularning xulosalari;
- xulosa shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar;
- ishlatilgan maxsus kriminalistik texnika vositalari;
- qo‘llangan usullar hamda tajriba-eksperimentlarning mohiyati va tafsilotlari.

Shuningdek, ekspert **o‘z tadqiqotlari ketma-ketligini** ifoda etib, **olingan natijalardan kelib chiqqan yakuniy xulosani** keltiradi.

Ekspert xulosasining **yakunlovchi bo‘limi** – bu **aniq va qisqa javoblar berilgan qism** bo‘lib, unda ekspertizaga qo‘yilgan har bir savolga **tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi shaklda** javob beriladi. Ba’zi hollarda ekspert **aniq xulosa berolmay**, faqat **taxminiy xulosa** keltirishi mumkin. Bunday holatlarda bunga sabab bo‘lgan omillar **ekspert xulosasining tadqiqot qismida to‘liq asoslab yozilishi shart**.

Ekspertning xulosasi **protsessual hujjat** sifatida e’tirof etiladi va **jinoyat ishi doirasida dalil manbasi** hisoblanadi. U ishda mavjud boshqa dalillar bilan bir qatorda **qonunda belgilangan umumiy prinsiplar asosida baholanadi**.

Tergov amaliyotida **yuzlashtirish** – bu ilgari so‘roq qilingan ikki shaxsni bir-biri bilan **to‘g‘ridan-to‘g‘ri uchrashtirib so‘roq qilish jarayoni** bo‘lib, u **ikki guvoh**, **ikki ayblanuvchi**, shuningdek **jabrlanuvchi bilan guvoh yoki ayblanuvchi** o‘rtasida ham o‘tkazilishi mumkin. Yuzlashtirishning asosiy maqsadi – **guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilarning ko‘rsatmalarida mavjud bo‘lgan jiddiy qarama-qarshiliklar hamda turli kelishmovchiliklarni aniqlash va bartaraf etishdir**.

Agar bu kabi ziddiyatlarni yuzlashtirish yo‘li bilan hal etishning iloji bo‘lmasa, u holda **ekspertiza tayinlash**, **tanib olishga taqdim etish** yoki **boshqa tergov harakatlari** orqali masala aniqlashtiriladi. Ba’zi hollarda esa ma’lumotlarni, masalan, **voqea vaqti, kuni yoki soatini** tegishli muassasa yoki mas’ul xizmatchilardan aniqlash mumkin bo‘lgan taqdirda, **yuzlashtirish zarur bo‘lmaydi**. Shu sababli bu tergov harakati **faqat zarurat tug‘ilgandagina** amalga oshiriladi.

Yuzlashtirishning afzalligi shundaki, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslar **ilgari bergan noto‘g‘ri ko‘rsatmalarini o‘zgartirib, haqiqatni bayon etishlari**, shuningdek **yodlaridan chiqqan ayrim faktlarni eslab, ish uchun muhim bo‘lgan yangi ma’lumotlarni taqdim etishlari** mumkin. Ba’zida yuzlashtirish chog‘ida so‘roq qilinuvchilardan biri

avvalgi ko‘rsatmasidan voz kechib, yangi versiyani o‘ylab topadi yoki **yolg‘on so‘zlaganini oshkor etadi**. Bunday holatlarda uni **yana qayta so‘roq qilish maqsadga muvofiq** bo‘ladi.

Yuzlashtirish tartibi quyidagicha: agar yuzlashtirilayotgan shaxslar **guvoh** bo‘lsa, ular avvalo **yolg‘on ko‘rsatma berish yoki javob berishdan bosh tortganlik uchun jinoiy javobgarlik** haqida ogohlantiriladi va bu haqda **bayonnomada imzo bilan tasdiqlanadi**. Shundan so‘ng, ular **bir-birlarini tanish-tanishmasliklari, o‘zaro munosabatlari** haqida javob beradilar, bu ma’lumotlar ham **bayonnomaga kiritiladi**.

So‘ngra **savol-javob jarayoni** har biri bilan **alohida tartibda** olib boriladi: birinchi shaxsga savol berilib, uning javobi yoziladi, keyin shu savol ikkinchisiga beriladi. Bayonnomada **chap tomonda birinchi shaxsning**, **o‘ng tomonda esa ikkinchisining** savol va javoblari qayd etiladi. Tergovchi savollarni o‘zi belgilab beradi, ularning javoblarini tinglab, **so‘roq jarayonini boshqaradi**.

Yuzlashtirish vaqtida shaxslar o‘zaro savol berishlari mumkin, biroq bu **tortishuv yoki janjal ko‘rinishiga aylanmasligi** shart. Shuning uchun tergovchi jarayonni **to‘liq nazorat ostida** olib boradi, savollar berish tartibini ham u belgilaydi.

Yuzlashtirish samarali o‘tishi uchun **tergovchi oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rishi** zarur. U ilgari o‘tkazilgan so‘roqlarni diqqat bilan tahlil qilib chiqadi, yuzlashtirish davomida **qaysi savollarni berish**, **kimdan boshlash**, **qanday dalillarni aniqlashtirish** va **jarayonni qanday yo‘nalishda olib borish** masalalarini oldindan rejalashtirib qo‘yadi.

Natijada, to‘g‘ri tashkil etilgan yuzlashtirish **ish bo‘yicha haqiqatni aniqlash**, **noto‘g‘ri ko‘rsatmalarni fosh etish** va **dalillarning ishonchliligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega** bo‘ladi.

Yuzlashtirishda ishtirok etuvchi shaxslar ilgari jinoyat ishi doirasida **alohida, mustaqil tarzda so‘roq qilingan bo‘ladilar**, shu sababli yuzlashtirish jarayoni **bevosita savol-javobdan** boshlanadi. Odatda,

ularning oldingi ko‘rsatmalarida **bir-biriga zid fikrlar yoki tafovutlar** uchraydi: masalan, **bir shaxs muayyan faktni tasdiqlasa, ikkinchisi uni inkor etadi**. Shu bois bunday holatlarda savol-javobni **haqiqatga yaqinroq, tasdiqlovchi shaxsdan** boshlash maqsadga muvofiqdir.

Ba’zan jinoyat ishi bo‘yicha **guvoh, jabrlanuvchi yoki ayblanuvchi** o‘z tashabbusi bilan boshqa shaxs bilan **yuzlashtirishni o‘tkazishni so‘raydi**. Bunday hollarda **birinchi savolni aynan shu talabni bildirgan shaxsga berish** to‘g‘riroq hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim ayblanuvchilar **guvohlarning ko‘rsatmalaridagi ba’zi faktlarni rad etib**, ularni **yolg‘on so‘zlaganlikda ayblashlari** mumkin. Bunday hollarda **ayblanuvchini ikkinchi navbatda so‘roq qilish** maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Har bir yuzlashtirish jarayonida tergovchi qaysi ishtirokchining ko‘rsatmalarini ishonchliroq deb hisoblayotgan bo‘lsa, savol berishni avvalo o‘sha shaxsdan boshlashi, undan keyin esa ikkinchi ishtirokchiga murojaat qilishi kerak.

Muhim jihatlardan biri shundaki, **yuzlashtirilayotgan shaxslarga ilgari bergan ko‘rsatmalari bir-biriga ochiqlanmasligi kerak**. Aks holda, ular **oldingi bayonotlarini o‘zaro tasdiqlab**, bir-birining javobini qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanib qoladilar. Bu esa yuzlashtirish jarayonining **mazmunini va samaradorligini pasaytiradi**.

Yuzlashtirish jarayoni yakunida **bayonnoma tuziladi**. Unda har bir shaxs uchun **alohida qism ajratiladi**, shu joylarga **savollar va ularning javoblari yoziladi**. Bayonnoma oxirida **har ikkala shaxs o‘ziga tegishli qismni imzolaydi**, bu esa ularning ko‘rsatmalari aniqligini va huquqiy kuchini tasdiqlaydi.

KAZUS: «Tintuv vaqtida topilgan dalil va yuzlashtirish natijasida aniqlangan haqiqat»

Vaziyat

2025-yil 5-mart kuni soat 21:00 da Chilonzor tumanida joylashgan telefon do‘konida **talonchilik** sodir bo‘ladi. Noma’lum shaxs kechki payt

do‘konga kirib, sotuvchini urib, kassadagi 8 million so‘m va bir nechta smartfonni olib qochadi.

Bir necha kundan so‘ng, tezkor ma’lumotlarga ko‘ra, ilgari o‘g‘rilik uchun sudlangan fuqaro **Jahongir T.** ushbu jinoyatga aloqador bo‘lishi mumkinligi aniqlanadi.

Tergovchi Jahongir T.ning yashash joyini aniqlab, **tintuv** o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqaradi. Tintuv natijasida uning uyida yangi telefonlar qutisi, so‘ralgan modeldagi telefon va bir nechta katta miqdordagi naqd pul topiladi.

Ushbu holat yuzasidan Jahongir T. telefonlarni bozordan sotib olganini aytadi. Biroq do‘kon sotuvchisi telefonlarni o‘ziga xos belgilar orqali tanib, bu o‘g‘irlangan telefonlar ekanini tasdiqlaydi.

Keyinchalik tergovchi **do‘kon sotuvchisi (guvoh)** bilan Jahongir T. (gumondor)ni **yuzlashtirish** qarorini qabul qiladi.

Yuzlashtirish jarayonida sotuvchi aytadi:

«Men bu shaxsni jinoyat kechasida aniq ko‘rganman. U maskasiz holda keldi. Aynan shu odam meni urgan».

Jahongir T. esa avvalgi bayonotidan chekinadi va «Men o‘sha kuni u yerda bo‘lmaganman» deb inkor qiladi.

Biroq **ko‘rsatmalarni hodisa joyida oshirish** (hodisa joyiga chiqib, qayta eslash) vaqtida guvoh joyni, voqeani va harakatlar ketma-ketligini ko‘rsatadi, shu bilan birga kuzatuv kamerasidagi shaxs bilan gumondorning tashqi belgilarini solishtirish mumkin bo‘ladi.

Tahliliy maqsadlar (tergovchi oldidagi asosiy vazifalar)

1. Tintuvni qonuniy asosda o‘tkazish va moddiy dalillarni protsessual tartibda **ruxsatnoma bilan olib qo‘yish**.
2. Yuzlashtirishni to‘g‘ri tashkil etish – **psixologik bosim**siz, bayonotlar tafovutini aniqlash.
3. Ko‘rsatmalarni hodisa joyida oshirish orqali guvoh xotirasini **haqiqiy joy va sharoitda tiklash**.

4. Olingan dalillarni bir-biri bilan **taqqoslab baholash** (telefon, pul, guvoh ko‘rsatuvi).

Tahliliy savollar

1. Tintuv o‘tkazishdan oldin qanday protsessual ruxsat zarur?
2. Tintuv vaqtida dalillarni to‘g‘ri fiksatsiya qilish uchun nimalarga e’tibor beriladi?
3. Yuzlashtirish jarayonida tergovchi qanday xatolarga yo‘l qo‘ymasligi kerak?
4. Ko‘rsatmalarni hodisa joyida oshirishning afzalligi nimada?
5. Agar guvoh joyda ilgari aytgan gapidan cheksa, tergovchi qanday taktika qo‘llashi kerak?

Xulosa

Mazkur kazusda **tintuv, yuzlashtirish va ko‘rsatmalarni hodisa joyida oshirish** tergovning eng muhim bosqichlari sifatida jinoyatni ochishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Dalillarni qonuniy yo‘l bilan olish, shaxslarning huquqlarini ta’minlash va taktik ketma-ketlikka amal qilish – **haqiqatni aniqlash**ning kafolatidir.

Nazorat savollari

1. Tintuv nima va u qanday maqsadda amalga oshiriladi? Tintuvning asosiy turlari qaysilar hamda uni o‘tkazishda qanday taktik usullardan foydalaniladi?
2. Olib qo‘yish deganda nimani tushunish mumkin? Bu tergov harakati tintuvdan qaysi jihati bilan farqlanadi? Olib qo‘yishni amalga oshirishda qanday protsessual bosqichlar bajariladi?
3. Ko‘rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish deganda nima nazarda tutiladi? Ushbu tergov harakatining vazifalari nimalardan iborat va uni o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsad nima?

4. Ko‘rsatuvlarni hodisa joyida tekshirishdan avval tergovchi tayyorgarlik jarayonida qanday ishlarni amalga oshiradi? Bu bosqichda qaysi tashkiliy va amaliy choralar ko‘riladi?

5. Ko‘rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish qanday protsessual tartibda o‘tkaziladi? Ushbu tergov harakatini amalga oshirishda tergovchi qanday taktik tamoyillarga amal qilishi va nimalarga e’tibor berishi lozim?

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RO‘YXATGA OLINGAN JINOYATLAR SONI

(Statistik ma’lumotlar)

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilning yanvar-dekabr oylarida respublika bo‘yicha ro‘yxatga olingan jinoyatlarning umumiy soni 132 298 tani tashkil etgan). Bu 2023-yilning mos davriga nisbatan 27,1 foizga, 2021-yilning mos davriga esa 19,1 foiz ko‘payganini ko‘rsatadi. Ushbu davrda jinoyatlar soni 10 ming kishiga nisbatan 35,6 ta, 2021-yilning shu davrida 31,8 ta, 2022-yilda 29,2 ta va 2023-yilda 28,3 ta bo‘lgan.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida jinoyatchilikning 10 ming aholiga nisbatan eng yuqori darajasi Toshkent shahrida – 104,3 ta qayd etilgan bo‘lsa, Toshkent viloyatida – 47,7 ta, Navoiy viloyatida – 38,0, Buxoro viloyatida – 36,3, Sirdaryo viloyatida – 35,7 ta va Farg‘ona viloyatida – 34,8 ta jinoyatchilik holatlari kuzatildi.

Eng kam jinoyat darajasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi (23,2 ta), Samarqand (22,1 ta) va Qashqadaryo (21,8 ta) viloyatlarida aniqlangan. Shuningdek, Xorazm viloyati jinoyatchilik darajasi bo‘yicha oxirgi o‘rinni egallab, 10 ming aholiga nisbatan 21,5 ta jinoyat holati qayd etilgan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi, bu esa huquq-tartibotini ta’minlashda ijobiy natijalarga erishish, mamlakatda jinoyatchilik bilan bog‘liq vaziyatni sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi.

Jinoyat darajasi – jinoyatning mutlaq ko‘rsatkichlarda (ma’lum bir hududda ma’lum vaqtda sodir qilingan jinoyatlar soni), nisbiy miqdor (10 ming yoki 100 ming aholiga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar soni) bilan o‘lchaniladigan jinoyatchilikning miqdoriy belgisidir.

Jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra: ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan; uncha og‘ir bo‘lmagan; og‘ir va o‘ta og‘ir

jinoyatlarga bo‘linadi. Jinoyatlar dinamikasi tahliliga ko‘ra o‘ta og‘ir jinoyatlar soni 5 357 tani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 24,1 foizga oshgan, og‘ir jinoyatlar soni esa 2,4 marta oshgan bo‘lsa, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar 33,4 foizga va ijtimoiy xavfi kam bo‘lmagan jinoyatlar soni esa 14,4 foizga kamaydi.

Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. Uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Og‘ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin o‘n yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. O‘ta og‘ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o‘n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha eng ko‘p jinoyatlar Toshkent shahrida (32 106 ta), Toshkent (14 702 ta), Farg‘ona (14 289 ta) va Samarqand (9 402 ta) viloyatlarida, eng kami esa – Sirdaryo (3 295 ta) Navoiy (4 120 ta) va Jizzax (4 288 ta) viloyatlarida qayd etilgan.

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida jinoyatlar soni 111 082 ta qayd etilgan bo‘lsa, 2024-yilning mos davrida bu ko‘rsatkich 132 298 tani tashkil etdi. So‘nggi to‘rt yil davomida (2021–2024-yillar yanvar-dekabr oylari) qayd etilgan jinoyatlar soni 21 216 taga yoki 19,1 foizga ko‘payish holati kuzatildi. Shu bilan birga, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida

2023-yilning mos davriga nisbatan 27,1 foizga, 2022-yilning mos davriga nisbatan esa 27,6 foizga oshgan.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar orasida Toshkent shahri – 20,8 foiz, Farg‘ona viloyati – 14,3 foiz va Toshkent viloyati – 13,2 foiz bilan yetakchi o‘rinni egallab turibdi.

Uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar Toshkent shahri – 15,5 foiz, Toshkent – 13,2 foiz va Farg‘ona viloyatida – 12,4 foiz qayd etilgan. Shu bilan birga, eng past ko‘rsatkichlar Sirdaryo (3,5 foiz) va Xorazm viloyatida (3,1 foiz) qayd etildi.

Og‘ir jinoyatlar orasida Toshkent shahri – 27,6 %, Toshkent – 9,5 % va Farg‘ona viloyatlari – 8,8 foiz yetakchilik qilmoqda. Kichik ulushlar Jizzax viloyatida – 3,6 foiz, Navoiy viloyatida – 3,3 foiz, shuningdek Sirdaryo viloyatida– 2,3 foiz va Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 3,2 foizdan to‘g‘ri keldi.

O‘ta og‘ir jinoyatlar bo‘yicha ham Toshkent shahri – 32,7 foiz, Toshkent viloyati – 10,5 foiz, Samarqand viloyati – 9,1 foiz va Farg‘ona viloyati – 7,7 foiz bilan yetakchilik qilmoqda. Kam nisbatlar esa Sirdaryo viloyati – 3,1 foiz, Jizzax viloyatida – 1,9 foiz, hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 2,7 foiz qayd etildi.

O‘ta og‘ir jinoyatlarning asosiy qismi Toshkent shahrida – 1 753 ta, Toshkent – 563 ta, Samarqand – 489 ta, Farg‘ona – 411 ta, Andijon – 306 ta, Namangan – 299 ta, Xorazm – 271 ta va Surxondaryo viloyatlarida – 263 ta jinoyatlar sodir etilgan. Nisbatan kam holatlar Navoiy (100 ta) va Jizzax (110 ta) viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (145 ta) kuzatildi.

Ro‘yxatga olingan jinoyatlarning aksariyati iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar – 62,9 foiz, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar ikkinchi o‘rinda – 20,2 foiz, shu bilan bir qatorda shaxsga qarshi jinoyatlar – 11,2 foiz, shuningdek hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyati tartibiga qarshi jinoyatlar – 5,4 foizni tashkil etdi. Shuningdek, tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar – 0,2 foiz, ekologiya sohasidagi jinoyatlar – 0,1 foizga yetdi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga ko‘ra, iqtisodiy sohadagi jinoyatlar o‘zgalarning mulkini o‘g‘rilash, iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar, iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarga bo‘linadi. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar tinchlikka qarshi jinoyatlar va insoniyat xavfsizligi, mamlakatga qarshi jinoyatlarga bo‘linadi. Shaxsga qarshi jinoyatlar hayotga, sog‘likka qarshi, jinsiy erkinlikka qarshi, oilaga, yoshlarga va ma’naviyatga qarshi, erkinlik, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi, fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarga bo‘linadi. Davlat organlari, boshqaruv va jamoat birlashmalari faoliyati tartibiga qarshi jinoyatlarga boshqaruv tartibiga va odil sudlovga qarshi jinoyatlar kiradi.

Mamlakatimizda aniqlangan iqtisodiy sohadagi jinoyatlar orasida o‘g‘rilik – 58,1 foizni, firibgarlik – 35,1 foizni, talonchilik – 0,6 foizni, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish – 1,6 foizni, bosqinchilik – 0,2 foizni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra iqtisodiy jinoyatlar ichida jami 29 252 ta firibgarlik (aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritish) (35,1 foiz), 48 375 ta o‘g‘rilik (o‘zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish) (58,1 foiz), 1 368 ta o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish (1,6 foiz), 330 ta soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash (0,4 foiz), 517 ta talonchilik (0,6 foiz), 501 ta tovlamachilik (0,6 foiz), 649 ta qalbaki pul, aksiz markalari yoki qimmatli qog‘ozlar yasash, ularni o‘tkazish (0,8 foiz), 163 ta bosqinchilik (o‘zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatib yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib sodir etish) (0,2 foiz), 304 ta elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish (0,4 foiz), 351 ta etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish (0,4 foiz), 117 tasi nodavlat tijorat tashkilotda yoki boshqa nodavlat tashkilotda mansabdor

shaxslar tomonidan o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilish (0,1 foiz) va boshqa turdagi jinoyatlarni tashkil etdi.

Mamlakatimizda aniqlangan shaxsga qarshi jinoyatlar orasida qasddan badanga engil shikast yetkazish – 20,2 foiz, qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazishga – 16,1 foiz, voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlash – 9,6 foizni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan quyidagi jinoyat turlari kamaygan: qasddan badanga yengil shikast etkazish – 21,8 foizga, nomusga tegish va nomusga tegishga urinish – 6,9 foizga, qasddan odam o‘ldirish va odam o‘ldirishga urinish – 11,4 foizga, qasddan badanga og‘ir shikast etkazish (hayot uchun xavfli bo‘lgan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish natijasida ko‘rish, so‘zlash, eshitish qobiliyatini yo‘qotish) 10,9 foizga, kamaydi. Jinoyatlarning quyidagi turlari bo‘yicha o‘sish qayd etildi: odam savdosi – 22,9 foizga, ehtiyotsizlik orqasidan odam o‘ldirish – 0,3 foizga o‘sgan.

Bosqinchilik – hayot va sog‘liq uchun xavfli zo‘ravonlik qo‘llash yoki shunday zo‘ravonlik qilish tahdidi bilan birovning mulkini o‘g‘rilash maqsadida qilingan hujum (O‘zbekiston Respublikasi JK 164-modda). Talonchilik – o‘zganing mulkini ochiqdan-ochiq o‘g‘rilash (O‘zbekiston Respublikasi JK 166-modda).

Mamlakatimizda aniqlangan jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar orasida giyohvandlik vositalarini tayyorlash yoki sotish – 34,1 foiz, yo‘l harakati xavfsizligi yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish – 35,0 foiz, bezorilik – 8,9 foizni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 2023-yilning xuddi shu davriga nisbatan jinoyatlarning quyidagi turlari: giyohvandlik vositalarini tayyorlash yoki sotish – 36,8 foizga, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish hamda o‘tkazish – 21,6 foizga va transport vositalarini o‘g‘rilash – 8,5 foizga, taqiqlangan ekinlarni yetishtirish – 13,3 foizga o‘sdi. Bezorilik – 9,1 foizga, yo‘l harakati xavfsizligi yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish – 4,9 foizga,

mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish – 12,7 foizga, daromadlarni legallashtirish, ya'ni mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan boʻlsa, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yoʻli bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish – 50,8 foizga kamaydi.

Bezorilik – bezorilik, ya'ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-doʻpposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki oʻzganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bogʻliq holda sodir etish (Oʻzbekiston Respublikasi JK 277-modda).

Belgilangan davrda jinoyat sodir etgan shaxslarning umumiy soni 59 951 nafarga etdi. Shu jumladan, ularning 5,6 foizini voyaga yetmaganlar tashkil etsa, huquqbuzarlik sodir etgan ayollarning ulushi 11,9 foiz holatida qayd etildi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida oʻtgan yilning shu davriga nisbatan jinoyat sodir etgan shaxslar soni 28 962 nafarga yoki 32,6 foizga kamaygan.

Jinoyat sodir etgan shaxslar – huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan rasman roʻyxatga olingan, ularga nisbatan jinoyat ishi qoʻzgʻatilgan shaxslardir.

Eng koʻp jinoyat sodir etgan shaxslar Toshkent shahar (10 238 nafar), Fargʻona (7 878 nafar) va Toshkent (7 560 nafar) viloyatlarida qayd etilgan. Eng kam koʻrsatkich Xorazm (1 617 kishi) va Sirdaryo (1 724 kishi) viloyatlarida, shuningdek Qoraqalpogʻiston Respublikasida – 2 007 kishi qayd etilgan. Jinoyat sodir etgan shaxslarni har 100 ming aholiga nisbatan tahlil qilganda Toshkent shahri – 332,8 ming kishi, Toshkent – 245,4 ming, Fargʻona – 192,0 ming, Sirdaryo – 186,9 ming, Namangan – 169,4 ming, Navoiy – 176,2 ming, Buxoro – 141,7 ming, Andijon – 132,5 ming, Samarqand – 115,8 ming va Jizzax viloyatlari – 128,3 ming kishi hisobida ustunlik qilmoqda.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida jinoyat sodir etgan ayollarning umumiy soni 7 163 nafarni tashkil etdi. Jinoyat sodir etgan ayollar sonini tahlil qilish, hududlarda eng yuqori darajada Toshkent shahrida – (1 189

nafar ayol), Farg‘ona – (940 nafar ayol) va Toshkent viloyatlarida – (737 nafar ayol) qayd etilganligini ko‘rsatdi. Past ko‘rsatkichlar Sirdaryo (169 nafar ayol) va Jizzax (203 nafar ayol) viloyatlarida, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasida (265 nafar ayol) qayd etilgan. Shu bilan bir qatorda, erkak jinoyatchilar soni 52 788 kishiga yetdi. Erkak jinoyatchilarning yuqori darajasi Toshkent shahrida – 9 049, Farg‘ona viloyatida – 6 938 va Toshkent viloyatida – 6 823 nafarni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida jinoyat sodir etganlarning yoshi bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatadiki, qayd etilgan huquqbuzarlarning umumiy sonida eng katta ulushni 31 yosh va undan katta yoshdagi fuqarolar – 56,7 foiz (33 969 nafar)ni tashkil etsa, 18-30 yosh – 37,7 foiz (22 618 kishi), 15-17 yoshlilar orasida kichik nisbatlar – 5,0 foiz (2 998 kishi), 13–14 yoshlilar – 0,6 foiz (366 kishi)dan iborat.

Jinoyat turlari bo‘yicha jinoyat sodir etganlarning soni asosiy qismi qasddan odam o‘ldirish va odam o‘ldirishga urinish – 273 ta, qasddan badanga og‘ir shikast etkazish – 945 ta, nomusga tegish va nomusga tegishga urinish – 344 ta, o‘g‘rilik – 9 278 ta, talonchilik va bosqinchilik – 781 ta, firibgarlik – 5 430 ta, tovlamachilik – 552 ta, bezorilik – 3 126 ta, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish – 1 152 ta va poraxo‘rlik – 1 329 tani tashkil etgan. Shundan, jinoyat turlari bo‘yicha 31 yosh va undan katta yoshdagilar orasida asosan o‘g‘rilik – 42,5 foiz (9 278 tadan 3 940 ta), firibgarlik – 61,7 foiz (5 430 tadan 3 350 ta). 18-30 yoshli huquqbuzarlar orasida o‘g‘rilik – 41,1 foiz (9 278 tadan 3 814 ta), firibgarlik – 36,2 foiz (5 430 tadan 1 967 ta), bezorilik – 52,8 foiz (3 126 tadan 1 650 ta)ni tashkil etgan. 15-17 yoshlilar orasida eng ko‘p o‘g‘rilik 13,7 foiz (9 278 tadan 1 269 ta), talonchilik va bosqinchilik 22,0 foiz (781 tadan 172 ta), bezorilik – 10,3 foiz (3 126 tadan 323 ta)ni tashkil etdi. 13–14 yoshlilar o‘rtasida eng ko‘p o‘g‘rilik – 2,7 foiz (9 278 tadan 252 ta), hamda bezorilik – 1,1 foiz (3 126 tadan 33 ta) sodir etilgan.

Jinoyat sodir etgan shaxslarning jinsi va jinoyat turi bo‘yicha taqsimlanishi bo‘yicha turlari, qasddan odam o‘ldirish va odam o‘ldirishga urinish jinoyati bo‘yicha 273 tadan 242 tasi erkaklar, 31 tasi esa ayollarni

tashkil etgan. 2023-yilga nisbatan erkaklar o‘rtasida 32,4 foizga kamaygan, ayollar o‘rtasida 19,2 foizga oshgan. Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish 945 tadan 894 tasi erkaklar, 51 tasi ayollarni tashkil qilgan, 2023-yilga nisbatan erkaklarda 26,0 foizga, ayollarda 36,3 foizga kamaygan.

O‘g‘rilik jinoyati bo‘yicha 9 278 tadan 7 951 tasi erkaklar, 1 327 tasi ayollarni tashkil etgan. 2023-yilga nisbatan erkaklar o‘rtasida 5,8 foizga, ayollar o‘rtasida 13,0 %ga kamaygan. Firibgarlik jinoyati bo‘yicha 5 430 tadan 4 646 tasi erkaklar, 784 tasi ayollarni tashkil etgan. 2023-yilga nisbatan erkaklar o‘rtasida 60,6 foizga, ayollar o‘rtasida 64,0 foizga kamaygan.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida voyaga yetmaganlar orasida aniqlangan jinoyat sodir etgan shaxslar soni tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularning soni 2023-yilning shu davriga nisbatan 235 kishiga kamaygan.

Harakatsizlik – shaxsning normativ hujjatlarda bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni bajarmaslikda ifodalangan ijtimoiy xavfli, ongli va sust xulq-atvori.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlar soni 3 364 nafarni tashkil etib, ularning umumiy sonidan 5,6 foizini tashkil etdi. Tahlillar viloyatlar bo‘yicha voyaga yetmaganlar o‘rtasida sodir etilgan jinoyatlarning 8,9 foizini (300 nafar) qiz bolalar tomonidan sodir etilganini qayd etdi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 2023-yilning shu davriga nisbatan jinoyat sodir etganligi aniqlangan voyaga yetmaganlar soni 6,5 foizga, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan esa 8,1 foizga kamaygan. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning eng ko‘p ulushi Toshkent shahriga (580 kishi), Farg‘ona (594 kishi), Namangan (375 kishi) va Toshkent viloyatlariga (342 kishi) to‘g‘ri kelgan. Shu bilan birga, Xorazm (45 nafar), Sirdaryo (61 nafar) va Jizzax (69 nafar) viloyatlarida eng kam huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlar qayd etilgan.

Voyaga yetmagan shaxs – o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxs.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida voyaga yetmagan shaxslar 1 521 ta o‘g‘rilik, 356 ta bezorilik, 113 ta firibgarlik, 187 ta talonchilik va bosqinchilik, 106 ta qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish, 47 ta tovlamachilik, 7 ta qasddan odam o‘ldirish jinoyatlarini sodir etgan.

Farg‘ona viloyatida jinoyat sodir etganligi aniqlangan voyaga yetmaganlar ichida o‘g‘il bolalar eng ko‘p kuzatilmoqda, 536 nafar – bu viloyatda umumiy sonining 17,5 foiz, keyin Toshkent shahrida – 524 nafar (shahardagi huquqbuzarlar umumiy sonining 17,1 foizi), Namangan viloyatida – 328 nafar (10,7 foiz), Toshkent viloyatida – 313 nafar (10,2 foiz). Voyaga yetmagan qizlar o‘rtasida Farg‘ona viloyati – 58 nafar, Namangan viloyati – 47 nafar, Toshkent 29 nafar va Andijon viloyati – 24 nafarni tashkil etib, ustunlik qilmoqda. Toshkent shahrida jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan qizlar soni 56 tani tashkil etdi.

Nomusga tegish – zo‘rlik ishlatib, qo‘rqitib yoki jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib, jinsiy aloqa qilish (O‘zbekiston Respublikasi JK 118-modda). Nomusga tegishga urinish jinsiy aloqa bilan yakunlanmaydigan nomusga tegishga urinishdir. Biroq, urinishning o‘zi jinoyat hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 2023-yilning shu davriga nisbatan jinoyatlarning quyidagi turlarida kamayish holatlari qayd etildi: o‘g‘rilik – 5,1 foiz, nomusga tegish va nomusga tegishga urinish – 11,1 foiz, firibgarlik – 16,3 foiz, bezorilik – 21,4 foiz va qasddan odam o‘ldirish va odam o‘ldirishga urinish – 41,7 foiz. Jinoyatlarning quyidagi turlari bo‘yicha o‘sish holatlari qayd etildi: talonchilik – 1,3 foiz, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish – 1,9 foiz, bosqinchilik – 13,8 foiz, tovlamachilik – 74,1 foiz va giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish – 61,4 foiz ga.

Bundan tashqari, 2024-yil yanvar-dekabr oylarida voyaga yetmaganlar o‘rtasida 92 ta giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish yoki

sotish, 156 ta transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish, 5 ta qalbaki pul, aksiz markasi yoki qimmatli qog‘ozlar yasash, ularni o‘tkazish holatlari aniqlangan.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar Ro‘yxatga olingan jinoyat – huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlangan va rasman hisobga olingan, jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfga ega xatti-harakatdir.

Jinoyatlarni tasniflash – jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra: ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan; uncha og‘ir bo‘lmagan; og‘ir; o‘ta og‘ir jinoyatlarga bo‘linadi (O‘zbekiston Respublikasi JK 15-modda).

Tovlamachilik – ya’ni jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo‘rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilish bilan qo‘rqitib, o‘zgadan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo‘sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o‘z mulki yoki mulkka bo‘lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo‘yish (O‘zbekiston Respublikasi JK 165-modda).

Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish – sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo‘lgan qasddan badanga og‘ir shikast etkazish natijasida ko‘rish, so‘zlash, eshitish qobiliyatini yo‘qotish yoxud biron a’zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyati tamoman yo‘qolishiga, ruhiy holatining buzilishiga yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda buzilishiga, umumiy mehnat qobiliyatining o‘ttiz uch foizidan kam bo‘lmagan qismining doimiy yo‘qolishiga yoki homilaning tushishi yoxud badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishiga sabab bo‘lishidir (O‘zbekiston Respublikasi JK 104-modda).

Pora olish – ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsi tomonidan shaxsan yoki vositachi orqali moddiy boyliklarni amalga oshirganligi yoki bajarmaganligi uchun moddiy manfaatlar olishi yoki ularni bila turib

qonunga xilof ravishda olishi, mansabdor shaxs o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda qilishi kerak bo‘lgan yoki qilishi mumkin bo‘lgan muayyan pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakatni amalga oshirish (O‘zbekiston Respublikasi JK 210-modda).

Noqonuniy ekinlarni etishtirish – ma’lum bir mamlakat yoki mintaqada qonun bilan taqiqlangan o‘simlik ekinlarini etishtirish.

Bu giyohvand o‘simliklarni etishtirishni o‘z ichiga olishi mumkin. Noqonuniy ekinlarni etishtirish jinoyat hisoblanadi va qoidabuzarlikning og‘irligiga qarab jarima, hibsga olish, va hatto qamoqqa olish bilan jazolanishi mumkin.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yoki jinoiy daromadlarni legallashtirish) – noqonuniy yo‘l bilan olingan pul mablag‘larini investisiya qilish, ko‘chirish yoki qonuniy manbalarga o‘tkazish yo‘li bilan qonuniy ko‘rinishdagi fondlarga aylantirish jarayoni.

Manba:https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=469&id=3707&Itemid=1000000000000 saytidan olingan.

TEST SAVOLLARI

1. Xalqaro jinoyat politsiyasi tashkiloti – Interpolning markazi qaysi davlatda?

A) Avstriya.

B) Fransiya.

D) AQSh.

E) Germaniya.

2. O‘zbekiston Interpolga qachon a’zo bo‘lgan?

A) 1994-yil 24-dekabr.

B) 1995-yil 15-aprel.

D) 1996-yil 10-oktabr.

E) 1993-yil 8-may.

3. BMTning jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash qo‘mitasining Kongresslari necha yilda o‘tkaziladi?

A) Har 5 yilda.

B) Har yili.

D) Har 2 yilda.

E) Har 3yilda.

4. Xalqaro jinoyat politsiyasi tashkiloti qachon tashkil topgan?

A) 1923-yil.

B) 1925-yil.

D) 1930-yil.

E) 1927-yil.

5. Interpolning Ustavi qachon amalga kiritilgan?

A) 1956-yil.

B) 1960-yil.

D) 1935-yil.

E) 1940-yil.

6. 1994-yilda qaysi shaharda Xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash masalalariga bag‘ishlangan butunjahon konferensiyasi bo‘lgan?

A) Neapol.

B) Parij.

D) London.

E) Vashington.

7. Nyu-York shahrida BMT qoshida «Yollanma odamlarni jalb qilish, foydalanish, ularni moliyalash va ta’lim berishga qarshi kurash to‘g‘risida» Xalqaro Konvensiya qachon qabul qilingan?

A) 1989-yil dekabrda.

B) 1990-yil oktabr.

D) 1985-yil avgustda.

E) 1987-yil mayda.

8. «Terrorchilik to‘g‘risida ogohlantirish va oldini olish» mavzusida Xalqaro konferensiya birinchi marta nechanchi yilda o‘tkazilgan?

A) 1937-yil.

B) 1948-yil.

D) 1955-yil.

E) 1934-yil.

9. O‘zbekiston Respublikasida «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Qonun qachon qabul qilindi?

A) 2000-yil 15-dekabr.

B) 2000-yil 12-fevral.

D) 2001-yil 18-avgust.

E) 2002-yil 24-noyabr.

10. «Terror» so‘zi nimani anglatadi?

A) Qo‘rquv.

B) Tuxmat.

D) Portlash.

E) Yo‘q qilish.

11. MDHga kiruvchi mamlakatlarning kengashi tomonidan uyushgan jinoyatchilik va boshqa xavfli jinoyatlarga qarshi kurashish Dasturi qachon tasdiqlangan?

A) 1993-yil.

B) 1992-yil.

D) 1991-yil.

E) 1994-yil.

12. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari BMT tomonidan tashkil etilgan 1991-yil 21-oktabrdagi seminarda muhokama qilingan edi. U qaysi shaharda o‘tkazilgan?

A) Suzdal.

B) Moskva.

D) Kiyev.

E) Leningrad.

13. 1990-yil 27-avgustdan 7-sentabrqacha qaerda o‘tgan kongressda «Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbo‘z uvchilarga murojaat» nomli maxsus hujjat qabo‘l qilingan edi?

A) Kubaning Gavana shahrida.

B) Frantsiyaning Parij shahrida.

D) Germaniya’ning Berlin shahrida.

E) Ispaniya’ning Madrid shahrida.

14. «Retsidiv» so‘zi nima degan ma’noni anglatadi?

A) Qaytarib turuvchi.

B) Imtiyo‘z beruvchi.

D) Taqiqlovchi.

E) Harakatlanuvchi.

15. 1987-yilda Xalqaro kriminalistlarning qayerda bo‘lgan sezdida jinoyatlarni tasniflash qabo‘l qilingan edi?

A) Geydelberg.

B) Frankfurt.

D) Nyu-York.

E) Rim.

16. 1764-yil «Jinoyatlar va jazolar haqida» kitob chop etildi. U kimning asari?

A) Ch. Bekkaria.

B) K.Gelvitsiy.

D) L.Feyrbax.

E) J.Govard.

17. Kim jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi hayotning salbiy tomoni ekanligini uqtiradi, bunda aybdorni jazolash jamiyat uchungina emas, balki jinoyatchining o‘zi uchun ham foydalidir?

A) G.Gegel.

B) I.Kant.

D) Monteske.

E) D.Didro.

18. «O‘lim jazosi», «Aholi, jinoyatchilik va pauperizm» asarlari muallifi kim?

A) K.Marks.

B) F.Engels.

D) A.N.Radishchev.

E) F.Fridrix.

19. Xalqaro kriminologlar jamiyatining qayerda bo‘lgan simpoziumida kriminologiya mustaqil fan deb e’lon qilindi?

A) London.

B) Berlin.

D) Moskva.

E) Parij.

20. 1800-yilda qaysi davlatda Jinoyat kodeksi ishlab chiqildi?

A) Angliyada.

B) Rossiyada.

D) Germaniyada.

E) Fransiyada.

21. Respublikamizda 1995-yilda qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar necha foizni tashkil qilgan?

A) 5,3 foiz.

B) 4,5 foiz.

D) 7,3 foiz.

E) 4,0 foiz.

22. Ayollar jinoyatchiligini umumiy jinoyatchilikning mustaqil strukturaviy elementi sifatida o‘rganish qachondan boshlandi?

A) XIX asrning II-yarmi.

B) XIX asr boshlari.

D) XIX asr oxirlari.

E) XX asr boshlari.

23. Kriminologiya fanida avtotransport jinoyatlarini strukturasiga ko‘ra necha turkumga ajratish mumkin?

A) 10.

B) 11.

D) 8.

E) 9.

24. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyalaridan biri –:

A) Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarda latentlik ancha yuqori.

B) Jamiyat hayotiga salbiy ta’sir etadi.

D) Jamiyat a’zolariga mol-mulkka nisbatan g‘ayriqonuniy munosabatni vujudga keltiradi.

E) Bu jinoyatlar aholi tinch totuvligiga putur yetkazadi.

25. «Oq yoqaliklar jinoyatchiligi» nomi bilan tarqalgan jinoyatchilik –:

A) Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatchilik.

B) O‘g‘irlikka doir jinoyatchilik.

D) Boshqaruv sohasidagi jinoyatchilik.

E) Ekologik jinoyatchilik.

26. «Oq yoqaliklar jinoyatchiligi» atamasi birinchi bor kim tomonidan ishlatilgan?

A) E.Saderlend.

B) M.Klaynard.

D) P.Yiger.

E) E.Shur.

27. Militsiya organlarining jinoyatchilikni oldini olish faoliyati nechta yo‘nalishda tashkil etiladi?

A) 4 ta.

B) 5 ta.

D) 8 ta.

E) 6 ta.

28. Jinoyatchilikning oldini olish rejasini ishlab chiqishning birinchi bosqichi nimadan iborat?

A) Muayyan vaqt mobaynida hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalarni belgilab olish.

B) Ishga taalluqli reja va dasturlarni ishlab chiqish.

D) Muhim vazifalarni hal etish.

E) Alohida vazifalarni o‘z vaqtida bajarish uchun kuchlarni taqsimlash.

29. «Ekstropolyatsiya» atamasining ma’nosi.

A) Silliqlayman.

B) Qo‘ruqlayman.

D) Asrayman.

E) Tekshiraman.

30. O‘rtacha muddatli prognoz qilish qancha muddatni o‘z ichiqa oladi?

A) 3-5 yil.

B) 4-6 yil.

D) 5-7 yil.

E) 3-4 yil.

31. «Prognoz» so‘zining ma’nosi:

A) Oldindan ko‘rish.

B) Voqealari anglash.

D) Bo‘lgan voqeani tushunib yetish.

E) Kelajakni bilish.

32. Bilishning umummilliy usullaridan biri –:

A) Gepoteza.

B) Anglash.

D) Ko‘rish.

E) Tekshirish.

33. Hozirgi zamon kriminologiya faniga tadbiqan barcha tadqiqot usullarini shartli ravishda necha guruhga bo‘lib tasniflash mumkin?

A) 3 guruhga.

B) 4 guruhga.

D) 8 guruhga.

E) 5 guruhga.

34. Jinoyatchilik –:

A) G‘oyat murakkab ijtimoiy hodisa.

B) G‘oyatda g‘ayriqonuniy xatti-harakat.

D) Jamiyat hayotini barbod qiluvchi oqibat.

E) Salbiy harakatlar yig‘indisi.

35. Latent jinoyatchilikni bilvosita usullar yordamida ham aniqlashni taklif qilgan kriminologlar?

A) A.S.Shlyapochnikov, G.I.Zadryanskiy.

B) R.M.Alutayev, E.Shur.

D) E.Saderlend, M.Klaynard.

E) P.Yiger, D.Karpets.

36. «Ta'biiy latentlik», «vaziyatli-chegarali», «sun'iy latentlik» kabi jinoyat-chilikni tasniflashni taklif qilgan o'limlardan biri –:

A) A.I.Rosha.

B) E.Saderlend.

D) M.Klaynard.

E) P.Yiger.

37. «Latent» atamasi qanday ma'noni bildiradi?

A) Yashirin.

B) Ro'yxatga olinmagan.

D) Ko'rilmagan.

E) Oshkor etilmagan.

38. «Determinant» so'zi qaysi so'zdan olingan?

A) Lotincha.

B) Grekcha.

D) Italyancha.

E) Fransuzcha.

39. G'arazli motivdagi jinoyatlar O'zbekiston Rerpublikasi JKning nechta moddasida nazarda tutilgan?

A) 60 ga yaqin.

B) 50 ga yaqin.

D) 60 dan ortiq.

E) 40 dan ortiq.

40. Jinoyatchilikka qarshi kurashish nechta yo'nalishda olib boriladi?

A) 2 yo‘nalishda.

B) 4 yo‘nalishda.

D) 3 yo‘nalishda.

E) 6 yo‘nalishda.

41. Jinoyatlar profilaktikasi subyektlariga qaysi organlar kirmaydi?

A) Davlat statistika organlari.

B) Prokuratura organlari.

D) Ichki ishlar organlari.

E) Milliy xavfsizlik organlari

42. Kriminologiyadagi retsidiv jinoyat, jinoyat huquqidagi retsidiv jinoyatdan nimasi bilan farqlanadi?

A) Jinoyat sodir etgan shaxs birinchi sodir etgan jinoyati uchun sudlanmasa ham, ilgari sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik muddati tugagan bo‘lsa ham kriminologiyada retsidiv jinoyatchilik hisoblanadi.

B) Kriminologiyada retsidiv jinoyatchilik voyaga yetmaganlar tomonidan faqat sudlangandan keyin sodir etilgan jinoyatlarga aytiladi.

D) Kriminologiyada retsidiv jinoyatchilik ayollar tomonidan faqat sudlangandan keyin sodir etilgan jinoyatlarga aytiladi.

E) Kriminologiyada retsidiv jinoyatchilik jazoni ijro etish muassasalarida sodir etilgan har kanday jinoyatlarga aytiladi.

43. Quyidagilardan qaysi biri zo‘ravonlik jinoyatlarining obyekti hisoblanmaydi.

A) Shaxsning bilim olish erkinligi.

B) Inson hayoti va sog‘liq‘i.

D) Yashash joyini tanlash erkinligi.

E) Shaxsning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligi.

44. Qaysi omil iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning kelib chiqish shart-sharoitlari hisoblanadi?

A) Malakali kadrlarni tanlash, joyiga qo‘yish va tarbiyalashdagi kamchiliklar.

B) Iqtisodiyotni obyektiv qonunlarini mensimaslik.

D) Ishlab chiqarish va taqsimlash sohasida ijtimoiy adolat prinsipining buzilishi.

E) Xo‘jalik faoliyatiga rahbarlik qilish va iqtisodiy yangiliklarni qo‘llashdagi xatolar.

45. Aybdor shaxsning yo‘l-transport hodisasi bilan bog‘lik jinoyatlarga sabab bo‘lish mumkin bo‘lgan xususiyatlari?

A) Transport vositalari konstruktsiyalaridagi nuqsonlar.

B) Haydovchilar tayyorlashning past saviyadaligida.

D) Haydovchilarning intizomsizligi.

E) Haydovchining psixofizik xususiyatlari va holati.

46. Yo‘l transport hodisalarini oldini olishda ta’sir choralari sifatida quyidagilarni qaysi biri huquqiy ta’sir hisoblanmaydi?

A) Tarbiyaviy.

B) Jinoiy-huquqiy.

D) Ma’muriy-huquqiy.

E) Intizomiy.

47. Xalqaro jinoyat politsiyasi to‘z ilishi tarkibiga ko‘ra unda nechta vitse prezident bor?

A) 3 ta.

B) 4 ta.

D) 5 ta.

E) 2 ta.

48. Xalqaro jinoyat politsiyasi tashkilotida ilmiy masalalar bo‘yicha maslahatchilar necha yilga tayinlanadi?

A) 3 yilga.

B) 4 yilga.

D) 5 yilga.

E) 6 yilga.

49. Xalqaro jinoyat politsiyasi tashkilotining ilmiy masalalar bo‘yicha maslahatchilari kim tomonidan tayinlanadi?

A) Ijroiya qo‘mita tomonidan.

B) Bosh kotibiyat tomonidan.

D) Prezident tomonidan.

E) Bosh kotib tomonidan.

50. Xalqaro jinoyat politsiyasi tashkiloti assambleyasida nechta delegat bor?

A) 9 ta.

B) 10 ta.

D) 11 ta.

E) 12 ta.

51. Quyidagilardan qaysi biri xalqaro jinoyatlarga kiradi?

A) Ratsizm.

B) Firibgarlik.

D) Bezorilik.

E) O‘g‘rilik.

52. Ma’lum hududda muayyan davr mobaynida sodir etilgan barcha jinoyatlarning yig‘indisi nima deyiladi?

A) Jinoyatchilik.

B) Jinoyatchilik dinamikasi..

D) Jinoyatchilik statistikasi.

E) Kriminologik tadqiqot.

53. Quyidagilardan qaysi biri kriminologik utopik g‘oyalarni targ‘ib qilgan?

A) J.Mile, R.Ouen.

B) Monteskье, Volter.

D) Radiщev, Gertsen.

E) N.N.Polyanskiy, N.S.Togansev.

54. Odamlarda ishonchsizlik, vahima, qo‘rquv hissini vujudga keltiradigan hodisa nima?

A) Jinoyatchilik.

B) Tabiiy ofat.

D) Yo‘qchillik.

E) Kasallik.

55. Quyidagilardan qaysi biri latent jinoyatchilikka xos emas.

A) Jinoyatlarni faqat voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilishi.

B) Jinoyat sodir etilganligi o‘z isbotini topmaganligi tufayli statistikadan o‘z aksini topmagan jinoyatlar.

D) Huquqni muhofaza qiluvchi organlariga ma’lum bo‘lmagan jinoyatlar.

E) Huquqni muhofaza qiluvchi organlariga ma’lum, ammo ro‘yxatga olinmagan jinoyatlar.

56. Tabiiy latentlik nima?

A) Huquqni muhofaza qiluvchi organlariga ma’lum bo‘lmagan jinoyatlar.

B) Huquqni muhofaza qiluvchi organlariga ma’lum bo‘lgan jinoyatlar.

D) Statistikada o‘z aksini topmagan jinoyatlar.

E) Ochilmagan jinoyatlar.

57. «Sun’iy latentlik» nima?

A) Huquqni muhofaza qiluvchi organlariga ma’lum bo‘lgan, ammo ro‘yxatga olinmagan jinoyatlar.

B) Huquqni muhofaza qiluvchi organlariga ma’lum bo‘lmagan jinoyatlar.

D) Statistikada o‘z aksini topmagan jinoyatlar.

E) Ochilmagan jinoyatlar.

58. Quyidagilardan qaysi biri latent jinoyatchilikning salbiy okibatlariga kirmaydi?

A) Voyaga yetmaganlarning sog‘liq‘ining yomonlashuvi.

B) Fuqarolarning jinoyatchilikka qarshi kurashishini susay-tiradi.

D) Huquqni muhofaza qiluvchi organlari obruyiga putur yetkazadi.

E) Jinoyatchilik, xususan retsidiv jinoyatchilikning kupayishiga yordam beradi.

59. Quyidagilardan qaysi biri jinoyatchi shaxsi tuzilishining jinoyat huquqiy tavsifiga kiradi?

A) Muqaddam sudlanganligi.

B) Oilaviy ahvoli.

D) Ma’lumoti.

E) Irodaviy xususiyatlari.

60. Quyidagilardan qaysi biri jinoyatchi shaxs tuzilishining ruhiy tavsifiga kiradi?

A) Intellekt (tafakkur) darajasi.

B) Ma’lumoti.

D) Fuqaroligi.

E) Aybning shakli.

61. Quyidagilardan qaysi biri jinoyatchi shaxs tuzilishining ijtimoiy demografik tavsifiga kiradi?

A) Mutaxassisligi.

B) Qiziqishlari.

D) Muqaddam sudlanganligi.

E) Aybining shakli.

62. 2005-yilda ichki ishlar organlariga olib kelingan 40 mingdan ziyod bola va o‘smirlarning qanchasi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaga yuborilgan?

A) 7 mingdan ortiq.

B) 8 mingdan.

D) 9 mingdan ortiq.

E) 8 mingdan ortiq.

63. Ichki ishlar vazirligi tashabbusi bilan Toshkentda nima tashkil etildi?

A) Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy huquqiy yordam koʻrsatish markazi.

B) Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshkarish organi.

D) Jamoat tashkilotlari.

Voyaga yetmaganlarning ishlari boʻyicha komissiya.

64. 2005-yilda Respublikamizning nechta viloyatida voyaga yetmaganlar jinoyatlarining soni pasayishi kuzatildi?

A) 6 ta.

B) 5 ta.

D) 7 ta.

E) 8 ta.

65. 2005-yilda Respublikamizning qaysi viloyatlarida voyaga yetmaganlar jinoyatlarining soni pasaydi?

A) Samarqand, Jizzax, Buxoro, Namangan, Surxondaryo va Qashqadaryo.

B) Samarqand, Toshkent, Jizzax, Buxoro, Namangan.

D) Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Namangan.

E) Toshkent, Samarqand, Surxondaryo, Jizzax.

66. Voyaga yetmaganlar jinoyatlarini sodir etishda kasb-hunar kollejlarining oʻquvchilari orasida 2005-yilda qanchaga kamaydi?

A) 1,1 foizga.

B) 1,3 foizga.

D) 1,5 foizga.

E) 2 foizga.

67. 2005-yilda qaysi toifadagi oʻquvchilar jinoyatchiligi sodir 1,8 foizga kamaydi?

A) Ishlamaydigan va oʻqimaydigan oʻquvchilar.

B) Ishlayotgan va o‘qimaydigan usmirlar.

D) Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari.

E) Ishlayotgan va o‘qiydigan o‘quvchilar.

68. 2005-yilda Respublikamizda o‘smirlar sodir etgan o‘g‘irlash jinoyatlari qanchaga kamaydi?

A) 5,9 foizga.

B) 6 foizga.

D) 7 foizga.

E) 8 foizga.

69. 2005-yilda o‘smirlar tomonidan sodir etilgan qaysi jinoyatlar soni 1,5 foizga kamaydi?

A) Suiqasd qilib, nomusga tegish.

B) O‘g‘irlik.

D) Talonchilik.

E) Bezorilik.

70. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi har 5 yilda necha foizga o‘sib kelgan?

A) 4-8 foizga.

B) 5-6 foizga.

D) 4-6 foizga.

E) 6-10 foizga.

71. Qaysi yillari davlatimizda o‘smirlar jinoyatlari soni 8 foizni tashkil etgan?

A) 1995-1996-yillar.

B) 1996-1997-yillar.

D) 1997-1998-yillar.

E) 1998-1999-yillar.

72. 1995-yilda qaysi davlatda o‘smirlar jinoyatchiligi 14,9 foizga o‘sgan?

A) Qo‘zog‘istonda.

B) Rossiya Federatsiyasida.

D) Belorussiyada.

E) Ukrainada.

73. Uzbekistonda 1998-yilda 2000 jinoyatchidan 37 kishi nimada ayblangan va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bo‘yicha hukm qilingan?

A) Hayotga qarshi jinoyatlarda.

B) Sog‘likka qarshi jinoyatlarda.

D) O‘g‘rilikda.

E) Bezorilikda.

74. 1998-yili Respublikamizda nechta voyaga yetmaganga nisbatan shartli hukm qo‘llanilgan?

A) 160 dan ortiq.

B) 150 dan ortiq.

D) 180 dan ortiq.

E) 40 dan ortiq.

75. O‘zbekistonda 1998-yilda hukm qilingan 2142 ta voyaga yetmagandan qanchasi ayollar edi?

A) 113 tasi.

B) 115 tasi.

D) 111 tasi.

E) 112 tasi.

76. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining yuqoriligiga nima sabab?

A) Oilaviy nizolar.

B) Ichkilikbo‘zlik.

D) Giyovandlik.

E) Ishlamaslik.

77. Voyaga yetmaganlar jinoyatlarning 20–80 foizini qanday sodir etadilar?

A) Guruh bo‘lib.

B) Yakka tarzda.

D) Oilaviy.

E) Urug‘-aymoq.

78. Kriminologiya so‘zining ma’nosi nima?

A) Jinoyat haqida ta’limot.

B) Qilmishning jinoiyligi va jinoyat uchun jazo tayinlash.

D) Jinoyatlarni tergov qilish.

E) Jinoyatchilikka qarshi kurash.

79. Kriminologiya fani:

A) Ijtimoiy huquqiy.

B) Huquqiy.

D) Tabiiy.

E) Ijtimoiy fandir.

80. Kriminologiya fani nechta tarkibiy qismdan iborat?

A) 4 ta.

B) 2 ta.

D) 3 ta.

E) 5 ta.

81. Chizare Bekkarianing jinoyat va jazo haqidagi asari.

A) «Jinoyatlar va jazolar haqida».

B) «O‘lim jazosi».

D) «Muqaddas oila».

E) «Kapital».

82. Tug‘ma jinoyatchilar haqidagi nazariya tarafdori bo‘lgan italian o‘limi?

A) Sezar Lombra’zo.

B) Monteske.

D) Ch.Bekkariya.

E) I.Kant.

83. Kriminologiya fanini dastlab boshlab bergan o‘lim?

A) Ch.Bekkariya.

B) G.Gegel.

D) J.P.Marat.

E) F.Engels.

84. Jinoiyoqibatlarni keltiribchiqaruvchisharoit va sabablar –:

A) Kriminogen determinant.

B) Jinoyatchilik dinamikasi.

D) Jinoyatchilik darajasi.

E) Jinoyatchilik strukturasi.

85. Jinoyatchilik sharoiti –:

A) O‘z-o‘zidan jinoyat va jinoyatchilikni keltirib chiqarmaydigan, ammo jinoyat sodir bo‘lish sababini tug‘dirib turuvchi g‘ayriijtimoiy hodisadir.

B) Muayyan vaqt mobaynida jinoyatchilikning darajasi va strukturasidagi o‘zgarishlar.

D) Jinoiy professionalizm belgilariga ega bo‘lgan jinoyatlar yig‘indisi.

E) Jamiyat va fuqarolar iqtisodiy manfaatlariga tajovuz qiluvchi jinoyatlar yig‘indisi.

86. Viktimologiya atamasi lotincha so‘z bo‘lib:

A) Jinoyat qurboni.

B) Jinoyat subyekti.

D) Jinoyat obyekti.

E) Jinoyat quroli ma’nosini anglatadi.

87. Motiv so‘zining ma’nosi –:

A) Lotincha «motum» so‘zidan olingan bo‘lib, kafolatlantiruvchi degan ma’noni beradi.

B) Grekcha «motum» so‘zidan olingan bo‘lib, oqibat degan ma’noni beradi.

D) Fransuzcha «motum» so‘zidan olingan bo‘lib, vaziyat degan ma’noni beradi.

E) Italiancha «motum» so‘zidan olingan bo‘lib, ehtiyot degan ma’noni beradi.

88. Jinoyatchi shaxsining to‘zilishi:

A) Jinoiy-huquqiy, ijtimoiy-demografik, ma’naviy-huquqiy tavsif:

B) Ijtimoiy, huquqiy tavsifi.

D) Siyosiy-iqtisodiy tavsifi.

E) Axloqiy, ruhiy, ijtimoiy tavsif.

89. Jinoyatchi shaxsining ma’naviy-ruhiy tavsifi:

A) Tafakkur darajasi, qobiliyatlari, irodaviy xususiyat yo‘nalish-lari, huquq va axloq me’yorlariga munosabati.

B) Oilaviy ahvoli, jamiyatdagi o‘rni, mutaxassisligi, doimiy yashash joyining bor yo‘qligi.

D) Jinsi, yoshi, ma’lumoti, moddiy shart-sharoitlari.

E) Jinoiy xulq atvor motivi, jinoyat sodir etilishidagi o‘rni va roli bir necha xildagi jinoyatlarni sodir etish.

90. Modellashtirish –:

A) Jinoyatchilikka jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning o‘zaro ta’sirini e’tiborga olgan holda jinoyatchilik dinamikasini tasvirlaydigan matematik formulalarni ishlab chiqishdir:

B) Individning ma’naviy shakllanishi uchun yetarli shart-sharoitlarni ta’minlash.

D) Jinoyat sodir etish ehtimoli bo‘lgan shaxslarga ta’sir ko‘rsatish.

E) Shaxsda g‘ayriijtimoiy yo‘nalishni bevosita vujudga keltiruvchi omillarga ta’sir o‘tkazish.

91. Jinoyatchilikning oldini olish choralari hajmiga ko‘ra:

A) Umumiy, individual.

B) Umumijtimoiy, maxsus kriminologik.

D) Ijtimoiy-siyosiy, huquqiy.

E) Mafkuraviy, tashkiliy boshqaruv.

92. Jinoyatchilikning oldini olish choralari qo‘llanish hududiga ko‘ra:

A) Umumdavlat, mintaqaviy, joylarda.

B) Viloyatlarda, jazoni ijro etish joylarida.

D) Tuman, shaharlarda.

E) Mahallalar, qishloqlarda.

93. Jinoyatchilikning oldini olish choralari qo‘llanish subyektlariga ko‘ra:

A) Davlat, ijtimoiy.

B) Iqtisodiy, mafkuraviy.

D) Mintaqaviy, huquqiy.

E) Madaniy tarbiyaviy, tashkiliy boshqaruv.

94. Jinoyatlar profilaktikasining huquqiy asoslari:

A) Konstitutsiya, Kodekslar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, davlat boshqaruv organlarini me’yoriy hujjatlari.

B) Prokuror qarori, sudning hukmi.

D) Mahalliy ijroiya organlari qarori.

E) O‘z-o‘zini boshqarish organlari qarori.

95. Jinoyatchilikning oldini olishda sud –:

A) Jinoyat sodir qilgan shaxslarga jazo tayinlash orqali mahkum tomonidan yangi jinoyat sodir etilishning oldini olish, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan ham jinoyat sodir etilishini oldini olish.

B) Davlat chegarasi rejimini buzishga qaratilgan jinoyatlarni oldini olish.

D) Yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi.

E) Soliq sohasidagi sodir etilgan jinoyatlarni oldini olish.

96. Jinoyatchilikning oldini olishda Milliy xavfsizlik xizmati –:

A) Tinchlik va xavfsizlikka qarshi hamda O‘zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan jinoyatlarni oldini olish.

B) Soliq sohasidagi sodir etilgan jinoyatlarni oldini olish.

D) Yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi.

E) Davlat chegarasi rejimini buzishga qaratilgan jinoyatlarni oldini olish.

97. Jinoyatchilikning oldini olishda soliq inspektsiyasi –:

A) Soliq sohasidagi sodir etilgan jinoyatlarni oldini olish.

B) Jinoyat sodir qilgan shaxslarga jazo tayinlash orqali mahkum tomonidan yangi jinoyat sodir etilishning oldini olish, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan ham jinoyat sodir etilishini oldini olish.

D) Davlat chegarasi rejimini buzishga qaratilgan jinoyatlarni oldini olish.

E) Yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi.

F) Tinchlik va xavfsizlikka qarshi hamda O‘zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan jinoyatlarni oldini olish.

98. Jinoyatchilikning oldini olishda bojxona xizmati –:

A) Kontrabanda va bojxona to‘g‘risidagi qonunlarni buzish jinoyatlarini oldini olish vazifasini bajaradi.

B) Tinchlik va xavfsizlikka qarshi hamda O‘zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan jinoyatlarni oldini olish.

D) Davlat chegarasi rejimini buzishga qaratilgan jinoyatlarni oldini olish.

E) Soliq sohasidagi sodir etilgan jinoyatlarni oldini olish.

99. Jinoyatchilikning oldini olishda Davlat chegara xizmati –

A) Davlat chegarasi rejimini buzish hamda O‘zbekiston Respublikasi chegarasidan o‘tkazish punktlarida o‘tkazish rejimini buzishlari oldini olish.

B) Jinoyat sodir qilgan shaxslarga jazo tayinlash orqali mahkum tomonidan yangi jinoyat sodir etilishning oldini olish, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan ham jinoyat sodir etilishini oldini olish.

D) Yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi.

E) Soliq sohasidagi sodir etilgan jinoyatlarni oldini olish.

100. Jinoyatchilikning oldini olishda Adliya vazirligi –:

A) Aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlarini amalga oshirish orqali jinoyatning oldini olish.

B) Tinchlik va xavfsizlikka qarshi hamda O‘zbekiston Respublikasiga qarshi haratilgan jinoyatlarni oldini olish.

D) Yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi.

E) Soliq sohasidagi sodir etilgan jinoyatlarni oldini olish.

GLOSSARIY

Axloq (lotincha *«moralis»* – «xulq-atvor» degan ma’noni anglatadi) – bu shaxsning xatti-harakatlarini hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, jamiyat tomonidan qabul qilingan va unga rioya etilishi majburiy bo‘lgan xulq me’yorlari va qoidalar majmui hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya esa – jamiyat tomonidan tan olingan va bajarilishi zarur bo‘lgan odob, tartib, muomala, munosabat hamda xulq-atvor qoidalarini o‘quvchilar ongiga singdirish orqali ularda axloqiy tafakkur, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari va madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, u ijtimoiy tarbiyaning ajralmas qismidir.

Ayollar va bolalar savdosi– xalqaro xususiyatga ega jinoyat, unga qarshi kurash zarurati xalqaro hamkorlikni talab etadi. XX asrning birinchi yarmida ushbu masala bo‘yicha bir qator bitimlar tuzilgan. Keyinchalik ular odamlar savdosi va fohishabo‘zlikdan o‘zgalarning foydalanishiga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiya bilan almashtirildi.

Affekt – (lotincha - affektus - ruhiy hayajon, ehtiros) – turli tashqi yoki ichki ta’sirlar asosida tez paydo bo‘lib, qisqa muddatli, aksar holatlarda «portlash» tarzida bo‘ladigan kuchli ifodalanadigan hissiy holat (qo‘rqinch, dahshat, g‘azab va b.). Affekt tushkunlik, tang vaziyatlarda yuzaga keladi. Affekt holatida kishining ong doirasi torayadi, xulqni nazorat qilishqobiliyati yo‘qoladi. Affekt fiziologik va patologik bo‘lishi mumkin.

Bashoratlash – bo‘lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan gabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma’qulini tanlab olish.

Betaraf xulq-atvor – bu jabrlanuvchining aybsiz xulqi bo‘lib, u o‘ziga zarar yetkazuvchi vaziyatni vujudga kelishiga shart-sharoit yaratmaydi. Jinoiy vaziyat jabrlanuvchining ixtiyoridan tashqarida bo‘lib,

u real xavfni aniqlash hamda jinoyatchilarga qarshilik ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lmagan holatda sodir etiladi.

Boshqa tashabbuskor tip – navqiron yoki o‘rta yoshdagi erkak, jismonan kuchli, qat’iyatli, dovyurak, tez harakat qiladi, ehtiyotkor, xavfni sezish qobiliyatiga ega shaxs.

Deviant axloq (deviatio – lotincha «og‘ishmoq») shaxsning og‘ishgan xulqi.

E’tiborni o‘ziga qaratuvchi suitsid – bu turda suitsid o‘yinning yakunini oldindan aniqlab beradi, bunda shaxs oxiriqacha uni boshqalar qutqarib qolishlariga astoydil ishonadi, u shunchaki boshqalarni e’tiborini o‘ziga garatishni xohlaydi.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi – bu huquq-tartibotni ta’minlash va mustahkamlash, huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslarni ijtimoiy muhitga moslashtirish, shuningdek ularni ijtimoiy, tibbiy va psixologik jihatdan tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Shu bilan birga, huquqbuzarlikdan jabrlanish xavfi mavjud bo‘lgan shaxslarni huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavfi, ularning sodir etilish vaqti, joyi, usullari va vositalari, shuningdek jabrlanuvchi bo‘lishi ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar toifalari hamda viktimlik holatlari haqida xabardor qilish orqali ularning jabrlanuvchiga aylanish ehtimolini kamaytirishga yo‘naltirilgan faoliyatni anglatadi.

Huqugbuzarlik – sodir etilganligi uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik).

Huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi – bu huquqbuzarlik oqibatida jismoniy, ma’naviy yoki moddiy zarar ko‘rgan shaxsdir.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi – huquq-tartibotni ta’minlash va mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularning oldini olishga, ularni keltirib chiqaruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlab bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir. Ushbu tizim umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika yo‘nalishlarida

amalga oshiriladi hamda huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa vositalarni o‘z ichiga oladi.

Huqugbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs – o‘zining gayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo‘lgan jismoniy shaxs.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha *adapto* – moslashish) – bu anomal bolalarning individual yoki guruh tarzidagi xatti-harakatlarini ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor me’yorlariga muvofiqlashtirish jarayonidir.

Ijtimoiylashuv – shaxsning ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish orqali hayotiy va ishlab chiqarish faoliyatiga moslashish jarayonini anglatadi.

Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha *rehabilitas* – layoqatni yoki qobiliyatni tiklash) – bu bolaning psixofiziologik imkoniyatlaridan kelib chiqib, uni ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etishga tayyorlash, zarur sharoit yaratish hamda mehnat va ijtimoiy faoliyatga jalb etish jarayonidir.

Individ (lotincha *individuum* – bo‘linmas, yagona, alohida) – bu xatti-harakatlarini asosan shartli reflekslar asosida tashkil etuvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik – shaxsning o‘ziga xos, boshqalardan farq qiluvchi sifat va jihatlar majmuasidir.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oila – bu ota-ona yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash, ta’minlash yoki ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlar lozim darajada bajarilmaydigan, farzandlarning xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatiladigan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘linadigan oilalardir.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi voyaga yetmagan shaxs – bu nazoratsizlik yoki qarovsizligi sababli hayoti va sog‘lig‘i xavf ostida qolgan, ta’lim-tarbiya talablari bajarilmaydigan sharoitda yashayotgan, yoxud huquqbuzarlik va boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan bola hisoblanadi.

Iqtisodiy zo‘ravonlik – bu xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish joylarida yoki boshqa muhitlarda amalga oshiriladigan, ularning oziq-ovqat, uy-joy, mulk, ta’lim va mehnat huquqlarini cheklovchi, normal yashash va rivojlanish imkoniyatlarini toraytiruvchi harakat yoki harakatsizlikdir.

Jabrlanuvchi – jinoyat yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli xatti-harakati oqibatida jismoniy, ma’naviy yoki moddiy zarar ko‘rgan shaxsdir.

Ma’naviy zarar fuqarolarning sha’ni, or-nomusi va insoniy qadr-qimmatini toptashda, uni boshqa fuqarolar oldida kamsitishda, jamoatchilik oldida obro‘yini tushirishda va badnom qilishda ifodalanadi.

Jabrlanuvchining ijobiy xulq-atvori – nafaqat jinoyatning vujudga kelishiga hamda uni sodir etilishiga shart-sharoit yaratmaydi, balki aniq vaziyatda imkon qadar ehtiyotkorlik qiladi, barcha holatlarni nazarda tutadi, shuningdek jinoyatchiqa qarshilik ko‘rsatadi.

Jabrlanuvchining ijobiy xulq-atvoriga – o‘ziga nisbatan sodir etilgan jinoyat haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi, voyaga yetmagan jabrlanuvchining ota-onasi va yaginlariga xabar berishi, huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillariga jinoyatni ochish va jinoyatni fosh etish uchun faol yordam ko‘rsatish va shu kabilar.

Jabrlanuvchining salbiy xulq-atvori – jinoyatlarini sodir etilishiga shart-sharoit yaratuvchi obyektiv harakat yoki harakatsizligi bilan bog‘liq.

Jabrlanuvchining salbiy xulq-atvoriga – o‘ziga nisbatan sodir etilgan jinoyat haqida hech kimga xabar bermaslik kiradi.

Jabrlanuvchining bezori tipi– jabrlanuvchilarning xulq-atvori hujum qilish, jismoniy zo‘ravonlik yoki zo‘rlik ishlatmay, lekin ig‘vogarlik, ya’ni tegajog‘lik qilish, haqoratlash harakatlari orqali amalga oshiriladi. Bu «omadsiz bezorining tipik xulq-atvori bo‘lib, ular o‘ziga o‘xshash shaxslarning qurboniga aylanadilar.

Jabrlanuvchining salbiy qasoskor tipi – vaziyatlarda viktimlik xulq-avtor begona shaxsning yoki o‘ziga tanish bo‘lgan shaxsning salbiy

xulq-atvoriga qarshi bildirilgan munosabat – haqoratlash, tuhmat qilish, zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish kabi harakatlar natijasida vujudga keladi.

Jinoyatchilik tarkibi – muayyan mamlakatda, mintaqada ma’lum davrda yoxud tarixiy bosqichda sodir etilgan barcha jinoyatlarning turlarga taqsimlangan majmuidir.

Jinoyatdan jabrlanganlarning ijtimoiy-ruhiy tipi – tadqiqot uchun xizmat qilgan aniq shaxslarning umumiy yig‘indisidir.

Jismoniy zarar – fuqaroning badaniqa shikast va sog‘lig‘iga putur yetkazish, jismoniy a’zob va og‘riglarga duchor qilish.

Jismoniy ojizlik – jabrlanuvchi o‘zining jinsiy aloqaga kirayotganini anglab yetsa-da, o‘zidagi jismoniy kamchiliklar, nogironligi, qariligi yoki balog‘at yoshiga yetmaganligi va boshqa sabablar tufayli zo‘rlovchiqa qarshilik ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi tushuniladi.

Kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) – holati jabrlanuvchining g‘ayriqonuniy zo‘rlik yoki og‘ir haqoratidan yoxud g‘ayriqonuniy harakatlariga javob sifatida paydo bo‘lishidir.

Korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavgeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qqonunga xilof ravishda taqdim etishiga aytiladi.

Korrupsiyaviy jinoyatlar– mansabdor shaxs yoki xizmatchining mansab mavqeidan shaxsiy yoki boshqa shaxslarning moddiy va nomoddiy naf ko‘rishi uchun g‘arazli maqsadlarda foydalanishidan, shuningdek mansabdor shaxslarni ushbu maqsadlarda o‘ziga og‘dirishdan iborat bo‘lgan jinoyatlardir.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish.

Latent jinoyatchilik (lotincha–yashirin) – qonunga binoan, sodir etilgan jinoyatlarni tergov gqilish yoki ko‘rib chiqish huquqi berilgan organlardan yashirilgan, ushbu organlar aniqlamagan va jinoiy jazoga tortilishi kerak bo‘lgan qilmishlar ro‘yxatida aks etmagan, ya’ni qayd etilmagan jinoyatlar rasmiy ro‘yxatga olingan va olinmagan jinoyatlarning jami «haqiqiy jinoyatchilik» deb ataladi. Sodir etilgan jinoyatlarning haqiqiy soni odatda «qora son» deb, aniqlangan jinoyatlar soni esa «aniq son» deb ataladi.

Mulkiy zarar – shaxsiy mulkni g‘ayriqonuniy ravishda olish, unga shikast yetkazish yoki mulkka egalik qilish huquqini buzish demakdir.

Mezon – hodisalar, narsalarni baholash, ta’riflash yoki tasniflash uchun asos qilib olingan belgi, o‘lchovdir.

Manfaatlar to‘qnashuvi -– shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida garama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

Notanqidiy jabrlanuvchilar – ehtiyotsizlikni namoyon qiluvchi, hayotiy vaziyatlarni to‘g‘ri baholay olmaydigan (aql idroki va ma’lumoti yuqori bo‘lmagan) qurbonlar.

Neytral qurbonlar– ushbu qurbonlar etirozsiz xulq atvorga ega bo‘lib, jinoiy harakatlarni keltirib chiqarishga moyil emaslar, vaziyatni tanqidiy baholashga qodirlar.

Oila – bu nikoh yoki qon-qarindoshlik aloqalari, umumiy turmush tarziga ega bo‘lish, axloqiy mas’uliyat va o‘zaro yordam tamoyillariga tayanadigan kichik ijtimoiy guruhdir.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar (yoki bolaning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lgan shaxslar) va farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda shakllanadigan o‘zaro aloqalardir.

Oila tarbiyasi – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun javobgar shaxslar) tomonidan amalga oshiriladigan, farzandni har tomonlama yetuk va sog‘lom inson etib voyaga yetkazishga qaratilgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Oilaviy zo‘ravon tipi– jabrlanuvchilarning xulq-atvori o‘z oila a’zolariga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo‘rovonlik qilish ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Odam o‘ldirish – huquqqa xilof ravishda qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan boshqa kishini hayotdan mahrum qilish.

Odam savdosi – odamni olish-sotish yoki odamni eksplulatatsiya qilish maqsadida yo‘llash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish tushuniladi.

Odam savdosidan jabrlangan shaxs – odam savdosidan, bunday harakatga rozilik berganligi-bermaganligidan va jinoyat protsessida ishtirok etgan-yetmaganidan qat’i nazar jabrlangan jismoniy shaxs.

Odam savdosiga qarshi kurashish – odam savdosining oldini olishga, uni aniqlashga, unga chek qo‘yishga, uning oqibatlarini kamaytirishga, odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatishga doir faoliyat.

Odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxs – dastlabki identifikatsiya qilish natijasida odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxs sifatida tan olingan jismoniy shaxsdir.

Ojiz ahvol – bu jabrlanuvchining jismoniy, fiziologik yoki ruhiy holati tufayli (masalan, jismoniy nuqsonlar, ruhiy buzilishlar, juda yosh yoki keksalik, og‘riq, behushlik, uyqu holati, alkogol, giyovandlik yoki psixotrop moddalar ta’siridagi og‘ir mastlik) o‘zini himoya qila olmasligi, aybdorga faol qarshilik ko‘rsatishga qodir emasligi yoki unga nisbatan

sodir etilayotgan harakatlarning mazmuni va mohiyatini anglay olmasligi hamda o‘z xatti-harakatlarini boshqara olmaslik holatini anglatadi.

Ojizlik holati – jabrlanuvchining o‘zi bilan jinsiy aloqaga kirishilayotganligini anglay olmaydigan va qarshilik ko‘rsata olmaydigan darajadagi mastlik holatini tushunish kerak.

Ommaviy viktimlik – bu aholining ma’lum bir qismi o‘ziga xos subyektiv xususiyatlari sababli, obyektiv jihatdan mavjud bo‘lgan jinoyatlar oqibatida jismoniy, ruhiy yoki moddiy zarar yetkazilish xavfiga duchor bo‘lish holatidir.

Ommaviy viktimlik – ayrim shaxslarning subyektiv xususiyatlariga ko‘ra jismoniy, ma’naviy va moddiy zarar ko‘rish bo‘yicha obyektiv mavjud imkoniyatdir.

Ruhiy ojizlik – jabrlanuvchi o‘zining ruhiy kasalligi, aqli norasoligi, juda yoshligi va hokazolar bois o‘zi bilan sodir etilayotgan voqeani anglab yetmasligi tushuniladi.

Ruhiy zo‘ravonlik – bu ayollarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid yo‘llash, ularning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan har qanday harakatlarda namoyon bo‘ladigan zo‘ravonlik turi hisoblanadi. Bunga, jumladan reproduktiv hayot sohasida nazorat o‘rnatish, tazyiq o‘tkazish yoki zo‘ravonlik natijasida jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi borasida qo‘rquv, o‘zini himoya qila olmaslik hissi paydo bo‘lishi hamda ruhiy salomatligiga zarar yetkazilishiga olib keluvchi harakat yoki harakatsizliklar kiradi.

Ruhiy majburlash – shaxsni o‘ldirish yoki uni jismoniy zo‘rlash, zo‘rlash yoki uning biror-bir hayotiy manfaatlarini buzish bilan qo‘rqitib, jinoyat sodir etishga majburlash tushuniladi.

Suitsid – o‘zini o‘zi o‘ldirish.

Suitsid (inglizcha «suicide» – «O‘z o‘zini o‘ldirish») – ongli tarzda insonning hayotdan olgan o‘tkir ruhiy jarohatlari

Ta‘sirida o‘z hayoti haqidagi o‘y-xayolni yo‘qo‘tishi, o‘z-o‘zini o‘ldirish – aktiv jamiyatda yashashni ijtimoiy - passiv tarzda rad etishning oxirgi belgisidir.

Sovuq suitsid– bunda shaxs chindan ham o‘lishni xohlaydi, yashashni istamaydi.

Tashabbuskor jabrlanuvchilar – egallab turgan mansabiga, ijtimoly maqomiga hamda shaxsiy sifatlariga qarab tashabbuskor-lik xulq-atvoriga ega shaxslar.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi – bu o‘ziga nisbatan tazyiq yoki zo‘ravonlik sodir etilishi xavfi ostida qolgan yoki bunday harakatlar oqibatida zarar ko‘rgan ayol shaxsdir.

Tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish esa – ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikni keltirib chiqaruvchi sabablar hamda sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga, shuningdek jamiyatda ayollarning zo‘ravonlikdan holi yashash huquqi to‘g‘risidagi xabardorlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa turdagi chora-tadbirlar tizimini anglatadi.

Viktimlik – insonning ayrim sifatlari (diniy, jismoniy va kasbiy) tufayli muayyan obyektiv shart-sharoitlarda jinoiy tajovuzning qurboni bo‘lish xususiyati. Shaxsiy viktimlik shaxsning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari tufayli uning jinoyat qurboni bo‘lish ehtimoli.

Viktimologik profilaktika – viktomogen faktorlarning vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularni bartaraf qilish yoki neytrallashtirish choralarini qo‘llash, jinoyatning potensial qurbonlarini aniqlash va shularni himoya qilish imkoniyatlarini oshirish yo‘li bilan ayrim turdagi jinoyatlarning oldini olish.

Viktim xulq – ehtiyotsizlik, tavakkalchilikning natijasi bo‘lib, jabrlanuvchining o‘ziga xavf tug‘diradi va kriminogen vaziyatni vujudga keltirishi mumkin, ayrim hollarda esa jinoyatning sodir etilishiga imkon yaratadi.

Viktimlikning holati – mutlaq ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘lgan hamda jismoniy shaxslarga zarar yetkazilgan jinoyatlar soni; ushbu jinoyatlardan zarar ko‘rgan jabrlanuvchilarning soni, shuningdek jinoyatlar tufayli yetkazilgan zarar holati, chunki u jabrlanuvchilardan va jinoyatlardan ko‘p bo‘lishi mumkin.

Viktimlikning dinamikasi – muayyan vaqt mobaynida viktimlik holatidagi, uning darajasidagi va strukturasidagi alohida, birgalikda va uyg‘unlikdagi o‘zgarishlarni aks ettiradi.

Voyaga yetmaganlarning viktimligi sabablari – ularni jabrlanuvchi holatiga tushishiga olib keladigan, bu holatning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadigan hodisa, voqea hamda jarayonlar majmui hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarning viktimligi sharoitlari esa – jabrlanish holatini to‘g‘ridan to‘g‘ri yuzaga keltirmaydigan, biroq uning sodir bo‘lishiga sharoit yaratib, unga yordam beruvchi hodisa, voqea va jarayonlar yig‘indisidir.

G‘ayriijtimoiy xulq-atvor – shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi, harakati yoki harakatsizligi.

Yosh xususiyatlari – muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Zo‘rlik – biror kishining ikkinchi bir kishiga nisbatan zo‘rlik qilishi, zo‘ravonlik, jismoniy kuch ishlatish yo‘li bilan xo‘rlashi, jabr-zulm qilishi. Zo‘rlik insonning daxlsizligini buzish, jismoniy va ma’naviy aziyatlash shaklida ham bo‘ladi.

Zo‘rlik bilan sodir etiladigan jinoyatlar – zo‘rlik ishlatib shaxsning hayotiga, sogfligiga, jinsiy erkinligiga, mulkka, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga, boshqaruv tartibiga, jamoat xavfsizligiga, jamoat tartibiga qarshi sodir etiladigan jinoyatlar.

O‘zini o‘zi o‘ldirishga undash – ya’ni ko‘ndirish, aldash yoki boshqa yo‘l bilan o‘zga shaxsda o‘zini o‘zi o‘ldirish hissini uyg‘o‘tish.

Shaxs – bu psixologik jihatdan rivojlangan, o‘zining individual fazilatlari va xulq-atvori bilan boshqalardan farq qiladigan, ma’lum dunyoqarash hamda xatti-harakatlarga ega bo‘lgan jamiyat a’zosi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish – uni jamiyat hayotiga jalb etish jarayoni bo‘lib, bunda inson jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, bilimlar hamda qadriyatlar tizimini o‘zlashtiradi.

Shaxsiy viktimlik – faqatgina shaxsga xos bo‘lgan xususiyatlar tufayli uning jinoyat qurboni bo‘lish ehtimoli. Masalan, bunday jihatlar quyidagicha namoyon bo‘lishi mumkin: insonning alohida iste’dod yoki qobiliyatlarga egaligi, aqliy yoki jismoniy ustunlik (yoki, aksincha, ularning yetishmasligi), shuningdek psixologik xususiyatlari bilan ajralib turishi – masalan, xolerik temperamentga xos xulq-atvor ko‘rinishlari. Ayrim hollarda shaxsning yakkalikka, mustaqillikka intilishi natijasida u atrofdagilardan ajralib, boshqalarni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishi ham mumkin.

Shaxsning og‘ishgan xulqi – umumiy gabul qilingan yoki rasman o‘rnatilgan ijtimoy me’yorlarga mos tushmaydigan axloq shakli. Deviant axloq turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu muammo psixologiya, kriminologiya, meditsina, sotsiologiya fanlari doirasida o‘rganiladi.

Ballistika – jinoyat hodisasi bilan bog‘liq o‘qotar qurollar, o‘qdorilar, portlovchi moddalar, o‘q otish yoki portlash natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlar, izlar hamda qoldiq moddalarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi kriminalistika texnikasining alohida yo‘nalishidir.

Brauzerlar – zamonaviy texnologiyalar vositalaridan foydalangan holda, boshqa shaxslarning kompyuter tizimlariga ruxsatsiz kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxslar.

Davlat sud eksperti – davlat sud-ekspertiza muassasasida o‘z xizmat vazifasini bajarish jarayonida sud ekspertizasini o‘tkazuvchi mutaxassis.

Garovga olingan shaxs – terrorchilar tomonidan qo‘lga olinib yoki ushlab turilib, uni ozod qilish sharti sifatida davlat hokimiyati, boshqaruv organlari, xalqaro tashkilotlar yoki ayrim shaxslardan ma’lum harakatni bajarish yoki undan tiyilish talab qilingan jismoniy shaxs.

Hujjat – biror hodisani yozma shaklda aks ettiruvchi moddiy obyekt hisoblanadi.

Hujjatni qalbakilashtirish – hujjatning butunlay soxtalashtirilishi yoki uning ayrim qismlariga o‘zgartirish kiritilishi jarayonidir.

Hujjatlarni texnik usulda tekshirish – bu oddiy lupalar, mikroskoplar, maxsus moslamalar va turli xil yorug‘lik manbalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladigan tadqiqot jarayonidir.

Identifikatsiya – lotincha *«idem»* («aynan o‘sha») so‘zidan olingan bo‘lib, biror narsa yoki shaxsning aynanligini aniqlashni anglatadi.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan – nazoratsizlik yoki qarovsizligi sababli hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi, tarbiya va ta’lim talablariga javob bermaydigan sharoitda bo‘lgan yoxud huquqbuzarlik va boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etayotgan voyaga yetmagan shaxs.

Imzo – qo‘lyozma yozuvning o‘ziga xos belgilariga ega bo‘lgan alohida ko‘rinishidir.

Ish – sud ekspertizasi tayinlangan fuqarolik, xo‘jalik, jinoyat ishi yoki tergovga qadar tekshiruv materiallari, shuningdek ma’muriy huquqbuzarlik bilan bog‘liq ishlarni anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qonun hujjatlari va boshqa hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. (2023-yil) //www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2022.

3. O‘bekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o‘rta sida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi 29,09. 2010. Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plarni, 2010, 39-son, 341-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasining 10.04 .2014. «Huquqbu-zarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plarni, 2014, 20-son, 221-modda; 2015-y., 32-son, 425-modda; 2016. 52-son, 597-modda; 2017, 37-son, 978-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-mart-dagi PQ-2833-sonli «Huqugbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plarni, 2017-y., 12-son, 184-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi «Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to‘grisida»gi PQ-3827-son qarori. lex.uz.// www.lex.uz//.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9.01.2019. PF-5618-son «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni lex.uz. // www.lex.uz//.

8. O‘zbekiston Respublikasining 2.09.2019.«Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘RQ-561-son Qonuni. lex.uz.// www.lex.uz//

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: darslik. / Mas’ul muharrir: y.f.d., prof. M.H. Rustambayev. – T.: TDYI, 2008. - 305 b.

2. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Albom-sxemalar: o‘quv qo‘llanma. / Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H. Rustambayev. – T.: TDYI, 2011.-173 b.

3. Kriminologiya: Darslik. / Z.S. Zaripov, A.S. Yakubov, G.A.Avanasov va boshq. / Z.S. Zaripovning umumiy tahrir ostida. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2006. - 539 b.

4. Kriminologiya: darslik. Mualliflar jamoasi. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. - 540 b.

5. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik / I. Ismailov, Q.R. Abdurasulova, LY. Fazilov; Mas’ul muharrir SH.T. Ikramov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi 11V Akademiyasi, 2015. - 252 b.

6. Kriminologiya. Maxsus qism: darslik / 1. Ismailov, Q.R. Abdurasulova va boshq. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi. 2015. - 682 b.

7. Ismailov I. Jinoyatchilikda uyushganlik: nazariya va amaliyot muammolari: monografiya. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. - 206 b.

8. Fazilov L.Y. Bola savdosi uchun javobgarlik: bugungi holati va rivojlanish istigbollari: monografiya.– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. -102 b.

9. Fazilov L.Y. Odam savdosiga qarshi kurashning jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari: monografiya. – T.: O‘zbekiston Respublikasi [IV Akademiyasi, 2016. - 300 b.

10. M.H.Rustamboyev. TDYuU. Q.R.Abdurasulova. Kriminologiya. Darslik. – T.– 2008. 2008. 305 b.

11. M.Akayeva. Kriminalistika. Namangan davlat universiteti yuridik fakulteti. Namangan – 2023-yil.

12. Niyozova S.S. Shaxsga qarshi zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik nazariyasi: monografiya // mas’ul muharrir: y.f.d., prof. Q.R. Abdurasulova. – T.: TDYI, 2011. – 198 b.

13. Kriminologiya (umumiy qism): darslik / S.S. Niyozova, N.S. Salayev. – T.: TDYU nashriyoti, 2023-y. -228b.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. http ://www .tsul .uz

2. http://www.lex.uz

3. http://www.public.sud.uz

MUNDARIJA

KIRISH 3
I BOB. KRIMINOLOGIYA TUSHUNCHASI, PREDMETI VA TIZIMI 4
1.1. Kriminologiya tushunchasi va predmeti. 4
1.2. Kriminologiya tizimi 7
1.3. Kriminologiyaning maqsadi 9
1.4. Kriminologiyaning huquqiy fanlar bilan aloqadorligi. 12
1.5. Kriminologik fanlar metodologiyasini nazariy jihatlarini tahlil etish. 14
Nazorat uchun savollar 26
II BOB. JINOYATCHILK TUSHUNCHASI, UNING ASOSIY TAVSIFLARI VA TURLARI 27
2.1. Jinoyatchilik ko‘rsatkichlari, tarkibi, tuzilishi. 29
2.2. Latent jinoyatchilik va uning turlari 34
2.3. Jinoyatchilikning sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini tahlil qilish. 36
2.4. Jinoyatchilik darajasi va dinamikasini tushuntiring. 38
Nazorat uchun savollar 39
III BOB. JINOYATCHILIK SABABLARI 40
3.1. Jinoyatchilik sabablarining tushunchasi va uni vujudga kelishi. 40
3.2. Determinatsiyaning turlari. 45
3.3. Jinoyatchilik sabablarini tasniflash 50
Nazorat uchun savollar 55
IV BOB. JINOYATCHI SHAXSI TUSHUNCHASI, UNING TUZILISHI VA KRIMINOLOGIK TAVSIFI 56
4.1. Jinoyatchi shaxs tushunchasi va uning belgilari. 56
4.2. Jinoyat subyekti shaxsini o‘rganish. 62
4.3. Ijtimoiy-demografik tavsif. Ma’naviy-ruhiy tavsif. 65
Nazorat uchun savollar 67
V BOB. JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH TUSHUNCHASI VA SUB’EKTLARI 68
5.1. Jinoyatchilikning umumiy oldini olish. 68
5.2. Jinoyatchilikning maxsus oldini olish choralari. 69
5.3. Individual profilaktika faoliyati. 77
Nazorat uchun savollar 85

VI BOB. RETSIDIV JINOYATCHILIKNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA UNING OLDINI OLISH. UYUSHGAN JINOYATCHILIK VA UNING OLDINI OLISH 86
6.1. Retsidiv jinoyatchilik tushunchasi, turlari va tavsifi 86
6.2. Qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida yangi jinoyat sodir etish..... 91
6.3. Statistik tahlillar, retsidiv jinoyatchilik 108
Nazorat savollari 115
VII BOB. OILA DOIRASIDA SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI. VOYAGA YETMAGANLAR VA YOSHLAR JINOYATCHILIGINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI 116
7.1. Oiladagi jinoyatlar 116
7.2. Farzandkushlikning kriminologik tavsifi 119
7.3. Oilaga qarshi jinoyatlar 122
7.4. Oiladagi jinoyatlarning oldini olish..... 126
7.5. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining holati 130
7.6. Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabab va shart-sharoitlar 132
7.7. Voyaga yetmagan jinoyatchining shaxsi 136
Nazorat savollari 145
VIII BOB. AYOLLAR JINOYATCHILIGINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI. ZO‘RLIK ISHLATIB SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI VA ULARNING OLDINI OLISH 146
8.1. Jinoyatchilikni jinsiy belgiga ko‘ra farqlash. 146
8.2. Ayollar jinoyatchiligining o‘zgarish xususiyatlari. 147
8.3. Siyosiy va iqtisodiy hayotdagi tangliklar. 148
Nazorat savollari 155
IX BOB. QASDDAN ODAM O‘LDIRISH JINOYATLARINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI. IQTISODIYOT SOHASIDAGI JINOYATCHILIKNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI VA UNINGH OLDINI OLISH. 156
9.1. Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o‘ldirish 156
9.2.Homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolni qasddan o‘ldirish 163

9.3. Qasddan o‘ldirish o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini qasddan o‘ldirish 169
X BOB. KRIMINALISTIKA FANI, UNING VAZIFALARI, TIZIMI, YURIDIK VA BOSHQA FANLAR BILAN ALOQALARI. KRIMINALISTIKA METODLARI 200
10.Kriminalistika fani va uning vazifalari, tizimi, metodlari 200
10.2. Kriminalistika fanining huquqiy va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi 206
10.3. Kriminalistikada qo‘llaniladigan metodlarning tasnifi 209
Nazorat savollari 217
XI BOB. KRIMINALISTIK IDENTIFIKATSIYA. KRIMINALISTIK TEXNIKANING UMUMIY QOIDALARI. 218
11.1. Identifikatsiya obyektlarining tasnifi. Identifikatsiyaviy tadqiqot jarayoni 218
11.2. Kriminalistik identifikatsiya prinsiplari 222
11.3. Identifikatsiya obyektlarining tasnifi 225
11.4. Kriminalistik diagnostika 234
11.5. Kriminalistik texnika tushunchasi va uning vazifalari 238
Nazorat savollari 253
XII BOB. SUD FOTOGRAFIYASI VA VIDEO TASVIR YOZUVI 254
12.1. Kriminalistik fotografiya tushunchasi, uning qo‘llanish shakllari . 254
12.2. Kriminalistik fotografiya metodlari 257
12.3. Sud videotasvir yozuvi 267
12.4. Suratga va videotasvirga tushirish natijalarini protsessual rasmiylashtirish 269
Nazorat savollari 272
XIII BOB. KRIMINALISTIK BALLISTIKA. KRIMINALISTIK TRASOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING ILMIY ASOSLARI. 273
13.1. Kriminalistik trasologiya. 273
13.2. Kriminalistik ballistika. 300
Nazorat savollari 310

XIV BOB. HUJJATLAMI TEXNIKAVIY JIHATDAN TEKSHIRISH TUSHUNCHASI, VAZIFALARİ VA TEKSHIRISH TURLARI. 311
14.1. Hujjatlarning qo‘lyozma matnlarini kriminalistik usulda tekshirish. 311
14.2. Kriminalistik xatshunoslik tushunchasi. 313
14.3. Xatshunoslik tekshiruvining uslubiy yondashuvi hamda kriminalistik mualliflik tekshiruvi. 320
14.4. Dastxatning identifikatsiyaviy belgilari va muallifshunoslik tekshiruvini o‘tkazish uchun material tayyorlash. 325
Nazorat savollari 339
XV BOB. KRIMINALISTIK TAKTIKANING UMUMIY QOIDALARI. KRIMINALISTIK TAKTIKA TUSHUNCHASI VA VAZIFASI 340
15.1. Kriminalistik taktikaning umumiy qoidalari, tushunchasi va uning vazifasi 340
15.2. Kriminalistik taktika tizimi 342
15.3. Kriminalistik taktikaning umumiy tamoyillari. 346
Nazorat savollari 350
XVI BOB. TERGOVNI REJALASHTIRISH VA TASHKIL ETISH. TERGOVNI REJALASHTIRISH TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI 351
16.1. Tergovni oldindan rejalashtirish 351
16.2. Tergovni rejalashtirish va tashkil etish – ta’riflari hamda asosiy vazifalari 358
16.3. Rejalashtirish prinsiplari va uning turlari; rejalashtirish hujjatlari 361
Tahlil uchun savollar (imtiyozli nazorat va muhokama uchun) 365
XVII BOB. TERGOV EKSPERIMENTINI O‘TKAZISH TAKTIKASI. EKSPERIMENT TUSHUNCHASI VA UNING VAZIFALARI. TERGOV EKSPERIMENTI O‘TKAZISHNING PROSESSUAL TARTIBI. KO'RSATUVLARNI HODISA JOYIDA TEKSHIRISH TAKTIKASI. KO‘RSATUVLARNI HODISA JOYIDA TEKSHIRISH TUSHUNCHASI VA VAZIFALARI..... 366
17.1. Tergov eksperimentini o‘tkazish taktikasi 366
17.2. Tergov eksperimenti vazifalari. 368
17.3. Tergov eksperimenti o‘tkazishning protsessual tartibi. 371

Nazorat savollari 398
XVIII BOB. TINTUV VA OLIB QO‘YISH TAKTIKASI. TINTUV VA OLIB QO‘YISH TUSHUNCHASI. SO‘ROQ O‘TKAZISH TAKTIKASI. SO‘ROQ O‘TKAZISHNING TUSHUNCHASI VA VAZIFALARI. 400
18.1. So‘roq tushunchasi va ko‘rsatuvlarning psixologik asoslari. 400
18.2. Jabrlanuvchi va guvohlarni so‘roq qilish taktikasi. 430
18.3. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni so‘roq qilish taktikasi 444
Nazorat savollari 478
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RO‘YXATGA OLINGAN JINOYATLAR SONI 480
TEST SAVOLLARI 491
GLOSSARIY 513
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR 525

X.T.MAMATOV

KRIMINOLOGIYA VA KRIMINALISTIKA FANIDAN O‘QUV QO‘LLANMA

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: N. Ergashev

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2025-yil 29-senabrdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (2-sonli majlis bayoni, Ro‘xatga olish raqami 293-29/09).

“BUNYODKOR AVLOD MATBUOTI” MChJ nashriyoti,
Samarqand - 2026

7942

ISBN: 978-9910-5268-6-2

Tasdiqnoma № 3278 (13.12.2021)
Nashrga ruxsat etildi: 26.05. 2026 y.
© “BUNYODKOR AVLOD MATBUOTI” MChJ nashriyoti.

2026 yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 33.37
Buyurtma № 0112A/26. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.